

O. MURTAZAYEV, F. B. AHROROV

QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI



O. MURTAZAYEV, F.B. AHROROV

QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI

*Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan
qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan.*

UO'K: 63 : 338 (075.8)
KBK 65.32 (50')
Q-51


333
M 88

Ushbu darslikda iqtisodiyotning umumiy masalalari, tovar-pul munosabatlari, mulkchilik, xususan, xususiy mulkchilik, uning shakllanishi, imkoniyatlar salohiyati, ularni baholash va oqilona foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligining umumiy masalalari, investitsiya va kapital qo'yilmalar, shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyotining dolzarb muammolarini o'rganish xususiyatlari va tarmoq oldida turgan vazifalar to'liq yoritilgan.

Darslikda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida iqtisodiyot, boshqarish, moliya, buxgalteriya hisobi, audit hamda dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi ilg'or texnologiyalar bayon etilgan bo'lib, agronom, zootexnik, agrar sohani mexanizatsiyalash bo'yicha muhandislar, yer tuzuvchi mutaxassislar tayyorlovchi o'quv yurtlarida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Shuningdek, magistrlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, ilmiy xodimlar, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlari, mutaxassislari uchun ham foydadan xoli emas.

Taqrizchilar: **A.I. ALIQULOV** — Samarqand qishloq xo'jaligi instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari doktori; **M.Q. PARDAYEV** — Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisod fanlari doktori.

ISBN 978-9943-16-402-4



© O. Murtaziyev va boshq., 2005-y.
© O. Murtaziyev va boshq., 2017-y.
«ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2017-y.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti tarixida ijtimoiy ishlab chiqarish, shu jumladan, tovar-pul munosabatlari alohida o'rin tutadi. Bu jarayon jahondagi turli mamlakatlarda o'ziga xos, o'ziga mos ravishda amalga oshiriladi. O'zbekistonda bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari mamlakatning taraqqiyot darajasi, urf-odatlarini, madaniy va ma'naviy merosini, mentalitetini va hokazolarni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, shu jumladan, qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarining shakllanishida islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, uning nazariy asoslari, amalga oshirish xususiyatlari O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida, farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarda bayon etilgan.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi, «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish», «Yer to'g'risida»gi, «Mehnat to'g'risida»gi, «Soliq to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonun va kodekslarda hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarida va boshqa hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan.

Bozor munosabatlari tizimini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan barcha turdagi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy hamda moliyaviy resurslar shartnoma asosida erkin bahoda xarid qilish masalalari ijobiy hal qilinishi, past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklari faoliyatida misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y berayotgan davrda, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda. Bu esa shubhasiz o'quvchilar va mutaxassislarining bilimini oshirish kabi dolzarb vazifalarni hal qilishni taqozo qiladi.

Bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish samaradorligini oshirish bilan birga ma'lum kamchiliklarga ham yo'l qo'yilmoqda. Bu tasodifiy holat emas, albatta. Keng ma'noda bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning barqaror samaradorligini ta'minlash ma'lum davrni talab etadi. Shu maqsadda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirildi.

Hozirgi davrda bosh vazifa bozor iqtisodiyoti qonunlari, mexanizmlari, kategoriyalari talablarini hisobga olgan holda ko'proq, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda sotish, ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini, shu jumladan, mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni pasaytirish, sotish baholarini takomillashtirish, xarajatlar rentabelligini oshirish imkoniyatlarini qidirib topgan holda ulardan oqilona foydalanish hisoblanadi. Bu vazifa har bir xo'jalik rahbari va mutaxassisining dolzarb vazifasidir.

Ushbu darslik bakalavr, magistr, agrosanoat majmuyi rahbar va mutaxassislari uchun mo'ljallab yozilgani uchun ba'zi kamchiliklardan xoli emas, deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham ushbu darslik yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirganlarga o'z minnatdorchiligimizni oldindan izhor qilamiz.

Bizning manzil: Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. E-mail: olimmurtazaev@gmail.com; fahrorov@yahoo.com

1-hob.

«QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, O‘RGANISH USHLUBLARI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1. Fanning predmeti va vazifalari. O‘rganish ushlublari

Iqtisodiyot keng ma’noda ishlab chiqarish jarayonida kishilar ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlarning yig‘indisidir. Bu munosabatlar obyektiv qonun va qonuniyatlarga bog‘liq. Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ijtimoiy ishlab chiqarish qonunlari va moddiy boyliklarni taqsimlashni iqtisodiy nazariya o‘rganadi. U kishilar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni o‘rganib, iqtisodiyot tarmoqlarida qonunlarning turli-tuman xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanmaydi va o‘z oldiga shug‘ullanishni vazifa qilib qo‘ymaydi.

«Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti» fani boshqa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti»ning nazariy va uslubiy jihatdan bazasi xuddi boshqa tarmoq fanlari kabi iqtisodiy nazariya hisoblanadi. «Iqtisodiy nazariya» ishlab chiqarish munosabatlarini va ularning iqtisodiy qonunlarda aks etishini, shuningdek, bu qonunlardan amalda foydalanishni o‘rganadi. «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti» ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanish turlarini, iqtisodiy qonunlarning harakat qilish mexanizmini, ularning namoyon bo‘lish shakllarini va shu tarmoqda aniq sharoitda ulardan foydalanishni ochib beradi.

«Iqtisodiy nazariya» bilan «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti» o‘rtasida ishlab chiqaruvchi kuchlarni o‘rganish borasida farq bor. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida iqtisodiy qonuniyatlarning umumiy ko‘rinish xususiyatlari bilan tarmoq iqtisodiy fanlari — sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, savdo, kommunal-xo‘jalik iqtisodiyoti va boshqalar shug‘ullanadi. Iqtisodiy fanlarning bunday tabaqalanishi ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi bilan bog‘langan. «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti» fanining fan sifatida ajralishi ham moddiy ishlab chiqarishning asosiy sohasi hisoblangan qishloq xo‘jaligining ajralishi bilan bog‘langan.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» shunday fanki, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar harakati va ularning ko'rinish shakllarini o'rganadi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni undagi xususiyatlarni hisobga olgan holda tekshiradi, ya'ni mavjud shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari, agrosanoat kombinatlari, agrofirmalar, ijara jamoalarining rivojlanishini nazariy jihatdan umumlashtiradi.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani quyidagi aralash fanlarning o'rgatish uslubiyotlaridan foydalanadi:

1. Agrobiznesni tashkil qilish va rejalashtirish;
2. Iqtisodiy geografiya;
3. Qishloq xo'jaligi statistikasi;
4. Buxgalteriya hisobi;
5. Iqtisodiy kibernetika;
6. Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining tahlili;
7. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari texnologiyasini iqtisodiy baholash va boshqalar.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» — tarixiy fan. U jamiyat rivojlanishi va o'zgarishidagi qonuniyatlarni, ularning ko'rinish shakllarini o'rganadi. Voqea va hodisalarni birgalikda, o'zaro aloqadorlikda, sabab-oqibatda aks ettiruvchi tushunchalar — iqtisodiy qonunlarga tayangan holda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti aniq sharoitda ularning harakatini ochib beradi. Xo'jalik sharoitida ulardan foydalanish, ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini ishlab chiqadi. Qishloq xo'jaligida butun iqtisodiyot tarmoqlari singari quyidagi qonunlar tizimi harakat qiladi:

1. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish;
2. Jamg'arish;
3. Qiymat, talab va taklif qonunlari;
4. Mehnat unumdorligining o'sib borishi va boshqalar.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti shuki, u kishilarning ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o'zaro aloqadorligida va o'zaro bog'liqligida o'rganadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar tabiiy va texnologik fanlarning o'rganish predmeti hisoblanadi. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» ishlab chiqarish munosabatlarini o'rgana borib, ishlab chiqaruvchi kuchlardagi o'zgarishlarni ham aks ettiradi. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti»ning muhim vazifasi loyihadagi va qo'llaniladigan

mashina, agrotexnika, meliorativ va boshqa tadbirlarning samaradorligini aniqlash hisoblanadi. Shu bilan birga iqtisodiyotning tabiiy va texnologik fanlar bilan aloqasi oʻrnatiladi. Shunday qilib, «Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti» fani qishloq xoʻjaligi tarmogʻida ishlab chiqarish munosabatlarini moddiy ishlab chiqarishning boshqa sohalari bilan aloqadorligida oʻrganadi. Bunda tabiiy texnik va boshqa aralash fanlar tadqiqotlari natijasiga tayaniladi.

«Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti» fanining asosida materialistik dialektika yotadi. Shu bois, borliqni bilish usullari fanning asosiy uslubiyotini tashkil qiladi. Bu usul hodisalarni bir-biridan ajratmasdan, ularni bir-biriga bogʻlab oʻrganadi. U hodisalarni toʻxtovsiz harakatda, oʻzgarishda, yangilanishda va rivojlanishda, shuningdek, miqdor oʻzgarishlardan sifat oʻzgarishlariga aylanishida oʻrganadi. Quyidan yuqoriga harakatini, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi nuqtayi nazaridan oʻrganadi. Bundan tashqari, iqtisodiy materiallarni oʻrganishda iqtisodiy tadqiqotlarning turli usullaridan foydalanadi.

Eng koʻp qoʻllaniladigan usullarga statistik, analitik, korrelyatsiya, dispersiya, regressiya, indeks va boshqalar kiradi. Undan keyingisi iqtisodiy-matematik uslublar — simpleks, ishlab chiqarish deduksiyasi, ikki yoqlama baholash, taqsimot va boshqalar hisoblanadi. Alohida ijtimoiy hodisalarni, ilgʻor tajribalarni oʻrganishda monografiya usuli qoʻllaniladi. Turli tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini asoslashda eksperimental usuldan foydalaniladi. Bundan tashqari, analiz va sintez, xronometraj, tanlab tekshirish, anketa soʻrogʻi kabi usullar ham joriy etilgan.

1.2. Qishloq xoʻjaligi — aholining oziq-ovqat mahsulotlari va isteʼmol buyumlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish asosi.

Uni rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari

Qishloq xoʻjaligi agrosanoat majmuyining yuragi hisoblanib, mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmogʻidir. U mamlakat aholisi uchun hech bir narsa bilan almashtirib boʻlmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy manbasi hisoblanadi. Dunyo ahli sintetik yoʻl bilan yogʻ, oqsil va uglevodlarni sintez qilish hisobiga yangi oziqa resurslarini izlash bilan band. Lekin bu mahsulotlar qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining oʻrnini egallay olmaydi.

Shunday qilib, qishloq xoʻjaligining hayotiy muhimligi quyidagilarda aniqlanadi:

• *birinchi*dan, u aholini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, usiz kishilarning ma'naviy hayoti va moddiy ishlab chiqarish amalga oshmaydi. Lekin davlat tomonidan qabul qilinayotgan choratadbirlarga qaramay, o'tgan asrning 80-yillarida moddiy ishlab chiqarishning yetakchi sohasi hisoblangan qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari birmuncha pasaydi, aholining oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, uning tizimini takomillashtirish kutilgan natijalarni bermadi.

Lekin, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, yildan yilga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'ati oshib bormoqda. 2012-yilga kelib respublikamizda 518,9 mlrd so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan;

• *ikkinchi*dan, qishloq xo'jaligi yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xomashyoning asosiy qismini beradi, ya'ni bu tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi. Qishloq xo'jaligining mavjud imkoniyatlaridan foydalanish darajasi va samaradorligini oshirish sanoatning ushbu tarmoqlarida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni belgilab beradi. Jumladan, to'qimachilik sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 40 % ini, qand sanoatida — 70 % ini, sut va yog' mahsulotlari ishlab chiqarishda 80 % ga yaqinini qishloq xo'jaligi xomashyosi tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda mamlakat xalq iste'moli fondining 3/4 qismi bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki qishloq xo'jaligi xomashyosidan ishlab chiqarilgan mahsulotlardan iborat. 2012-yilga kelib 6513,1 mlrd so'mlik oziq-ovqat va 1653,6 mlrd so'mlik yengil sanoat tovarlari ishlab chiqarilgan;

• *uchinchi*dan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mamlakat og'ir sanoatining rivojlanish sur'atiga va rivojlanish darajasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi yirik miqdorda ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qilgan holda traktor, meliorativ va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati, ayniqsa, mineral o'g'it ishlab chiqarishga faol ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ketadigan material xarajatlarning asosiy qismini sanoat yetkazib beradigan ishlab chiqarish vositalari (yoqilg'i-moylash materiallari, zaxira qismlar, mineral o'g'it, omuxta yem, asosiy vositalar amortizatsiyasi va boshq.) tashkil qiladi. 2012-yilga kelib 3099,2 mlrd so'mlik yoqilg'i, 1173,4 mlrd so'mlik elektr

energiyasi, 424,2 mlrd soʻmlik kimyo va neft-kimyo sanoati, 1091,9 mlrd soʻmlik mashinasozlik va metallga ishlov berish mahsulotlari ishlab chiqarilgan;

• *toʻrtinchidan*, qishloq xoʻjaligi mehnat resurslarini safarbar qilish sohasi sifatida katta ahamiyatga ega. Bu tarmoqda 2012-yilda 3,3 mln kishi band boʻlib, bu xalq xoʻjaligi faol xodimlarining 26,7 % ini tashkil etadi. Har yili qishloq xoʻjaligi oʻz xodimlarining bir qismini boshqa tarmoqlarga oʻtkazib, iqtisodiyotning bu tarmoqlarida ish kuchini takror ishlab chiqarishga katta hissa qoʻshadi;

• *beshinchidan*, qishloq xoʻjaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli yana shu bilan aniqlanadiki, u umumxalq masalalarini hal qilish uchun zarur boʻlgan jamgʻarishning muhim manbayi hisoblanadi. Bu tarmoqda mamlakat xalq xoʻjaligida tashkil topgan qoʻshilgan qiymatning 30 % ga yaqini yaratiladi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va ulardan qayta ishlangan tovarlarni sotishdan jami valuta tushumining 40—50 % tashkil topadi. 2012-yilda birgina paxta tolasi eksportidan 1259,7 mln va oziq-ovqat mahsulotlari eksportidan 877,2 mln AQSH dollarilik tushum kelgan.

Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi xalq xoʻjaligining boshqa tarmoqlaridan farq qiladigan oʻziga xos xarakterdagi xususiyatlar ham mavjud: *qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining birinchi xususiyati shundan iboratki*, yaʼni tarmoqda yer-suv resurslari, oʻsimlik va tabiiy hayvonot dunyosi, tirik organizmlar, biologik mehnat vositalaridan foydalaniladi. Bu yerda ishlab chiqarish jarayoni obyektiv sharoitlarga, tirik organizmlarning rivojlanishi va oʻzgarish tezligiga bogʻliq. Ushbu shart-sharoitlardan foydalanish dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilgʻor shakllari hamda xodimlarga haq toʻlashni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining ikkinchi xususiyati shundan iboratki, tarmoqda asosiy ishlab chiqarish vositasi yer resurslari hisoblanadi. Agar sanoatda (qazilma sanoatidan tashqari) yer korxonalarini joylashtirish uchun makon boʻlib xizmat qiladigan boʻlsa, qishloq xoʻjaligida esa u bevosita va almashtirib boʻlmaydigan ishlab chiqarish vositasidir. Mehnat jarayoni va mahsulot ishlab chiqarish qishloq xoʻjaligida bevosita yer bilan, uning sifati, undan foydalanish bilan bogʻliq. Ishlab chiqarish katta yer maydonlarida agregatlar yordamida amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida suv hamda energetik resurslarga talab juda yuqori.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining uchinchi xususiyati yuqorida keltirilgan ikki xususiyatdan kelib chiqadi. Unda takror ishlab chiqarish iqtisodiy jarayoni tabiat bilan chambarchas bog'langan, mahsulot ishlab chiqarish biologik davr bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining to'rtinchi xususiyati tuproq-iqlim sharoitiga bog'liqligidir. Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi yillar bo'yicha iqlim sharoitiga qarab, ob-havoga qarab o'zgarib turadi, bu esa, o'z navbatida, chorvachilikning rivojlanishiga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, ko'pgina qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xarajatlarga teng natija olinmaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining beshinchi xususiyati shuki, bu tarmoqda suv resurslaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining oltinchi xususiyati shuki, bu yerda ish vaqti bilan ishlab chiqarish davri mos kelmaydi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish davrida ish vaqti uzoq davom etadi. Bu shu bilan xarakterlanadiki, biologik jarayon bevosita kishilarning ishtirokisiz ham davom etaveradi. Masalan, kuzgi ekinlardan, bug'doy yetishtirish uchun 200—230 kun talab qilinadi, ish vaqti esa 25—30 kunni tashkil qiladi, xolos. Nobop ob-havo bo'lsa, ish vaqti shuncha qisqa bo'ladi. Mablag' va mehnat ham shunga qarab sarflanadi. Ishlab chiqarish davri bilan ish vaqtining mos kelmasligi qishloq xo'jaligida ishlarning mavsumiyligini keltirib chiqaradi. Sanoatning ko'pgina tarmoqlarida esa mehnat sarflanishi to'xtovsiz amalga oshirilib, mavsumiylikni kamaytiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yettinchi xususiyati shuki, bu tarmoq o'zining rivojlanishi jarayonida tabiiy va iqtisodiy sharoitlariga qarab o'zaro texnologik bog'liq bir necha tarmoqdagi ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Sanoatda esa korxonalar ma'lum bir mahsulotning alohida qismini ishlab chiqarishga moslashadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sakkizinchi xususiyati shuki, bu yerda tayyor mahsulot (yalpi mahsulot 20 %)ning bir qismi kelgusi davr ishlab chiqarishiga, ishlab chiqarish vositasi (urug', yem-xashak, buzoq va h.k.)ga kiradi. Shu va boshqa sabablarga ko'ra, asosiy va aylanma vositalardan to'liq foydalanish

miqimmatlari vujudga kelib, ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovarlilik darajasi sanoatga nisbatan pasayadi.

Qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivojlanishi bo'yicha turli xil qarashlar mavjud. Hammaga ma'lumki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda mamlakat qishloq xo'jaligi tarmoqlari chuqur inqirozga uchragan edi. Bu, eng avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari sifatining pasayishida va uning yetishmasligida, ishlab chiqarishning turg'unligi va serxarajatligida, qishloq aholisi turmush sharoitining barqaror tashkil topmayotganligida namoyon edi. Ayrim mahsulotlarning iste'mol balansida asosiy salmoqni chetdan olinadigan mahsulot tashkil qilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining resurs salohiyatidan foydalanishi samarasiz va atrof-muhit uchun zararli bo'lib keldi. Ko'p tumanlarda tuproqdagi gumus miqdori 30—40 % ga pasaygan, uning sho'rlanish darajasi kuchaygan. Xarajatlarning rentabelligi ham xorijiy mamlakatlarga nisbatan keskin pasayib ketdi.

Qishloq xo'jaligining uzoq yillar davomida bunday turg'unligi va inqirozining sabablari quyidagilar edi:

1. Dehqonlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy kamsitilishi;
2. Xodimlarning yer va boshqa ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotlaridan uzoqlashishi, mulkka egalikning past darajada tashkil topishi;
3. Direktiv rejalashtirish va baholarni belgilash, ma'muriy qo'mondonlik tizimining davom etishi;
4. Chegaralangan moddiy-texnika ta'minoti va moliyalashtirish, qayta ishlovchi sanoatda moddiy texnika va texnologiyaning orqada qolishi;
5. Fanning rolini to'g'ri baholamaslik, fan-texnika taraqqiyotidan foydalanishning pastligi.

O'tgan asrning 90-yillariga kelib, qishloq xo'jaligini inqirozdan chiqarishning asosiy yo'llari aniqlangan bo'lib, hozirgi kunda ularning ko'pchiligi amalga oshmoqda. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *Iqtisodiy munosabatlarni qayta qurishning muhim qismi sifatida yer islohotini asta-sekin amalga oshirish.* Yer islohotining ma'nosi — yerga bo'lgan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va mulkning turli-tuman shakllaridan foydalanish. Mamlakatda mustaqillik yillarida yer islohoti amalga oshirildi. Unga binoan

yerni foydalanishning turli tuman shakllari qaror topdi, ya'ni dastlabki agrar tadbirlardan biri bu aholiga tomorqa berish to'g'risidagi qaror bo'lib, bunda yerni qishloq aholisiga berish va uha oqabi mahsulotlarni ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar edi. Bu 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yer to'g'risida»gi Qonunida aks ettirilgan edi.

Keyinchalik ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotib, uning asosida Yer kodeksi qabul qilindi. Yer kodeksida¹ yer bilan bog'liq barcha huquqiy munosabatlar o'z aksini topdi. Yer fondi, yer tuzish, undan foydalanish, tarmoqlar bo'yicha foydalanish tartibi, uning muhofazasi va boshqa masalalar o'z aksini topgan ushbu kodeks 1998-yil 1-iyuldan beri amalda hamda so'nggi marta 2011-yilda o'zgarish kiritilgan. Uning 1-moddasida «Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi» deb yozib qo'yilgan.

Yer to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrda «O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida»gi 496-qarori, 2003-yil 5-noyabrda «Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 486-qarori va boshqalarni kiritish mumkin.

2. *Qishloqda taqsimot munosabatlarini o'zgartirish.* Mulkni xususiylashtirishning ahamiyatini kamaytirmagan holda yer va boshqa ishlab chiqarish vositalariga xo'jayinlik hissini uyg'otib, ular tomonidan yaratilgan mahsulotlarga o'zlarining egalik qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qanday mulk shakli bo'lishidan qat'i nazar, arzon mehnat unumli bo'lishi mumkin emas. Mamlakatimizda mulkdorlar qatlamini vujudga keltirishni tezlashtirish uchun «Mulk to'g'risida»gi, «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi va boshqa qonunlar qabul qilindi. 2003—2012-yillar mobaynida respublikada

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. T., 2011, № 1—2, 1-modda.

siyosiy lashtirilgan korxonalar va obyektlar soni 1519 tadan 83 tagacha kamayib borgan. Bu, albatta, yildan yilga bu jarayon iqtisodiyotning turli sohalarida davom etayotganligidan dalolat beradi.

3. *Mulk va xo'jalik yuritishning yangi shakllarini qo'llab-quvvatlash.* Agrar sektorning kelajagida bir-biri bilan raqobatda bo'ladigan, o'zaro harakat qiladigan, bir-birini to'ldiradigan yirik, o'rtacha va mayda korxonalarini ko'rish mumkin. Korxonalarining turli o'lchamlari xo'jalik yuritishning turli shakllariga moslashib ketadi. Asosan, dehqon va fermer xo'jaliklari rivojlanishi kengayadi.

Shu sababli, respublika iqtisodiyotida, jumladan, qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlar qabul qilindi. 2012-yilga kelib respublikada 70,8 ming fermer xo'jaliklari, 3,7 mln dehqon xo'jaliklari faoliyat olib borgan bo'lib, ular mos ravishda — 8377,2 mlrd va 15474,2 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqargan.

4. *Turli xo'jaliklarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xo'jalik yuritishning mavjud shakllarini o'zgartirish, ularni demokratik asosda ijara, shirkat (kooperativ) va aksiyador korxonalariga aylantirish, bunda birlamchi mehnat jamoalariga va alohida har bir jamoa a'zosiga mustaqillikni oshirish.*

Haqiqatda mustaqillik yillarida O'zbekistonda mulkning va xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari barpo etildi, jumladan, davlat, kooperativ, shaxsiy-xususiy va aralash kabi mulkchilikning 10 dan ortiq xo'jalik yuritish shakllari vujudga keldi.

5. *Xo'jalik yuritishning bozor mexanizmidan foydalanishga o'tish; mahsulot bozori, ishlab chiqarish vositalari bozori, shu jumladan, yer, ish kuchi va qimmatli qog'ozlar bozori.* Bunda korxonalar darajasida gorizontalar, to'g'ri shartnoma munosabatlari rivojlanadi. Davlat darajasida boshqarishning iqtisodiy dastaklarini (banklar, soliqlar, subsidiya, kredit berish shartlari) tavsiflaydigan ko'rsatkichlarning saqlanib qolishiga va dasturli yondashishga olib keladi. Asta-sekin mahsulotlar talab va taklif asosida erkin sotila boshlaydi. Mahsulotlarni markazdan taqsimlash qisqaradi.

Mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi, jumladan, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtirish xarajatlarini

moliyaviy yordam; qishloq xo'jaligida soliq imtiyozlarining berilishi; imkonidagi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga moliyaviy yordam; irrigatsiya va melioratsiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabilar.

6. *Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekologizatsiya qilish va resurslarni tejash.* Bu yerda biotexnologiya, tuproqni himoya qiladigan texnologiya, o'simliklarni himoya qilishning yaxlitlangan usullari, qayta ishlashda chiqitsiz texnologiya va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

7. *Fanning roli va uning ishlab chiqarishga ta'sirini kuchaytirish.* U barcha resurslarni yirik majmualarga to'plash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Birinci bosqichda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yo'qolishini maksimal qisqartirishga barcha resurslarni jalb qilish va buning hisobiga yalpi ishlab chiqarish sur'atini o'stirish vazifasi qo'yilgan. Ikkinchi bosqichda, ishlab chiqarishni o'stirish, qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, ilg'or xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirish va bozor mexanizmidan foydalanish hisobiga aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish ta'minlanadi. Uchinchi bosqichda, aholining barcha oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan to'lov qobiliyatini to'la qondirish, biologik jihatdan to'laqonli oziq-ovqatning keng assortimentini ishlab chiqarish uchun baza yaratish masalalari qo'yiladi. Hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar o'z ichiga qishloqni ijtimoiy yangilashning keng jabhasini oladi, ya'ni qishloq aholisining mehnat va yashash sharoitini yaxshilash, aholining kam daromadli guruhi uchun ijtimoiy tovon to'lash va h.k.

Respublikamizda paxta va don ekinlariga davlat buyurtmasi o'rnatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 31-dekabrda Farmoniga muvofiq, fermer xo'jaliklari davlat buyurtmasi hajmidagi yetishtirayotgan mahsulot qiymatining 50 % miqdorida Moliya vazirligining «Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi» mablag'lari hisobidan avans puli (transh) olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Buning ijobiy tomoni shundaki, fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni yuqori foiz stavkalarida tijorat banklaridan qarzga olishga majbur bo'lishmaydi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish borasida mustahkam huquqiy-me'yoriy asos yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, Soliq kodeksi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Shirkat xo'jaligi to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining turli jihatlarini tartibga solib turadi va ularning xo'jalik faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning aralashuviga yo'l qo'ymaydi. Davlat tadbirkorlarning erkinligi, huquqlarini himoya qiladi va ularning faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklab turadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish maqsadida fermer xo'jaliklarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning 29-moddasida «Davlat qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi», deb e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan tadbirkorlik subyektlarini, jumladan, fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning yengillashtirilgan tadbiri joriy etildi. Unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish «bir yo'la» tamoyili asosida, ularni avtomatik tarzda hisobga qo'yish bilan amalga oshiriladi. Qarorga muvofiq tuman hokimliklari tarkibida davlat ro'yxatiga olish bo'yicha maxsus xizmat tashkil etilgan bo'lib, uning xodimlari tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlarni tayyorlash, ularni yo'l fondi, mehnat, bandlik va ijtimoiy ta'minot bo'limi, soliq hamda statistika organlarida hisobga qo'yish ishlarini o'zlari amalga oshiradilar.

Fermer xo'jaligini yer ijrosi bilan bog'liq barcha hujjatlar tayyor bo'lgan taqdirda davlat ro'yxatiga olishning umumiy muddati (ichki ishlar bo'limidan muhr hamda burchak shtampini

tayyorlashga ruxsat olishni ham qo'shib hisoblaganda) 12 kundan oshmasligi lozimligi ko'rsatildi.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olishning yengillashtirilgan tartibi joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, qaror qabul qilingunga qadar fermer xo'jaligi tashkil etish istagida bo'lgan fuqarolarni ro'yxatga olish ishlari asossiz ravishda, turli ma'muriyatchilik va sansolarlik tufayli cho'zib yuborilar edi.

Fermer xo'jaliklari qonunda belgilab berilgan tartibda hisob va hisobot ishlarini yuritadilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-fevraldagi «Kichik biznes korxonalarining hisobot berishini qisqartirish va tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 65-qaroriga muvofiq 2000-yilning 1-choragidan fermer xo'jaliklari uchun maksimal qisqartirilgan va soddalashtirilgan hisob shakli hamda uni taqdim etish belgilab berilgan.

TAYANCH IBORALAR

Iqtisodiyot, ishlab chiqaruvchi kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari, materialistik dialektika, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy qonunlar, qonuniyatlar, ijtimoiy mehnat taqsimoti, moddiy ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish, jamg'arish, qiymat, mehnat.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligidagi ahamiyati qanday?
2. Qishloq xo'jaligining bozor iqtisodiyoti sharoitida respublika iqtisodiyotidagi roli qanday?
3. Fanning predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
4. Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlardan farq qiladigan tomonlari nimalardan iborat?

2-bob.

QISHLOQ XO'JALIGIDA TOVAR-PUL MUNOSABATLARI VA BOZOR

2.1. Tovar-pul munosabatlari va ularning qishloq xo'jaligida namoyon bo'lishi

Qishloq xo'jaligining bosh maqsadi faqatgina o'zining ehtiyojini qondirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish bo'lmay, balki sotish va sotib olish yo'li bilan ayirboshlash uchun tovar mahsuloti ishlab chiqarishdir. Har qanday tovar mahsuloti ishlab chiqarishning asosi bo'lgani kabi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ham asosini, ijtimoiy mehnat taqsimotining mavjudligi, ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning turli shakllari mavjudligi hamda ularni tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi (yakka shaxslar, korxonalar, birlashmalar) sifatida bir-biridan iqtisodiy alohidalik tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining o'zaro ishlab chiqarish va bozor orqali tovar mahsuloti ayirboshlashdagi munosabatlari ijtimoiy tovar munosabatlari, ishlab chiqarishning o'zi esa tovar ishlab chiqarish deyiladi.

Ma'lumki, tovarning o'rni, odamlarning u yoki bu buyumlashgan yoki ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi bilan belgilanadi. Agarda mahsulot, ishlab chiqaruvchi tomonidan faqat o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarilsa, unda bu mahsulot ishlab chiqaruvchining o'zi uchun iste'mol qiymat yaratilganligini bildiradi. Agarda mahsulot, ishlab chiqaruvchining o'ziga belgilangan bo'lmay, balki boshqa shaxsga mo'ljallangan bo'lsa, u tovarga aylanib, ijtimoiy iste'mol qiymatini yaratadi.

Tovarning insonlar biron-bir ehtiyojini qondira olishi xususiyatiga uning *iste'mol qiymati*, bir tovarning ikkinchi tovarga ayirboshlanishi xususiyatiga esa uning *almashuv qiymati* deyiladi. Iki tovar mahsulotining o'zaro ayirboshlanishi ularning biri-biri bilan tenglashishini bildiradi. Ammo bu tenglashuv yuzaga kelishi uchun tovarlarda obyektiv o'xshash xususiyatlar ayirboshlash jarayoni boshlangunga qadar mujassam bo'lishini taqozo etadi. Albatta, ayirboshlanadigan tovarlar iste'mol qiymati sifatida bir-

134 629 6

biridan farqlanadi, aks holda ularning ayirboshlash jarayoni o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Mahsulotning tovar bo'lishi va bozorda boshqa tovarlarga ayirboshlanishi uchun, u foydaliligidan tashqari (iste'mol qiymatidan) inson mehnatining mahsuli bo'lishi shart. Tovar har doim mehnat mahsulidir, ammo uning tovar bo'lishi uchun mahsulot bozorda sotilishi zarur. Bozordagi mahsulotlarning hammasiga umumiy bo'lgan xususiyat ularning qiymatidir, ya'ni uni ishlab chiqarishga sarf bo'lgan mehnatdir. Qiymat asosida, tovarlar o'lchovdosh hisoblanadi va ular ayirboshlanadi.

Rivojlangan tovar ishlab chiqarishi sharoitida ommaviy ayirboshlash ekvivalenti puldir. Bu alohida tovar bo'lib, har qanday boshqa tovar bilan ayirboshlash xususiyatiga ega. Bunday tovar munosabatlari, o'z navbatida, tovar-pul munosabatlari deyiladi.

Tovar-pul munosabatlari qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida va uning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va agrosanoat majmuyiga kiruvchi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tovar-pul shaklidagi munosabatlar asosida yuzaga keladi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlarining mahsulotlarini bozor orqali iste'molchilarga — tayyorlov, qayta ishlash, saqlash korxonasi va tashkilotlariga, bozordagi savdo-sotiq shirkatlariga, talab va taklifdan kelib chiqqan baholarda ayirboshlaydilar. Boshqa tomondan, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ulgurji savdo tizimlaridagi bozor orqali o'zlariga zarur bo'lgan moddiy resurslarni xarid qiladi. Tovar-pul munosabatlari xo'jalik yuritishning iqtisodiy uslublariga keng yo'l ochib, ishlab chiqaruvchilar mustaqil ish yuritishlarining rivojlanishiga va o'z mehnatlarining natijalariga javobgarligi hamda manfaatdorligining kengayishiga olib keladi.

Tovar-pul munosabatlarining asosida qiymat qonuni yotadi. Qiymat qonuni — tovar ishlab chiqarishning obyektiv iqtisodiy qonuni bo'lib, tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalarni, tovar ishlab chiqarish sharoitida ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag'batlantirishni boshqaradi. Bu qonunga muvofiq, tovarlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi.

Qiymatning miqdori esa ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlari bilan o'lchanadi. Uning o'lchov birligi ish vaqtidir. Bozordagi narx-navoning o'zgarib turishi qiymat qonunining boshqaruvchi mexanizmini tashkil etadi. Tovar narxi va qiymati qachonki, shu tovarga nisbatan talab va taklif mos kelgandagina mutanosib

bo'lishi. Ya'ni u yoki bu tovarni ishlab chiqarish — uni sotib olish imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Agarda shunday tenglik bo'lsa, u tovarning ko'payishiga ijobiy ta'sir etadi. Aksincha, tovar narxi uning qiymatidan kam bo'lsa, o'z xarajatini qoplamaydi va shu turdagi tovar mahsulotining kamayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tovar narxi uning qiymatiga mos kelmasligi tovar ishlab chiqaruvchilarning xohishiga muvofiq emas, balki qiymat qonuni ta'sirida tartibga solinadi. Narxlarning qiymatlarga yaqin doirada qayd etilishi qiymat qonuni ta'sirida namoyon bo'lishining yagona shakli va ijtimoiy ishlab chiqarishni tartibga soluvchi yagona mexanizmidir. Qiymat qonuni, o'z navbatida, ilmiy texnika taraqqiyotiga ta'sir etuvchi muhim omil hamdir. Bunda qiymat qonunining ta'siri raqobat muhitida yuzaga kelib, raqobatchi tovar ishlab chiqaruvchilar kurashini nisbatan takomillashgan va iqtisodiy tejimli texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etishning nisbatan samarali uslublarini joriy etganlar g'olib chiqishadi.

2.2. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi, uning ishlab chiqarish faoliyatidagi iqtisodiy mustaqilligi

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, boshqa moddiy ishlab chiqarishlar qatorida mamlakat umumiy tovar ishlab chiqarishining muhim qismi hisoblanadi. Bu — uning fermer va dehqon xo'jaliklari, ijara jamoalari va korxonalari, qishloq xo'jaligi kooperativlari, hissadorlik (aksiyadorlik) jamiyatlari (birlashmalari), davlat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari bozor iqtisodiyoti sharoitida bir bo'g'in sifatida — mahsuloti tovar bo'lgan, uning barcha xossalari va vazifalarini o'zida mujassam qilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi sifatida tan olinishini bildiradi. Mos ravishda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining mahsuloti tovar shaklida sotish-sotib olish orqali iste'molchiga tushadi. Turli xildagi mulkchilikka va ishlab chiqarishni yuritishning turli shakllarining rivojlanishiga bog'liq yo'l ochilgan davrda qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarining faqatgina bozorlarda ayirboshlanishining ahamiyati kattadir.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash va bozor iqtisodiyoti yo'lga o'tishining shartlari quyidagilardan iborat bo'lgan edi:

1. *Ishlab chiqarish jarayonini maksimal darajada erkin olib borishni ta'minlash.* Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy

samaradorligi asosida tovar ishlab chiqaruvchilarning erkinligi, o'z mulki va daromadlarini ko'paytirishga intiluvchanligi va shu yo'l bilan faqatgina o'z javobgarligiga tayanib, bozordagi narx-navoni, soliqlarni ko'zda tutgan holda faoliyat yuritishi yotadi. Tovar ishlab chiqaruvchi o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan ishlab chiqarish resurslaridan erkin foydalanishi, ishlab chiqarish dasturini o'zi aniqlashi, yetkazib beruvchi (ta'minotchi) va iste'molchilarni o'zi tanlashi, mahsulotlarga o'zi baho belgilashi, soliqlar to'lashdan keyin qoladigan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirishga va xo'jalik zaruriyatlariga sarflashda erkin bo'lmog'i lozim.

2. *Tovar ishlab chiqaruvchilarning xo'jalik faoliyati natijalari uchun to'liq iqtisodiy (moddiy) javobgarligi.* Mana shu javobgarlik qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining xo'jalik yuritish natijalaridan ishlab chiqarish resurslarini takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga imkoniyat yaratishini belgilaydi. Bunga ko'ra, ular o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash va qoplashni joriy etishlari hamda bu to'g'rida tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z faoliyatlari natijalaridan kelib chiqib, xo'jalik yuritish iqtisodiy samara beruvchi yagona yo'lligini ko'zda tutishlari lozim.

3. *Baholarning erkin hosil bo'lishi.* Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga baho bozorda, talab va taklifni muvofiqlashtirilib hosil bo'lishi kerak. O'tish davrida davlat tomonidan sotib olinadigan ayrim muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlariga baho davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi, qolganlariga kelishilgan va erkin narxlar asosida ayirboshlash joriy etiladi. Davlat boshqaruv idoralarining to'g'ridan to'g'ri tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish faoliyatiga aralashuvlariga barham berilishi kerak.

4. *Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat.* Bu baholarni barqarorlashtiruvchi, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiruvchi, iste'molchi talabiga mos mahsulot sifatini yaxshilaydigan, xo'jalik faolligini rag'batlantiruvchi muhim omildir.

5. *Davlat hokimiyatining tovar ishlab chiqaruvchilarning xo'jalik faoliyatiga aralashuvidan voz kechish.* Bunga davlatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan aralashuvi kirmaydi.

6. *Tovar ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlarining tengligi va tashqi iqtisodiy aloqalar tizimiga jalb etishni amalga oshira borish va tovar ishlab chiqaruvchilarni xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish huquqiga ega ekanligidir.*

Yuqorida keltirilgan shartlar hozir ham o'z kuchini va talabini saqlab qolgan bo'lib, ularni amalga oshirish orqaligina qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarish, ular ishlab chiqaruvchilarning harakatlarini faollashtirish va iqtisodiy natijalarini yuksaltirishi mumkin. Bu esa agrar sohaning rivojlanishida talabkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

2.3. Bozor tushunchasi va uning vazifasi.

Bozor infratuzilmasi

Tovar-pul munosabatlarining markaziy unsurlaridan biri bozordir. Bozor — sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi tovarni pulga ayirboshlash munosabati bo'lib, bozorda turli-tuman tovarlar ayirboshlanadi. Bu yerda ishtirok etuvchi subyektlar xaridorlar va sotuvchilardir. Bozorda ikki xil jarayon amalga oshadi:

a) tovarlarni sotish (bunda tovarlar pulga ayirboshlanadi, ya'ni $T-P$) jarayoni yuz beradi;

b) tovarlarni xarid etish (bunda pul tovarga ayirboshlanadi, ya'ni $P-T$) jarayoni yuz beradi. Ayirboshlash ixtiyoriy va erkin shakllangan baholar asosida amalga oshiriladi.

Bozor o'ziga xos tashkiliy tuzilmaga ega bo'lib, ayirboshlash obyektining moddiy shakli jihatidan olganda iste'mol tovarlari va xizmatlar, ishlab chiqarish vositalari, moliya (investitsiya), qimmatli qog'ozlar, ilmiy g'oyalar, texnikaviy yangiliklar va ish kuchi bozorlari mavjud.

Ayirboshlash miqyosi (kattaligi) jihatidan mahalliy, hududiy (regional), milliy va jahon bozori, ichki va tashqi bozorlar mavjuddir. Shuni aytish kerakki, bozor, ma'muriy rejalashtirish usullari orqali iqtisodiyotni boshqarishdan — keng demokratiyalashtirilgan iqtisodiy tuzilmaligi bilan farq qiladi. Rejalashtiriladigan iqtisodiyotda talab bilan taklifni narx-navo orqali tenglashtiruvchi mexanizm mavjud bo'lmay, rejalashtirishni zimmasiga olgan tomon ongli ravishda bu holatni ta'minlashi zarur bo'lib, bunda rejalashtirilayotgan taklif rejalashtirilayotgan talabga teng bo'lishi kerak edi. Agarda bu amalga oshirilmasa, mahsulot kamomadi yoki ortiqchaligi yuz berardi. Bunday holatda ham bozor mexanizmidan foydalanib, narx-navo ko'tarilmasa yoki tushirilmasa ortiqcha mahsulotni saqlash yoki yo'qotish kabi ko'ngilsiz muammolar yuzaga keladi yoki unga qarama-qarshi bo'lgan talabi qondirilmagan tomonlar o'rtasida oddiy bo'lmagan ziddiyat-

lar yuzaga chiqadi. Rejalashtirishning oddiy natijalari shulardan iborat bo'lib, ularning oqibatida ko'p o'tmay, rejalashtirishni zimmasiga olgan tomonning mavqeyiga putur yetar edi.

Bozorning ma'muriy-rejalashtirish uslublari orqali iqtisodiyotni boshqarishga nisbatan keng demokratiyalashgan iqtisodiy tuzilmaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- *birinchidan*, bozorda har qaysi tovar ishlab chiqaruvchi boshqa ishlab chiqaruvchilar kabi o'z tovarini sotishda teng imkoniyatga ega bo'ladi, ya'ni teng huquqli iqtisodiy hamkorga aylanadi;

- *ikkinchidan*, har qaysi iste'molchi (xaridor) ham boshqa xaridorlar kabi o'ziga zarur bo'lgan tovarlar, ishlab chiqarish vositalari, iste'mol mollari va boshqalarni xarid etish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- *uchinchidan*, faqatgina bozorda tovar-pul, bozor munosabatlari orqali yuqorida ta'kidlangandek, mahsulotni ishlab chiqarish va ayirboshlashdagi ijtimoiy zaruriy xarajatlar aniqlanadi va bu ijtimoiy zaruriy xarajatni har bir xaridor o'z mablag'i bilan tasdiqlaydi;

- *to'rtinchidan*, bozorgina jamiyatdagi mavjud va o'zgaruvchan bo'lgan talabni o'rganish imkonini berib, avvalambor, bozor mexanizmlari orqali tovar ishlab chiqaruvchilarni bozor aniqlagan talabni qondirishga yo'naltiradi;

- *beshinchidan*, faqatgina tovar-pul munosabatlari va bozorning rivojlanishi tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida va ularning o'zlarida iqtisodiy aloqalarning demokratlashuviga kafolat bera oladi. Ishlab chiqarish resurslarini, ulgurji savdosiga o'tmay turib va ishlab chiqarish vositalari bozorini yuzaga keltirmay hamda tovar ishlab chiqaruvchilarga mavjud resurslardan xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish uchun erkin foydalanishiga yo'l ochmay turib na o'zi o'z harakatlarini, mablag' bilan qoplashni va na o'zi o'zini mablag' bilan ta'minlashni yuzaga keltirib bo'lmaydi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari keng erkinligi mavjud bo'lgan va bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda davlat rejalashtirishi faqatgina iqtisodiy omillar orqali ta'minlanadi.

Bozor o'zining rag'batlantiruvchi va tartibga soluvchi faoliyatini raqobatsiz yuzaga keltira olmaydi. Raqobat bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, unda g'olib kelish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, tovar sifatini oshirish, tovar sotilishini xaridor uchun qulaylashtirish ko'zda tutiladi, aks holda tovarlarni sotishdan yuqori foyda olib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy sharti bo'lib, qishloqda bozor infratuzilmasini shakllantirish hisoblanadi.

Bozor infratuzilmasi ko'p qirrali tizimlardan tashkil topib, ularning tarkibi quyidagilardan iborat:

1. Tadbirkorlarni tayyorlash va o'qitish (ixtisoslashgan litseylar, jumlar texnika maktablari va bilim o'choqlari, biznes markazlari, biznes inkubatorlari, ixtisoslashgan teleradio ko'rsatuv va eshitishlari, matbuot).

2. Xususiy tadbirkorlarni hisobga olish va ro'yxatga olish (hokimliklar, tadbirkorlar palatasi, statistika va audit muassasalari).

3. Moliya-kredit tizimi (tijorat banklari, xususiy banklar, ixtisoslashgan banklar, xususiy investitsiya jamg'armasi, davlat sug'urta tizimlari, xususiy sug'urta kompaniyalari, o'zaro kredit ta'minoti jamiyatlari, lombardlar).

4. Ulgurji-dallohchilik bo'g'inlari (Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi, «O'zmevasabzavotuzumsanoatxolding», mahsulotni tayyorlash, ulgurji savdo qilish assotsiatsiyalari tizimlari, dalqon bozorlari, ulgurji savdo tizimlari, ulgurji savdo do'konlari, konsignatsiya omborlari).

5. Birja bozorlari (jamg'arma, ko'chmas mulk, tovar-xomashyo birjalari bo'linmalari, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ko'rgazmalar, kim oshdi savdolar).

6. Agroxizmat bozori (Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi, «O'zqishloqxo'jaliktexnikata'minotta'mir», «O'zki-myota'minotxizmat», texnika lizingi, nav sinash muassasalari, uug'chilik, naslchilik).

7. Xizmat bozori (maishiy xizmat, yangi turdagi xizmatlar, massus birja notarial shoxobchalari, advokatura shoxobchalari, konsalting va injiniring xizmati muassasalari, loyiha hisob-kitob markazlari, reklama va ma'lumotlar markazi, notarial xizmati, ilmiy-tadqiqot sinov markazlari, lizing kompaniyalar).

8. Transport ta'minoti (avtotransport korxonalari, yuk tashish mashinalari egalari, yuk mashinalari egalari ittifoqi (uyushmalari), temiryo'l shoxobchalari).

9. Tashqi iqtisodiy aloqalarni ta'minlash, tashqi iqtisodiy aloqalar agentligining hokimliklar qoshidagi tashqi iqtisodiy faoliyat bo'limlari, Davlat mulk qo'mitasining hududiy boshqarmalari qoshidagi tashqi iqtisodiy faoliyat bo'linmalari, tadbirkorlar ittifoqining bo'lim yoki bo'linmalari.

Hugungi kunda qishloq infratuzilmasini rivojlantirish masalasi birinchi qatorida yechilishi zarur vazifalardan hisoblanib, bu yo'nalishda respublika hukumati tomonidan maishiy xizmat

sohalari bilan bir qatorda, bank va sug'urta tashkilotlari, xarid qiladigan ulgurji savdo bozorlari, fermer-dehqon xo'jaliklarini ta'minlaydigan do'kon hamda firmalarning rivojlantirilishiga katta e'tibor berilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ayirboshlashda tovar birjalari-ning o'rni katta. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish tovar birjalari — bu muntazam ravishda faoliyat qiluvchi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini xarid qilish hamda sotish bo'yicha kelishuvlarni amalga oshiruvchi tijorat tashkilotidir.

Amaliyotda birjalar alohida don, sabzavot, paxta, tamaki, pilla va universal tovar birjalari holida ham faoliyat ko'rsatadi. Bu birjalarning a'zolari bo'lib davlat, jamoa xo'jaliklari, shirkatlar, fermer xo'jaliklari, ijara xo'jaliklari, yakka holda faoliyat yurituvchi fuqarolar va banklar qatnashishi mumkin. Birja orqali tovar ayirboshlash uchun tovar ishlab chiqaruvchilar birja a'zosi bo'lishi shart emas, faqat bu holda kelishuvlar birjaga teng a'zo bo'lgan korxonalariga topshiriladi va oldi-sotdidan foizli ulush to'lanadi. Aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida mamlakatlararo va hududiy kim oshdi va ko'rgazmalar tashkil etiladi.

2.4. Bozorlar tizimi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorlari

Qishloq xo'jaligida to'laqonli va samarali harakat qiladigan kompleks bozor, uni tashkil qiluvchi yig'indini ifodalaydi: ixtisoslashgan bozorlar tizimi — qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, ish kuchi bozori, yer bozori, ishlab chiqarish vositalari (moddiy resurslar) bozori, moliya (kapital) bozori — bozor infratuzilmalari, shuningdek, xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlaridan iborat bo'ladi. Yuqoridagilardan birortasining mavjud bo'lmasligi yoki yetarli rivojlanmasligi bozor munosabatlari samaradorligini pasaytirishga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u qishloq xo'jaligining xususiyatlaridan kelib chiqadi:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining taklifi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan mahsulotning miqdori va sifatini nazorat qilish imkoniyatini chegaralab qo'yadigan tabiiy sharoitlarga bog'liq. Bunga bog'liq holda ular o'zlarining ishlab chiqarish va sotish faoliyatlarini uch dastur asosida ko'rib chiqishlari kerak.

Birinchi dastur dehqonchilik va chorvachilik yalpi mahsulotini ko'paytirish bilan bog'liq bo'lgan va qulay tabiiy sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar harakatini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ikkinchi dastur noqulay tabiiy sharoitga mo'ljallab tuzilishi kerak. U o'z ichiga hosilni saqlab qolish, vaqtincha jalb qilingan ishchi kuchi hisobiga hosil yig'ishtirishni tezlashtirish, uni saqlash bilan bog'liq qo'shimcha tadbirlarni va boshqalarni olishi kerak.

Uchinchi dastur tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyati bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy ofat sharoitiga moslashgan bo'lishi kerak. Bu modelning diqqat markazida ularning faoliyati vujudga kelgan zararni kamaytirishga, hatto butunlay qoplashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bu uch modelda ham olinishi mumkin bo'lgan hosil va yetishmovchiligi, sotish, saqlash, shuningdek, xarajat, yo'qotish, foyda yoki zarar oldindan taxminan hisoblangan bo'lishi kerak.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishga bog'liq qilish darajasidagi kafolatlangan talab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga sanoatdagi talabga nisbatan ancha qulaylik beradiki, bu qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishiga sanoatdagidek noma'lum miqdorda sotish sharoitida ishlashga to'g'ri kelmaydi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi o'z faoliyatida bu afzallikdan samarali foydalanadi. U har yili bir xil mahsulotni ishlab chiqarmasdan, belli talabga mos yangi ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Tovar ishlab chiqaruvchining bunday harakati ularga raqobatchilar bilan muvaffaqiyatli kurashishga va yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish hisobiga daromad olishning yangi manbalarini topishga imkon beradi. Amaliyotda bir xo'jalik ichida bir qancha, o'zaro texnologik aloqada bo'lmagan mahsulot turlari rivojlanadi.

3. Biroq, turli mahsulot turlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun, bir tomondan, ishlab chiqarish xarakteri jihatidan ham, sotish xarakteri jihatidan ham qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Masalan, g'alla ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tovar ishlab chiqaruvchi cho'chqa boqish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Yuqoridagi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va sotish prinsip jihatdan turli xil yondashishga asoslangan. Boshqa tomondan tovar ishlab chiqaruvchi bunday ishlab chiqarish kombinatsiyasidan ma'lum darajada katta zarardan sug'urta qilinadi, ya'ni g'alla yaxshi

ololmagan paytda, undan yem sifatida foydalanib, cho‘chqa-chilikdan qo‘shimcha daromad olishi mumkin bo‘ladi.

4. Mahsulotning ko‘p miqdori va uning tez buzilish xarakteri, bir tomondan, omborlar, saqlaydigan xonalar bo‘lishini taqozo qiladi, boshqa tomondan — tovar ishlab chiqaruvchini bunday mahsulotni juda tez va qisqa muddatda sotishga undaydi. Bu yetishtirilgan hosilni nest-nobud qilmaslikka va mahsulot daromadini pasaytirmaslikka imkon beradi.

5. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari iste‘molining shaharda to‘p-lanishi, uni sotish uchun turli xil vositachilar zarurligini keltirib chiqaradi. Bu ular daromadining bir qismi, ya‘ni o‘z mahsulotlari qiymatining bir qismini vositachilarga berilishini bildiradi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorining vujudga kelishi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish ikki kanal orqali amalga oshiriladi: davlat topshirig‘i bozori va to‘g‘ridan to‘g‘ri talab bozori. Davlat topshirig‘i bozorida tovar ishlab chiqaruvchilar bilan davlat o‘rtasida bevosita aloqalar amalga oshadi. Bu bozor orqali mamlakatning kafolatlangan oziq-ovqat fondini yaratish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlari hajmi markazlashgan tartibda vujudga keltiriladi.

Davlat topshirig‘i mahsuloti tarkibiga: non va non mahsulotlari, paxta va paxta mahsulotlari, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, qand, o‘simlik yog‘i, baliq va baliq mahsulotlari, yengil sanoatni ta‘minlash uchun paxta tolasi, kanop tolasi, jun va boshqa turdagi mahsulotlar kiradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning bevosita talab bozorida nisbatan ajralgan tovar ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, tovar ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasida bilvosita aloqa amalga oshadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini bevosita talab bozori orqali sotish shakllari turli-tumandir. Bu mahsulotni korxonalar va tashkilotlarga, jamoa xo‘jaligi bozorida, bevosita qishloq xo‘jaligi korxonalarida qishloqda yashovchi xodimlarga, matlubot kooperatsiyasi va boshqalarga sotish mumkin.

Tovar ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlovchi sanoat korxonalarini, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini bilan bo‘ladigan bevosita aloqalari eng samaralisi hisoblanadi. Ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ortish, tushirish, qayta ishlash va saqlashning barcha bosqichlarida yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha eng qulay tadbir hisoblanadi. Bevosita aloqalarni kengaytirish, bundan tashqari sifatli mahsulotni

ish-molchiga yetkazib berish muddatini qisqartiradi, tayyorlov xarajatlarini kamaytiradi.

Qishloqqa bozor munosabatlarini kiritish sotib olish va savdo faoliyati tizimini o'zgartirishni, uning turli-tuman shakllari uchun sharoit yaratishni talab qiladi. Davlat topshirig'i rejasida, davlat savdo-tayyorlov tizimi bilan bir qatorda matlubot kooperatsiyasi, kooperativ va aralash tashkilotlar, shuningdek, dehqon kooperativlari, yetakchi savdo-sotiq faoliyatlari rivojlana boshlaydi. Ularga, eng avvalo, kartoshka, sabzavot, mevalarning ortiqcha qismini sotib olish va ularni sotishni kiritish mumkin. Bu esa mahalliy ta'minotni yaxshilaydi, davlat va kooperativ savdodagi og'irlikni pasaytiradi, ular o'rtasida raqobat unsurlarini yaratadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish muammosida qishloq xo'jaligi tovar birjalari muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, tovar birjalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha doimiy harakat qiladigan, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotishni amalga oshiradigan korxonalar hisoblanadi.

Q'alla birjasi, paxta tolasi birjasi, sabzavot, meva birjalari tabii tor doirada ixtisoslashgan birjalar va yirik tovar mahsuloti, valuta, qimmatli qog'oz va boshqalarni amalga oshiradigan universal birjalar bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi tovar birjasining a'zolari alohida fuqarolar, dehqon xo'jaliklari, ijara jamoalari, boshqa korxonalar va tashkilotlar vositachi (broker) tashkilotlar — banklar, investitsiya tashkilotlari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, birja savdosini birja a'zosi bo'lmaganlar ham amalga oshirishi mumkin. Hunday holda o'tkazilgan operatsiyalar uchun yig'im olinadi.

TAYANCH IBORALAR

Tovar-pul munosabatlari, qiymat qonuni, talab, taklif, qiymat shakllari, narx-mol qiymat, ekvivalent, bozor, tadbirkorlik, bozor infratuzilmasi, bozor tizimi, raqobat, moliya-kredit tizimi, birja bozorlari.

1) NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jaligida qiymat qonuni qanday namoyon bo'ladi?
2. Tovar ishlab chiqaruvchilar erkinligini ta'minlovchi shartlar va ularni amalga oshirish zaruriyati nimalarga asoslanadi?
3. Bozor qanday vazifani bajaradi va uning qanday ko'rinishlari mavjud?
4. Bozor infratuzilmasi nima uchun zarur, uning tarkibi nimalardan tashkil topadi?

3-bob. | AGROSANOAT MAJMUYI VA UNUNG RIVOJLANISHI

3.1. Agrosanoat majmuyi tushunchasi, uning maqsadi va tarkibi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining, shu jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko'p jihatdan boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatiga chambarchas bog'liq. Sababi, bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xomashyosi bo'lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish xizmatini vujudga keltiradi.

Qishloq xo'jaligi bir tomondan, texnika, qishloq xo'jaligi mashinalari, yoqilg'i-moylash materiallari, zaharli kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari va transport vositalari yetkazib beruvchi sanoat bilan, ikkinchi tomondan, ta'mirlovchi, saqlovchi, yetkazib beruvchi, ya'ni xizmat qiluvchi tarmoqlar va ishlab chiqaruvchilar bilan bog'langan.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan xomashyo sifatida foydalanuvchi, sanoatning oziq-ovqat, yengil, to'qimachilik kabi tarmoqlari bilan ham mustahkam aloqa mavjud. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida bunday aloqadorlik ular bazasida, organik jihatdan aloqador bo'lgan va yagona pirovard maqsadga qaratilgan agrosanoat majmuyi shakllanuvini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, agrosanoat majmuyi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan, uning ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'langan iqtisodiyot tarmoqlarining to'plamidan iboratdir. Uning faoliyati minimal xarajatlar hisobiga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xomashyo bilan to'laroq qondirishga qaratilgan.

Agrosanoat majmuyining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- mamlakatning oziq-ovqat muammosini hal qilish va unga bo'lgan iste'molni ilmiy asoslangan me'yorlarga yaqinlashtirish;
- aholini qishloq xo'jaligi xomashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat bo'lmagan tovarlarga bo'lgan talabini qondirish;
- agrosanoat majmuyi korxonalarini rivojlantirishning intensiv shakliga o'tkazish va shu asosda pirovard mahsulot ishlab chiqarishni o'stirishni ta'minlash;
- barcha tarmoq va korxonalarda mavjud resurslar salohiyati (potensial)dan foydalanishni yaxshilash va shu asosda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- tashqi savdo aylanmasi tarkibini, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq chetga chiqarish hisobiga o'zgartirish.

Agrosanoat majmuyi o'z ichiga uch sohani qamrab oladi:

Birinchi sohaga qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, yengil, oziq-ovqat sanoati va ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash tizimi kiradi. Sanoatning bu tarmoqlari ishlab chiqarish tayyorini resurslar bilan ta'minlaydi, qishloq xo'jaligini sanoatlashirish uchun va tayyorlovchi tizim va qayta ishlovchi sanoatda texnika taraqqiyoti uchun baza yaratadi. Bundan tashqari, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning davriyligini ta'minlagan holda qishloq xo'jaligiga xizmat qilishning ko'p vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Shu asosda mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini sifat jihatdan qayta qurish ro'y beradi va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish amalga oshadi.

Dehqonchilik, chorvachilik va boshqa yordamchi ishlab chiqarishlarni o'z ichiga oluvchi bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi agrosanoat majmuyi *ikkinchi sohaning* asosiy, bosh qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, bu sohaga go'sht, sut va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi xomashyosini birlamchi qayta ishlaydigan, qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini texnika bilan ta'minlaydigan korxonasi va tashkilotlar kiradi.


Agrosanoat majmuyining *uchinchi sohasiga* paxta mahsulotlari, don mahsulotlari, melioratsiya va suv xo'jaligi korxonasi va tashkilotlari, baliq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va matlubot jamiyatlari kiradi. Mamlakat agrosanoat majmuyiga tarmoq belgisi bo'yicha quyidagi bir qancha kichik majmualarni kiritish mumkin: don mahsulotlari, paxta mahsulotlari, go'sht, sut, meva-sabzavot, umumiy sanoatlari, baliq, konserva va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi nafaqat agrosanoat majmuyida, balki butun iqtisodiyotda alohida o'rin egallaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari aholi ehtiyojini qondirishning bosh manbayi hisoblanadi. U boshqa sohada ishlab chiqarilmaydi yoki boshqa mahsulot bilan almashtirilmaydi.

Qishloq xo'jaligida yer, o'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar kabi o'ziga xos bo'lgan ishlab chiqarish vositalaridan foydalaniladi. Bu yerda takror ishlab chiqarishning iqtisodiy jarayonlari tabiiy jarayonlar bilan qo'shilib ketadi.

Shuning uchun agrosanoat majmuyining birinchi sohasi ishlab chiqarish tarmoqlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonining harakati va uni intensivlashtirishni tezlashtirish uchun qulay sharoitni ta'minlashlari kerak. O'z navbatida, agrosanoat majmuyining bu sohasi tarmoqlari ishlab chiqarishining rivojlanish darajasi va sur'ati qishloq xo'jaligining moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Qishloq xo'jaligining maxsus texnikalarga, paxta terish mashinalariga, avtomatlashtirish vositalariga, omuxta yem va mikrobiologiya sanoati mahsulotlariga, kimyolashtirish vositalariga, hayvonlarni, mahsulotlarni saqlash uchun obyektlar qurilishiga va boshqalarga ehtiyoji o'sib bormoqda.

O'z navbatida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining ko'payishi mos ravishda pirovard mahsulotni tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash va sotish bo'yicha tarmoqlarni rivojlantirishni talab qiladi.



1-chizma. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuyining tashkiliy tuzilmasi.

3.2. Agrosanoat majmuyi tarmoqlari o'rtasida ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar

Agrosanoat ishlab chiqarishida o'zaro aloqador bo'lgan besh bosqich belgilanadi:

- agrosanoat majmuyining barcha tizimi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi;
- qishloq xo'jaligi xomashyosidan tayyorlanadigan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;
- tezkor ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ishlab chiqarish-texnikaviy va texnologik xizmat ko'rsatish;
- pirovard mahsulotni sotish.

U yoki bu tarmoqni agrosanoat majmuyiga tegishli deyish ancha muammoli masala bo'lib, sanoatning ayrim tarmoqlari qishloq xo'jaligi yo'nalishida faoliyat ko'rsatadi. Ko'pchiliklari esa qishloq xo'jaligi uchun qisman mahsulot ishlab chiqaradi. Agrosanoat majmuyini yanada bir tizim shaklida xarakterlab shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi sanoat, qurilish, transport, savdo va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan doimo mustahkam aloqada bo'lib kelgan.

Lekin agrosanoat majmuyining tashkil topishi qishloq xo'jaligining yanada takror ishlab chiqarish jarayonida birlashgan aralash tarmoqlar bilan aloqasining sifat jihatdan yangi darajadagi ko'rinishidir.

Agrosanoat majmuyi shakllanishining asosi bo'lib, agrosanoat integratsiyasi hisoblanadi. U qishloq xo'jaligi, unga xizmat qiluvchi va uning mahsulotini iste'molchiga yetkazib berish bilan shug'ullanadigan boshqa tarmoqlar bilan organik va ishlab chiqarish sharoitlarini kuchaytirish jarayonini ifodalaydi. Agrosanoat integratsiyasi ilmiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining tarmoqlararo mustahkam aloqasi ham shu asosda o'rnatiladi. Ana shundan, ishlab chiqarish-texnikaviy, agrokimyo xizmati, meliorativ ishlar, veterinariya xizmati kabi faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi tarmoq va korxonalarining vazifasi kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligining agrosanoat majmuyining boshqa tarmoqlari bilan mahsulotni sotish va qayta ishlash sohasidagi aloqalari yanada kuchayadi.

Ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tizimining samarali faoliyati, avvalo, quyidagi ikki omilga bog'liq:

1. Resurslar bo'yicha, rivojlanish sur'ati bo'yicha, mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha tarmoqlarning muvofiqlashuviga (moslashuviga);

2. Pirovard natijani maqsad qilib qo'ygan har bir bo'g'inning faoliyatiga.

Har bir oraliq mahsulotni ishlab chiqarish hajmi, shu mahsulotni iste'mol qiluvchi bo'g'inning talabi bilan aniqlanadi. Bu bosqichda butun bir kompleksni rivojlantirishning zaruriy proporsionalligi va bir tekisligi ta'minlanishi lozim.

Asosiy fondlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, o'z mahsulotlarini qishloq xo'jaligiga va qayta ishlovchi korxonalariga yetkazib beradi. Ularning e'tibori nafaqat majmuaning har bir bo'g'ini talabini qondirishga, balki ularning agrosanoat ishlab chiqarishining bosqichlari bo'yicha nisbatlarining optimalligini ta'minlashga ham qaratilgandir. Aks holda agrosanoat majmuyi rivojlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish, saqlash va iste'molchiga yetkazib berish jarayonida katta yo'qotishlarga olib keluvchi nomutanosiblikni (disproporsiyani) keltirib chiqaradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlashni, saqlashni va qayta ishlashni amalga oshiruvchi agrosanoat majmuyining uchinchi sohasi tarmoqlari moddiy-texnika bazasini takomillash-tirish zarurdir. Bu soha, fond yetkazuvchi tarmoqlar bilan, shuningdek, o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari bilan tarmoqlararo aloqalarida optimal nisbatga rioya qilishi zarur.

Agrosanoat majmuyi tarmoqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mahsulot va xizmatlarga obyektiv o'rnatiladigan baholarning optimal darajasi yordamida amalga oshiriladi. Ko'pincha sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari o'rtasidagi farq me'yoriy iqtisodiy aloqani qiyinlashtiradi, ishlab chiqarish hajmini o'stirishga va pirovard mahsulotni sotishga imkon bermaydi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi korxonalari yil davomida ma'lum darajada ayrim aylanma vositalarga bo'lgan talabni qondirish uchun mineral o'g'itlarga, neft mahsulotlariga, MTP xizmatlariga, elektr energiyasi ta'minotiga ehtiyoj sezadilar va mos ravishda «O'z kimyosanoat», «O'z neft mahsulot», «O'z agromashservis» va «O'zbekenergo» kompaniyalari tizimidagi tashkilotlar bilan ishlab chiqarish-iqtisodiy aloqani amalga oshiradilar. Natijada ularning qishloq xo'jaligi korxonalari bilan debitor va kreditor qarzlari vujudga keladi. Quyidagi jadvallarda agrosanoat majmuyi tarmoqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, mahsulot va xizmatlar bo'yicha ular o'rtasidagi debitor va kreditor qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili keltirilgan (1- va 2-jadval).

Paxta va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalaridan «O'zqamsherbos», «O'zqamsherbos», «O'zqamsherbos» va «O'zbekenergo» kompaniyalari tizimidagi tashkilotlarning debitorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot (milyon so'm)

T/r	Hududlar	Shu jumladan														
		Jami debitorlik qarzlari			mineral o'g'itga			neft mahsulotiga			MTP xizmatiga			elektr energiyaga		
		01.01.2009	01.01.2010	farqi (+, -)	01.01.2009	01.01.2010	farqi (+, -)	01.01.2009	01.01.2010	farqi (+, -)	01.01.2009	01.01.2010	farqi (+, -)	01.01.2009	01.01.2010	farqi (+, -)
1.	Qoraqalpo- g'iston Respublikasi	67259	55842	-1417	25191	21583	-3608	27618	26223	-1395	6480	3831	-2649	7971	4204	3767
2.	Andijon	35400	36618	1218	17004	19489	2485	15043	13986	-1057	2988	2868	-120	365	276	-89
3.	Buxoro	37461	16489	-0972	20513	9398	-1115	14005	5158	-8847	2567	2685	118	376	249	-127
4.	Jizzax	81801	108329	26528	25577	35484	9907	48536	61430	12894	5257	8732	3475	2431	2683	252
5.	Qashqadaryo	56171	45753	-10418	33116	28920	-4196	15400	11784	-3616	5955	3409	-2546	1701	1640	-61
6.	Navoiy	12081	9021	-3060	5144	2734	-2410	813	777	-36	1246	759	-487	4878	4751	-127
7.	Namangan	51076	54152	3076	28678	28011	-667	12005	12283	278	3656	3820	164	6738	10038	3300
8.	Samarqand	47286	46132	-1154	17748	16244	-1504	20173	24374	4201	5570	2776	-2794	3795	2738	-1057
9.	Surxondaryo	43709	27687	-16022	26721	15915	-10806	10152	6000	-4152	4166	3175	-991	2669	2598	-71
10.	Sirdaryo	111751	113881	2130	49161	47620	-1541	51002	52352	1350	10031	12363	2332	1557	1546	-11
11.	Toshkent	36092	38657	2565	21739	24571	2832	9404	8475	-929	3436	4330	894	1513	1280	-233
12.	Farg'ona	47499	46307	-1192	33428	33035	-393	5669	8275	2606	5920	2756	-3164	2482	2242	-240
13.	Xorazm	29607	27047	-2560	15929	14551	-1378	8814	6414	-2400	1617	1721	104	3247	4361	1114
	Respublika bo'yicha	657193	625914	-31279	319949	297553	-22396	238633	237529	-1104	58889	52227	-6662	39722	38605	-1117

«Paxta va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalaridan «O'zgomashservis», «O'zneftmahsulot», «O'zkiymyosanoat» va «O'zbekenergo» kompaniyalari tizimidagi tashkilotlarning kreditlik qarzlari to'g'risida ma'lumot (mln so'm)

T/r	Hududlar	Shu jumladan																		
		Jami debitorlik qarzlari				mineral o'g'itga				neft mahsulotiga				MTP xizmatiga				elektr energiyaga		
		01.01. 2009	01.01. 2010	farqi (+, -)		01.01. 2009	01.01. 2010	farqi (+, -)		01.01. 2009	01.01. 2010	farqi (+, -)		01.01. 2009	01.01. 2010	farqi (+, -)		01.01. 2009	01.01. 2010	farqi (+, -)
1.	Qoraqal- pog'iston Respublikasi	1423	4985	3562	662	2602	1940	92	2008	1916	660	329	-331	9	47	38				
2.	Andijon	2962	4703	1741	1277	2581	1304	215	909	694	1443	1170	-273	26	44	18				
3.	Buxoro	2078	9521	7443	1166	5345	4179	263	2964	2701	600	1133	533	50	80	30				
4.	Jizzax	2030	2521	491	654	955	301	139	555	416	1229	996	-233	8	15	7				
5.	Qashqadaryo	5761	10524	4763	2622	5626	3004	1327	3462	2135	1755	1351	-404	57	85	28				
6.	Navoiy	598	3146	2548	316	2225	1909	111	518	407	157	317	160	14	86	72				
7.	Namangan	1501	3182	1681	708	2015	1307	81	742	661	682	397	-285	30	27	-3				
8.	Samarqand	3181	4003	822	1601	1325	-276	425	1795	1370	1156	884	-272	0	0	0				
9.	Surxondaryo	2195	8648	6453	841	4220	3379	503	3256	2753	827	1142	315	25	31	6				
10.	Sirdaryo	1173	1687	514	394	519	125	158	243	85	610	907	297	12	18	6				
11.	Toshkent	2686	3225	539	1423	1438	15	397	1044	647	827	663	-164	38	80	42				
12.	Farg'ona	2533	2160	-373	1131	542	-589	412	811	399	915	752	-163	75	55	-20				
13.	Xorazm	1428	5566	4138	757	2378	1621	230	2789	2559	374	661	287	67	38	-29				
	Respublika bo'yicha	29549	63872	34323	13551	31770	18219	4352	20796	16444	11236	10700	-536	410	605	195				

Respublika bo'yicha 2010-yil boshiga paxta va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarining 297553 mln so'm mineral o'g'itlardan, 237529 mln so'm neft mahsulotlaridan, 52227 mln so'm MTP xizmatidan va 38605 mln so'm elektr energiyasidan debitor qarzlari va 31770 mln so'm mineral o'g'itlardan, 20796 mln so'm neft mahsulotlaridan, 10700 mln so'm MTP xizmatidan va 605 mln so'm elektr energiyasidan kreditor qarzlari mavjud bo'lgan.

3.3. Agrosanoat majmuyining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Agrosanoat majmuyiga kiruvchi barcha tarmoqlarning eng asosiy vazifasi — pirovard mahsulotga ketgan jami xarajat sarfini pasaytirishdan iborat. Qishloq xo'jaligida pirovard mahsulot deganda, tarmoqdan tashqari bevosita iste'molchiga yoki sanoatda qayta ishlash uchun sotiladigan mahsulot tushuniladi.

Mahsulotning tarmoq ichidagi aylanishi pirovard natijada ifodalانmaydi. U bu yerda oraliq mahsulot bo'lib namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sanoatda qayta ishlanmasdan turib aholi iste'moliga tushadigan qismi (g'alla, sabzavot, kartoshka, sut, go'sht va boshq.) agrosanoat majmuyi pirovard mahsulotiga qo'shiladi.

Qishloq xo'jaligi, eng avvalo, qayta ishlovchi sanoat uchun xomashyo, material ishlab chiqarishga asoslanib, faoliyatining iqtisodiy natijalari tarmoqlararo balans shartlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pirovard natijasi agrosanoat majmuyi nuqtayi nazaridan qaraganda oraliq natija hisoblanadi.

Hutun agrosanoat majmuyining sifatli harakat qilishi faqat qishloq xo'jaligi tarmog'ining faoliyatigagina bog'liq bo'lmay, pirovard mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishda ishtirok etadigan barcha bo'g'inlarning birdek faoliyat yuritishiga bog'liq.

Agrosanoat majmuyining pirovard mahsuloti ma'lum bir vaqt davomida yaratilgan va shaxsiy yoki ishlab chiqarish iste'moliga tushadigan jami mahsulotlar to'plamidir. Natura shakldagi pirovard mahsulot quyidagilardan tashkil topadi:

- bevosita aholiga tushadigan qishloq xo'jaligi mahsuloti;
- qishloq xo'jaligi xomashyosidan tayyorlanadigan iste'mol buyumlari;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va uni qayta ishlash predmetlari;
- agrosanoat majmuyi birinchi sohasi tarmoqlari mahsulotlari.

Agrosanoat majmuyi pirovard mahsulotning tarkibiy tuzilishi alohida tarmoqlar mahsuloti qiymatini jami ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga bo'lib foizlarda aniqlanadi. Pirovard mahsulot qiymati tarkibining o'zgarishi agrosanoat majmuyidagi aniq tarmoqlar mahsulotlari, tovar va xizmatlarining oshishi yoki pasayishiga bog'liq.

Agrosanoat majmuyidagi korxonalar va tashkilotlar pirovard mahsuloti tarkibiga barcha tovar mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, shuningdek, xodimlarga berilgan yoki sotilgan va umumiy ovqatlanishga hamda xo'jalikdagi boshqa zaruriyatlarga foydalanilgan mahsulotlar kiradi.

Pirovard mahsulot (PM) yalpi mahsulot (YM) (tovar va xizmatlar) hajmi bilan aniq tarmoqda bevosita iste'mol (I) uchun foydalanilgan uning ma'lum bir qismi o'rtasidagi farq sifatida hisoblaniladi:

$$PM = YM - I.$$

Agrosanoat majmuyi pirovard mahsulotning qiymati (PMQ) — qishloq xo'jaligida yaratilgan sof mahsulot qiymatidan ($SMQq/x$), oziq-ovqat, yengil sanoat tarmoqlari sof mahsuloti qiymatining ($SMQo/o.ye$) bir qismidan, shuningdek, transport, aloqa va muomala sohalari sof mahsuloti qiymatining ($SMQt.a.m.$) bir qismidan tashkil topadi:

$$PMQ = SMQqx + SMQo/o.ye + SMQt.a.m.$$

Agrosanoat majmuyining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun tarmoqlar moddiy-texnika bazasining me'yorda bo'lishigina emas, balki shu majmuuga kiruvchi barcha sohalarning proporsional rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Agrosanoat majmuyidagi barcha faoliyatlarning natijasi qishloq xo'jaligi bilan majmuaning boshqa tarmoq va ishlab chiqarishlari o'rtasidagi muvofiqlik va rivojlanish bilan aniqlanadi.

Agrosanoat majmuyi muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim sharti barcha qatnashuvchilarning pirovard mahsulot olishdagi moddiy manfaatdorligi hisoblanadi. Bu shart, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida agrosanoat majmuyi tarmoqlari faoliyatidagi yuqori faollikka aylanadi, chunki qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari baholari o'rtasidagi nomuvofiqlik bunga

asosiy sabab bo'ladi. Agrosanoat majmuyi ishlab chiqarishi va tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligi alohida sohalar faoliyatlari darajasi va pirovard mahsulotlarini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi.

Agrosanoat majmuyi samaradorligining asosiy ko'rsatkichi, shu bilan birga boshiga to'g'ri kelgan qishloq xo'jaligi xomashyosidan olinadigan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari miqdori hisoblanadi. Bu boshqacha qilib aytganda, mamlakat aholisini ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash mahsuloti hisoblangan, ya'ni yengil va to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan ta'minlash darajasidir.

Agrosanoat majmuyi samaradorligini xarakterlash uchun o'rtacha bir xodimga to'g'ri kelgan pirovard mahsulot qiymati, bir so'mlik ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ri kelgan pirovard mahsulot qiymati va bir so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri kelgan pirovard mahsulot qiymati ko'rsatkichi hisoblaniladi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash quyidagi formula shaklida ifodalanadi:

$$MUasm = \frac{PM}{XS};$$

$$Sasm = \frac{PM}{Ish.ch.x};$$

$$FQ = \frac{PM}{AIsh.ch.f};$$

bu yerda, $MUasm$ — mehnat unumdorligi, so'm; $Sasm$ — samaradorlik, so'm; FQ — fond qaytimi, so'm; PM — pirovard mahsulot, ming so'm; XS — o'rtacha yillik xodimlar soni, kishi; $Ish.ch.x.$ — ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm; $AIsh.ch.f$ — asosiy ishlab chiqarish fondlari, ming so'm.

Agrosanoat majmuyi faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida oraliq va pirovard natija o'rtasida uzilishga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun agrosanoat majmuyi barcha tarmoqlari va ishlab chiqarishlarini proporsional va muvofiq holatda rivojlantirishni ta'minlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, pirovard mahsulotni olishda xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash zarur.

Agrosanoat majmuyini samarali rivojlantirish har bir soha, tarmoq va ishlab chiqarish xodimlariga me'yoriy sharoitlarni ta'minlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Bu ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarni kamaytirish, xodimlar kasallanishini qisqartirish, mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash bilan xarakterlanadi. Agrosanoat majmuyiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarda ijtimoiy-madaniy obyektlarni qurish, ishlash va dam olishga ijtimoiy sharoitni yaxshilash, kadrlarni takror ishlab chiqarish uchun imkoniyat mavjud.

3.4. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi

Iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi. Iqtisodiy xavfsizlik deganda, mamlakatdagi ishlab chiqarishning shunday holatini tushunish kerakki, qaysiki, unda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va iqtisodiyotning mustahkam rivojlanishi tashqi omillarning mavjudligi va harakatiga bog'liq bo'lmagan holda ta'minlanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatni mavjud salohiyatlar, resurslar bilan ta'minlash va aholini ichki hamda tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lmagan holda ilmiy jihatdan asoslangan tibbiy me'yorlar darajasida oziq-ovqat mahsulotlariga kafolatlash demakdir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash potensial xavfning aniq va istiqboldagi holati, shuningdek, aholini oziq-ovqat tovarlari bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratish to'g'risidagi bilimlarni yuzaga keltiradi.

Oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlash — bu davlatning ichki ehtiyojini oziq-ovqatning barcha turlari hamda alohida mahsulot turlari bilan ham ta'minlash, qoplash xususiyatidir. Oziq-ovqat xavfidan keladigan iqtisodiy zarar bevosita va bilvosita yo'qotishlar bo'lib, u quyidagilar bilan bog'liq:

- ta'minlovchi tarmoqlar va agrosanoat majmuyi tizimlari va unsurlarining buzilishi;
- oziq-ovqat mahsulotlariga oshirilgan baholar bo'yicha import to'lovlari;
- mehnatga yaroqli aholining kamayishi hisobiga mehnatning iqtisodiy samaradorligi pasayishi.

Oziq-ovqat qaramliligi va oziq-ovqat mustaqilligi. Mamlakatda oziq-ovqat qaramliligi shunday holatda vujudga keladiki, unda jamiyat o'z oziq-ovqat xavfsizligini o'zi mustaqil hal qilish

qobiliyatiga ega bo'lmaydi. U qishloq xo'jaligi, sanoat va transport tashilish tarmoqlar majmuyining buzilishiga, shuningdek, zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari importiga mamlakat iqtisodiyotining to'lov qobiliyati yetarli emasligi asosiy sabab bo'ladi. Oziq-ovqat qamrovligining paydo bo'lishi uchun asosiy sharoit davlatning asosiy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlamasligi va oziq-ovqat mahsulotlari importining haddan tashqari ko'payib ketishi bo'lib hisoblanadi.

Oziq-ovqat mustaqilligi, bu — aholining o'rnatilgan ovqatlanish me'yorlari bo'yicha oziq-ovqatlar bilan ta'minlash uchun energiya, yer resurslari, qishloq xo'jaligi mashinalari, moddiy resurslarning strategik zaxiralari mavjudligini taqozo qiladi. Uni amalga oshirish uchun agrosanoat majmuyi aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari turlariga bo'lgan talabini zaruriy miqdorda va assortimentda mustaqil ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va ta'minlashga qodir bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi. Oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi quyidagilarni taqozo qiladi:

- agrosanoat majmuyi mehnat resurslariga nisbatan produktivistik tadbirlarni o'tkazish va aholining turli qatlamlari uchun davlat ta'minotiga erishish;

- ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash tizimida mehnat resurslarining optimal balansini qo'llab-quvvatlash;

- agrosanoat majmuyi tizimini energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarga yo'naltirish;

- agrosanoat majmuyi faoliyati ta'minoti va davlat rejalashtirish tizimlarining harakat qilishi.

TAYANCH IBORALAR

Agrosanoat majmuyi, sfera, oraliq mahsulot, pirovard mahsulot, integratsiya, gorizontal integratsiya, vertikal integratsiya.

1 NAZORAT SAVOLLARI

1. Agrosanoat majmuyi deb nimaga aytiladi?
2. Agrosanoat majmuyining tarkibiy tuzilishi qanday?
3. Agrosanoat majmuyining sohalari deganda nimani tushunasiz?
4. Agrosanoat majmuyining pirovard mahsuloti o'z ichiga nimalarni oladi?

4-bob.

QISHLOQ XO'JALIGIDA MULK VA XO'JALIK YURITISH SHAKLLARINING SAMARADORLIGI

4.1. Mulk tushunchasi va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli. Mulk shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni bir tomondan moddiy omillarning, ya'ni ishlab chiqarish vositalari – yer, asosiy va moddiy aylanma mablag'lari va pirovard natijalarining, boshqa tomondan, shu ishlab chiqarish vositalariga mulk nuqtayi nazaridan kishilarning munosabatlari mavjudligiga bog'liq. Mulk dastavval kishilar tomonidan ishlab chiqarish vositalarini o'zlashtirish shakli hisoblanadi. O'tmish iqtisodchilari shunday deb yozishgan edi: «Mulk — bu kishilarning bir-biri bilan bo'ladigan munosabati, ularning materiallarga, qurollarga va mehnat natijalariga bo'lgan munosabati».

Iqtisodiy munosabatlar majmuyida ishlab chiqarish vositalariga mulk munosabatlari eng muhimi hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimga tegishli bo'lsa, taqsimot va ayirboshlash shunga bog'liq bo'ladi. Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda mustaqillikkacha bir necha o'n yillab davom etgan agrar inqirozning asosiy sababi mulk munosabatlarining kuchli deformatsiyalanishi hisoblanadi.

Mulkning deformatsiyalanishi, asosan, qishloq xo'jaligini yirik miqyosli umumlashtirish davridan boshlandi. Yerni va boshqa ishlab chiqarish vositalarini majburiy davlatlashtirish ishlari ostida majburiy jamoa xo'jaliklari, sho'ro xo'jaliklari tashkil etilib, ularga birlashtirilgan yer, boshqa ishlab chiqarish vositalari va o'z mehnatlari asosida yaratilgan mahsulotning «davlat» tomonidan noekvivalent darajada buyruq bilan o'rnatiladigan va hatto, sarf qilingan xarajatlarni ham qoplamaydigan nisbatan past baholar bilan majburiy olib qo'yish mexanizmi asosida faoliyat yuritildi.

Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikdan mahrum bo'lgan kishilar xo'jalikni yaxshi va samarali yo'llar bilan olib borishga

bo'lgan qiziqishni yo'qotishdi. Mulkdan uzoqlashish, eng avvalo, yerdan uzoqlashish, dehqonni o'zi yaratgan ne'matlarni o'zlashtirishdan mahrum qildi. Pirovard natijada dehqon xo'jayin va mehnatkash degan yagona xususiyatdan uzoqlashtirildi. Xo'jayin mehnatkash pirovard natijadan ko'ra, mehnat haqini afzal qo'yuvchiga besamar ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi yollanma ishchiga aylandi.

Qishloq xo'jaligini inqirozdan chiqarish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligi muammosini faqat qishloq mehnatkashlarining ijodiy faolligini oshirish uchun qulay imkoniyatini ta'minlaydigan, ularning tashabbuskor xo'jayin va mehnatkash sifatida qobiliyatini maksimal ochadigan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mexanizmini yaratish orqali hal qilish mumkin.

Respublikada mulk munosabatlarini tubdan isloh qilish hal qiluvchi masala bo'lib, bozor munosabatlarining to'laqonli shakllanishida bir qator sharoitlar bo'lishi talab qilinib, ular ichida eng muhimi mulk xilma-xil shakllarining faoliyat ko'rsatishga teng huquqligidir. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan bo'lib, uning 53-moddasida «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi», deb huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Mulk munosabatlari muammosining mazmuni iqtisodiyotining muhim uslubiyat masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mulk munosabatlarining mohiyati nimadan iborat? Mavjud iqtisodiy yo'nalish muammolarining e'lon qilingan ishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mulk tushunchasi, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mazmunini tashkil etadi. Binobarin, uning iqtisodiy toifa sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Obyektiv holatda vujudga keladigan va amal qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar qonunlarda mustahkamlanadi, huquqiy munosabatlar shakliga ega bo'ladi.

Mulk — bu ishlab chiqarish vositalarining odamlar tomonidan o'zlashtirib olinishidir. Ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat mulk munosabatlari majmuyining asosini tashkil etadi. Mulk kim tomonda bo'lsa, mahsulotlarni taqsimlash, almashtirish huquqi ham shu tomondan amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, agrar inqirozning mamlakatimizdagi asosiy sababi mulk munosabatlari tizimining buzilishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning har xil shakllari mavjud, chunki bozor bu

mulkning iqtisodiy munosabatlaridir. Mulk munosabatlarini o'rganish asosida uning obyektiv va subyektiv xususiyatlari aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining mehnat salohiyatlarini amalga oshirishning hal qiluvchi sharoitlaridan biri — mulk munosabatlarini o'zgartirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida turli-tuman shakllaridan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov respublikamizda mulkdorlar qatlamini shakllantirish vazifasini dolzarb qilib qo'ygan edi. Mamlakatimizda mulkdorlar qatlamini vujudga keltirishni tezlashtirish uchun «Mulk to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, Mehnat kodeksi, Yer kodeksi va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayoni bir tomondan moddiy omillar, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga, ikkinchi tomondan, bu vositalarga mulk yuzasidan odamlarning munosabatlari asosida amalga oshiriladi. Mulk maqomi ko'p jihatdan dehqonning tabiatiga mos keladi. Modomiki, bozor mulk munosabatlarini iqtisodiy amalga oshirishning vositasi va sharoiti hisoblanar ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk va uning turli-tuman shakllarining roli keskin oshadi.

Yerni, boshqa ishlab chiqarish vositalarini davlat tasarrufidan chiqarmasdan va xususiylashtirmasdan turib, erkin qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini shakllantirish, to'laqonli bozor munosabatlarini yo'lga qo'yish mumkin emas. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish davlat mulkningin salmog'iga bog'liq emas. Muhimi uning sonida emas, balki uning mazmuni o'zgarishida, ya'ni byurokratik boshqariladigan mulkdan demokratik boshqariladigan mulkka aylantirishdadir.

Gap mulkning shunday tizimi xususida boradiki, bunda har bir dehqon va mehnat jamoasi faqat ishlab chiqarish vositalari emas, balki yaratilgan mahsulotning ham real xo'jayiniga aylanishi kerak. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda qatnashishi lozim.

Mulk munosabatlarini har tomonlama o'rganish mulkning obyektlari va subyektlarini aniqlashga imkon beradi. Mulkning obyekti bo'lib, mulk bo'lgan predmetlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yer, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ishlab chiqarish binolari

va inshootlari, uy-joy, mashina va uskunalar, qishloq xo'jaligi mashinalari, transport vositalari va boshqalar mulk obyektlariga kiradi. Mulkdan xo'jalikda foydalanish natijasi — mahsulot va daromad — shu ishlab chiqarish vositalarining mulkdoriga tegishli bo'ladi. Mulkning subyekti bo'lib fermerlar, alohida ijarachilar, hisador, shirkat, kooperativ jamoalari va boshqalar hisoblanadi.

Mulk subyektlari uch asosiy qonuniy huquqdan foydalanishadi:

- *birinchisi*, egalik qilish huquqi, ya'ni real, haqiqatda mulkka egalik qilish, subyektning o'zi uni o'z hukmiga bo'ysundiradi;

- *ikkinchisi*, foydalanish huquqi, ya'ni «birov»ning mulkidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishdir;

- *uchinchisi*, idora, tasarruf qilish, ya'ni mulkni o'z xohishiga qarab ishlatish imkoniyati, mulkning taqdirini aniqlash.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalariga mulk shakllari turli xil bo'ladi: *davlat, jamoa, xususiy va aralash*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mulk munosabatlari tizimida xususiy mulk alohida, muhim o'rinni egallaydi. Xususiy mulk keng ma'noda jamiyatning alohida a'zolarining (dehqon) mulki yoki uning aniq qismi a'zolari (kooperativ jamoalar)ning mulkini ifodalaydi.

Xususiy mulk — barcha turdagi davlat mulki bo'lmagan mulkdir. Xususiy mulk har doim yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish bilan bog'langan va bu unga nisbatan salbiy oqibatga olib keladigan aqida mavjud edi. Tarixiy tajribada bu hozirgacha har tomonlama asoslanmaganligi ma'lum bo'ldi. Ekspluatatsiya xususiy mulksiz ham, davlat mulki hukmronligida ham bo'lishi mumkin ekan. Bundan tashqari, xususiy mulkning hammasida ham ekspluatatsiya bo'lavermaydi. Masalan, o'z mehnatiga asoslangan xususiy mulkda bo'lmaydi. Ekspluatatsiya mulkdan kelib chiqmaydi, balki yollanma xodimini ishlatuvchi bilan noteng sharoitga qo'yuvchi, ular ishtirokida yaratilgan mahsulotni o'zlashtirishda va taqsimlashning teng huquqli bo'lmagan usullarida namoyon bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ma'lum tizimidan kelib chiqadi.

Xususiy mulkning ko'p shakllari yuksak ijtimoiy foydalilikka ega. Dehqon xo'jaligi xususiy mulki uning a'zolariga o'z shaxsiy badiylikkorligini amalga oshirishda, mustaqilligini namoyon qilishga imkon beradi. Busiz taraqqiyot barqaror samara bermaydi. Xususiy mulk kishilarda ijodiy faollikni, qobiliyatni namoyon qilib, javobgarlikni kuchaytiradi. U iqtisodiy hayotni tezlashtirib, kishilarni hisob-kitob qilishga, ertangi kun mas'uliyati haqida

mulkning iqtisodiy munosabatlaridir. Mulk munosabatlarini o'rganish asosida uning obyektiv va subyektiv xususiyatlari aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining mehnat salohiyatlarini amalga oshirishning hal qiluvchi sharoitlaridan biri — mulk munosabatlarini o'zgartirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida turli-tuman shakllaridan foydalanishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov respublikamizda mulkdorlar qatlamini shakllantirish vazifasini dolzarb qilib qo'ygan edi. Mamlakatimizda mulkdorlar qatlamini vujudga keltirishni tezlashtirish uchun «Mulk to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, Mehnat kodeksi, Yer kodeksi va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayoni bir tomondan moddiy omillar, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga, ikkinchi tomondan, bu vositalarga mulk yuzasidan odamlarning munosabatlari asosida amalga oshiriladi. Mulk maqomi ko'p jihatdan dehqonning tabiatiga mos keladi. Modomiki, bozor mulk munosabatlarini iqtisodiy amalga oshirishning vositasi va sharoiti hisoblanar ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk va uning turli-tuman shakllarining roli keskin oshadi.

Yerni, boshqa ishlab chiqarish vositalarini davlat tasarrufidan chiqarmasdan va xususiylashtirmasdan turib, erkin qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini shakllantirish, to'laqonli bozor munosabatlarini yo'lga qo'yish mumkin emas. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish davlat mulkning salmog'iga bog'liq emas. Muhimi uning sonida emas, balki uning mazmuni o'zgarishida, ya'ni byurokratik boshqariladigan mulkdan demokratik boshqariladigan mulkka aylantirishdadir.

Gap mulkning shunday tizimi xususida boradiki, bunda har bir dehqon va mehnat jamoasi faqat ishlab chiqarish vositalari emas, balki yaratilgan mahsulotning ham real xo'jayiniga aylanishi kerak. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda qatnashishi lozim.

Mulk munosabatlarini har tomonlama o'rganish mulkning obyektlari va subyektlarini aniqlashga imkon beradi. Mulkning obyekti bo'lib, mulk bo'lgan predmetlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yer, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ishlab chiqarish binolari

va imshootlari, uy-joy, mashina va uskunalar, qishloq xo'jaligi mashinalari, transport vositalari va boshqalar mulk obyektlariga kiradi. Mulkdan xo'jalikda foydalanish natijasi — mahsulot va daromad — shu ishlab chiqarish vositalarining mulkdoriga tegishli bo'ladi. Mulkning subyekti bo'lib fermerlar, alohida ijarachilar, hisador, shirkat, kooperativ jamoalari va boshqalar hisoblanadi.

Mulk subyektlari uch asosiy qonuniy huquqdan foydalanishadi:

- *birinchisi*, egalik qilish huquqi, ya'ni real, haqiqatda mulkka egalik qilish, subyektning o'zi uni o'z hukmiga bo'ysundiradi;
- *ikkinchisi*, foydalanish huquqi, ya'ni «birov»ning mulkidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishdir;
- *uchinchisi*, idora, tasarruf qilish, ya'ni mulkni o'z xohishiga qarab ishlatish imkoniyati, mulkning taqdirini aniqlash.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalariga mulk shakllari to'rt xil bo'ladi: *davlat, jamoa, xususiy va aralash*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mulk munosabatlari tizimida xususiy mulk alohida, muhim o'rinni egallaydi. Xususiy mulk keng ma'noda jamiyatning alohida a'zolarining (dehqon) mulki yoki uning aniq qismi a'zolari (kooperativ jamoalar)ning mulkini ifodalaydi.

Xususiy mulk — barcha turdagi davlat mulki bo'lmagan mulkdir. Xususiy mulk har doim yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish bilan bog'langan va bu unga nisbatan salbiy oqibatga olib keladigan aqida mavjud edi. Tarixiy tajribada bu hozirgacha har tomonlama asoslanmaganligi ma'lum bo'ldi. Ekspluatatsiya xususiy mulksiz ham, davlat mulki hukmronligida ham bo'lishi mumkin ekan. Bundan tashqari, xususiy mulkning hammasida ham ekspluatatsiya bo'lavermaydi. Masalan, o'z mehnatiga asoslangan xususiy mulkda bo'lmaydi. Ekspluatatsiya mulkdan kelib chiqmaydi, balki yollanma xodimini ishlatuvchi bilan noteng sharoitga qo'yuvchi, ular ishtirokida yaratilgan mahsulotni o'zlashtirishda va taqsimlashning teng huquqli bo'lmagan usullarida namoyon bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ma'lum tizimidan kelib chiqadi.

Xususiy mulkning ko'p shakllari yuksak ijtimoiy foydalilikka ega. Dehqon xo'jaligi xususiy mulki uning a'zolariga o'z shaxsiy tadbirkorligini amalga oshirishda, mustaqilligini namoyon qilishga imkon beradi. Busiz taraqqiyot barqaror samara bermaydi. Xususiy mulk kishilarda ijodiy faollikni, qobiliyatni namoyon qilib, javobgarlikni kuchaytiradi. U iqtisodiy hayotni tezlashtirib, kishilarni hisob-kitob qilishga, ertangi kun mas'uliyati haqida

o'ylashga majbur qiladi. Xususiy mulk ko'pgina ijtimoiy masalalarni hal qilib, kishining davlatdan va ijtimoiy tashkilotlardan mustaqilligini kengaytiradi. Faqat xususiy mulk shaxsiy iqtisodiy mustaqillikning asosi hisoblanadi. Xususiy mulk — inson shaxsiy erkinligining yagona moddiy kafili hisoblanadi. Dehqon xususiy mulki avlodlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, bolalarni ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Xususiy mulkning shakllanishi, uning xususiyatlari, tasarruf etilishi, xususan, o'z mehnati bilan topilgan mulkka egalik qilish to'g'risida, o'zbekistonlik taniqli iqtisodchi olimlar bilan birgalikda millatimiz, Vatanimiz mustaqilligi, ozodligining fidoyi, o'tashin kurashchilardan biri bo'lgan Alixonto'ra Sog'uniy o'zining «Turkiston qayg'usi» nomli asarida «Insonning eng sevgan, qadrlilik, qimmatlik to'rt narsasi bordur. Bu to'rt narsaga ega bo'lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo'ladi. Alarning eng birinchisi shuldurkim, har odam o'z erk va ixtiyoriga ega bo'lmoqdur. O'zida erki yo'q, qo'lida ixtiyori yo'q odamlarning hayvondan nima farqlari bor? Ikkinchisi — shar'iy yoki qonuniy kasblari orqali topgan mol-u dunyosi, qilgan mehnatining mevasi shul topguvchining o'z haqqi bo'lgan xos mulkidur»¹ deb yozib qoldirganlarida qanchalik haq ekanliklarining isboti bugungi kunda yaqqol ko'rinib turibdi.

Qishloq xo'jaligida xususiy mulkning boshqa mulk shakllaridan tubdan afzalligini quyidagicha bo'lish mumkin:

a) xodimning ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita aloqasini ta'minlash va shu vositalardan foydalanish masalalarini mustaqil hal qilish huquqida namoyon bo'ladi;

b) ishlab chiqarish faoliyatiga, shuningdek, yetishtirilgan mahsulot va olingan daromadda mustaqillikni ta'minlash;

d) qat'iy iqtisodiy javobgarlik va mas'uliyatning mavjudligi.

Dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaligi xususiy mulkida xo'jalikni yuritishda qayta ishlash va sotish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, yer, traktorlar, kombaynlar, boshqa mashina va uskunalar, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ishlab chiqarishga mo'ljallangan bino va inshootlar, transport vositalari va boshqalar, shuningdek, ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan vositalar — uy-joy, xo'jalik qurilishlari va boshqalar mavjud bo'ladi.

¹ *Alixonto'ra Sog'uniy*. Turkiston qayg'usi. T., «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003, 20-bet.

Ijara korxonalari mulkining vujudga keltirishi va rivojlantirishi, jamoa mulk shakli sifatida, dastlab davlat korxonalari mulkini ijara berishni ifodalaydi. Bu yerda ketma-ket ijarani amalga oshirish mumkin. Masalan, xo'jalik davlatdan asosiy va aylanma vositalarni ijara oladi. O'z navbatida, ichki xo'jalik bo'linmalari ishlab chiqarish vositalarini xo'jalikdan ikkilamchi ijara oladilar. Keyin esa brigada, bo'g'inlar yoki xodimlar ishlab chiqarish vositalarini bo'linmadan uchlamchi ijara oladilar. Bunda darajali yoki ketma-ket ijarada mulk har safar o'z xo'jayinini topaveradi. Ijara ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkning xarakterini o'zgartirmaydi. O'tmish iqtisodchilari, ijarachi mulkdor emasligini, ijara esa muddatli shartnoma ekanligini aytib o'tishgan. Lekin ijara mulkni iqtisodiy ro'yobga chiqartirishning shaklini o'zgartiradi. Ijara korxonasining jamoasi davlatdan shu ishlab chiqarish vositalarini asta-sekin sotib olishi mumkin. Bu holatda jamoa korxonaga mulki vujudga keladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida kooperativ mulk ancha salmoqni egallaydi. Kooperativ mulki, uning a'zolarining pul va badallari, ishlab chiqarilgan mahsulot, olingan daromad va boshqa faoliyatlar hisobiga tashkil etiladi.

Qishloq xo'jaligida mulkning rivojlanayotgan yangi shakli aksiyador, aksionerlik jamiyati va korxonalari mulki hisoblanadi. Aksiyador jamiyati mulki, aksiyalarni sotishdan, shuningdek, xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlar hisobiga yaratilgan ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. Davlat qishloq xo'jaligi korxonasi jamoasining qaroriga binoan, bu korxonaga aksionerlik jamiyatiga, uning mulki esa aksiyador jamiyat mulkiga aylantiriladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mulkning aksiyadorlik shaklining ahamiyati yanada oshadi:

- ishlab chiqarish resurslarini real umumlashtirishga yetaklovchi, mulkni davlat tasarrufidan chiqaruvchi vosita. Aksiyador mulkida mulkning turli bazaviy shakllari birlashadi. Bu yerda aksiyani sotib oluvchilar alohida fuqarolar, jamoalar va davlat bo'lishi mumkin;

- xodimlarning moliyaviy resurslarini korxonaga ehtiyojlari uchun talab qilish vositasi;

- ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishda va ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda xodimlar manfaatdorligini oshirish vositasi;


- dividend olish yo'li bilan xodimlar daromadini ko'paytirish usuli.

Xo'jalik uyushmalari (birlashmalari) mulki — bu konsern, agrokonsorsium va boshqalar mulkidir. Bunga korxonalar va tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan, xo'jalik faoliyati natijasida olingan mulk va ishlab chiqarish vositalari kiradi. Davlat mulkiga davlat tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga birlashtirib qo'yilgan mulklar kiradi.

Keyingi paytlarda mulkning aralash shakli ham rivojlanmoqda. Bunga fuqarolarning, kooperativlarning, aksiyadorlik jamiyati va davlatning, shu jumladan, chet el fuqarolari, korxonalari, birlashmalarining birlashgan mulki kiradi.

Mulkning turli-tuman shakllaridan samarali foydalanish ularga teng huquq berilganda amalga oshadi. Ulardan birortasini yetakchi qilib qo'yish yana monopol tendensiyani keltirib chiqaradi. Har bir mulk shaklining o'z vazifasi bor. Masalan, xususiy mulkning bir xil, jamoa mulkning ikkinchi xil va davlat mulkning uchinchi xil vazifasi mavjud.


Quyida bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasida amal qilishi mumkin bo'lgan turli-tuman mulk shakllari keltirilgan:



2-chizma. O'zbekiston Respublikasida amal qilishi mumkin bo'lgan mulk shakllari.

Agrosanoat uyushmasiga qarashli davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari va xususiylashtirish tartiblari quyidagilardan iborat:

1. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari



3-chizma. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari.

2. Mulknı xususiylashtirish tartiblari



4-chizma. Mulknı xususiylashtirish tartiblari.

Respublikada korxonalar va obyektlarnı xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning yillar bo'yicha dinamik holatini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Respublikada korxonalar va obyektlarnı xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning borishi (2003–2012-yillar)*

T/r	Ko'rsatkichlar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
1.	Xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlar soni	1519	1228	980	673	631	392	135	96	95	83
2.	Xususiylashtirishdan tushgan pul mablag'lari, mlrd so'm	56,1	78,5	80,5	70,4	111,1	130,6	35,7	23,0	39,2	32,1

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2003—2012-yillar mobaynida respublikada xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlar soni 1519 tadan 83 tagacha kamayib borgan. Bu, albatta, yildan yilga bu jarayonning tugallanib borayotganligidan dalolat beradi. Ayni paytda 2003-yildan to 2008-yilgacha bunday obyektlarni xususiylashtirishdan tushgan pul mablag'lari mos ravishda 56,1 mlrd so'mdan 130,6 mlrd so'mgacha oshib borgan. 2009-yildan boshlab esa kamayib borish tendensiyasi mavjud bo'lib, bu mos ravishda, 35,7 dan 32,1 mlrd so'mgachani tashkil etadi. Bu yildan yilga nafaqat ular sonining kamayishi, balki qiymati past korxonalar va obyektlarning davlat tasarrufidan chiqarilayotganligini bildiradi.

4.2. Xo'jalik yuritish shakllari tizimi. Qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi

Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning iqtisodiy manfaatlar va ularni amalga oshirish sharoitlarida xo'jalik yuritishning turli tuman shakllari asos qilib olinadi. Har bir mulk shakliga mos ravishda xo'jalik yuritish shakli yoki qishloq xo'jaligi korxonalar to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida korxonalarining quyidagi turlari rivojlantiriladi:

- ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikka asoslangan dehqon xo'jaligi. Yer resurslari bu yerda xususiy mulkda yoki ijara sharoitida bo'lishi mumkin. Mamlakatda uzoq vaqtlar mehnatni tashkil qilishning va xo'jalik yuritishning dehqon oila xo'jalik shakllariga unchalik e'tibor berilmas edi;

- jamoa mulkining turli shakllaridan foydalanishga asoslangan, ijara korxonalar, kollektiv korxonalar, qishloq xo'jaligi korxonalar, aksiyadorlik jamiyati ko'rinishidagi korxonalar, xo'jalik uyushmasi (birlashmasi)ga tegishli korxonalar;

- davlat mulkiga asoslangan turli xil davlat korxonalarini.

Qishloq xo'jaligida mustaqil korxonalardan tashqari, shuningdek, tarmoq hududiy yoki boshqa tamoyillarga asoslangan ixtiyoriy birlashmalar, xalqaro tashkilotlar mavjud bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan xo'jalik yuritish shakllari, korxonalar va birlashma turlari, shuningdek, dehqon xo'jaligi, mamlakat qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini tashkil qiladi. Har bir mamlakatda, hududda o'ziga xos sharoitdan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma har xil bo'ladi, ya'ni xo'jalik yuritish shakllari, korxonalar va birlashma turlari har xil.

Agrar iqtisodiyotning ko'p ukladlilikini tan olish, nazariy jihatdan xo'jalik yuritishning har qanday shakli harakat qilishining teng huquqligini tan olish demakdir. Bu masalaning amaliy tomoni hozirgi vaqtdagi qishloq xo'jaligining real holatini hisobga olishdir. Mavjud xo'jaliklar bilan bir qatorda agrar iqtisodiyotdagi ko'p ukladli bo'g'inlarni tan olish xo'jalik yuritishning turli ijtimoiy-iqtisodiy shakllari o'rni va chegarasini asoslab beradi. Iqtisodiy jihatdan baquvvat xo'jaliklar faoliyatini to'xtatib, ularni tugatish va boshqa korxonalariga aylantirish noto'g'ri bo'lur edi. Bunday xo'jaliklarda ijara va kooperativ xo'jalik shakllarini takomillashtirish uchun rezervlar bo'lsa ham, ularga chetdan ta'sir o'tkazmaslik kerak. Ancha ilgari buyon zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni esa, obyektiv sabablari bo'lgani uchun kelajakda mustaqil rivojlanishini, ularda qanday xo'jalik shakllarini joriy qilishni dehqonlar o'zlari hal qilishlari kerak.

Qishloq xo'jaligida ko'p ukladlilikning rivojlanishi, dehqon xo'jaligining mustahkamlanishi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkil qilish, ularning vazifalarini va tuzilmalarini o'zgartirishni, ularni kooperativlarga (uyushma, ittifoq va boshq.) aylantirishni taqozo qiladi. Yer va chorva mollari mahsuldorligini oshirish uchun, mahsulot sifatini yaxshilash va uni ishlab chiqarish xarajatini pasaytirish uchun olib borilgan raqobat kurashida samaradorlik to'g'risidagi masala va xo'jalik yuritishning u yoki bu shaklining afzalligi aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligida turli mulk shakllari va korxonalar turlari o'rtasidagi raqobat kurashida davlat faol rol o'ynaydi. Bu davlat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyurtmalarni tanlov asosida bajarishda, soliq va kreditlarni amalga oshirishda, yangiliklardan foydalanishda, davlat budjetidan kapital mablag'larni moliyalashtirishda namoyon bo'ladi.

2012-yilga kelib qishloq xo'jaligidagi barcha toifadagi xo'jaliklar yetishtirgan mahsulotlarning 34,4 % i fermer xo'jaliklariga, 63,5 % i dehqon xo'jaliklariga va 2,1 % i boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga hissasiga to'g'ri kelgan.

4.3. Xususiy mulkchilikka asoslangan fermer xo'jaliklarini shakllantirishning nazariy asoslari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan paytdan boshlab, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yaqin kelgusidagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlarini, jumladan,

agrar sohada tub iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, qishloqda o'rta va kichik biznesni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda ulkan sa'y-harakatlar amalga oshirildi.

Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlik butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash asosiy strategik maqsadlardan ekanligi alohida ta'kidlandi. Islohotlar esa mamlakat ijtimoiy hayotida izchillik bilan joriy qilinmoqda.

Respublika xalq xo'jaligida mulkning turli xil shakllari faoliyat ko'rsatayotgan davrda bozor subyektlari, jumladan, qishloq xo'jaligi korxonalari va ular tarkibidagi mehnat jamoalarining ham moddiy manfaatdorliklari oshishi va xo'jalik yuritishdagi iqtisodiy erkinlik natijasida ularda nafaqat ishlab chiqarish, balki tadbirkorlik faoliyati ham shakllanib, tezkor rivojlanib bormoqda. Bu esa qishloqda bozor munosabatlarning tezroq shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydi.

Mulk munosabatlari har qanday jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlarning asosini tashkil etadi. U o'z mohiyati jihatidan moddiy ne'matlarni o'zlashtirish yuzasidan insonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlardan tashkil topadi. Bu yerda mulk munosabatlari negizini egalik qilish, foydalanish va o'zlashtirish huquqlari tashkil qiladi. Ya'ni dehqon ushbu huquqlarga ega bo'lsagina o'zini to'liq mulkdor sifatida his etishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti esa mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi mulkdor faoliyati asosida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan respublikamiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, eng avvalo, qishloqlarda mulkdorlar sinfini shakllantirish, dehqonni mulkning haqiqiy egasiga aylantirishni asosiy masalalardan biri sifatida qo'yimoqda.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davrida, faoliyat ko'rsatib kelayotgan davlat va jamoa xo'jaliklari bosqichma-bosqich tugatilib, bu xo'jaliklar o'rnida ijara xo'jaliklari, ochiq va yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, dehqon xo'jaliklari, agrofimlar va shirkatlar uyushmalari tashkil etildi. Dastlabki to'plangan tajribalar natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, bu xo'jalik yuritish shakllari faoliyati kutilgan yuqori iqtisodiy-ijtimoiy samaralarni bermadi. O'tkazilgan aniq tadqiqotlardan ma'lum

bo'ldiki, ko'p hollarda xo'jalik nomi o'zgargani bilan ichki iqtisodiy mexanizm o'zgarmasdan, eskicha ish yuritish tizimida faoliyat ko'rsatib, qishloq xo'jaligi korxonalaridagi xodimlarning ranga, mulkka va yetishtirilgan mahsulotga bo'lgan egalik hissini shakllantirish uchun yetarli sharoit yaratilmadi.

Bu hol qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilishni, tarmoqda mulk munosabatlarini takomillashtirish zaruriyatini paydo qildi.

Rivojlangan davlatlarning ko'p yillik tajribalarini umumlashtirish asosida hamda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazishning huquqiy asosi yaratildi.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida eng samarali xo'jalik yuritish shakllaridan, ya'ni xoh u fermer xo'jaligi, xoh shirkat xo'jaligi yoki dehqon xo'jaligi bo'lsin, ulardan eng samarali shaklini aniqlashni taqozo etadi. Xo'jalik yuritishning tanlab olingan shaklini takomillashtirish, qishloqda mulkdorlar qatlamini barpo qilish va barqaror rivojlantirish, ular mulkiy huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishi, qishloqqa sanoatni olib kirish natijasida qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchlarini band qilish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan, tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan hamda qishloq infratuzilmasida xizmat ko'rsatadigan korxonalarni tashkil qilish sohasidagi chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirishni talab qiladi.

Agrar sohada ham xususiylashtirishni keng joriy etish, mulkni ko'paytira oladigan, bozor raqobatiga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan mulkdorlar qatlamini vujudga keltirish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritgan Yangi tartibdagi qonuni respublikamizda fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ularni boshqarish va huquqlarini himoya qilish borasidagi katta ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy hujjat hisoblanadi. Bu esa hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida respublikamiz agrar sohasida mulkdorlar qatlamining shakllanishida muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida zikr etilgan Qonunning I bo'lim 3-moddasida fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt ekanligi qayd qilingan.

Fermer xo'jaligining boshlig'i shu xo'jalikning muassisi — fermerdir. U o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan, fermer xo'jaligiga tegishli alohida mol-mulk ajratib beradigan va ustavini ishlab chiqadigan shaxsdir.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi kamida 30 bosh shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan.

Fermer xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi va yuridik shaxs maqomini olib, bank muassasasida hisob-kitob varag'i va boshqa xil hisob varaqlar ochishga o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi. Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan namunali ustav asosida tuzilgan shu fermer xo'jaligining ustavi asosida faoliyat yuritadi.

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun beriladigan yer uchastkalari, zaxira yerlardan, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan, qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan beriladi.

Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarining yerlari, shuningdek, suv fondi yerlari fermer xo'jaligiga berilishi mumkin emas.

Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam

bo'lmagan muddatga beriladi. Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari muassasalari va tashkilotlarning yer uchastkalari maxsus tashkil etilgan komissiya o'tkazgan tanlov yakunlariga ko'ra, tuman hokimining qaroriga asosan beriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari mazkur kooperativning (shirkat xo'jaligining) yoki korxonasi, muassasa tashkilotining a'zolariga fermer xo'jaligini yuritish uchun qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy yig'ilishi tomonidan o'tkazilgan tanlov yakunlariga ko'ra, tuman hokimining qaroriga asosan berilishi mumkin.

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2005-yil 4-yanvardagi «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi negizida fermer xo'jaligi tashkil etishda tanlov g'oliblarini aniqlash to'g'risida»gi 1439-buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom asosida o'tkaziladi.

Tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarori viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasi tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi fermer xo'jaligining boshlig'i va tuman hokimi tomonidan imzolanadi. Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasidan qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi. Ular xususiylashtirilishi, shuningdek, oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi va ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin. Fermer xo'jaligi berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq mahalliy budjetga to'lanadigan har yilgi ijara haqi tariqasida yer uchastkasining sifatiga, joylashgan yeri va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, yerning kadastr bahosini inobatga olgan holda belgilanadigan yagona yer solig'i stavkasi miqdorida undiriladi.

Davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida fermer xo'jaligi yer uchastkasidan foydalanganligi uchun haq to'lashdan ozod etilishi qonunda belgilab qo'yilgan.

Fermer xo'jaligi yuridik shaxsning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Fermer xo'jaligi tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lib, tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun shu maqsadlarga monand tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir.

Fermer xo'jaligi boshqa shakllarda xo'jalik yurituvchi korxonalar bilan teng huquqlarga ega. Fermer xo'jaligi:

- o'ziga qarashli uy-joylar, xo'jalik imoratlari, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollar, parrandalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskuna va ashyo-anjomlari, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlari, shuningdek, boshqa mol-mulklarga;

- ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotga;
- olingan daromadlar (foydalar)ga;
- qonunda taqiqlanmagan asoslarda ega bo'ladigan boshqa mol-mulkkaga daxldordir.

Fermer xo'jaligining faoliyati ko'proq xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Fermer xo'jaligidagi ishlarni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida jalb etilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni sotishi, shu jumladan, davlat xaridi tartibida sotish uchun huquqiy va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda narx belgilaydilar.

Fermer xo'jaligini ishlab chiqarish ahamiyatiga molik obyektlar qurilishi, asosiy ishlab chiqarish vositalarini xarid etish uchun uzoq muddatli kreditlash va joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun o'rta va qisqa muddatli kreditlash shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklari bank muassasalari tomonidan ularga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladigan maxsus kredit fondidan imtiyozli shartlarda foydalanadilar. Fermer xo'jaligi qonun hujjatlariga muvofiq budjetga soliqlar, yig'imlar hamda boshqa to'lovlar to'laydi. Fermer xo'jaligi o'z faoliyatining natijalarini hisobga olib boradi hamda mahalliy statistika va soliq organlariga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida ta'kidlanishicha, «Bu yerda gap o'ziga tekkan mulkni shamolga sovurmasdan yoki shaxsiy boyluk orttirish yo'lida sovurmasdan, balki ana shu mulkni ko'paytira biladigan, texnika bilan qayta jihozlaydigan va zamon talablariga muvofiq takomillashtira oladigan, uning negizida raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan mulkdorlar haqida borayotir. Shuningdek, ish bilan band bo'lmagan aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydigan, o'ziga ham, ishlovchiga ham, davlatga ham daromad keltiradigan, ishlab chiqarishni tashkil qila oladigan mulkdorlar haqida fikr yuritilyapti!».

Haqiqiy mulkdor bo'lish haqiqiy xo'jayinlik tuyg'usini his etish demakdir. Bu, o'z navbatida, insonning yashirin kuch-g'ayratini, tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etadi, uni tashabbuskor va omilkor qiladi, o'z korxonasining rivojlanish istiqboli haqida qayg'urib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib boradi, oladigan foydasi ham, xodimlarning daromadi ham ko'payadi. Demak, iqtisodiy jihatdan erkin fuqaro, haqiqiy mulkdorigina o'z mol-mulkini samarali tasarruf etishdan, o'z boyligini ko'paytirishdan moddiy manfaatdor bo'libgina qolmay, balki mamlakatni boyitishga ham o'zining sezilarli hissasini qo'shishga imkoniyat yaratadi.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etish resurslardan, ayniqsa, yerdan samarali foydalanish, mehnatkashlarda mulkka, mehnatga bo'lgan munosabatlarni tubdan o'zgartirish, yuqori ko'rsatkichlarga intilish istagini kuchaytirishga olib keladi. Shu xo'jalikdagi a'zolarga haq to'lash mexanizmi mehnat unumdorligini oshirishda, o'z mulkiy huquqlaridan to'la foydalanish o'z mulki asosida, yetishtirilgan mahsulotga mustaqil egalik qilish hissini uyg'otish orqali erishish mumkinligini ko'rsatadi. Fermer xo'jaliklarida mulkdorlar o'z mulklari asosida kichik va qo'shma korxonalar tashkil etib, mulkni va sifatli mahsulotlarni ko'paytirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnatni ilg'or tajriba va texnologiyalar asosida tashkil etish, boshqaruvga malakali mutaxassis va menejerlarni jalb etish, mahsulot sifatini yaxshilash va tan-narxni pasaytirishdan manfaatdordirlar.

Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarini tashkil etishdan maqsad mehnatkashlarni boqimandalik kayfiyatidan xalos etib, ma'lum

bir miqdorda mulk egasi sifatida shu mulkdan imkoniyat darajasida samarali foydalanib, uni ko'paytirishning moddiy manfaatdorlik mexanizmini ta'minlashdan iboratdir. Mulkdor mahsulot ishlab chiqarishdagi sarf-xarajadni tejamkorlik bilan amalga oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, uni raqobatbardoshli qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish qishloq mehnatkashlarining farovonligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, mulkni ko'paytirish, undan samarali foydalanish, texnologik bir-biriga uzviy bog'liq xo'jalik subyektlari maqsadlarining uyg'unligini ta'minlovchi mexanizmlarni yaratishda bosh omil bo'lib hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ham fermerchilik usul va tamoyillariga asoslangan xo'jalik yuritish shakllari bozor iqtisodiyoti talablariga javob berishi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Mulikka va pirovard natijalarga egalik qilish huquqlarini mustahkamlash bilan bir qatorda fuqarolarda yangi iqtisodiy tafakkur va tushunchalarning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, turli xil mulkchilikka asoslanib, faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari orasida xususiy mulkchilikka asoslanib, o'z manfaati va o'z mas'uliyati negizida xo'jalik yuritayotgan fermer xo'jaliklarida mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalanishga sharoit yaratadi. Shu bilan birgalikda u mulikka, o'z mehnatining natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotga ega bo'lishi bilan birgalikda mamlakatimizni kuchli huquqiy davlatdan kuchli huquqiy fuqarolik davlat tizimiga o'tishda respublika aholisini yangi ijtimoiy tafakkur va tushunchalarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

4.4. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda erishilgan yutuqlar. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda fermer xo'jaliklari tajribasi

Mustaqillikka erishilgandan keyin respublikada mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik uslubidan voz kechilib, xalqimizning milliy, tarixiy merosi, turmush tarzi, urf-odatlarini, an'analari hamda mentalitetiga tayangan holda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish modeli, ya'ni «O'zbek modeli» yaratildi va hayotga tatbiq etilmoqda.

Siyosiy-ijtimoiy islohotlar natijasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy larzalarsiz, bosqichma-bosqich o'tilayotgan bozor munosabatlarining tub mohiyati va maqsadini respublika aholisining barcha qatlamlari to'lasincha, ongli ravishda tushunib olib, bozor islohotlarini samarali usullar vositasida amalga oshirishi mumkin va zarur ekanligini, ya'ni islohotlar odamlar uchun va shu odamlar orqali amalga oshirilishini chuqur anglab yetishlari zarur. Bugungi davr kishisi tovar sifatidagi ish kuchini o'zida mujassam etgan bozor munosabatlari subyektlari, yangi iqtisodiy sharoitda ishlay oladigan bo'lishlari ham talab qilinadi.

Respublika agrosanoat majmuyida ro'y berayotgan o'ziga xos holat, bu sohadagi mavjud vaziyatni chuqurroq tahlil qilishni, qo'yilgan vazifalarni imkon boricha ertaroq va kamroq yo'qotishlar bilan bajarish chora-tadbirlarini belgilashni taqozo etadi. Bu chora-tadbirlarni ishlab chiqarishda va asoslab berishda jahondagi bozorli iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlangan, mamlakatlarda to'plangan boy tajribalarni har tomonlama o'rganish, umumlashtirish va ulardan samarali foydalanish respublika fermer xo'jaliklarini oqilona tashkil etish, ularning iqtisodiy samaradorligini barqaror oshirish bo'yicha aniq takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish va uni xo'jalik yuritish faoliyatlariga tatbiq etish sohaning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya kabi taraqqiy etgan davlatlar, «Osiyo yo'lbarzlari» deya e'tirof etilgan va keyingi o'n yilliklar mobaynida yuksak yutuqlarga erishgan Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya, Xitoy Xalq Respublikasi singari mamlakatlarda to'plangan tajriba shundan dalolat beradiki, respublikamizdagi jamiyat hayotining barcha sohasini erkinlashtirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqarorlikning asosiy omili bo'lgan mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali erkin bozor munosabatlarini to'laqonli vujudga keltirish istiqbolda erkin, farovon, ma'rifatli, huquqiy fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi dadil qadam bo'lib sizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda fermerlik harakatlari, ularning samaradorlik darajalari, o'lchamlari katta-kichikligi, egallagan yer maydonlari, rivojlanish sur'atlari bir xil emasligini ko'rsatadi. Fermerlik harakati, ularda xo'jalik yuritish samaradorlik darajasi bo'yicha to'plangan ijobiy tajribalar bizning mamlaka-

Respublika fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2005—2012-yillar)*

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Fermer xo'jaliklari soni (yil oxiriga), ming	87,6	103,9	125,7	189,2	217,1	218,6	103,1	66,1	69,2	70,8
Biriktirilgan yer maydoni, ming ga	2148,1	2935,4	3775,3	4953,2	5787,8	5869,6	5828,5	5826,8	5841,0	5854,3
Bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladi, ga	24,5	28,2	30,0	26,2	26,7	27,0	56,5	80,1	84,4	82,7
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mlrd so'm	615,1	857,7	1453,5	2367,5	3111,0	3686,0	4822,6	5962,8	7505,1	8377,2
Ekin maydoni, ming ga	1401,9	1762,6	2140,7	2710,6	2996,8	3045,2	3053,3	3143,0	3063,4	3082,6
Shu jumladan:										
Donli ekinlar	680,3	805,3	932,0	1181,5	1274,0	1300,3	1353,9	1422,4	1362,4	1381,6
Texnika ekinlari	590,0	816,6	1034,9	1280,1	1442,3	1466,3	1396,0	1381,1	1364,7	1352,6
Ulardan paxta	573,0	793,2	1015,4	1268,4	1427,1	1403,2	1331,2	1320,8	1318,0	1297,2
Kartoshka va sabzavot-poliz ekinlari	36,8	36,8	39,5	69,6	83,0	89,1	91,5	101,2	100,0	108,1
Kartoshka	2,2	3,3	2,9	5,2	7,9	9,9	10,5	15,7	15,8	15,0
Sabzavot	17,5	19,0	21,7	45,0	53,6	56,5	58,1	59,1	58,9	63,5

Poliz ekinlari	17,0	14,4	14,8	19,4	21,4	22,7	22,9	26,4	25,3	29,6
Oziqa ekinlari	94,9	104,0	134,3	179,4	197,4	189,5	211,9	238,3	236,3	240,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ming tonna										
Paxta	1061,5	1825,1	2460,5	3110,3	3645,3	3371,0	3375,9	3384,5	3483,5	3439,4
Don (ishlovdan keyingi vaznda)	2201,4	2717,7	3550,5	4662,5	5284,1	5226,2	5922,8	6032,7	5670,8	6064,5
Kartoshka	33,5	44,5	45,9	108,3	178,6	226,5	277,0	337,2	397,7	487,3
Sabzavot	353,5	389,7	480,3	1305,4	1567,8	1718,5	1997,3	2215,8	2474,4	2732,9
Poliz ekinlari	177,8	174,1	205,7	325,7	415,6	461,9	536,5	595,9	653,6	730,9
Go'sht (tirik vaznda)	18,7	22,6	22,7	24,3	29,8	32,4	35,4	37,8	41,0	45,1
Sut	83,5	88,8	94,7	111,2	125,4	151,6	190,9	205,0	230,1	256,8
Tuxum, mln dona	60,2	77,4	71,6	76,7	88,8	157,3	228,1	288,1	374,5	464,6
Jun (fizik vaznda), tonna	325	395	601	895	1152	1285	1439	1715	1938	2105

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013.

Tahlil etilayotgan davrda, fermer xo'jaliklari soni 2003-yildagi 87,6 mingdan 2012-yilda 70,8 minggacha o'zgargan, birlashtirilgan yer maydonlari shu davrda 2148,1 ming ga.dan 5854,3 ming ga.gacha ko'paygan. Bu 2,7 marta ko'p demakdir. Fermer xo'jaliklari maydonlari optimal holatga keltirilib, o'rtacha 1 fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan yer 24,5 ga.dan 82,7 ga.ga oshgan. Bu o'zgarish tendensiyasi barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining maydonlarida ham ro'y bergan va ularning yalpi hosillari ham oshib borgan. Ayni holat fermer xo'jaliklarining tobora rivojlanib borayotganliklaridan dalolat beradi.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklari nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi subyekt sifatida, balki yangi ish o'rinlarini yaratuvchi va mehnat resurslarini ish bilan ta'minlovchi subyekt sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan keyingi yillarda amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayonining asosiy maqsadi ana shu muhim va dolzarb masalaga qaratilgan. Umuman, fermer xo'jaligining yer maydonini maqbullashtirish — yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish va fermer xo'jaligining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida uning yer maydoni hajmini o'zgartirish demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-yanvardagi «Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 22-qarori qabul qilingan. Bu qaror, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4478-sonli Farmonini bajarish yuzasidan hamda fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini maqbullashtirish jarayonida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, fermer xo'jaliklarini tugatishda qonunchilik normalariga rioya etish kafolatlarining ishonchli tizimini yaratish maqsadida qabul qilingan.

Ixtiyoriylik asosida amalga oshirilgan maqbullashtirishdan so'ng fermer xo'jaligida qolgan yer maydoni O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan minimal miqdordan kam bo'lmasligi kerakligi, dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi uchun ijaraga beriladigan yer maydonining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun — kamida 30 gektar, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish

uchun — kamida 5 gektar bo'lishi va fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirishda yer maydoni konturlarining yaxlitligi buzilishiga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilab qo'yildi.

2015-yilgi fermer xo'jaliklari yerlarini qaytadan maqbullashtirish jarayoni asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 40-qarori tahriri talablari asosida surunkasiga zarar bilan ishlayotgan fermer xo'jaliklarini tugatish va ularni ekin maydonlari tarkibi bo'yicha ko'rib chiqish maqsadida amalga oshirildi. Fermer xo'jaligini ixtiyoriylik asosida tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 27-apreldagi «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 630-sonli Qaroriga muvofiq amalga oshirildi. Ularning qarzlarini to'lash tugatuvchi tomonidan xuddi shu Qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-dekabrda «Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 362-qaroriga asosan amalga oshirilgan ishlar natijasida, respublikada fermer xo'jaliklari soni 17556 taga ko'payib yoki 101070 taga yetdi, ularning o'rtacha yer maydoni 36,1 gektarni tashkil qildi. 5-jadvalda maqbullashtirish natijasining yakuniy ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan.

Demak, maqbullashtirish natijasida o'rtacha 1 fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan yer uchastkasi: paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda — 36,1 ga, sabzavotchilik va polizchilik xo'jaliklarida — 8,1 ga, bog'dorchilik va uzumchilik xo'jaliklarida — 6,8 ga, chorvachilik xo'jaliklarida — 31,2 ga va qishloq xo'jaligining boshqa yo'nalishlariga ixtisoslashgan xo'jaliklarda 8,3 ga bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Maqbullashtirish jarayoni yuqorida ta'kidlanganidek, bir tomondan, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish va fermer xo'jaligining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida uning yer maydoni hajmini o'zgartirish bo'lsa, boshqa tomondan, qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibidan kelib chiqib, hozirgi kunda mavjud faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

Demak, butun iqtisodiyot tarmoqlarida, jumladan, qishloq xo'jaligida fermerlik harakatining yangi va samarali shakli bo'lgan

**Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun taqdim etiladigan yer
uchastkalarining maqbullashtirilgan hajmi**

Respub- lika bo'yicha	2015-yil 1-oktabr, maqbullash- tirishgacha		2015-yil 1-dekabr, maqbullashtirish natijasi bo'yicha		Farqi			
	Jami fermer xo'ja- liklari soni, ta	1 f/x.ga to'g'ri kelgan o'rtacha yer uchast- kasi, ga	Jami fer- mer xo'- jaliklari soni, ta	1 f/x.ga to'g'ri kel- gan o'r- tacha yer uchastkasi, ga	Fermer xo'jaliklari soni, ta		1 f/x.ga to'g'ri kelgan o'rtacha yer uchastkasi, ga	
Jami								
Jami	83514	43,9	101070	36,1	17556	21,0	-7,8	-17,8
Shu jumladan, paxtachilik va g'allachilikka								
Jami	48264	65,1	60695	52,7	12431	25,8	-12,4	-19,0
Sabzavotchilik va polizchilikka								
Jami	2982	12,5	3655	8,1	673	22,6	-4,4	-35,1
Bog'dorchilik va uzumchilikka								
Jami	19575	9,5	24730	6,8	5155	26,3	-2,7	-28,2
Chorvachilikka								
Jami	6770	34,6	6572	31,2	-198	-2,9	-3,4	-9,9
Qishloq xo'jaligining boshqa yo'nalishlariga								
Jami	5923	11,5	5418	8,3	-505	-8,5	-3,2	-28,1

ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini barpo etish ayni obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

Tom ma'noda «Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi» — fermer xo'jaligi tashkil etilishi paytida yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasida belgilangan asosiy ixtisoslashuv yo'nalishidan boshqa sohalarda ishlab chiqarishni tashkil etib, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yan fermer xo'jaliklari hisoblanadi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

1. Ishlab chiqarishning qo'shimcha tarmog'i asosiy tarmoq bilan bog'liq holda yoki bog'liq bo'lmagan sohalarda tashkil etiladi.

2. Qo'shimcha tarmoqni fermer xo'jaligi o'zi alohida yoki boshqa fermerlar bilan tashkil etishi mumkin (kooperatsiya).

3. Qo'shimcha tarmoq alohida yuridik shaxs sifatida tashkil etilishi mumkin.

4. Ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi muhim shartlardan biri — bu har qanday fermer xo'jaligi o'z daromadini (sof foyda) oshirish maqsadlarida o'z xohishiga ko'ra, ixtiyoriy ravishda qo'shimcha tarmoqlarni tashkil etgan holda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylanishi mumkinligidir. Bu boradagi fermerlik faoliyati to'liq ixtiyoriy va fermer xo'jaligining xususiy manfaatlariga bo'ysunishi lozim.

Fermer xo'jaligining qo'shimcha tarmoqlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tijorat, savdo-sotiq.

2. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish: suratxonalar; cho'milish havzalari; go'zallik saloni; dam olish uylari; marosimlar uyi; umumovqatlanish shoxobchalari; xalq hunarmandchiligi; ekoturizm; turli xildagi to'garaklar va boshqa xizmat turlari.

3. Xizmat ko'rsatish: avtomobillarga texnik yordam ko'rsatish; poyabzal ta'mirlash va tikish; yog'ochni qayta ishlash va quritish; qurilish materiallari ishlab chiqarish; mebel yasash va ta'mirlash; kiyim-bosh va trikotaj mahsulotlarini tikish-to'qish; teleradio, video, audio apparatlarini tuzatish; telekommunikatsiya aloqalari (telefon, faks, Internet);

4. Yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarish (oziq-ovqat mahsulotlari, ip, kalava va boshq.).

Hozirgi vaqtda hududlarda fermer xo'jaliklarida qo'shimcha tarmoqni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Iqtisodiy jihatdan:

1. Sotilgan mahsulotlar uchun pul mablag'lari o'z vaqtida tushirilmasligi;

2. Soliq, boj, sug'urtalash va kredit tizimida imtiyozlar ko'lamini kengaytirish zarurati;

3. Qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari baholarining nomutanosibligi;

4. Qishloq joylarida infratuzilma shoxobchalarining samarasiz faoliyat ko'rsatishi;

5. Moliyaviy muassasalarda kredit mablag'lari yetishmasligi;

6. Marketing tizimidan kam foydalanish.

II. Ma'muriy-tashkiliy jihatdan:

1. Qo'shimcha tarmoqni qo'llab-quvvatlashdagi huquqiy asoslar yetishmasligi;
2. Qo'shimcha tarmoqni rivojlantirish uchun moddiy-texnik resurslar yetkazib berish tizimidagi tashkiliy muammolar;
3. Qo'shimcha tarmoq faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal qiluvchi nazorat idoralar bilan bog'liq qiyinchiliklar.

III. Ijtimoiy jihatdan:

1. Fermer xo'jaliklari rahbarlarida qo'shimcha tarmoqni rivojlantirishda bilim va malaka yetishmasligi;
2. Fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha tarmoq ahamiyatini to'liq anglamaslik;
3. Fermer xo'jaliklarida shakllanib qolgan ruhiy vaziyat, ya'ni paxta-g'alla rejalarini bajarish asosiy vazifa sifatida qaralishi.

Umuman olganda, mamlakatda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini barpo etish, rivojlantirish va samaradorligini oshirish hisobiga, shuningdek, oziq-ovqat dasturi doirasida belgilangan loyihalarni amalga oshirish natijasida yangi ish o'rinlarining barpo etilishi hududda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy masalalarning ham hal qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni har yili oliy o'quv yurtlarini va kasb-hunar kollejarini bitirib chiqayotgan yosh yigit-qizlarning mehnat birja va yarmarkalar orqali ish bilan ta'minlanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Amalga oshirilayotgan loyihalarning moliyalashtirilish jarayoni va chora-tadbirlar dasturi ijrosi tahlili shuni ko'rsatadiki, joylarda tijorat banklarining taqdim etadigan kredit mablag'laridan foydalanish darajasi past bo'lib, asosiy moliyalashtirish manbayi ishlab chiqaruvchilarning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan. Bu, o'z navbatida, hududlar iqtisodiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash tamoyili asosida rivojlanish imkoniyatlarining mavjudligidan dalolat beradi. Shuningdek, kelajakda mavjud yer-suv, mehnat va moliyaviy salohiyatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish istiqbolli ekanligini amalda ko'rsatadi.

4.5. Dehqon xo'jaliklari — xo'jalik yuritishning oqilona shaklidir

Dehqon xo'jaligi deganda, o'z mulki yoki ijaraga olingan yer, suv, boshqa vosita va mol-mulklardan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, saqlashni va sotishni amalga oshiruvchi, oilaviy, oilaviy-mehnat yoki bir qancha shaxslarning birgalashgan mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik subyekti tushuniladi. Bu haqda 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni 1-bob 1-moddasida shunday deyilgan: «Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi».

Dehqon xo'jaligi — xo'jalik yuritishning oqilona shaklidir. Haqiqatda dehqon va uning oilasi shaxsiy mehnatiga asoslangan, tovar xarakterini oluvchi, ishlab chiqarishni hamkorlikda amalga oshiruvchi shaxslarning ixtiyoriy oilaviy mehnatiga asoslangan birlashmasi — bu dehqon xo'jaligidir. Ular ishlab chiqarish vositalariga hamkorlikda egalik qiladilar, yetishtirilgan mahsulotga va olinadigan daromadga birgalikda egalik qiladilar. 100 yillar davomida shakllangan dehqon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tarixiy davrlarda dehqon xo'jaligining quyidagi ijtimoiy tiplari o'rganilgan:

- sinfiy quloq xo'jaligi. Bunda asosiy daromadlar savdo aylanmasidan keladi. Qishloqda ularning soni kam bo'lgani bilan, lekin iqtisodiy ta'siri kuchli bo'lgan;
- yollanma mehnatga asoslangan quloq xo'jaligi bo'lib, sohibkorlik daromadini olishga manfaatdor;
- shaxsiy mehnatga asoslangan iqtisodiy kuchlari turli darajada bo'lgan o'rta hol dehqon xo'jaliklari;
- o'z ish kuchini sotuvchi proletar xo'jalik va boshqalar.

4.6. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari va sharoitlari, uning mulki, ishlab chiqarish faoliyati hamda samaradorligi

Dehqon xo'jaligining a'zolariga xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatida qatnashuvchi er-xotinlar, bolalar, ota-onalar, qarindoshlar

doshlar va boshqa shaxslar kirishi mumkin. Dehqon xo'jaligining boshlig'i, uning davlat, kooperativ va boshqa korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, alohida fuqarolar oldidagi manfaatlarini himoya qiluvchi, asosiy ish joyi shu yer bo'lgan, xo'jalikda sistemali ravishda band bo'lgan va zaruriy professional tayyorgarlikka ega bo'lgan mehnatga yaroqli a'zolaridan biri bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan Qonunning 4-moddasida: «Dehqon xo'jaligining boshlig'i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo'lmaganda u o'z majburiyatlarini bajarish vakolatini shu xo'jalik a'zolaridan biriga, dehqon xo'jaligining a'zosi bir kishidan iborat bo'lganda esa, shartnoma asosida — ushbu moddaning ikkinchi qismi talablariga javob beradigan har qanday shaxsga berishga haqlidir» deyilgan.

Dehqon xo'jaligi davlat kooperativ va boshqa xo'jalik yuritish shakllari qatorida agrosanot tarmog'iga kiruvchi teng huquqli va mustaqil xo'jalik yuritish shakli hisoblanadi. U o'z faoliyati yo'nalishini, ishlab chiqarish tarkibini va hajmini, mahsulot sotish kanallarini o'zi mustaqil aniqlaydi, qo'shma faoliyatda, shu jumladan, xorijda sheriklarni o'zi tanlaydi, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi. Dehqon xo'jaligi davlat bilan, kooperativ va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar bilan, alohida fuqarolar bilan iqtisodiy munosabatlarni shartnoma asosida amalga oshiradi, savdo operatsiyalarini pullik va naqd pulsiz hisob-kitob qiladi, soliqlarni to'laydi, budjetga to'lovlarni amalga oshiradi. Ijtimoiy sug'urta fondi va boshqalarni amalga oshiradi.

Dehqon xo'jaligi birlashmalar, ittifoqlar, konsorsiumlar qo'shma va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar ta'sisчилari va qatnashчилari bo'lish, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish huquqiga ham egadir. Dehqon xo'jaligining ishlab chiqarish, tijorat va boshqa faoliyatlariga davlatning va boshqa organlarning aralashuvi qonun bilan taqiqlanadi. Ba'zi holatlar bundan mustasno.

Dehqon xo'jaligini tashkil qilish huquqiga mamlakatning har qanday fuqarosi ega. Faqat undan xohish va maxsus qishloq xo'jaligi bilimi va malakasi, qishloq xo'jaligida amaliy ish tajribasiga ega bo'lishi yoki maxsus tayyorgarlikni o'tashi talab etiladi. Dehqon xo'jaligi tashkil etish to'g'risidagi fuqarolarning arizasi,

jamo'a boshqaruvi raisi, jamo'a xodimlari va a'zolari umumiy yig'ilishida va tuman hokimligi tomonidan ko'rib chiqiladi. Dehqon xo'jaligining egasi yerga egalik qilish, undan foydalanish to'g'risidagi davlat akti berilgandan keyingina yoki yerni ijaraga berish to'g'risidagi shartnoma tuzilgandan keyingina tashkil etilgan hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi xususiy mulk qilib ham, umrbod meros qilib ham yoki yerni ijaraga berish yo'li bilan ham tashkil etilishi mumkin. Yerdan foydalanish turlarini (egalik qilish yoki ijara) tanlash huquqi dehqon xo'jaligiga beriladi. Dehqon xo'jaligiga yer uchastkasi davlat yer zaxirasidan, davlat o'rmon fondidan, davlat kooperativ va boshqa korxonalar va tashkilotlar yerlaridan berilishi mumkin. Ularga beriladigan yerlarning miqdori jamo'a xo'jaligi yoki tuman hokimligi tomonidan, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi faoliyatining turiga va berilgan yerni eng muhimi, dehqon xo'jaligining shaxsiy mehnati asosida ishlov berishiga qarab aniqlanadi.

Dehqon xo'jaligiga yerdan foydalanish huquqi bilan bir qatorda u yerdagi boshqa tabiiy, suv va boshqa resurslardan, shu xo'jalikning shaxsiy ehtiyojlariga foydalanish huquqi beriladi. Dehqon xo'jaligiga berilgan yerning miqdori va uning chegarasi, faqat yerdan foydalanish huquqi davlat akti berilgan dehqonning ixtiyori bilangina o'zgarishi mumkin. Dehqon xo'jaligi zaruriyat tug'ilganda yer egasidan qo'shimcha yerni ijaraga olishi mumkin. Boshqa tomondan uzrli sabablar bo'lganda, o'ziga ajratilgan uchastkasidan ma'lum bir qismini, ma'lum bir muddatga ijaraga berishi mumkin. Shuningdek, yer uchastkasi jamo'a yoki hokimlik roziligi bilan almashtirilishi mumkin. Yerga egalik qilish va yerdan foydalanish pullidir.

Dehqon xo'jaligidan yer solig'i, yer uchastkalarining joylashishi va sifatiga qarab aniqlanadi hamda yer solig'i yoki ijara haqi shaklida olinadi. Soliqlar to'lash tartibi va stavkasi mamlakatda harakatdagi tartib asosida o'rnatiladi. Ular tomonidan yer uchun to'lovlarga quyidagi imtiyozlar berilishi mumkin: ma'lum bir muddatga butunlay yoki qisman ozod qilish, to'lovlarni kechiktirish, yer solig'ining stavkasini pasaytirish. Dehqon xo'jaligi yer bilan birga o'zining xususiy mulkida, uy-joy, xo'jalik va boshqa qurilishlar, mahsuldor va ishchi hayvonlar, parrandalar, asalarilar, boshqa hayvonlar, ekinlar va daraxtlar, qishloq xo'jaligi

texnikasi va inventarlar, transport vositalari, boshqa asosiy va moddiy aylanma vositalari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mustaqil yurgizish, qayta ishlash va mahsulot sotish uchun kerakli resurslarga ega bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan mulklardan qanday foydalanish dehqon xo'jaligining o'ziga bog'liq. Faqat ba'zi hollardagina davlat mulki qonun bo'yicha o'rnatilgan sud qarori bilangina olib qo'yilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi a'zolaridan biri chiqib ketmoqchi bo'lsa, ishlab chiqarish vositalari tarkibidan natura (agar uning shaxsiy mulki bo'lmasa shu vosita) shaklida bo'lib olib ketishi mumkin emas, faqat pul shaklida, unga tegishli bo'lgan qismi kompensatsiya qilinadi. O'zlashtirilmagan hududda, qaysiki, ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga taalluqli obyektlar bo'lmasa, dehqon xo'jaligini tashkil qilishda uning birlamchi qurilishini to'lig'icha yoki qisman davlat o'ziga olishi mumkin. Bunday holatda mablag' va qurilgan obyektlar dehqon xo'jaligining mulkiga aylanadi.

Dehqon xo'jaligi o'z manfaatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish dasturini o'zi mustaqil ishlab chiqadi. U barcha yetakchi tur faoliyatlarini saqlab qolgan holda (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish) harakatdagi hujjatlarda taqiqlanmagan barcha faoliyat turlari bilan shug'ullanishi, shuningdek, ixtiyoriy ravishda davlat buyurtmasini bajarishni o'z zimmasiga olishi mumkin. Dehqon xo'jaligi ixtiyoriy ravishda kooperativlarga, jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga birlashishi, kooperativ, aksionerlik (hissadorlik) va boshqa tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi va tegishli daromadini olishi mumkin.

Ular shuningdek, o'z xohishlariga ko'ra, har qanday tashkilot tarkibidan chiqishlari mumkin. Bunday holatda ular tegishli mulkning bir qismini natura yoki pul shaklida olish huquqiga ega bo'ladilar. Dehqon xo'jaligining faoliyati, asosan, xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Shuningdek, ishlarni bajarishda zaruriyat tug'ilganda mehnat shartnomasi asosida boshqa shaxslarni jalb qilishi mumkin. Ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot sohasida dehqon xo'jaligi a'zosiga ham, chetdan jalb qilingan shaxsga ham bir xil huquq beriladi. Dehqon xo'jaligida ishlangan vaqt umumiy va uzluksiz ish stajiga qo'shiladi.

Dehqon xo'jaligi o'z mahsulotini sotish va foydalanishni ichki va tashqi bozorda shartnomali baholarda mustaqil amalga oshiradi: u o'zi ishlab chiqargan va yetishtirgan qishloq xo'jaligi va boshqa mahsulotlarni tayyorlov, qayta ishlovchi va boshqa har qanday korxonaga va tashkilotlarga, do'kon yoki bozorda sotish huquqiga ega. Mahsulot sifati, sanitariya holati va boshqa parametrlar bo'yicha dehqon xo'jaligi barcha me'yorlarga rioya qilishi kerak.

Dehqon xo'jaligi traktor, yuk avtomobillari, boshqa qishloq xo'jaligi texnikalari, qurilish materiallari, uskunalar, xomashyo, o'g'it va boshqa asosiy va moddiy aylanma vositalarini davlat, kooperativ korxonaga va tashkilotlardan ulgurji savdo va boshqa muassasalardan sotib olish (sotib olish, almashtirish, yollash, ijaraga olish, prokatga olish) huquqiga ega. Dehqon xo'jaligiga sotiladigan mahsulotlar, tovarlar, har qanday ishlab chiqarish vositalari bahosi, davlat va qishloq xo'jaligi kooperativ korxonalari uchun o'rnatilgan muqobil baholardan oshib ketmasligi kerak.

Dehqon xo'jaligi bank muassasalaridan uzoq, o'rta va qisqa muddatli ssudalar olish huquqiga ega. Bunda bank foizlari stavkasi davlat korxonalari uchun o'rnatilgan miqdordan oshib ketmasligi kerak. Davlat va kooperativ tashkilotlar davlat xo'jaligiga ular bilan tuzilgan shartnomaga asosan kredit berishi ham mumkin. Dehqon xo'jaligining pul vositalari, mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan pul tushumi, kreditlar, budget ajratma mablag'lari, ehsonlar va boshqa moliyaviy vositalar hisobiga vujudga keladi. Dehqon xo'jaligi faoliyatidan olinadigan pul tushumi, shuningdek, dehqon xo'jaligining boshqa pul daromadlari joriy material xarajatlarini (mehnat haqidagi tashqari) qoplashga, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga, moliyaviy rezervini vujudga keltirishga, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashishga, soliq va to'lovlarni to'lashga, shaxsiy iste'mol (mehnat haqi) maqsadlariga foydalaniladi. Dehqon xo'jaligi soliq to'laydi. Dehqon xo'jaligi solig'ining uch xil varianti bo'lishi mumkin:

1. Shaxsiy iste'mol maqsadlariga foydalaniladigan dehqon xo'jaligi daromadlarining bir qismi olinadigan soliq vositasi hisoblanadi.

2. Dehqon xo'jaligi qishloq joylarda yer uchastkalari bo'lgan jamoa xo'jaligi a'zolari va boshqa shaxslar uchun o'rnatilgan tartibda va miqdorda yagona yer solig'i to'laydilar.

3. Dehqon xo'jaligi va uning a'zolari, shuningdek, mehnat shartnomasi bilan ishlayotganlar, jamoa xo'jaliklari uchun o'rnatilgan tartibda soliq to'laydilar.

Dehqon xo'jaligi ijaraga olgan va xususiy ishlab chiqarish vositalarini, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlarini, ko'p yillik daraxtlarni, ishlab chiqargan mahsulotini, xomashyoni, materiallarni va boshqalarni halokatga uchraganda yoki zarar ko'rganda zararni qoplash uchun va qishloq xo'jaligi korxonalarini va ijarachilar mol-mulklarini sug'urta qildirish uchun harakatdagi qonunchilik tomonidan o'rnatilgan sharoitlardagi tartibda sug'urta qoplamasini olish uchun, ixtiyoriy ravishda sug'urta qiladilar.

Davlatga dehqon xo'jaligining yer tuzilishi, mehnatni muhofaza qilish, yong'indan saqlash, hayvonlar kasalliklariga qarshi, o'simliklar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash, tabiatni muhofaza qilish haqidagi va soliq to'lash haqidagi qonunchilikka rioya qilish sohalaridagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish huquqi berilgan. Dehqon xo'jaligi davlat statistika organlariga hisobot beradi va uning to'g'riligi uchun javobgardir. Dehqon xo'jaligidan belgilangandan tashqari, hisobotlarni talab qilish taqiqlanadi. Umumlashtirilgan holda dehqon xo'jaligi shakllanishining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

1. Yerga xususiy mulk, yerga merosli umrbod egalik qilish yoki ijaraga olish sharti bilan yerdan vaqtincha foydalanish.

2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yurgizish, mahsulotni qayta ishlash va sotish uchun zarur ishlab chiqarish vositalarini ijaraga olish yoki xususiy mulk qilib sotib olish.

3. Ishlab chiqarish zaruriyati tufayli boshqa shaxslarni mehnat shartnomasi bilan ishga jalb qilish (harakatdagi cheklanishlarni hisobga olgan holda).

4. Xo'jalik faoliyati turlarini va ishlab chiqarish tuzilmasini ixtiyoriy tanlash.

5. Ishlab chiqargan mahsulotdan va olingan daromaddan o'z xohishi bo'yicha foydalanish.

6. Boshqa dehqon xo'jaliklari, kooperativlar va davlat korxonalarini bilan kooperatsiyalarga kirish.

Shuni qayd qilish lozimki, dehqon xo'jaligining barpo etilishi va shunga mo'ljallab hozirgi bosqichda qishloq xo'jaligini rivojlan-

tirish ancha qiyinchiliklar bilan bo‘lmoqda. Dehqon xo‘jaligining real mustaqilligini chegaralaydigan va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini pasaytiradigan omillarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Ishlab chiqarish vositalari ulgurji savdosining rivojlanmaganligi va umuman yo‘qligi (traktorlar, qishloq xo‘jaligi mashinalari, uskuna va mexanizmlar, yem, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallari va boshq.).

2. Qishloqda dehqon xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda, ularga shartnoma asosida yordam qilishga qaratilgan, savdo-xarid koooperativlarining rivojlangan tizimining yo‘qligi.

3. Dehqon xo‘jaligi ishlab chiqarish faoliyatining boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarning takomillashmaganligi.

Ushbu sabablar tufayli dehqon xo‘jaligi ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, mahsulotlarini sotish masalasida o‘zlari tashkil topgan qishloq xo‘jaligi korxonalarining rahbarlariga murojaat qilishga majbur bo‘ladilar. Bu esa ularga bevosita bo‘ysunishga olib keladi. Bunday sharoitda dehqon xo‘jaligining mustaqilligi qishloq xo‘jaligi korxonalarini rahbarlari xohishiga qarab cheklanib rivojlandi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, respublikada 3,7 mln.ga yaqin dehqon xo‘jaliklari mavjud. Dehqon xo‘jaliklari 2012-yilda respublika qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 91,7 % ini bergan. O‘rtacha bir dehqon xo‘jaligining daromadi 60 ming so‘mni tashkil etib, ayrimlariniki 400—500 ming so‘mga yetgan. Hozirda 150 ming gektar yerlar imorat uchun band qilingan. Dehqon xo‘jaligida hozir paxta ekilmaydi.

Dehqon xo‘jaliklari g‘allaning 18,1 % ini, kartoshkaning 75,5 % ini, sabzavotning 64,1 % ini, poliz ekinlarining 46,8 % ini, mevaning 41 % ini, uzumning 32 % ini, go‘shning 94,6 % ini, sutning 95,9 % ini, tuxumning 54,6 % ini, junning 1,2 % ini, qorako‘l terining 40 % ini bermoqda. Dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarning tovarlilik darajasi ham boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi korxonalarini yetishtirgan mahsulotlardan ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. 6-jadvalda yillar davomida dehqon xo‘jaligining rivojlanish tendensiyalari ko‘rsatilgan.

Dehqon xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2003—2012-yillar)*

Ko'rsatkichlar	Yillar											
	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012		
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mlrd so'm	2559,5	2867,8	3689,4	4698,7	5959,7	7367,3	8504,6	10468,9	13453,2	15474,2		
Ekin maydoni, ming ga	421,2	433,3	441,9	454,8	458,0	466,7	472,8	471,5	462,4	467,7		
Shu jumladan:												
Donli ekinlar	198,5	200,0	208,2	216,8	217,4	222,3	222,3	217,6	213,7	214,9		
Texnika ekinlari	7,8	10,4	10,1	9,7	8,9	7,8	8,0	8,0	5,4	5,7		
Kartoshka va sabzavot-poliz ekinlari	153,5	157,9	160,4	165,7	168,7	173,4	177,6	187,3	191,5	201,6		
Ulardan:												
Kartoshka	43,6	45,1	45,0	46,7	47,4	49,6	51,4	54,3	57,0	60,5		
Sabzavot	94,0	97,4	99,4	102,9	104,6	105,0	105,9	112,6	114,8	118,1		
Poliz ekinlari	15,8	15,3	15,8	16,1	16,6	18,8	20,3	20,4	19,7	23,0		
Oziqa ekinlari	61,4	64,9	63,2	63,6	63,1	63,2	65,0	58,6	51,8	45,5		
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming tonna												
Don (ishlovdan keyingi vaznda)	973,8	1020,8	1118,5	1175,6	1242,3	1308,4	1277,4	1278,8	1306,5	1361,5		
Kartoshka	751,2	803,5	850,8	898,1	1004,4	1166,8	1241,2	1346,4	1449,4	1552,8		
Sabzavot	2321,9	2577,9	2716,0	2818,0	3081,4	3470,0	3669,2	4086,2	4465,7	4977,1		
Poliz ekinlari	331,7	351,3	376,5	392,7	411,3	506,0	517,5	566,6	619,3	664,2		
Go'shit (tirik vaznda)	878,0	937,9	1002,4	1078,3	1147,4	1223,2	1300,1	1389,2	1481,6	1583,9		
Sut	3865,7	4127,6	4409,2	4709,1	4949,7	5250,2	5582,2	5927,8	6494,6	7008,5		
Tuxum, mln dona	873,1	1000,6	1165,8	1278,1	1383,3	1500,8	1657,0	1775,5	1875,5	2113,7		
Jun (fizik vaznda), ming tonna	13,5	14,7	16,0	17,3	18,5	19,7	20,7	22,0	24,2	26,8		

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013.

Jadvalda dehqon xo'jaligidagi ekin maydonlari va ular tomondan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ham natira, ham qiymat shaklida ko'payib borayotganligini ko'rish mumkin.

TAYANCH IBORALAR

Ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol, mulk, xususiylashtirish, davlat tasarrufi, mehnat jamoasi, kooperativ, yollanma xodim, yordamchi xo'jalik, ijara, dividend, konsern, agrokonsorsium, aksiya.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Mulk nima?
2. Mulk qanday toifa?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning qanday shakllari mavjud?
4. Mulkni xususiylashtirish tartiblari qanday?
5. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish qanday amalga oshiriladi?
6. Xo'jalik yuritish shakllari nima?
7. Ijtimoiy-iqtisodiy tarkib deganda nimani tushunasiz?
8. Fermer xo'jaliklari qanday tartibda tuziladi?
9. Fermer xo'jaligining shirkat, dehqon va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalaridan farqi nimada?
10. Fermer xo'jaligining namunaviy ustavi mazmunini ayting.
11. Fermer xo'jaligi qanday yerlarda tashkil etiladi?
12. Fermer xo'jaliklarining eng minimum o'lchamlarini ayting.
13. Qanday yerlarda fermer xo'jaliklari tashkil etilmaydi?
14. Fermer xo'jaligi qanday tartibda soliqqa tortiladi?
15. Fermer xo'jaligining yer maydonini maqbullashtirish deganda nima tushuniladi?
16. Dehqon xo'jaligi nima?
17. Dehqon xo'jaligini tashkil etish zaruriyati nimadan iborat?
18. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari qaysilar?
19. Dehqon xo'jaligi mulkini kim tasarruf etadi?
20. Dehqon xo'jaligi zarur ishlab chiqarish vositalarini kimdan va qaysi mablag' hisobiga oladi?
21. Dehqon xo'jaligining iqtisodiyotdagi roli qanday?

5-bob.

QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLAR POTENSIALINING SHAKLLANISHI. MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

5.1. Resurslar potensialining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibi

Qishloq xo'jaligi boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari qatori insonning har tomonlama ehtiyojini qondiradigan iste'mol qiymatlar yaratish maqsadida resurslarga bo'lgan ta'sirini ifodalaydi. Bu jarayonni amalga oshirish kompleks obyektiv va subyektiv ishlab chiqarish omillaridan foydalanishni talab qiladi. Ular inson mehnati, mehnat vositalari va mehnat predmetlaridan tashkil topadi.

Fanda ma'lumki, ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari qanday bo'lishidan qat'i nazar, ishchi va ishlab chiqarish vositalari uning doimiy omillari bo'lib qoladi. Mehnat vositalariga, inson mahsulot olish maqsadida mehnat predmetlariga ta'sir etuvchi, ishlab chiqarishning moddiy unsurlari kiradi. Mehnat predmetlariga, ishlab chiqarish jarayonida, inson mehnati qaratilgan va inson tomonidan kerakli yo'nalishda o'zgartiriladigan, ishlab chiqarishning moddiy unsurlari kiradi.

Shu bilan birga, inson, mehnat vositalari va mehnat predmetlari faqat imkoniyat jihatdan ishlab chiqarish omillari hisoblanadi. Umuman, ishlab chiqarish uchun ular birlashishlari kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga mehnat vositalarini jalb qilib va ular yordamida mehnat predmetlariga ta'sir etib, inson ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste'mol uchun foydalaniladigan mahsulot yaratadi.

Moddiy ishlab chiqarish jarayoni uning omillarining mexanik birligini emas, balki organik birligi va bog'liqligini, pirovard natijada, ma'lum bir mahsulotning tarkibi, hajmi va sifati bo'yicha ishlab chiqarish omillari transformatsiyasini ifodalaydi.

Qishloq xo'jaligida inson, mehnat vositalari va predmetlari bilan bir qatorda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yer va suv faol ishtirok etadi. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi

verning sifatiga, uning unumdorligiga va suv bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi.

Inson mehnati, yer, suv, mehnat vositasi va mehnat predmeti qishloq xo'jaligida mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi zaruriy sharoit va omillardir, binobarin, uning resurslaridir. Demak, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslari — mehnat, yer, suv va moddiy resurslar — qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish jarayonida foydalaniladi va uning salohiyatini (potensialini) tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslari, sifat jihatdan bir-biridan farq qilsa ham, ularning bir qator umumiy tomonlari mavjud:

- ishlab chiqarish jarayonida qatnashishning potensial imkoniyatlariga va ularni iste'mol qilishning unumli xarakteriga ega. Mos ravishda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslari ishlab chiqarish jarayoniga kirmaguncha alohida-alohida bo'ladi. Jarayon boshlangandan keyin birlashadi;

- jamiyat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida hajm va tarkib jihatdan chegaralanish xarakterlidir.

Demak, xulosa shuki, mahsulot yaratishda qatnashadigan unsurlarning hammasi ham, ishlab chiqarish resurslari bo'lavermaydi. Misol uchun, havo ishlab chiqarish jarayonida bevosita va faol qatnashadi, lekin u iqtisodiy ma'noda ishlab chiqarish resursi hisoblanmaydi, chunki u nazariy hamda amaliy jihatdan olganda chegaralanmagan. Shu bilan birga, har bir ma'lum davrda ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi darajasini, mutlaq emas, balki nisbiy jihatdan xarakterlaydi.

Ishlab chiqarish resurslarining nisbiy chegaralanganligi, ba'zi hollarda kamyobligi, bir tomondan, ulardan ancha intensiv va samarali foydalanishni, boshqa tomondan bir resursni boshqa resurs bilan almashtirish, ularning bir-birining o'rnini qoplash imkoniyati zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yerlarning unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishga kompleks mexanizatsiya va avtomatlashtirishni qo'llash mehnat resurslari va boshqalar kamyobligini to'ldirishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarish resurslarini iste'mol qilish bilan xarakterlanadi. Bu esa ularni takror ishlab chiqarish lozimligini bildiradi.

Har bir resurs turiga mos ravishda ma'lum takror ishlab chiqarish manbayi mos keladi. Masalan, mehnat resurslarining

manbayi mehnatga yaroqli aholi, asosiy vositalarining manbayi — kapital mablag‘lar, moddiy aylanma vositalarining manbayi — mahsulot sotishdan tushadigan pul va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim omil mehnat resurslaridir. Shuning uchun jami ishlab chiqarish qurollari ichida, eng qudratli ishlab chiqaruvchi kuch ishchilarning o‘zi. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilar to‘plamini ifodalaydi. Mehnat resurslariga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida band bo‘lgan kishilardan tashqari, ma‘lum bir sharoitda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lgan kishilar, ya‘ni mehnat zaxiralari ham kiradi. Mehnat resurslarining eng harakatchan va bir vaqtning o‘zida ijtimoiy faol qismi ish kuchidir. U kishining jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlarining yig‘indisidir.

Bundan ko‘rinadiki, mehnat resurslari shunday holatda ish kuchiga aylanadiki, qachonki, kishining jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlari mehnat jarayonida ro‘yobga chiqsa. Shuning uchun «mehnat resurslari» tushunchasi «ish kuchiga» nisbatan keng va ko‘p qirralidir. Fan-texnikaning rivojlanish jarayonida, ishlab chiqarishda mehnat resurslarining, ish kuchining roli o‘zib boradi. Mashina ishchining ayrim vazifalarinigina o‘rniga almashadi, lekin insonni to‘liq almashtira olmaydi, chunki inson ishlab chiqarish vositalarini o‘zlashtirib, o‘zining qobiliyatini rivojlantira borib, tabiat va jamiyat qonunlaridan o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish jarayonida mashinani yaratgan.

Lekin qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining, inson mehnatining roli qanchalik buyuk bo‘lmasin, uni tabiat kuchlari bilan almashtirib bo‘lmasligi, jumladan, yer resurslarisiz ro‘yobga chiqmasligini bildiradi. Qishloq xo‘jaligi yer resurslari deganda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xususiy mulk sifatida, egalik qiluvchi va foydalanuvchi yer maydonlari tushuniladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining moddiy asosi sifatida yer resurslari ishlab chiqarishning umumiy omili bo‘lib, tarmoqdagi boshqa ishlab chiqarish resurslarini birlashtirish uchun moddiy baza hisoblanadi. Chunki yer qishloq xo‘jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi hamda mehnat predmeti hisoblanadi.

Yer resurslari bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim omil bo‘lib suv resurslari hisoblanadi. Suv karbonat angidrid gazi bilan organik moddalar hosil bo‘lish fotosintez jarayonida

qatnashib, o'simlik organizmi uchun material hisoblanadi. Bundan tashqari, suv oziqa moddalarni eritadi va ularni o'simlik tomonidan o'zlashtirishni amalga oshiradi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi shakllanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Yer resurslaridan keyin ishlab chiqarishning moddiy resurslaridan hisoblangan moddiy resurslar turadi. Moddiy resurslar inson tomonidan yaratilgan bo'lib, ikkiga bo'linadi:

1. Asosiy vositalar.

2. Moddiy aylanma vositalar.

Asosiy vositalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida uzoq vaqt ishtirok etib (bir qancha yillar, bir qancha ishlab chiqarish jarayoni davomida), o'zining natura buyum shaklini saqlab qoladi. Uning qiymati amortizatsiya shaklida yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga asta-sekin o'tib, shu mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlariga, ya'ni tannarxiga qo'shiladi. Misol uchun traktorlar, kombaynlar, qishloq xo'jaligi mashinalarining eskirish qismi shular jumlasiga kiradi.

Moddiy aylanma vositalar, asosiy vositalardan farqli o'laroq, ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etib, o'zlarining shakllarini o'zgartiradi va bir vaqtning o'zida o'z qiymatlarini yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga to'liq o'tkazadi. Misol uchun, urug'lik, yem, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Shu bilan birga qishloq xo'jaligida moddiy resurslarni asosiy va aylanma vositalarga bo'lishda noaniq joylari bo'lib, buni mahalliy va mineral o'g'itlarda yaqqol ko'rish mumkin. Bular shu yil sotib olinib, yerga shu yil solinadi va xarajatga to'liq qo'shiladi. Mavjud tannarxni oshirib yuboradi. Lekin ularning o'simlikka ta'siri bir necha siklda davom etadi. Xuddi shunga o'xshash yosh ko'p yillik daraxtlar ham.

Ishlab chiqarishga moliyaviy resurslar ham faol ta'sir ko'rsatadi. Ular uchga bo'linadi:

1. Davlat pul vositalari;

2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini pul vositalari;

3. Tovar ishlab chiqaruvchilar pul vositalari.

Ular ishlab chiqarishning to'xtovsiz harakatini ta'minlash uchun, shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun foydalaniladi. Ularning tarkibiga muomala fondlari, amortizatsiya fondi, kapital mablag'lar, foyda va boshqalar kiradi.

I. Bundan tashqari, kelib chiqishiga qarab ishlab chiqarish resurslari ikkiga bo'linadi:

1. Tabiiy (yer-suv, o'rmon, hayvonot dunyosi, quyosh energiyasi).

2. Iqtisodiy (asosiy vositalar, moddiy aylanma vositalari).

II. Takror ishlab chiqarish imkoniyatiga qarab ishlab chiqarish resurslari ikkiga bo'linadi:

1. Yangilanadigan (mehnat, moddiy);

2. Yangilanmaydigan (yer, suv).

III. Foydalanish xarakteriga qarab ishlab chiqarish resurslari ikkiga bo'linadi:

1. Potensial resurslar (korxonaga birkutilgan mavjud ishlab chiqarish resurslari);

2. Harakatdagi resurslar (potensial resursning bir qismi bo'lib, ular asta-sekin korxonaning ishlab chiqaruvchi kuchlariga aylanadi).

IV. Foydalanish shakli va hajmiga qarab harakatdagi resurslar ikkiga bo'linadi:

1. Qo'llanilgan resurslar (resurs potentsiali);

2. Iste'mol qilingan resurslar (tannarx).

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxi tarkibiga: bevosita mehnat haqi (ajratmalar bilan) xarajatlari, o'g'itlar, amortizatsiya, urug'lik, yoqilg'i-moylash materiallariga sarflangan xarajatlar, ish va xizmat to'lovlari, yagona yer solig'i va boshqa ayrim soliqlar, sug'urta to'lovlari, umumishlab chiqarish xarajatlari va boshqa bevosita xarajatlar kabi moddalar kiradi.

5.2. Resurslar potensialini hisoblash uslublari, vazifalari, ko'rsatkichlari va ulardan samarali foydalanish omillari

Bozor munosabatlarigacha foydalanib kelingan, ishlab chiqarish samaradorligining xarajatli konsepsiyasi va shu asosda tuzilgan ko'rsatkichlari, resurslarning iste'mol qilingan qismidan foydalanish samaradorligini, ya'ni haqiqiy joriy xarajatlarni baholashga imkon berar edi. Xarajatli ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oqilona baholashga imkon bermas edi. Chunki bir qism ishlab chiqarish resurslar qandaydir sabablarga ko'ra, mahsulot ishlab chiqarishda faol qatnasha olmas edi. Bunday sharoitda jamiyatning bir qism resurslardan foydalanish darajasi pasayib ketar edi.

Resurslarni tejashga qaratilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida, muhim vazifa bo'lib, joriy xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash emas, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ya'ni jami iste'mol qilingan resurs

potensialidan foydalanishning samaradorligini aniqlash hisoblanadi (ishlab chiqarish samaradorligining resurs konsepsiyasi). Bu muammoni hal qilishning qiyin tomoni shundaki, turli xil ishlab chiqarish resurslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga turli xil ta'sir ko'rsatadi va turli xil o'lchov birliklarida hisoblanadi.

Bundan tashqari, respublikaning turli viloyat va xo'jaliklarida ishlab chiqarish resurslari turli xil nisbatda joylashgan. Bu esa, albatta, xo'jalik yuritishning pirovard natijasida o'z aksini topadi. Mustaqillikkacha va undan keyingi yillarda ham agrar iqtisodchilar qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan resurs potensialining umumiy miqdorini aniqlashning uslubiy asoslarini ishlab chiqishga harakat qildilar.

Shulardan, resurs potensialini hisoblashning quyidagi uch uslubini amaliyotda qo'llash mumkin deb topilgan edi:

1. Umumiy o'lchovli qishloq xo'jaligiga yaroqli maydon bo'yicha;
2. Korrelatsiya-regressiya tahlilidan foydalanish asosida;
3. Ishlab chiqarish resurslarining puldagi bahosi bo'yicha.

Qo'llaniladigan resurs potentsiali miqdorini aniqlashning birinchi uslubi osonroq bo'lib, uning umumiy o'lchovi qishloq xo'jaligiga yaroqli maydon bo'yicha aniqlanadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yer umumiy o'lchovga aylantirish yo'li bilan mehnat, yer-suv va moddiy resurslarni iqtisodiy baholash orqali amalga oshiriladi. Xo'jalik yerlari sifatining indeksi, shuningdek, fond va mehnat resurslari bilan ta'minlanishi shu ko'rsatkichlarni o'rtacha viloyat yoki o'rtacha tuman ko'rsatkichlariga nisbati bilan topilar edi. Resurs bilan ta'minlanishning jami indeksi (qo'llanilgan resurs potentsiali) xususiy indeksning yig'indisini to'rtga (ishlab chiqarish resurslari soniga) bo'lib hisoblanilar edi. Resurs potentsialiga shartli baho beradigan ushbu usulni qo'llash chegaralangan xarakterga ega edi.

Ikkinchi uslubning mohiyati — resurs potentsialining miqdorini korrelatsiya-regressiya tahlilidan foydalanish asosida hisoblash, har bir resurs turining tovar mahsulot ishlab chiqarishga miqdoriy ta'sirini aniqlashdan iborat. Bu uslub bo'yicha hisob-kitoblar qishloq xo'jaligi hisoblash markazlariga ega bo'lgan standart dasturlar bo'yicha bajarilishi mumkin.

Uchinchi uslub ishlab chiqarish resurslarini pulda baholashga asoslangan. Mehnat resurslarini baholash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda band bo'lgan yillik o'rtacha xodimlar sonini qo'shimcha mablag' bilan bitta odamning chiqib ketish kompensatsiya

sharoiti normativiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlangan. O'rtacha statistik ma'lumotlar asosida, sanoat va qishloq xo'jaligida mehnatning fondlar bilan qurollanishini hisobga olgan holda sanoatda bitta xodimning ishdan ozod bo'lish xarajatlaridan kelib chiqib hisoblanilgan.

Shuningdek, moddiy resurslarning pulda bahosi qishloq xo'jaligiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalari va moddiy aylanma vositalari qiymatining o'rtacha yillik summasi sifatida aniqlangan. Takroriy hisoblashlardan qutulish uchun asosiy vositalar summasidan ko'p yillik daraxtlar qiymati chiqarib tashlangan. Chunki u yer resurslarini pulda baholashda bir marta hisobga olingan. Keyin esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llanilgan resurslar potentsialining jami pulda bahosi ko'rsatkichini hisoblash mumkin bo'lgan.

Lekin resurslarni (mehnat resurslari va yer resursini) bunday uslublarda baholashlar ham ularning haqqoniy qiymatiga uncha yaqin kela olmas edi. Shuning uchun ishlab chiqarish resurslarini baholashning boshqacharoq uslublari to'g'risida biz keyingi alohida maxsus boblarda fikr yuritamiz.

Umuman, resurs potentsiali ko'rsatkichi ishlab chiqarishni boshqarishning turli xil vazifalarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

1. O'lchash;
2. Tartibga solish;
3. Rag'batlantirish.

*Birinchi*dan, o'lchash funksiyasi, resurs potentsialini tashkil qiluvchi unsurlarini turli tezlikda va turli yo'nalishiga (qishloq xo'jaligida mehnat resurslari kamayish tendensiyasiga ega, yer resurslari o'zgar-maydi, moddiy resurslar esa tez ko'payib turadi) qarab vujudga keladigan, shuningdek, qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlashni aniqlashda namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining resurslar bilan ta'minlanishi mutlaq va nisbiy salmoqni aniqlash ko'rsatkichida xarakterlanishi mumkin. Mutlaq ko'rsatkich bu resurs bilan ta'minlanish koeffitsiyentidir:

$$RTK = \frac{RPhaqiqiy}{RPme'yor}$$

Salmoqni aniqlash ko'rsatkichlari:

1. Resurslar bilan ta'minlanish

$$RT = \frac{RP}{QXyar.yer}$$

2. Mehnatning resurslar bilan qurollanishi:

$$RQ = \frac{RP}{XS}.$$

Ikkinchidan, o'lchov funksiyasi, resurs potensialidan foydalanish samaradorligini baholash imkoniyatini ifodalaydi.

Uning ko'rsatkichlari quyidagilar:

1. Resurs qaytimi

$$RQ_{\text{qaytimi}} = \frac{SM}{RP}.$$

2. Resurs sig'imi

$$RS = \frac{RP}{SM}.$$

Qo'shimcha ko'rsatkichlar esa quyidagilar:

$$RQ_{\text{qaytimi}} = \frac{YM \cdot TM \cdot F}{RP};$$

$$RS = \frac{RP}{YM \cdot TM \cdot F}.$$

Iste'mol qilingan resurslar potensialidan foydalanish samaradorligining asosiy ko'rsatkichi yuqorida aytib o'tilganidek, mahsulot tannarxidir.

Uchinchidan, o'lchov vazifasi, qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi va intensivlik darajasini aniqlash imkoniyati bilan ifodalanadi.

Tartibga solish funksiyasi. Resurs potentsiali miqdorini hisobga olish yo'li bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashda teng imkoniyatlar yaratish va xo'jalik yuritishning iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish imkoniyatlarida aks etadi.

Rag'batlantirish funksiyasi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslaridan ancha samaraliroq foydalanishda ichki imkoniyatlarni izlab topishda namoyon bo'ladi.

Ulardan baholarning tashkil topishida, ixtisoslashtirishni chuqurlashtirishda foydalanilishi mumkin. Resurslarning yuqorida keltirilgan baholash usullari ularning samaradorligini shartli

o'rganishga imkon beradi, xolos. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslarning qimmati talab va taklif hamda qiymat qonunlarining aniq talablari asosida aniqlanishi zarur.

5.3. Mehnat tushunchasi va uning roli. Yollanma xodim va mulk egasi mehnati

Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarining manbai inson mehnati hisoblanadi. Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida mehnat boylik yaratuvchi, uni ko'paytiruvchi muhim ishlab chiqarish omili bo'lib kelgan. Shuning uchun asrlar davomida mehnat boylikning otasi deya, qadrlangan va ulug'langan. Respublikamizda mustaqillik yillarida mehnat munosabatlariga oid ko'pgina me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, shulardan, 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 1-bob 8-moddasida shunday deyilgan: «Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi».

Demak, mehnat va uni amalga oshiruvchi shaxs doimo jamiyatning diqqat-e'tiborida bo'lar ekan. Bu borada, haqiqatda, mehnatni kishilik hayotining asosiy sharti ekanligi va inson o'zining kamolotga yetishuvi mehnat orqali amalga oshganligini ta'kidlash joizdir.

Mehnat — bu insonning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'z ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgan holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mehnat jarayoni, insonning ish joyida, uning mehnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarining to'plamini bildiradi.

Bu ma'noda «mehnat jarayoni» tushunchasi, «ishlab chiqarish jarayoni» tushunchasiga nisbatan ancha tor tushunchadir. Ishlab chiqarish jarayoni har biri ma'lum bir bosqichni va tayyor mahsulot olishni aks ettiruvchi, bir butun mehnat jarayonlari kompleksi bazasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ko'p hollarda ishlab chiqarish jarayoni, inson mehnati ishtirokisiz ham, tabiiy omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Mehnat jarayoni, ma'lumki, o'z ichiga uch unurni: mehnat vositasi, mehnat predmetlari va bevosita inson mehnatining o'zini oladi.

Ishlab chiqarish vositalarisiz mehnat jarayoni ma'nosiz bo'ladi, o'z navbatida, inson mehnatisiz ishlab chiqarish vositalari ham o'likdir va hech narsa yarata olmaydi. Kishilar mehnati ishlab chiqarish vositalarini harakat qilishga va insonning maqsadini amalga oshirishda birga harakat qilishga majbur qiladi. Mehnat vositalari va mehnat predmetlarini yarata borib va tabiatga ta'sir etib, inson o'zini ham o'zgartiradi, uning malakasi, bilimi va ishlab chiqarish tajribasi oshadi. Jamiyat rivojlanishi bilan mehnat vositalari takomillasha boradi, ishlab chiqarish jarayoniga yangi-yangi iqtisodiy resurslar jalb qilinadi. Fan va texnika o'z rivojlanishida qanchalik ilgarilab ketmasin, mehnat jarayonida mehnat o'zining yetakchilik, hal qiluvchi rolini yo'qotmaydi.

Mehnat iqtisodiy toifa hisoblanadi va uning xarakteri ishlab chiqarish munosabatlari bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish munosabatlarini takomillash-tirish shunga yo'naltirilganki, bunda har bir xodimdan, mehnatga xuddi yollanma kunbaychidek befarq va mas'uliyatsiz emas, balki pirovard natijaga javobgarligini sezgan holda yondashish, munosabatda bo'lish talab etiladi. Oxir-oqibat bu mehnatdan uzoqlashish degan g'ovni olib tashlaydi.

Xo'jayin va yollanma xodim o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat: birinchidan, xo'jayin ishlab chiqarish vositalariga va mos ravishda ishlab chiqarilgan mahsulotga ham mulkdor va xo'jayindir. Yollanma xodimda esa bu mulk yo'q; ikkinchidan, xo'jayinning daromadlari (mehnat haqi) pirovard natijalarga bog'liq holda va qoldiq prinsipi bo'yicha shakllanadi, boshqacha aytganda, sotilgan mahsulot qiymatidan moddiy va boshqa sarfto'lovlar, soliqlar va boshqalar ajratib tashlangandan keyingi daromadlardan shakllanadi. Daromadlarning qolgan qismiga xo'jayin mustaqil egalik qiladi. Yollanma xodim ishda bo'lgan vaqtiga yoki bajargan ishining hajmiga qarab ish haqi oladi, u pirovard natijaga bog'liq emasdir.

5.4. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari shakllanishi va foydalanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda tarkibi.

Ish kuchi bilan ta'minlanish, ish kuchining mavjudligi va harakati ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga

mehnatga yaroqli erkaklar 16 dan 60 yoshgacha, ayollar 16 dan 55 yoshgacha, shuningdek, qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77—«Ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladigan yosh» moddasida: «Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi» deb yozib qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga:

1. Doimiy;
2. Mavsumiy;
3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
4. O'smirlar;
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga — muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar — 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga — 2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.

2012-yilda respublikada o'smirlar soni 9040,8 ming kishini, mehnat resurslari soni 18517,6 ming kishini va nafaqaxo'rlar soni 2435,1 ming kishini tashkil etgan. Bu 2003-yilga nisbatan mos ravishda o'smirlar sonining 1404,2 ming kishiga yoki 4,3 % ga kamayganligini, mehnat resurslari va nafaqaxo'rlarning 4084 kishiga yoki 28,3 % ga va 606 ming kishiga yoki 33,1 % ga o'sganligini bildiradi.

Qishloqda esa shu davrda o'smirlar va mehnat resurslarining soni mos ravishda 1,727 ming kishiga yoki 26,5 % ga va 18,5 ming kishiga yoki 0,2 % ga kamayganligini ko'rsatib, faqat nafaqaxo'rlar sonining 33,6 ming kishiga yoki 3,4 % ga oshganligidan dalolat beradi.

Demak, respublika bo'yicha o'smirlar sonining kamayishi tug'ilishning kamayishi hisobiga, mehnat resurslarining o'sishi esa, asosan, shaharliklar hisobiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, 2012-yilda respublikaga kelganlar soni 4,5 ming kishini va chiqib ketganlar soni 45,4 ming kishini tashkil etgan bo'lib, aholi migratsiyasi saldosi 40,9 ming kishiga teng bo'lgan. 2003-yilda esa bu ko'rsatkich 88,1 ming kishini tashkil qilgan.

7-jadvalda mehnat resurslari va aholining bandligi to'g'risidagi 2003—2012-yillar tahlili berilgan.

**O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari va aholining bandligi
(2003—2012-yillar)***

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar										
		2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	
1.	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	9621,2	9945,5	10224,0	10492,5	11299,2	11603,1	11929,5	12286,6	12541,5	12850,1	
2.	Shu jumladan, ayollar	4233,1	4790,1	4887,7	5019,	5332,6	5362,2	5523,5	5648,	5691,3	5829,5	
3.	Erkaklar	5388,1	5155,4	5336,3	5473,1	5966,6	6240,9	6406,0	6638,1	6850,2	7020,6	
4.	Iqtisodiyotda band bo'lganlar, ming kishi	9589,0	9910,6	10196,3	10467,0	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	12223,8	
5.	Shu jumladan, ayollar	4214,9	4768,7	4871,5	5003,6	5017,1	5057,1	5200,3	5295,1	5416,6	5554,1	
6.	Erkaklar	5374,1	5141,9	5324,8	5463,4	5718,3	5978,3	6127,8	6333,3	6502,5	6669,7	

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013.

2012-yilda 2003-yilga nisbatan iqtisodiy faol aholi 3228,9 ming kishiga yoki 33,6 % ga ko'paygan. Shu jumladan, ayollar 37,7 % ga va erkaklar 30,3 % ga oshgan. Shu davrda jami iqtisodiy faol aholining 95,1 % i yoki 12223,8 ming kishi iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan. Bu yerda ayollar soni 31,8 % ga va erkaklar soni 24,1 % ga oshgan. Umuman, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar shu davrda 27,5 % ga ko'paygan.

Demak, keyingi 10 yilda mehnat resurslari tarkibida ayollarning salmog'i oshib borgan. Bu iqtisodiyotning turli sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishi va bunda erkaklar bilan bir qatorda ayollar mehnatining o'rni oshib borayotganligining yaqqol isbotidir.

Korxonalarining mehnat resurslaridan tashqari, ba'zi hollarda qishloq xo'jaligida (mavsumiy ishlarda) mehnat shartnomasi asosida chetdan jalb qilinganlar mehnatidan ham foydalaniladi, shu jumladan, yollanma ishchilar ham. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanishning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Biologik ishlab chiqarish vositalari, tirik organizmlar — tuproq, o'simlik, hayvonlarni rivojlantirishga qulay sharoitlar yaratish uchun xodimlar mehnati mazmunining yo'naltirilganligi. Bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tirik organizmlarning rivojlanishi, o'zgarishiga, ularning tabiatini noorganik unsuridan organik moddalarga sintezlashuviga bog'liqdir;

2. Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususan, yerning unumdorligi va ob-havo iqlim sharoitlariga bog'liq. Chunki iqlim tez o'zgarib turganligi uchun o'simlik va hayvonotga qulay sharoit yaratish lozimdir;

3. Ko'p xodimlarning bir qancha mehnat vazifalarini bajarishi. Bunday aralashishning zarurligi ish turining ko'pligi va bajarish muddatining mavsumiyligidan kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligi xodimi alohida texnologik operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashgan tor malakali bo'lmasligi kerak. Qishloq xo'jaligi xodimi ma'lum turdagi pirovard mahsulot yetishtirishga keng ixtisoslashgan bo'lishi kerak;

4. Ishlab chiqarish jarayonida yer, mollar va boshqa resurslarning mustaqil emasligi. Pirovard mahsulot natijasiga iqtisodiy javobgarligini ta'minlash uchun xodimlarga umumiy yerlarni emas, balki aniq dalalarni, butun hayvonlarni emas, balki aniq mollar bosh sonini birkiritib qo'yish lozimdir;

5. Mehnat jarayonlarining o'z-o'zini boshqarishi. Biologik ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, qishloq xo'jaligida,

ayniqsa, o'simlikchilikda biologik jarayonda sharoitlar tez-tez o'zgarib turadi, shuning uchun bu yerda chetdan turib boshqarish imkoniyati ancha chegaralangan;

6. Xodimlar daromadining o'simlikchilikda va chorvachilikda pirovard iqtisodiy natijalarga bog'liqligi. Bu bog'liqlik mehnat operatsiyalarini bajarish paytida xodimdan texnologik talablarga rioya qilishda o'zini qattiq nazorat qilishning bevosita sharti bo'lib hisoblanadi;

7. Xodimlar daromadining faqat ijtimoiy xo'jalikda emas, balki dehqon xo'jaligida ham yaratilishi. Samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uning mehnat resurslari bilan me'yori bo'yicha ta'minlashiga bog'liq. Ish kuchi bilan yetarlicha ta'minlanmasligi ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilmaslikka, pirovard natijada mahsulotning yetarlicha olinmasligiga olib keladi. Mehnat resurslari bilan me'yordan yuqori darajada ta'minlanganlik esa ish kuchidan kam unum foydalanishga va mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning ish kuchi bilan ta'minlanishi, mehnat bilan ta'minlanish koeffitsiyenti va mehnat bilan ta'minlanish salmog'i ko'rsatkichlari bilan xarakterlanishi mumkin. Mehnat bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (*MBTK*) mavjud mehnat resurslari miqdorini (xodim, kishi/soat) unga bo'lgan me'yoriy talabga (*MMR*) bo'lib topiladi:

$$MBTK = \frac{MMRM}{MMR},$$

bu yerda, *MMRM* — mavjud mehnat resurslari miqdori, kishi/soati; *MMR* — mehnat resurslariga bo'lgan me'yoriy talab, kishi/soati.

Mehnat bilan ta'minlanishning salmog'i ko'rsatkichlari quyidagilar:

a) bir xodimga to'g'ri kelgan yillik ishlab chiqarish yuklamasining hajmi (k/s):

$$\frac{YYU}{XS} = \frac{Yillik YU}{Xodimlar Soni};$$

b) 100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan xodimlar soni:

$$\frac{XS}{Q.XYye} \cdot 100 = \frac{Xodimlar\ Soni}{Q.XYye} \cdot 100;$$

d) 1 xodimga to'g'ri kelgan qishloq xo'jaligiga yaroqli yer, haydaladigan yer va qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni:

$$\frac{Q.XYYe; HYe; EM}{XS} = \frac{Q.XYaroqli\ Yer; Haydal.Yer; Ekin\ mayd.}{Xodimlar\ Soni};$$

e) bir xodimga to'g'ri kelgan qoramollar va parrandalar (shartli boshga aylantirilganda) miqdori:

$$\frac{SHB}{XS} = \frac{Shartli\ Bosh.}{Xodimlar\ Soni};$$

Qishloq xo'jaligida ish kuchining miqdori va harakatini hisoblash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi — o'rtacha ro'yxatdagi va o'rtacha yillik xodimlar soni, ish kuchining aylanishi va qo'nimsizligi koeffitsiyenti. Yildagi o'rtacha ro'yxatdan o'tgan xodimlar soni yoki ularning umumiy sonini, 1 yildagi ish kunlar (285) soniga bo'lib topiladi:

$$O'rxs = \frac{Xodimlar\ Soni\ (XS)}{285};$$

O'rtacha yillik xodimlar soni quyidagicha topiladi:

$$O'rxs = \frac{Xodimlarning\ har\ oydagi\ o'rtacha\ ro'yxatdagi\ soni\ yig'indisi\ yoki\ sarflangan\ jami\ k/s.lari}{12\ oy\ yoki\ 1\ xodimga\ haqiqatda\ sarflangan\ k/s.lar\ miqdori\ (285 \cdot 7 = 1995\ kishi/soati)}$$

Ish kuchini qabul qilishning aylanish koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

$$IKQQAQ = \frac{Yil\ davomida\ qabul\ qilinganlar\ soni}{O'rtacha\ ro'yxatdagi\ xodimlar\ soni};$$

Ishdan ketganlarning aylanish koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

$$IK_{Ayl.K} = \frac{\text{Ishdan ketgan xodimlar soni}}{\text{O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni}}$$

Ish kuchining qo'nimsizlik koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

$$IK_{Qon.K} = \frac{\text{O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shatilgan xodimlar soni}}{\text{O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni}}$$

5.5. Ish kuchidan foydalanishning mavsumiyligi, uning ko'rsatkichlari va omillari

Qishloq xo'jaligida ish kuchidan foydalanish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ishlab chiqarish sharoitidan, foydalaniladigan texnologiyadan, texnika bilan ta'minlanish darajasidan, qishloq mehnatkashlari uchun dehqon xo'jaligining mavjudligidan kelib chiqadi. Shunday xususiyatlardan biri ish davri va ishlab chiqarish davrining mos kelmasligidan kelib chiqadigan ish kunidan foydalanishning mavsumiyligidir.

Mavsumiylik ish muddatining qisqaligidan, ayniqsa, dehqonchilikda, ekish, hosilni yig'ish va boshqa jarayonlarning olib borilishiga bog'liqligidan kelib chiqadi. Eng ko'p vaqt bizda hosilni yig'ib oladigan oylarga to'g'ri keladi (sentabr-oktabr), eng oz vaqt esa qish oylari (yanvar-fevral)ga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligida ish kuchidan foydalanishning mavsumiyligi darajasini bildiradigan bir qancha ko'rsatkichlar mavjud:

1. Mehnat xarajatlarining oylik va o'rtacha oylik taqsimlanishi. Xodimlar sonini yoki oylar bo'yicha ishlangan kishi/soatlarini 12 oyga bo'lib topiladi:

$$\frac{\text{Xodimlar Soni}}{12}, \frac{\text{Kishi soatlari}}{12}$$

2. Mehnatdan foydalanishning mavsumiylik koeffitsiyenti. Tekshirilayotgan oydagi mehnat xarajatini o'rtacha oylik mehnat xarajatiga bo'lib topiladi:

$$\frac{\text{Tekshiriladigan oydagi mehnat xarajati}}{\text{O'rtacha oylik mehnat xarajati}}$$

3. Mavsumiy yuklamaning notekislik koeffitsiyenti. Maksimal yoki minimal oydagi mehnat xarajatini o'rtacha oylik mehnat xarajatiga bo'lib topiladi:

$$\frac{\text{Maksimal yoki minimal oydagi mehnat xarajati}}{\text{O'rtacha oylik mehnat xarajati}}$$

4. Mavsumiy tebranishi. Maksimal oydagi mehnat xarajatini minimal oydagi mehnat xarajatiga bo'lib topiladi:

$$\frac{\text{Maksimal oylik mehnat xarajati}}{\text{Minimal oylik mehnat xarajati}}$$

Misol. Xo'jalikda yil davomida 399 ming kishi/soati ishlangan, maksimal mehnat xarajatlari iyul oyida 34,4 ming kishi/soatini, minimal mehnat xarajatlari yanvar oyida 20,3 ming kishi/soatini tashkil etgan, u holda o'rtacha oylik mehnat xarajati bir yilda 33,2 (399000:12) ming kishi/soati, mavsumiylik koeffitsiyenti oktabr oyida 1,03 ni (34400:33250), yanvarda esa 0,61 ni (20300:33250), mavsumiylik tebranishi esa 1,69 (34400:20300) ni tashkil etgan.

Ish kuchidan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim ahamiyati, yil davomida ish kuchidan bir tekis foydalanishni ta'minlaydigan, qishloq xo'jaligi mehnatining mavsumiyligini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topishdadir. Qishloq xo'jaligida ish kuchidan foydalanish mavsumiyligini kamaytirishning asosiy omillari quyidagilar:

1. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va intensivlik darajasini oshirish. Uning oshishi qishloq xo'jaligi ishlarining eng tig'iz davrida mehnat xarajatlariga bo'lgan iste'molni kamaytirish va shu bilan qish-yoz oylaridagi xodimlarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi farqni qisqartirishga olib keladi.

2. Ishlab chiqarishning tarmoq strukturasi. Tarmoq strukturasi takomillashtirish yil davomida ish kuchiga bir tekisda ehtiyoj bo'lgan tarmoq va mahsulot turi salmog'ini ko'paytirish demakdir. Dehqonchilikda bunga ekish muddati, ishlov berish, pishib yetilishi va hosilni yig'ib terib olish bo'yicha ekin va navlarni tanlash yo'li bilan erishiladi. Chorvachilikda esa dehqonchilikka nisbatan yil davomida xodimlar bandligi ancha yuqoridir. Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining

umumiy hajmida chorvachilik salmog'ini oshirish ham xodimlar bandligining ancha tekis bo'lishini ta'minlaydi.

3. Yordamchi korxonalar va hunarmandchilik. Fermer xo'jaligidagi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat korxonalaridagi va sexlaridagi ishlar mavsumiy xarakterga ega va dala ishlari ancha tig'iz bo'lgan paytlarda hech zararsiz to'xtatib qo'yilishi mumkin. Bu qishloq xo'jaligi mehnati mavsumiylikiga barham berishi va ish kuchining qish oylaridagi bandligini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari, yordamchi korxonalar va hunarmandchilik o'z joyida o'z xomashyosidan foydalanib, xo'jalikka qo'shimcha pul daromadlari, xodimlar uchun qo'shimcha ish haqi manbai bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligida ish kuchidan yaxshiroq foydalanishning katta imkoniyati ijtimoiy va individual qurilishni rivojlantirish, kapital ta'mirlash, yo'l qurilishi, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatni tashkil qilish, qishloq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishi kooperatsiyasidan foydalanishga ham bog'liq.

4. Kadrlar malakasi. Qishloq xo'jaligi xodimlarining malakasini oshirish, ularning aralash ixtisos va mutaxassisliklarni egallashi, fermer xo'jaliklarida ishlovchilarni qurilish, meliorativ va boshqa ishlarga, ya'ni qish oylari qilinadigan ishlarga jalb qilish ham ish kuchidan foydalanishning mavsumiyligini ancha yumshatadi.

5. Xo'jalik operatsiyalarining bajarilish muddatlari. Ish kuchidan ancha oqilona foydalanish alohida xo'jalik operatsiya (mineral va mahalliy o'g'itlarni tashish, urug'ni tayyorlash va boshq.)larni nisbatan ancha bo'shroq vaqtlarga ko'chirishga imkon beradi.

6. Mehnatni oqilona tashkil qilish. Mehnat jarayonlarini oqilona tashkil etish, texnika va xodimlarni yagona ishlab chiqarish siklida birlashtirish, ishni oz sonli kishilar bilan bajarish, ish kuchiga bo'lgan ehtiyojni pasaytiradi.

5.6. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori

Ish kuchi bozori. Bozor iqtisodiyotida ish kuchi ikki sharoit ta'sirida tovarga aylanadi. *Birinchidan*, kishi ozod bo'lishi va o'z ish kuchiga mustaqil egalik qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. *Ikkinchidan*, u ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lishi kerak, aks holda unda ish kuchini sotish zaruriyati bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida bundaylar yollanma xodimlar hisoblanadi. Bozorda u o'z ish kuchining egasi, sotuvchi sifatida xaridor bilan qarama-qarshi turadi.

Ish kuchi, boshqa tovarlar singari, iste'mol qiymatiga ega. Ish kuchining iste'mol qiymati, uning o'z mehnat qobiliyati bilan iste'mol qiymat va qiymatga ega bo'lgan yangi tovar yaratishidir. Boshqa tovarlardan farq qilib ish kuchi iste'mol jarayonida o'z qiymatidan ko'p bo'lgan daromad yaratadi. Bu ortiqcha daromad qo'shilgan qiymatning tarkibidir. Ish kuchining qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyati pirovard natijada tovar bo'lgan ish kuchining iste'mol qiymatidir.

Tovar sifatida ish kuchining qiymati, uni takror ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy zaruriy mehnatning miqdori bilan o'lchanadi. Shuning uchun ish kuchining qiymati tirikchilik vositalari fondini tashkil qiladi. Tirikchilik vositalari fondi xodimlar shaxsiy iste'molining moddiy asosi sifatida namoyon bo'ladi va shaxsiy iste'molga kiradigan moddiy ne'mat va xizmatlarning yig'indisini ifodalaydi. Tirikchilik vositalari fondining manbayi va asosiy iqtisodiy shakli mehnat haqi hisoblanadi.

Xodimlar tirikchilik vositalari fondining bir qismi, shaxsni rivojlantiradigan va maorif, tibbiy xizmat, turli xil nafaqa va boshqalarga sarflanadigan shaxsiy va ijtimoiy iste'mol fondlaridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish kuchiga bo'lgan taklifning talabdan oshib ketishi ish kuchi (mehnat) bozorining bo'lishini muqarrar qilib qo'yadi.

Qishloq xo'jaligida ish kuchi bozori ilgari ham mavjud edi, lekin u chegaralangan, o'zgartirilgan ko'rinishda edi. U tarmoqqa rahbarlikning ma'muriy-qo'mondonlik usuli tufayli o'ziga xos bo'lgan vazifani bajara olmas, xodimlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonini tashkil qilish hamda tartibga solishning qo'llanadigan shakllari takomillashmaganligi tufayli qishloq mehnatkashlarining ish joyi va mashg'ulot turini tanlash erkinligi chegaralangan edi. Qishloq mehnatkashlarining davlat mulkiga ham xo'jayni sifatidagi huquqi to'la emas, ishga joylashishda, mehnatiga yarasha haq olishda mehnatga bo'lgan qobiliyatdan uzoqlashish sodir bo'lar edi.

O'rta Osiyo respublikalari qishloq xo'jaligida tub aholining hayotiy, mehnat va iste'mol bilan bog'liq, manfaatlar va milliy xususiyatlarni hisobga olmasdan, monokulturada, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirishda yaxshi o'ylamasdan, investitsiya va struktura siyosatini amalga oshirish natijasi bandlikni ta'minlashda paydo bo'ladigan salbiy hodisalarga olib keldi.

Jamoa va davlat xo'jaliklarining ko'p qismini yiriklashtirishga olib kelgan va dastlab kichik shakldagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini chegaralagan va keyinchalik butunlay taqiqlab qo'ygan yirik ishlab chiqarish va davlat mulk shakllarini yoppasiga rivojlantirish siyosati oqibatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va mehnat resurslarini joylashtirishdagi nomuvofiqlik yuzaga keldi.

Qishloq xo'jaligining hozirgi rivojlanish davrida ish kuchi bozorini tan olishning to'g'riligi quyidagi omillarga bog'liq:

Birinchidan, qishloq mehnatkashlarining ishlab chiqarish vositalaridan va o'z mehnatlarining natijalaridan, ularni sotishdan keladigan foydadan uzoqlashuvi. Bu esa ish kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi munosabatini xodim bilan davlat o'rtasidagi tovar aloqasi shaklida ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy alohidaligi darajasi keskin o'sadi; xo'jalik faoliyati va ish o'rnini tanlashdagi muqobillikning kengayishi, xo'jalik yuritish shakllari va mehnat haqi, shuningdek, mintaqalar o'rtasidagi farq qiluvchi qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida ish kuchi aralashib ketishining kuchayishisiz sodir bo'lmaydi.

Ikkinchidan, ish kuchini takror ishlab chiqarishda qiymat qonunining tan olinmasligi, xodimlar malakasi va ular bajarayotgan ishning murakkabligini hisobga olmaslik, ish haqi miqdori bilan ish kuchining qiymatini qoplash uchun talab qilingan xarajatlar o'rtasidagi uzilishga olib keldi. Bozor sharoitida malakali ish kuchini jalb qilish uchun raqobat rivojlanishi bilan qishloqda mehnat munosabatlari sohasida qiymat qonunining, talab va taklif qonunining roli oshib boradi.

Uchinchidan, mehnatning bozor orqali jamiyat tomonidan tan olinish mexanizmi xodimlar o'rtasida yaxshi mehnat sharoiti va yaxshi haq to'laydigan joyga bellashuvni amalga oshirishga imkoniyat beradi.

Ish kuchi bozori — bu mazmuniga ko'ra, ish kuchining harakat shaklidir. Mehnat bozorining rivojlanishi ish kuchiga to'laqonli haq to'lashni ta'minlaydi; ish kuchi sifatini oshirishni, tashabbuskorlikni, tadbirkorlikni rag'batlantiradi; uning yuqori harakatchanligini ta'minlaydi. Bular hammasi o'z-o'zidan iqtisodiyotni va fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishga xizmat qiladi. Mulkning va xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllariga o'tish sharoitida nafaqat aniq ish o'rnini tanlash erkinligini kengaytiradi, balki har

- I. Davlat budjeti:
 - 1. O'z bandligiga yordamlashish (tadbirkorlik faoliyati, dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi);
 - 2. Yangi ish joylari barpo qilishni rag'batlantirish.
- II. Mahalliy budjet:
 - 1. Ish joylarini saqlab qolishni rag'batlantirish;
 - 2. Ijtimoiy ishlarni tashkil etish.
- III. Fuqarolarning bandlik fondi:
 - 1. Ish joyini saqlash;
 - 2. Ishsizlarni yangi kasbga qayta tayyorlash;
 - 3. Ishsizlarga nafaqa.
- IV. Aholi bandligi xizmatining tijorat faoliyatidan keladigan daromadlar:
 - 1. Ijtimoiy ishlarni tashkil etish;
 - 2. Ishsizlarni qayta tayyorlash.

Ishsizlar — bu ish va ish haqiga ega bo'lmagan, o'ziga to'g'ri keladigan ishni izlash maqsadida bandlik xizmatida ro'yxatdan o'tgan, ish izlovchi va topsa, darrov joylashadigan mehnatga yaroqli fuqarolardir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 60—«Ishsiz deb e'tirof etish» moddasida shunday yozilgan: «Ishsizlar — o'n olti yoshdan to' pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar mustasno)».

Qishloq xo'jaligida ishsizlik turli sabablarga asosan bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, ishsizlikning bir qancha turlari bo'ladi: friksion, strukturali va siklik (davriy).

Friksion — bu ishsizlikda, ishsizlar ish izlashadi yoki yaqin kelajakda uni topishdan umidvor bo'ladilar. Friksion ishsizlik muqarrar hisoblanadi va qaysidir jihatdan maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina ishchilar o'z ixtiyorlari bilan past unumli, kam haq to'laydigan ishlardan ancha yuqori unumli va ancha yuqori haq to'laydigan ishlarga o'tib ketishadi. Shunday qilib, mehnat bozori tashkil etiladi va harakat qiladi, ya'ni ishchilar soni bilan ish joylari soni mos kelmaydi.

Friksion ishsizlik, o'z navbatida, strukturali ishsizlikka o'tadi. Strukturali ishsizlik ish kuchiga talabning umumiy strukturasi

o'zgarishini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida ayrim kasblarga talab pasayadi yoki butunlay to'xtaydi, boshqa kasblarga esa, jumladan, yangi, oldin mavjud bo'lmagan kasblarga talab o'sadi.

Strukturali ishsizlikda ishsizlar ma'lum darajada qayta tayyorgarlichsiz, qo'shimcha bilim olmasdan, ba'zi hollarda yashash joyini o'zgartirmasdan ish topa olmaydilar. Agar friksion ishsizlik qisqa muddatli xarakterga ega bo'lsa, strukturali ishsizlik uzoq muddatli xarakterga ega.

Siklik (davriy) ishsizlik, bu ishlab chiqarishning pasayishi bilan yuzaga keladigan ishsizlik. Bunda tovar va xizmatlarga talab kamayadi, bandlik qisqaradi va ishsizlar soni o'sadi. Ishsizlikning bu turi talabning taqchilligi bilan bog'liq. Iqtisodiyot inqirozdan chiqqandan keyin, ishlab chiqarish hajmi o'sadi va tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar uchun ish kuchiga bo'lgan talab oshadi.

Ishsizlik darajasi, ishsizlar sonini umumiy ish kuchi soniga bo'lib topiladi va quyidagi formulada ifodalanadi:

$$ID = \frac{IS}{UIK} \cdot 100,$$

bu yerda, ID — ishsizlik darajasi, %; IS — ishsizlar soni, kishi; UIK — umumiy ish kuchi soni, kishi.

Ishsizlar darajasidagi farq mamlakatning iqtisodiy siyosati xarakteriga, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga va boshqa omillarga bog'liq. Agar odam hech qayerda ishlamasa va ish qidirish bilan band bo'lsa, u holda u ishsiz hisoblanadi. Inson ishsiz bo'lishi uchun nafaqat ishi yo'qligi, balki uni astoydil izlayotgan bo'lishi kerak. Lekin aksariyat hollarda odamlar hech joyda ishlamaydi va shunday bo'lsa ham ishsiz hisoblanmaydi. Bular shunday toifadagi odamlarki, ular nafaqaxo'rlar, yosh bola bilan uyda o'tiruvchilar, uzoq muddatga ta'til oluvchilar va yangi ishga joylashish maqsadida qayta tayyorgarlikdan o'tuvchilardir.

Hozirgi vaqtda ishsizlikning uch turi mavjud:

1. Tarkibiy o'zgarishlar bo'layotgan davrdagi ishsizlar;
2. Iqtisodiyotning me'yorda harakat qilishi davridagi ishsizlar;
3. Qisqa muddatli iqtisodiy inqirozlar bilan bog'liq ishsizlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar bandlik darajasini qisqartirib ish haqini oshiradi va aksincha, ish haqini pasaytirib bandlilik darajasini oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, korxonalar mahsulot bahosini oshirib, bandlikni oshiradi. Korxonalar uchun

eng muhimi ish haqi darajasining mahsulot bahosiga nisbati hisoblanadi. Bunday holatda, ish haqi mahsulot bahosiga nisbatan tezroq o'ssa, korxonalar ozroq xodimlarni yollaydi.

To'liq bandlik amalga oshirilgan taqdirda ham ishsizlar bo'ladi.

Barcha mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham mehnat bozoriga uch asosiy omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Tabiiy-resurs;
2. Demografik;
3. Ijtimoiy-iqtisodiy.

Qishloq xo'jaligida mehnat bilan bandlikka to'sqinlik qiluvchi omillar:

1. Og'ir mehnat sharoitlari;
2. Agrar sektorda ijtimoiy sohaning kuchsiz rivojlanishi;
3. Mamlakat hududlari bo'ylab qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining notekis taqsimlanishi;
4. Ishchi kadrlarning yetarlicha tayyorlanmasligi: mexanizatorlarning, quruvchilarning chorvadorlarning va boshqalarning;
5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligining pastligi;
6. Qishloq joylarda ishsizlar sonining o'sishi;
7. Yoshlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasidan chiqib ketishi.

Mehnatga yaroqli aholi sonining o'sish sur'ati va mehnatga bo'lgan talabning miqdori o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi demografik omil mehnat bozori orqali keskin barqarorlashtiriladi. Bu omilning ta'siri bizning respublikada o'z kuchini hali ham yo'qotgan emas.

Shuningdek, ishsizlik darajasiga quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham keskin ta'sir qiladi:

- ishlab chiqarishning inqirozga uchrashi;
- mahsulot ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar;
- mulkchilik shakllaridagi o'zgarishlar (xususiy lashtirish);
- moliya-kredit, investitsiya, tashqi iqtisodiy tarmoq va daromadlar sohasidagi vaziyatlar.

5.8. Mehnat resurslarini iqtisodiy baholash uslubiyati

Yuqorida qayd etilganidek, qishloq xo'jaligi korxonalarining, jumladan, fermer xo'jaliklarining ixtiyoridagi barcha resurslarning qiymatini aniqlash va uni asosiy vosita sifatida buxgalteriya balansiga kiritish masalasi muhim hisoblanib, u eng avvalo, resurslar egalarining qanchalik iqtisodiy quvvatga ega ekanliklarini

bildirsa, boshqa tomondan har bir resursning ishlab chiqarilayotgan tovar yoki mahsulotdagi ulushini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, gap qiymatini yoki bahosini aniqlash ancha murakkab bo'lgan ikki resurs: mehnat resurslari va yer resurslari haqida boradi. Ushbu bobda mehnat resurslarining qiymatini aniqlashning ayrim jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida, erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha va ayollar 16 yoshdan 55 yoshgacha mehnat resurslari tarkibiga kiradi. Demak, bola dunyoga kelguncha va undan keyin to 16 yoshgacha, ya'ni mehnat resursi bo'lib shakllanguncha ham davlat tomonidan, ham oilaning o'zida oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashga sarf-xarajatlar qilinadi.

Shunday ekan, mehnat resurslari shakllanishi bilan bog'liq xarajatlar ham albatta, uning qiymatida hisobga olinishi kerak. Shundan kelib chiqib, mehnat resurslari qiymatiga, bizning fikrimizcha, quyidagi xarajatlar kirishi kerak:

1. Homilador ayolning bola tug'ilgunga qadar davlatdan oladigan mablag'lari; O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi-ning 233—«Homiladorlik va tug'ish ta'tillari» moddasiga asosan, ayollarga tuqqunga qadar yetmish kalendar kun va tuqqanidan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda — yetmish kalendar kun) muddati bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanishi va 234—«Bola ikki va uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan ta'tillar» moddasida homiladorlik va tug'ish ta'tili tugaganidan keyin ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ta'til berilib, bu davrda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nafaqa to'lanishi belgilab qo'yilgan. Bunda yuqoridagi kodeksning 286—«Homiladorlik va tug'ish nafaqasi» moddasiga asosan, homiladorlik va tug'ish nafaqasi homiladorlik va tug'ish ta'tilining butun davrida to'liq ish haqi miqdorida to'lanadi va 287—«Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa» moddasiga asosan, bola tug'ilganda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi. Har bir tug'ilgan bola uchun beriladigan nafaqaning miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi. Bu miqdor «Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomning 6—«Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa» paragrafi 79-bandi bo'yicha, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O'zbekiston

Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi.

2. Tug'ilgandan keyin bola 16 yoshgacha bo'lgan davrda davlat tomonidan qilinadigan xarajatlar.

Demak, bola tug'ilishi bilan bog'liq barcha xarajatlar yuqoridagi 1-band bo'yicha hisobga olinar ekan. Bu yerda esa undan keyingi, ya'ni kamida bola 1 yoshga to'lgandan boshlab to 16 yoshga kirgunga qadar bo'ladigan xarajatlar hisobga olinadi. Bu xarajatlar ham ikkiga bo'linib, biri davlat tomonidan va ikkinchisi oilada sarflanadigan xarajatlardir. Bu bandda davlat tomonidan qilinadigan xarajatlar hisoblanadi.

Aholining hayoti davomida salomatligini saqlash va faoliyatini ta'minlash uchun tibbiy me'yorlar darajasida ovqatlanishi va kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojini qondirishi zarur. Bu esa 5 yilda bir marta uslubiy tavsiyalar asosida aniqlashtiriladigan iste'mol savati deb nomlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari, boshqa nooziq-ovqat tovarlari, shuningdek, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning to'plamida o'z ifodasini topadi. U ta'kidlanganidek, oziq-ovqat, nooziq-ovqat va xizmat savatchalaridan iborat bo'ladi. Bir vaqtning o'zida uchala savat ham insonning faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Shulardan oziq-ovqat savati bir kishining bir oyda ovqatlanishi uchun ketadigan mahsulotlar miqdorini bildirib, bu yerda mahsulotlar iste'mol qilishning minimal me'yori asos qilib hisoblaniladi.

Demak, kishilar iste'mol qiladigan barcha oziq-ovqat mahsulotlarining tibbiy me'yorlar darajasidagi miqdorini, 16 yoshgacha bo'lgan yosh toifalari bo'yicha hisoblab, shuningdek, ularga kiyim-kechak borasidagi xarajatlarni ham qo'shib hisoblab taxminiy holatdagi sarf-xarajatlarni hisoblab chiqarish mumkin bo'ladi.

3. Oilada bola 16 yoshga to'lguncha, sarf qilinadigan o'rtacha xarajatlar. Xuddi yuqoridagidek, oilada ham bolalarni to'balog'at yoshigacha, ya'ni 16 yoshgacha bo'lgan davrda ularga kerak bo'ladigan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur xarajatlarni me'yor darajasida hisoblab chiqib, aniqlash mumkin.

Hisob-kitoblarga qaraganda, eng ko'p quvvat talab qilinadigan yoshlar — bu 13—18; 18—59 va 10—13 yoshlar oraliq'i bo'lib, ularda bir sutkada mos ravishda — 2914; 2834 va 2738 k/kal quvvat talab qilinar ekan¹.

¹ R.Q. Rajabov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrosurslar bozori muvozanati va ishlab chiqarishning samaradorligi. Iqt.fan.doktori dissertatsiya avtoreferati. T., 2006, 16-bet.

Demak, 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar ham davlat tomonidan va ham oilada sarflanadigan xarajatlarni birgalikda qo'shib, hisoblab chiqib ana shu yoshgacha bo'lgan o'smirni voyaga yetkazish bilan bog'liq jami xarajatlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Ushbu bandlarning yig'indisi, bizningcha, 16 yoshli o'smirning, ya'ni shakllangan mehnat resursining o'rtacha qiymatini tashkil qiladi.

Mehnat resurslarining nafaqa yoshigacha bo'lgan davrgacha ishlaydigan vaqtlarini hisoblasak, u erkaklar uchun 44 (60—16) yil va ayollar uchun 39 (55—16) yilga teng. O'rtacha esa 41,5 (44+39=83:2) yilni tashkil qiladi. O'rganilayotgan davrga qarab, ana shu 41,5 yil (mehnat resursining yoshiga qarab o'zgaradi), hukumat tomonidan turli davrda o'zgartirib turiladigan minimal ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Shuningdek, mehnat resurslarining qiymatiga, minimal ish haqidan ortiqcha va barcha to'lovlardan qolgan nominal ish haqi ham kiritiladi. Xorijiy va MDH davlatlari olimlarining tadqiqotlarini tahlil qilgan holda o'zimizning amaldagi qabul qilingan hujjatlar asosida va mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, mehnat resurslarining qiymatini quyidagi formulada hisoblash mumkin:

$$MRQ = \overline{M} + \overline{DM} + \overline{OX} + MIH \cdot 41,5 + (NIH - MIH),$$

bu yerda, MRQ — 1 ta mehnat resursining qiymati, so'm hisobida; \overline{M} — bola tug'ilgunga qadar davlat tomonidan beriladigan o'rtacha mablag'lar, so'm hisobida; \overline{DM} — bola tug'lgandan keyingi 16 yoshga to'lgunga qadar davlat tomonidan beriladigan o'rtacha mablag'lar, so'm hisobida; \overline{OX} — bola tug'lgandan keyingi 16 yoshga to'lgunga qadar oila tomonidan unga sarflangan o'rtacha xarajatlar, so'm hisobida; MIH — o'zgarib turuvchi minimal ish haqi miqdori, so'm hisobida; 41,5 — mehnatga qobiliyatli davr (yoshga qarab o'zgarib turuvchi raqam), yil; $(NIH - MIH)$ — barcha to'lovlardan va minimal ish haqidan keyingi nominal ish hagi, so'm hisobida.

Ushbu usul bilan aniqlangan 1 ta mehnat resursining qiymatini jami mehnat resurslari soniga ko'paytirib, jami paxtachilik majmuyi korxonalaridagi mehnat resurslari qiymatini hisoblash mumkin. Paxtachilik majmuyi samaradorligini aniqlashda bir yillik mehnat resurslarining qiymati qo'shiladi, xolos. Uni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$MRO'YQ = \frac{MRQ}{P},$$

bu yerda, $MRO'YQ$ — mehnat resurslarining o'rtacha yillik qiymati, so'm; P — mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida o'rtacha ishtirok etish davri, yil.

5.9. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar uch guruhga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mehnat resurslarini jalb qilish darajasi;

2. Ish kuchidan ish vaqtida to'liq foydalanish;

3. Ish kuchidan foydalanish samaradorligi;

1- va 2-guruh ko'rsatkichlar mehnat resurslaridan ekstensiv foydalanish darajasini xarakterlaydi. 3-guruh ko'rsatkichlari esa mehnat resurslaridan intensiv foydalanishni xarakterlaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mehnat resurslarini jalb qilish darajasini xarakterlaydigan ko'rsatkich mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti ($MRFK$)dir.

U o'rtacha yillik xodimlar sonini mavjud mehnat resurslari miqdoriga bo'lib hisoblanadi:

$$MRFK = \frac{O'rYXS}{MRM}$$

Ish kuchidan ish vaqtida to'la foydalanishni aks ettiradigan ko'rsatkichlar quyidagilar:

a) haqiqatda 1 xodim tomonidan ishlangan kishi/kunlari miqdori — $HIKK$ (o'rtacha me'yorda 285 kun).

$$HIKK = \frac{Jami\ k / k}{O'rYXS};$$

b) ish kuchidan foydalanish koeffitsiyenti ($IKFoyK$).

Haqiqatda yil davomida bajarilgan kishi-kunlari miqdorini me'yordagi mumkin bo'lgan ish vaqti fondiga nisbati bilan topiladi:

$$IKFoyK = \frac{Xk / k}{Mk / k};$$

d) ish kuchidan foydalanishning to'liq koeffitsiyenti ($IKFoyTK$). Haqiqatdagi sof ish vaqtini (k/s) mumkin bo'lgan ish vaqti fondiga nisbati bilan topiladi (7 soatlik ish kunida):

$$IKFoyTK = \frac{SIV(k/s)}{MBIV};$$

e) ish kuchidan foydalanishning umumiy koeffitsiyenti ($IKFoyUK$).

$IKFoyK$ ni $IKFoyTK$ ga ko'paytirib topiladi:

$$IKFoyUK = IKFoyK \cdot IKFoyTK.$$

Ish kuchidan foydalanishning samaradorligini umumlash-
tiruvchi ko'rsatkich mehnat unumdorligi hisoblanadi.

5.10. Mehnat unumdorligi tushunchasi, ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usublari va oshirish imkoniyatlari

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi, xodimlarning bir birlik vaqtda ma'lum bir miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilgan aniq mehnat qobiliyatini aks ettiruvchi iqtisodiy toifadir. Alohida turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini hisoblash uchun, natural birlikda, ya'ni sentnerda hisoblaniladi. Alohida (dehqonchilik, chorvachilik) tarmoqlarida yoki butun qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini hisoblash uchun, ular turli mahsulot bo'lganligi uchun, qiymat shaklida pulda hisoblaniladi.

Bu maqsad uchun joriy yoki xarid, shuningdek, taqqoslama baholardan foydalaniladi. Turli shakldagi xo'jaliklarda, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymatini hisoblashda joriy baholardan foydalaniladi. Bir necha yillik mahsulot qiymatini dinamikada o'rganishda taqqoslama baholar qo'llaniladi.

Ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligida pulda baholangan yalpi mahsulot ko'rsatkichini mehnat unumdorligini hisoblash uchun foydalanish mehnat xarajatlari samaradorligi haqida yetarli darajada to'liq va obyektiv tasavvur bermaydi. Chunki yalpi mahsulotda takroriy hisob-kitoblar, mahsulotning tovar bo'lmagan qismi qiymatining pasaytirilishi, material sig'imining ta'siri va

boshqalar kabi kamchiliklar borki, ular mehnat unumdorligi darajasini va dinamikasini buzib ko'rsatadi. Bu esa mahsulotning mehnat sig'imini pasaytirishga va sifatini oshirishga undamaydi.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini ancha aniq hisoblash uchun yalpi mahsulot (*YM*)dan emas, balki sof mahsulot (*SM*)dan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki yangidan yaratilgan qiymatda takroriy hisob-kitoblar va moddiy xarajatlarning ta'siri kamayadi. Sof mahsulot ko'rsatkichidan foydalanib, mehnat unumdorligini hisoblash alohida bir xo'jalikda mehnat xarajatlari samaradorligining aniq darajasini aks ettiradi. Hozirgi sharoitda bu ko'rsatkich ish kuchidan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Mehnat unumdorligini hisoblashda mehnat xarajatlarini o'lchash uchun ish vaqtining davomiyligidan foydalaniladi. Qishloq xo'jaligida ish vaqti birligi sifatida, sof ish vaqti xarajatlarini aks ettiruvchi kishi/soatlari, bir xodimning ish kuni (kishi/kunlari) va yil davomida ish vaqtining yig'indisini aks ettiruvchi, xodimlarning o'rtacha yillik sonidan foydalaniladi.

Mehnat unumdorligi (*MU*) darajasi natura yoki qiymat shaklidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlarining miqdorini (*MM*) yoki bajarilgan ishlar hajmini (*IH*) yoxud mahsulot qiymatini (*MQ*) shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti miqdoriga (*IVM*) bo'lib topiladi.

Shunday qilib, mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = \frac{MM(IH) \text{ yoki } MQ}{IVM \text{ yoki } XS} = \frac{27164,2 \text{ mlrd}}{3,3 \text{ mln}} = 8231,6 \text{ mln so'm.}$$

Yuqorida keltirilgan nisbatning teskari ko'rsatkichi mahsulotning mehnat sig'imi deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$MS = \frac{IVM \text{ yoki } XS}{MM(IH) \text{ yoki } MQ} = \frac{3,3 \text{ mln}}{27164,2 \text{ mlrd}} = 0,0000001 \text{ mln so'm.}$$

Respublika qishloq xo'jaligida 2012-yilda 27 trln 164 mlrd 200 mln so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lib, qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni 3 mln 300 ming kishini, yillik o'rtacha 1 xodimga to'g'ri kelgan yalpi mahsulot esa 8231,6 mln so'mni tashkil etgan.

Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, mehnat sig'imi shuncha past bo'ladi va aksincha, ammo mehnat unumdorligining oshish sur'ati mehnat sig'imining pasayish sur'atiga teng bo'lmaydi.

Mehnat unumdorligi va mehnat sig'imi o'rtasida funksional bog'lanish mavjud bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$MU = \frac{\Delta MS \cdot 100}{100 - MS}; \quad MS = \frac{\Delta MU \cdot 100}{100 + MU},$$

bu yerda, MU — joriy yilda baza yiliga nisbatan mehnat unumdorligining o'sishi, %; ΔMS — joriy yilda baza yiliga nisbatan mehnat sig'imining pasayishi, %.

Agar MS 15 % ga pasaysa, unda mehnat unumdorligi:

$$\left(\frac{15 \cdot 100}{100 - 15} \right) 18 \% \text{ ga oshadi,}$$

agar mehnat unumdorligi 15 % ga oshsa, unda $MS \left(\frac{15 \cdot 100}{100 + 15} \right)$ 13 % ga pasayadi.

Mehnat xarajatlarining qo'shilish tarkibiga qarab, mehnat sig'imi bir qancha turlarga bo'linadi:

1. Texnologik mehnat sig'imi;
2. Xizmat ko'rsatishdagi mehnat sig'imi;
3. Ishlab chiqarishdagi mehnat sig'imi;
4. Ishlab chiqarishni boshqarishdagi mehnat sig'imi;
5. Mahsulotning to'liq mehnat sig'imi.

1. Texnologik mehnat sig'imi (MS_t) — o'z ichiga xodimlarining aniq mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha alohida texnologik operatsiyalaridagi mehnat xarajatlarini oladi;

2. Xizmat ko'rsatishdagi mehnat sig'imi (MS_{xk}) o'z ichiga ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va yordamchi tarmoq xodimlarining mehnat xarajatlarini oladi (mashina-traktor ustaxonasi, avtotransport va boshqalarni);

3. Ishlab chiqarishdagi mehnat sig'imi ($MS_{i/ch}$) o'z ichiga texnologik va xizmat ko'rsatish mehnat sig'imlarini oladi:

$$MS_{i/ch} = MS_t + MS_{xk}.$$

4. Boshqarishdagi mehnat sig'imi (MS_{bosh}) o'z ichiga mahsulotga o'tkazilgan umum ishlab chiqarish va umumxo'jalik xarakteridagi boshqarish xodimlarining mehnat xarajatlarini oladi.

Bunga xo'jalik rahbarlari va mutaxassislari, funksional bo'lim xodimlarining mehnat xarajatlari kiradi:

$$MS_{bosh} = MX_{ui}/ch + MX_{ux}.$$

5. Mahsulotning to'liq mehnat sig'imi ($MSto'l$) barcha yuqoridagi turdagi mehnat sig'imlarini ifodalaydi:

$$MSto'l = \frac{MSt + MS_{xk}}{MSi / ch} + MS_{bosh}.$$

Mahsulot ishlab chiqarishga sarf qilingan mehnat xarajatlarini ikki guruhga bo'lish qabul qilingan:

1. Jonli mehna' xarajatlari. Bevosita qishloq xo'jaligida ishtirok etayotgan xodimlarning ish vaqti;

2. Buyumlashgan mehnat xarajatlari. U o'z ichiga mashina, mineral o'g'itlar va boshqalarda buyumlashgan sanoat xodimlarining mehnatini hamda ishlab chiqarishning oldingi bosqichlarida va urug', yem-xashakda va qishloq xo'jaligidan chiqadigan mehnat predmetlarida buyumlashgan mehnat xarajatlarini oladi.

Ishlab chiqarish jarayonida yetakchi rolni jonli mehnat o'ynaydi, chunki u buyumlashgan mehnat yaratgan ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradi. Buyumlashgan qishloq xo'jaligi mehnati buyumlashgan sanoat mehnatiga nisbatan kam samarali, chunki keyingisi qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda jonli mehnatning unumdorlik darajasini faqat mahsulot ishlab chiqarishning yakunlovchi bosqichida hisoblash qabul qilingan.

Buyumlashgan mehnat xarajatlari qishloq xo'jaliginiki va sanoatniki bo'lishidan qat'i nazar, ishlab chiqarishning oldingi bosqichidagi mehnat xarajatlari hisoblanadi, bevosita ish vaqtida hisoblanilmaydi, ularning hisobi mahsulot tannarxini pul shaklida hisoblashda amalga oshiriladi. Shu bilan birga faqat jonli mehnat xarajatlarini baholash ijtimoiy mehnatning haqiqiy tejamini oshirib yuboradi, buyumlashgan mehnat xarajatining samaradorligi esa noma'lum bo'lib qolaveradi. Buning ustiga hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligida har yili mahsulot ishlab chiqarishda buyumlashgan mehnat sarfi oshib bormoqda. Shuning uchun jonli mehnat xarajatlari samaradorligini baholash bilan bir qatorda, sanoat ishchilari va buyumlashgan qishloq xo'jaligi mehnati xarajatlaridan foydalanish samaradorligi qanday ekanligini bilish muhimdir.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi to'g'risida ancha to'liq va aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun jami mehnat xarajatlari, ya'ni mahsulot birligiga hisoblangan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlarini birgalikda tahlil qilish muhim, ammo o'ta murakkabdir.

Yuqoridagi tushunchalarni hisobga olib mehnat unumdorligi tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Tor ma'noda mehnat unumdorligi, faqat jonli mehnat xarajatlarini (JMX) hisobga oladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = \frac{MM(IX) \text{ yoki } MQ}{JMX}$$

Keng ma'noda mehnat unumdorligini ko'rib chiqishda ham jonli, ham buyumlashgan mehnat xarajatlari (BMX) hisobga olinadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$T = JMX + BMX.$$

Shuni hisobga olib, keng ma'nodagi mehnat unumdorligi quyidagicha hisoblanadi:

$$MU = \frac{MM(IX) \text{ yoki } MQ}{JMX + BMX} \text{ yoki } MU = \frac{MM(IX) \text{ yoki } MQ}{Tannarx}.$$

Qishloq xo'jaligida jonli mehnat xarajatlari ikkiga bo'linadi:

1. Bevosita;
2. Bilvosita.

1. *Bevosita xarajatlar* — ma'lum bir ekin yoki chorva turariga xizmat qiluvchi, dehqonchilik va chorvachilik xodimlarining mehnat xarajatlari. Mahsulot ishlab chiqarishda qatnashish darajasi nuqtayi nazaridan bevosita mehnat xarajatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida harakat qiladigan ijtimoiy mehnatning tarkibidagi faol va katta hajmi tashkil qiladigan mehnat massasini ifodalaydi;

2. *Bilvosita xarajatlar* — bevosita ishlab chiqarishda qatnashmaydigan, balki ishlab chiqarishni tashkil qilishda, boshqarishda va alohida tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat xarajatlari.

Hozirgi vaqtda, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi darajasini aniqlash uchun faqat bevosita mehnat xarajatlari (texnologik mehnat sig'imi)ni olish qabul qilingan. Bu boshqaruv

va xizmat ko'rsatish xodimlari mehnat xarajatlarini mahsulot turlari bo'yicha taqsimlashning ba'zi bir qiyinchiliklaridan kelib chiqadi.

Qishloq xo'jaligida texnika taraqqiyotining rivojlanishi va qishloq xo'jaligida mutaxassislar sonining o'sishi natijasida bilvosita mehnat xarajatlari salmog'i o'sishi kerak. Lekin hozirgi bizning iqtisodiyotimizda bunga erishilganicha yo'q. Shunday bo'lishiga qaramasdan, jonli mehnat unumdorligi darajasini ancha aniqroq hisoblash uchun, shuningdek, bilvosita mehnat xarajatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu xarajatlarni ham tarmoq bo'yicha, ekin va chorva turlari bo'yicha va bevosita mehnat xarajatlariga proporsional mahsulot bo'yicha ham taqsimlash mumkin. Shularni hisobga olib, jonli mehnatning jami xarajatlarini topamiz. U o'z ichiga bevosita va bilvosita mehnat xarajatlarini oladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$JMX = Bev.X + Bil.X.$$

Demak, jami mehnat xarajatlari (*JamiMX*) esa jonli mehnat xarajatlari (*JMX*), shuningdek, buyumlashgan (sanoat) mehnat xarajatlari (*BMXs*) va qishloq xo'jaligi mehnat xarajatlari (*MX*)ni o'z ichiga oladi va quyidagicha hisoblanadi:

$$JamiMX = \frac{Bev.X + Bil.X}{JMX} + \frac{BMXs + MXk / ch}{BMX}.$$

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ish kuchidan foydalanish samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zaruriyati: *birinchidan*, mehnat unumdorligini uning barcha darajalarida, ya'ni bir butun qishloq xo'jaligida, uning alohida tarmoqlarida va alohida mahsulot turlari ishlab chiqarish bo'yicha, har tomonlama tavsifini ta'minlash zaruriyati. *Ikkinchidan*, qishloq xo'jaligida iqtisodiy jarayonlar biologik jarayonlar bilan qo'shib ketgan, ish davri esa ishlab chiqarish davri bilan mos kelmaydi. Bu yerda mehnat sarfi vaqti bilan uning pirovard natijasi — mahsulot olish vaqti o'rtasida tafovut kuzatiladi. Mehnat unumdorligining ko'rsatkichlar tizimi uni ishlab chiqarishning pirovard natijasi sifatida ham, uning alohida bosqich va operatsiyalarida ham aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar klassifikatsiyasi quyidagicha:

I. Asosiy ko'rsatkichlar:

1. Natural:

- a) 1 xodimga to'g'ri kelgan mahsulot miqdori;
- b) 1 kishi/soatiga to'g'ri kelgan mahsulot miqdori;
- d) 1 so'mlik mahsulotning mehnat sig'imi.

2. Qiymat:

- a) 1 xodimga to'g'ri kelgan yalpi yoki sof mahsulot qiymati;
- b) 1 kishi/soatiga to'g'ri kelgan yalpi va sof mahsulot qiymati;
- d) 100 so'mlik yalpi va sof mahsulotning mehnat sig'imi.

II. Qo'shimcha ko'rsatkichlar:

1. Xususiy ko'rsatkichlar:

- a) ish kunida bajarilgan ishlar hajmi, soat;
- b) alohida ish turlari bo'yicha 1 xodimning bajargan ishi yoki ishlab chiqargan mahsuloti;
- d) 1 birlik ish hajmini bajarishga ketgan mehnat xarajatlari.

2. Umumiy ko'rsatkichlari:

- a) 1 xodimga to'g'ri kelgan ekin va hayvonlar;
- b) 1 ga ekin maydoniga va 1 bosh hayvonga sarflangan mehnat xarajati;
- d) qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligi.

Mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichlari olingan mahsulot miqdori va sarflangan ish vaqti o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi, jonli mehnat xarajatlari samaradorligini yetarlicha to'liq karakterlaydi. Mahsulotni hisobga olish va baholash uslubi bo'yicha ular natura va qiymat, tarmoq va mahsulot to'rini qamrash darajasi bo'yicha xususiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga bo'linadi. Xususiy ko'rsatkichlar alohida yoki bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqarish mehnat unumdorligini karakterlaydi, umumlashtiruvchi ko'rsatkich esa bir butun qishloq xo'jaligi yoki uning alohida tarmoq (dehqonchilik, chorvachilik)larida mehnat unumdorligini karakterlaydi.

Xususiy ko'rsatkichlar natural ko'rsatkichlar bilan, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar qiymat ko'rsatkichlar bilan mos tushadi. 1 xodim hisobiga to'g'ri kelgan mahsulotni ifodalovchi ko'rsatkich yillik mehnat unumdorligini, ish vaqtining yillik sarflanishi samaradorligini aks ettiradi, 1 kishi/soatiga to'g'ri kelgan mahsulot esa soatlik mehnat unumdorligini, ya'ni sarflangan sof ish vaqti samaradorligini aks ettiradi.

Mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari qiymat ko'rsatkichlariga nisbatan bir qator qulayliklarga ega. Ular mahsulot assortimentidagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'sir etmaydi, ulardan alohida texnologik operatsiyalardagi mehnat xarajatlarini baholash uchun foydalanish imkoniyatini beradi va jonli mehnatning real sarflarini aks ettiradi. Chunki ularning hisobi shartli qiymat o'lchovi orqali emas, balki bevosita ish vaqti birligida amalga oshiriladi. Ammo natural ko'rsatkichlarda mahsulot sifati to'liq o'z aksini topmaydi.

Mehnat unumdorligi asosiy ko'rsatkichlarining, xoh natural, xoh qiymat shaklda bo'lmasin, kamchiligi shundaki, ularni faqat to'liq yil uchun hisoblash mumkin. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi tufayli mehnatning pirovard natijasi faqat xo'jalik yili tugagandan keyin ma'lum bo'ladi. Haqiqatda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning oraliq operatsiyalarida mehnat xarajatlari samaradorligi ustidan tezkor nazorat uchun har qanday bir vaqt davomida erishilgan hajmini ham bilish zarur. Bu maqsadlar uchun qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular mehnat xarajatlari samaradorligini to'liq karakterlamasa ham, texnologik jarayonlarning oraliq operatsiyalarida individual mehnat unumdorligini: 1 ish kunida yoki 1 kishi/soatida bajarilgan ish hajmi, yoki 1 birlik ish hajmini bajarish uchun ketgan mehnat xarajatini ifodalaydi.

Qo'shimcha ko'rsatkichlarni xususiy va umumiy ko'rsatkichlarga bo'lish mumkin. Xususiy ko'rsatkichlar aniq ish turi hajmi va uni bajarish uchun ketgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Xususiy ko'rsatkichlardan umumiy ko'rsatkichlar tashkil topadi, ya'ni ma'lum bir ekin turi gektariga va ma'lum bir hayvon boshiga to'g'ri kelgan mehnat xarajatlari. Qishloq xo'jaligida jonli mehnat xarajatlaridan foydalanish samaradorligini yana mahsulot chiqish ko'rsatkichlari ham bilvosita karakterlaydi, ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligi, chunki ular qancha yuqori bo'lsa, mahsulotning mehnat sig'imi shuncha past bo'ladi va aksincha.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining ko'pgina ko'rsatkichlari, yuqorida ko'rsatilganidek, yalpi yoki sof mahsulot miqdori (qiymati)ni mehnat xarajatlari miqdoriga yoki aksincha bo'lish yo'li bilan hisoblaniladi. Soatlik mehnat unumdorligi va alohida mahsulot turlari mehnat sig'imi ko'rsatkichlari birmuncha boshqacharoq hisoblaniladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining

o'ziga xos xususiyati, ma'lumki, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda va mollarni o'stirishda bir nechta mahsulot turlari ishlab chiqariladi, shuning uchun qishloq xo'jaligi ekinlari va hayvonlaridan olingan mahsulotlarga sarflangan jami mehnat xarajatlari barcha ishlab chiqariladigan mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanadi.

G'allachilikda mehnat xarajatlari somonning xarajatlari, uni tayyorlashga o'rnatilgan mehnat xarajatlarining me'yori bo'yicha aniqlanadi va g'allani ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat xarajatlaridan ajratib tashlanadi. G'alla chiqitlari to'liq g'alladagi ularning salmog'iga qarab g'allaga aylantiriladi. Demak, soatlik mehnat unumdorligini aniqlash uchun g'alla chiqitlari hisobga olingan jami g'allani, somonga qilingan mehnat sarfi ajratib tashlangandan qolgan mehnat sarfiga bo'linadi, ya'ni quyidagicha hisoblanadi:

$$MUg' = \frac{TG'M + (G'ChM \cdot S)}{MX}$$

bu yerda, MUg' — g'allachilikda mehnat unumdorligi, kishi/soatiga/sentner; $TG'M$ — toza g'alla miqdori, s; $G'ChM$ — g'alla chiqitlari miqdori, s; S — to'liq g'allaning g'alla chiqitidagi salmog'i, %; MX — g'allani yetishtirish uchun qilingan mehnat xarajati somon xarajatlari chiqarilgandan keyingi, kishi/soat.

Misol. Xo'jalikda yig'ib olingan toza g'alla 20000 sentnerni, g'alla chiqiti esa 6000 sentnerni tashkil etadi. G'alla chiqitidagi toza g'allaning hissasi 20 % ga teng, sarflangan mehnat xarajatlari (somonga sarflangan mehnat xarajatlarini chiqarib tashlab) 10000 kishi/soat bo'lsa, 1 kishi soatiga ishlab chiqarilgan g'alla quyidagicha hisoblanadi:

$$MUg' = \frac{20000 + (6000 \cdot 2)}{10000} = \frac{20000 + 12000}{10000} = \frac{32000}{10000} = 3,2 \text{ s.}$$

1 s g'allaning mehnat sig'imi (MSG') jami mehnat xarajatlari miqdorini (somon xarajatlari chiqarilgan) g'alla chiqimlari bilan birgalikda jami g'alla miqdoriga bo'lib aniqlanadi:

$$MSG' = \frac{MX}{TG'M + (G'ChM \cdot S)}$$

Yuqoridagi misoldan foydalanib, 1 s g'allaning mehnat xarajatlarini hisoblaymiz:

$$MSg' = \frac{10000}{20000 + (6000 \cdot 0,2)} = \frac{21200}{10000} = 0,47 \text{ k/s.}$$

Mahsulotning mehnat sig'imi va soatlik mehnat unumdorligi o'zaro teskari aloqada ekan, agar mehnat sig'imi ma'lum bo'lsa, u holda soatlik mehnat unumdorligi quyidagi usulda aniqlanadi:

$$MU = \frac{1}{MS} = \frac{1}{0,47} = 2,12 \text{ s.}$$

Sut qoramolchiligida jami mehnat xarajatlarining 90 % (go'ng xarajati chiqarilgandan keyin) sigirlardan sog'ib olingan sutga, 10 % esa buzoqqa ajratiladi. Shuning uchun sut ishlab chiqarish bo'yicha soatlik mehnat unumdorligi va 1 s mahsulotning mehnat sig'imi quyidagicha aniqlanadi:

$$MUs = \frac{SM}{MX \cdot 0,9}; \quad MSs = \frac{MX \cdot 0,9}{SM},$$

bu yerda, MUs — sutchilikda 1 soatlik mehnat unumdorligi (1 k/s.ga), s; MSs — 1 s sutga sarflangan mehnat xarajatlari, k/s; MX — sigirlarni saqlash uchun sarflangan mehnat xarajatlari (go'ngga sarflangan mehnat xarajatlari chiqarib tashlab), k/s; SM — sut miqdori, s; 0,9 — sutga ajratilgan mehnat sarfining salmog'i.

Misol. Xo'jalikda 8000 s sut sog'ib olingan, sigirlar saqlash uchun (go'ngga sarflangan mehnat xarajatlari chiqarib tashlab) qilingan mehnat xarajatlari 102000 kishi/soatni tashkil qilgan bo'lsa, u holda mehnat unumdorligi va mehnat sig'imi mos ravishda quyidagicha hisoblanadi:

$$MUs = \frac{8000}{102000 \cdot 0,9} = \frac{8000}{91800} = 0,09 \text{ s;}$$

$$MSs = \frac{102000 \cdot 0,9}{8000} = \frac{91800}{8000} = 11,5 \text{ k/s.}$$

Qo'ychilikda mehnat unumdorligi va mehnat sarfini hisoblash uchun jami qilingan mehnat sarfidan go'ng xarajati va qo'zi uchun ajratilgan 10 % ini chiqarib tashlanib, qolgan qismi go'sht va junga, ularni sotish bahosi bo'yicha qiymatiga proporsional ravishda taqsimlanadi. Masalan, qo'y go'shti ishlab chiqarishda soatlik mehnat unumdorligi va 1 s mahsulot mehnat sig'imi quyidagicha aniqlanadi:

$$MUg = \frac{GM}{MXq \cdot S_1}; \quad MUj = \frac{JM}{MXq \cdot S_2};$$

$$MSg = \frac{MXq \cdot S_1}{GM}; \quad MSj = \frac{MXq \cdot S_2}{JM},$$

bu yerda, MUg — go'sht yetishtirishda 1 soatlik mehnat unumdorligi (1 kishi/soatiga), s; MUj — jun olishda 1 soatlik mehnat unumdorligi (1 kishi/soatiga), s; MSg — 1 sentner go'shtga sarflangan mehnat xarajatlari, k/s; MSj — 1 s junga sarflangan mehnat xarajatlari, k/s; MXq — qo'ylarni saqlash uchun sarflangan mehnat xarajatlari (go'ng uchun va qo'zi tug'ilganda sarflangan mehnat xarajatlari chiqarib tashlab), k/s; GM — go'sht miqdori, s; JM — jun miqdori, s; S_1 — go'shtning salmog'i, % (0,368); S_2 — junning salmog'i, % (0,632).

Misol. Xo'jalikda qo'ylardan 174 s go'sht yetishtirilgan, 180 s jun olingan. Qo'ylarni saqlash uchun mehnat xarajatlari (go'ng uchun va qo'zi tug'ilganda sarflangan mehnat xarajatlarini chiqarib tashlab) 44200 k/s.ni tashkil qilgan bo'lsa, u holda go'sht yetishtirish va jun olishning mehnat unumdorligi va mehnat sig'imi mos ravishda quyidagicha hisoblanadi:

a) go'sht yetishtirish uchun

$$MUg = \frac{17400}{44200 \cdot 0,368} = \frac{17400}{16266} = 1,07 \text{ kg};$$

b) jun olish uchun

$$MUj = \frac{18000}{44200 \cdot 0,632} = \frac{18000}{27934} = 0,64 \text{ kg};$$

$$MSj = \frac{44200 \cdot 0,632}{18000} = \frac{27934}{18000} = 1,55 \text{ k/s}.$$

Mehnat unumdorligi darajasining oshib borishi yuqori samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirishning iqtisodiy mohiyati mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketgan mehnatni kamaytirish yoki mehnat o'zgarimagan holda mahsulotni ko'paytirishdir. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligida bevosita ishlarning 80—90 %

qo'lda bajariladi va uning unumdorligiga salbiy ta'sir etadi. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini o'stirishning xalq xo'jaligi ahamiyati quyidagicha:

1. U dehqonchilik va chorvachilik yalpi mahsulotini ko'paytirishning yagona manbayi hisoblanadi va aholini ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oziq-ovqatga bo'lgan talabini va sanoatning xomashyoga bo'lgan talabini to'laroq qondirishni ta'minlaydi;

2. Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan jonli mehnat xarajatlarini qisqartiradi, ish vaqtini tejaydi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, mahsulot birligi olish uchun shuncha kam ish vaqti ketadi va qishloq xo'jaligida band bo'lgan xodimlar soni kamayadi. Bo'shagan ish kuchi boshqa sohalarga yo'naltiriladi;

3. Mehnat unumdorligining o'sishi ish kunini, ish haftasini, yildagi ish soatlari miqdorini qisqartirishga sharoit yaratadi va bo'sh vaqtni ko'paytiradi. Qishloq mehnatchilariga shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini aqliy va jismoniy rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy va badiiy-ijodiy qondirish uchun bo'sh vaqt vujudga keladi;

4. Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligi hisobiga mehnat haqi xarajatlarini kamaytiradi. Mehnat unumdorligining o'sish sur'ati mehnat haqining o'sish sur'atidan ilgarilab ketsa, mahsulot birligiga to'g'ri kelgan mehnat haqining mutlaq miqdori va hissasi pasayadi;

5. Mehnat unumdorligining o'sishi moddiy resurslarda buyumlashgan mehnat xarajatlarini tejashga va foydalanish samaradorligini oshirishga imkon beradi;

6. Mehnat unumdorligining o'sishi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlaridan samarali foydalanib, mehnat haqi xarajatlarini qisqartirib va bir butun ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarining rentabellik darajasini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi amaliyotida mehnat unumdorligini o'stirishning bir qancha variantlari bo'lishi mumkin.

1. Mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi mehnat xarajatlarining o'sishidan oldinga ketadi;

2. Mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, mehnat xarajatlari o'zgarmasdan qoladi;

3. Mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, mehnat xarajatlari pasayadi;

4. Mahsulot ishlab chiqarish o'zgarmaydi, mehnat xarajatlari pasayadi;

5. Mahsulot ishlab chiqarish kamayadi, mehnat xarajatlari undan ham ko'proq kamayadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun quyidagi omillardan oqilona foydalanish zarur:

1. Sermehnat jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash;
2. Mashinalar tizimidan foydalanish;
3. Ishlab chiqarish texnologiyasini qisqa muddatlarda va sifatli o'tkazish;
4. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va yiriklashtirish;
5. Mehnat malakasini oshirish;
6. Mehnatni tashkil etishda uning progressiv shakllaridan foydalanish;
7. Xodimlarning dam olish, maishiy va mehnat sharoitlarini yaxshilash;
8. Iqlim, tuproq unumdorligini yaxshilash va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Resurslar, resurslar salohiyati, yer-suv resurslari, mehnat resurslari, moddiy resurslar, moliyaviy resurslar, intensivlik, yer qaytimi, mehnat qaytimi, fond qaytimi, xarajatlar qaytimi, mehnat, yollanma xodim, ish kuchi, mehnat resurslari, mavsumiylik, moddiy ne'mat, ro'yxatdagi xodimlar, qo'nimsizlik, mavsumiy yuklama, mehnat xarajati, notekislik koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, iqtisodiy toifa, joriy baho, xarid baho, taqqoslama baho, mehnat sig'imi, funksional bog'lanish, bevosita xarajat, bilvosita xarajat, mehnat afati, qo'shimcha ko'rsatkichlar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Resurslar potentsiali nima?
2. Ishlab chiqarish omillarining mohiyati nima?
3. Iqtisodiyotni rivojlantirishda resurslarning roli qanday?
4. Resurslar qiymatini hisoblashda yoki baholashda qanday usul ma'qul?
5. Resurslar potentsialining samaradorligi qanday aniqlanadi?
6. Mehnat resurslari deb nimaga aytiladi?
7. Ish kuchi nima?
8. Mehnat va uning xususiyatlari.
9. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Mavsumiylik nima va u qanday bartaraf etiladi?
11. Ish kuchining qo'nimsizligi nima?
12. Mehnat unumdorligi nima?
13. Mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichlari.
14. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarida mehnat sig'imini aniqlash usullari.
15. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

6-bob. | **QISHLOQ XO'JALIGINING YER-SUV
RESURSLARI VA ULARDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

6.1. Yer resurslari qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi. Mamlakat yer resurslarining tarkibi

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning moddiy unsurlari orasida yer resurslari muhim o'rinni egallaydi. U moddiy boylik yaratishning dastlabki shart-sharoiti va tabiiy asosi hisoblanadi. Fanda, yerni mehnat vositalari, mehnat predmetlari va manzilgoh joylarni yaratuvchi buyuk laboratoriya, xazina ekanligi ta'kidlangan.

Yer resurslari — buyuk va hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan milliy boylik. Yer resurslari — boshqa ishlab chiqarish vositalaridan tubdan farq qilgani holda asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1. Yer tabiat mahsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini o'zgartiradi, bu uning mehnat predmeti ekanligi. O'simliklarning rivojlanishi va o'sishiga ta'sir ko'rsatishi uning mehnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chiqarish vositasi ekanligini bildiradi.

2. Yerning hududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi insonning xohishi bilan ko'payib qolavermaydi.

3. Yerni almashtirish mumkin emasligi. Yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bo'lmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.

4. Yerni siljitib bo'lmazligi. Yer qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin emas.

5. Yer uchastkalarining sifati bo'yicha turli-tumanligi. Yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag' va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

6. Boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda eskiradi, o'zining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chiqadi.

Yer umrbod ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha, u yaxshilab parvarish qilinsa, ko'p hosil beradi. Yerning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya'ni parvarish qilinayotgan o'simlikni zarur oziqa moddalari bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga ega ekanligiga bog'liq. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1. Tabiiy;
2. Sun'iy;
3. Iqtisodiy.

Tuproqning unumdorligi — quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta'sirida uzoq davom etgan tuproq hosil bo'lishi jarayonining natijasidir. Tuproqning tabiiy unumdorligi uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini xarakterlaydi, u dehqonchilik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi. U insonning mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladi. Lekin tabiiy unumdorlik yerning potensial sifatinigina xarakterlaydi. Tuproq oziqa moddalariga boy bo'lganligi bilan, unga ishlov berilmasa, ya'ni inson mehnati ta'sir etmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan unumdorlik sun'iy unumdorlik deb ataladi, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi va shuning uchun jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida bir xil emas.

Tabiiy va sun'iy unumdorlik birlikda iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi. *Tuproq unumdorligi* — doimiy miqdor emas, u oshib borishi ham, pasayishi ham mumkin. Tuproq unumdorligi mutlaq va nisbiy shakllarda ham o'rganiladi. Mutlaq unumdorlik qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini xarakterlaydi. Nisbiy unumdorlik esa ishlab chiqarish xarajatlari birligi hisobiga olingan mahsulot miqdorida aks etadi. Jahon fani va amaliyoti tuproq unumdorligining pasayib borishi haqidagi g'ayriilmiy qonunning to'liq asossiz ekanligini isbot qildi. Bu qonunga binoan yerga sarflangan qo'shimcha mehnat va kapital, qo'shimcha olinadigan mahsulotning miqdorini kamaytiradi.

Bunga qarama-qarshi o'zbek iqtisodchisi, professor A.A. Abdug'aniyev o'z ilmiy ishlarida tuproq unumdorligining oshib borish jarayonini qonun darajasiga ko'tarish haqida fikr yuritgan. Chunki

yerga qancha ko'p unumli mehnat qilinsa va to'g'ri, ilmiy asoslangan xarajatlar qilinsa, unumdorligini pasaytirmasdan, aksincha, bir xil darajada ancha vaqt saqlab turishi va ba'zi-ba'zida oshirib turishi ham mumkin. Shunday qilib, yer o'z unumdorligini takror yaratadi. Yerdan foydalanish xarakteri ko'pgina tabiiy, tarixiy, texnik, iqtisodiy va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bunda hal qiluvchi rolni ijtimoiy-iqtisodiy omil o'ynaydi. Jamiyatda hukmronlik qiluvchi ishlab chiqarish usuli, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarning holati yer munosabatlarining xarakterini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar;
2. Aholi punktlarining yerlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
6. O'rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Davlat zaxira yerlari.

8-jadval

O'zbekiston Respublikasida yer fondining toifalar bo'yicha taqsimlanishi (2011-yilgi holat)

T/r	Yer fondining toifalari	Jami maydon		Shundan sug'oriladigan	
		Ming ga	Jami yerga nisbatan, %	Ming ga	Jami yerga nisbatan, %
1.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	22264,6	50,13	4213,8	9,49
2.	Aholi punktlarining yerlari	235,4	0,53	49,7	0,11
3.	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	1968,0	4,43	11,7	0,03
4.	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	75,5	0,17	0,6	0,001

5.	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	0,4	0,001	0	0
6.	O'rmon fondi yerlari	8661,2	19,50	29,4	0,07
7.	Suv fondi yerlari	815,8	1,84	4,5	0,01
8.	Davlat zaxira yerlari	10389,4	23,40	1,9	0,004
	Jami yerlar	44410,3	100,0	4311,6	9,71

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik o'plam. T., 2013.

Demak, respublika yer fondining 50 % dan ortiqrog'i qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'lib, u 22,3 mln gektarni tashkil qilgan. Umumiy yer fondining atigi 9,5 % i yoki 4,2 mln gektari sug'oriladigan yerlardan iborat.

Yer fondining deyarli barcha sug'oriladigan qismi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tarkibiga kiradi. Sug'oriladigan yerlarning juda kam foizi boshqa toifa yerlar hissasiga to'g'ri keladi. Bundan, sug'oriladigan yerlarning har bir gektaridan unumli foydalanish, olinadigan mahsulotni miqdor jihatdan ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishning maqsadga muvofiq ekanligi ko'rinadi.

Yuqorida keltirilgan yer fondi toifalarining tarkibi quyidagicha:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga: davlat jamoa xo'jaligi, ilmiy-tekshirish, o'quv va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, shuningdek, alohida fuqarolar, dehqon xo'jaliklari va kooperativlarning yerlari kiradi. Bundan tashqari, boshqa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, ijtimoiy va diniy tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar ham kiradi.

2. Aholi punkti yerlariga shahar, posyolka va boshqalarning yer maydonlari kiradi. Uy-joy fondi, istirohat bog'lari va boshqa madaniy-maishiy obyektlarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan tarmoqlar yerlari. Ular zavodlar, fabrikalar, temiryo'l va avtomobil transporti, aloqa, mudofaa obyektlari va boshqalarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

4. Tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar — alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar.

5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar.

6. O'rmon fondi yerlari. O'rmon bilan band yerlar, shuningdek, o'rmon xo'jaligi zaruriyati uchun mo'ljallangan yerlar.

7. Suv fondi yerlari. Suv havzalari, gidrotexnik, suv xo'jalik inshootlari, shuningdek, suv havzalari qirg'oqlari kiradi.

8. Davlat zaxira yerlari. Bu yerlar hozircha hech kimga egalik qilishga va uzoq muddatli foydalanishga berilmagan. Ular, asosan, mamlakatning kam aholi yashaydigan tumanlarida joylashgan va yangi korxonalar tashkil qilish uchun foydalaniladi, vaqtincha foydalanishga ajratiladi.

Qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlarga qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga taqdim etilgan va qishloq xo'jaligini yuritish uchun mo'ljallangan barcha maydonlar kirib, ularning asosini qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar — bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun tizimli ravishda foydalaniladigan yerlar bo'lib, ular o'z ichiga ekinzorlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlarni oladi.

Ekinzorlar — bu qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar bo'lib, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishda foydalaniladi va tizimli ravishda ishlov berib boriladi. Tabiiy-tarixiy va boshqa xossalari bo'yicha ekinzorlar bir qancha xillarga bo'linadi: sug'oriladigan, lalmi, zaxkash, toshloq va boshqalar.

Bo'z yerlarga oldin ekinzor bo'lgan, lekin turli sabablarga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekinlari (bir yildan ko'p) ekilmayotgan yer uchastkalari kiradi.

Ko'p yillik daraxtzorlar o'z ichiga bog'larni, mevalarni, uzumzorlarni, sitrus, xurmo va boshqalarni oladi.

Pichanzorlar — bu tizimli ravishda pichan o'rish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardir. Ularning bir qancha turlari bo'lib, ular tabiiy, sug'oriladigan, suvsiz vodiydagi o'tloq, botqoqli, qamish va butalar orasidagi, tosh va do'ngliklardagi, sof, tubdan yaxshilangan bo'ladi.

Yaylovlar — tizimli ravishda hayvonlarni boqish amalga oshiriladigan yerlar bo'lib, ularning ham bir qancha turlari mavjud: suvsiz vodiydagi o'tloq va botqoqli, sof, qamish va butalar orasidagi, toshloq, yozgi, bahorgi-kuzgi, qishki, tubdan yaxshilangan.

Respublikamizning umumiy yer fondi 44,4 mln ga.ni tashkil etib, shundan 25,3 mln ga yoki 56,9 % qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardir. Shu yerlarning 4 mln 62 ming ga yoki 9,1 % haydaladigan yerlardir. Yer fondining 5—6 mln gektari

dehqonchilikda foydalaniladi Ulardan 4,2 mln gektari sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 1,6 mln ga cho'l zonasida, qolgan qismi suvli mintaqada joylashgan. Shu sug'oriladigan yerlarning 1 mln gektari ekinzorlardir. 2008—2012-yillar davomida 1,8 mln gektar yerlarning meliorativ holati yaxshilangan.

Lalmikor yerlarning asosiy qismi Toshkent, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan bo'lib, 770 mln gektarga yaqin maydonni tashkil etadi. Yer fondining 22,8 mln gektarini cho'l yaylovlari tashkil etadi, shundan 10 mln ga sur qo'ng'ir tuproqli, 13 mln gektarga yaqini qum yerlardir. Qolgan qismi esa taqir, o'tloq va sho'rxok yerlardan iborat. Cho'l yaylov joylardagi sug'orishga yaroqli yalpi maydon 12 mln gektarga yaqin.

9-jadval

Umumiy yer maydoni va qishloq xo'jaligi yerlarining yerdan foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi (2004 va 2013-yillar taqqoslama tahlili) (1-yanvarga; ming ga)*

T/r	Yillar	Jami yer	Qishloq xo'jaligi korxonalarini va xo'jaliklarning yerlari	Shu jumladan	
				fermer xo'jaliklarining yerlari	dehqon xo'jaliklarining yerlari
Umumiy yer maydoni					
1.	2004	44410,3	22570,4	2354,0	607,5
2.	2013	44410,3	20481,1	5886,6	616,1
Qishloq xo'jaligining barcha yerlari					
1.	2004	25681,3	17391,0	2146,7	493,3
2.	2013	25251,5	15600,9	5222,5	499,8
Haydaladigan yerlar					
1.	2004	4042,7	4021,2	1623,1	418,8
2.	2013	4062,5	4043,4	3546,0	420,1
Bog'lar va uzumzorlar					
1.	2004	337,0	323,4	46,6	74,5
2.	2013	358,3	344,6	281,8	79,7
Pichanzor va yaylovlar					
1.	2004	21217,1	12963,2	455,2	—
2.	2013	20750,3	11134,5	1361,2	—

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013

2013-yilda respublikada jami yer maydonlarining 5886,6 ming gektari yoki 28,7 % i fermer xo'jaliklariga va 616,1 ming gektari yoki 3 % i dehqon xo'jaliklariga tegishli bo'lgan. Haydaladigan yerlarning esa 3546 ming gektari yoki 87,7 % i fermer xo'jaliklariga va 420,1 ming gektari yoki 10,4 % i dehqon xo'jaliklariga to'g'ri kelgan.

Keyingi o'n yilliklar davomida qishloq xo'jaligining barcha yerlarida haydaladigan yerlarning, bog'lar va uzumzorlarning hamda pichanzor va yaylovlar egallagan maydonlarning salmog'i o'sib borish tendensiyasiga ega.

6.2. Mulk munosabatlari tizimida yer resurslari. Yer mulkini ro'yobga chiqarishning iqtisodiy mexanizmi

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mulk munosabatlari tizimida yer resurslari alohida o'rinni egallaydi. Yerga mulk munosabatining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, yerga mulkchilik, uning biron-bir kishiga yoki guruhga tegishlilikini bildiradi.

Ikkinchidan, bozor xo'jaligi sharoitida yerga bo'lgan mulkchilik undan foydalanuvchilar va egalik qiluvchilar iqtisodiy manfaatining manbai bo'lib qoladi, ya'ni pirovard natijada unga sarflandigan yuqori unumli mehnatga manfaat uyg'otadi.

Uchinchidan, yerga bo'lgan mulkchilik, o'z navbatida, faqat undan samarali foydalanishni emas, balki yer uchastkalarining holat uchun javobgarligini ham keltirib chiqaradi.

Yer mulkini ro'yobga chiqarishda yer munosabatlarini bilish muhimdir.

Demak, yer munosabatlari o'z ichiga yerga bo'lgan mulkchilik, shuningdek, yerni ishlatish davrida va uni ijaraga olish, taqsimlash va undan foydalanish uchun to'lovlarni amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlarni oladi.

Yer aylanmasi yer uchastkasi mulkdorlari, egalik qiluvchilari va foydalanuvchilari o'rtasida yerni turli maqsadlarda qayta taqsimlash tizimini bildiradi. Bu tizim, yer bilan bog'liq — ijara, oldi-sotdi, meros qoldirish, sovg'a qilish, garovga berish va boshqalar kabi turli operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Ya'ni qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hozirgi bosqichida yer resurslarini xalq boyligi sifatida ro'yobga chiqarishning shakllari quyidagilar:

1. Yerga xususiy mulk;
2. Yerga umrbod merosli egalik qilish;
3. Yerdan doimiy yoki vaqtincha foydalanish;
4. Yerni ijaraga berish.

1. Yerga xususiy mulk yer uchastkalaridan to'liq foydalanish huquqini, ya'ni uni sotish va meros qoldirish huquqini beradi.

2. Yerga umrbod merosli egalik qilish mamlakat fuqarolariga dehqon xo'jaligini yuritish, bog'dorchilik, chorvachilik va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun beriladi. Yerdan doimiy foydalanish huquqi davlat xo'jaliklariga, jamoa xo'jaliklariga, kooperativ korxonalariga, muassasalar va tashkilotlarga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yurgizish uchun beriladi.

3. Yer uchastkalaridan doimiy (ko'rsatilmagan muddatda) yoki vaqtincha (qisqa muddatli 3 yilgacha, uzoq muddatli 10 yilgacha va undan yuqori) foydalanish masalasi tuman hokimligi tomonidan hisobga olinadi. Bundan tashqari, yerdan doimiy yoki vaqtincha foydalanish uchun sanoat, transport va boshqa noqishloq xo'jaligi davlat, kooperativ, jamoat korxonalariga, muassasa va tashkilotlarga, mamlakat mudofaasi uchun, diniy tashkilotlarga, turli qo'shma korxonalar va tashkilotlarga beriladi.

4. Yerni ijaraga berish.

Ijara munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasiga asosan quyidagicha ta'riflanadi: «Ijara shartnoma asosida yerga, boshqa tabiiy resurslarga, shuningdek, xo'jalik faoliyatini va o'zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga zarur bo'lgan mol-mulkka haq evaziga muddatli egalik qilish va undan foydalanishdan iboratdir». Shuningdek, qishloq xo'jaligida ijara munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabrdagi «Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 486-qarori asosida tartibga solinib turiladi.

Respublikada yer davlat mulki hisoblanib, uning oldi-sotdisi, ya'ni yer bozori shakllanmagan. Shuningdek, yerni sovg'a qilish, garovga berish operatsiyalari ham unchalik rivojlanmagan. Faqat 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi

Qonunning yangi tahririga asosan uni ishlab chiqarish vositasi sifatida keyingi foydalanuvchilarga meros qoldirish mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Demak, yer aylanmasining normal amal qilishiga to'sqinlik qiluvchi bir qancha sabablar bo'lib, ular quyidagilardir:

- yer munosabatlarini boshqarishning, tartibga solishning hozirgi konsepsiyasidagi qarama-qarshiliklar;

- mamlakat miqyosida ham, alohida hududlarda ham yer aylanmasini rivojlantirish uchun samarali huquqiy asosning yo'qligi;

- yer bozori infratuzilmasining kuchsiz rivojlanganligi, qaysiki, mamlakatning ko'pgina hududlarida unga bo'lgan ehtiyojga mos kelmaydi;

- yerga mulkchilik huquqini ro'yobga chiqarishda paydo bo'ladigan, eng avvalo, natura shaklida yer uchastkasini ajratish bilan bog'liq bo'lgan, bitimlarni huquqiy, tashkiliy va texnik rasmiylashtirish tartiblarining qiyinligi kabi, ayniqsa, yer egalari hissalarining mulk huquqini ro'yobga chiqarishga tegishli ko'p sonli to'siqlar.

O'zbekiston Respublikasida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish pullik hisoblanadi. Yer uchun to'lovlarni kiritishdan asosiy maqsad yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, yerlarni o'zlashtirish va muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish, turli sifatli yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish hisoblanadi.

Yer uchun to'lovlar uch xil shaklda mavjud: yer solig'i, ijara haqi, yerning me'yoriy qiymati.

O'zbekistonda amalga oshirilgan moliya-kredit islohoti natijasida fermer xo'jaliklarini soliqqa tortish tizimini takomillash-tirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: 1991—1994-yil-larda — yer uchun soliq, 1995—1998-yillarda — yer solig'i; 1999-yildan — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining budjetga to'lovlarini ixchamlashtirish maqsadida — yagona yer solig'i shaklida amalga oshirilmoqda.

Yagona yer solig'ini to'lovchilariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 362-moddasiga muvofiq:

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar (shu jum-ladan, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari, agro-firmalar);

• qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari kiradi.

Ushbu yuridik shaxslar boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar o'z ixtiyoriga ko'ra, budjetga kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliqni yoki yagona yer solig'ini to'laydi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yer maydonlari, ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, yer xaritalari, tekshiruv materiallari va boshqa yer kadastrasi hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan xo'jaliklar uchun soliqqa tortishning amaldagi tartibi saqlanib qoladi, ya'ni ular oldingidek barcha turdagi soliqlarni to'laydi. Yagona yer solig'ining baza stavkalari va baza stavkalariga tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yagona yer solig'ining tuzatish koeffitsiyentlari lalmikor (sug'orilmaydigan) yerlar, pichanzorlar, yaylovlar va boshqa yerlar uchun alohida belgilanadi.

Yagona yer solig'i to'lashdan ozod etilgan yuridik shaxslar:

1. Yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan fermer xo'jaliklari davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab ikki yil davomida;

2. Daromad (foйда) solig'i va yer solig'i to'lashdan ozod etilgan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.

Quyidagi yer uchastkalari yagona yer solig'idan ozod qilinadi:

- qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;
- ihota daraxtlari ekilgan maydonlar;
- sport inshootlari maydonlari;
- yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ishlar boshlangandan e'tiboran loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin 5 yildan ko'p emas;
- yangi tashkil etilayotgan bog'lar va tokzorlar meva beradigan muddatgacha;
- yangi ekilgan tut maydonlari 3 yil muddatga;
- amaldagi qonunlarga muvofiq soliq solinmaydigan yerlar.

Yagona yer solig'ini to'lovchilarga quyidagi talablar qo'yilgan:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

- o'zi yetishtirgan va qayta ishlangan mahsulot jami realizatsiya qilingan mahsulot ulushida kamida 50 % ni tashkil qilgan yuridik shaxslar.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun fermer xo'jaligi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Shundan keyin «Yergeodezkadastr» hududiy bo'limi tomonidan yerning me'yoriy qiymati aniqlanib, bir vaqtning o'zida soliq organlariga va fermer xo'jaliklariga taqdim etiladi. Yagona yer solig'i fermer xo'jaliklari tomonidan soliq organlari orqali undirilib, davlat budjetiga tushadi.

Yagona yer solig'i stavkasi har yili qabul qilinadigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida belgilab beriladi. Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ilgari, ya'ni 1999-yildan 3 % miqdorida, keyinchalik esa 2011-yildan yagona yer solig'ining stavkasi yerning normativ qiymatga nisbatan 6 % miqdorida belgilanib, hozirgacha o'zgarmasdan kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga asosan, yagona yer solig'i to'g'risidagi hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan hududdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayiga qadar fermer xo'jaliklari tomonidan topshiriladi. Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona

yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) o'ndan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Soliq kodeksining yuqoridagi moddasida yagona yer solig'i kalendar yilida uch muddatda bo'lib, ya'ni hisobot yilining 1-iyuligacha yillik soliq summasining 20 % i miqdorida; 1-sentabrigacha 30 % i miqdorida va 1-dekabrigacha soliqning qolgan summasi to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Fermer xo'jaliklarining davlat bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish va ularning holatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 2-oktabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 281-qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4478-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga asosan, fermerlar kengashlariga fermer xo'jaliklari manfaatlarini ko'zlab da'vo arizalarini sudga davlat boji to'lamasdan shikoyat qilish; paxta terimi ishlarga jalb qilingan ishchilarni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lashdan ozod qilish; tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilgan yuridik shaxslarning tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan yer uchastkalariga yagona yer solig'i to'lashdan besh yil muddatga ozod qilinishi belgilab qo'yildi.

Yerning me'yoriy bahosini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi «Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 235-qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan «Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan o'rnatiladi.

Bungacha bo'lgan davrda, ya'ni yuqoridagi qaror chiqqunga qadar bu tartib, O'zbekiston hukumati tomonidan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni sifatii, iqtisodiy va qiymat bahosini aniq-

lashning muvaqqat uslubi»ga asosan o'ratilgan edi. Bu uslub O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 19-maydagi «1998—2000-yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 120-qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan edi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning me'yoriy baholari, banklardan ipoteka qarzlari berishda, xususiy turar joylar qurish uchun yer ajratib berish va dehqon xo'jaliklariga me'yordan ortiqcha yer ajratib berishda, yer solig'i stavkalari miqdorini aniqlash, kim oshdi savdolari orqali yer uchastkalarini sotish va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda shu yerning dastlabki bahosini belgilash uchun qo'llanilar edi.

Yangi Nizomda uslubiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham bir qancha o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, uni biz quyida ko'rib chiqamiz.

Nizomda ko'rsatilishicha, har bir qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati yagona yer solig'ini hisoblab chiqish uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarda aniqlanadi. Shuningdek, Nizomning amal qilishi dehqon xo'jaliklari, bog'dorchilik-uzumchilik va polizchilik shirkatlarining qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlashga joriy etilmasligi ko'rsatilgan. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanish tavsiya qilingan, ya'ni tuproq bonitirovkasi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining sifati, oziqa birligi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati, sug'oriladigan mintaqa, asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlari, kapitallashtirish foizi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi, o'rtacha bonitet bali va normativ qiymatni aniqlash davri kabi.

Shuningdek, Nizomda, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatiga yer bilan bevosita bog'liq bo'lgan obyektlar (sug'orish va kollektor-drenaj tarmog'i, yo'llar) qiymati kiritilmasligi, normativ qiymatni aniqlash normativ ko'rsatkichlarni, yer kadastri va statistik hisobga olish ma'lumotlarini hisobga olgan holda foydani kapitallashtirish asosidagi daromadli yondashuvdan foydalanib bajarilishi va normativ qiymatni aniqlash natijalari davlat yer kadastriga kiritilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Normativ qiymatni aniqlash obyekti bo'lib esa, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo'jaligi ekin maydonlari hisoblanadi.

Normativ qiymat miqdorini aniqlash Nizom bilan tartibga solinadigan ishlarning predmeti hisoblanadi.

Normativ qiymatni aniqlash davri har yili o'tkaziladi. Normativ qiymatni aniqlash davrlari oralig'ida normativ qiymatni aniqlash bo'yicha hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib boriladi.

Normativ qiymatni aniqlash O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining O'zbekiston davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash instituti («O'zdavyerloyiha») tomonidan amalga oshiriladi.

Normativ qiymat ishlab chiqarish resursi sifatida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining sifatini hisobga olgan holda aniqlanadi.

I ga qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- tuproqning sifatini va tabiiy yem-xashak ekin maydonlari (pichanzorlar va yaylovlar)ni baholash ko'rsatkichlari;
- asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik daraxtlar tuzilmasi;
- qishloq xo'jaligi ekinlari, ko'p yillik daraxtlar va yem-xashakbop ekin maydonlarining normativ hosildorligi;
- qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ unumdorligi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining asosiy turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hisoblab chiqilgan foyda olishi;
- dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarining o'rtacha yillik narxlari hamda paxta xomashyosi va boshoqli don ekinlarining o'rtacha xarid narxlari;
- foydaning kapitallashuvi foizi.

Normativ qiymatni aniqlashda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining individual renta hosil qiluvchi omillari — qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining intensivligi, tuproqning sifati, ekin maydonlari tuzilmasi va sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadi.

Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ hosildorligi tuproqlar o'rtacha bonitet bali bilan qishloq xo'jaligi ekinlari, bog'lar va tokzorlarning tuproq bonitetining bir bonitet baliga mos me'yoriy hosildorlikning yig'indisi sifatida 10-jadvalga muvofiq hisoblab chiqiladi:

**Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari, bog'lar va tokzorlar tuproqlarining
bir bonitet baliga nisbatan hisoblangan me'yoriy hosildorligi**

Qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik daraxtlar	Tuproqning bir bonitet baliga nisbatan normativ hosildorligi, s/ga
Sug'oriladigan yerlarda	
G'o'za	0,4
Boshoqli don ekinlari	0,6
Tamaki	0,45
Sholi	0,7
Bir yillik o'tlar (yashil yem-xashak)	3,0
Sabzavotlar	3,0
Poliz mahsulotlari	2,7
O'tgan yillardagi beda	2,0
Don uchun makkajo'xori	0,75
Yem-xashakbop ildizmevali o'simliklar	9,0
Kartoshka	2,0
Bog'lar (o'rta hisobda)	0,6
Tokzorlar (o'rta hisobda)	0,8
Lalmi yerlarda	
Kuzgi bug'doy	0,25
Kuzgi arpa	0,20
Bahorgi no'xat	0,12

1 ga maydondagi asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi tegishli ma'muriy mintaqadagi normativ qiymatni aniqlash davridan oldin yuzaga kelgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilishning o'rtacha yillik narxlariga bog'liq ravishda qiymat ifodasida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$MU_{qx} = MH \cdot YNo^4,$$

bu yerda, MU_{qx} — 1 ga qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi, ming so'm; MH — qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ hosildorligi (tuproqning bir bonitet baliga nisbatan normativ hosildorligi uning bonitet baliga ko'paytiriladi), s/ga;

YNo' — dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tegishli turiga o'rtacha yillik narx, ming so'm/s, paxta komashyosi va boshoqli don ekinlarining xarid narxi, ming so'm/s.

Oziqa ekinlarining normativ unumdorligi 11-jadvalga muvofiq, ularning hosildorligini bug'doy ekvivalent hosildorligiga aylantirish yordamida hisoblab chiqiladi.

11-jadval

**Oziqa ekinlarining oziqa birligida ifodalangan
normativ unumdorligi**

Qishloq xo'jaligi oziqa ekinlari	Qishloq xo'jaligi ekinlarining bir kilogrami mahsulotidagi oziqa birliklari tarkibi (kg)
Boshoqli don ekinlari	1,2
Bir yillik o'tlar (yashil yem-xashak)	0,17
O'tgan yillardagi beda (yashil yem uchun)	0,21
Xashaki beda	0,49
Don uchun makkajo'xori	1,34
Yem-xashakbop ildizmevali o'simliklar	0,12

Sug'oriladigan 1 ga haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foydani aniqlashda har bir qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo'yicha qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlashning shu yildan oldingi yilda shakllangan ekin maydonlari tuzilmasi qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlari bo'yicha foydaning hisoblab chiqilgan miqdori qishloq xo'jaligi ekin maydonlari sifatidan kelib chiqib, foizlarda mahsulot qiymatiga va tuman bo'yicha o'rtacha tuproqlarning har bir klassi bo'yicha mahsulotlarni yetishtirishga o'rtacha xarajatlarga bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan hisoblab chiqiladi.

Tuproqlarning alohida past unumdorli klasslari bo'yicha salbiy qiymatlarda foizlarda foydaning hisoblab chiqilgan miqdori olingan taqdirda salbiy qiymatli yerning qiymatini istisno qilish uchun 0,01 foyda foizi qo'llaniladi.

Mahsulot qiymati to'g'risidagi o'rtacha ma'lumotlar va biron-bir o'simlik bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda o'rtacha xarajatlar mavjud bo'lmagan taqdirda boshqoqli don ekinlari bo'yicha hisoblab chiqilgan ma'lumotlar qo'llaniladi.

Sifati turlicha bo'lgan yerlar bo'yicha 1 ga sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$HChF = \frac{\frac{MUqx_1 \cdot EM_1}{100} \cdot FM_1 + \dots + \frac{MUqx_n \cdot EM_n}{100} \cdot FM_n}{EM_1 + \dots + EM_n},$$

bu yerda, $HChF$ — 1 ga sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqiladigan foyda, ming so'm; $MUqx_1$ — $MUqx_n$ — qishloq xo'jaligi ekinlarining me'yoriy unumdorligi, ming so'm/ga; EM_1 — EM_n — ekin maydonlari, ga; FM_1 — FM_n — tuproq sifati turlicha bo'lgan yerlarda turli xil ekinlardan olinadigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi foydasining hisoblab chiqilgan miqdori, foizlarda.

1 ga sug'oriladigan haydov yerning normativ qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$NQ = \frac{HChF \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3}{F} \cdot 100,$$

bu yerda, NQ — sug'oriladigan haydov yerning normativ qiymati, ming so'm/ga; $HChF$ — sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foyda, ming so'm/ga; F — hisoblab chiqiladigan foydaning kapitallashuvi foizi; K_1 — xo'jalik yuritish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi intensivligi darajasi hisobga olinadigan mintaqaviy koeffitsiyent; K_2 — sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsiyent; K_3 — hosilning nobud bo'lish foizi hisobga olinadigan koeffitsiyent.

Hisoblab chiqilgan foydaning kapitallashuvi 5 % miqdorida qabul qilinadi.

Xo'jalik yuritish darajasi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi intensivligini hisobga oladigan mintaqaviy koeffitsiyent 12-jadvalda keltirilgan.

Xo'jalik yuritish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi intensivligi darajasi hisobga olingan MINTAQAVIY KOEFFITSIYENTLAR

Ma'muriy-hududiy tuzilmalar va mintaqalar	Mintaqaviy koeffitsiyentlar (K_1)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,7
Janubiy mintaqa (Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlari)	0,7
Markaziy mintaqa (Nukus, Xo'jayli, Shumanay, Kegeyli, Chimboy, Qonliko'l tumanlari)	0,6
Shimoliy mintaqa (Taxtako'pir, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq tumanlari)	0,5
Andijon viloyati	1,2
Viloyatning Bo'z va Ulug'nor tumanlarini istisno etgan holda butun hududi	1,2
Markaziy Farg'ona mintaqasi (Bo'z va Ulug'nor tumanlari)	1,0
Buxoro viloyati	1,0
Sug'oriladigan mintaqa (sug'oriladigan mintaqaning barcha tumanlari xo'jaliklari)	1,0
Yaylov mintaqasi (barcha tumanlarning qo'ychilik xo'jaliklari)	0,8
Jizzax viloyati	0,8
Jizzax tumani, Jizzax shahri	0,9
Cho'l mintaqasi (Arnasoy, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor tumanlari)	0,8
Tog'oldi-yaylov mintaqasi (Baxmal, G'allaorol, Forish, Zomin, Yangiobod tumanlari)	0,6
Qashqadaryo viloyati	0,8
Tog'oldi mintaqasi (Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor, Qamashi, Chiroqchi tumanlari)	0,8
Cho'l mintaqasi (Qarshi, Nishon, Mirishkor, Kasbi, Koson, Muborak tumanlari)	0,7
Dehqonobod tumani	0,6
Navoiy viloyati	0,8
Sug'oriladigan mintaqa (Qiziltepa, Navbahor, Xatirchi, Karmana tumanlari va Konimex tumani-ning sug'oriladigan mintaqasi)	0,8

Lalmi-yaylov mintaqasi (Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlari va sug'oriladigan mintaqasiz Konimex tumani)	0,6
Namangan viloyati	1,1
Viloyatning barcha tumanlari	1,1
Samarqand viloyati	1,2
Sug'oriladigan mintaqa (Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut tumanlari)	1,2
Lalmi-yaylov mintaqasi (Nurobod, Qo'shrabot tumanlari)	0,9
Surxondaryo viloyati	1,3
Surxondaryo vohasi (Sariosiyo, Uzun, Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Angor, Termiz, Oltinsoy tumanlari)	1,3
Cho'l mintaqasi (Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlari)	1,1
Boysun tumani	0,8
Sirdaryo viloyati	0,8
Shimoliy cho'l mintaqasi (Boyovut, Xovos, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo tumanlari, Guliston shahri va Yangiyer shahri)	0,8
Markaziy cho'l mintaqasi (Oqoltin, Mirzaobod, Sardoba tumanlari)	0,6
Toshkent viloyati	1,2
Viloyatning butun hududi, Bo'stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlari bundan mustasno	1,2
Chimyon-Ohangaron mintaqasi (Bo'stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlari)	0,9
Farg'ona viloyati	1,1
Birinchi mintaqa (viloyatning butun hududi, Yozyovon va So'x tumanlari bundan istisno)	1,1
Ikkinchi mintaqa (Yozyovon va So'x tumanlari)	1,0
Xorazm viloyati	1,0
Viloyatning butun hududi, Xazorasp tumanidagi Sarimoy va Tuproqqal'a qishloq fuqarolar yig'inlari hududisiz (Qizilqum-Tuproqqal'a massivi)	1,0
Xazorasp tumanidagi Sarimoy va Tuproqqal'a qishloq fuqarolar yig'inlari (Qizilqum-Tuproqqal'a massivi)	0,8
Toshkent shahri	1,2
Toshkent shahrining butun hududi	1,2

Tovar ishlab chiqaruvchining mablag'lari hisobidan sug'orish uchun xo'jalik ichki sug'orish tizimiga suv chiqarish usuli (oqar suv yoki mashina usuli) hisobga olingan koeffitsiyent respublika bo'yicha yagona ifodada barcha sug'orish maydonlari bo'yicha oqar suv bilan sug'orish ulushiga bog'liq tarzda 13-jadvalda keltirilgan.

13-jadval

**Sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan
KOEFFITSIYENTLAR**

Oqar suv ulushi, %	Koeffitsiyent (K_2)
0—9	0,883
10—19	0,893
20—29	0,904
30—39	0,915
40—49	0,926
50—59	0,938
60—69	0,950
70—79	0,962
80—89	0,974
90—99	0,987
100	1

Kimyoviy moddalarni qo'llash taqiqlangan muhofaza mintaqalarida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari joylashtirilgan taqdirda hosil nobud bo'lishi va tegishli ravishda qimmatlilik yo'qotilishini hisobga oladigan koeffitsiyent 14-jadvaldagi kabi belgilangan tartibda majburiyatlar bilan cheklangan yer uchastkasidagi qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining bonitet bali va ulushiga qarab respublika bo'yicha yagona ifodada qabul qilinadi.

Hosil nobud bo'lishini hisobga olish
KOEFFITSIYENTLARI (K₃)

Boni- tet bali	Zaharli kimyoviy dorilarni qo'llash cheklangan hududlar ulushi, %									
	1-10	11-20	21-30	31-40	41-50	51-60	61-70	71-80	81-90	91-100
31-40	0,948	0,895	0,843	0,790	0,738	0,685	0,633	0,580	0,528	0,475
41-50	0,959	0,918	0,878	0,837	0,796	0,755	0,714	0,674	0,633	0,592
51-60	0,967	0,933	0,900	0,866	0,833	0,800	0,766	0,733	0,699	0,666
61-70	0,972	0,943	0,915	0,887	0,859	0,830	0,802	0,774	0,745	0,717
71-80	0,976	0,951	0,927	0,902	0,878	0,853	0,829	0,804	0,780	0,755
81-90	0,978	0,957	0,935	0,914	0,892	0,870	0,849	0,827	0,806	0,784
91-100	0,981	0,961	0,949	0,923	0,904	0,884	0,865	0,846	0,826	0,807

1 ga bog'lar va tokzorlarning normativ qiymati ham sug'oriladigan haydov yerlarning normativ qiymatiga o'xshash tartibda aniqlanadi. 1 ga sug'oriladigan bo'z yerlarning normativ qiymati 0,1 koeffitsiyenti qo'llanilgan holda sug'oriladigan haydov yerlarning qiymati bo'yicha aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan haydov yeri bo'lmagan taqdirda, sug'oriladigan bo'z yerlarning normativ qiymati tuman (shahar) sug'oriladigan haydov yerlari o'rtacha asosiy ekin maydonlari tuzilmasidan foydalanilgan holda hisoblab chiqiladi.

Mevazorlar, tutzorlar va boshqa sug'oriladigan ko'p yillik daraxtlar ekilgan yerlarning normativ qiymati ushbu xo'jalikning sug'oriladigan haydov yerlari normativ qiymati bo'yicha, 0,4 koeffitsiyentini qo'llash bilan qabul qilinadi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan haydov yeri bo'lmagan hollarda bunday yerlarning normativ qiymati tuman (shahar) sug'oriladigan haydov yerlari bo'yicha asosiy ekin maydonlari tuzilmasidan foydalangan holda shartli ravishda hisoblab chiqiladi.

Issiqxonalar bo'yicha 1 ga yerning normativ qiymati sug'oriladigan haydov yerlar qiymatiga o'xshash tartibda tuman, shahar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich asosida 2,2 koeffitsiyentini qo'llash bilan aniqlanadi.

1 ga lalmi haydov yerning normativ hosildorligi, normativ unumdorligi, hisoblab chiqilgan miqdori va normativ qiymati ham sug'oriladigan haydov yerlarning normativ qiymatiga o'xshash

tartibda aniqlanadi. Bunda xo'jalik ichki sug'orish tizimiga suv chiqarish usulini hisobga olingan holda koeffitsiyent normativ qiymatni aniqlashda qo'llanilmaydi. Ko'p yillik lalmi daraxtlar lalmi haydov yer sifatida, lalmi bo'z yerlar esa lalmi haydov yerlari sifatida 0,1 koeffitsiyentini qo'llagan holda baholanadi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchisida lalmi haydov yerlar bo'lmagan hollarda, uning normativ qiymati shartli ravishda tuman, shahar lalmi haydov yerlari bo'yicha o'rtacha ekin maydonlari tuzilmasidan foydalangan holda hisoblab chiqiladi.

Tabiiy yem-xashakbop ekin maydonlari (pichanzorlar va yaylovlar)ning normativ qiymati yaylovlarning tiplaridan va oziqa birligida ifodalangan hosildorlikdan kelib chiqib, 15-jadvalga muvofiq ularni bug'doyning ekvivalenti hosildorligiga tegishli ravishda qayta hisoblab chiqqan holda aniqlanadi.

15-jadval

**O'zbekistonning tabiiy oziqa ekin maydonlarini sifat jihatidan
BAHOLASH
(yaylovlarning turlari bo'yicha)**

Yaylovlarning turlari	Oziqa birlik- larida hosil- dorligi, kg/ga	Bug'doyning ekvivalent hosildorligi, s/ga
<i>Yaxshi yaylovlar</i>		
Bug'doyli yaylov	230	1,92
Yirik o'tli-shashirli yaylov	300	2,50
Archalar orasidagi har xil bug'doyiq yaylov	260	2,17
<i>O'rtacha yaylovlar</i>		
Betagali-bug'doyli yaylov	210	1,75
Har xil o'tlar o'sadigan pistazor	200	1,67
Har xil o'tli-betagali yaylov	320	2,67
Qamishzor	200	1,67
<i>Qashshoqlashgan yaylovlar</i>		
Har xil o'tli-toifalashgan yaylov	150	1,25
Har xil o'tli-efemer bodomchali yaylov	120	1,00
Har xil o'tli-adirdagi shuvoqli yaylov	170	1,42
Har xil o'tli, butazorlar orasidagi yaylov	180	1,50

Qo'ng'irbosh-toifalashgan yaylov	140	1,17
Arpazor	180	1,42
Juzg'unzor	140	1,17
Jo'san-toifalashgan yaylov	140	1,17
Har xil o'tli-chayirli yaylov	160	1,33
Oq saksovulzor	100	0,83
Singrenli yaylov	110	0,92
Dag'al-efemerli yaylov	150	1,25
Sho'rali-efemer shag'alakli yaylov	140	1,17
Tereskenli yaylov	100	0,83
Yantoqzor	180	1,50
Shuvoq-betagali yaylov	170	1,42
Jo'sanzor	110	0,92
Sho'rali-toifalashgan yaylov	130	1,08
Har xil o'tli-boshloqli o'simliklar o'sadigan yaylov	240	2,00
<i>Qashshoq yaylovlar</i>		
Bir yillik sho'razor yaylov	130	1,08
Har xil o'tli-kakrali yaylov	140	1,17
Pastak har xil o'tli-boshloqdoshli o'simliklar o'sadigan yaylov	120	1,00
Boyalishzor	90	0,75
Keyreukzor	80	0,67
Har xil o'tli to'qayzor	90	0,75
Qizilmiya o'sadigan yaylov	100	0,83
Partekzor	80	0,67
Ajriqli yaylov	170	1,42
<i>O'ta qashshoq yaylovlar</i>		
Norboyalishzor yaylov	60	0,50
Yulg'unzor	70	0,58
Qora saksovulzor	70	0,58
Biyurg'unzor	40	0,33
Adraspanzor	20	0,17
Donasho'razor	10	0,08

Ma'muriy tumanda oziqa ekin maydonlarining o'rtacha hosildorligi tegishli balandlik mintaqasidagi yaylovlarning hosildorligi va har bir tipining maydoni hisobga olingan holda aniqlanadi. I ga oziqa ekin maydonlarining normativ mahsuldorligi bug'doy hajmiga qayta hisoblab chiqilgan oziqa birliklaridagi o'rtacha hosildorligi va normativ qiymatini aniqlash davridan oldingi yildagi o'rtacha xarid narxining hosilasi sifatida aniqlanadi.

I ga oziqa ekin maydonlarining normativ qiymati ham sug'oriladigan haydov yerga o'xshash tarzda aniqlanadi, bunda oziqa ekin maydonlarining unumdorligi ular bilan bog'liq bo'lgan balandlik mintaqalarida joylashganligiga qarab foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi miqdorlarda qabul qilinadi:

- cho'l mintaqasida — 3,2 %;
- tog'oldi mintaqasida — 4,1 %;
- tog' mintaqasida — 7 %.

Yaylovlarning sug'oriladigan mintaqalarga tutashgan uchastkalari sug'oriladigan haydov yerga mos tarzda 0,01 koeffitsiyentini qo'llangan holda baholanadi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan haydov yerlar bo'lmagan taqdirda, bunday yerlarning normativ qiymati shartli ravishda tumanning sug'oriladigan mintaqasi bo'yicha asosiy ekin maydonlarining tuzilmasi qo'llanilgan holda hisoblab chiqiladi.

Baliqchilik hovuzlari, imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati faqat belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bo'yicha aniqlanadi. Bunda imoratlar, inshootlar va xonadonlar deganda ularning faoliyat ko'rsatishi va xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan imoratlar, inshootlar, omborlar, dala shiyponlari, bostirmalar, xonadonlar va maydonlar tushuniladi.

Baliqchilik hovuzlari bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati tuman bo'yicha sug'oriladigan haydov yerlarning o'rtacha normativ qiymati bo'yicha aniqlanadi. Imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati joylashgan mintaqasi va ixtisoslashuviga qarab, asosiy qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati bo'yicha 2 koeffitsiyentini qo'llagan holda aniqlanadi.

Xo'jaliklarning ixtisoslashuvi hisobga olingan holda asosiy qishloq xo'jaligi ekin maydonlari deganda:

- sug'oriladigan yerlardagi paxtachilik-g'allachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, sholichilik, tamakichilik va chorvachilik xo'jaliklari uchun — sug'oriladigan haydov yerlar (sug'oriladigan mintaqa);

- sug'oriladigan yerlardagi bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari uchun — sug'oriladigan bog'lar, bog'lar bo'lmasa — tokzorlar yoki boshqa ko'p yillik daraxtlar bilan band bo'lgan yerlar (sug'oriladigan mintaqa);

- lalmi yerlardagi bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari uchun — lalmi bog'lar, bog'lar bo'lmasa — tokzorlar yoki boshqa ko'p yillik daraxtlar bilan band bo'lgan yerlar (lalmi-yaylov mintaqa);

- yaylovlardagi qorako'lchilik va chorvachilik xo'jaliklari uchun — yaylovlar (lalmi-yaylov mintaqa);

- lalmi yerlardagi g'allachilik va chorvachilik xo'jaliklari uchun — lalmi haydov yerlar (lalmi-yaylov mintaqa) tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari bo'lmagan taqdirda, imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati (sug'oriladigan yoki lalmikor-haydov) asosiy qishloq xo'jaligi ekin maydonlari joylashgan mintaqada o'rtacha tuman normativ qiymati bo'yicha 2 koeffitsiyenti qo'llangan holda aniqlanadi.

Yuqoridagi uslubiyotdan foydalanib, Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi paxtachilik bilan shug'ullanuvchi «Eshniyoz o'g'li Zohid» fermer xo'jaligi misolida 1 ga paxta bilan band maydonning me'yoriy qiymatini aniqlaymiz. Paxta maydoni 50 gektar, yer uchastkasining bonitet bali 60 ga teng, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi foydasining hisoblab chiqilgan miqdori 18 % ga teng, hisoblab chiqilgan foydaning kapitallashuv foizi 5 ga teng.

Demak, 1 ga paxta ekinining me'yoriy unumdorligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$MUp = MHp \cdot XBp = 0,4 \text{ s/ga} \cdot 60 \text{ ball} \cdot 88 \text{ ming so'm} = 2112 \text{ ming so'm.}$$

1 ga paxta maydonidan olinadigan hisoblab chiqilgan foydani aniqlaymiz:

$$HChFp = \frac{M \cdot Up \cdot PM}{100} \cdot HSchMD = \frac{2112 \cdot 50}{100} \cdot 18 = \frac{1,056 \cdot 18}{50} = \frac{19008}{50} = 38016.$$

Shundan keyin 1 ga paxta maydonining me'yoriy qiymatini aniqlaymiz:

$$MQp = \frac{HSC h F p \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3}{F} \cdot 100 = \frac{38016 \cdot 1,2 \cdot 0,950 \cdot 0,967}{5} \cdot 100 =$$

$$= \frac{41908,1}{5} \cdot 100 = 838162 \text{ so'm.}$$

Demak, 1 ga paxta maydonining me'yoriy qiymati 838162 so'm-ga teng ekan.

Jami paxta maydonining me'yoriy qiymati ($50 \cdot 838162$) 41908100 so'm bo'lar ekan. Fermer xo'jaligi 50 ga yer uchun bir yilda $\{(41908100 \cdot 6)/100\}$ 2514486 so'm yagona yer solig'i to'lar ekan.

Yerning bozor bahosi yer uchastkalarining talab va taklifi miqdoriga bog'liq holda, ya'ni oldi-sotdi jarayonida vujudga keladi. Yer uchastkasining egasi normal sharoitda yerini sotadi, qaysiki, agar yerni sotishdan olinadigan mablag' bankka qo'yilganda foiz shaklida keltiradigan daromad, shu yerni ijaraga berganda olinadigan rentadan kam bo'lmagan holda.

Yerning bahosi boshqacha qilib aytganda — kapitallashgan yillik yer rentasidir:

$$YerB = \frac{YerRen}{SsF} \cdot 100,$$

bu yerda, *YerB* — yerning bahosi, so'm; *YerRen* — yer rentasi, so'm; *SsF* — ssuda foizi.

Qishloq xo'jaligida yerning bahosi, yer solig'i va ijara haqining iqtisodiy asosi va yerga bo'lgan mulk huquqini ro'yobga chiqarishning iqtisodiy shakli, yer egalari o'zlashtiradigan daromad sifatida yuzaga chiqadigan yer rentasi hisoblanadi. Renta munosabatlari yerlarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun, shuningdek, noqishloq xo'jaligi zaruriyati uchun ham ijaraga berilganda paydo bo'ladi. Yer rentasining: differensial va mutlaq shakli mavjud. O'z navbatida, differensial renta ham ikki shaklda differensial renta I va differensial renta II ga bo'linadi.

Differensial renta I ning tashkil topishi yer resurslarining chegaralanganligi, ularning sifati jihatidan turli-tumanligi, shuningdek, qishloq xo'jaligi aylanmasiga nafaqat yaxshi yerlarni,

shuningdek, o'rtacha va yomon yer uchastkalarini ham jalb qilish zaruriyati bilan bog'langan, yer uchastkalarining joylashgan o'rinlaridagi farqlarga ham bog'liq. Yer egalari sifat jihatidan turlicha bo'lgan yer uchastkalariga bir xil miqdorda mehnat va mablag' sarflab, ulardan har xil natija oladilar. Yaxshi yerlardan foydalanuvchi yer egalari, yomon yerda ishlaydiganlarga nisbatan, har bir gektaridan qo'shimcha mahsulot oladilar. Ular mahsulot birligi hisobiga oz miqdorda jonli va buyumlashgan mehnat sarflaydilar. Ularga mahsulot birligini ishlab chiqarish ancha arzoniga tushadi, ularda mahsulotning individual qiymati past bo'ladi, natijada mahsuldorlik bo'yicha differensial renta I ga aylanadigan qo'shimcha daromad vujudga keladi.

Masalan, unumdorligi bo'yicha har xil yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag' sarflangan bo'lib, ulardan olingan ishlab chiqarish samarasi turlicha. Natijada I s mahsulotni ishlab chiqarishning individual bahosi (ishlab chiqarish xarajatlari plus o'rtacha foyda) birinchi (yomon) uchastkada ancha yuqori bo'lib, ikkinchisida (o'rtacha) va uchinchisida (yaxshi) — eng past bo'ladi, har bir uchastkadagi jami mahsulot bahosi esa bir xil bo'ladi. Lekin bozorda uchala uchastkadan keltirilgan mahsulotlar bir xil bahoda, ya'ni yomon yer uchastkasining ishlab chiqarish sharoitlari bilan aniqlanadigan bozor bahosida sotiladi. Unda o'rtacha va yaxshi yer uchastkasidagi ijarachilar, I s mahsulotni ishlab chiqarish individual xarajatlari ijtimoiy xarajatlaridan past bo'lganligi uchun mos ravishda har bir sentnerga qo'shimcha foyda oladilar va uni differensial renta I sifatida butun mahsulot hajm uchun yer egalari mos ravishda to'laydilar.

Differensial renta I, shuningdek, yer uchastkalarining bozorga yaqin yoki uzoq joylashishiga qarab transport yo'llari va boshqalar oqibatida ham hosil bo'ladi. Bu farqlar mahsulot birligiga to'g'ri keladigan transport va boshqa xarajatlarning notekisligini keltirib chiqaradi, bu esa joylashgan joyiga qarab differensial renta I tashkil topishi uchun sharoit yaratadi.

Differensial renta II ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonida yer uchastkalariga qo'shimcha mablag' sarflash hisobiga olinadi. Yer uchastkasiga sarflangan bir xil miqdordagi xarajatlar turli xil qaytimga (samaradorlikka) ega bo'lishi mumkin. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning ijtimoiy bahosi, ancha kam unumli xarajatlardan olinadigan mahsulot ishlab chiqarish bahosi bilan aniqlanadi, ancha unumli

xarajatlar odatdagi o'rtacha foyda me'yorini va yana ortiqcha foyda — differensial renta II ni keltiradi.

Differensial renta II, qo'shimcha mablag' hisobiga tashkil topadigan, ishlab chiqarishning individual va ijtimoiy bahosi o'rtasidagi farqqa teng. Differensial rentaning har ikki turining ham tashkil topish xarakteri taqsimot munosabatlarining xarakteriga bog'liq emas. Rentani kim o'zlashtirishi o'zgarmay qoladi. Rentaning tashkil topish sharoitidan uni taqsimlash masalasi ham hal qilinadi. Differensial renta I yerdan foydalanuvchilardan olinadi va butun jamiyat manfaatlari uchun foydalaniladi va qandaydir bir qismgina yerdan foydalanuvchilarning ixtiyorida, ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida qoldiriladi. Differensial renta II taqsimlanishida, tuproq unumdorligini o'sishining qanchasi yerdan foydalanuvchiga bog'liq bo'lsa, u rentaning shu qismini o'zlashtirish huquqiga ega. Differensial renta II ning yer unumdorligini yaxshilashda qatnashishiga mos keladigan qismi jamiyatga kelib tushadi.

Jamiyat va yerdan foydalanuvchilar o'rtasida rentalar taqsimlanishining real sharoiti bayon qilingan prinsiplarni hisobga olgan holda aniq sharoitlardan kelib chiqib hal qilinadi. Lekin yer rentasi bilan ijara haqini bir narsa deyish noto'g'ri bo'ladi. Ijara haqi renta bilan birga, boshqa unsurlarni, yerdan qurilgan bino va inshootlarning amortizatsiyasini va boshqalarni o'z ichiga oladi. Agar yer ijaraga berilganda mayda yer egasiga beriladigan ijara haqiga faqat qo'shimcha mahsulotning hammasi emas, balki dehqon ijarachining zaruriy mahsulotining bir qismi ham kiradi. Ijara haqi — bu yer egasining u yoki bu yer uchastkalaridan oladigan barcha daromadidir. Yer rentasi — bu yer uchastkasidan foydalanish huquqi uchun to'lanadigan daromad.

Yerga xususiy mulkning qonun yo'li bilan mustahkamlanishi, shuningdek, yerning ijaraga berilishi mutlaq rentaning paydo bo'lishiga olib keladi. Differensial rentadan farq qilib mutlaq renta alohida yer uchastkalarining unumdorligidagi farqlarga va qo'shimcha sarf qilingan xarajatlarning unumdorligiga bog'liq bo'lmaydi. Ijarachilar yer uchun ijara haqini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bahosi unga o'rtacha foydadan ortiqcha daromad keltirish sharti bajarilgandagina, o'rtacha foyda uchun zararsiz qilib to'laydilar. Bundan ko'rinadiki, yerga xususiy mulkchilik oqibatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bahosi, yomon yerning ishlab chiqarish sharoiti bilan aniqlanadigan ishlab chiqarish

bahosidan yuqori bo‘ladi. Yomon yer uchastkasini ijaraga olgan ijarachilar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bahosidan oshadigan bahoda sotib, yer egalariга absolut renta shaklida o‘zlashtiradigan, o‘rtacha foydadan yuqori daromad keltiradilar. Shunday qilib, barcha ijarachiga berilgan yer uchastkalari yer egalariга mutlaq renta keltiradi.

Yer egalari ijara haqi shaklidagi absolut rentani faqat qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun foydalaniladigan yer uchun emas, balki bino va inshootlarni qurish uchun mo‘ljallangan yer uchastkalari uchun, shuningdek, foydali qazilmalarni qazib olish maqsadida ijaraga berilgan yer uchun ham oladilar.

Qurilish uchastkalari uchun to‘lanadigan mutlaq rentaning xususiyati shundan iboratki, uning miqdoriga joylashgan o‘rniga qarab to‘lanadigan differensial renta katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Demak, qanday turi bo‘lishidan qat‘i nazar, boshqa barcha ma‘lumotlar bilan bir qatorda, renta — yerning bahosini o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi.

Yerning aniq bozor bahosini o‘rnatish uchun yer kadastr ma‘lumotlari zarur; faqat shu asosda yer resurslarining sifati va boshqa xossalarini hisobga olgan holda obyektiv baholash mumkin.

Yer kadastr — bu davlat tomonidan yer to‘g‘risida obyektiv ma‘lumotlarni olish maqsadida o‘tkaziladigan yerning hisobi, ro‘yxatga olish va baholash bo‘yicha harakati tizimi; kadastr shunday qilib, davlat tomonidan maxsus amalga oshiriladigan hisob-kitob-baholash tadbirini ifodalaydi. U yerning holati, miqdori, sifati va baholash huquqlari to‘g‘risida ishonchli ma‘lumotlar va hujjatlardan iborat bo‘ladi.

Davlat kadastr yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni ta‘minlash, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar huquqlarini himoya qilish, yerning bahosini, yer solig‘ini, ijara haqini o‘rnatish uchun obyektiv asos yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning kadastr quyidagi operatsiyalarni o‘z ichiga oladi:

- yerdan foydalanuvchilarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- yerning miqdor va sifat jihatidan hisobi;
- yerni baholash (tuproq bonitirovkasi va iqtisodiy bahosini hisobga olib).

Ro‘yxatga olish, ya‘ni yerlarni naturada chegaralari aniqlan-gandan keyin mulk qilib, egalik qilish uchun, foydalanishga va

ijaraga berishni rasmiylashtirish va hujjatlarini berish maxsus organlar qarorlari asosida o'tkaziladi. Yer uchastkalarining huquqiy holatlari haqidagi ma'lumotlar yerning davlat kadastr kitobida aks ettiriladi va yer mulki, yerdan foydalanish va yerni ijaraga berish, yer maydonidan maqsadli foydalanishning obyektlari va subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlardan tashkil topadi.

Yerning *miqdor jihatdan hisobi* yerning mavjudligini, uning mulkdori va yerdan foydalanuvchilar obyektlari bo'yicha va ekin turlari bo'yicha (ekinzorlar, ko'p yillik daraxtlar, pichanzorlar, yaylovlar) taqsimlanishini o'z ichiga oladi.

Yerning *sifat jihatdan hisobi* yer-kadastr rayonlashtirishni, yerlarning klassifikatsiyasini, ekologik va texnologik xossalari bo'yicha ularning xarakteristikasini, tuproq guruhlanishlarini ifodalaydi.

Yerning hisobini olib borishda unumdor yerlarning qiymatlilik darajasi o'rnatiladi, nooqilona foydalanilayotganlari, kam unimli va xatoliklarga yo'l qo'yilgan yerlar, qishloq xo'jaligi ekinlaridan degradatsiya qilingan yerlar ajratib olinadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ularning ishlab chiqarish qobiliyatini, joylashishini va boshqa xossalari hisobga olgan holda baholanadi.

Tuproq bonitirovkasi — bu, taqqoslama agrotexnika darajasi va dehqonchilik intensivligida o'tkaziladigan tuproqning unumdorligi bo'yicha taqqoslama bahosi. Bonitirovkalashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimiga qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi, shuningdek, tuproqning unga o'zaro bog'langan ancha barqaror xususiyatlari: tuproqning, gumusning fizik tarkibi, pastga singish miqdori, tuproqning kislota bilan ta'minlanishi, yuvilganligi va boshqalar kiradi. Bu ko'rsatkichlar bilan tuproq baholash guruhlari bo'yicha jami tuproq bali hisoblaniladi.

Qishloq xo'jaligida renta munosabatlarini tartibga solishning zaruriy sharti yerni iqtisodiy baholashning mavjudligidir. Bu, bir tomondan, xo'jalik yuritish obyektiv sharoitlarida differensial rentani taqsimlashga ta'sirini ancha asosli chegaralash, boshqa tomondan, yerdan foydalanuvchilar ishlarining sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Yerlarning iqtisodiy bahosi uning qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida qiymatini xarakterlaydi. Tuproq bonitirovkasidan farqli o'laroq, bu yerda yer tabiat mahsuli emas, balki xo'jalik yuritish iqtisodiy sharoiti bilan to'xtovsiz bog'langan

ishlab chiqarish vositasi sifatida baholanadi. Uning asosida tabiiy va ishlab chiqarishning iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqadigan yerning sifati (iqtisodiy unumdorligi)dagi farqlar yotadi.

Iqtisodiy baholashda nafaqat tuproqning sifat xarakteristikasi (boniteti), balki 100 ga.ga to'g'ri kelgan xodimlar soni, 1 ga.ga to'g'ri kelgan kuch beruvchi va ishchi mashinalar, o'g'itlarni qo'llash, vegetatsiya davrida namlik miqdori va boshqalar kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Baholash qishloq xo'jaligi ekinlarining haqiqiy hosildorligi va ularni ishlab chiqarish xarajatlari haqida uzoq muddatli (5 yildan kam bo'lmagan) yalpi ma'lumotlar asosida o'tkaziladi va tuproq boniteti singari ballarda ifodalanadi.

Yerni iqtisodiy baholash ikki aspektda amalga oshiriladi:

1. Ishlab chiqarish vositasi sifatida yerni umumiy iqtisodiy baholash.

2. Alohida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish samaradorligi bo'yicha qisman baholash.

Haydaladigan yerlarni, ko'p yillik daraxtlarni, pichanzorlarni, yaylovlarni va butun qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni umumiy iqtisodiy baholash, shuningdek, alohida ekinlar ishlab chiqarish samaradorligi bo'yicha haydaladigan yerlarni baholash (qisman baholash), ularning bonitirovkasi asosida ajratilgan, tuproqning agro ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha o'tkaziladi.

Yerni iqtisodiy baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar qilib quyidagilar olinadi:

1. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining 1 ga.dan olingan hosildorlik, s/ga;

2. Kadastr baholarida 1 gektarga to'g'ri kelgan o'simlikchilik yalpi mahsuloti bo'yicha hisoblangan ekin turlari bo'yicha yerning unumdorligi, so'm;

3. Xarajatlarning qoplanishi (kadastr baholarida yalpi mahsulot qiymatining uni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati), so'm;

4. 1 ga.dan olingan differensial sof daromad (DSD) (nisbatan yaxshi yerlardan olingan ortiqcha qo'shimcha mahsulotning qiymatini aks ettiradigan; sof daromadning bir qismi), so'm.

Differensial renta I va II larni o'z ichiga oluvchi DSD, bir vaqtning o'zida yerning sifati va dehqonchilikni intensivlashtirish daromadni hisobga olgan holda yerdan foydalanish iqtisodiy samarasining umumiy miqdorini aks ettiradi. DSD yalpi mahsulot qiymatini baholash ko'rsatkichlari va xarajatlarning qoplanishi asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$D = \frac{XK}{XK - 1,35}; \quad DSD = YMK \cdot D,$$

bu yerda, D — yalpi mahsulot qiymatida DSD ning hissasi; XK — qishloq xo'jaligi xarajatlarining qoplanish darajasi, so'm; 1,35 — xarajatlar qoplanishining dastlabki darajasi.

Xarajatlarni qoplash darajasi 1,35 dan yuqori bo'lganda DSD ham mos ravishda ijobiy miqdor bo'ladi. U xarajatlarni qoplash bo'yicha va yalpi mahsulotlar qiymati bo'yicha yerni baholashning qo'shimcha o'sishiga nisbatan proporsional o'sadi. Xarajatlarni qoplash 1,35 dan kam bo'lganda DSD salbiy miqdorga aylanadi. Yerdan oqilona foydalanish va uning unumdorligini to'xtovsiz oshirish yerlarni, yuqorida ta'kidlangan, yagona davlat yer kadastrida har tomonlama miqdor va sifat jihatdan hisobga olishni tashkil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Davlat yer kadastrini olib borish barcha darajalarda yer islohotlari va yer resurslari bo'yicha mos tashkilotlarga yuklatiladi.

6.3. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligi

Yer resurslaridan samarali foydalanish, o'z navbatida, suv resurslaridan ham oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki o'simlik dunyosini suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni issiq o'lka hisoblangan respublikamizda yaqqol ko'rish mumkin. Shuning uchun suvni tejash, undan oqilona foydalanish qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunida suvning davlat mulki ekanligi, umumiy boylik hisoblanishi, suvdan oqilona foydalanish lozimligi va u davlat tomonidan qo'riqlanishi ta'kidlab o'tilgan.

Yana shu qonunda respublikaning yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yerusti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan, yerosti suvlari va muzliklardan iboratligi ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatimizga qardosh Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalaridan Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon kabi daryolar oqib keladi. Ulardan, Orol dengizi va Aydarko'l kabi ko'l suvlaridan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi.

Shunday qilib, suvning ahamiyatini va uni tejash kerakligini quyidagi ma'lumotlar bilan tasdiqlash mumkin. Agarda tuproq

tarkibidagi namlik 65—80 % bo'lsa, yerdan hosil olish mumkinligi ilmiy tadqiqotlar natijasidan ma'lum. Masalan, 1 s g'alla (bug'doy, roj, arpa, tariq)ni olish uchun 30—40 tonna, kartoshka uchun 18—20 tonna, sholi uchun 135—140 tonna va paxta uchun 800—1000 tonna suv zarur. Suv o'simlik uchun fotosintez vazifasini o'taydi.

16-jadvalda qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha sug'orish soni va me'yorlari ko'rsatilgan. Belgilangan suv resurslarini nobud etgan korxonalar jarima to'laydilar.

16-jadval

Qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orish soni va me'yorlari

T/r	Ekin turi	Sug'orish soni	Sug'orish me'yor, m ³ /ga	Mavsumiy sug'orish me'yor, m ³ /ga
1.	G'o'za	5—7	800—1200	5000—8000
2.	Kuzgi bug'doy	4—5	700—800	3000—4000
3.	Makkajo'xori	7—8	700—800	5000—6500
4.	Beda	10—12	1000—1200	10000—12000
5.	Qandlavlagi	6—8	500—600	3000—4000
6.	Tamaki	7—8	750—850	5000—6500
7.	Kartoshka (ertagi)	7—8	400—500	3000—4000
8.	Pomidor	15—16	600—700	9000—10000
9.	Piyoz	18—20	500—600	9000—12000
10.	Sabzi (kechki)	8—12	500—550	5000—6000
11.	Chuchuk qalampir	14—15	600—700	9000—10000
12.	Boyimjon	15—16	600—700	9000—10000
13.	Oqbosh karam	14—15	600—700	9000—10500
14.	Bodring	12—14	500—550	6000—7500
15.	Sarimsoq	7—10	500—600	4000—6000
16.	Qovun	5—6	600—700	3000—4000
17.	Tarvuz	5—6	600—650	3000—3900
18.	Qovoq	6—7	650—750	4550—6000
19.	Kungaboqar	3	600—800	1800—2400
20.	Sholi	—	—	3000 gacha

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishni rejalashtirish moddada, sug'orish, suv chiqarish va sug'orish — suv chiqarish tarmoqlaridagi, magistral kanallardagi, suv omborlaridagi va boshqa suv xo'jaligi obyektlaridagi suvlardan foydalanish ishlari suvdan foydalanishning ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejalariga asosan yillik amaldagi suv bilan ta'minlanganlik hisobga olingan holda amalga oshirilishi, ikki tomonlama ishlovchi zax qochirish tarmoqlarida suvdan foydalanish melioratsiya qilingan yerlardagi suv rejimini tartibga solish ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejaları asosida amalga oshirilishi, suvdan foydalanuvchi jamoa xo'jaliklari, boshqa korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar tomonidan tuzilgan xo'jalik ichki suvdan foydalanish rejaları O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suv obyektlaridan foydalanish boshqarmalari bilan muvofiqlashtirilib, tumanlarning hokimligi organlari tomonidan tasdiqlanishi lozimligi ta'kidlangan. Yana, suvdan foydalanish umumiy tizimi rejalarini:

- tuman ahamiyatidagi tizimlar bo'yicha — tumanlar hokimligi organlari;

- viloyat, respublika ahamiyatiga ega tizimlar bo'yicha — tegishli ravishda viloyat, respublika qishloq va suv xo'jaligi organlari tasdiqlashlari bayon etilgan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sug'oriladigan va lalmikor dehqonchilikka bo'linadi. Sug'oriladigan zonalarda yuqorida aytilganidek, suv manbalaridan keladigan suvlardan foydalanilgan holatda dehqonchilik amalga oshiriladi.

Sug'oriladigan yerlarda suvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular qonunda quyidagicha belgilab qo'yilgan: «Sug'orilgan yerlarda kanallar, murakkab muhandislik inshootlari, melioratsiya shoxobchalari barpo etilganligi ana shunday yerlarning o'ziga xos xususiyatidir. Yerdan foydalanish mulkchilikning qaysi shakliga asoslanganligidan qat'i nazar, suv fondi yerlaridan, sug'oriladigan yerlar doirasidagi xo'jaliklararo kanallar va inshootlardan, yerosti suvi chiqargichlari yagona suv xo'jaligi tizimi sifatida foydalaniladi va ular davlat mulki hisoblanib, ularni xususiyashtirish mumkin emas. Daryolar, magistral kanallar, kollektorlar, suv omborlari va boshqa suv havzalarining sohilbo'yi mintaqalari, yerosti suvi chiqargichlari sanitariya muhofaza

tarkibidagi namlik 65—80 % bo'lsa, yerdan hosil olish mumkinligi ilmiy tadqiqotlar natijasidan ma'lum. Masalan, 1 s g'alla (bug'doy, roj, arpa, tariq)ni olish uchun 30—40 tonna, kartoshka uchun 18—20 tonna, sholi uchun 135—140 tonna va paxta uchun 800—1000 tonna suv zarur. Suv o'simlik uchun fotosintez vazifasini o'taydi.

16-jadvalda qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha sug'orish soni va me'yorlari ko'rsatilgan. Belgilangan suv resurslarini nobud etgan korxonalar jarima to'laydilar.

16-jadval

Qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orish soni va me'yorlari

T/r	Ekin turi	Sug'orish soni	Sug'orish me'yori, m ³ /ga	Mavsumiy sug'orish me'yori, m ³ /ga
1.	G'o'za	5—7	800—1200	5000—8000
2.	Kuzgi bug'doy	4—5	700—800	3000—4000
3.	Makkajo'xori	7—8	700—800	5000—6500
4.	Beda	10—12	1000—1200	10000—12000
5.	Qandlavlagi	6—8	500—600	3000—4000
6.	Tamaki	7—8	750—850	5000—6500
7.	Kartoshka (ertagi)	7—8	400—500	3000—4000
8.	Pomidor	15—16	600—700	9000—10000
9.	Piyoz	18—20	500—600	9000—12000
10.	Sabzi (kechki)	8—12	500—550	5000—6000
11.	Chuchuk qalampir	14—15	600—700	9000—10000
12.	Boyimjon	15—16	600—700	9000—10000
13.	Oqbosh karam	14—15	600—700	9000—10500
14.	Bodring	12—14	500—550	6000—7500
15.	Sarimsoq	7—10	500—600	4000—6000
16.	Qovun	5—6	600—700	3000—4000
17.	Tarvuz	5—6	600—650	3000—3900
18.	Qovoq	6—7	650—750	4550—6000
19.	Kungaboqar	3	600—800	1800—2400
20.	Sholi	—	—	3000 gacha

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishni rejalashtirish moddada, sug'orish, suv chiqarish va sug'orish — suv chiqarish tarmoqlaridagi, magistral kanallardagi, suv omborlaridagi va boshqa suv xo'jaligi obyektlaridagi suvlardan foydalanish ishlari suvdan foydalanishning ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejalariga asosan yillik amaldagi suv bilan ta'minlanganlik hisobga olingan holda amalga oshirilishi, ikki tomonlama ishlovchi zax qochirish tarmoqlarida suvdan foydalanish melioratsiya qilingan yerlardagi suv rejimini tartibga solish ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejaları asosida amalga oshirilishi, suvdan foydalanuvchi jamoa xo'jaliklari, boshqa korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar tomonidan tuzilgan xo'jalik ichki suvdan foydalanish rejaları O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suv obyektlaridan foydalanish boshqarmalari bilan muvofiqlashtirilib, tumanlarning hokimligi organlari tomonidan tasdiqlanishi lozimligi ta'kidlangan. Yana, suvdan foydalanish umumiy tizimi rejalarini:

- tuman ahamiyatidagi tizimlar bo'yicha — tumanlar hokimligi organlari;

- viloyat, respublika ahamiyatiga ega tizimlar bo'yicha — tegishli ravishda viloyat, respublika qishloq va suv xo'jaligi organlari tasdiqlashlari bayon etilgan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sug'oriladigan va lalmikor dehqonchilikka bo'linadi. Sug'oriladigan zonalarda yuqorida aytilganidek, suv manbalaridan keladigan suvlardan foydalanilgan holatda dehqonchilik amalga oshiriladi.

Sug'oriladigan yerlarda suvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular qonunda quyidagicha belgilab qo'yilgan: Sug'orilgan yerlarda kanallar, murakkab muhandislik inshootlari, melioratsiya shoxobchalari barpo etilganligi ana shunday yerlarning o'ziga xos xususiyatidir. Yerdan foydalanish mulkchilikning qaysi shakliga asoslanganligidan qat'i nazar, suv fondi yerlaridan, sug'oriladigan yerlar doirasidagi xo'jaliklararo kanallar va inshootlardan, yerosti suvi chiqargichlari yagona suv xo'jaligi tizimi sifatida foydalaniladi va ular davlat mulki hisoblanib, ularni xususiyashtirish mumkin emas. Daryolar, magistral kanallar, kollektorlar, suv omborlari va boshqa suv havzalarining sohilbo'yi mintaqalari, yerosti suvi chiqargichlari sanitariya muhofaza

tegralarining I va II poyaslari tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlar uchun yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilishi mumkin.

Sug'oriladigan dehqonchilik ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish suvlaridan limit bo'yicha foydalanishning belgilangan tartibiga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Suv olish va uning hisob-kitobini qilish ro'yxatdan o'tkazilgan suv manbalaridan (xo'jalik kanallarining bosh inshootlaridan, quduqlardan, nasos stansiyalari va boshqa suv olish inshootlaridan) suv ajratish joylarida tuman suv xo'jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi.

Suv manbalari, kanallar, kollektorlar va boshqa suv obyektlaridan foydalanuvchi qishloq va suv xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari yer solig'idan ozod qilinadilar».

Lalmikor dehqonchilikda esa ekinlar uchun kerak bo'lgan namlik yil davomida yog'adigan yog'in miqdoriga bog'liq. Ba'zi mualliflarning hisoblashlaricha, yil davomida yog'adigan yog'inlar miqdori o'rtacha 500 mm (zonalar bo'yicha 300—720 mm)ni tashkil etib, ularning 2/3 ga yaqini (300 mm) bug'lanib ketadi. Qolgan 1/3 ga yaqini esa tuproq orqali o'simlikka o'tadi.

Yuqorida qayd etilganidek, mamlakatimizda suv zaxirasi juda kam. Andijon qishloq xo'jaligi instituti olimlarining ta'kidlashicha, o'tgan davrlarda Amudaryoning suv o'tkazish quvvati 41 km³.ga, Sirdaryoniki esa 27,5 km³.ga teng edi. Hozirgi paytda har ikki daryoning suvi keskin kamaygan va mamlakatda 58 km³ miqdorida suv zaxirasi bo'lib, bu mavjud qishloq xo'jaligi yerlarining 16—17 % ini sug'orishga yetishi hisoblab chiqilgan. Yerosti suvlaridan foydalanish evaziga suv miqdori 60 km³.ni tashkil etishi hisoblangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra, 1 km³ chuchuk suvdan 113 ming tonna paxta, 116 ming tonna poliz va sabzavot, 41 ming tonna meva va uzum, 7 ming tonna sut, 400 tonna pilla olishda foydalanish mumkin.

Suvdan foydalanishda, eng avvalo, suvga bo'lgan talabni aniqlash muhimdir. Buning uchun har bir ekin turi bo'yicha yil mobaynida 1 gektar yer uchun qancha suv zarurligi aniqlanib, uni umumiy ekin maydoniga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: 1 so'mlik xarajatlar hisobiga

olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining, mehnat unumdorligining, sof daromad (foyda)ning o'sishi va shuningdek, 1 m³ foydalanilgan suv hisobiga olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining, mehnat unumdorligining va sof daromad (foyda)ning o'sishi hisoblanadi. Suvdan o'simlikning talabidan kelib chiqqan holda rejali va me'yorda foydalanish yer resurslaridan foydalanishning va bir butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shuning uchun mamlakatimizda suvdan tejab va unumli foydalanish uchun undan foydalanuvchilar oldiga katta vazifalar qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, yuqorida qayd etilgan Qonunning 50-moddasida, ya'ni «Suv obyektlaridan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanuvchilarning vazifalari» moddasida o'z aksini topgan:

«Suvdan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanuvchilar:

Suvdan foydalanishning belgilangan limitlari, rejalari, qoidalari, me'yorlari va rejimlariga rioya etishlari, tik drenajni inobatga olgan holda foydalanishning barcha turlari uchun ishlatilayotgan suvni hisobga olib borishlari;

Ichki xo'jalik sug'orish, suv chiqarish va kollektor-drenaj tarmog'i hamda undagi inshootlarni va suv chiqarish quduqlarini texnika jihatidan ishga yaroqli holda saqlashlari;

Melioratsiya qilingan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari va qishloq xo'jaligi ekinlari hamda o'simliklarni sug'orish, shuningdek, yaylovlarga suv chiqarishning maqbul rejimini saqlashlari;

Suvni tejaydigan texnologiyalar va ilg'or texnikani joriy etish orqali sug'orishning uslub hamda usullarini takomillashtirishlari;

Qishloq, xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv monitoringi asosida salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini bartaraf etishlari;

Belgilab olingan aniq maqsadlarga muvofiq, foydalanilayotgan suvlarning samaradorligini oshirishlari shart.

Xo'jaliklararo melioratsiya tarmoqlarini ishga yaroqli holda saqlab turish uchun suvdan foydalanuvchilar qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya-melioratsiya ishlarini bajarishga jalb etiladilar».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi «2013—2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ

holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1958-sonli Qarorida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmog'ini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, buning asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta'minlash, yerlarning unumdorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan quyidagilarni o'z ichiga olgan 2013—2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturi ma'qullangan va hozirda bu Dastur bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirildi.

Qarorda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan 2013—2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlarning prognoz parametrlarida 3852 km masofada zovurlar qurish va rekonstruksiya qilish, 1257 km yopiq gorizontaal drenaj shoxobchalarini 75507 km ochiq zovur-drenaj tizimida ta'mirlash-tiklash ishlarini olib borish, lizing hisobidan 836 dona meliorativ texnika, mashina va mexanizmlarni yetkazib berish belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga moliyalashtiriladigan 2013—2017-yillar davrida irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish esa prognoz parametrlarida 2103 km masofada kanallar qurish va rekonstruksiya qilish, 96 suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish, 97 m³/sek nasos stansiyalarini qurish va rekonstruksiya qilish va boshqa qurilish va rekonstruksiya ishlari ko'rsatilgan. Suv iste'molchilari va fermer xo'jaliklari uyushmalarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan 2013—2017-yillar davrida sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash prognoz parametrlarida esa 558571 km sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash

ya tiklash, 174110 suv inshootlarini ta'mirlash, tiklash hamda boshqalar belgilangan.

Ana shu amalga oshirilgan keng miqyosli tadbirlar natijasida keyingi yillarda respublikada yerlarning meliorativ holati yaxshilanib bormoqda.

6.4. Yer resurslaridan samarali foydalanishning omillari va ko'rsatkichlari. Yer monitoringi

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi xo'jaliklarga berkitilgan yer resurslaridan foydalanish samaradorligi sifatida ham, qishloq xo'jaligiga yaroqli yer va uning alohida turlari bo'yicha foydalanishning samaradorligi sifatida ham xarakterlaydigan ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanishi mumkin. Ko'rsatkichlarning bir qismi turli xil yer resurslari maydonlari hajmining miqdoriy o'zgarishlarini xarakterlaydi va ma'lum darajada ulardan foydalanishning ekstensiv xarakterini aks ettiradi, boshqa qismi yerdan foydalanishning intensiv darajasini xarakterlaydi, ya'ni 1 gektar maydon hisobiga to'g'ri kelgan u yoki bu ishlab chiqarish samarasini aks ettiradi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga, yer resurslarini qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish darajasini aks ettiruvchi, yer resurslaridan, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerdan va haydaladigan yerdan foydalanish koeffitsiyentlari kiradi.

Yer resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti (YRFK) qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni xo'jalikka berkitilgan jami yer maydoniga nisbati bilan ifodalanadi:

$$YRFK = \frac{Q / XYY}{JEM}$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish koeffitsiyenti (Q/XYYFK). Haydaladigan yerlarning (HY) qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarga (Q/XYY) nisbati bilan ifodalanadi:

$$Q / XYYFK = \frac{XE}{Q / XYY}$$

Haydaladigan yerlardan foydalanish koeffitsiyenti (HYFK) jami ekin maydonlarining (JEM) haydaladigan yerlarga (HY) nisbati bilan ifodalanadi:

$$HYFK = \frac{JEM}{HY}$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan intensiv foydalanish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari *yer qaytimi va yer sig'imi dir*. Yer qaytimi 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan sof mahsulotni (SM) ifodalasa, yer sig'imi, 1 so'mlik sof mahsulot qancha gektar yerdan olinganligini ifodalaydi:

$$YK = \frac{SM}{Q / XYY}; \quad YS = \frac{Q / XYY}{SM}$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan intensiv foydalanish samaradorligining qo'shimcha ko'rsatkichlari ana shu yerlardan olingan natura va qiymat shaklidagi yalpi va tovar mahsulotlari hisoblanadi. Yer qaytimi va yer sig'imining natural ko'rsatkichlari alohida olingan xo'jaliklarda yoki bir xil tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda joylashgan va bir xil ixtisoslashgan xo'jaliklarda alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish samaradorligini baholashda foydalaniladi. Yer qaytimi va yer sig'imining natural ko'rsatkichlari 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yer hisobiga to'g'ri kelgan qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotini saraf-terlaydi va aksincha:

$$YQ = \frac{YM, TM}{Q / XYY}; \quad YS = \frac{Q / XYY}{YM, TM}$$

Bunda har bir tur qishloq xo'jaligi mahsuloti uni ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga mos keladi. Yer qaytimining natural ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1 ga yerdan olingan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi 100 ga haydaladigan yer hisobiga to'g'ri kelgan, sentner: g'alla, paxta, kartoshka, sabzavot va boshqalar.

100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarga yoki oziqa ekinlari maydoni hisobiga oziqa ishlab chiqarish, oziqa birligi.

100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisobiga ishlab chiqarish, sentner sut, go'sht (turli xil), jun, tuxum, g'alla, paxta va boshqalar.

Dehqonchilik, chorvachilik yoki butun qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan, shuningdek, boshqa mahsulotlarni taqqoslashda, yer resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholash uchun yalpi va tovar mahsuloti qiymatini, shuningdek, foydani qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga bo'lib hisoblaydigan, yer qaytimi va yer sig'iminining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

$$YQ = \frac{YMK, TMK, F}{Q / XYY}; \quad YS = \frac{Q / XYY}{YMK, TMK, F}$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish samaradorligini karakterlaydigan ko'rsatkichlarga, shuningdek, dehqonchilik, chorvachilik alohida mahsulotlarini ishlab chiqarishning, shuningdek, tarmoqlar va butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning rentabelligi ham kiradi.

Foydalanadigan xo'jaliklarda yer resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashda qishloq xo'jaligiga yaroqli yer turlari (sharhlangan yer, pichanzor, yaylov) o'rtasidagi, ya'ni tuproq samaradorligi o'rtasidagi farqni hisobga olish zarur. Buning uchun ayni iqtisodiy baholash ballaridan foydalaniladi. Taqqoslama (kadastri) yer maydonidan olingan u yoki bu mahsulotni yoki hosildorlikni aniqlash uchun haqiqiy ko'rsatkichni 100 ga ko'paytib, yer bahosi baliga bo'lish kerak. Masalan, 1 ga yerdan olingan paxta hosildorligi 25 sentner bo'lib, shu yerning iqtisodiy bahosining bali 90 ga teng bo'lsa, u holda 1 gektar kadastr maydonidan olingan hosildorlik 27,7 ($25 \cdot 100 : 90 = 27,7$) sentnerni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning zaruriy sharti, hozirgi vaqtda ayni dolzarb masala bo'lgan, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish hisoblanadi. Chunki hozirgi vaqtda respublikada ham, dunyoda ham asossiz ravishda qishloq xo'jaligidagi unumli yerlar hosildan chiqarilib, sanoat va fuqaro qurilishiga, aholiga uy-joy qurish uchun berib yuborilmoqda. Tuproq eroziyasi, yerdan foydalanarlarcha foydalanish va boshqa omillar ham yerdan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish, yerga nisbatan davlat mulki monopoliyasini va markazlashtirishni bekor qilish, yer munosabat-

larining bozor iqtisodiyoti tizimiga faol kirib borishini taqvo etadi.

Yer resurslaridan yuqori, samarali foydalanish — qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish va tuproq unumdorligini oshirish ta'siri ostida bo'ladi. Bu omillar yerga bo'lgan mulkchilik va zonalararo ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimidir.

Birinchi guruh omillar, bu yerga bo'lgan mulkchilik bo'lib, uning shakllari yuqorida 2-bobda ta'kidlanganidek, quyidagilardan kelib chiqadi:

1. Yerga bo'lgan xususiy mulk;
2. Yerga umrbod merosli egalik qilish;
3. Yerdan foydalanish;
4. Yerni ijaraga berish;
5. Yer uchun to'lov.

Bu shakllardan foydalanishning samaradorligini oshirish o'simlikchilik tarmoqlari iqtisodi mavzularida kengroq yoritiladi.

Yer resurslaridan samarali foydalanishning umumlashtiruvchi ikkinchi guruh omillari ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimi bo'lib, u tuproq unumdorligini tiklaydigan, saqlaydigan va oshiradigan, dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning qulay sharoit yaratishga yo'naltirilgan, kompleks o'zaro aloqador agrotexnik, meliorativ va tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni ifodalaydi.

Respublikamizda ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimi ekin maydonlaridan intensiv foydalanishga yo'naltirilgan quyidagi katta kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi:

1. Tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan meliorativ tadbirlar tizimi (sug'orish, zaxni qochirish, kimyoviy melioratsiya va boshq.).
2. Tuproq ishlashining ilmiy asoslangan tizimi.
3. Almashlab ekish tizimi.
4. O'g'itlash tizimi.
5. Urug'chilik.
6. Begona o'tlar bilan, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklari bilan kurashuvchi tadbirlar tizimi.

7. Suv va shamol eroziyasiga qarshi kurash tadbirlari tizimi.

8. Dalalarni himoya qiluvchi o'rmonzorlar barpo qilish.

Yer resurslarini muhofaza qilish va foydalanishni nazorat qilishni amalga oshirish ishida muhim rolni monitoring o'ynaydi. Yer monitoringi, yerdan foydalanishda salbiy (negativ) jarayon

ularni bartaraf etish va ogohlantirish, yer resurslaridan foydalanishni aniqlash, ularni baholash uchun yer resurslari bo'yicha kuzatish tizimini ifodalaydi. Monitoringning vazifasi, shuningdek, davlat tomonidan yerlarni muhofaza qilish va undan foydalanishni nazorat qilishni, hamma davlat, kooperativ va boshqa korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, fuqarolarni yer resurslarini muhofaza qilish va samarali foydalanish maqsadida yer qonunchiligi talablariga qat'iy rioya qilishni ta'minlashni ta'minlash oshirishdan iborat.

TAYANCH IBORALAR

Tabiiy unumdorlik, sun'iy unumdorlik, iqtisodiy unumdorlik, mutlaq unumdorlik, nisbiy unumdorlik, tuproq boniteti, yer rentasi, differensial unumdorlik, yer qonunchiligi baholash, yer kadastri, differensial sof daromad.

1. NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday xo'jaligida yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida xususiyatlari qanday?
2. Respublika yer fondi, uning tarkibiy qismlari qanday?
3. Yerlarning iqtisodiy bahosi nima?
4. Tuproq unumdorligining turlari va uning oshirish yo'llari qanday?
5. Davlat yer kadastrining zaruriyati va tuzilishi.
6. Yerning foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari qaysilar?

7-bob.

QISHLOQ XO'JALIGI MODDIY-TEXNIKA RESURLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

7.1. Asosiy vositalar: mulk shakllari, klassifikatsiyasi, bahosi va takror ishlab chiqarish

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish salohiyatining samaradorligini oshirishda, moddiy-texnika bazasini kengaytirish, qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish birlamchi ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisi tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva oziqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdorligi har xil bo'lib, mahsulot birligi uchun har xil miqdorda xarajat sarflanadi. Bu esa har xil unumdorlikka ega bo'lgan yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi moddiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tuproq-iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil tizimdagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqti bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavsumiy

zavriyatiga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi zaxira urug'lik, oziqa, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, qoramallar, ko'p yillik daraxtlar va h.k.)lardan iborat bo'lib, ularni samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmoqlik kerak.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, shuni yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarf-xarajatlar qilishni taqozo etadi. Shuningdek, har qanday ishlab chiqarish kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

«Iqtisodiy nazariya» fanidan ma'lumki, mehnat predmeti bilan mehnat qurollari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi. Mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarishda odamlar tomonidan foydalaniladigan hamma buyumlar mehnat vositalari (qurollari) deyiladi. Odam mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy unsurlariga qaratilgan bo'lsa, u shu moddiy unsur mehnat predmeti deb ataladi. Jamoa, fermer va dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan mana shu ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish fondlari shaklida namoyon bo'ladi, ularning tarkibiga pulda baholanmagan, ya'ni korxonaning balans aktivida ko'rsatilmagan tabiiy ishlab chiqarish vositalari kirmaydi. Masalan, yer va suv to'liq baholanmaydi, quyosh issiq-ligi, shamol va boshqalar mutlaq baholanmaydi.

Ishlab chiqarish fondlari qishloq xo'jaligida alohida iqtisodiy toifa shaklida foydalaniladi. Ishlab chiqarish fondlari respublikamiz milliy daromadining asosiy qismini tashkil qiladi. Hozirgi paytda ASMda foydalanilayotgan ishlab chiqarish fondlari jami xo'jaligi fondlarining 35—40 % ini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish fondlari jamoa mehnatining ang'arilishi bir yo'la to'la aylanish, ya'ni ularni pul shaklidan moddiylashgan buyum shakliga, moddiylashgan buyum shaklidan tovar shakliga, tovar shaklidan pul shakliga aylanish davrida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy ahamiyatiga, qo'llanish

usullariga va xizmat qilish muddatiga qarab, asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Asosiy fondlar, eng avvalo:

1. Ishlab chiqarish asosiy fondlari;

2. Noishlab chiqarish asosiy fondlariga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish asosiy fondlari, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

a) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari;

b) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan asosiy ishlab chiqarish fondlari.

2014-yil hisoboti bo'yicha Samarqand viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga qarashli fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish asosiy fondlari yil boshiga 53887324,2 ming so'mni, yil oxiriga 80945228,5 ming so'mni tashkil etgan yoki 50,2 % ga ko'paygan.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

• *binolar* — mahsulot, texnika va chorva mollarini saqlashga mo'ljallangan imoratlar (omborxonalar, mashina-traktorlarni saqlashga mo'ljallangan imorat va bostirmalar, molxonalar va sh.k.);

• *inshootlar* — suv taqsimlovchi va oqizuvchi inshootlar, quritish, navlarga ajratish jihozlari, issiqxonalar, yem-xashak saqlash xandaqlari, quduqlar, ichki xo'jalik yo'llari, suv saqlash minoralari va h.k.;

• *kuch uzatish qurilmalari* — suv, elektr quvvati, gaz kabilarni bir joydan ikkinchi joyga uzatib beruvchi qurilmalar (suv, gaz quvurlari, elektr tarmoqlari va boshq.);

• *mashina va uskunalar*

a) kuch beruvchi mashinalar;

b) ishchi mashinalar;

d) turli xil uskunalar.

Kuch uzatish mashinalariga, asosan, g'ildirakli va o'rmalovchi traktorlar kiritiladi. Ishchi mashinalar, asosan, qishloq xo'jaligi mashinalari, ya'ni plug, chizel, mola, borona, seyalka va h.k.lardan iboratdir. Uskunalar tarkibida turli xil o'lchov va rostlovchi laboratoriya asboblari hisobga olinadi;

- *transport vositalari* — yuk avtomobillari, ot aravalardan iborat;
- *ishchi hayvonlar* — tirik, jonli tortuvchi kuchlar ot, ho'kiz, tuya va boshqalardan iboratdir;

- *mahsuldor mollar* — asosan, katta yoshdagi yirik shoxli mollar, ya'ni mahsulot beradigan mollardir;

- *ko'p yillik mevali daraxtlar* — bular hosil yoshidagi madaniy mevali daraxtlar va ihota daraxtlaridan iborat;

- *yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan kapital sarflar*, yerlarni tekislash, to'qayzorlarni o'zlashtirish va boshqa yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan mablag'lardir.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlariga imorat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar kiradi.

2. Noishlab chiqarish asosiy fondlariga uy-joylar, klub, bolalar bog'chalari, maktablar va ularning uskuna va inventarlari kiradi.

2014-yil hisoboti bo'yicha Samarqand viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga qarashli fermer xo'jaliklarida noishlab chiqarish asosiy fondlari: yil boshiga 736920,7 ming so'mni, yil oxiriga 782260,6 ming so'mni tashkil etgan yoki 6,2 % ga ko'paygan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish fondlarining strukturasi anchagina salmog'i imorat, inshootlar 60 % dan ko'proq, kuch va ish mashinalari, transport vositalari va moslamalari 17 % atrofida, ish va mahsuldor hayvonlar 10 % ni tashkil etadi. Samarqand viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga qarashli fermer xo'jaliklarida 2014-yilda asosiy ishlab chiqarish fondlari (dastlabki qiymat yil boshiga) 54624244,9 ming so'mni va yil oxiriga 81727489,1 ming so'mni tashkil etdi. Qoldiq qiymat esa yil boshiga 42854107,1 ming so'mni va yil oxiriga 65630877,9 ming so'mni tashkil etgan. Ularning harakati mos ravishda 1,5 martaga o'zgarganligini ta'kidlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlar natura va pul hoida hisobga olinadi va rejalashtiriladi. Natura ko'rsatkichlari asosiy fondlarning miqdori va sifati, shuningdek, xo'jalikning

ishlab chiqarish quvvati to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini pul bilan baholashda uning dastlabki qiymatiga xo'jalikka yetkazib berish xarajatlarini qo'shib hisoblanadi. Sotib olish qiymati va xo'jalikka olib kelish qiymati birgalikda asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki balans qiymatini tashkil etadi. Yosh mollarni katta yoshdagi mahsuldor yoki ish hayvonlariga o'tkazishda ularning parvarish qilishdagi tannarxi bilan baholanadi.

Asosiy fondlarning quyidagi pul shakllari mavjud:

1. *Boshlang'ich qiymat* — asosiy fondlarni tashkil etishdagi haqiqiy sarflangan xarajatlar:

$$DQ = B \cdot K + X,$$

bu yerda, DQ — asosiy vositalarning dastlabki qiymati, so'm; B — ulgurji baho, so'm; K — ta'minot tashkilotining savdo ustamasini hisobga olish koeffitsiyenti; X — asosiy vositalarni xo'jalikka yetkazib berish, uni o'rnatish, foydalanishga topshirish xarajatlari, so'm.

2. *Tiklanish qiymati* — asosiy fondlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar:

$$TQe = \frac{TQya \cdot YoQya \cdot Mhya}{YoQe \cdot MHe},$$

bu yerda, TQe va $TQya$ — eski va yangi traktorning tiklash qiymati, so'm; $YoQe$ va $YoQya$ — eski va yangi texnika uchun teng baholi yoqilg'ich xarajati salmog'ining qiymati, so'm; MHe va $Mhya$ — eski va yangi traktor uchun 1 sh.e.gektar hisobiga mexanizatorlar mehnat haqi, so'm.

3. *Qoldiq qiymat* — asosiy fondlar qiymatidan eskirgan fondlar qismini chiqarib tashlashdan qolgan qismidir:

$$QQav = Dq - \frac{Dq \cdot Am \cdot M}{100},$$

bu yerda, $QQav$ — asosiy vositalarning qoldiq qiymati, so'm; Dq — dastlabki qiymat, so'm; Am — yillik amortizatsiya me'yori, foiz; M — asosiy vositalarning xizmat muddati (yil yoki bajarilgan ish hajmi).

Asosiy fondlar qiymati ma'lum bir davrlarda qayta baholanib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika

...ligi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2001-yil 6-yanvarda tasdiqlangan «2001-yil 1-yanvar holatiga asosiy fondlarni qayta baholashni o'tkazish tartibi»ning 1.7-bandida «Turlari yillarda balansga olingan chorva, asosiy fondlar tarkibiga 1999-yil 1-yanvarigacha kiritilgan ishchi va mahsuldor mollar 1,9 koeffitsiyent bilan, 1999-yilda kiritilganlari — 3,3, 2000-yilda kiritilganlari — 1,8 koeffitsiyenti bilan qayta baholanishi kerak. Boshqa mulk — ishchi va mahsuldor mollar qayta baholanmaydilar. Yosh chorva mollari, parranda, quyon, tajriba o'tkaziladigan hayvonlar, ko'chat materiallar sifatida ko'chatzorlarda yetishtiriladigan ko'p yillik daraxtlar asosiy fondlarga kirmaydi, dar ayatlanma vositalar tarkibida hisobga olinadi» deb ko'rsatilgan.

Boshqa asosiy fondlar uchun ham qayta baholash koeffitsiyentlari ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi hujjatning (MISV, MV va DSQning AV tomonidan 2002-yil 4-dekabrda 1192-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) 7-bandini ijro etish maqsadida 2015-yil 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlar qiymatini qayta baholash indekslari ishlab chiqilgan. Bu indekslar asosiy fondlarni navbatdagi qayta baholashda qo'llash mumkin bo'lgan usullardan biri sifatida kuruma va tashkilotlarga tavsiya etiladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida eskirib boradi, ya'ni dastlabki sifatini yo'qotib boradi, ma'lum muddat o'tgandan keyin ular ishga yaroqsiz bo'lib qoladi va usuni yangisi bilan almashtirish zaruriyati tug'iladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari jismoniy va ma'naviy eskiradi. Asosiy fondlarning foydalanish jarayonida eskirishi uning jismoniy eskirishidir. Jismoniy eskirish ikki xil bo'ladi:

1. Asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonida, foydalanish natijasida asta-sekin o'z holati (parametri)ni o'zgartirishi;

2. Asosiy vositalarning bekor turishi va ochiq maydonlarda qaytasiz qoldirilishi natijasida detallarining ishdan chiqishi va korroziyaga uchrashi.

De xildagi eskirishlar ularning foydalanish darajasiga bog'liq. Bundan tashqari, fondlar ma'naviy ham eskiradi.

2015-yil 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlar, o'rnatiladigan uskunalar va qurilishi tugallanmagan obyektlar qiymatini (ularni xarid qilish, tayyorlash, qurish davrlari bo'yicha)

QAYTA BAHOLASH INDEKSLARI*

Asosiy fondlar-ning guruhlari va kodlari	1995-yilgacha (1995-yil ham kiradi)	1996–2005-yillar	2006–2012-yillar	2013-yil	2014-y.			
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
1. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish binolari (10000–10018)								
R-1 guruhi	1.000	1.007	1.038	1.060	1.055	1.039	1.021	1.007
R-2 guruhi	1.000	1.000	1.028	1.049	1.044	1.029	1.011	1.000
R-3 guruhi	1.000	1.000	1.018	1.038	1.034	1.018	1.001	1.000
R-4 guruhi	1.000	1.000	1.007	1.028	1.023	1.008	1.000	1.000
R-5 guruhi	1.000	1.000	1.000	1.018	1.013	1.000	1.000	1.000
2. Inshootlar (20000–20382)								
R-1 guruhi	1.000	1.007	1.038	1.060	1.055	1.039	1.021	1.007
R-2 guruhi	1.000	1.000	1.028	1.049	1.044	1.029	1.011	1.000
R-3 guruhi	1.000	1.000	1.018	1.038	1.034	1.018	1.001	1.000
R-4 guruhi	1.000	1.000	1.007	1.028	1.023	1.008	1.000	1.000
R-5 guruhi	1.000	1.000	1.000	1.018	1.013	1.000	1.000	1.000
3. Uzatish qurilmalari (30000–30124)	1.000	1.003	1.035	1.056	1.031	1.000	1.000	1.000
4. Mashinalar va uskunalar								
4.1. Kuch mashinalari va uskunalari (40000–40719)	1.000	1.050	1.083	1.105	1.098	1.077	1.054	1.023
4.2. Ishchi mashinalar va uskunalar (41000–46119)	1.000	1.021	1.053	1.074	1.069	1.053	1.033	1.011
4.3. O'lchov va boshqaruv asbob va qurilmalari, laboratoriya jihozlari (47000–47066)	1.000	1.021	1.053	1.074	1.069	1.053	1.033	1.011

4.4. Hisoblash texnikasi (48000—48010)	1.000	1.000	1.000	1.000	1.000	1.000	1.000	1.000
4.5. Boshqa mashina va uskunalar (49000—49303)	1.000	1.021	1.053	1.074	1.069	1.053	1.033	1.011
5. Transport vositalari (50000—50709)								
Yengil avtomobillar	1.000	1.000	1.027	1.048	1.045	1.035	1.022	1.008
Boshqa transport vositalari	1.000	1.021	1.053	1.074	1.069	1.053	1.033	1.011
6. Asboblar (60000—60002)	1.000	1.016	1.048	1.070	1.064	1.046	1.032	1.014
7. Ishlab chiqarish va xo'jalik anjomlari, mebelsiz (70000—70002, 70005—70012)	1.000	1.016	1.048	1.070	1.064	1.046	1.032	1.014
8. Mebel (70003—70004)	1.000	1.015	1.047	1.069	1.064	1.050	1.035	1.017
9. Ishchi va mahsuldor mollar (80000)	1.000	1.000	1.095	1.118	1.095	1.072	1.046	1.012
10. Ko'p yillik ko'chatlar (90000—90021)	1.000	1.008	1.040	1.061	1.051	1.075	1.056	1,028
11. Kutubxona fondlari	1.000	1.009	1.041	1.062	1.059	1.049	1.033	1.009
12. Boshqa asosiy fondlar	1.000	1.040	1.073	1.095	1.085	1.082	1.059	1.030
13. Qurilishi tugallanmagan obyektlar	1.000	1.003	1.035	1.056	1.037	1.000	1.000	1.000
14. O'rnatilgan uskunalar	1.000	1.021	1.053	1.074	1.069	1.053	1.033	1.011

*Soliq va bojxona xabarlari. 2015-yil 6-yanvar, № 1 (1065), 7-bet.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ham ikki xil bo'ladi:

1. Yangi, ancha unumli va tejamli mashinalar ixtiro etilishi va ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida eskirgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati tugamasdanoq, qadrsizlanib, ma'naviy eskirib qoladi.

2. Texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining oshishi ham, o'z navbatida, ishlab turgan mashinalar qiymatining kamayishiga olib keladi va ma'naviy eskiradi.

Asosiy vositalar jismoniy eskirgan qismining yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga asta-sekin o'tishi orqali qoplanishi

va iste'mol qilingan mehnat vositalarini takror ishlab chiqarish uchun pul vositalarining to'planishi amortizatsiya deyiladi. Asosiy vositalar to'liq eskirganda ularning qiymati to'lig'icha tayyor mahsulotga o'tgan bo'ladi. Mehnat vositalarining o'tgan qiymati mahsulotni sotish va undan ishlab chiqarishda foydalanish orqali qoplanadi. Bu jarayon to'xtovsiz davom etadi.

Amortizatsiya quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Asosiy vositalarni rejalashtirish uchun zarur bo'lgan, asosiy vositalar eskirish darajasining umumlashgan shaklini xarakterlaydi.

2. Eskirgan mehnat vositalarini almashtirish uchun pul fondini shakllantiradi.

3. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlashga imkon beradi.

Hozirda amortizatsiya ajratmalari yangi qoida bilan joriy qilindi. Bu qoidaga muvofiq asosiy fondlardan qay darajada foydalanilganligidan qat'i nazar, amortizatsiya ajratmalari ajratila boshlanadi. Natijada xo'jaliklar asosiy fondlardan yil mobaynida yanada to'la va unumli foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Asosiy fondlarning har xil turlari uchun belgilangan bu me'yorlar ularning real xizmat qilish muddatlariga va foydalanish sharoitiga qarab tabaqalashtiriladi.

Modomiki, amortizatsiya summasi asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga, ularning xizmat muddatiga, shuningdek, mehnat vositalarining tugatilish qiymatiga bog'liq ekan, u holda yillik amortizatsiya me'yori quyidagi formula orqali hisoblaniladi:

$$Am = \frac{DQ - TQ}{DQ \cdot M} \cdot 100,$$

bu yerda, Am — amortizatsiya me'yori, foiz; TQ — asosiy vositalarning tugatilish paytidagi qiymati, so'm.

Amortizatsiya me'yorining miqdori mehnat vositalarining xizmat muddati, ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish sharoitlari bilan aniqlanadi. Foydalanish muddati qancha oz bo'lsa, amortizatsiya me'yori shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Asosiy vositalar qiymatidan ajratiladigan, mahsulot tannarxiga qo'shiladigan, amortizatsiya summasi (As), ularning dastlabki qiymati va amortizatsiya me'yori asosida aniqlanadi:


$$As = \frac{DQ \cdot AmTQ}{100}.$$

Asosiy vositalar renovatsiyasiga amortizatsiya summasini hisoblash quyidagi formula asosida aniqlaniladi:

$$Ar = \frac{DQ - TQ}{DQ \cdot M}$$

Amortizatsiya ajratmalari me'yori har bir asosiy vosita turiga alohida o'rnatiladi va ularning normal foydalanish sharoitida xizmatining o'rta muddatini aniqlaydi.

Quyidagi chizmada asosiy vositalar klassifikatsiyasi ko'rsatilgan:



5-chizma. Asosiy ishlab chiqarish vositalari klassifikatsiyasi.

7.2. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari, ularning harakati, sifat holati va foydalanish samaradorligining omillari

Qishloq xo'jaligining asosiy rivojlanish qonuniyati — bu ishlab chiqarish fondlarining doimo o'sib borishini, uning strukturalari yaxshilanishini va samaradorligi oshishini taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan ularning asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaslik mahsulot miqdori va mehnat unumdorligining sekin o'sishiga hamda mahsulot tannarxining oshishiga, takror ishlab chiqarish manbalarining kamayishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda asosiy vositalarning «ortiqchaligi» va to'g'ri foydalanmaslik ularning o'lik holatda turishiga, pirovard natijada ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganligining mutlaq ko'rsatkichi sifatida fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Bu ko'rsatkich mavjud mehnat vositalarini ularning me'yoriy ehtiyojiga nisbati orqali topiladi.

1. Fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti:

$$FTK = \frac{AVx}{AVm},$$

bu yerda, AVx — haqiqatda mavjud asosiy vositalar; AVm — asosiy vositalarga bo'lgan me'yoriy ehtiyoj.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosiy vositalar bilan ta'minlanishining salmoqli ko'rsatkichlari bo'lib ishlab chiqarishning fondlar bilan to'yinish va mehnatning fondlar bilan qurollanish darajalari hisoblanadi.

2. Ishlab chiqarishning fondlar bilan to'yinishi ko'rsatkichi:

$$Fto'yinishi = \frac{AV}{100 \text{ ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yer}}; \quad \frac{AV}{100 \text{ bosh qoramol}}.$$

3. Fondlar bilan qurollanish ko'rsatkichi:

$$Fqurollan. = \frac{AV}{XS},$$

bu yerda, XS — xodimlar soni.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositalar bilan ta'minlanishining salmoqli ko'rsatkichlariga yana ishlab chiqarishning energiya bilan to'yinishi va mehnatning energiya bilan qurollanishi kiradi.

4. Energiya bilan to'yinish ko'rsatkichi, ot kuchi:

$$En.to'yinish = \frac{En.Q}{100 \text{ ga haydaladigan yer}},$$

bu yerda, $En.Q$ — energetik o'rnatmalarning quvvati.

5. Energiya bilan qurollanish darajasi, ot kuchi:

$$En.qurollan. = \frac{En.Q}{XS},$$

bu yerda, XS — xodimlar soni.

6. Elektr bilan to'yinish ko'rsatkichi, kW/soat:

$$El.to'yinish = \frac{El.En.}{100 \text{ ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yer}},$$

bu yerda, $El.En.$ — elektr quvvati, kW.

7. Elektr bilan qurollanish ko'rsatkichi, kW/soat:

$$El.qurollan. = \frac{El.En.}{XS}.$$

Qishloq xo'jaligi korxonalarining, jumladan, fermer xo'jaliklarining umumiy energetika quvvati korxonaga ehtiyojlari uchun foydalanadigan barcha mexanik dvigatellar quvvatining hamda elektr dvigatellar quvvatlarining yig'indisiga tengdir. Bular traktorlar, g'alla o'rish kombaynlarining dvigatellari, avtomobillar, elektr qurilmalari, statsionar dvigatellar va boshqa mexanik dvigatellarning asosiy turlaridir. Mexanik dvigatellarning quvvati ot kuchi (o.k.) bilan o'lchanadi. Bir ot kuchi 75 kg.m./sek.ga (75 kg yukni bir sekundda bir metr balandlikka ko'tarish uchun talab qilinadigan energiyaga) barobardir. Elektr dvigatellarining kilovatt (kW)da ifodalangan quvvati 1,136 koeffitsiyenti yordamida ot kuchiga aylantiriladi yoki aksincha, ot kuchida ifodalangan dvigatellar quvvati 0,735 koeffitsiyent yordamida kilovattga (kW) aylantiriladi.

Mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlar, odatda, shartli etalon gektarga aylantirib hisob-kitob qilinadi. Uning tartibini

quyidagi misolda ko'rish mumkin. Masalan, fermer xo'jaligining 500 gektar yeri boronalangan (zagon uzunligi 600 m, relyef 5 daraja, etalon gektarga aylantirish koeffitsiyenti 0,085) bo'lsa, demak, uning yeri 42,5 shartli etalon gektarga ($500 \cdot 0,085$) teng bo'ladi.

8. Asosiy vositalarning o'sish koeffitsiyenti:

$$AVO'K = \frac{AVDQ}{AVYBQ},$$

bu yerda, $AVO'K$ — asosiy vositalarning o'sish koeffitsiyenti; $AVDQ$ — asosiy vositalarning dastlabki qiymati; $AVYBQ$ — asosiy vositalarning yil boshidagi qiymati.

9. Asosiy vositalarning safdan chiqish koeffitsiyenti:

$$AVSChK = \frac{SChAVDQ}{AVYBQ},$$

bu yerda, $SChAVDQ$ — safdan chiqqan asosiy vositalarning dastlabki qiymati.

10. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti:

$$AVYK = \frac{YDQQAV}{YOAVDQ},$$

bu yerda, $YDQQAV$ — yil davomida qabul qilingan asosiy vositalar; $YOAVDQ$ — yil oxirida asosiy vositalarning dastlabki qiymati

11. Fond qaytimi:

$$FQ = \frac{SM}{Fqiy.}$$

12. Fond sig'imi:

$$FS = \frac{Fqiy.}{SM},$$

bu yerda, SM — sof mahsulot, so'm; $Fqiy.$ — fond qiymati, so'm.

13. Ishlab chiqarish fondlarining aylanishi:

$$FAy = \frac{AI / CHF}{A},$$

bu yerda AI/CHF — asosiy ishlab chiqarish fondlari, so'm;
 A — qayta tiklashga ajratilgan amortizatsiya ajratmasi, so'm.

14. Ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$IS = \frac{SD(F)}{AI/ChF + AVO'QQ} \cdot 100,$$

bu yerda, $SD(F)$ — sof daromad yoki foyda, so'm; $AVO'QQ$ — asosiy vositalarning o'rtacha qoldiq qiymati, so'm.

Ishlab chiqarish asosiy fondlaridan foydalanishning samaradorligi omillari quyidagilar:

1. Asosiy vositalar bilan ta'minlanish.
2. Asosiy vositalar tarkibi.
3. Asosiy va moddiy aylanma vositalari o'rtasidagi nisbat.
4. Mehnatni tashkil qilish va haq to'lash.
5. Ilg'or texnologiyadan foydalanish.

7.3. Aylanma vositalar: doiraviy aylanishi, klassifikatsiyasi va me'yorlashtirish

Bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib o'zining tashqi shaklini, ko'rinishini to'la o'zgartiradigan, qiymatini mahsulot tannaxtiga to'la o'tkazadigan vositalarga aylanma vositalar deyiladi. Bularga yosh mollar, parrandalar, yem-xashak, yoqilg'i-moylash materiallari, asbob-uskunalar va bir yilda o'zining xizmat muddatini tugatadigan inventarlar kiradi.

Muomaladagi fondlarga esa sotish uchun tayyorlangan mahsulotlar va pul mablag'lari kiradi. Qishloq xo'jaligida aylanma vositalar sanoatdagi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi aylanma vositalardan farq qilib, o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- Ishlab chiqarish davriyligining uzoq davom etishi bois aylanma vositalar aylanishining ko'pga cho'zilishi. Shuning uchun aylanma vositalarini avanslashtirish me'yoriy miqdorda va uzoq vaqtga mo'ljallab sarflanishga to'g'ri keladi.

- Mehnat predmeti xarajatlarining notekisligi va ularning oborotdan chiqib ketishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi sababli yilning turli davrlarida ular tarkibining keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Qishda aylanma vositalar urug', yem shaklida zaxirada turadi, yozda esa ularning katta qismi tugallanmagan ishlab chiqarishga sarflanadi.

• Aylanma vositalarning bir qismi ichki xo'jalik ishlarida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining anchagina qismi sotilmaydi, balki natural shaklda (urug', yem-xashak) qaytadan ishlab chiqarish jarayoniga kelib tushadi.

• Xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari sharoitida aylanma vositalar nafaqat davlat, balki dehqon xo'jaligi va jamoa mulki bo'lishi mumkin. Shu boisdan ular moliyalashtirish manbalari va me'yorlashtirish usullaridan farq qilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida aylanma vositalar shakllanish manbalari bo'yicha ikkiga bo'linadi:

1. Xususiy.

2. Qarzga olingan.

1. Xususiy vositalar — bu davlat korxonalarida, kooperativlarda, aksiyadorlik jamiyatlarida, ijara jamoalarida, dehqon xo'jaliklarida doimiy foydalanilayotgan aylanma vositalarning bir qismidir. Barcha xo'jalik yuritish shakllarida aylanma vositalarni to'ldirish manbayi sof daromad va foyda hisoblanadi. Aylanma vositalar bir-biridan, ularni baholash usullari bo'yicha ham farq qiladi:

• Qishloq xo'jaligining o'zida chiqadigan o'tgan yilgi va joriy yilgi mehnat predmetlari haqiqiy tannarxi bilan baholanadi.

• Sanoatdan olinadigan mehnat predmetlari haqiqiy xarajatlari (sotib olish va yetkazish xarajatlari) bo'yicha baholanadi.

• Ijara jamoalaridagi mehnat predmetlari yagona ichki xo'jalik baholari bo'yicha baholanadi.


2. Qarz hisobiga shakllanadigan aylanma vositalar tovar-moddiy boyliklarning me'yordan ortiqcha qoldiqlari va mavsumiy xarajatlari uchun olingan kreditlarni bildiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'lar ulardagi aylanma fondlar va muomala fondlaridan tashkil topadi. Aylanma fondlar o'z o'rniga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi aylanma fondlarga — yosh mollar va boquvga ajratilgan hayvonlar, parrandalar, kelgusi yil uchun qilingan xarajatlar kiradi.

2. Ishlab chiqarish zaxiralari, yem-xashak, urug'lik, ko'chatlar, ehtiyot qismlar, tez eskiradigan vositalar va boshqa buyumlar kiradi.

Aylanma mablag'larning manbalari ikkiga bo'linadi: o'ziniki va sotib olingan aylanma mablag'lar.



6-chizma. Moddiy aylanma vositalarning klassifikatsiyasi.

Xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish aylanma fondlarni tayyor mahsulotlarning unsurlari bo'yicha me'yorlashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish xo'jalikning moliyaviy holatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligida aylanma vositalardan samarali foydalanish uchun ular me'yorlashtiriladi.

1. Urug'lik va ko'chat materiallari bo'yicha:

$$Mu = (Um \cdot Tm) \cdot Sz,$$

bu yerda, Um — 1 ga sarflanadigan urug' me'yori, s; Tm — 1 s urug'ning reja tannarxi, so'm; Sz — yillik ehtiyojga urug'ning sug'urta zaxira miqdori (tex.ekin. uchun 10—15 %, daraxtlar uchun 25—30 %).

2. Yem-xashak bo'yicha:

$$Me = (Ye \cdot Tn) \cdot Sz,$$

bu yerda, Ye — yem-xashakka bo'lgan yillik ehtiyoj, s; Tn — 1 s yem-xashak oziqa birligining tannarxi; Sz — yillik ehtiyojga yem-xashakning zaxira miqdori.

3. Yoqilg'ini me'yorlashtirish:

$$M_{neft} = \frac{YMK}{KX} \cdot (Kr : 360),$$

bu yerda, YMK — YMM ning minimal qoldig'i, s; KX — YMM ning o'tgan yil uchun 1 kunlik xarajati, s; Kr — rejalashtirilgan yilda keltirilgan, YMM qiymati, so'm.

4. Mineral o'g'itlarni me'yorlashtirish:

$$Mo'g'it. = \frac{YKO \cdot Q}{12},$$

bu yerda, $YKO \cdot Q$ — yillik keltirilgan o'g'itlar qiymati, so'm; 12 — yildagi oylar soni.

7.4. Moddiy aylanma vositalaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni oshirish omillari

Ishlab chiqarish vaqti qancha tez tugasa, aylanma mablag'lar shuncha tez aylanadi.

1. Aylanma mablag'larning iqtisodiy samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlash mumkin:

$$F = \frac{Ay.mab.qiy.}{100 \text{ ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar}},$$

bu yerda, $Ay.mab.qiy.$ — aylanma mablag' qiymati, so'm.

2. Ishlab chiqarish fondlarining nisbati:

$$I / ch.fond.nis. = \frac{AI / ChF}{AYF},$$

bu yerda, $I / ch.fond.nis.$ — ishlab chiqarish fondlari nisbati, so'm; AYF — aylanma fondlar, so'm.

3. Aylanma mablag'larning qiymati:

$$I / ch.fond.nis. = \frac{AI / ChF}{AYF},$$

Bu ko'rsatkichlar aylanma fondlar ishlatilishining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi.

4. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti:

$$Ay.mab.ayl.koef. = \frac{AYF}{Ay.mab.o'rt.qol.},$$

bu yerda, *Ay.mab.o'rt.qol.* — aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i, so'm.

Bu ko'rsatkich yil davomida aylanma mablag'larning o'rtacha yillik aylanishini ko'rsatadi.

5. Aylanma mablag'larning aylanish tezligi:

$$Ay.mab.ayl.tez. = \frac{360}{Ay.mab.ayl.koef.},$$

6. Foyda me'yori:

$$FM = \frac{SD}{AI / ChF + Ay.mab.o'rt.qol.} \cdot 100.$$

Qishloq xo'jaligida moddiy aylanma vositalardan foydalanish samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar tizim orqali ifodalanadi:

1. Material qaytimi

$$MQ = \frac{Sof. Mah.}{MAy.V},$$

bu yerda, *MAy.V* — moddiy aylanma vositalar, so'm.

2. Material sig'imi

$$MS = \frac{MAy.V}{Sof. Mah.},$$

3. Moddiy aylanma vositalarning aylanish koeffitsiyenti:

$$MAVAK = \frac{TMQ + YMQ - SM}{MAVO'YQ},$$

bu yerda, *TMQ* — tovar-mahsulot qiymati, so'm; *YMQ* — yosh mollar qiymati, so'm; *SM* — sotilgan mahsulot, so'm; *MAVO'YQ* — moddiy aylanma vositalarning o'rtacha yillik qiymati, so'm.

4. Moddiy aylanma vositalar 1 aylanishining davomiyligi

$$V = \frac{365}{Ay.K},$$

bu yerda, $Ay.K$ — aylanish ko'effitsiyenti.

5. Moddiy aylanma vositalarning rentabelligi

$$R = \frac{Foyda}{MAYV} \cdot 100.$$

Moddiy aylanma vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy omillari quyidagilar:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish va sifatini yaxshilash;
2. Moddiy aylanma vositalarni optimal me'yorlashtirish;
3. Moddiy aylanma vositalarning tejamkorligi;
4. Moddiy aylanma vositalar aylanishining davomiyligini qisqartirish;
5. Moddiy aylanma vositalarining tarkibiy tuzilishi;
6. Ilg'or shakllarda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash;
7. Ilg'or texnologiyadan foydalanish.

TAYANCH IBORALAR

Asosiy vositalar, aylanma vositalar, doiraviy aylanish, me'yorlashtirish, muomala fondlari, pul vositalari, tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ishlab chiqarish zaxiralari, material qaytimi, material sig'imi, fond qaytimi, fond sig'imi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi va uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Asosiy vositalar deb nimaga aytiladi va ularning klassifikatsiyasi.
3. Aylanma vositalar va ularning klassifikatsiyasi qanday?
4. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.
5. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanishning samaradorligini oshirish omillari.

8-bob. | QISHLOQ XO'JALIGI INFRATUZILMASI

8.1. Qishloq xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati

Agrosanoatda ishlab chiqarishning pirovard natijasi nafaqat bevosita qishloq xo'jaligining rivojlanishi darajasiga, balki unga xizmat qiluvchi tarmoqlarning ham rivojlanishi darajasiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mahsulot hajmining ko'payishi bilan birga moddiy-texnika resurslaridan, zarur xomashyolardan, yordamchi materiallardan va boshqalardan foydalanish miqdori o'sib boradi. Xo'jaliklarning elektr energiyasiga, transportga, aloqa vositalariga, mahsulotni saqlash uchun omborlar va boshqalarga bo'lgan ehtiyoji ortib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning texnika-ta'mirlash xizmatiga, moddiy-texnika ta'minoti tashkilotiga, muhandislik, zooveterinariya, agrokimyo xizmati va boshqa xizmatlarga bog'liqligi ortadi. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zarur miqdorini olishga moslashgan tarmoq va ishlab chiqarishlarni rivojlantirish bilan bir qatorda mahsulotdan samarali foydalanishni ta'minlovchi va uni iste'molchiga yetkazib beruvchi tashkilotlarni rivojlantirish ham muhimdir. Iqtisodiyotda bunday tarmoqlar va xizmatlarning to'plamini infratuzilma deb atash qabul qilingan.

Infratuzilma deganda, iqtisodiy va ijtimoiy takror ishlab chiqarishning me'yoriy sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan kompleks tarmoq va ishlab chiqarishlar tushuniladi. U ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladigan texnologik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni amalga oshirish yo'li bilan agrosanoat majmuyining samarali harakat qilishiga imkon beradi.

Infratuzilma jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining ajralmas qismi hisoblanadi. U korxonalar va tashkilotlarning samarali faoliyatini ta'minlaydi va agrosanoat majmuyining ko'proq va sifatliroq pirovard mahsulot olishiga yo'naltirilgan.

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish pirovard natijada bir tomondan asosiy ishlab chiqarish fondi va aylanma

vositalar bilan, texnika bilan, jihozlar bilan, malakali mehnat resurslar bilan ta'minlash darajasiga va ikkinchi tomondan xizmat ko'rsatadigan ishlab chiqarish va xizmatlarning darajasiga bog'liq. Bular ichida agrokimyoviy, zooveterinariya, konsultativ, axborot va boshqa xizmatlar muhim rol o'ynaydi.

Infratuzilma qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning va uning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Xomashyo, materiallar, tayyor mahsulotlarning o'z vaqtida yetkazib berilishi ko'p jihatdan xo'jalik aylanmasida bo'lgan resurslar hajmini aniqlab beradi. Infratuzilma tarmoqlarini vujudga keltirishning bosh shart-sharoiti mamlakat iqtisodiy salohiyatining umumiy o'sishi hisoblanadi. Agrosanoat majmuyi infratuzilmasini ancha tez rivojlantirishning zaruriyati uning tarkibiga kiruvchi tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni o'stirish omillarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Industriallashtirish, kimyolashtirish, melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa omillarini jadallik bilan rivojlantirish, faqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalarini miqdor jihatdan ko'paytirishgagina emas, balki moddiy-pul resurslaridan ancha samaraliroq foydalanishni ta'minlaydigan xizmatlar tizimini tashkil qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida infratuzilma tarmoqlari va ishlab chiqarishning vazifalari deyarli o'zgaradi. Qishloq xo'jaligini moddiy resurslar, texnika, uskunalar bilan ta'minlash tizimi tashkil topadi.

Agrosanoat majmuyi korxonalariga moddiy resurslarni sotish bo'yicha harakatdagi ishlab chiqarish va xizmatlar bazasida turli xil hissadorlik jamiyatlari, shirkatlar va boshqalar rivojlantiriladi.

Moddiy ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim vazifasi qishloq xo'jaligi korxonalarini asta-sekin ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha vazifalarni bajarishdan ozod qilish va asosiy ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytirish hisoblanadi. Infratuzilma ishlab chiqarish hajmini ko'paytirib borish va asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilash uchun me'yoriy sharoitni yaratishga qaratilgan.

Infratuzilmaga kiruvchi tarmoqlar, ishlab chiqarish jarayoniga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi va ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Shu boisdan infratuzilma tarmoqlarini, ularning asosiy belgilari bo'yicha guruhlash amaliy ahamiyatga ega. Infratuzilmalarni turlash alohida unsur sifatida

ham va ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida bir butun tarmoq sifatida ularning o'rnini aniqlash imkonini beradi. U tarmoqlararo aloqalarni o'rganishga va asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari hamda xizmat qiluvchi tarmoqlar o'rtasida optimal nisbatni aniqlashga yordam beradi.

Infratuzilma unsurlarining ko'p tomonlama harakatlarini hisobga olgan holda uni aniq bir belgi bo'yicha turlash qiyin muammo. Agrosanoat majmuyi infratuzilmasining barcha unsurlarini to'rt belgi bo'yicha guruhlash tavsiya etiladi:

1. Ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri darajasi bo'yicha:

a) ishlab chiqarish;

b) ijtimoiy.

2. Hududiy belgi bo'yicha:

a) xalq xo'jaligi;

b) region (hududiy);

d) lokal.

3. Tarmoq belgisi bo'yicha:

a) tarmoqlararo;

b) tarmoq ichida.

4. Funksional belgisi bo'yicha:

a) sferalar (sohalar);

b) qishloq xo'jaligiga xizmat qilish bo'yicha;

d) mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish bo'yicha.

Xalq xo'jaligi infratuzilmasi deganda, xalq xo'jaligining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun xizmat qiladigan tarmoq va xizmatlarning tizimi tushuniladi. Bular, yirik infratuzilma kompleksi bo'lib, mamlakat yagona energetika tizimi, yagona transport tizimi, yagona aloqa tizimi va boshqalar hisoblanadi. Ular xalq xo'jaligining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, pochta, telegraf va transport aloqalarini me'yorida ta'minlashga xizmat qiladi.

Hududiy infratuzilma alohida iqtisodiy tumanlarni rivojlantirish, hududiy ishlab chiqarish komplekslarini vujudga keltirish bilan bog'langan.

Lokal yoki ishlab chiqarish infratuzilmasi alohida korxonalar faoliyatini ta'minlovchi ishlab chiqarish va unsurlardan tashkil topadi. Bunga misol qilib, mashina-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi, energetikaga, omborxonaga va sovutkichlarga xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi, xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi qurilishlar bo'yicha tashkilotlar va boshqalarni olish mumkin.

Tarmoqlararo infratuzilma iqtisodiyotning ko'pchilik tarmoqlariga, birinchi navbatda, transport, elektr ta'minoti, aloqaga xizmat qilishga qaratilgan. Tarmoq ichidagi infratuzilma aniq tarmoqning faoliyatiga moslashgan. Masalan, qishloq xo'jaligining tarmog'i sabzavotchilikni jadal rivojlantirishni urug'chiliksiz, mahsulotni saqlash uchun zaruriy sharoitlarni yaratmasdan, texnika va uskunalarni ta'mirlash hamda ularga xizmat qilishni yo'lga qo'ymasdan amalga oshirish mumkin emas.

Chorvachilikda tarmoq ichidagi ishlab chiqarish infratuzilmasida muhim o'rinni veterinariya xizmati egallaydi. Bunday xizmatning zaruriyati, asosan, tarmoqda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalashni rivojlantirish sharoitida yuzaga chiqadi. Chorvachilikda tarmoq ichidagi infratuzilmaning vazifasi tarmoqni uskunalar, preparatlar, anjomlar va asboblardan ta'minlash va shu asosda ishlab chiqarishning iqtisodiy samardorligini keskin oshirish hisoblanadi.

Bevosita qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi sohaga mashina-uskunalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi tarmoq va korxonalar, shuningdek, transport, melioratsiya tashkilotlari, agrokimyo, veterinariya, axborot xizmati, moddiy-texnika ta'minoti va elektrlashtirish tizimi kiradi.

Mahsulotni iste'molga yetkazib beruvchi sohaga mahsulotni tayyorlash, transportirovka qilish, saqlash bo'yicha tashkilotlar kiradi. Agrosanoat majmuyining normal faoliyat ko'rsatishi yetarli miqdorda saqlash xonalarisiz katta hajmli va mayda idishlar bilan hamda boshqa qadoqlash materiallari bilan ta'minlamasdan turib ro'yogba chiqmaydi.

8.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyati

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi va ularning uzoq vaqt davomida ishga yaroqliligini saqlashga yordam beruvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga bevosita qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi quyidagi tarmoqlar kiradi:

1. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan transport;
2. Ta'mirlash ustaxonalari;
3. Ombor va sovuqxonalar;
4. Kommunikatsiya, pochta va telegraf aloqasi tizimi;
5. Elektr uzatish liniyalari;

6. Texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari;
7. Ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyalari;
8. Hisoblash markazlari;
9. Tayyorlash, savdo korxonalari;
10. Moddiy-texnika ta'minoti;
11. Melioratsiya va irrigatsiya inshootlari.

Bundan tashqari, unga yana maxsus xizmat ko'rsatuvchi xizmat va bo'limlar ham kiradi:

1. O'simliklarni himoya qilish;
2. Agrotexnika;
3. Veterinariya;
4. Sun'iy qochirish;
5. Texnika ta'mirlash;
6. Huquqiy.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishiga ko'p omillar ta'sir qiladi. Bular ichida muhimlari tuproq iqlim sharoiti, joyning relyefi, yer hududining konfiguratsiyasi bilan ta'minlanganligi, yopiq joylar va yo'llar, korxonalarining, ishlab chiqarish obyektlarining joylashishi, qo'llaniladigan texnologiyalar, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash darajasidir. Bu omillar ko'p jihatdan butun ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibiga, ichki xo'jalik bo'linmalarining katta-kichikligiga va korxonalar funksional faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish infratuzilmalari obyektlari bilan ta'minlanishi uzoq yillardan beri ancha past yoki o'zgarmasdan qolmoqda edi.

Ishlab chiqarish infratuzilmalarining muhim yo'nalishi bo'lgan, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash bo'yicha optimal quvvatni tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish, avtogarajlar, texnikalarni saqlash, hayvonlar va maydonchalar qurish, neft omborlari va yoqilg'i-moylash materiallari uchun saqlash joylari qurish kabilarga e'tibor talabga javob bermaydigan darajada edi.

Qishloq xo'jaligida hozir ham ishlab chiqarish obyektlarini elektrlashtirish uchun va elektr uzatish liniyalarini ko'rish uchun yetarlicha mablag' ajratilmayapti. Bu dehqonchilik va chorvachilikda ishlab chiqarish jarayonlariga kompleks mexanizatsiyani qo'llashni qiyinlashtiradi. Ishlab chiqarish infratuzilmasidan tejamli foydalanish pirovard mahsulot sifatini yaxshilash va yo'qotishlarni qisqartirishda, mahsulot birligiga sarflanadigan moddiy-pul va mehnat xarajatlarini pasaytirishda namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, infratuzilma bo'linmalari, xizmatlari va obyektlarini qurishga sarflangan xarajatlarning qoplanishi hisoblanadi. Uni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$XQ = \frac{PMQ}{MX},$$

bu yerda, XQ — ishlab chiqarish infratuzilmasi xarajatlarining qoplanishi, so'm; PMQ — qishloq xo'jaligi pirovard mahsulotining qiymati, so'm; MX — ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishga qilingan moddiy xarajatlar, so'm.

Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish infratuzilmalari qurishga sarflangan xarajatlar 4—6 yilda qoplanadi.

8.3. Ijtimoiy infratuzilma va uning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi roli

Korxonalarining sifatli ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash xodimlarga mehnat jarayonida ham va ish kuchini takror ishlab chiqarish jarayonida ham me'yordagi sharoit yaratishni talab qiladi. Bu vazifani bajarish ijtimoiy infratuzilma xizmati va bo'linmalari zimmasiga yuklatiladi.

Ijtimoiy infratuzilma deganda, ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning samarali harakat qilish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining bir qismiga aytiladi. Ijtimoiy infratuzilmaning bosh vazifasi qishloq aholisining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yanada yaxshilashdir. Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari bevosita pirovard mahsulot yaratishda qatnashmaydi, lekin ishlab chiqarish jarayonini me'yor darajasida rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Ijtimoiy infratuzilmaning roli shundan iboratki, ular ishlab chiqarishning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash imkoniyatini beradi, ularni takror ishlab chiqarish va qishloq joylarida samarali ishlashlariga yordam beradi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlaydi. Bo'linmalar ham, korxonada xodimlari ham ularning oila a'zolarining kommunal-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratishda qatnashadi.

Ijtimoiy infratuzilmada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari aks ettiriladi. Ijtimoiy infratuzilma

obyektlari, qishloq xo'jaligi korxonalari resurslari va aholining pul mablag'lari hisobiga hamda uy-joy, maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, madaniyat uylari, poliklinikalar, aloqa tarmoqlari va boshqalarni rivojlantirish davlat investitsiyasidan samarali foydalanish yo'li bilan yaratiladi. Qishloq joylardagi ijtimoiy bo'linmalar nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlarga, balki korxonada hududida yashovchi aholining boshqa qatlamlariga ham xizmat ko'rsatadi.


Qishloqdagi ijtimoiy infratuzilma xo'jalik hududi bo'yicha bo'lib-bo'lib joylashtirilsa, ulardan samarali foydalanishni qiyinlashtiradi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning mavsumiy xarakteri ijtimoiy infratuzilma xizmati va bo'linmalari ishida ham o'z izini qoldiradi. Uning yaratilishi va oqilona harakat qilish, shu obyektlar joylashgan qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bog'liq. Ijtimoiy infratuzilma bo'linmalarining vujudga kelishiga xo'jaliklar zarur bo'lgan moddiy-pul va mehnat resurslarini ajratadilar.

Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilma obyektlariga uy-joy, kommunal xo'jaligi bo'linmalari, tibbiyot va maktabgacha bolalar muassasalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, o'quv ishlab chiqarish kombinatlari, mehnat muhofazasi bo'yicha xizmatlar, sport-sog'lomlashtirish tashkilotlari, ishchi va xizmatchilarga xizmat qiluvchi transport, aloqa va axborot xizmatlari kiradi. Barcha xizmatlarni maqsadli yo'naltirilganligiga, shakllanish manbalariga, hududiy joylashishiga va ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi bo'yicha ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga xo'jalik bo'linmalariga joylashgan, korxonada mablag'lari hisobiga qurilgan va ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning dam olish va texnika xavfsizligi, mehnat sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgan obyektlar tegishli. Bu guruhga dehqonchilik bo'linmalari va chorvachilik fermalaridagi maishiy xonalar, bo'linmalar, umumiy ovqatlanish (bufetlar, tamaddixonalar, oshxonalar) punktlari, sog'liqni saqlash, madaniyat va dam olish (profilaktoriylar, tibbiy punktlar, ma'naviyat burchaklari), yong'inga qarshi xavfsizlik punktlari kiradi. Ular chorvachilik komplekslarida, fermalarda, ustaxonalarda va dala shiyponlarida joylashtiriladi.

Ikkinchi guruhni davlat resurslari, agrosanoat birlashmalari va yirik korxonalarining maxsus vositalari hisobiga barpo etilgan va aholining kommunal-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan, qishloq xo'jaligi korxonalari aholi punktlari

hududida joylashgan obyektlar tashkil qiladi. Bularga uy-joy, kommunal xo'jaligi obyektlari, maishiy xizmat korxonalari, sog'liqni saqlash (poliklinikalar, kasalxonalar, ambulatoriyalar), sport muassasalari, maktablar va maktabgacha muassasalar, madaniyat uylari va klublar, savdo tashkilotlari tegishlidir. Ijtimoiy infratuzilmaning bu obyektlari ijtimoiy kelib chiqishidan va mehnatning qaysi sohaga yo'naltirilganligidan qat'i nazar qishloq joylarda yashovchi barcha aholiga xizmat qilishga qaratilgan.



7-chizma. Ijtimoiy infratuzilmaning tarkibi.

Aholining ijtimoiy infratuzilma xizmatlari bilan ta'minlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki xodimlar yashash va dam olish sharoitlarining yaxshilanishi, ular malakasining oshishi mehnat unum-

dorligining o‘shishiga imkon beradi. Lekin bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida bu muhim yo‘nalishga yetarlicha e‘tibor berilmagan edi.

Hozirda respublikada qishloqning ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta‘minlanish darajasi, daromadlar miqdori qishloq xo‘jaligining malakali kadrlar bilan ta‘minlanishiga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda dehqonchilikda fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanishga katta imkoniyat yuzaga keladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yaxshi rivojlangan xizmat ko‘rsatish shoxobchalari qishloq xo‘jaligi xodimlariga ish vaqtidan unumli foydalanishga, o‘z shaxsini rivojlantirishga katta e‘tibor berishga va ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishga imkon beradi.


TAYANCH IBORALAR

Infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, xalq xo‘jaligi, hududiy, lokal, funksional.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloqda infratuzilma tizimlarini rivojlantirish zaruriyati nimalarga asoslanadi?
2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiy qismlari.
3. Ijtimoiy infratuzilma tizimlari va ularni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati.

hududida joylashgan obyektlar tashkil qiladi. Bularga uy-joy, kommunal xo'jaligi obyektlari, maishiy xizmat korxonalari, sog'liqni saqlash (poliklinikalar, kasalxonalar, ambulatoriyalar), sport muassasalari, maktablar va maktabgacha muassasalar, madaniyat uylari va klublar, savdo tashkilotlari tegishlidir. Ijtimoiy infratuzilmaning bu obyektlari ijtimoiy kelib chiqishidan va mehnatning qaysi sohaga yo'naltirilganligidan qat'i nazar qishloq joylarda yashovchi barcha aholiga xizmat qilishga qaratilgan.



7-chizma. Ijtimoiy infratuzilmaning tarkibi.

Aholining ijtimoiy infratuzilma xizmatlari bilan ta'minlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki xodimlar yashash va dam olish sharoitlarining yaxshilanishi, ular malakasining oshishi mehnat unum-

dorligining o'sishiga imkon beradi. Lekin bozor munosabatlariga o'tish sharoitida bu muhim yo'nalishga yetarlicha e'tibor berilmagan edi.

Hozirda respublikada qishloqning ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanish darajasi, daromadlar miqdori qishloq xo'jaligining malakali kadrlar bilan ta'minlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda dehqonchilikda fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanishga katta imkoniyat yuzaga keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yaxshi rivojlangan xizmat ko'rsatish shoxobchalari qishloq xo'jaligi xodimlariga ish vaqtidan unumli foydalanishga, o'z shaxsini rivojlantirishga katta e'tibor berishga va ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishga imkon beradi.

TAYANCH IBORALAR

Infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, xalq xo'jaligi, hududiy, lokal, funksional.

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloqda infratuzilma tizimlarini rivojlantirish zaruriyati nimalarga asoslanadi?
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiy qismlari.
3. Ijtimoiy infratuzilma tizimlari va ularni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati.

9-bob.

QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYA VA KAPITAL QO'YILMALAR, ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

9.1. Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning zarurligi, ahamiyati va samaradorligi

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi mos ravishda tarmoq moddiy-texnik bazasini rivojlantirishni talab qiladi. Ishlab chiqarish fondlari hajmining ko'payishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish potensialini kengaytirishga yo'naltirilgan moddiy va pul vositalariga qo'shimcha qo'yilma hisobiga amalga oshiriladi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida agrosanoat majmuyi tarmoqlarining barqaror rivojlanishi korxonalariga zarur moddiy va pul resurslari berishda investitsion faollikka ehtiyoj tug'diradi.

Investitsiya deganda xo'jalik faoliyati jarayonida asosiy fondlarni va aylanma vositalarni sotib olishga ajratilgan uzoq muddatli mablag'lar tushuniladi. Demak, investitsiya — bu nafaqat asosiy fondlarni kengaytirishga mablag'lar, balki korxonaning aylanma vositalarini shakllantirishga va ularni to'ldirishga ajratilgan xarajatlar hamdir. Xo'jalik faoliyati obyektlariga ajratilgan uzoq muddatli kapitalning qo'yilishi shunda o'zini oqlaydiki, agar ular foyda olishga va samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratsa. Investitsiya bozori kapital va moliyaviy qo'yilmalar yo'li bilan asosiy va aylanma vositalarga xarajatlarni shakllantirishni bildiradi.

Moliyaviy va real investitsiya turlari mavjud. Birinchisi, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishni, shuningdek, ishlab chiqarishga maqsadli pul qo'yishni ko'zda tutadi. Real investitsiya — bu kapitalni asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishga, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini qo'shimcha o'stirish maqsadida qo'yishdir. Real investitsiya kapital qo'yilmalar deyiladi. Milliy hisoblar tizimida real investitsiya deganda asosiy kapitalga va moddiy ishlab chiqarish vositalarini qo'shimcha o'stirishga ajratilgan qo'yilmalar tushuniladi.

Bozor sharoitida qimmatli qog'ozlarning bir necha turlari mavjud:

- egalariga aksionerlik jamiyati vositalaridagi hissasiga va uning faoliyatidagi daromad olishga guvoh huquqini beruvchi, aksionerlik jamiyati aksiyalari;

- hujjatlarni chiqaruvchi, egalari va shaxslar o'rtasida qarz munosabatlariga guvohlik beruvchi obligatsiyalar;

- davlatning qarz majburiyatlaridagi qimmatli qog'ozlar, bunda qarzdor davlat hisoblanadi;

- egasining sotish yoki sotib olish huquqiga guvohlik beruvchi yasama qimmatli qog'ozlar (masalan, veksel, xususiylashtirish cheki).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida investitsiya quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

- eskirgan va ishdan chiqqan investitsiyalarni almashtirish;
- yangi texnologiyalarni joriy qilish va zamonaviy texnika asbob-uskunalarni qo'llash;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish;
- ishlab chiqarishning yangi turlarini rivojlantirish.

Qishloq xo'jaligida investitsiyaning shakllanishi qo'yilgan mablag'larning qaytish tezligini hisobga olgandagi iqtisodiy asosda amalga oshiriladi. Bunga yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi va uning tannarxining pasayishi sharoitidagina erishiladi.

Investitsiya qo'shimcha sof daromad olish bilan va mablag'larning qaytish muddati qisqarishi bilan bevosita aloqadordir. Qoplash muddati qancha oz bo'lsa, investitsiyaga rag'bat shuncha ko'p bo'ladi, chunki investitsiya jarayoni oqibatida mablag'larning qaytishi uzoq muddatga cho'zilsa, sarflangan resurslarning qadrsizlanishi ro'y beradi. Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqarishdan olingan sof daromad yangi ishlab chiqarishga qo'yilishi mumkin.

Mamlakat agrosanoat majmuyi barcha tarmoqlarini qamrab olgan iqtisodiy inqiroz investitsiya siyosatida ancha jiddiy namoyon bo'ldi. Ishlab chiqarish va moddiy-texnika resurlari taqsimoti o'rtasidagi aloqaning uzilishi, bozor infratuzilmasining yo'qligi va muvofiqlikning buzilishi, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari va sanoat tovarlari hamda xizmatlari baholari o'rtasidagi tengsizlikning kuchayishi, qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirish tarmoqqa qo'shimcha mablag'lar ajratmasdan turib amalda mumkin emasligini ko'rsatdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya siyosatining zaruriy unsurlari quyidagilar hisoblanadi:

- raqobatbardosh loyihalarni tanlov asosida tanlash;
- xarajatlarning tez qoplanishi mo'ljalinini olish;
- investitsiyani mahsulotni sotish bozori va uning sifatini hisobga olgan holda iqtisodiy asoslash;
- raqobatchilarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olish.

Qishloq xo'jaligida investitsiya faoliyatini jonlantirmasdan turib ishlab chiqarish tanazzulidan chiqish, moliyaviy barqarorlikka erishish va tarmoq iqtisodiyotini ko'tarish mumkin emas.

Investitsiya umumiy va sof investitsiyalarga bo'linadi. Sof investitsiya kapital qo'yilmalar va amortizatsiya ajratmalari miqdori ayirmasidan tashkil topadi. U xususiy resurlardan samarali foydalanigan taqdirda qancha qo'shimcha mablag' qo'yish talab etilishini ko'rsatadi. Sof investitsiya (I_s) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$I_s = KQ - A,$$

bu yerda, KQ — tarmoqdagi kapital qo'yilmalar hajmi, so'm; A — asosiy fondlar eskirishidagi amortizatsiya miqdori, so'm.

Investitsiyadan foydalanishni tahlil qilish mablag'larni birinchi navbatda eng muhimroq obyekt va ishlab chiqarishlarga yo'naltirish zarurligini aniqlashga imkon beradi. U quyidagi tartibda olib boriladi:

• dastavval, eng zarur bo'lgan investitsiya aniqlanadi. Masalan, tovar ishlab chiqaruvchiga traktor, avtomobil sotib olish va sigir saqlash uchun kompleks qurish zarur. Shu obyektlardan hozirda eng muhimrog'i investitsiyalash uchun tanlab olinadi;

• mavjud vositalar uchun, tovar ishlab chiqaruvchi bank kreditidan foydalanadimi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, dastlabki to'lovlar miqdori o'rnatiladi. Bu tovar ishlab chiqaruvchining to'lov qobiliyatligini o'rnatish va uning ishlab chiqarishni investitsiyalash bo'yicha maqsadining jiddiyligini aniqlash uchun talab etiladi;

• shu investitsiya turidan yillar davomida mablag' tushishi baholanadi. Masalan, traktor, avtomobil yoki sut kompleksidan foydalanishdan;

• tovar ishlab chiqaruvchi investitsiyadan foydalanishga rozi bo'lgan, bank krediti bo'yicha foiz stavkasi tanlanadi;

• yillar davomida qo'yilgan mablag'ni sof daromadga taqqoslash yo'li bilan pul mablag'larining joriy miqdori hisoblanadi;

• investitsiya variantini tanlash haqida qaror qabul qilinadi. Bunday holda agar shu mablag'dan kelgan sof daromad investitsiya kapitali miqdoridan ko'p bo'lsa, unda shu variant optimal deb tan olinadi.

Investitsiyalash variantini tanlashni kelajakdagi daromadni diskontlash yordamida o'tkazish mumkin. Tovar ishlab chiqaruvchi kapital tovarni sotib olish va sotib olish xarajatlarini taqqoslashdan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Kutilayotgan daromad, kapital tovarni uning xizmat muddati davomida foydalanishdan tushadigan har yilgi tushumidan yig'iladi, bunda investitsiyalash bir vaqtda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan kapital tovarga investitsiya miqdorini aniqlash talab etiladi. Bu shu shart bilanki, ma'lum bir muddat foydalanganda kerakli daromad olinadigan bo'lsin.

Bunday hisob-kitoblarni kelajakdagi daromadlarni diskontlash deb, shu paytdagi kapital tovar uchun to'lanadigan kerakli mablag'ni esa diskontlangan qiymat deb qabul qilingan. Diskontlangan qiymat (Dq) foiz stavkasiga bog'liq. Har yili bir xil miqdordagi daromadda diskontlangan qiymat quyidagi formulada topiladi:

$$Dq = \frac{A}{(1+F)},$$

bu yerda, A — bankning yillik foiz stavkasida kutilishi mumkin bo'lgan pul; F — foiz stavkasi; 1 — yillik daromadlar kutilayotgan davr, yil.

Masalan, agar tovar ishlab chiqaruvchi 5 % li stavkada, ikki yildan keyin 22000 so'm pul olishni xohlasa, unda diskontlangan qiymat quyidagiga teng bo'ladi:

$$Dq = \frac{22000}{(1+0,05)^2} = 19954.$$

Agar qo'yilgan mablag'dan keladigan har yillik daromad turlicha bo'lsa, unda diskontlangan qiymatning miqdori (Dqm) quyidagi formulada aniqlanadi:

$$Dqm = \frac{P_1}{(1+F)} + \frac{P_2}{(1+F)^2} + \dots + \frac{P_n}{(1+F)^n},$$

bu yerda, $P_1, P_2 \dots P_n$ — har yillik daromadning kutilayotgan miqdori, so'm; F — yillik daromadlar kutilayotgan davr, yillar soni.

Masalan, birinchi yili daromad 33000 soʻmni, ikkinchi yil 66000 soʻmni va uchinchi yil 44000 ming soʻmni tashkil etgan. Har yillik 8 % li stavkada diskontlangan qiymat quyidagiga teng boʻladi:

$$D_{qm} = \frac{33000}{(1+0,08)} + \frac{66000}{(1+0,08)^2} + \frac{44000}{(1+0,08)^3} =$$

$$= 30555 + 56584 + 34929 = 122068 \text{ soʻm.}$$

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xoʻjaligi investitsiyasiga bir qator omillar taʼsir qiladi. Shulardan baʼzilarga tovar ishlab chiqaruvchilar taʼsirini oʻtkazishi mumkin, boshqalari esa tashqi sharoitlarga bogʻlangan va tovar ishlab chiqaruvchilarga bogʻliq emas. Tovar ishlab chiqaruvchilarga bogʻliq omillarga quyidagilar kiradi:

- qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligi va mollar mahsuldorligi;
- birinchi navbatdagi investitsiya obyektlarini tanlash;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash;
- asosiy turdagi qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi;
- investitsiya xarakteri: uzoq muddatli, qisqa muddatli;
- mehnat unumdorligi darajasi va mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

Tovar ishlab chiqaruvchilarga bogʻliq boʻlmagan omillarga quyidagilar kiradi:

- qishloq xoʻjaligi va sanoat mahsulotlari baholari;
- kredit uchun foiz stavkasi;
- inflatsiya jarayoni;
- qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining mavsumiyliги;
- baholar nisbatini hisobga olgan holda mahsulotga boʻlgan talab;
- qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetkazib berishning muqarrarligi;
- mahsulotga qoʻyiladigan jahon baholari.

Xoʻjalik faoliyati obyektlariga uzoq muddatli kapitalning qoʻyilishi, ular foyda olishga va ijtimoiy samaradorlikka erishgandagina oʻzini qoplaydi. Investitsiya samaradorligining koʻrsatkichlarini hisoblash maʼlum bir davr davomida makroiqtisodiy

ko'rsatkichlar qo'shimcha o'sishi nisbatlariga asoslanadi. Umumiy samaradorlik ko'rsatkichi sof mahsulot qo'shimcha o'sishining shu davrdagi investitsiya hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida, yuqori darajadagi inflatsiyada bu ko'rsatkich investitsiya samaradorligi to'g'risida aniq tushuncha bermaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligidagi investitsiyani va yillar bo'yicha yalpi daromad dinamikasini taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya samaradorligi darajasi bevosita ularni moliyalashtirish manbalariga bog'liq. Eng past darajadagi samaradorlik imtiyozli investitsiya kreditlarida kuzatiladi. Nisbatan yaxshiroq iqtisodiy natijalarga davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalarda erishiladi. Ba'zida kredit mexanizmi orqali yoki budjetdan bevosita moliyalashtirish vositasi sifatida davlat tomonidan investitsiyaga ajratilgan mablag'lar maqsadli foydalanilmasdan, balki ish haqi uchun to'lovlarga, ilgari olingan kreditlarni qoplashga va moliyaviy aktivlar bilan bo'ladigan operatsiyalarga ham ishlatilish hollari uchrab turadi.

Investitsiyaning qaytarilishi olingan foydani investitsiyaning umumiy hajmiga bo'lib topiladi va foizlarda ifodalanadi:

$$Iqd = \frac{F}{Iuh} \cdot 100,$$

bu yerda, Iqd — investitsiyaning qaytarilish darajasi, %; F — foyda, so'm; Iuh — investitsiyaning umumiy hajmi, so'm.

Investitsiyaning qaytarilish darajasi kredit uchun foiz stavkalari bilan taqqoslanadi. Bu holda agar investitsiyaning qaytarilish darajasi kredit uchun foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, unda tovar ishlab chiqaruvchining kapital qo'yilmalar miqdorini ko'paytirishi maqsadga muvofiqdir.

Kapitalning me'yoriy samaradorligi va investitsiyaning me'yoriy samaradorligi bir-biridan farq qiladi. Kapitalning me'yoriy samaradorligi — bu qo'shimcha mablag'ning bir so'midan keladigan qaytim. Investitsiyaning me'yoriy samaradorligi — bu kapital tovarning taklifi baholari va talabi baholari o'rtasidagi muvozanat o'rnatilganda, kredit uchun foiz stavkasidir. Foiz stavkasi qancha yuqori bo'lsa, kreditga talab shuncha past bo'ladi. Boshqa tomondan, foiz stavkasi qancha past bo'lsa, kreditning taklifi shuncha yuqori bo'ladi.

**Qishloq va o'rmon xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalarning hajmi va salmog'i dinamikasining tahlili
(2005—2014-yillar) (mlrd so'm)***

Yillar	Jami investitsiya hajmi	Shu jumladan, qishloq va o'rmon xo'jaligida	
		hajmi	salmog'i, %
2005	3165,2	138,2	4,4
2006	4041,0	164,4	4,1
2007	5903,5	200,9	3,4
2008	9555,9	261,2	2,7
2009	12531,9	385,9	3,1
2010	15338,7	531,0	3,5
2011	17953,4	942,5	5,2
2012	22797,3	1089,2	4,8
2013	28694,6	1334,0	4,6
2014	35233,2	1445,5	4,1

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

2014-yilga kelib, jami investitsiyalarning umumiy hajmi keskin oshgan. Ya'ni bu davrga kelib, ularning hajmi 11,1 martaga oshgan, jumladan, shu davrda qishloq xo'jaligida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 138,2 mlrd so'mdan 1445,5 mlrd so'mga yoki 10 martadan ziyod oshgan. Qishloq va o'rmon xo'jaligining jami investitsiya hajmidagi salmog'i esa deyarli o'zgarmasdan qolgan.

9.2. Kapital qo'yilmalar tushunchasi, foydalanishning asosiy yo'nalishlari, tarkibi va moliyalashtirish manbalari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida harakatdagi asosiy vositalarning asta-sekin eskirishi, so'ngra esa hisobdan chiqarilishi ro'y beradi. Bu esa ularni oddiy yoki kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish kapital qo'yilmalar manbalari hisobiga amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalar deb harakatdagi asosiy vositalarni tiklashga va kengaytirishga yo'naltirilgan pul vositalariga aytiladi. Kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish kapital qo'yimlarga mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar traktor, qishloq xo'jaligi mashinalari, ishchi va mahsuldor mollar, binolar va inshootlar, yo'l qurilishi va boshqalarga sarflanadi. Ishlab chiqarish kapital qo'yimlariga, iqtisodiy mohiyati bo'yicha, shuningdek, asosiy podani vujudga keltirish xarajatlari ham kiradi. Lekin mavjud hisob tizimida kapital qo'yimlar tizimiga bu xarajatlar kirmaydi va alohida hisobga olinadi. Asosiy poda uchun kapital qo'yimlar, asosan, brak qilingan, ishchi va mahsuldor hayvonlarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

2. Noishlab chiqarish kapital qo'yimlariga uy-joy qurilishi, madaniy-maishiy binolar va sog'liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlar kiradi.

Kapital qo'yimlar — bu potensial asosiy vositalar bo'lib, ular ma'lum obyektlarni foydalanishga topshirilgandan keyin asosiy vositalarga aylanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda kapital qo'yimlardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1. O'simlikchilik va chorvachilik ishlab chiqarish binolari, ustaxonalar, uy-joy, madaniy-maishiy obyektlar va boshqalarning kapital qurilishi va rekonstruksiyasiga.

2. Ishlab chiqarish qurollari (mashina, uskunalar), ishchi hayvonlar sotib olinadi, shuningdek, mahsuldor hayvonlar podasi shakllantiriladi.

3. Yerni melioratsiyalash, ko'p yillik daraxtlarni o'tkazish, hosilga kirguncha o'stirish va boshqalar.

Bevosita qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ajratilgan pul vositalaridan tashqari, butun kompleks ishlar bo'yicha qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarflanadigan kapital qo'yimlar o'ziga quyidagi bir qator xarajatlarni oladi:

1. Davlat va jamoa xo'jaliklarini texnika bilan ta'minlaydigan korxonalar va tashkilotlar qurilishi uchun vositalar;

2. Qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot muassasalari qurilishiga;

3. Qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar barpo qilishga;

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa maqsadlarga.

**Qishloq va o'rmon xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi va salmog'i dinamikasining tahlili
(2005—2014-yillar) (mlrd so'm)***

Yillar	Jami investitsiya hajmi	Shu jumladan, qishloq va o'rmon xo'jaligida	
		hajmi	salmog'i, %
2005	3165,2	138,2	4,4
2006	4041,0	164,4	4,1
2007	5903,5	200,9	3,4
2008	9555,9	261,2	2,7
2009	12531,9	385,9	3,1
2010	15338,7	531,0	3,5
2011	17953,4	942,5	5,2
2012	22797,3	1089,2	4,8
2013	28694,6	1334,0	4,6
2014	35233,2	1445,5	4,1

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

2014-yilga kelib, jami investitsiyalarning umumiy hajmi keskin oshgan. Ya'ni bu davrga kelib, ularning hajmi 11,1 martaga oshgan, jumladan, shu davrda qishloq xo'jaligida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 138,2 mlrd so'mdan 1445,5 mlrd so'mga yoki 10 martadan ziyod oshgan. Qishloq va o'rmon xo'jaligining jami investitsiya hajmidagi salmog'i esa deyarli o'zgarmasdan qolgan.

9.2. Kapital qo'yilmalar tushunchasi, foydalanishning asosiy yo'nalishlari, tarkibi va moliyalashtirish manbalari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida harakatdagi asosiy vositalarning asta-sekin eskirishi, so'ngra esa hisobdan chiqarilishi ro'y beradi. Bu esa ularni oddiy yoki kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish kapital qo'yilmalar manbalari hisobiga amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalar deb harakatdagi asosiy vositalarni tiklashga va kengaytirishga yo'naltirilgan pul vositalariga aytiladi. Kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish kapital qo'yilmalarga mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar traktor, qishloq xo'jaligi mashinalari, ishchi va mahsuldor mollar, binolar va inshootlar, yo'l qurilishi va boshqalarga sarflanadi. Ishlab chiqarish kapital qo'yimlariga, iqtisodiy mohiyati bo'yicha, shuningdek, asosiy podani vujudga keltirish xarajatlari ham kiradi. Lekin mavjud hisob tizimida kapital qo'yilmalar tizimiga bu xarajatlar kirmaydi va alohida hisobga olinadi. Asosiy poda uchun kapital qo'yilmalar, asosan, brak qilingan, ishchi va mahsuldor hayvonlarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

2. Noishlab chiqarish kapital qo'yimlariga uy-joy qurilishi, madaniy-maishiy binolar va sog'liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlar kiradi.

Kapital qo'yilmalar — bu potensial asosiy vositalar bo'lib, ular ma'lum obyektlarni foydalanishga topshirilgandan keyin asosiy vositalarga aylanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda kapital qo'yimlardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1. O'simlikchilik va chorvachilik ishlab chiqarish binolari, ustaxonalar, uy-joy, madaniy-maishiy obyektlar va boshqalarning kapital qurilishi va rekonstruksiyasiga.

2. Ishlab chiqarish qurollari (mashina, uskunalar), ishchi hayvonlar sotib olinadi, shuningdek, mahsuldor hayvonlar podasi shakllantiriladi.

3. Yerni melioratsiyalash, ko'p yillik daraxtlarni o'tkazish, hosilga kirguncha o'stirish va boshqalar.

Bevosita qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ajratilgan pul vositalaridan tashqari, butun kompleks ishlar bo'yicha qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarflanadigan kapital qo'yilmalar o'ziga quyidagi bir qator xarajatlarni oladi:

1. Davlat va jamoa xo'jaliklarini texnika bilan ta'minlaydigan korxonalar va tashkilotlar qurilishi uchun vositalar;

2. Qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot muassasalari qurilishiga;

3. Qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar barpo qilishga;

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa maqsadlarga.

Ma'lum bir davrga mo'ljallangan kapital qo'yimlarning jami summasi kapital qo'yimlarning to'plamini tashkil qiladi (KQ). Kapital qo'yimlarning sig'imi (KQS) deganda 1 ga yer maydoniga (qishloq xo'jaligi yaroqli yeriga, haydaladigan yerga) to'g'ri keladigan kapital qo'yimlar summasi — (Yer) yoki 1 mol o'rni — (MO)ga to'g'ri kelgan kapital qo'yimlar summasi tushuniladi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$KQS = \frac{KQ}{Yer}; \quad KQS = \frac{KQ}{MO}.$$

Kapital qo'yimlarning miqdor va sifat xarakteristikasi ularning tarkibini, ya'ni u yoki bu unurning umumiy hajmdagi nisbatini aks ettiradi.

Kapital qo'yimlarning tarmoq, takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilishi mavjud. Kapital qo'yimlarning tarmoq tuzilishi qishloq xo'jaligida turli tarmoqlar yoki ishlab chiqarish turlari bo'yicha investitsiyalar nisbatini ifodalaydi. Takror ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan tuzilishi kapital qo'yimlarning turli yo'nalishlari bo'yicha foydalanish salmog'ini ifodalaydi. Texnologik tuzilish esa, uskunalarga, qurilish-montaj ishlariga va loyiha-qidiruv ishlariga foydalaniladigan kapital qo'yimlarning salmog'ini ifodalaydi.

Kapital qo'yimlarning tarkibiy tuzilishi:

I. Tarmoq tuzilishi:

1. Chorvachilik binolari qurilishi va jihozlash;
2. Suv xo'jaligi qurilishi;
3. Elektrlashtirish;
4. Bog'lar va boqqa ko'p yillik daraxtlar barpo qilish;
5. Traktorlar, mashina va uskunalar sotib olish;
6. Uy-joy va madaniy-maishiy qurilish.

II. Takror ishlab chiqarish tuzilishi:

1. Ishlab chiqarishni rekonstruksiyalash;
2. Mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish;
3. Yangi qurilish.

III. Texnologik tuzilishi:

1. Uskunalar;
2. Qurilish-montaj ishlari;
3. Loyiha-qidiruv ishlari;
4. Boshqa qo'yimlar.

Xo'jalik yuritishning barcha shakllari va qishloq xo'jaligi korxonalarining barcha turlari uchun umumiy ishlab chiqarishda mustaqillik va o'zini o'zi moliyalashtirishni taqozo qiladigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital qo'yimalarni moliyalashtirishning bosh manbai sifatida xususiy manbalar — asosiy vositalar amortizatsiyasi, foyda va boshqalar hisoblanadi. Bunda amortizatsiya ajratmalari oddiy takror ishlab chiqarish manbai sifatida, foyda esa ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbai sifatida tashkil topadi. Agar shu maqsadlarga xususiy vositalar yetmay qolsa, bank kreditlari jalb qilinadi.

Davlat qishloq xo'jaligi korxonalarida katta miqdordagi pul vositalarini asosiy podani tashkil qilishga sarflaydi. Mahsuldor va ish hayvonlari asosiy podasini tashkil qilish xarajatlari va moliyalashtirish manbai umumiy holda kapital qo'yimalarga qo'shilmaydi. Davlat korxonalarining podani tashkil qilish xarajatlari xususiy vositalari hisobiga moliyalashtiriladi: brak qilingan mollarni sotishdan kelgan tushum, ishchi hayvonlar amortizatsiyasi va boshqa manbalar. Agar bu mablag'lar korxonada yetishmasa, u holda moliyalashtirish bank kreditlari hisobiga amalga oshiriladi. Davlat qishloq xo'jaligi korxonalariga budjet vositalari faqat muhim maqsadlarni (yirik ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlariga, melioratsiyaga va boshqalarga) moliyalashtirishga ajratadi.

Jamoa xo'jaliklarida kapital qo'yimalarni moliyalashtirishning bosh manbai xususiy vositalardir. Unga amortizatsiya ajratmalari, voyaga yetgan mahsuldor va ishchi hayvonlarni sotishdan kelgan pul tushumi, xo'jalik o'rmonidan daraxt sotish, sof daromaddan ajratmalar, asosiy vositalar sug'urtasi qaytimi va boshqa manbalardir. Davlat xo'jaliklaridan farq qilgan holda jamoa xo'jaliklari xususiy mablag'lari yetmay qolganda kapital qo'yimalarni moliyalashtirish bankning faqat uzoq muddatli kreditlari orqali qoplanadi. Uzoq muddatli kredit miqdori kapital qo'yimalar xarajatining rejadagi hajmi va jamoa xo'jaligining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Xo'jaliklararo korxonalar va birlashmalarda kapital qo'yimalarni moliyalashtirish paychilar ajratgan vositalar hisobiga, amortizatsiya ajratmalari va birlashma hamda ularning kengashi ustavi aniqlagan miqdorda foydadan ajratmalar hisobiga amalga oshiriladi. Davlat korxonalarida, qishloq xo'jaligi kooperativlarida

va aksionerlik korxonalari va birlashmalarida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbai — ta'sischilarning pul va material badallari, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya)dan keladigan daromadlar, xayriya badallari, korxonalar, tashkilot va fuqarolarning ehsonlari hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi asosiy vositalarni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiradi. Ular zarur bo'lib qolganda, bankdan uzoq va qisqa muddatli ssudalarni davlat korxonalari amal qiladigan qoidalar asosida olish huquqiga egadir. Bundan tashqari, shaxsiy mol-mulkini garovga qo'yib, ipoteka banklarining kreditlaridan foydalanishadi.

9.3. Kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yimlarning iqtisodiy samaradorligi deganda, rejadagi yoki haqiqatdagi erishilgan samarani, shu samaraga erishishga olib kelgan kapital qo'yimlarga nisbati tushuniladi. Qishloq xo'jaligida kapital qo'yimlar iqtisodiy samaradorligini hisobga olish va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Qaysi maqsadda aniqlanishiga qarab, kapital qo'yimlarning umumiy (mutlaq) yoki taqqoslama iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Kapital qo'yimlarning umumiy (mutlaq) iqtisodiy samaradorligi kapital qo'yimlarning natijasini baholashda, shuningdek, rejalashtirishda va loyihalashtirishda, qaysiki sof mahsulot, sof daromad yoki foydani aniqlash imkoniyati bo'lganda hisoblaniladi.

Kapital qo'yimlar iqtisodiy samaradorligi umumiy (mutlaq) koeffitsiyenti, shuningdek, kapital qaytishi ko'rsatkichi ($Kqay.$), sof mahsulot, sof daromad yoki foydaning qo'shimcha o'sishini shu o'sishni ta'minlagan kapital qo'yimlarga nisbati bilan o'lchanadi:

$$Kqay. = \frac{SM : SD : F}{KQo'yil}$$

Kapital qo'yimlar, agarda olingan umumiy (absolut) samaradorlik koeffitsiyenti normatividan kam bo'lmasa, shuningdek, oldingi haqiqatdagidan kam bo'lmasa, samarali hisoblanadi. Kapital qo'yimlarning umumiy (mutlaq) samarador-

ligining teskari ko'rsatkichi ularning qoplash muddati hisoblanadi (QM) va kapital sig'imi ko'rsatkichi deyiladi:

$$QM = \frac{KQo'yil}{SM : SD : F}$$

Qoplash muddati, samaradorlikning teskari ko'rsatkichi bo'lganligi uchun u quyidagicha ham hisoblanadi:

$$QM = \frac{1}{Kqayt}$$

Kapital qo'yilmalar, boshqa barcha teng sharoitlarda qisqa muddatlarda qoplansa, u ancha samarali hisoblanadi. Masalan, 0,07 koeffitsiyenti kapital qo'yilmalarning 14 yilda qoplanishini bildiradi.

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, yerdan — bosh ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash bilan ham ifodalanishi mumkin. Shuning uchun kapital qo'yilmalarning umumiy (mutlaq) samaradorligini bilvosita ko'rsatkichi 1 ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerga yoki 1 ga haydaladigan yerga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining (qiymat shaklida) qo'shimcha o'sishi hisoblanadi:

$$KQayt = \frac{SM \cdot YM}{Q / X \text{ YY yoki HY}}$$

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalar umumiy (mutlaq) iqtisodiy samaradorligini, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga mehnat unumdorligining oshishi va mahsulot yoki bajarilgan ish tannarxining pasayishi bilan ham xarakterlanadi.

Mehnat xarajatlarining pasayishi quyidagicha aniqlanadi:

$$Absolut X = Xa - Xb;$$

$$Nisbiy X = \frac{Xa - Xb}{Xa} \cdot 100,$$

bu yerda, X — mehnat xarajatlarining pasayishi, k/s, %; Xa — kapital qo'yilmagacha mehnat xarajati, k/s; Xb — kapital qo'yilmadan keyingi mehnat xarajati, k/s.

Mahsulot va bajarilgan ish tannarxining pasayishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Absolut } T = Ta - Tb;$$

$$\text{Nisbiy } T = \frac{Ta - Tb}{Ta} \cdot 100,$$

bu yerda, T — tannarxning pasayishi, so‘m; Ta — kapital qo‘yilmagacha tannarx, so‘m; Tb — kapital qo‘yilmadan keyingi tannarx, so‘m.

Kapital qo‘yilmalarning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi xo‘jalik bir qancha variantlarini, yangi texnikani joriy qilishni, harakatdagi korxonalar yoki alohida inshootlarni rekonstruksiya qilish yoki yangisini qurishni taqqoslashda ishlatiladi. Kapital qo‘yilmaning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi eng qulay variantda keltirilgan xarajat miqdori ko‘rinishida hisoblanadi:

$$KX = X + KQ \cdot MK,$$

bu yerda, X — joriy ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx), so‘m; MK — kapital qo‘yilmalar samaradorligining me‘yoriy koeffitsiyenti.

Keltirilgan xarajatlarning o‘z ichiga joriy ishlab chiqarish xarajatlarini va kapital qo‘yilmalar taqqoslama iqtisodiy samaradorligi bir xil miqdorda yagona me‘yoriy koeffitsiyent orqali keltirilgan kapital qo‘yilmalarni oladi. Qishloq xo‘jaligi uchun kapital qo‘yilmalarning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi me‘yoriy koeffitsiyenti 0,12 ga teng deb tavsiya qilingan, o‘simlikchilik uchun 0,20, chorvachilik uchun 0,08. Bu shuni bildiradiki, mahsulot tannarxi pasayishidan qilingan tejam 1 so‘mlik qo‘shimcha kapital qo‘yilmaga mos ravishda 12; 20 va 8 tiyindan kam bo‘lmasligi kerak.

Taqqoslanayotgan variantlarda keltirilgan xarajatlarning summasi qancha oz bo‘lsa, boshqa barcha teng sharoitlarda kapital qo‘yilma shuncha samarali bo‘ladi.

Quyidagi misolda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi:

	<i>I variant</i>	<i>II variant</i>
T	— 8,800 m.s;	— 10,560 m.s;
KK	— 26,400 m.s;	— 17,600 m.s;
MK	— 0,12;	— 0,12.

I variant: $KX = 8,800 + 26,400 \cdot 0,12 = 8,800 + 3,168 = 11,968$ ming so‘m;

II variant: $KX = 10,560 + 17,600 \cdot 0,12 = 10,560 + 2,112 = 12,672$ ming so‘m.

Misoldan shu narsa ko'rinib turibdiki, boshqa teng sharoitlarda I variant garchi, u 1,5 baravar ko'p kapital qo'yilma talab qilsa ham ancha samarali. Keltirilgan xarajat I variantda 11,698 ming so'm, II variantda esa 12,672 ming so'm bo'lar ekan.

9.4. Yangi mashinalarni iqtisodiy baholash usuli va ko'rsatkichlari

O'z vaqtida qishloq xo'jaligi texnikasini takror ishlab chiqarish, ancha yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichga ega bo'lgan yangi mashinadan foydalanishni kengaytirish — qishloq xo'jaligida texnika siyosatini amalga oshirishning asosiy masalalaridan biri. Yangi texnika yaratishdagi ishda bosh yo'nalish har bir tabiiy-iqtisodiy zonada ish sharoitini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalashtirish uchun yuqori unumli, iqtisodiy va ishonchli mashinalar ishlab chiqarishdir.

Qishloq xo'jaligida yangi texnikani joriy qilishning ma'lum tartibi o'rnatilgan va harakat qilmoqda. Mashinalarning yangi konstruksiyasi va tajriba namunalari, asosan, maxsus konstruktorlik byurolarida, ilmiy-tadqiqot institutlarida, tajriba stansiyalarida va boshqa korxonalarda ishlab chiqiladi. Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy qilishdan oldin u davlat, ma'muriy va xo'jaliklarda sinaladi. Sinovdan yaxshi o'tgan mashinalar ishlab chiqarishga joriy qilinadi.

Ancha takomillashgan mashinani almashtirishning iqtisodiy samaradorligi mehnat unumdorligining o'sishida, mahsulot (ish, xizmat) tannarxining pasayishida, ishlarni qulay muddatda amalga oshirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda o'z ifodasini topadi. Bu hamma omillar qishloq xo'jaligi texnikasini baholashda hisobga olinadi. Yangi texnikadan foydalanishdan olingan yillik iqtisodiy samara (taklif etilayotgan, kutilayotgan, rejalashtirilgan, haqiqatdagi) keltirilgan xarajat tejami bo'yicha va quyidagicha aniqlanadi:

$$YS = (Tb + MK \cdot KKSb) - (Tya + MK \cdot KKSya) \cdot Kxyat,$$

bu yerda, YS — yillik iqtisodiy samara, so'm; Tb , Tya — mahsulot (ish, xizmat)lar birligi tannarxi, baza va yangi variantda, so'm; $KKSb$, $KKSya$ — kapital qo'yilmalarning baza va yangi variantdagi (mahsulot birligi hisobida) salmog'i, so'm; MK — kapital qo'yilmalar samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti 0,15 ga teng; $Kxyat$ — hisoblangan yilda yangi texnikani joriy qilish hajmi.

Agar yangi texnika natijalarini foydalanishda ishlab chiqariladigan mahsulot sifati o'zgarsa (ancha yuqori xarid narxi sharoitida), unda yillik iqtisodiy samara mahsulotning, yalpi foydaning qo'shimcha o'sishini hisobga olib aniqlanadi:

$$YS = (Tb + MK \cdot KKSb) - (Tya + MK \cdot KKSya) \cdot (Nya - Nb) \cdot Kxyat,$$

bu yerda, Nya va Nb — yangi va baza variantida mahsulot birligining xarid narxi, so'm.

Yuqori sifatli mahsulot sotishning yillik iqtisodiy samarasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$YS = (FQO' - MK \cdot KKSya) \cdot Kxyat,$$

bu yerda, FQO' — yuqori sifatli va ilgari mahsulotni sotishdan kelgan foydaning qo'shimcha o'sishi, so'm.

9.5. Kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yimlar samaradorligini oshirishning foydalanilmagan anchagina imkoniyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Kapital qo'yilmaning kompleksligini va proporsionalligini ta'minlash — o'simlikchilikda qishloq xo'jaligi texnikasiga, yerlarni melioratsiyalashga, dehqonchilikni kimyolashtirishga mablag'ni uyg'unlashtirish zarur. Chorvachilikda bino va inshootlarni qurish xarajatlarini asosiy sermahsul podani yaratish, shuningdek, kompleks mexanizatsiyani joriy qilish xarajatlari bilan qo'shib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, meliorativ tadbirlar hisobiga oziqa bazasini yaxshilash, oziqa sexlari va omuxta yem zavodlari va sexlari qurilishi bilan bog'lash zarur;

2. Vositalarni sarflash va iqtisodiy samara olish o'rtasidagi vaqtni, farqni qisqartirish, ayniqsa, kapital qurilishda. Qishloq xo'jaligida qurilishda kapital qo'yimlar hajmi yildan yilga o'sib boradi va bir vaqtning o'zida tugallanmagan qurilish hajmi ko'payadi. Buning asosiy sabablaridan biri qurilishlar muddatining cho'zilib ketishi. Hozir qishloq xo'jaligi obyektlari qurilishining o'rtacha me'yoriy muddati 3,5 yilni tashkil etadi;

3. Mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish, tejamkorlik rejimiga qattiq rioya qilish, shuningdek, qurilish-montaj ishlarini

yuritishning ilg'or metodlaridan foydalanish hisobiga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish kapital qurilishining tejamkorligini oshirish;

4. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari xususiyatlariga qarab, harakatdagi asosiy vositalarning rekonstruksiyasiga investitsiyani ko'paytirish. Rekonstruksiyaga ketgan xarajatlar yangi qurilishga tashlangan mablag'larga qaraganda 2—2,5 marta tezroq qoplanadi, bunda asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi muddati 10—15 yilga suriladi;

5. Qurilishdagi kapital qo'yimlarni kerakli mehnat va moddiy resurslar bilan, ayniqsa, qurilish materiallari bilan to'la ta'minlash;

6. Xo'jalik hisobi munosabatlaridan foydalanish asosida kapital qurilish muddatlarining qisqarishi va qurilish-montaj ishlaridagi tejamkorlik hamda sifatni oshirish uchun xodimlar moddiy manfaatdorligi;

7. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini va chorva mollari mahsuldorligini oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Kapital qo'yimlar, investitsiya, moliyalashtirish, kapital qurilish, kapital sig'imi, qoplash muddati, iqtisodiy samaradorlik, absolut samaradorlik, nisbiy samaradorlik, xarajatlarning pasayishi, tannarxning pasayishi, keltirilgan xarajat.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kapital qo'yimlar deb nimaga aytiladi?
2. Kapital qo'yimlarning manbalari nimalar?
3. Kapital qo'yimlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi roli.
4. Kapital qo'yimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari.
5. Kapital qo'yimlarning samaradorligini oshirish omillari va imkoniyatlari.

10-bob.

QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQA- RISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING UMUMIY MASALALARI. RENTABELLIK VA UNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

10.1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi, uning ko'rsatkichlari va mezonlari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichdagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Bir tomonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish oziq-ovqat va xom-ashyoga bo'lgan talabning o'sib borishi va qiyinlashishi, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Boshqa tomondan, hozirgi davrdagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Mamlakatda to'plangan iqtisodiy salohiyat, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning faolligi, ularning tajribasi, shuningdek, yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy qiziqishining o'sishi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytiradi va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilganda, «samara» va «samaradorlik» tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» atamasi qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi — ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga

ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan — ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara» — qishloq xo'jaligi mahsulotlari shaklida (natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda sohasida esa iqtisodiy, shuningdek, xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi ijtimoiy o'sish bo'lishi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs (xarajat)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurs (xarajat)lar turli samara berishi mumkin. Shuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurs (xarajat)lar bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, samara (natija) deb atalgan mutlaq miqdor bilan bir qatorda yana bir mutlaq miqdor — qo'llanilgan yoki iste'mol qilingan resurslar (joriy ishlab chiqarish xarajatlari)ning hajmini bilish zarur.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samara (natija)ning resurslar (xarajatlar)ga nisbati yoki aksincha usul bilan aniqlanadi:

$$I_s = \frac{S(n)}{R(x)}; \quad I_s = \frac{R(x)}{S(n)}$$

Samaradorlik tushunchasi keng qamrovli, murakkab va turlicha bayon qilish ko'rinishlariga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlari tizimi ko'plab xorijiy va o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilgan va tahlil etilgan. AQSH olimlari K. Makkonnell va S. Bryularning fikricha, «iqtisodiy samaradorlik... ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan kamyob resurslar miqdori bilan ushbu jarayon pirovard natijasida ishlab chiqilgan qandaydir iste'mol mahsuloti o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi»¹. Berilgan hajmda xarajat hisobiga olingan mahsulot miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha.

¹ K.P. Макконнелл, С.Л. Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. Пер. с англ. Таллин, 1993, стр. 38–39.

G'arb davlatlari agrar iqtisodchilari, ingliz olimlari David Kolman va Trevor Yang texnik, resurslarni taqsimlashning samaradorligi va iqtisodiy samaradorlik atamalarini farqlaydilar. Ularning fikricha «... texnik samaradorlik ma'lum bir hajmdagi xarajatlar hisobiga maksimal miqdorda mahsulot olish bo'lsa, resurslarni taqsimlashning samaradorligi esa mavjud omillar va sarflanadigan xarajatlar miqdori ishlab chiqaruvchi foydasini maksimal darajada ta'minlovchi mutanosiblikda qo'llanilishini ko'zda tutadi»¹. Iqtisodiy samaradorlik bu ikki samaradorlikni umumlashtiruvchi tushuncha bo'lib, matematik ko'rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$I_s = T_s \cdot R T_s,$$

bu yerda, I_s — iqtisodiy samaradorlik; T_s — texnik samaradorlik; $R T_s$ — resurslarni taqsimlashning samaradorligi.

Kaliforniya shtati universiteti professori Rojer Arnoldning fikricha, «Samaradorlikka marjinal daromadlar marjinal xarajatlarga teng bo'lganda erishiladi»².

AQSH olimlari K. Makkonnell va S. Bryular ikki turdagi samaradorlikni farqlashadi: ishlab chiqarish samaradorligi va resurslarni taqsimlashning samaradorligi: «Ishlab chiqarish samaradorligi bu ma'lum bir mutanosiblikdagi tovar va xizmatlar miqdorini eng kam xarajat bilan ishlab chiqarishdir... Resurslarni taqsimlashning samaradorligi esa aksincha, jamiyatning tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining to'laroq qondirilishini ifodalaydi»³. Ya'ni resurslarni taqsimlashning samaradorligi nazariyasiga ko'ra, birinchi o'rinda resurslar tejami emas, balki jamiyatning ma'lum turdagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talabining qondirilishi yotadi.

Edvin J. Dolan va Devid Y. Lindseylar ishlab chiqarish samaradorligi haqida ham fikr yuritishib, uni: «Mavjud bilim darajasi va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanib, boshqa bir nechta mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yo'qotmasdan,

¹ David Colman, Trevor Young. Principles of Agricultural Economics: Markets and prices in less developed countries. Cambridge, United Kingdom: Cambridge University Press, 2002.

² Roger A. Arnold. Microeconomics, 6 e. Thomson, South-Western, USA, 2004, p. 8–9.

³ R. C. McConnell, Stanley L. Brue. Microeconomics: Principles, Problems, and Policies. —15th ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill/Irwin, 2002.

eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish jarayonidir»¹ deb tushuntiradilar.

Ular bu ta'rifda samaradorlikni oshirishni, ixtisoslashtirish bilan mustahkam bog'lab olib borishni nazarda tutganlar. Agar asosiy mahsulot deb olinadigan mahsulot muhim ahamiyat kasb etadigan bo'lsa, albatta, qo'shimcha va yordamchi mahsulotning ham ahamiyati yo'qolmaydi. Agar boshqa mahsulotlar ham asosiy mahsulot bilan tenglasha oladigan darajada ahamiyatli bo'lsa, u holda eng samaralirog'ini yetishtirish bilan shug'ullanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bir qator iqtisodchilar (A. O'lmasov, M. Sharifxo'jayev, I.Y. Petrenko, P.I. Chujinov) «Ishlab chiqarish samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlari bilan olingan natijaning o'zaro nisbatidir»² deb, «Yer maydoni birligi hisobiga olingan mahsulotni, yer sifatini va tejamkorligini yo'qotmagan holda ko'paytirib borishdir»³ deb ta'kidlashgan.

Bu fikrlar, samaradorlikning ta'rifidan kelib chiqqan fikrlar bo'lib, aslida gap shu olingan natijaning qanday qilib va qanday xarajatlar va qanday resurslar evaziga hosil bo'lishini tahlil qilishdadir.

Samaradorlik to'g'risida shug'ullangan ba'zi xorijlik iqtisodchilar (Robert Pindyak, Daniyel Rubinfeld, V.F. Maksimova) resurslar adolatli taqsimlangandagina eng yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ta'kidlashgan⁴. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida, ya'ni raqobat mavjud bo'lgan sharoitda, resurslarni adolatli taqsimlash va uni qayta taqsimlash masalasi ancha murakkab jarayon bo'lib, asosiy maqsadga mavjud, cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish orqaligina erishiladi.

Rus olimi N.A. Popov⁵ samaradorlikni olingan natija bilan ushbu natijani olishda sarflangan xarajatlar nisbati bilan ta'riflaydi.

¹ Э. Долан, Д. Линдсей. Рынок. Микроэкономическая модель. Санкт-Петербург, 1992, стр. 12.

² А. О'лмасов, М. Шарифхо'jayев. Иqtisodiyot nazariyasi. Т., «Mehnat», 1995.

³ И.Я. Петренко, П.И. Чужинев. Экономика сельскохозяйственного производства. Алма-Ата, «Кайнар», стр. 325.

⁴ R. Pindyak, D. Rubinfeld. Mikroiqtisod (inglizchadan tarjima). Т., «Sharq», 2002, 390-bet; В.Ф. Максимова. Микроэкономика. М., «Соминтэк», 1996, стр. 208.

⁵ Н.А. Попов. Экономика сельского хозяйства. М., «Дело и сервис», 2001.

Uning fikricha, iqtisodiy samaradorlik ta'rifidan quyidagi ikki vazifani keltirib chiqarish mumkin: to'g'ri — berilgan xarajatlar darajasida maksimal samaraga erishish (ko'pincha resurslarning cheklanganligi bilan izohlanadi) va teskari — belgilangan samaraga minimal xarajatlar hisobiga erishish. Har bir korxonada o'z sharoitlaridan kelib chiqib, u yoki bu vazifani yechishi lozim bo'ladi.

A. Abdug'aniyev «samaradorlik» va «iqtisodiy samaradorlik» tushunchalarini quyidagicha ta'riflaydi: «... «iqtisodiy samaradorlik» tushunchasi «samaradorlik» tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlikda bir yil davomida (ma'lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog'liq xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evaziga olingan sof foyda miqdori qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samaradorlikni esa u yoki bu tadbirlarni, ishlarni, mahsulotlarni yetishtirish natijasida erishilgan yutuqlar ifodalaydi»¹.

Bu kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir degan ma'noni bildiradi.

Olimlarning samaradorlik tushunchasiga oid yuqoridagi fikrlariga ma'lum darajada qo'shilgan holda quyida o'z tushunchalarimizni beramiz. Samaradorlik — bu aniq maqsadni hal etish uchun ma'lum muddatda (1 yilda) sarflangan moddiy, mehnat, mablag' shaklidagi xarajatlarning (pul shaklida) 1 so'mi evaziga yaratilgan yalpi ichki mahsulot (mamlakat, majmua, tarmoq miqyosida) va olingan sof foyda (korxonada, yo'nalish, mahsulot doirasida)ning in'ikosidir.

Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday bahodagi resurslar hisobiga iqtisodiy samaraga erishilganligini bildiradi. Samara qancha katta va xarajat shuncha kichkina bo'lsa, ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi shuncha katta bo'ladi va aksincha. Resurslar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida ma'lum bir uzviy aloqa mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lishi mumkin: jonli va buyumlashgan. Jonli mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning mutlaq miqdori resurs (xarajat)lar sifatida, ular miqdorining

¹ A.A. Abdug'aniyev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T., 2004, 256-bet.

kamayishi va ularni tejash — iqtisodiy samara shaklida ko‘rinadi. Yoki boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy samaradorlik ta‘rifidan ikki asosiy vazifani keltirib chiqarish mumkin: bevosita — ma‘lum bir xarajatlar hisobiga maksimal darajada samara olish (ko‘pincha resurslarning cheklanganligi bilan ifodalanadi) va bilvosita — belgilangan samaraga minimal xarajatlar bilan erishish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining mohiyati, uning mezonini va ko‘rsatkichlari orqali ochiladi. Mezonning ilmiy tushunchasi ma‘lum bir belgi, baho o‘lchovini ifodalaydigan asosiy sifati, uning muhim xossasidir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining mezonini jamiyatga kerak bo‘lgan yer maydoni birligidan chiqadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining olinishi va shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tejamliligi va yuqori sifatini ta‘minlash, pirovard natijada resurs birligi hisobiga ko‘proq sof mahsulot va sof foyda olishdir.

Ko‘rsatilgan mezon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining maqsadiga — tarmoq mahsulotiga aholining o‘sib borayotgan talabini to‘laroq qondirishga javob beradi va uning yutuqlari yo‘lini — ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va intensivlashtirish asosida tizimli ravishda ishlab chiqarishni yuksaltirishni aniqlab beradi. Shu bilan birga bu mezonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyati, eng avvalo, yer resurslari bilan mustahkam aloqasi aks etadi.

Xalq xo‘jaligi samaradorligi oziq-ovqatga bo‘lgan iste‘molini qondirish, sanoatning xomashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, tarmoqni umumdavlat, xalq xo‘jaligi topshiriqlari va muammolarini hal qilishda moliyaviy hissasi nuqtayi nazaridan baholanadi. Tarmoq samaradorligi resurslar salohiyatidan foydalanishda, xalq xo‘jaligining shu tarmog‘ida samara (natija) va resurs (xarajat) o‘rtasidagi erishilgan nisbatning natijasini aks ettiradi.

Qishloq xo‘jaligida samara va resurslarning bosqich darajasiga qarab, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi turlarga bo‘linadi: qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligi, davlat, kooperativ korxonalar, ijara jamoalari, dehqon xo‘jaliklari samaradorligi, ayrim qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va mahsulotlari samaradorligi, alohida ishlab chiqarish resurslari, shuningdek,

alohida xo'jalik tadbirlari agrotexnik, zootexnik, veterinariya, texnika, iqtisodiy tashkiliy munosabatlar va boshqalarning samaradorligi aniqlanadi.

Davlat va kooperativ korxonalar, ijara jamoalari, dehqon xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi korxonada darajasidagi samaradorlik bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish samaradorligi dehqonchilik, chorvachilik va shu tarmoqlar mahsulotlari — g'alla, paxta, kartoshka, sabzavot, go'sht, sut, tuxum va boshqalarning pirovard iqtisodiy natijalarini xarakterlaydi.

Alohida ishlab chiqarish resurslari — bu yer, suv, mehnat va moddiy resurslar samaradorligidir.

Yangi sharoitda, ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan turli xo'jalik tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ancha muhim hisoblanadi. Bunday tadbirlar jumlasiga ekin maydonlarining turli tarkibi, qishloq xo'jaligining yangi navlari, ilg'or texnologiya va alohida agrotexnik tadbirlar (tuproqni ishlash, ekish, hosilni yig'ish va boshqa usullar), hayvonlarning yangi zoti, poda tarkibi, oziqlantirish ratsioni va boshqalarning samaradorligi kiradi.

Shu bilan birga, kishilarning iste'molini qondirish darajasi ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat miqdoriga emas, balki sifatiga ham bog'liq. Mahsulot sifatini yaxshilash bir tomondan oziq-ovqat mahsulotlari miqdorining ko'payganligini bildirsa, qayta ishlash sanoati uchun qishloq xo'jaligi xomashyosi sifatining yaxshilanishi aholining turli xil iste'mol buyumlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirishga imkon yaratadi.

Demak, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bir tomondan ishlab chiqarish resurslari va samara (natija) o'rtasidagi nisbatni va boshqa tomondan, joriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan natija o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligining ikkita konsepsiyasini — resurs va xarajat — vujudga keltiradi.

Resurs konsepsiyasi — takror ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, xarajatlar konsepsiyasi — shu resurslarning iste'mol qilingan qismi samaradorligini baholashga imkon beradi. Maqsadga qarab resurs yoki xarajatlar konsepsiyasi yoki ikkalasidan ham bir

vaqtda foydalanish mumkin. Resurslar konsepsiyasida ham, xarajatlar konsepsiyasida ham samaradorlikning asosida sof foyda yotadi. Bu haqda rentabellik bobida fikr yuritiladi.

10.2. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini aniqlashda obyektiv iqtisodiy qonunlarning moddiy ishlab chiqarishning shu tarmog'ida ko'rinish shakllarini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar tizimining amaliy ahamiyati, ishlab chiqarish resurslari samaradorligini umumlashgan holda aks ettirishdan, ya'ni uning mezoni mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanib aniqlashdan iborat.

Ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini asoslash, turli xarakterda iqtisodiy samarani o'lchash hamda turli xarakterdagi resurslar va xarajatlarni o'lchash sifatida ham zarurdir. Ular o'zining iqtisodiy tabiati bilan ham va har doim ham taqqoslab bo'lmazligi bilan ham farq qiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari xususiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga bo'linadi. Xususiy ko'rsatkichlarga mahsulot hajmi va mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, yer qaytimi, fond qaytimi, material qaytimi, mahsulot tannarxi va shularga teskari ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar natija sifatida, sanoatning xomashyoga, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini ancha to'laroq qondirishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadini ancha to'laroq aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, umumiy samara faqat ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan emas, balki qo'yilgan maqsadga bog'liq holda boshqa hajm ko'rsatkichlarga ham ega. Masalan, yalpi mahsulot ishlab chiqarish samarasini bosh vazifa — iste'mol qiymat yaratish nuqtayi nazaridan; tovar mahsulot — qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ijtimoiy ehtiyojni qondirish nuqtayi nazaridan; sof mahsulot (yalpi daromad) — takror ishlab chiqarishning ikki tomoni — iste'mol va jamg'arish birligida ishlab chiqarish samaradorligini hisoblash uchun; foyda va sof daromad — ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqaruvchilarning iste'mol qiymatiga bo'lgan manfaatini qondirish nuqtayi nazaridan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi yoki mehnat qaytimi ma'lum vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga sarflangan jami mehnat xarajatlarining samaradorligini xarakterlaydi. Yer qaytimi qishloq xo'jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Fond qaytimi qishloq xo'jaligiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalarida mujassamlashgan, buyumlashgan mehnat xarajatlardan qay darajada samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi. Material qaytimi barcha turdagi moddiy resurslardan, shu jumladan, buyumlashgan mehnat xarajatlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Mahsulot birligi tannarxi umumlashgan holatda jami iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini xarakterlaydi, qishloq xo'jaligi mahsuloti qanday darajadagi xarajatlar hisobiga ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi.

Alohida resurslar va xarajatlardan foydalanishni xarakterlaydigan bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mutlaq samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridir. Masalan, asosiy fond qaytimida, alohida traktor, kombayn, mahsuldor hayvonlar va boshqa; aylanma fond qaytimida, alohida urug'dan foydalanish, yem-xashak, yoqilg'i-moylash materiallaridan foydalanish bo'yicha ham o'rganiladi. Demak, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bir tomondan ishlab chiqarish resurslari va samara (natija) o'rtasidagi nisbatni va boshqa tomondan, joriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan samara o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligining ikkita — resurs va xarajat konsepsiyasini vujudga keltiradi. Resurs konsepsiyasi — takror ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, xarajatlar konsepsiyasi — shu resurslarning iste'mol qilingan qismi samaradorligini baholashga imkon beradi. Maqsadga qarab resurs yoki xarajatlar konsepsiyasi yoki ikkovidan ham bir vaqtda foydalanish mumkin.

Qabul qilingan samaradorlikning konsepsiyalariga mos ravishda quyidagi ko'rsatkichlar ham aniqlanadi: 1 xodimga, 1 kishi/soatiga, 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga, 100 so'mlik asosiy vositalarga, 100 so'mlik aylanma vositalarga to'g'ri kelgan samara qo'llanilgan resurslardan foydalanishning samaradorligini

xarakterlaydi. 100 soʻmlik ish haqiga, amortizatsiya ajratmasiga, moddiy aylanma vositalariga hamda mahsulot tannarxiga toʻgʻri kelgan samara mahsulot tannarxiga kiritilgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlar samaradorligini ifodalaydi.

Keltirilgan xususiy koʻrsatkichlar, maʼlumki, umumiy samara (natijani)ni alohida ishlab chiqarish resurslari xarajat turi miqdoriga nisbatini aniqlaydi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida alohida resurs (xarajat)lar qatnashadi. Demak, har bir resurs (xarajat) umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida ishtirok etadi. Bu uslubiy jihatdan maʼlum darajada xato boʻlsa ham, umumiy samara ana shu ishlab chiqarish resurslarining birgalikdagi faoliyatining natijasidir. Shuning uchun ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama va aniq baholash uchun, alohida usulda hisoblanadigan koʻrsatkichlarni, har bir ishlab chiqarish resursining umumiy samarani yaratishdagi rolini va ularning ishlab chiqarish pirovard natijasiga taʼsirini hisobga oladigan koʻrsatkichlar bilan toʻldirish lozim. Buning uchun elastiklik, determinatsiya koeffitsiyetlaridan, shuningdek, iqtisodiy-matematik modeldan foydalanish kerak boʻladi.

Hisoblash har qancha murakkab boʻlsa ham, bitta umumlashtiruvchi shunday koʻrsatkich kerakki, u qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy jihatdan toʻliq baholaydigan boʻlsin. Bu vazifani bajarish uchun umumlashtiruvchi koʻrsatkich maʼlum bir talablarga javob berishi kerak:

1. U ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqishi kerak;

2. U ishlab chiqarishning pirovard natijasini jami resurslar yoki jami xarajatlar bilan taqqoslashni taʼminlaydigan koʻp omilli boʻlishi kerak;

3. Bu koʻrsatkich samaradorlikni qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining turli darajalarida, ijara jamoalaridan boshlab, bir butun qishloq xoʻjaligi boʻyicha ochib berishi kerak;

4. Bu koʻrsatkich bilan hisoblash uslubiy jihatdan oddiy va qulay boʻlishi kerak.

Yuqorida bayon qilingan, ishlab chiqarish samara (natija)si va ishlab chiqarish resurs (xarajat)lari toʻgʻrisidagi asosiy metodologik sharoitlarga mos, shuningdek, qishloq xoʻjaligi ishlab

chiqarishi iqtisodiy samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichga bo'lgan talabni hisobga oladigan ko'rsatkich resurs qaytimi (resurs sig'imi) hisoblanadi. U qo'llanilgan resurslar salohiyatidan foydalanishning samaradorligini xarakterlaydi. Xarajatlar konsepsiyasi samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi — rentabellik hisoblanadi va iste'mol qilingan resurslarning qaytimini ifodalaydi.

10.3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'p bo'lib, turli-tuman omillar va sharoitlar ta'siri ostida shakllanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining qiyinligi shundan iboratki, bu omillar bir-biridan alohida mustaqil harakat qilmaydi. Ular bir-biri bilan mustahkam aloqada, bir-biri bilan bog'liq. Bu omillarni uchta aspektda o'rganish tavsiya etiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish omillari:

I. Resurslar va xarajatlar bo'yicha:

1. Mehnat sig'imi;
2. Yer sig'imi;
3. Fond sig'imi;
4. Material sig'imi.


II. Vujudga kelishining asosiy yo'nalishlari:

1. Texnologiya;
2. Ixtisoslashtirish va konsentratsiya;
3. Mehnatni tashkil qilish va mehnat haqi;
4. FTT va ilg'or tajriba;
5. Xo'jalik hisobi va ijara.

III. Xo'jalik yuritish darajasi bo'yicha:


1. Xalq xo'jaligi;
2. Tarmoq;
3. Ichki xo'jalik.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi resurslar salohiyatining sifat omillari ham mavjud bo'lib, quyidagi chizmada ko'rsatilgan.



8-chizma. Resurslar salohiyatining sifat omillari

Ishlab chiqarish munosabatlari nuqtayi nazaridan samaradorlikning muhim omili, bu kishilarni unumli mehnatga undovchi va bozor munosabatlarini rivojlantirishga bo'lgan motivlari hisoblanadi, ularni quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



9-chizma. Qishloq xo'jaligida samaradorlikning motivlari.

Ma'lumki, sof daromad va foyda ikki xil iqtisodiy kategoriyadir. Agar sof daromad vujudga kelgan barcha qo'shimcha mahsulot qiymatini ifodalasa, foyda tovar mahsulotini sotishdan olingan qisminigina ifodalaydi. Sof daromadning bir qismi baho va soliq siyosati va har xil to'lovlar orqali davlat va mahalliy budjetlarga borib tushadi va umumxalq ehtiyojlari uchun ishlatiladi.

Foyda — sotilgan tovar mahsulotidan tushgan pul mablag'idan shu mahsulotni to'la ishlab chiqarish xarajatlarini (markazlashgan to'lovlar ham shunga kiradi) chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Samaradorlikning eng muhim qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

$$1. S = \frac{YM}{IX + Ye \cdot AF},$$

bu yerda, S — samaradorlik; YM — yalpi mahsulot; IX — ishlab chiqarish xarajatlari; Ye — 0,15 asosiy fondlar iqtisodiy samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti; AF — asosiy fondlar.

$$2. S = \frac{YD}{IX + Ye \cdot AF}; \quad 3. S = \frac{SD}{IX + Ye \cdot AF};$$

$$4. S = \frac{F}{IX + Ye \cdot AF}.$$

2. Mehnat unumdorligi:

$$1. S = \frac{YM}{MS \text{ yoki } XS}; \quad 2. S = \frac{YD}{MS \text{ yoki } XS};$$

$$3. S = \frac{SD}{MS \text{ yoki } XS},$$

bu yerda, MS — mehnat sig'imi; XS — xodimlar soni.

3. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

$$S = \frac{YM}{EKMay}; \quad S = \frac{YD}{EKMay}; \quad S = \frac{SD}{EKMay}; \quad S = \frac{F}{EKMay}.$$

4. Fondlardan foydalanish samaradorligi:

$$FK = \frac{YM}{AF}; \quad FS = \frac{AF}{YM}.$$

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish har bir so'm xarajatga va qo'llanilgan resurslarga ko'proq mahsulot hamda foyda olish demakdir. Bu esa butun xalq xo'jaligi uchun ham, qishloq xo'jaligi uchun ham katta ahamiyatga ega:

1. Mahsulot birligiga mehnat va resurslar qancha kam sarflansa, mavjud resurslardan ko'proq mahsulot olinadi va ular arzon bo'ladi.

2. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish katta iqtisodiy samara beradi. Agar respublika bo'yicha mehnat unumdorligi 1 % ga oshirilsa, hisob-kitoblarga qaraganda bir yilda qo'shimcha 0,3 mlrd so'mlik yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti olinadi. Shuningdek, mahsulot tannarxini 1 % ga tushirish ham taxminan 0,2 mlrd so'mlik yalpi foyda keltiradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining samaradorligini 1 % ga oshirish esa 0,6 mlrd so'mlik kapital qo'yilmani kamaytiradi.

3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi qishloq xo'jaligi xomashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat va keng iste'mol buyumlariga qo'yiladigan baholarning darajalariga ham bog'liq. Chunki xarajat kam bo'lsa, erkin baholar ham bozorda pastroq bo'ladi.

4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xo'jaliklar daromadining ko'payishiga va rentabellikning oshishiga olib keladi.

Qancha ko'p sifatlil va arzon mahsulot ishlab chiqarilsa va sotilsa, ishlab chiqaruvchilarning daromadi shuncha ko'payadi, ko'proq ishlab chiqarishni rivojlantirishga, mehnat haqini oshirishga va madaniy-maishiy sharoitlarga mablag' ajratiladi.

10.4. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslublari

Korxonalarining foydalilik yoki zararlilik darajasini belgilash uchun rentabellik ko'rsatkichidan foydalaniladi. Rentabellik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini o'zida aks ettiruvchi umumlashgan ko'rsatkich hisoblanadi. U foydalanilgan va iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslari — mehnat, yer-suv, moddiy hamda ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish xarajatlari orqali yetishtirilgan mahsulotdan olingan samaraning miqdor va sifatini, ishlab chiqarishni kengaytirilgan tarzda rivojlantirish imkoniyatini, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy manfaatdorligini aks ettiradi.

Rentabellikda mutlaq ko'rsatkich — bu foydadir. Birinchi bobda ta'kidlanganidek, resurslar konsepsiyasida ham, xarajatlar konsepsiyasida ham samaradorlikning asosida sof foyda yotadi. Shuning uchun quyida sof foyda to'g'risidagi olimlarning ba'zi bir fikrlarini keltiramiz. Klassik iqtisodchilar iqtisodiy toifalar, iqtisodiy atamalar ichida foydadek ko'p tortishuvga sabab bo'ladigan masalaning yo'qligini ta'kidlashadi. Shuning uchun foydaning miqdorini aniqlash, uning tarkibiga nimalar qo'shiladi yoki ajratib tashlanadi, o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

«Yalpi foydadan sof foydani keltirib chiqarish uchun nimalarni ajratish kerak?» degan savolning qo'yilishi, ko'pgina qarama-qarshi javoblarni keltirib chiqaradiki, bunda buxgalteriya amaliyotida «foyda» atamasidan voz kechish va uning o'rniga «operatsion tushum» yoki «dividendlarni to'lash uchun yetarli daromad» kabi ifodalardan foydalanish tendensiyasi kuzatiladi...»¹.

Foydani ijtimoiy daromadning bir qismi sifatida qaraydigan klassik iqtisodchilar, uni jamiyatning uch sinfi — yer egalari, ishchilar va biznesmenlar o'rtasida taqsimlanishini va u biznesmenlar tomonidan «foyda» nomini olganligini ta'kidlaydilar.

¹ Вехи экономической мысли. Под редакцией В.М. Гальперина. Т.3. Высшая школа экономики. Санкт-Петербург, 2000, стр. 434.

Adam Smit va undan keyingi davrdagi iqtisodchilar foizni daromadning shakli sifatida, ya'ni foydadan ko'p yoki oz farq qiladigan shakli sifatida qarab kelganlar¹. Chunki ular yashagan davr shuni taqozo qilar edi. Bu davr iqtisodchilari tadbirkor-kapitalist daromadining uch unsurini ko'ra bildilar: kapitaldan bevosita foydalanganligi uchun to'lovlar; tadbirkorning faoliyati uchun boshqaruvchiga to'lanadigan haq; korxonaning tavakkalchiligi va xavf-xatari bilan bog'liq qism. Bunday bo'lish ingliz iqtisodchisi J. S. Mill tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u kapitalist-tadbirkorning jami daromadi uchun «foyda» atamasidan foydalangan².

Fransuz iqtisodchisi J.B. Sey, foyda va foiz o'rtasida ish haqi farqi sifatida foydani qo'llashini tavsiya etgan³. 1852-yili esa Kursell-Senill foydani ish haqi sifatida emas, tavakkalchilikni rag'batlantirish deb qabul qiladi⁴.

1826-yilda nemis iqtisodchisi Tyunen «Изолированное государство» kitobida foydani uchta unsur: foiz, tavakkalchilikni qo'llab-quvvatlash va boshqaruvchiga ish haqining chiqarib tashlangandan keyingi qolgan qismi sifatida aniqlagan⁵.

Ammo foydani puxta tahlil qilgan iqtisodchi G.fon Mangoldt bo'lib, u 1855-yil «Учение о предпринимательской прибыли» kitobida real foydada boshqaruvchi va tavakkalchilikni qo'llab-quvvatlash to'lovlarining unsurlariga bo'linishi va foyda barcha xarajatlardan ortiqcha qismi ekanligini aniqlaydi⁶.

Lekin «sof» foyda korxonada daromadlarining ishlab chiqarish omillaridan foydalanishdan keladigan daromadlarga nisbatan ortiqcha qismi ekanligini Jon Beyts Klark ilgari surdi⁷.

Valras va Kassel foydani raqobat tizimida siyqalanish natijasida paydo bo'ladi, deb tushuntirishadi⁸. Kassel nazariyasida ham Jid, Veber va Alfred Marshall nazariyalariga o'xshab, foydaning renta nazariyasi sifatida asoslangan edi. Avvalroq Shumpeter,

¹ Вехи экономической мысли. Под редакцией В.М. Гальперина. Т.3. Высшая школа экономики. Санкт-Петербург, 2000, стр. 435.

² O'sha yerda, 436-bet.

³ O'sha yerda, 436-bet.

⁴ O'sha yerda, 436-bet.

⁵ O'sha yerda, 436-bet.

⁶ O'sha yerda, 436-bet.

⁷ O'sha yerda, 442-bet.

⁸ O'sha yerda, 442-bet.

Amoni va Oppengeymer foyda nazariyasini rivojlantirib, uni jamiyatning dinamik xarakteri natijasi sifatida deb qarashgan¹.

Raqobatli iqtisodiyotda foyda ishlab chiqarish uchun qilingan xizmatlarga qilingan xarajatlar va sotilgan mahsulotlar baholari o'rtasidagi farq shaklida hisoblanadi.

Hozirgi zamon g'arb iqtisodiyotida, pirovard foydalilikni qarab chiqishda korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili va tarmoq taqqoslama iqtisodiy samaradorligining asosiy (bosh) ko'rsatkichi marjinal daromad (MD_1)² — tushum va bevosita o'zgaruvchi xarajatlar orasidagi farq deb hisoblanadi.

Bu ko'rsatkich alohida tarmoq va texnologiyalarni taqqoslashda ko'pincha mezon sifatida foydalaniladi. Tarmoqning nisbiy samaradorligini yoki uning afzalligini aniqlashdan tashqari, foydani hisoblash bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni mahsulotning to'liq tannarxini hisobga oladigan mutlaq samaradorlikni aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu masalaga tannarx bo'limida kengroq to'xtalamiz. Alohida tarmoqlar bo'yicha to'liq tannarxni va foydani hisoblash uchun doimiy umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlarini bittadan xarajat turlariga qarab oqilona asoslangan tamoyilda korxonalar tarmoqlari o'rtasida alohida taqsimlash zarur.

Foyda tushunchasi tadbirkor uchun moliyaviy xizmat (soliqqa tortish) nuqtayi nazaridan emas, balki real xarajatlarni haqiqatda aks ettirishga maksimal yaqinlashish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega. Shunday ekan, marjinal daromadni biz aytmoqchi bo'lgan foydani keltirib chiqarishda, hisoblashda muhim bo'lgan iqtisodiy toifa sifatida qarash mumkin. Foydani to'g'ri hisoblashning ahamiyati va roli quyidagi hisob-kitoblar tizimi toifalarida ko'zga tashlanadi.

1. *Tushum* — asosiy mahsulotlarning jamini ularning bir birligi bahosiga ko'paytirib, unga yordamchi mahsulotlarning jamini ularning bir birligi bahosiga ko'paytirilgan natijani qo'shib topiladi:

$$T = AM \cdot B + YM \cdot B,$$

bu yerda, T — tushum; AM va YM — asosiy va yordamchi mahsulot miqdori, s ; B — mahsulotlar birligining bahosi, so'm.

¹ Вехи экономической мысли. Под редакцией В.М. Гальперина. Т.3. Высшая школа экономики. Санкт-Петербург, 2000, стр. 442.

² Ю. Цеддиес, Э. Райш, А.А. Угаров. Экономика сельскохозяйственных предприятий. М., издательство МСХА, 2000, стр. 72—73.

2. *Marjinal daromad I* (MD_1) — asosiy va yordamchi mahsulotlarni sotishdan kelgan tushumdan bevosita o'zgaruvchi xarajatlar ($BO'X$)ni ayirib topiladi:

$$MD_1 = T - BO'X,$$

bu yerda, MD_1 — marjinal daromad I, so'm; $BO'X$ — bevosita o'zgaruvchi xarajatlar, so'm.

3. *Taqqoslama marjinal daromad II* (MD_{II}) — marjinal daromad I dan boshqa bevosita o'zgaruvchi xarajatlar (jumladan, doimiy xodimlarga beriladigan mehnat haqini)ni ayirib topiladi:

$$TMD_{II} = MD_1 - BBO'X,$$

bu yerda, TMD_{II} — taqqoslama marjinal daromad II, so'm; $BBO'X$ — boshqa bevosita o'zgaruvchi xarajatlar, so'm.

4. *Bevosita xarajatlarni ayirib tashlagandan keyingi tushum* — taqqoslama marjinal daromad II dan bevosita doimiy xarajatlar (maxsus biriktirib qo'yilgan asosiy vositalar qiymati)ni ayirib topiladi:

$$BXATKT = TMD_{II} - BDX,$$

bu yerda, $BXATKT$ — bevosita xarajatlarni ayirib tashlagandan keyingi tushum, so'm; BDX — bevosita doimiy xarajatlar, so'm.

5. *Foyda* — bevosita xarajatlarni ayirib tashlagandan keyingi tushumdan taqsimlangan umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlarini ayirib topiladi:

$$F = BXATKT - TUICHUXX,$$

bu yerda, $TUICHUXX$ — taqsimlangan umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlari, so'm.

Iqtisodiyotda XX asrning so'nggi yillarigacha hisoblanib kelinayotgan foydani hisoblash usullari ma'lum darajada hozirgi shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera olmayotgan edi. Harakatdagi iqtisodiyot esa hisob-kitob tizimini yangi talablar asosida qaytadan ko'rib chiqishni taqozo qildi.

Demak, foyda — bu mahsulotni sotish natijasida olingan sof daromadning bir qismi bo'lib, u mahsulot sotishdan keladigan mablag'dan — sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun

sarflangan xarajatlarni yoki to'la tannarx qiymatini chiqarib tashlangan qismiga teng bo'ladi:

$$F = PT - TT.$$

Foyda — bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan oxirgi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo, unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati bilan yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qilishga ketadi.

Foydada, shuningdek, buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarining kamayishi, baho o'zgarmaganda foydani ko'paytiradi va nihoyat bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. O'lchash vazifasi — foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi.

2. Taqsimlash vazifasi — qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.

3. Rag'batlantirish vazifasi — iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbayi sifatida.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rentabelligi sotilgan mahsulot bo'yicha hisoblanadi va ifodalash shakliga bog'liq holda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Foydani aniqlash uslubi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 1995-yil 27-yanvardagi 9-buyrug'iga asosan tasdiqlangan «Foydani hisoblash nizomi» bo'yicha, keyinchalik, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-qaroriga asosan olib boriladi yoki «Moliyaviy natijalarni shakllantirish» bo'limidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi, ya'ni quyidagicha:

1. Yalpi foyda (zarar) (*YF*) — qishloq xo'jaligi korxonasi tovar mahsulotini sotishdan tushgan tushum, ya'ni sof pul tushumidan (*SPT*) sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi (*IT*) olib tashlanadi. Bunda sof pul

tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, tashqariga chiqarilgan tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkallarni (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YF = SPT - IT.$$

2. Korxonada asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar) (*AFF*). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajat (davriy xarajat)lar (*DX*) ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari (*BD*) va xarajatlari (*BZ*) ham mos ravishda qo'shilib va chiqarib tashlanadi:

$$AFF = YF - DX + BD - BZ.$$

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) (*UF*). Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)dan olingan dividendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valutaning kurs farqi, boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar (*MD*) qo'shilib, xarajatlari va bank foizlari (*BX*) ayriladi:

$$UF = AFF + MD - BX.$$

4. Soliq to'laguncha foyda (zarar) (*STF*) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan qurilgan foyda (*FF*) va minus zarar (*FZ*) sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FF - FZ.$$

5. Sof foyda (zarar) (*SF*). U soliq to'langandan keyin xo'jalik, subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni (*DS*) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlar (*BS*) chiqarib tashlangan holda olingan sof foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS.$$

19-jadvalda 2008—2014-yillar davomida turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan olingan foyda miqdori dinamikasi tahlili keltirilgan.

sarflangan xarajatlarni yoki to'la tannarx qiymatini chiqarib tashlangan qismiga teng bo'ladi:

$$F = PT - TT.$$

Foyda — bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan oxirgi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Eng avvalo, unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati bilan yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qilishga ketadi.

Foydada, shuningdek, buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi. Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarining kamayishi, baho o'zgarmaganda foydani ko'paytiradi va nihoyat bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. O'lchash vazifasi — foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi.

2. Taqsimlash vazifasi — qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.

3. Rag'batlantirish vazifasi — iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbayi sifatida.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rentabelligi sotilgan mahsulot bo'yicha hisoblanadi va ifodalash shakliga bog'liq holda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Foydani aniqlash uslubi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 1995-yil 27-yanvardagi 9-buyrug'iga asosan tasdiqlangan «Foydani hisoblash nizomi» bo'yicha, keyinchalik, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-qaroriga asosan olib boriladi yoki «Moliyaviy natijalarni shakllantirish» bo'limidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi, ya'ni quyidagicha:

1. Yalpi foyda (zarar) (*YF*) — qishloq xo'jaligi korxonasi tovar mahsulotini sotishdan tushgan tushum, ya'ni sof pul tushumidan (*SPT*) sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi (*IT*) olib tashlanadi. Bunda sof pul

tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, tashqariga chiqarilgan tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkallarni (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YF = SPT - IT.$$

2. Korxonada asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar) (*AFF*). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajat (davriy xarajat)lar (*DX*) ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari (*BD*) va xarajatlari (*BZ*) ham mos ravishda qo'shilib va chiqarib tashlanadi:

$$AFF = YF - DX + BD - BZ.$$

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) (*UF*). Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)dan olingan dividendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valutaning kurs farqi, boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar (*MD*) qo'shilib, xarajatlar va bank foizlari (*BX*) ayriladi:

$$UF = AFF + MD - BX.$$

4. Soliq to'laguncha foyda (zarar) (*STF*) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan qurilgan foyda (*FF*) va minus zarar (*FZ*) sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FF - FZ.$$

5. Sof foyda (zarar) (*SF*). U soliq to'langandan keyin xo'jalik, subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni (*DS*) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq va to'lovlar (*BS*) chiqarib tashlangan holda olingan sof foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS.$$

19-jadvalda 2008—2014-yillar davomida turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan olingan foyda miqdori dinamikasi tahlili keltirilgan.

Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarda 1 s mahsulotdan olinadigan foyda (2008—2014-yillar)*

T/r	Mahsulotlar	Yillar							2014-yil 2008-yilga nisbatan o'zgarish	
		2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	+, -	%
1.	G'alla	3500	3300	4500	8400	4200	6600	6800	3300	1,9 m
2.	Paxta	6100	3600	11300	14900	5100	10400	8700	2600	1,4 m
3.	Tamaki	35700	34000	63300	69800	68200	27800	65000	29300	1,8 m
4.	Sabzavot	4360	2800	4000	5550	6960	9340	11900	7540	2,7 m
5.	Kartoshka	10100	8700	9700	11800	16500	19300	24200	14100	2,4 m
6.	Poliz	3200	3500	4500	6900	6300	9200	11600	8400	3,6 m
7.	Meva	4700	6400	6200	10100	13500	21300	23100	18400	4,9 m
8.	Uzum	6800	8100	8500	12100	16300	30800	24500	17700	3,6 m
9.	Go'sht	30000	27200	53300	63300	65200	86800	77500	47500	2,6 m
10.	Sut	7300	3900	5400	7800	7700	10200	7300	0	0
11.	Tuxum	3400	3600	4300	5800	5800	7200	6600	3200	1,9 m
12.	Pilla	4800	5100	7700	19200	31400	37900	38500	33700	8,0 m

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Dinamikada foyda joriy baholarda hisoblansa ham 2008—2014-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan olinadigan uning miqdori o'rtasidagi tafovut keskin o'zgargan. Ayniqsa, pillaning sotish baholari oshgani tufayli 1 sentnerdan keladigan foyda 8 martaga, poliz, uzum va mevaniki 3,6 dan 4,9 martagacha oshgan. Shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlariniki ham 1,4 dan 2,7 martagacha oshgani holda sutda xuddi shu yillarda o'zgarish bo'lmagan.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish rentabelligining mutlaq ko'rsatkichi bilan bir qatorda uning nisbiy ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich o'zida rentabellik me'yori va foyda me'yorini ifoda etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari mahsulotlari o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari doirasida ayrim ekinlar va chorva hayvon turlari doirasida, ayrim mahsulot ishlab chiqarish va sotish

xarajatlari rentabelligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarida qilingan xarajatlarning qoplash muddatlarini aniqlashda universal deb hisoblanadi.

Shu bilan birga foyda samaradorlikni yagona va butun qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanmaydi. Yangidan yaratilgan qiymatning bir qismi sifatida, u moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xodimlar qo'shimcha mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning pulda ifodalangan qismini ifodalaydi. Uning miqdori ma'lum darajada mahsulot bahosi darajasining asoslanganligiga bog'liq. Bundan tashqari, foyda strukturaviy o'zgarishlarga, yuqori rentabelli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'li bilan va past rentabelli mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yo'li bilan ham oshishi mumkin. Rentabellikning mutlaq ko'rsatkichi foydaning mutlaq miqdorida ifodalanadi:

$$D = PT - MX.$$

Foydaning mutlaq miqdori muhim ahamiyatga ega, u iqtisodiy rag'batlantirish fondini vujudga keltirishning miqdoriga bog'liq. Shu bilan birga foydaning mutlaq miqdori ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini to'la baholashga imkon bermaydi. Amaliyotda ishlab chiqarishda har turdagi mahsulotdan foydaning mutlaq miqdori ko'p yoki oz olinishi mumkin. Ikki holatda ham mahsulot ishlab chiqarish rentabelli bo'ladi, lekin uning darajasi turlicha bo'lishi mumkin, chunki bu tannarxga bog'liq.

Shuning uchun o'tmish iqtisodchilari shunday deb yozadilar: «Boylik darajasi — mahsulotning mutlaq miqdori bilan emas, qo'shimcha mahsulotning nisbiy miqdori bilan o'lchanadi». Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rentabelligini to'la xarakterlash uchun nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi: rentabellik darajasi va foyda me'yori. Rentabellik darajasi sof foydani tijorat tannarxiga bo'lish orqali aniqlanadi va foizlarda quyidagi formulalar bilan hisoblaniladi:

$$R = \frac{F}{TT} \cdot 100; \quad R = \frac{PT - KT}{TT} \cdot 100; \quad R = \frac{PT}{TT} \cdot 100.$$

Rentabellikni hisoblash O'zbekiston Respublikasining korxonalar bankrotligi va sanatsiyalari masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi tomonidan (1997-yil 17-apreldagi 4-buyruq) hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan (1997-yil 30-may) kelishilgan holda ishlab chiqilgan «Korxonaning moliyaviy tahliliga

doir uslubiy tavsiyalar (instruksiya)» bo'yicha olib boriladi. Ushbu yo'riqnomaga bo'yicha rentabellikning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

1. Mahsulot sotishning rentabelligi koeffitsiyenti, sotilgan mahsulot birligiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent narx belgilash siyosatidagi o'zgarishlarni va xo'jalik yurituvchi subyektning sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilib turish qobiliyatini ko'rsatadi. Koeffitsiyent dinamikasi narxlarni qayta ko'rib chiqish yoki moddiy zaxiralardan foydalanish ustida nazoratni kuchaytirish zarurligidan dalolat beradi. Uning pasayishi turli sabablarga ko'ra, korxonaga mahsulotlariga bo'lgan talabning pasayganligini ko'rsatadi. Rentabellikning ushbu ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$Rm.s. = \frac{F(Z)}{T} < 0,$$

bu yerda, $F(Z)$ — sotishdan olingan foyda (zarar), so'm; T — pul tushumi, so'm.

Agar mahsulot sotish rentabelligi koeffitsiyenti hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jaligi korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar va aylanmadan tashqari boshqa aktivlar rentabelligining koeffitsiyenti asosiy vositalar va aylanmadan tashqari boshqa aktivlardan foydalanish samaradorligini aks ettiradi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonasining moliyaviy xo'jalik faoliyatida ishlatadigan aktivlardan foyda yoki zarar ko'rish darajasini ko'rsatadi:

$$Rav. = \frac{SF(Z)}{A_1} < 0,$$

bu yerda, $SF(Z)$ — soliqqa tortishga qadar bo'lgan foyda (zarar), so'm; A_1 — uzoq muddatli aktivlar, so'm.

Agar aktivlarning rentabelligi koeffitsiyenti (zararlilik ko'rsatkichi) hisobot davrida 0 dan kam qiymatga ega bo'lsa, unda qishloq xo'jaligi korxonasi bu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan ishlaydi deb hisoblanadi.

3. Xususiy kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti, o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Koeffitsiyent dinamikasi korxonaga aksiyalari kotirovka darajasiga ta'sir qiladi. Bu koeffi-

tsiyent darajasi investitsiya qilgan kapitaldan foydalanish samaradorligini belgilash va bu ko'rsatkichni ushbu mablag'larni boshqa qimmatli qog'ozlarga sarflashdan olishi mumkin bo'lgan daromad bilan pasayishi ham mahsulotlarga talabning pasaygani va aktivlarning ortiqcha to'planib qolganligidan dalolat beradi:

$$R_{xk} = \frac{SF(Z)}{Xkq} < 0,$$

bu yerda, Xkq — qishloq xo'jaligidagi xususiy kapital qiymati, so'm.

Agar xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, unda qishloq xo'jaligi korxonasi ushbu ko'rsatkich bo'yicha zarar bilan yakunlangan hisoblanadi.

4. Permanent kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti, korxonada faoliyatiga sarflangan kapitaldan (o'zining va qarzga olingan) foydalanish samaradorligini aks ettiradi:

$$R_{pk} = \frac{SF(Z)}{P_1 - Xkq},$$

bu yerda, P_1 — o'z mablag'lari, so'm.

Agar permanent kapital rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxonada ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

5. Kapital umumiy aylanuvchanligining rentabelligi koeffitsiyenti korxonada butun kapitalining aylanish tezligini aks ettiradi. Uning o'sishi korxonada mablag'lari aylanishining jadallashganligini yoki narxlarning inflatsion o'sishini anglatadi:

$$R_{kua} = \frac{T}{BY} < 0,$$

bu yerda, BY — balans yakuni.

Agar kapital umumiy aylanuvchanligining rentabelligi koeffitsiyenti 0 dan kichik bo'lsa, korxonada ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

Rentabellikning ko'rsatkichlari ichida sotilgan mahsulotlarning tannarxiga kiritilgan xarajatlar rentabelligi universal ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni ayrim korxonada, tarmoq va mahsulotlar bo'yicha hisoblash mumkin.

Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarda 1 s mahsulot yetishtirishning rentabellik darajasi (2008—2014-yillar)*

T/r	Mahsulotlar	Yillar							2014-yil 2008-yil- ga nis- batan o'zgarish
		2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	
1.	G'alla	17,7	17,5	22,8	32,1	13,0	19,1	16,4	-1,3
2.	Paxta	15,7	7,5	21,6	25,3	6,5	12,1	9,2	-6,5
3.	Tamaki	28,2	21,8	24,9	28,1	27,2	8,7	25,0	-3,2
4.	Sabzavot	48,4	2,3	31,0	32,9	35,8	36,7	32,7	-15,7
5.	Kartoshka	33,8	32,2	36,1	39,2	34,6	35,6	32,6	-1,2
6.	Poliz	32,6	29,9	36,0	38,1	32,0	34,4	30,2	-2,4
7.	Meva	35,3	30,2	29,4	39,1	33,9	35,8	32,2	-3,1
8.	Uzum	37,4	30,1	32,1	40,2	37,0	38,7	33,9	-3,5
9.	Go'sht	12,8	8,5	11,2	11,2	11,4	11,3	10,7	-2,1
10.	Sut	17,1	8,1	8,0	9,6	9,8	10,8	9,1	-8,0
11.	Tuxum	21,8	25,0	24,3	26,1	26,1	25,9	24,1	2,3
12.	Pilla	3,6	4,0	4,9	6,9	8,5	8,7	8,7	5,1

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

20-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2008—2014-yillarda sotish baholarining oshishi, foydaning ko'payishi qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatmasin, mahsulotlar tannarxlarining o'sish sur'ati yuqori bo'lganligi sababli tamaki, uzum, paxta, sabzavot mahsulotlarida rentabellik darajasi mos ravishda 3,2; 3,5; 6,5 va 15,7 punktga kamaygan. Shuningdek, go'sht va sut ishlab chiqarishda ham oziqa tannarxining oshishi hisobiga 2,1 va 8 punktga kamaygan. Faqatgina tuxum va pillada mos ravishda 2,3 va 5,1 punktga oshgan.

Bunday holat, asosan, mahsulotlar birligi tannarxi va sotish baholarining ta'siridagina ro'y bergan. Bu ikki omilga obyektiv tabiiy sharoitlar, mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi ta'sir etgan.

10.5. Rentabellikni oshirish omillari va imkoniyatlardan oqilona foydalanish

Rentabellikni oshirish omillari deganda, eng avvalo, foyda omillari tushuniladi. Foyda omillari ikki guruhga bo'linadi:

1. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lgan va subyektiv xarakterga ega bo'lgan ichki omillar.

2. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lmagan va obyektiv xarakterga ega bo'lgan tashqi omillar.

1. Ichki omillarga sotiladigan mahsulot miqdori, uning sifati, ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Sotiladigan mahsulot miqdori yalpi mahsulot hajmiga va uning tovarlilik darajasiga bog'liq. Yalpi mahsulot hajmining o'sishida sotishga mo'ljallangan mahsulotning miqdori mutlaq ko'payadi. Shuningdek, uning ishlab chiqarish ichki iste'moliga ketadigan qismining o'sishi nisbiy ko'payadi. Yalpi mahsulotning ana shu ichki iste'molga ketadigan qismi o'sish sur'atining pasayishi tovarlilik darajasining oshishiga va shu asosda pul tushumining ko'payishiga sharoit yaratadi. Yuqori sifatli mahsulot ancha yuqori sotish bahosini ta'minlagani uchun, mahsulot sifati pul tushumi orqali foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Pul tushumi miqdori mahsulotni sotish muddatlariga, sotish bozoriga va uning tarkibiga bog'liq. Bundan tashqari, pul tushumi sotish kanallariga ham bog'liq. Uning davlatgami, matlubot kooperatsiyasigami yoki bozorgami sotilishi ham alohida ahamiyatga ega.

Foydaning muhim omillaridan biri mahsulot tannarxidir. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi yoki oshishi foyda miqdoriga ancha sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2. Tashqi omillarga mahsulotni ishlab chiqaruvchilar taklifi va ular o'rtasidagi raqobat, mahsulotga bo'lgan bozor talabi kabilar kiradi. U yoki bu mahsulotga yuqori yoki past talab, shuningdek, raqobatchilarning mavjudligi yoki qatnashmasligi, sotiladigan mahsulot miqdoriga, baho darajasiga va pirovard natijada foyda miqdoriga ta'sir qiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi omillari ekstensiv va intensiv xarakterga ega. *Ekstensiv omillar* — bu rentabellikka sotilayotgan mahsulotning miqdoridagi o'zgarishlar orqali ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. *Intensiv omillar* — sotish baholarining o'sishi va mahsulot tannarxining pasayishi orqali ta'sir ko'rsatadigan omillardir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabellik ko'rsatkichlari yillar bo'yicha oz yoki ko'p miqdorda tebranib turadi, bu ham bo'lsa, mahsulot tannarxi va bahoning o'zgarishi oqibatidadir. Shuning uchun rentabellik dinamikasi tendensiyasini tahlil etganda, shuningdek, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish qulayligini iqtisodiy asoslash paytida bir necha yillardagi rentabellikning o'rtachasidan foydalaniladi.

O'rtacha ko'p yillik baholar ko'rsatkichida sotilgan mahsulotning miqdori va sifati to'g'risida o'rtacha ma'lumotlar aks etadi, mahsulot birligining o'rtacha ko'p yillik tannarxida esa iqlim sharoiti va ishlab chiqarish sharoitlaridagi o'zgarishlar ta'siri aks etadi. Bir va bir turdagi mahsulotlarning qator yillardagi o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini taqqoslash shu turdagi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'zgarishidagi barqaror tendensiyalar haqida obyektiv ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi; turli xildagi mahsulotlar o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini taqqoslash esa qaysi turdagi mahsulot qulayroq, daromadliroq ekanligi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bir tomondan, mahsulot sotishdan kelgan pul tushumini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash, boshqa tomondan — mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni taqozo qiladi.

TAYANCH IBORALAR

Iqtisodiy samaradorlik, jonli mehnat, buyumlashgan mehnat, xarajat, samara, mezon, mahsulot miqdori, bozor tizimi, bozor mexanizmi, yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, rentabellik, asosiy faoliyatdan olingan foyda, balans aktivi, balans passivi, dividend, moliyaviy natijalar, moliyaviy faoliyatdan olingan foyda, permanent kapital, soliq to'languncha foyda, yalpi foyda, sof foyda, tannarx, uzoq muddatli aktivlar, xususiy kapital, rentabellikning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi nima?
2. Iqtisodiy samaradorlik mezoni va ko'rsatkichlarini ayting.
3. Iqtisodiy samaradorlikni qaysi yo'llar bilan oshirish mumkin?
4. Samaradorlikni qaysi yo'llar bilan oshirish mumkin?
5. Rentabellik nima?
6. Rentabellik ko'rsatkichlarini ayting.
7. Rentabellikni hisoblashning yangi usullarini ayting.
8. Rentabellikni oshiruvchi omillarni ayting.
9. Rentabellikni oshiruvchi ichki omillar qanday bo'ladi?
10. Rentabellikni oshiruvchi tashqi omillar qanday bo'ladi?

11-bob.

QISHLOQ XO'JALIGI YALPI VA TOVAR MAHSULOTLARINI KENGAYTIRILGAN TAKROR ISHLAB CHIQRISH

11.1. Yalpi mahsulot tushunchasi, uning tarkibi, hisoblash va baholash. Yalpi mahsulotni takror ishlab chiqarish turlari va omillari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pirovard natijasi yalpi mahsulotdir. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti deganda, shu tarmoqning ma'lum bir davr ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorining yig'indisi tushuniladi. Uning tarkibiga faqat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari kiradi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti natura va qiymat ko'rsatkichlarda hisobga olinadi. Natural ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligida yaratilgan iste'mol qiymatlarning tarkibi va miqdorini aks ettiradi. Sentner, tonna va boshqa o'lchovlarda hisoblanadigan yalpi mahsulot ko'rsatkichiga, dehqonchilikda — alohida ekinlar yoki bir xil tipdagi qishloq xo'jaligi ekinlari asosiy mahsulotlari, yosh ko'p yillik daraxtlarning va dehqonchilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning (kuzgi ekinlarni ekish va kelgusi yil hosili uchun xarajatlar) o'sishidagi o'zgarishlar, shuningdek, tarmoqning boshqa (qo'shimcha) mahsulotlari (somon, poxol va boshq.); chorvachilikda — tayyor mahsulotning alohida turlari bo'yicha (sut, jun, tuxum va boshq.) yalpi tushum: bola, mollar va parrandalarning tirik vaznining o'sishi, shuningdek, tarmoqning boshqa qoldiq mahsulotlari (go'ng va boshq.) kiradi.

Tarmoqlar bo'yicha qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibi quyidagicha bo'ladi:

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti:

I. Dehqonchilik mahsulotlari

- a) qishloq xo'jaligi ekinlari asosiy mahsulot yalpi hosili;
- b) ko'p yillik daraxtlarni o'stirish;
- d) tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'idagi o'zgarish (kuzgi ekinlar xarajati);
- e) qo'shimcha mahsulot (somon, poxol va boshq.).

II. Chorvachilik mahsulotlari

- a) qoramol va parrandalardan xo'jalikda foydalanishdan olingan, mahsulotlar (sut, jun, tuxum, pilla, qorako'l teri va boshq.);
- b) qoramol va parrandalarning o'sishi (tirik vaznda);
- d) buzoqlar, qo'zi, uloq va boshqa olingan bolalar;
- e) qoldiq mahsulotlar (go'ng va boshq.).

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini qishloq xo'jaligi korxonalari yalpi mahsuloti bilan almashtirmaslik kerak. Qishloq xo'jaligi korxonalarining yalpi mahsuloti ancha keng ma'noga ega bo'lib, u o'z ichiga qishloq xo'jaligi mahsulotidan tashqari yordamchi, sanoat va boshqa ishlab chiqarishlarni, ish va xizmatlari oladi. Masalan, xo'jalikda qayta ishlangan (un, o'simlik, mol yog'i va h.k.) dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari va boshqalar qishloq xo'jaligi mahsuloti emas, balki sanoat mahsuloti hisoblanadi. Ular ham qishloq xo'jaligi korxonalari yalpi mahsuloti tarkibiga kiradi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini umumiy ifodalash uchun taqqoslama va joriy baholarda, shuningdek, mahsulot tannarxi bo'yicha baholanadi. Mahsulotning umumiy hajmini, uning yillar bo'yicha dinamikasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun, shuningdek, yillik va soatlik mehnat unumdorlik darajasini, fond qaytimini hisoblash va boshqa maqsadlar uchun yalpi mahsulot taqqoslama baholarda baholanadi. Yalpi mahsulotni joriy baholarda baholash sof daromadni hisoblash uchun foydalaniladi. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotlari qiymati uning tannarxi bo'yicha hisoblanadi.

2014-yilda Samarqand viloyati bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda taqqoslama baholarda, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 4912988 mln so'mni, shu jumladan, dehqonchilik bo'yicha 2777654 mln so'mni, chorvachilik bo'yicha 2135334 mln so'mni tashkil etgan. Shuningdek, tannarx bo'yicha baholangan yalpi mahsulot jami 4081926 mln so'mni, shu jumladan, dehqonchilikda 2178822 mln so'mni, chorvachilikda esa 1903104 mln so'mni tashkil etgan.

Respublika bo'yicha yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'zgarishi qishloq xo'jaligida ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'sish sur'atlarida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsuloti 1996-yilda (oldingi yilga nisbatan solishtirma

baholarda) 6,5 %, 1997-yilda 5,8 %, 1998-yilda 4 %, 1999-yilda 5,9 %, 2000-yilda ob-havoning, ayniqsa, suv resurslarining tanqisligiga qaramasdan 3,2 % ko'paydi. Undan keyingi davrlarda esa, 2005-yilda 5,4 %, 2006-yilda 6,7 %, 2007-yilda 6,1 %, 2008-yilda 4,5 %, 2009-yilda 5,8 %, 2010-yilda 6,9 %, 2011-yilda 6,6 %, 2012-yilda 7,2 %, 2013-yilda 6,9 % va 2014-yilda ham 6,9 % ga qo'shimcha o'sishga erishildi.

Pulda ifodalangan dehqonchilik yalpi mahsuloti ko'rsatkichi (*DYM*) qishloq xo'jaligi ekinlari yalpi hosili qiymati (*EYHK*), ko'p yillik daraxtlarni o'stirish xarajatlari qiymati (*KYDO'Q*), tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatidagi o'zgarishlar va boshqa mahsulotlar qiymati (*T* ishlab chiqarish va *BMQ*)dan tashkil topadi. Misollarni Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarning 2014-yil ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz:

$$DYM = EYHQ + KYDO'Q + Ti/ch \text{ va } BMQ = 2777654 \text{ mln so'm.}$$

Chorvachilik yalpi mahsuloti (*ChYM*) esa mollar va parrandalardan xo'jalikda foydalanish natijasida olingan mahsulotlar qiymati (*MPMQ*); mol va parrandalar tirik vazni o'sishining qiymati (*TVO'Q*), olingan bola qiymati (*OBQ*) va boshqa mahsulot qiymati (*BMQ*)dan tashkil topadi:

$$ChYM = MPMQ + TVO'Q + OBQ + BMQ = 2135334 \text{ mln so'm.}$$

Pulda ifodalangan qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarmoqda barcha yaratilgan moddiy boyliklarga umumlashgan tavsif beradi. U qishloq xo'jaligining jami ijtimoiy mahsulotdagi salmog'ini, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoq strukturasi darajasi va dinamikasini, alohida kategoriyadagi korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishdagi rolini, ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun zarur, umumiqtisodiy ko'rsatkich sifatida harakat qiladi.

Qishloq xo'jaligida pulda ifodalanadigan yalpi mahsulot ko'rsatkichlarining bir qator kamchiliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Yalpi mahsulot faqat jonli mehnat emas, balki buyumlashgan mehnatning ham natijasidir. Shuning uchun yalpi mahsulot bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar, jonli mehnatni tejash hisobiga yuqori bo'lmasdan, balki moddiy resurslarni ko'p sarflash hisobiga amalga oshadi;

2. Yalpi mahsulotni hisoblashning hozirgi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yig'indisini qo'shib hisoblash usuli takroriy hisoblashga yo'l qo'yadi. Masalan, yem dehqonchilikda ham, chorvachilikda ham mahsulotlar tannarxi moddasida ikki marta hisobga olinadi;

3. Yalpi mahsulotni joriy xarid baholarida baholash, uning haqiqiy qiymatini pasaytiradi, ya'ni yalpi mahsulotning tovar bo'lmagan qismi tannarx bo'yicha baholanadi. U xarid bahosidan sof daromadning miqdoriga kam bo'ladi, ya'ni yalpi mahsulotning qiymati qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tovar bo'lmagan qismini ishlab chiqarishga ketgan, qo'shimcha mehnatni hisobga olmaydi;

4. Yalpi mahsulot ko'rsatkichi har doim ham ma'lum korxonalar jamoasining real mehnat hissasini aks ettirmaydi, chunki uning miqdori boshqa tarmoqlardan keladigan material resurslarning hajmiga ham bog'liq;


5. Taqqoslama baholarda hisoblangan yalpi mahsulot ko'rsatkichi, uning sifatini to'liq aks ettirmaydi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti foydalanishiga qarab, ikki qismga bo'linadi. Bir qismi (urug', yem, buzoqlar uchun ajratilgan sut, inkubator uchun tuxum va boshq.) bevosita qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish maqsadlari uchun iste'mol qilinadi. Boshqa qismi esa pirovard mahsulot deyiladi va sotish uchun foydalaniladi. Shu sababli, qishloq xo'jaligida «yalpi aylanma» tushunchasi ham ishlatiladi. Yalpi mahsulotdan farq qilib, yalpi oborot o'z ichiga hamma yalpi mahsulotni oladi, ya'ni ichki ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadiganini ham, sotiladiganini ham. Yalpi aylanma yalpi mahsulotdan ichki ishlab chiqarish aylanmasining miqdoriga ko'pdir. Qishloq xo'jaligida, boshqa tarmoqlardan farq qilib, yalpi aylanma va yalpi mahsulot bir-biriga teng. Chunki yalpi mahsulot yalpi aylanma usuli bo'yicha hisoblanadi, ya'ni unga ichki xo'jalik aylanmasi ham kiradi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yalpi aylanma ko'rsatkichi hisoblanilmaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining to'xtovsiz va o'sib borayotgan iste'moli uni ishlab chiqarish jarayonining takrorlanib va yangilanib turishini, ya'ni takror ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi. Takror ishlab chiqarish ikki xil: oddiy va kengaytirilgan bo'ladi. Oddiy takror ishlab chiqarishda jamg'arish bo'lmaganligi uchun ishlab chiqarish jarayoni ilgarigi hajmda, ya'ni

o'zgarmagan holda takrorlanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda, ishlab chiqarish hajmi, jamg'armadan foydalanib, kengaygan holda takrorlanib, yangilanib turadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ekstensiv va intensiv yo'llardan foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish uchun quyidagi omillardan foydalaniladi:



10-chizma. Yalpi mahsulot ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar.

21-jadval ma'lumotlaridan bir qaraganda 2005—2014-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari joriy narxlarda 6,2 martaga, jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 6,6 va chorvachilik mahsulotlari esa 5,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin. Bu davrda joriy baholar keskin oshib ketganligi tufayli taqqoslashni amalga oshirib bo'lmaydi. Lekin bu jadval 2014-yilga kelib barcha toifadagi xo'jaliklarda fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining hissasini aniqlash imkonini beradi. 2005-yilda ularning hissasi mos ravishda 24,4; 61,7 va 14 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda esa 32,9; 65,1 va 2 % ga teng bo'lgan. Ya'ni fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklariniki oshib borish va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariniki kamayib borish tendensiyasiga ega.

2014-yilda 2005-yilga nisbatan barcha toifadagi xo'jaliklarda fermer xo'jaliklarining salmog'i: dehqonchilikda 41,6 % dan 52,6 % ga, chorvachilikda 2,7 % dan 4,4 % ga oshgan. Dehqon

**O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi
(amaldagi narxlarda, mlrd so'm) (2005—2014-yillar) ***

Mahsulotlar	Yillar									
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014**
	Barcha toifadagi xo'jaliklar									
Jami	5978,3	7538,8	9304,9	11310,7	13628,6	16774,7	21422,3	24370,3	34201,4	36957,2
Dehqonchilik	3323,1	4215,0	5170,1	6400,1	8089,0	10023,0	12762,3	14155,3	21211,8	21810,6
Chorvachilik	2655,2	3323,8	4134,8	4910,6	5539,6	6751,7	8660,0	10215,0	12989,6	15146,6
	Fermer xo'jaliklari									
Jami	1458,5	2367,5	3111,0	3686,0	4822,6	5962,8	7505,1	8377,2	12025,5	12142,0
Dehqonchilik	1382,3	2264,2	2962,7	3484,2	4575,9	5658,3	7072,8	7929,6	11327,1	11472,4
Chorvachilik	71,2	103,3	148,3	201,8	246,7	304,5	432,3	447,6	698,4	666,4
	Dehqon xo'jaliklari									
Jami	3689,4	4698,7	5959,7	7367,3	8504,6	10468,9	13453,2	15474,2	21492,7	24067,3
Dehqonchilik	1231,3	1624,4	2128,8	2832,6	3403,1	6214,2	5553,5	6068,4	9672,6	10076,5
Chorvachilik	2458,1	3074,3	3830,9	4534,7	5101,5	4254,7	7899,7	9405,8	11820,1	13995,4
	Qishloq xo'jaligi korxonalari									
Jami	835,4	472,6	234,2	257,5	301,5	343,0	464,0	518,9	683,2	747,9
Dehqonchilik	709,5	326,4	78,6	83,4	110,1	233,0	136,0	157,3	212,1	261,7
Chorvachilik	125,9	146,2	155,6	174,1	191,4	110,0	328,0	361,6	471,1	484,8

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam, T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi, T., 2015.

** Dastlabki ma'lumotlar.

xo'jaliklariniki esa mos ravishda 37 % dan 46,2 % ga oshib va 92,6 % dan 92,4 % ga kamaygan. Boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariniki esa mos ravishda 21,3 % dan 1,2 % ga va 4,7 % dan 3,2 % ga pasaygan.

Ekstensiv omillarga ishlab chiqarish resurslarining miqdorini aks ettiradigan miqdoriy omillar kiradi. Xodimlar sonining, ekin maydonlarining, mollar bosh sonining, asosiy va material aylanma vositalar hajmining ko'payishi yoki kamayishi yalpi mahsulot miqdorining o'zgarishiga olib keladi. Lekin qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish resurslari (ish kuchi, yer, oziqa, chorvachilik binolari va boshq.) chegaralangani uchun ekstensiv asosda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish asosiy omil hisoblanmaydi.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishni, harakatdagi resurslar salohiyatidan foydalanishni sifat jihatdan yaxshilashga asoslangan intensiv omillar asosida ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Bu omillar ichida hal qiluvchi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligini oshirishdir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga mablag'ni ko'paytirib, mehnat, yer va moddiy resurslardan samarali foydalanib, mavjud o'zlashtirilgan yer resurslari va mavjud mol bosh sonidan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va mollar mahsuldorligini oshirish mumkin.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot miqdoriga ekin maydonlari va poda aylanuvi tarkibi muhim ta'sir ko'rsatadi. Ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish deganda, hosildorligi past ekinlar o'rniga hosildorligi yuqori bo'lgan ekinlarni almashtirib, ularning salmog'ini oshirish tushuniladi. Ancha yuqori hosilli ekinlar bilan ekin maydonlarini yanada kengaytirish dehqonchilik mahsulotlari yalpi hosilini ko'paytirish imkonini beradi.

Chorvachilikda poda aylanuvi tarkibini takomillashtirish, podada ancha mahsuldorli mollarni, shuningdek, podada sog'in sigirlar, sovliqlar, echkilar va boshqalar salmog'ini oshirish tushuniladi. Podada sigirlar salmog'ini oshirish degani, masalan, bir bosh sigirdan oziqani kam miqdorda oshirgan holda sut ishlab chiqarishni keskin ko'paytirishdir.

Mamlakat oziq-ovqat fondini ko'paytirishning muhim manbai, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi yo'qotishlarni tugatish, ulardan foydalanishni yaxshilashdir. Chunki har yili ishlab chiqarish, saqlash, ortish-tushirish qoidalariga amal qilmaslik, shuningdek, mahsulotning sifati buzilishi hisobiga necha millionlab so'm zarar ko'rilmogda.

11.2. Yalpi mahsulotning taqsimlanishi

Takror ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymat shaklida qoplash fondini (QF) yoki material xarajatlarni (MX) va sof mahsulotni (SM) yoki yalpi daromad (YD)ni o'z ichiga oladi. Misollarni Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarning 2014-yil ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz:

$$YMQ = (QF)MX + (SM)YD = 2853679 + 2059309 = \\ = 4912988 \text{ mln so'm.}$$

SM yangidan yaratilgan qiymatdir, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonalarini xodimlarining o'z mehnatlari bilan real yaratilgan qiymatdir.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligining rivojlanishida sof mahsulot ko'rsatkichi xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati natijalarini baholashda va ishlab chiqarish hajmini o'lchashda dastgoh sifatida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sof mahsulot mehnat dastgohlarining takroriy hisobini o'z ichiga olmaydi, u xarajatlarni tejash mexanizmining muhim unsuri sifatida ham ko'rinadi. Sof mahsulot va yalpi daromad o'rtasidagi farq shundan iboratki, sof mahsulot yangidan yaratilgan qiymatning miqdorini bevosita ishlab chiqarish jarayonida xarakterlaydi, yalpi daromad esa sotish jarayonini hisobga olib, ya'ni ayirboshlash vositasidan keyin aks ettiradi.

Amaliyotda bu ikki ko'rsatkich ham yalpi mahsulot qiymatidan moddiy xarajatlarni ayirib tashlab topiladi, shuning uchun ularning miqdori o'rtasida aytarli darajada keskin farq bo'lmaydi. Sof mahsulot ko'proq o'zgarmas baholarda hisoblash zarur bo'lganda, ya'ni ishlab chiqarishning fizik hajmining, mehnat unumdorligining, fond qaytimining dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi. Joriy xo'jalik faoliyatida ko'pincha yalpi daromaddan foydalaniladi, chunki u yangidan yaratilgan qiymatning sotilgan qismini aks ettirib, mahsulot sotishdan kelgan tushum va foyda ko'rsatkichlari bilan aloqadordir.

Qishloq xo'jaligida yalpi daromadni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi. Tannarx bo'yicha hisoblangan qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymatiga, mahsulot sotishdan olingan foyda qo'shiladi. Hosil bo'lgan yalpi mahsulot qiymatidan joriy yildagi barcha moddiy xarajatlarni ayirib tashlab, yalpi daromad topiladi (22-jadval):

$$YMQ = F(Z) - MX = YD = 4912988 - 2853679 = \\ = 2059309 \text{ mln so'm.}$$

Yalpi mahsulot va uning taqsimlanishini hisoblash usuli
(Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklar hisoboti
ma'lumotlari — 2014-yil asosida)

T/r	Ko'rsatkichlar	Mln so'm
1.	Yalpi mahsulot qiymati	4912988
2.	Moddiy xarajatlar	2853679
3.	Yalpi daromad	2059309
4.	Mehnat haqi xarajatlari	1228247
5.	Sof daromad	831062

Yalpi daromad miqdori yalpi mahsulot hajmi bilan to'g'ri bog'langan va moddiy xarajatlar miqdori bilan teskari bog'langan. Yalpi mahsulot miqdori qancha ko'p bo'lib, moddiy xarajatlar shuncha oz bo'lsa, yalpi daromad summasi shuncha ko'p bo'ladi. Yalpi hamda sof daromad barcha turdagi xarajatlar hisobiga tashkil topadi. Yalpi daromadning tarkibi quyidagi formulada ko'rsatilgan:

$$YD = MX + SD = 2853679 \text{ mln so'm} + 2059309 \text{ mln so'm.}$$

Moddiy xarajatlar va mehnat haqi fondi mahsulot tannarxini tashkil etishini bilgan holda sof daromadni yalpi mahsulot qiymati va tannarx o'rtasidagi farq shaklida ham aniqlash mumkin:

$$SD = YMQ - T = 4912988 - 4081926 = 831062 \text{ mln so'm.}$$

Sof daromadni yalpi daromad va mehnat haqi fondi o'rtasidagi farq sifatida ham aniqlash mumkin:

$$SD = YD - MeH = 2059309 - 1228247 = 831062 \text{ mln so'm.}$$


Sof daromad davlatning markazlashgan daromadiga (*DMD*), noishlab chiqarish sohasi xarajatlarini qoplashga ketadigan, ijtimoiy iste'mol fondlariga (*IIF*) va jamg'arish fondiga (*JF*) bo'linadi (bu raqam har bir ishlab chiqaruvchining faoliyatidan va hukumat tomonidan belgilangan miqdorlar asosida turlicha bo'lishi mumkin):

$$SD = DMD + IIF + JF.$$

Jamg'arish fondi qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy manbayi va zaruriy zaxiralar yaratish manbayi hisoblanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur'atlari va imkoniyati jamg'arishning mutlaq miqdoriga hamda uning sof daromadagi hissasiga bog'liq. Jamg'arishning nisbiy miqdorini aniqlash uchun uning me'yori (JN) hisoblaniladi. U sof daromadning jamg'arishga yo'naltirilgan qismining jami sof daromad summasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$JN = \frac{JF}{SD} \cdot 100.$$

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining taqsimlanishi quyidagi chizmada ko'rsatiladi:



11-chizma. Yalpi mahsulotning taqsimlanishi.

Yalpi mahsulotning tarkibida shaxsiy iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi ratsional nisbat ahamiyatga ega. Uning tashkil topishi mahsulotning tannarxi va bahosi, binobarin, xarajatlar rentabelligi darajasiga bog'liq. Respublikada qabul qilingan Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlaridan oqilona foydalanish iste'mol va jamg'arma fondlari o'rtasidagi bog'lanishni ta'min etadi va bozor iqtisodiyoti samardorligini oshiradi.

11.3. Tovar mahsulot tushunchasi, tovarlilik darajasi va uni oshirish imkoniyatlari

Qishloq xo'jaligining tovar mahsuloti deganda, yalpi mahsulotning barcha sotish kanallari orqali, ya'ni davlat, matlubot kooperatsiyasi, qishloq aholisiga, dehqon bozorida, oshxona orqali, bolalar muassasalariga va chet davlatlarga sotadigan qismiga aytiladi. Tovar mahsulotning sotilgan va bu uchun pul olingan qismi sotilgan mahsulot deyiladi. Shuning uchun «Tovar mahsulot» tushunchasi «Sotilgan mahsulot» tushunchasidan kengdir. Agar tovar mahsulotning hammasi sotilsa, u holda ikkalasi teng bo'ladi.

Xo'jaliklarning hozirgi hisobotlarida tovar mahsulotning real miqdori va qiymati aniqlanmaydi. Sotish paytida sotilgan mahsulot natural shakldan pulda ifodalangan qiymat shakliga o'tadi. Sotilgan mahsulotning bir qismi o'sha zahotiy oq qiymat shaklini oladi. Bu chetga ko'rsatilgan xizmatlar yoki boshqa korxonalar uchun bajarilgan ishlarga olingan pul tushumidir. Bir butun qishloq xo'jaligining hamda alohida qishloq xo'jaligi korxonalari va alohida mahsulot turlarining tovarlilik ikki ko'rsatkichda ifodalanadi:

1. Tovar mahsulotining massasi;
2. Tovarlilik darajasi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri o'zi mustaqil ahamiyatga ega, ammo tovar fondining mutlaq miqdori hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tovarlilik darajasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u sotilgan mahsulotni yalpi mahsulotga bo'lib topiladi va foizlarda ifodalanadi. Alohida mahsulot turi bo'yicha tovarlilik darajasini aniqlashda yalpi mahsulot va tovar mahsulot natural ko'rinishda foydalaniladi. Ma'lum bir tarmoqning yoki butun qishloq xo'jaligining tovarlilik darajasini aniqlashda yoki har xil mahsulot chiqaradigan turli tarmoq tovarlilik darajasini solishtirganda yalpi sotilgan mahsulotning qiymat ko'rinishidan foydalaniladi. Bunda yalpi mahsulot va sotilgan mahsulot bir xil bahoda baholanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda tovarlilik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$Td = \frac{SM; SMK}{YM; YMK} \cdot 100.$$

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tovarlilik darajasi ikki omil: *talab* va *taklif* bilan aniqlanadi.

lanadi. Ko'pchilik qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi mahsulotga bo'lgan ichki ishlab chiqarish iste'molini chegaralab, tovarlilik darajasini ko'tarishga harakat qiladi. Tovar mahsulot miqdorini ko'paytirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va mollar mahsuldorligini oshirish hisobiga yalpi mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish. Masalan, 1 yilda 1 bosh sigirdan 2500 kg sut sog'ib olinsa, uning tovarlilik darajasi 80—85 % bo'lsa, 5000 kg sog'ib olinganda, u 90—95 % ko'tarilishi mumkin;

2. Mahsulotlarning ishlab chiqarish jarayonida sarflanishini qisqartirish;

3. Urug'lik va yemning sifatini yaxshilash, shuningdek, sanoat ishlab chiqaradigan sun'iy va omuxta oziqalardan foydalanish;

4. Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida, uni saqlashda va sotishda yo'qotishlarni qisqartirish.

Korxonada mahsulot sotishga katta imkoniyat bo'lishi mumkin, lekin har bir ma'lum davrda mahsulotga bozor talabi chegaralangan bo'ladi. Bu esa mahsulotning to'liq sotilmasligiga, sotilmagan qoldiqning vujudga kelishiga olib keladi. Shuning uchun mahsulot tovarlilik darajasini ko'tarish yo'llaridan biri yaxshi tashkil qilingan marketingdir.

Quyidagi jadvalda ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovarlilik to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili keltirilgan:

23-jadval

Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarda ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovarlilik darajasi (2014-yil)*

T/r	Mahsulot turlari	Mahsulot miqdori	Shundan sotilgan mahsulot	Tovarlilik darajasi, %
1.	Paxta, s	2232310	2232310	100,0
2.	Don, s	8177810	3143550	38,4
3.	Sabzavot, s	14577070	10203950	70,0
4.	Kartoshka, s	5267790	4214230	80,0
5.	Meva, s	3416720	2733380	80,0
6.	Uzum, s	4973160	3978528	80,0
7.	Poliz, s	971870	680350	74,1

8.	Go'sht, s	1264930	885454	70,0
9.	Sut, s	7452090	5216460	70,0
10.	Tuxum, ming dona	9394920	8455430	90,0
11.	Pilla, s	26880	26880	100,0

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Ma'lumki, davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar to'lig'icha davlatga sotiladi. Shuning uchun ularda tovarlilik darajasi doimo 100 % ga teng bo'ladi. Bu yerda paxta va pilla shular jumlasidandir. Qolgan mahsulotlarda notovar qismi ham mavjud bo'lib, ularda tovarlilik darajasi 70—90 % ni tashkil etadi. Hatto donda bu ko'rsatkich 38 % ni tashkil etgan.

11.4. Tovar mahsulotning sifati, uni yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari

Bozorni oziq-ovqat va xomashyo mahsulotlari bilan to'ldirish vazifasi qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash muammosi bilan mustahkam aloqada. Aholining iste'molini qondiradigan har qanday mahsulot, uni foydali qiladigan ma'lum bir xususiyat, xossaga ega bo'lishi kerak. Ular mahsulotdagi iste'mol qiymatning mohiyatini aks ettiradi. Agar iste'mol qiymat mahsulotning umumiy foydaliligini ifodalasa, uning foydalilik darajasi, ya'ni ma'lum iste'molni qanoatlantirishga obyektiv qodirligini, mahsulotning sifatini xarakterlaydi. Mahsulot sifati deganda, uning ma'lum bir ehtiyojini qondirish kerakligini zarur qilib qo'ygan, mahsulotdagi xususiyatlar to'plami tushuniladi.

Mahsulot sifati muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, u ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot iste'molida kishilar o'rtasidagi o'zaro mustahkam munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy iste'mol doimiy emas, sifatni yaxshilash tendensiyasi obyektiv va qonuniyatli xarakterga ega. Bu, birinchi navbatda, iste'mol oshishi qonunining harakati bilan bog'liq. Buning mohiyati shuki, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan doimo ularning iste'moli darajasi oshib boradi va ularda bir vaqtning o'zida iste'molni to'laroq qondirish imkoniyati kengayadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash faqat aholining oziq-ovqatga bo'lgan iste'molni to'liq qondiribgina qolmay, balki u qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuning uchun mahsulot sifatini oshirish — bu pirovard natijada uning miqdori, resurslarni tejash, ijtimoiy iste'molni to'laroq qondirishdir. Rivojlanayotgan bozor sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardosh bo'lishi, ya'ni bozordagi mahsulotlarga qaraganda ancha yuqori iste'mol xususiyatiga va katta talabga ega bo'lishi kerak.

Mahsulot sifatiga talab iste'molchilar, shuningdek, davlat organlari tomonidan shakllanadi. Mahsulot sifatiga talabning shakllanishidagi ustunlik iste'molchiga, bozorga, raqobatga tegishlidir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati ishlab chiqarish resurslari — ishlab chiqarish unsurlarining ishtiroki va ta'sirida shakllanadi. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hamda ishlab chiqarish resurslari sifati o'rtasida keng harakatdagi bevosita yoki ko'p pog'onali aloqa va bog'lanish mavjud. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

I. Qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati:

1. Ish kuchi sifati;
2. Fondlar bilan qurollanish;
3. Xodimlar malakasi;
4. Moddiy rag'batlantirish.

II. Yer va boshqa tabiiy resurslar sifati.

III. Moddiy resurslar sifati:

1. Asosiy vositalar sifati:

- a) sanoatdan keladigan;
- b) qishloq xo'jaligidan chiqadigan.

2. Moddiy aylanma vositalarning sifati:

- a) sanoatdan keladigan;
- b) qishloq xo'jaligidan chiqadigan.

Mahsulot sifatini yaxshilash va uni ta'minlashning yetakchi omili ish kuchining sifati hisoblanadi. Foydali mehnat bilan shug'ullanuvchi mamlakatning har bir fuqarosi mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha o'z munosabatlarini quyidagilar asosida amalga oshirishlari kerak:

1. O'zaro yordam va ilg'or tajribalarni almashish;

2. Har bir ish joyida mehnat sifatiga va uning natijasiga qattiq talabchanlik;

3. Mahsulot sifati degan bosh mezondan kelib chiqib, xodimning professional ustaligi va uning mehnatga to'lanadigan haqini baholash;

4. Har bir kishining — ishchidan to rahbargacha o'z mehnati sifati uchun shaxsiy javobgarligi;

5. Mehnat jarayonida mahsulot sifatini pasaytirish mumkin bo'lgan har qanday faoliyatni ogohlantirish.

Yer resurslarining sifati iqlim sharoitlari bilan birga faqat yetishtiriladigan ekinning tarkibini aniqlab, uning miqdoriga ta'sir qilib qolmasdan, balki uning sifatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, unumli tuproqda, yerda yetishtirilgan hosilning sifati ham yaxshi, yuqori bo'ladi.

Moddiy resurslar sifati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, asosiy va moddiy aylanma vositalarning ancha yuqori sifati oshirilgan mahsulot olishga, sotish bahosini oshirishga va pirovard natijada daromadni oshirishga imkon beradi. Rayonlashgan urug' navlaridan foydalanish faqat hosildorlikni oshirib qolmasdan, sifatini ham yaxshilaydi. Chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilashga yemning to'yimlilik katta ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ancha sifatli moddiy resurslar mehnat sig'imini, fond sig'imini va material sig'imini pasaytiradi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishiga olib keladi. Urug', yem va boshqa aylanma vositalar sifat tavsiflarining yaxshilanishi mahsulot birligi hisobiga ularga qilingan xarajatni pasaytiradi. Va aksincha, navlar va ekiladigan urug' sifatining yomonlashishi, yemlarda oziqa moddalarining, ayniqsa, proteinning pasayishi, mahsulot tannarxining o'sishiga olib keladi.

Bozorga olib chiqiladigan har qanday qishloq xo'jaligi mahsuloti kishilarning iste'molini qondirish darajasi bo'yicha tekshiruvdan o'tadi: har bir xaridor o'zining iste'molini qondiradigan mahsulotni sotib oladi, xaridorlar massasi esa kishilar iste'molini to'laroq qondiradigan mahsulotni sotib oladi, nisbatan mahsulot raqobati tashkil topadi. Shuning uchun mahsulotning raqobatbardoshligini faqat raqobatdosh mahsulotlarni o'zaro taqqoslab aniqlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tovar mahsulotining raqobatbardoshligi — bozorga va sotish vaqtiga aniq bog'liq bo'lgan nisbiy tushunchadir.

Shuni bilish lozimki, mahsulotning raqobatbardoshligi, xaridor uchun muhim qiziqish uyg'otadigan uning xossasi orqali aniq-

lanadi. Boshqa barcha belgilar, bu chegaradan tashqaridagi, mahsulotning raqobatbardoshligida raqobat shartlariga aloqasi yo‘q sifatida qarab chiqilmaydi.

Mahsulotning raqobatbardoshligini o‘rganish tizimli va to‘xtovsiz o‘tkazilishi kerak. Bu agar raqobatbardoshlik pasaya borsa, o‘z vaqtida ma‘lum qaror qabul qilishga — shu mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yoki to‘xtatish yoxud uning sifatini yaxshilash, boshqa bozorlarga o‘tkazish va boshqalarga o‘ylab ko‘rishga imkon beradi. Boshqa tomondan, mahsulotning raqobatbardoshligi, shu mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish haqida qaror qabul qilingan qarorlarning samarasini oshiradi.

Hozirgi kunda, ya‘ni bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida qishloq xo‘jaligida bir qancha mahsulot sotish kanallari vujudga keladi va ularning harakat qilishi uchun sharoit yaratiladi. Mahsulotni sotish kanallari deganda, sotishda ishtirok etuvchi yoki vositachilik qiluvchi shaxslar va korxonalar birlashishi tushuniladi. Ular tovarlarni o‘zlariga yoki boshqa bir shaxsga o‘tkazish huquqini oladilar. Bu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilardan iste‘molchilarga yetkazish maqsadida birgalikda harakat qiluvchi iqtisodiy, texnologik, tashkiliy, ijtimoiy va boshqa jarayonlar tizimidir.

Sotish kanallari bevosita va bilvosita kanallarga bo‘linadi. Tovarlar sotishning bevosita kanallari deganda vositachilarsiz tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan iste‘molchilarga ko‘chib yurishi tushuniladi.

Bevosita kanal orqali, masalan, sabzavot va poliz mahsulotlari dehqon bozorlarida, xususiy do‘konlarda, savdo shoxobchalarida sotilishi mumkin. Bunday usul bilan, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mahalliy aholiga kassa orqali naqd pulga sotilishi mumkin.

Bilvosita sotish kanallari mustaqil vositachilardan foydalanish bilan bog‘langan. Ular tovarlarni tovar ishlab chiqaruvchilardan sotib oladi va iste‘molchilarga yetkazib beradi. Vositachilar sifatida davlat tashkilotlari, matlubot kooperatsiyalari, savdo va sanoat korxonalarini chiqadi.

Alohida qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun mahsulotlarni turli kanallar orqali sotish ham tashkiliy, ham iqtisodiy jihatdan qiyin masala. Korxonalar faoliyatining pirovard natijasi ma‘lum darajada mahsulotni tayyorlaydigan, saqlaydigan, ortadigan-tushiradigan xizmatlarning rivojlanishiga bog‘liq. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsulotni tayyorlashni va sotishni tashkil qilish bo‘yicha barcha masalalarni hal qilish zaruriyati tug‘iladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kanallari quyidagilar bo'lishi mumkin:

I. Davlatga sotish:

- a) davlat fondiga;
- b) mintaqaviy fondga.

II. Erkin sotish:

- a) dehqon bozorida;
- b) korxonada xodimlariga va mahalliy aholiga;
- d) birjada;
- e) chakana savdoning boshqa tashkilotlariga, korxonalariga;
- f) shartnoma, majburiyat bo'yicha tashkilot va korxonalarga;
- j) boshqa tashkilotlar bilan barter bitimlari.

III. Umumiy ovqatlanish korxonalariga.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatga sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hajmi keskin qisqarib boradi va bozor kanallari bo'yicha sotish oshib boradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotish yo'llarini tanlashda, sotish sohasi bilan bog'liq xarajatlar sarflanadi. U transaksiya xarajatlari deyiladi. Bu xarajatlar o'z ichiga baho to'g'risidagi axborotlarni izlash, hamkorlarni tanlash, shartnomalar tuzish, shuningdek, mulkni himoya qilish kabi xarajatlarni oladi. Transaksiya xarajatlarning darajasi har doim ham oldindan aniqlanavermaydi. U mahsulotning xususiyati, uni ishlab chiqarish texnologiyasi, ayirboshlashdagi hamkorlarning xohish-istagiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish yo'llariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari:

1. Qayta ishlash:

- a) ulgurji savdo korxonalarini;
- b) chakana savdo korxonalarini;
- d) pirovard iste'molchi.

2. Dehqon bozorlari.

3. Tayyorlov tashkilotlari:

- a) ulgurji savdo korxonalarini;
- b) chakana savdo korxonalarini;
- d) pirovard iste'molchi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yuqorida keltirilgan sotish kanallarining qanchalik darajada qulayligini va imkoniyat darajasida iqtisodiy jihatdan munosabat o'rnatishi mumkin bo'lgan variantni tanlashlari kerak bo'ladi.

TAYANCH IBORALAR

Iqtisodiy samaradorlik, jonli mehnat, buyumlashgan mehnat, xarajat, samara, mezon, mahsulot miqdori, bozor tizimi, bozor mexanizmi, yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, rentabellik.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Yalpi mahsulot nima va u qanday taqsimlanadi?
2. Tovar mahsulot nima?
3. Tovarlik darajasi qanday aniqlanadi?
4. Yalpi va sof daromadning taqsimlanishi.
5. Tovar mahsulot sifatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Tovarlarining raqobatbardoshligi nimani anglatadi?

12-bob.

QISHLOQ XO'JALIGINI INTENSIVLASHTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

12.1. Ishlab chiqarishni ekstensiv va intensiv rivojlantirishning mohiyati

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qonuni asosida amalga oshib, ekstensiv va intensiv yo'llardan foydalaniladi. Ekstensiv shakldagi qishloq xo'jaligini rivojlantirish deganda, mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikning o'sishini miqdoriy omillar evaziga — yangi yerlarni o'zlashtirish, ekin maydonlarini ko'paytirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va qo'shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali erishilishi tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish resurslarining ko'lamlari ortishi yuz bergani holda texnika-texnologiyaning sifat darajasi, yer unumdorligi va chorva mollar mahsuldorligi tubdan o'zgarmaydi.

Ekstensiv omillar o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'z tarixining dastlabki davrlaridan boshlab, o'zlari o'zlashtirgan yerlarni tark etib unumdor yerlarni qidirish uchun yer kurrasining har tomoniga tarqalishgan. Yangi yerlarni o'zlashtirish hozirgi davrda mamlakatimizdagi kabi dunyoning boshqa mamlakatlarida ham davom etmoqda. Shu bilan birgalikda dunyo mamlakatlarning rivojlanish tarixi tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini yuksaltirishning nisbatan samarali va ahamiyatliroq shakli bo'lgan intensivlashtirish muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni intensiv shaklda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi sifat omillar evaziga, ya'ni nisbatan takomillashgan zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tatbiq etish (ulardan to'la va samarali foydalanish), dehqonchilik va chorvachilikning mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etuvchi ilg'or texnologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali

amalgaga oshiriladi. Shuni nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv shakli ba'zi hollarda samarali bo'lishi mumkin, shunga muvofiq har doim ekstensiv shaklni samarasiz deb ta'kidlash fikri o'zini oqlamaydi. Amalda bu ikki yo'l ishlab chiqarishning rivojlanishida bir-birini to'ldirib, pirovardida umumiy iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Ular yagona xo'jalik faoliyatiga xos usullar bo'lib, bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishda ham miqdoriy (ekstensiv), ham sifat (intensiv) jihatlari mavjud bo'ladi, ammo ularning nisbati har xil mutanosiblikda bo'ladi. Iqtisodiyot qo'l mehnati texnologiyasi va malakasiz ish kuchiga asoslangan joyda, ekstensiv o'sish ustun turadi. Aksincha, ishlab chiqarish mashinalashgan, serunum texnologiya va yuksak malakali ish kuchiga tayangan joyda intensiv o'sish birinchi o'rinda turadi, ishlab chiqarish rivojlangan sari qonuniyatli tarzda intensiv o'sishning ahamiyati barqaror oshib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining intensivlashtirish nazariyasi, avvalambor, yerning xususiyatini hisobga olish, uning qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi ekaniga asoslanadi. Ma'lumki, yerning asosiy vosita sifatida muhim xususiyatlaridan biri uning chegaralanganligidir. Yerning chegaralanganligi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini intensivlashtirishni taqozo etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni qo'shimcha yer maydonlarini o'zlashtirish orqali amalga oshirish chegaralanganligi ishlab chiqarish oldiga mavjud o'zlashtirilgan yerlarning sifatini yaxshilash, binobarin, ulardan intensiv foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash yuzasidan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. Almashlab ekish tizimlari yangilanib g'o'za, g'alla, beda ekinlari ekiladigan qisqa aylanishli yangi me'yor joriy etildi. Binobarin, respublikada paxta maydonlari qisqartirildi va 2000-yilda 1,5 million gektarga chigit ekildi. Bu ko'rsatkich yildan yilga kamayib, endigi talab paxta yetishtirishning faqat intensiv texnologiya asosida ko'paytirilishidan iboratdir. O'zbekistonda 2014-yilda chigitni yangi texnologiyalar asosida erta muddatlarda ekish joriy etilib, u yaxshi natijalar berdi, ya'ni hosildorlik ochiq maydonlardagidan gektariga 5—8 sentner yuqori, kultivatsiya va o'g'it solish tad-

birlarining takomillashuvi natijasida yoqilg'i-moylash materiallari sarfi 20 % ga kamaydi. Paxta yig'im-terimini erta tugatishga erishish hisobiga esa kuzgi boshqolilarni ekish imkoniyati yaratildi.

12.2. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy omillari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish — ko'p jihatli jarayon bo'lib, hozirgi sharoitda uning quyidagi omillari muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish. Qishloq xo'jaligini yuksaltirishning birlamchi masalalaridan biri qishloqda iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirish, dehqonlarga kam xarajatlar sarflagan holda ko'plab sifatli mahsulot yetishtirishga intilish hissiyotiga ega bo'lgan yerning haqiqiy egalik huquqini qaytarish. Qishloqda iqtisodiy qayta qurishning asosida — dehqonlarga mustaqil harakat etish, tadbirkorlik va tashabbuskorlikni amalga oshirishga zamin yarata oladigan xo'jalik yuritishning turli mulkka va shakliga asoslangan muhitni yaratish.

2. Yetishtirilgan mahsulotlarni asrash, uning nobudgarchiligining oldini olish. Qishloq xo'jaligining mavsumiylik xususiyatini unga mutanosib holda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishiga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli mulk shakllarini keng rivojlantirish orqali ishlab chiqarishga yaqin yillarda saqlash, qayta ishlash shoxobchalarini yaratish imkoniyatlari tug'ildi. Mahsulotlar nobudgarchiligining oldini olish bilan bir qatorda ularni tashish bilan bog'liq xarajatlarning kamayishiga erishildi.

3. Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirishning asosida yerning unumdorligini oshirish orqali o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar yotadi:

a) hosildorlikni oshirishga qaratilgan mineral o'g'itlarni tatbiq etish tadbirlari;

b) kimyoviy vositalardan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlari;

d) o'simlik va chorva mollari zararkunanda hasharotlari va kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish;

e) chorva mollarining to'yimlilikini oshirishda kimyoviy chiqarilgan mahsulotlarning keng ko'lamda qo'llanishiga qaratilgan tadbirlar;

f) qishloq xo'jaligida, kimyo sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning keng ko'lamda qo'llanilishiga qaratilgan tadbirlar.

4. Qishloq xo'jaligini melioratsiyalash. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mahsuldorligini oshiradigan qo'shimchalardan foydalanish. Qishloq xo'jaligida, kimyo sanoatida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda — sug'orish, zaxni qochirish, yerni ohaklash, sho'r yuvish tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish muhim omillar jumlasiga kiradi.

5. Resurs talabchanligi kam bo'lgan intensiv texnologiyalarni qo'llash. Dehqonchilikda mavjud texnologiyalarni takomillashtirish muhim bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) ilmiy asoslangan o'g'it me'yorlarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi ekinlarining oziqa talabchanligini optimallashtirish;

b) qishloq xo'jaligi ekinlarining intensiv navlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish;

d) yerdan va boshqa asosiy vositalardan samarali foydalanishni ko'zda tutgan holda o'simliklarni joylashtirishning ratsional sxemalarini ishlab chiqish;

e) qishloq xo'jaligi mashinalarini takomillashtirish orqali agrotexnika tadbirlarini amalga oshirishni qisqartirish va qo'shib olib borish;

f) mahsulotlarni yig'ish, ortish va tashishdagi tadbirlarni takomillashtirish.

Chorvachilikda texnologiyalarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

a) chorva mollarini saqlash, boqish va boshqa yo'nalishlarda intensiv texnologiyalarni joriy etish;

b) mollar oziqasi va ulardan olinadigan mahsulotlarni standartlashtirish;

d) chorva mahsulotlari ishlab chiqarishni sanoat asosiga o'tkazish.

6. Chorva mollarining tarkibi sifatini va ularning oziqa bazasini yaxshilash. Chorvachilikni intensivlashtirishning muhim omili poda harakati va sifatini yaxshilash hisoblanadi, bunga yuqori mahsuldor mollar nasllarini yaratish bilan bog'liq tadbirlar kiradi. Chorvachilikni rivojlantirishda uning mustahkam oziqa bazasini yaratish muhim bo'lib, oziqa tarkibi, ko'lami va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

7. Ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida qishloq xo'jaligi

ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi tinimsiz yuksala boradi. Shu bilan birga iqtisodiy asoslangan qishloq xo'jaligi korxonalarining optimal katta-kichikligi, ularning mehnatga muvofiq ixtisoslashuviga, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatini ko'tarishga, fan-texnika yutuqlarining amaliyotga tatbiq etilishiga zamin yaratilib, natijada mahsulot yetishtirishning samaradorligini oshirishga erishiladi.

8. Mutaxassislar malakasini oshirish. Qishloq xo'jaligiga fan yutuqlarni tatbiq etishda kadrlarning mutaxassislik saviyasini va texnik tayyorgarlik darajasini oshirmay turib erishish mumkin emas. Qishloq xo'jaligida mutaxassislarning malakasini oshirish, birinchidan, mutaxassislarga murakkab va ilgari amalga oshira olmagan ishlarni bajarish uchun, ularning malakasini oshirish va turdosh kasblarni egallashiga zamin yaratish, ikkinchidan, nisbatan yuqori sifatga ega bo'lgan mahsulot olish, uchinchidan, ma'lum bir vaqt oralig'i davomida avvaldagidan ko'proq mahsulot ko'lamini yetishtirish yoki xizmatlar hajmini bajarishga imkon yaratish.

9. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini tatbiq etish. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini intensivlashtirish sur'atlarini oshirish va uning samaradorligini ko'tarishni fan-texnika yutuqlari natijalarining tatbiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fan-texnika sohalaridagi yutuqlar ishlab chiqarish kuchlarini yanada yuksaltiruvchi muhim omil bo'lib, ishlab chiqarish resurslari qatorida ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda amaliyotda mavjud bo'lgan ilg'or tajribalar natijasini tahlil qilish va ularning ishlab chiqarishga keng tatbiq qilinishi katta ahamiyat kasb etib, mahsulot ko'lamining ko'payishiga va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

12.3. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish masalalarini o'rganishda intensivlik va intensivlashtirish darajasi, intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi tushunchalarini bir-biridan ajrata bilish lozim.

Intensivlik — bu qishloq xo'jaligi va uning ayrim tarmog'ining ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligini aks ettiradi. Intensivlashtirish darajasi esa qishloq xo'jaligi va uning ayrim tarmog'ining xolisona o'sish sur'ati darajasini o'zida aks ettiradi.

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi esa mahsulotning ekin maydoni birligi hamda chorva mollari boshi soni hisobiga o'sishni o'zida aks ettiradi. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish darajasi natira va qiymat ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Natural ko'rsatkich yordamida xo'jalikdagi tarmoqlar va ularning bir-birlari bilan qanchalik bog'langanligi hamda ayrim tarmoqchalar va ekin turlari bo'yicha qancha mahsulot yetishtirilganligini aniqlash mumkin.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish darajasini o'zida aks ettiruvchi natural ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Yer maydoniga to'g'ri keladigan energetika quvvati. Bu ko'rsatkich har 100 gektar yer maydoniga qancha texnika vositalari, avtomashina va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari to'g'ri kelishini ko'rsatadi;

2. Har gektar ekinzorga to'g'ri keladigan mineral va mahalliy o'g'it. Bu ko'rsatkich yerning iqtisodiy unumdorlik darajasiga ta'sir etish ko'lamini o'zida ifoda etadi;

3. Yer fondida ekin maydonlari hissasini ko'paytirish. Bu ko'rsatkich yerdan qay darajada foydalanilayotganligini ko'rsatadi;

4. Sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlarning umumiy yer maydoniga nisbati. Bu ko'rsatkich tuproqning iqtisodiy unumdorligi o'sish darajasini ifodalaydi.

Chorvachilikning intensiv rivojlanganligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning asosiylari quyidagilardan iborat.

1. Har bir bosh qishloq xo'jaligi hayvoniga to'g'ri keladigan qiymat ko'rinishidagi jonli va buyumlashgan mehnat sarfi. Har bir bosh hayvon hisobiga qancha ko'p ishlab chiqarish vositalari va bevosita mehnat xarajatlari to'g'ri kelsa, qoidaga muvofiq undan olinadigan mahsulot miqdori ham shuncha yuqori bo'ladi;

2. Har bir bosh qishloq xo'jaligi hayvoniga to'g'ri keladigan oziqa. Ma'lumki, chorva mollarini ilmiy asoslangan ratsion asosida oziqlantirish ularning mahsuldorligi ortishiga olib keladi;

3. Chorvachilikni yuritish madaniyatini ko'tarish: maxsus qulayliklarga ega bo'lgan chorva binolarini barpo etish, ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va elektrlashtirish, sanitariya va gigiyena sharoitlarini yaxshilash va boshqarish;

4. Chorvachilikda naschilik bilan bog'liq ishlarni yaxshilash. Ma'lumki, chorva mollarining nasli qancha yuqori bo'lsa, undan olingan mahsulot miqdori ham shuncha ko'p bo'ladi;

5. Mutaxassislarning malakasini oshirish mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir etadi.

Qiymat ko'rsatkichi sarflangan mehnat va mablag' evaziga qancha so'mlik qo'shimcha mahsulot yetishtirilganligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanish darajasini o'zida aks ettiruvchi qiymat ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Bir gektar yerga to'g'ri kelgan asosiy ishlab chiqarish vositalari va joriy ishlab chiqarish xarajatlari (amortizatsiyadan tashqari). Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Id = \frac{Iv + Ix}{Yer},$$

bu yerda, Id — intensivlik darajasi, so'm/ga; Iv — asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati, so'm; Ix — joriy ishlab chiqarish xarajatlari, so'm; Yer — yer, gektar.

Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligining qay darajada intensiv rivojlanganligini o'zida aks ettiradi.

2. Bir gektar yer hisobiga to'g'ri kelgan asosiy ishlab chiqarish vositalar qiymati. Bu ko'rsatkich har gektar yer maydoni hisobiga qancha ishlab chiqarish vositalari to'g'ri kelishini o'zida aks ettiradi.

3. Bir gektar yer hisobiga to'g'ri kelgan joriy ishlab chiqarish xarajatlari. Bu ko'rsatkich har gektar yer va har bir qishloq xo'jaligi hayvonlaridan olingan mahsulot uchun bevosita sarflangan xarajatlar miqdorini o'zida ifoda etadi.

4. Bir gektar yer hisobiga to'g'ri kelgan jonli mehnat sarfi. Bu ko'rsatkich mahsulot yetishtirishda sarflanayotgan jonli mehnat hissasini ko'rsatadi.

Shunday qilib, intensivlashtirishning natural va qiymat ko'rsatkichlari yordamida uning iqtisodiy samaradorlik darajasini aniqlash mumkin.

12.4. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti har bir gektar yerdan va har bir bosh moldan olinadigan mahsulotni ko'paytirish hisoblanadi. Intensivlashtirish jarayoni bir gektar yerga yoki bir bosh molga qo'shimcha mablag'ning o'sishini bildirib qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanishni ham bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi sarflangan xarajatlar

hajmiga taqqoslaganda har bir gektar yerdan arzon va yuqori sifatli mahsulotni yuqori sur'atda olishda ifodalanadi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yer, moddiy texnika va mehnat resurslaridan faol foydalanish, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni har tomonlama hisobga olishni talab qiladi. Nazariy jihatdan har qanday yer uchastkasiga, har qanday hajmda, har qanday kapitalni qo'yish mumkin, lekin bu o'z-o'zidan ma'lumki, agar shu mamlakatda shu paytda barcha sharoitlar, ya'ni iqtisodiy, texnikaviy, madaniy va boshqa sharoitlar mavjud bo'lishiga bog'liq. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar oqilona sarflanishi kerakki, bunda xo'jalik har bir birlik xarajatga ko'proq mahsulot va maksimum foyda olishi kerak.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Ular orasida birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilar, ya'ni bir gektar yerga to'g'ri kelgan yalpi mahsulot:

$$Si = \frac{YM}{Yer},$$

bu yerda, Si — intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, so'm/ga; YM — yalpi mahsulot qiymati, so'm; Yer — yer, gektar.

Xo'jalik yalpi mahsuloti taqqoslama baholarda baholanadi. Bunday baholanish ushbu ko'rsatkichni dinamikada, shuningdek, bir xil sharoitda ishlaydigan qator xo'jaliklar faoliyatini taqqoslashni o'tkazishda foydalanish imkonini beradi. Hosildorlikning oshishi va bir vaqtning o'zida unga sarflangan tannarxning pasayishi intensivlashtirish samaradorligining yuqori darajada ekanligini bildiradi. Bunday holatda yerga sarf qilingan har bir so'm xarajatlarni qoplaydigan, qo'shimcha mahsulot olib kelmasdan, balki qo'shimcha sof daromad olish imkonini ham beradi. Bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan yalpi daromad:

$$Si = \frac{YD}{Q / XYY},$$

bu yerda, YD — yalpi daromad (sof mahsulot), so'm; Q/XYY — qishloq xo'jaligiga yaroqli yer, gektar.

Bu ko'rsatkich ancha takomillashgan ishlab chiqarish vositalarida, ilg'or texnologiyada, qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori navi va

mollar zoti hamda boshqalarda bajarilgan, qo'shimcha mablag'lardan ancha oqilona foydalanishni aks ettiradi. Bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan sof daromad yoki foyda:

$$Si = \frac{SD}{Q / XY} \text{ yoki } \frac{F}{Q / XY},$$

bu yerda SD — sof daromad, so'm; F — foyda, so'm

Bu ko'rsatkich alohida ahamiyatga ega. Modomiki, sof daromad qo'shimcha qo'yilmalarning asosiy manbayi hisoblanar ekan, u holda kelgusida ishlab chiqarishni kengaytirish va mustahkamlash uning hajmiga bog'liq. Qishloq xo'jaligini izchillik bilan intensivlashtirish qo'shimcha mablag'larning ancha yuqori, tez qaytarilishiga va mos ravishda sof daromadning o'sishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, quyidagi ko'rsatkichlar bilan ham xarakterlanishi mumkin, ya'ni bir birlik mehnat xarajatlari hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot (yalpi va sof daromad) hajmi:

$$Si = \frac{YM}{MeXar} \text{ yoki } \frac{YD}{MeXar} \text{ yoki } \frac{SD}{MeXar},$$

bu yerda, $MeXar$ — mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan mehnat xarajatlari, kishi/soat.

Bir so'mlik asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan yalpi mahsulot (yalpi va sof daromad):

$$Si = \frac{YM}{AsF + AyF} \text{ yoki } \frac{YD}{AsF + AyF} \text{ yoki } \frac{SD}{AsF + AyF},$$

bu yerda, AsF — asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati, ming so'm; AyF — aylanma fondlar qiymati, ming so'm.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir gektar yerdan ishlab chiqariladigan mahsulotning ko'payishida, mahsulot birligiga sarflangan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlarining pasayishida o'z aksini topadi.

12.5. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning samaradorligini oshirish

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, uning yo'nalishiga, sur'atiga va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan ko'p omillarga bog'liq. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda muhim rol qishloq

xo'jaligi ishlab chiqarishida fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishga tegishli. U o'z ichiga nafaqat mashina texnikasidagi taraqqiyotni, balki ishlab chiqarishni tashkil qilish va texnologiyasidagi, fanni rivojlantirishdagi, ilg'or tajribadan foydalanishdagi taraqqiyotni ham oladi.

Tuproqni ishlashni yaxshilash, qo'shimcha organik va mineral o'g'itlar solish, meliorativ ishlarni o'tkazish, barcha kompleks agrotexnik tadbirlarni bajarish tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirishga, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni o'stirishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish samaradorligini oshirish yo'llari quyidagilar:

- a) qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish;
- b) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida investitsiya va kapital qo'yilmalarning o'sishi;
- d) qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- e) ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish darajasini oshirish;
- f) qishloq xo'jaligini kimyolashtirishni rivojlantirish (mineral o'g'itlar solish va kimyoviy o'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llash);
- g) qishloq xo'jaligini melioratsiyalash (sug'orish, zaxini qochirish, boshqa ishlarni rivojlantirish);

h) qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish.

Intensivlashtirishni izchillik bilan amalga oshirishning muhim sharti qishloq xo'jaligiga ajratilgan kapital qo'yilmalarning o'sishidir. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni asta-sekinlik bilan sanoat asosiga o'tkazishga imkon beruvchi kuchdan, iqtisodiy salohiyatdan foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, traktorlar, kombaynlar, avtomobillar va boshqa texnikalarni yetkazib berishni ko'paytirish ishlab chiqarish jarayonlarida mexanizatsiyalashtirish darajasini asta-sekinlik bilan oshirishning dehqonchilikda va chorvachilikda ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni joriy qilishning ishonchli asosi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda shudgorlash, g'alla ekish, paxta ekish, qator oralariga ishlov berish, g'allani yig'ishtirish ishlari to'liq mexanizatsiyalashgan.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning yetakchi yo'nalishlaridan biri kimyolashtirishdir. Organik va mineral o'g'itlarni solish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga,

qo'shimcha mablag'lar qaytimini tezlashtirishga imkon beradi va bevosita tuproq unumdorligini o'zgartirishga olib keladi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning yana bir muhim yo'nalishi melioratsiya hisoblanadi. Bu tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirishning va dehqonchilik samaradorligini oshirishning kompleks hamda uzoq muddat ta'sir qiluvchi omilidir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning yuqori fan-texnika darajasiga fan yutuqlarining rolini har tomonlama oshirish bazasida erishilishi mumkin. Olimlar diqqatini qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli navlarini, mollar va parrandalarning yuqori mahsuldor zotlarini yaratishga, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashishning samarali vositalarini ishlab chiqishga, ilg'or texnologik jarayonlar va mexanizatsiyaning yangi vositalarini ishlab chiqishga, qishloq xo'jaligining texnik darajasini oshirishga, ishlab chiqarishni tashkil qilishning shakllarini takomillashtirishga va boshqalarga qaratareb dolzarb vazifadir.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish ishlab chiqarishga qo'yilgan, sarflangan har bir so'mdan oqilona foydalanishni ko'zlaydi. Izchil intensivlashtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sifat jihatdan qayta tashkil etish va uning samaradorligini oshirishning yetakchi omili hisoblanadi.

TAYANCH IBORALAR

Ekstensiv, intensiv, intensivlashtirish, intensivlik, intensivlashtirish darajasi, intensivlashtirish omillari, intensivlashtirish ko'rsatkichlari, intensivlashtirish samaradorligi, iqtisodiy samaradorlik, jonli mehnat, buyumlashgan mehnat, xarajat, samara, mezon, mahsulot miqdori, bozor tizimi, bozor mexanizmi, yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, rentabellik.

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishlab chiqarishni rivojlantirish qanday yo'llarga asosan amalga oshiriladi?
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari qaysilar?
3. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va hisoblash usullari.
4. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning samaradorligini oshirish yo'llari.

13-bob.

**QISHLOQ XO'JALIGINI JOYLASHTIRISH,
IXTISOSLASHTIRISH, YIRIKLASHTIRISH
VA INTEGRATSIYALASHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**13.1. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari tarkibi. Tarmoqlarni
oqilona qo'shib olib borish tamoyillari**

Qishloq xo'jaligi turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, kompleks o'zaro aloqador tarmoqlarni ifodalaydi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlaridan quyidagi belgilar bilan farq qiladi:

- a) ishlab chiqaradigan mahsulot turlari;
- b) ishlab chiqarish vositalarining turlari va tashkiliy tuzilishi;
- d) xodimlar malakasi va tarkibi;
- e) mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash xususiyatlari.

U ikki tarmoqdan — o'simlikchilik va chorvachilikdan tashkil topgan. Har birining ichida tarmoq tarkibi mavjud. O'simlikchilikda tarmoqlar ekiladigan ekinlarning turi va guruhiga qarab bo'linadi. Masalan, g'allachilik, paxtachilik, kanopchilik va boshqalar. Sabzavotchilikda ochiq va yopiq usulda mahsulot yetishtiriladi. Bog'lar esa danakli va urug'lilarga bo'linadi. Chorvachilikda esa mollar va hayvonlar turlariga qarab tarmoqlarga bo'linadi: qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik, pillachilik va h.k. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotning xarakteriga qarab sut, qoramolchilik, go'sht-sut, qo'ychilik, jun-teri olish bo'yicha va boshqalar.

Ishlab chiqarishdagi roli va iqtisodiy ahamiyatiga qarab korxonalarda qishloq xo'jaligi tarmoqlari: bosh (yetakchi), qo'shimcha va yordamchi tarmoqlarga bo'linadi. Bosh (yetakchi) tarmoq deb, qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotida yuqori salmoqni egallagan tarmoqqa aytiladi. Asosiy tarmoq korxonaning ixtisoslashishini aniqlaydi. Qo'shimcha tarmoq bosh tarmoqqa nisbatan, yalpi va tovar mahsulot ishlab chiqarishda kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Ularni qo'shib olib borish mehnat, yer va moddiy resurslardan to'liqroq foydalanishni ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan tashqari, o'simlikchilik va chorvachilikka xizmat qiluvchi tarmoqlar — ta'mirlash xizmati, elektr xo'jaligi, avtotransport va boshqalar faoliyat ko'rsatadi.

Yordamchi tarmoqlar tarkibiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar va sexlar, qurilish ustaxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar va boshqalar kiradi.

Mahsulotdan foydalanish shakliga qarab qishloq xo'jaligi tarmog'i ikki guruhga bo'linadi:

1. Tovar, sotish uchun mo'ljallangan mahsulot (paxta, pilla va boshq.);

2. Notovar, to'lig'icha yoki asosiy qismi ichki ehtiyojga foydalaniladigan mahsulot (yem-xashak va boshq.).

Qishloq xo'jaligining tarmoqlar tarkibi qishloq xo'jaligi jamiyalpi mahsuloti tarkibida alohida tarmoqlar yalpi va tovar mahsulotining salmog'i bilan xarakterlanib, quyidagicha hisoblaniladi:

$$TS = \frac{YMQd.ch.; TMQd.ch.}{YMQq / x; TMQq / x} \cdot 100,$$

bu yerda, TS — tarmoq tarkibi.

Bir qancha qishloq xo'jaligi tarmoqlarini iqtisodiy asoslab qo'shib olib borish ishlab chiqarishning mavsumiyligini pasaytiradi, mehnat, yer, moddiy resurslardan to'laroq foydalanish imkoniyatini beradi, ishlab chiqarish vositalari va mehnat xarajatlari notekisligini kamaytiradi. Tarmoqlarni oqilona qo'shib olib borish yil davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlari va pul vositalarining bir tekis kelib tushish imkonini beradi, xo'jaliklar iqtisodiyotiga samarali ta'sir ko'rsatib, ularning moliyaviy holatini yaxshilaydi.

Qishloq xo'jaligida tarmoqlarni oqilona qo'shib olib borishning asosiy tamoyillari, maqsadi va shartlari quyidagilar:

1. Resurs salohiyatidan — mehnat, yer, suv va moddiy resurslardan samarali foydalanish;

2. Mahsulot birligi hisobiga minimal darajada mehnat xarajatlari va vositalar sarflab, maksimal miqdorda mahsulot olishni ta'minlash;

3. Ishlab chiqarishning mavsumiyligini kamaytirish, yil davomida texnika va ish kuchidan to'liqroq foydalanish;

4. Yil davomida aylanma vositalarning aylanishini va pul vositalarining bir tekis kelib tushishini ta'minlash va h.k.

13.2. Joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchasi, ularning ilmiy asoslari

Qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli ko'rinishidir.

Joylashtirish — alohida turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika mintaqalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo'yicha miqdoriy taqsimlashni bildiradi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish uni ixtisoslashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishda mintaq va korxonalarining tabiiy hamda iqtisodiy sharoitini hisobga olish muhimdir. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligi hududlarini yoki alohida korxonalarni ixtisoslashtirish bosh (asosiy) tarmoqni ajratib olish va uning rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Ixtisoslashtirish ishlab chiqarish yo'nalishini xarakterlaydi va hudud yoki xo'jalikning tarmoq tarkibini aniqlaydi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni oqilona ixtisoslashtirishning iqtisodiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. U bosh ishlab chiqarish vositasi — yerdan samarali foydalanish uchun sharoit yaratadi. Shu asosda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdorini ko'paytiradi va sifatini yaxshilaydi;

2. Ixtisoslashtirish qishloqda mehnat resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkoniyat yaratadi. Dehqonchilik va chorvachilik xodimlarining professional tarkibini o'zgartiradi, kadrlarning malakasini va mehnat unumdorligini oshiradi;

3. Ixtisoslashtirish kapital qo'yilmalar va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Ishlab chiqarishga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini va ilg'or tajribalarni joriy qilishga imkoniyat yaratadi;

4. Ixtisoslashtirish tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini pasaytirish hamda rentabellikni oshirishga sharoit yaratadi va h.k.

Qishloq xo'jaligini iqtisodiy asoslangan joylashtirish va ixtisoslashtirish ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Bozor talabini hisobga olish. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini joriy qilish qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash jarayonini o'zgartirish, ishlab chiqarishni tashkil qilishning progressiv shakliga o'tish, zarar keltiradigan mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechish;

2. Tabiiy va iqtisodiy sharoitlardan to'laroq foydalanish;
3. Mahsulot ishlab chiqarishni iste'molchilarga yaqinlashtirish;
4. Hududlarni oziq-ovqat va sanoatni qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan ta'minlash orqali hududlararo mehnat taqsimotini qo'shib olib borishni ta'minlash;
5. Mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash;
6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda xalqaro mehnat taqsimotini hisobga olish va h.k.

13.3. Ixtisoslashtirishning shakllari, ko'rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ixtisoslashtirish quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Xo'jalik ichidagi ixtisoslashtirish. Bunda mahsulot ishlab chiqarish xo'jaliklar ichidagi bo'limlar, fermalar, brigadalar va oilalar bo'yicha ixtisoslashadi;

2. Xo'jaliklararo ixtisoslashtirish. Bunda turli xil mahsulotlar yetishtirish bo'yicha korxonalar o'rtasida mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Xo'jaliklararo cho'chqachilik yoki qoramolni bo'rdoqiga boquvchi, buzoqlarni o'stiruvchi fermalar, mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar va h.k. tashkil etiladi;

3. Tarmoqlar ichida ixtisoslashtirish. Bunda bir tarmoq ichida, chunonchi, chorvachilikda — qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik kabi sohalar bo'yicha, dehqonchilikda esa g'alla, paxta, sabzavot, poliz kabi mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Xo'jalikda ixtisoslashtirishni to'la xarakterlash uchun ixtisoslashtirish koeffitsiyenti ko'rsatkichi qabul qilingan. U quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{ix} = \frac{100}{H(2n-1)}$$

bu yerda, 100 — alohida tarmoq bo'yicha tovar mahsulotlarining umumiy hissasi, %; H — tarmoqdagi tovar mahsulotlarining turlari bo'yicha hissasi, % da; n — tovar mahsulotlarining hissasi bo'yicha tartib raqami (eng yuqoridan boshlab).

Masalan, paxtachilikka ixtisoslashgan xo'jalikda tovar mahsulotlar tarkibi quyidagilardan iborat bo'lsin (jami tovar mahsulotga nisbatan foiz hisobida): paxta — 50 %, don — 30 %, sut — 15 % va boshqa turdagi mahsulotlar esa 5 %. Shu ma'lumotlar asosida ixtisoslashtirish koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$Kix = \frac{100}{50(2 \cdot 1 - 1) + 30(2 \cdot 2 - 1) + 15(2 \cdot 3 - 1) + 5(2 \cdot 4 - 1)} = 0,38.$$

Bu koeffitsiyent qancha bir butunga yaqin bo'lsa, ixtisoslashtirish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Agar ixtisoslashtirish koeffitsiyenti 0,35 bo'lsa, past darajadagi ixtisoslashtirish; 0,35 dan 0,50 gacha o'rta; 0,50 dan 0,60 gacha yuqori; 0,60 dan yuqori bo'lsa, chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirish deyiladi.

4. Mintaqa yoki iqtisodiy tumanlar bo'yicha ixtisoslashtirish. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish borasida mintaqa yoki iqtisodiy tumanlar bo'yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Masalan, sobiq Ittifoq bo'yicha Boltiqbo'yi respublikalari chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga, Kavkazorti respublikalari choy va uzumchilikka, O'rta Osiyo respublikalari, asosan, paxtachilikka, pillachilikka va qorako'lchilikka ixtisoslashgan edi. Shuni ta'kidlash kerakki, xo'jaliklarning ixtisoslashtirish darajasi yetishtirilayotgan bitta yoki bir qancha tovar mahsulotlarining salmog'iga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Bunda bir turdagi tovar mahsuloti yetishtirishga asoslangan xo'jalik tor doirada ixtisoslashgan, yetishtirilayotgan uch, to'rt xil tovar mahsulotlarining har qaysisining salmog'i deyarli bir xilda (20—30 %) bo'lsa, bu xo'jalik past darajada ixtisoslashgan; bir yoki undan ko'proq tovar mahsulotlarining har biri kattaroq salmoqni (40—60 %) egallasa, unda xo'jalik o'rtacha darajada ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, xo'jalikda yetishtirilgan tovar mahsulotning asosiy qismini paxta egallasa, u paxtachilikka, don egallasa, g'allachilikka, qorako'l teri egallasa, qorako'lchilikka ixtisoslashgan bo'ladi.

O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari shuni taqozo etadiki, bunda mahsulotning bir turini emas, balki ikki va undan ham ko'proq turini yetishtirishni ixtisoslashtirish mumkin. Masalan, shahar atrofida joylashgan xo'jaliklar mahsulotlarning sut-sabzavot, sabzavot-kartoshka-chorva, chorva-g'alla, sabzavot-meva, uzum kabi qator turlarini yetishtirishga ixtisoslashgandir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda shakllanayotgan va rivojlanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari bunga misol bo'la oladi.

Qishloq xo'jaligida tarmoqlarni qo'shib olib borishning va ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi:

1. 100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga va haydaladigan yerga, 1 nafar xodimga, 100 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga va 100 so'mlik joriy ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ri kelgan yalpi va tovar mahsulot qiymati;

2. 100 ga haydaladigan yerga to'g'ri kelgan g'alla, paxta, go'sht, sut va boshqalar;

3. Mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi.

Demak, mahsulot yetishtirish uchun qayerda qulay sharoit mavjud bo'lsa, mahsulot birligining tannarxi va bahosi arzonlashsa, bu xo'jalik va iste'molchilar uchun shuncha foydalidir.

TAYANCH IBORALAR

Tarmoq tarkibi, joylashtirish, tarmoqlarni integratsiyalash, ixtisoslashtirish, konsentratsiya, ixtisoslashtirish shakllari, ixtisoslashtirish koeffitsiyenti, xalqaro mehnat taqsimoti, mehnat unumdorligi, rentabellik ko'rsatkichlari.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirish qaysi qonuniyatlarga asosan amalga oshiriladi?
2. Joylashtirish va ixtisoslashtirishning ilmiy asoslari nimada?
3. Ixtisoslashtirishning shakllari va ko'rsatkichlari qanday?
4. Joylashtirish va ixtisoslashtirishning samaradorligi qanday aniqlanadi?

14-bob. **QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI
(ISH, XIZMATLAR) TANNARXI VA
UNI PASAYTIRISH IMKONIYATLARI**

**14.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va
mahsulot tannarxi. Tannarxning turlari**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqda ishlab chiqarish resurslari (mehnat, yer, suv moddiy va boshqa)ni ishlatish bilan chambarchas bog‘langan, qaysiki, ishlab chiqarish jarayonida qisman yoki butunlay iste‘mol qilinadi, ularning qiymati esa tayyor mahsulotga o‘tadi. Iste‘mol qilingan va mahsulotga o‘tkazilgan ishlab chiqarish resurslarining jami yig‘indisi mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ikki xil bo‘ladi: *ijtimoiy xarajatlar* va *korxonalar xarajatlari*. Ijtimoiy xarajatlar bu jamiyatning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarining jamidir. Ular mahsulot qiymatidan tashkil topadi va o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari (ajratmalari bilan);
2. Yagona yer solig‘i;
3. Iste‘mol qilingan moddiy resurslar qiymati;
4. Qo‘shimcha mahsulot qiymati.

Qo‘shimcha qiymat boshqarish, maorif, sog‘liqni saqlash, mudofaa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va boshqalarga qilingan xarajatlarni qoplashga sarflanadi. Mahsulotlar qiymatining asosiy qismi korxonalar xarajatlarini tashkil etadi va uning tarkibiga mehnat haqi, ishlab chiqarishda qatnashgan asosiy vositalarning yillik eskirishi, mashina uskunalari, aylanma vositalarning qiymati, ayrim soliqlar, to‘lovlar va boshqalar kiradi. Ma‘lumki, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xo‘jalik yuritishning barcha shakllarida mahsulot qiymatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xarajatlarning qiymatdan farqi takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalarida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish sohasida xarajatlarning shakllanishi qiymat tashkil topishining birinchi

bosqichidir. Bunda ishlab chiqarishning o'zi mehnat jarayoni va qiymat yaratish jarayonining birligi bo'lib harakat qiladi, ya'ni jonli mehnat jarayoni va qiymat yaratish jarayonining birligi bo'lib harakat qiladi. Bu yerda jonli va buyumlashgan xarajatlar hamda tadbirkorlik yalpi mahsulot, shu jumladan, qo'shilgan qiymatni yaratadi.

Ishlab chiqarish sohasida qiymat va korxonalar xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik amaliy ahamiyatga ega. Nooqilona xo'jalik yuritish, ishlab chiqarish resurslaridan yetarli darajada samarali foydalanmaslik tufayli, sarflangan barcha turdagi bevosita va bilvosita xarajatlarning samaradorligi pasayadi.

Ijtimoiy xarajatlarning, binolar qiymatining ma'lum bir qismi sifatida ishlab chiqarish xarajatlari pulda ifodalanadi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlariga ishlab chiqarish resurslarining qo'llanilgani emas, balki iste'mol qilingan qiymati kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga mehnat yaratgan jami qiymat emas, balki to'langan bevosita va bilvosita mehnat haqi qo'shiladi. Ishlab chiqarish xarajatlariga yer resurslari qiymati emas, undan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar (yer uchun to'lov, ijara haqi va boshq.), asosiy vositalarning qiymati emas, faqat amortizatsiya summasi, moddiy aylanma vositalaridan foydalanilgan miqdor kiradi. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari to'liq tannarxning asosini tashkil etadi.

Demak, mahsulot tannarxi korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan joriy, ya'ni har yillik pulda ifodalangan xarajatlarning jami yig'indisidir.

Korxonaning mahsulot olish uchun sarflangan hamma ishlab chiqarish xarajatlari yig'indisi yalpi mahsulot tannarxini ifodalaydi va quyidagicha hisoblanadi:

$$YMT = I/ChX \text{ yoki } YMT = MX + Yet + A + Mat.Har.$$

Asosiy va qo'shimcha mahsulot birligining tannarxi jami ishlab chiqarish xarajatlarning yalpi mahsulot miqdoriga nisbati bilan topiladi:

$$T = \frac{I/ChX}{YM} \text{ yoki } T = \frac{MX + Yet + A + Mat.Har.}{YM}.$$

Tahlil etilayotgan davrda poliz, uzum, sabzavot va mevaning tannarxi 3,9; 4 va 5,4 martaga, go'sht va pillaniki 3,2 martaga, g'alla, paxta, tamaki, kartoshkaniki 2 dan 2,5 martaga, tuxum

va sutniki esa 1,8 dan 1,9 martagacha oshib borgan. Albatta, bu yerda taqqoslash joriy baholarda olib borilgani uchun ham tafovut katta chiqadi. Chunki bu davrda tannarx tarkibiga kiruvchi barcha unsurlar va moddalarning qiymatlaridagi keskin o'sishlarning hamda inflatsiya darajasining salbiy ta'siri seziladi.

Mahsulot birligi tannarxidan tashqari ayrim ishlarining (traktor, avtotransport, ishchi hayvon va boshq.), shuningdek, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga ishlov berish, bir bosh hayvondan mahsulot olish xarajatlari ham aniqlanadi.

Xarajatlarning shakllanish davrlariga qarab, tannarxning quyidagi turlari mavjud bo'ladi:

1. Texnologik;
2. Ishlab chiqarish;
3. Tijorat yoki to'la tannarx.

24-jadval

Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarda 1 s mahsulotning tannarxi (2008—2014-yillar)*

T/r	Mahsulotlar	Yillar							2014-yil 2008-yilga nisbatan o'zgarish	
		2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	+, —	%
1.	G'alla	19800	18900	19700	26200	32200	34500	41600	21800	2,1 m
2.	Paxta	38800	48000	52200	58900	78600	85900	94600	55800	2,4 m
3.	Tamaki	126500	156000	254600	248700	250300	320000	260000	133500	2 m
4.	Sabzavot	9000	12400	12900	16850	19440	25460	36490	27490	4 m
5.	Kartoshka	29900	27000	26900	30100	47700	54200	74000	44100	2,5 m
6.	Poliz	9800	11700	12500	18100	19700	26700	38400	28600	3,9 m
7.	Meva	13300	21200	21100	25800	39800	59500	71800	58500	5,4 m
8.	Uzum	18200	26900	26500	30100	44100	79500	72400	54200	4 m
9.	Go'sht	235000	320500	475100	565300	573000	764400	721300	486300	3,1 m
10.	Sut	42700	47900	67600	81000	78900	94800	80700	38000	1,9 m
11.	Tuxum	15600	14400	17700	22200	22200	27800	27500	11900	1,8 m
12.	Pilla	134300	128600	15800	279800	368600	435500	443000	308700	3,3 m

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

1. Texnologik tannarxiga, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, bo'limlarda brigada, ferma va sexlarda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

2. Ishlab chiqarish tannarxi texnologik tannarxlarning yig'indisini, korxonani va ishlab chiqarishni butunlay boshqarish bilan bog'liq xarajatlarning (umumxo'jalik xarajatlari) yig'indisini ifodalaydi.

3. Tijorat yoki to'la tannarx ishlab chiqarish xarajatlarining jamisi va mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan, muomala xarajatlarining yig'indisini ifodalaydi. U faqat tovar mahsulot uchun hisoblanadi.

Bundan tashqari, hisoblash xarakteriga qarab quyidagicha tannarx turlari aniqlanadi:

1. Reja tannarxi.

2. Dastlabki, vaqtinchalik va taxminiy tannarx.

3. Haqiqiy tannarx.

1. Reja tannarxi, bu korxonada rejalashtirayotgan davrdagi mahsulot birligiga sarflanishi lozim bo'lgan xarajatlar yig'indisini ifodalaydi.

2. Vaqtinchalik yoki taxminiy tannarx esa 9 oylik haqiqiy xarajatlarni va 4-chorakdagi reja xarajatlarini o'z ichiga oladi.

3. Haqiqiy tannarx esa yil oxirida korxonada xo'jalik faoliyatini yakun qilishda yillik hisobotlar asosida hisoblanadi. U olingan yalpi mahsulot uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar asosida hisoblanadi. Mahsulot tannarxi shakllanish joyiga qarab, individual (konkret korxonada, uyushma va boshq.), mintaqa (ma'lum bir mintaqaning o'rtachasi) va tarmoq tannarxlariga bo'linadi (mamlakat bo'yicha o'rtacha).

14.2. Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tashkil topishi hamda guruhlanishi

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tashkil topishini hisoblash hamda ularni guruhlariga bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu Nizom bo'yicha xarajatlarni hisoblash 1995-yilda boshlab tajriba shaklida ishlab chiqarishga joriy etila boshlangan edi, 1999-yildan esa amaliyotga keng doirada foydalanishga kiritilgan.

Nizomning «Umumiy qoidalar» bo'limida ko'rsatilishicha, ushbu hujjat «yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi

jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona uslubiyati asoslarini belgilaydi».

Nizom buxgalteriya hisobini yurgizishda va soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida xo'jalik faoliyatining barcha xarajatlarini hisoblab chiqish, moliyaviy natijalarni aniqlash va ular to'g'risida to'liq va aniq axborotni shakllantirishning asosini yaratadi.

Nizomga asosan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlar bo'ladi:

I. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- d) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

II. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

- a) sotish xarajatlari;
- b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);
- d) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

III. Xo'jalik yurituvchi subyektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari:

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- d) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- e) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

IV. Favqulodda zararlar, u daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarini hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Endi yuqorida sanab o'tilganlarning turlarga bo'linishini (klassifikatsiyani) kengroq ko'rib chiqamiz:

I.1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;

I.2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

I.3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

I.4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

I.5. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

II. Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Davr xarajatlariga quyidagi moddalar kiradi:

II.1. Sotish xarajatlari;

II.2. Ma'muriy xarajatlar;

II.3. Boshqa operatsiya xarajatlari;

II.4. Hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlari.

III. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

III.1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan, to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlar;

III.2. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari;

III.3. Chet el valutasini bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

III.4. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va h.k.larga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;

III.5. O'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;

III.6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan, salbiy diskont.

IV. Favqulodda zararlar — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u holda iqlim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob bermaydi.

I. Mehnat haqi (ajratmalari bilan) xarajatlari. Ularning tarkibiga quyidagi moddalar kiradi:

1. Qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq belgilangan tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun yoki sarflangan vaqt uchun hisoblangan mehnat haqi;

2. Kasb mahorati va murakkablik uchun tarif stavkalariga va oylik maoshlariga ustamalar;

3. Ish rejimi va sharoiti bo'yicha turli xil ustamalar, qo'shimcha haq, kompensatsiyalar va boshqalar kiradi.

II. Moddiy xarajatlar. Moddiy xarajatlar tarkibiga ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar haqi, ishlab chiqarishda foydalaniladigan, mehnat predmetlari xarajatlari kiradi: o'zi ishlab chiqargan va sotib olingan urug' va ko'chatlar, unga urug'ni ekishga tayyorlash va ortish-tushirish, ekish joyiga olib borish xarajatlari kirmaydi; mollar va parrandalarni boqish uchun o'zi ishlab chiqargan va sotib olingan yem-xashak; qishloq xo'jaligining boshqa mahsulotlari — go'ng va boshqalar; mineral o'g'itlar, bakterial va boshqa preparatlar; neft mahsulotlari; yoqilg'i; chetdan va o'z elektr stansiyasidan olingan elektroenergiya; boshqa moddiy sarflar, shu jumladan, ta'mirlash uchun materiallar va zaxira qismlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, dori-darmonlar va preparatlar, maxsus kiyimlar hamda boshqa kam baholi va tez to'ziydigan predmetlarning eskirishi; yordamchi sanoat.

14.3. Mahsulot tannarxini hisoblashning uslubiy asoslari va xususiyatlari

Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxini hisoblash tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqadigan bir qancha xususiyatlarga ega:

1. Dehqonchilikda mahsulot ishlab chiqarishning yillik sikli, shuningdek, ish vaqti va ishlab chiqarish vaqtining mos kelmasligi mahsulot tannarxini hisoblashni faqat xo'jalik yili tugagandan keyin amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

2. Ko'pgina dehqonchilik ekinlari va turli-tuman chorvachilik mahsulotlarini olish bir-biri bilan bog'liq.

3. Tugallanmagan ishlab chiqarish summasini aniqlash faqat yil oxirida 1-yanvar holatida aniqlanadi. Bu xarajatlarga kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar kiradi.

4. Haqiqiy tannarxi faqat yil oxirida aniqlanadi, yil davrida esa reja xarajatlari bilan hisoblanadi, bu esa haqiqiy xarajatlarni yil oxirigacha aniqlash imkonini bermaydi.

5. Turli xil mahsulotlarni turli joylarga yetkazish xarajatlarning turli-tumanligini anglatadi.

Qishloq xo'jaligida o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining barcha asosiy turlari bo'yicha, shuningdek, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchilar bo'yicha ham tannarx hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini hisoblashda ma'lum bir ketma-ketlikni saqlash tavsiya etiladi:

1. Asosiy vositalarni saqlashga mo'ljallangan xarajatlarni rejalashtirish va xarajatlar hisobi obyektlarga qarab taqsimlanadi;

2. Asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan qo'shimcha va yordamchi sanoat ishlab chiqarishining mahsuloti (ish va xizmat) tannarxi hisoblaniladi;

3. Yerlarni sug'orish va zaxini qochirish bo'yicha xarajatlar taqsimlanadi, ekinlarni changlatishda asalarichilik xizmati hisobdan chiqariladi;

4. Brigada, ferma, sex va umumxo'jalik xarajatlari taqsimlanadi;

5. Rejalashtirish va hisobot obyektlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy qiymati aniqlanadi;

6. O'simlikchilik mahsulotlari tannarxi hisoblaniladi;

7. Oziqa sexlarini saqlash bo'yicha xarajatlar taqsimlanadi;

8. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi hisoblaniladi;

9. Mollarning tirik vazni tannarxi hisoblaniladi;

10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan, yordamchi (sanoat) ishlab chiqarish mahsulotlari tannarxi hisoblaniladi;

11. O'simlikchilik, chorvachilik va sanoat ishlab chiqarish tovar mahsulotlarining tijorat (to'liq) tannarxi ishlab chiqarish tannarxiga sotish xarajatlarini qo'shish yo'li bilan hisoblaniladi.

Alohida mahsulot turlari bo'yicha tannarxni hisoblashda, avvalo, asosiy, tutash yoki qo'shimcha va yordamchi mahsulotlarning turlari bo'yicha miqdori aniqlanadi. Ammo har bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining hisobini alohida tashkil qilib bo'lmaydi. Shuning uchun barcha turdagi mahsulotlar o'rtasida ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. Xarajatlarni bevosita mahsulot turlariga olib borish;
2. Alohida qishloq xo'jaligi ekinlari turlari mahsulotlari bo'yicha, hayvonlar mahsulotlari turlari uchun umumiy bo'lgan belgilari bo'yicha xarajatlar olinadigan mahsulot turlari uchun umumiy bo'lgan belgilardan birining miqdori ahamiyatiga proporsional ravishda taqsimlanadi;
3. Alohida turdagi mahsulotlarni olishga ketgan xarajatlarni ekspert yo'li bilan baholash va ularni ma'lum bir ko'rsatkichlarda aks ettirish;
4. Ma'lum bir ekindan (mollar guruhi, turi) olinadigan mahsulot turi bo'yicha xarajatlarni, markazlashgan tartibda o'rnatiladigan iqtisodiy jihatdan asoslangan koeffitsiyentlarni qo'llash yordamida, sentner — koeffitsiyent va boshqa shartli birliklarning miqdoriga proporsional taqsimlanadi. Ularni aniqlashda mahsulot turlaridan birining birligiga to'g'ri kelgan xarajat bir deb qabul qilinadi, boshqa mahsulotlar birligiga qilingan xarajatlar shu birlikka nisbatan olinib, koeffitsiyent ko'rinishida ifodalanadi;

5. Xarajatlar mahsulotni sotish bahosi bo'yicha baholagandagi mahsulot qiymatiga proporsional taqsimlanadi.

Misol uchun Samarqand viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklarning 2014-yil ma'lumotlari olingan. Masalan, g'alla ekinlarini yetishtirish va yig'ib-terib olishdagi ishlab chiqarish xarajatlari — g'alla, g'alla chiqiti va poxol tannarxidan tashkil topadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$FT = \frac{FEI / ChX - BMX(poxol)}{FM + (FChM \cdot FS)}$$

bu yerda, FT — 1 sentner g'alla tannarxi, so'm; FEI/ChX — g'alla ekinlarini yetishtirish uchun ishlab chiqarish xarajatlari, so'm; BMX — boshqa mahsulot (poxol) xarajatlari, so'm; FM — g'alla miqdori, sentner; $FChM$ — g'alla chiqtlari miqdori, sentner; FS — g'alla chiqitlaridagi g'allaning salmog'i, %.

$$FT = \frac{34040,5 - 20}{817 + (1,562 \cdot 0,5)} = \frac{34040,5}{817,8} = 41,6 \text{ ming so'm.}$$

Sutchilik podasi bo'yicha xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi — sutga 90 %, buzoqqa — 10 %:

$$ST = \frac{(SSI/ChX - BMX) \cdot 0,9}{SM} = \frac{(756048,4 - 15,0) \cdot 0,9}{8431,6} = 80,7 \text{ ming so'm;}$$

$$BT = \frac{(SSI/ChX - BMX) \cdot 0,1}{BS} = \frac{(756048,4 - 15,0) \cdot 0,1}{2548,2} = 29,7 \text{ ming so'm,}$$

bu yerda, ST — 1 sentner sutning tannarxi, so'm; BT — 1 bosh buzoqning tannarxi, so'm; SSI/ChX — sigirmi saqlashga va oziqlantirishga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari, so'm; BMX — boshqa mahsulot (go'ng) xarajatlari, so'm; SM — sut miqdori, sentner; BS — buzoq soni; 0,9 va 0,1 — mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanganda sigirmi saqlashga va oziqlantirishga ketgan xarajatlar salmog'i, %.

Qo'ychilik podasi bo'yicha xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi: Olingan qo'ziga tegishli xarajatlar — 15 %

$$QT = \frac{(QPSI/ChX - BMX - QX) \cdot S}{QS},$$

bu yerda, QT — qo'zi tannarxi, so'm; $QPSI/ChX$ — qo'ylar podasini saqlash va ishlab chiqarish xarajatlari, so'm; BMX — boshqa mahsulot xarajatlari, so'm; QX — qo'ziga ajratilgan xarajatlar, so'm; S — shu mahsulotning salmog'i, %; QS — qo'zi soni, bosh.

$$QT = \frac{(1605,7 - 15) \cdot 0,15}{12,9} = \frac{238,6}{12,9} = 18,5 \text{ ming so'm;}$$

$$JT = \frac{(1605,7 - 15 - 134) \cdot 0,363}{34,4} = \frac{528,8}{34,49} = 15,4 \text{ ming so'm;}$$

$$TMT = \frac{(1605,7 - 15 - 134) \cdot 0,637}{2820} = \frac{927,9}{2820} = 3,3 \text{ ming so'm,}$$

bu yerda, JT — jun tannarxi, so'm; TMT — tirik vaznda go'sht mahsuloti tannarxi, so'm.

14.4. Mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari

Mahsulot tannarxi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining muhim omili va bir vaqtning o'zida ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Har qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi. Tannarx quyidagi hollarda pasayishi mumkin:

1. Agar mahsulot o'zgarmagani holda xarajat miqdori kamaysa.
2. Agar yalpi mahsulot miqdori ko'payib, xarajatlar o'zgarmasa.
3. Agar yalpi mahsulotning o'sish sur'ati xarajatlar o'sish sur'atidan ilgari ketsa.

Mahsulot tannarxi omillari qishloq xo'jaligida turli-tumandir. Ularni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Tannarxning ikki tarkibiy qismiga, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot miqdori.

2. Faqat xarajat miqdori.
3. Faqat mahsulot miqdori.

1-guruhga:

- a) xodimlarning moddiy manfaatdorligi;
- b) ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash;
- d) ishlab chiqarish texnologiyasini qisqa vaqtda va sifatli bajarish.

2-guruhga:

- a) ishlab chiqarishning mehnat sig'imi;
- b) ishlab chiqarishning yer sig'imi;
- d) ishlab chiqarishning fond sig'imi;
- e) ishlab chiqarishning material sig'imi.

3-guruhga:

a) qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligi;

- b) ekin maydonlari va poda tarkibi;
- d) mahsulotni saqlash usullari.

TAYANCH IBORALAR

Ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, korxonalar xarajatlari, qo'shimcha mahsulot, texnologik tannarx, to'la tannarx, reja tannarx, taxminiy tannarx, haqiqiy tannarx, shartli-o'zgaruvchan xarajatlar, shartli-o'zgarmas xarajatlar.

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi nima?
2. Mahsulot tannarxi tushunchasi va turlari.
3. Mahsulot tannarxini hisoblash usullari qanday?
4. Mahsulot tannarxini pasaytirish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?

15-bob.

QISHLOQ XO'JALIGIDA BAHOLARNING SHAKLLANISHI VA BAHOLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

15.1. Bahoning iqtisodiy mohiyati va vazifalari

Bozor sharoitida baho alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki baho orqali tovar, ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'tadi. Shuningdek, xo'jalik ishlab chiqarish xarajatlarining qoplanishi va foyda olish baho orqali amalga oshadi. Baho — tovar qiymatining puldagi ifodasi bo'lib, uning dinamikasi, nisbati va o'zgarishlari asosida qiymat qonuni yotadi. Qiymat qonuni bahoning tovar qiymati atrofidagi harakati qonuniyatini aniqlaydi. Raqobat sharoitida, talab va taklif asosida baho va qiymat o'zgarib turadi. Goho baho qiymatdan yuqori bo'ladi va aksincha. Ikkovining teng kelishi esa muvozanat bahosini yuzaga keltiradi. Mahsulotga qo'yilgan past baho, odatda, uni ishlab chiqarish xarajatlarining pastligidan kelib chiqadi.

Erkin raqobat sharoitida baho me'yoriy xarajatlarga teng bo'ladi. O'tmish iqtisodchilarining ta'kidlashicha, baho o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Bunday ta'rifda baho mahsulotga bo'lgan talabdan ancha uzoqlashadi va o'rtadagi bog'liqlik yo'qoladi. Haqiqatda esa mahsulotga bo'lgan talabning ortishi yoki pasayishi mos ravishda bahoni oshiradi yoki pasaytiradi. Demak, baho va talab o'rtasida to'g'ri proporsional bog'lanish mavjud.

Shuningdek, talab, o'z navbatida, mahsulot taklifi bilan ham bog'langan. Bu bog'liqlik bahoni muvozanatlashtiradi va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida resurslarni oqilona taqsimlashga olib keladi. Muvozanat bahosi, xuddi talab va taklif singari bir qancha omillarga bog'liq bo'ladi. Bozor bir xil tovar va xizmatlarga turli xil baho darajalarini o'rnatishni tavsiya etadi. Turli xaridorlar tomonidan sotib olinadigan bir xil tovarlarga turli baholarning o'rnatilishi bahoning diskriminatsiyasi deyiladi.

Demak, bahoning miqdori tovar qiymatiga to'g'ri proporsional. Qiymat qonuni baho harakati qonuni bo'lgani bilan har doim

ham va har qanday tovar uchun ham bir xil bo'lavermaydi. Bahoda faqat tovar qiymati emas, balki ayirboshlash sharoitlari, talab va taklif, bahoning davlat tomonidan tartibga solinishi (boshqarilishi), ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida qiymatning taqsimlanishi ham aks etadi. Shuning uchun baho qiymatning ko'rinish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida baho quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- bahoning hisoblash yoki o'lchash vazifasi. Iqtisodiyotda bahoning turli tizimlari yordamida yalpi va tovar mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy-pul xarajatlari, sof daromad, foyda kabi barcha qiymat ko'rsatkichlari rejalashtiriladi va hisobga olinadi;

- bahoning rag'batlantirish vazifasi. Har bir xo'jalikning mahsulot sotishdan oladigan daromadi, eng avvalo, tovarning ishlab chiqarish xarajatlariga va bahosiga bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, mahsulot bahosining ko'tarilishi shu mahsulotni ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga undaydi;

- bahoning taqsimot vazifasi. Tovarlar bahosining o'zgarishi moddiy tovarlarni qayta taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari, baho yordamida qo'shilgan qiymatni, sof daromadni va h.k.larni taqsimlash hamda qayta taqsimlash amalga oshiriladi, shuningdek, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasini moliyalashtirish amalga oshiriladi;

- bahoning tartibga solish (boshqarish) vazifasi. Baho orqali ishlab chiqarish va iste'mol, talab va takliflar o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Mehnat va ishlab chiqarish vositalarining tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi ham baho orqali amalga oshadi.

15.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining baholar tizimi

Qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida bahoning ko'pgina turlari qo'llaniladi. Bu baholar tizimi orqali tovar ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar o'rnatiladi.

Ushbu baholar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- erkin yoki shartnomali;
- tartibga solinadigan yoki boshqariladigan;
- ulgurji;
- chakana;

- taqqoslama;
- xarid.

Erkin baholar — bu bozorda, tovarni sotishda hosil bo‘ladigan baho. Erkin bahoni shartnomali baho ham deyish mumkin. Chunki ikkovi ham o‘rtada, ya’ni sotuvchi bilan xaridor manfaatlarini ko‘zlagan holda shakllanadi. Bozorda erkin bahoning darajasi talab va taklif qonunlari talabiga asosan aniqlanadi. Lekin hozirgi kunda bizda bu jarayon juda qiyinchilik bilan kechmoqda.

Tartibga solinadigan yoki boshqariladigan baholar — bu baho darajasi, tartibi davlat tomonidan tartibga solinadigan yoki boshqariladigan bahodir. Bu bahoda davlat, asosan, asosiy oziq-ovqat tovarlarini va qishloq xo‘jaligi xomashyolarini tartibga soladi. Baholarni tartibga solishning asosiy usuli oziq-ovqat tovarlariga savdo qo‘shimchalarining aniq miqdorini o‘rnatish yoki ayrim mahsulotlarning cheklangan rentabellik darajasini aniqlash hisoblanadi. Shuningdek, bahoni tartibga solish alohida tarmoq va ishlab chiqarishga dotatsiya berish orqali ham amalga oshiriladi.

Ulgurji baholar — bu mahsulot tayyorlovchi korxonalarining mahsulotlarini buyurtmachi korxonalariga, shuningdek, tovarlarni ulgurji sotadigan tashkilotlarga sotishda amalga oshiriladigan baho. Bundan tashqari, ulgurji firmalarning yirik partiyadagi tovarlarni chakana savdo korxonasi va tashkilotlariga sotadigan bahodir.

Ulgurji bahoning shakllanishi ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot birligiga to‘g‘ri kelgan tijorat xarajatlari miqdorini o‘rnatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ulgurji baholarni o‘rnatishda to‘sqinlik qiluvchi omil — bu raqobatdir. Raqobat bo‘lmagan sharoitda ulgurji baholarning shakllanishi bo‘yicha vazifani ma‘lum bir paytda davlat bajarishi kerak. Bu, eng avvalo, energiya resurslariga, transport xizmatiga va aloqaga taalluqlidir.

Chakana baholar — bu baho tovarlar chakana savdoda sotilganda shakllanadigan baho. Bu bahoning asosida ulgurji baholar, shuningdek, korxonasi va tashkilotlarning tovarlarni chakana savdoda sotib olgandagi baholari yotadi. Korxonalar chakana savdoda ulgurji baholarga, muomala xarajatlarini qoplashni va ma‘lum bir miqdorda foyda olishni ta‘minlaydigan savdo ustamalarini qo‘shadilar. Savdo ustamasi tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i va maxsus soliqlar kiritiladi.

Taqqoslama baholar — bu baho mahsulot hajmi, tovar aylanmasi, mehnat unumdorligi va boshqa ko'rsatkichlar dinamikasini o'lchash uchun foydalaniladi. Taqqoslama baholar taqqoslanayotgan qiymat ko'rsatkichlarining dinamikasiga baholar o'zgarishining ta'sirini kamaytiradi. Taqqoslama baholarni qo'llash, inflatsiya va baholarning o'sishi sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarishni, savdoni rivojlantirish, real ish haqi, tovarlar iste'moli to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun imkon beradi.

Xarid baholar — bu bahoda davlat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oladi. Bu davlat buyurtmasi shaklida amalga oshiriladi, masalan, paxta, g'alla, pilla va h.k.larga. Bu baholar iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga iqtisodiy asoslangan xarid baholari deganda, davlat va tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini uyg'unlashtiradigan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkon beradigan baholar tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga baholarning shakllanish jarayoni, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'z xususiyatlariga ega bo'lib, u ko'p jihatdan tabiiy iqlim sharoiti ta'sirini boshidan o'tkazadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida mulk va xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanish davrida yer unumdorligi va hayvonlar mahsuldorligida, ishlab chiqarish xarajatlarida tafovutlar saqlanib qoladi. Bu tafovutlar, bir tomondan, tabiiy sharoitlardan va ikkinchi tomondan, iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida baholarning shakllanishida yuqoridagi ikki: tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish zaruriyati kelib chiqadi.

Xarid baholarning iqtisodiy asoslangan asosiy tamoyillari qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashni ta'minlash zaruriyati. Davlat buyurtmasi hisobiga sotiladigan jami mahsulot turlari bahosi barcha mintaqalarda me'yordagi sharoitda xo'jalik yuritadigan hamma qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashi zarur. Xarid baholar, eng avvalo, mehnatga haq to'lash xarajatlarini va iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslari qiymatini qoplash imkoniyatini ta'minlashi kerak.

2. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va iqtisodiy rag'batlantirishni ta'minlash uchun jamg'arma yaratish zaruriyati. Faqat ishlab chiqarish xarajatlarining qoplanishi har qanday

tovar ishlab chiqaruvchi uchun oddiy takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Shuning uchun xarid baholari faqat ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash bilan cheklanmasdan, balki kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yetarli foyda bilan ta'minlashlari va qishloq xo'jaligida yaratilgan sof daromadning bir qismini davlatning markazlashgan fondiga o'tkazishda vosita bo'lib xizmat qilishi kerak. Buning uchun baholar mahsulot tannarxidan yuqori va bir vaqtning o'zida mahsulot qiymatidan oshmasligi kerak.

Agar baho mahsulot tannarxiga teng bo'lsa, u holda tovar ishlab chiqaruvchi foyda olmaydi, zarar ham ko'rmaydi. Yaratilgan sof daromadning hammasi markazlashgan davlat fondiga o'tadi. Unday holatda moddiy rag'batlantirish qoidasi buziladi. Baho qiymatga teng bo'lsa, unda sof daromad fondga yuborilmasdan, tovar ishlab chiqaruvchida qoladi. Bahoning asosida qiymat yotadi, lekin uni aniqlash o'ta murakkab, shuning uchun xarid baholarini hisoblash paytida asos qilib me'yoriy tannarx va moddiy rag'batlantirish hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan foydaning bir qismi qabul qilinadi.

3. Baholarning mintaqalar bo'yicha tabaqalanishi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun turli tabiiy iqlim sharoitlari mavjud. Bu esa mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining notekisligini keltirib chiqaradi. Buni paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari misolida ko'rish mumkin. Shuning uchun yomon tabiiy iqlim sharoitidagi mintaqalarda ancha yuqori baho, yaxshi sharoitdagilarda esa past baho bo'lishi kerak. Baholarning mintaqalar bo'yicha tabaqalanishi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida daromadlarning ancha teng, iqtisodiy asoslangan holda taqsimlanishini ta'minlaydi, ularning mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishdagi moddiy qiziqishini kuchaytiradi. Amaliyotda undan foydalanish talabga javob bermaydi.

4. Mahsulot sifatiga qarab baholarning tabaqalanishi. Sifat tovarning bahosida o'z aksini topadi. Shuning uchun sifati yaxshi bo'lgan tovarlar tez xarid qilinadi. Davlat baho vositasida tovar ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sifatini yaxshilashga qiziqtiradi.

5. Mahsulotni sotish muddatlariga qarab baholarning tabaqalanishi. Ertagi sabzavot ekinlari, issiqxonalaridagi sabzavotlar va ko'katlar, kech yetishtiriladiganlariga nisbatan ancha yuqori baholarda sotiladi. Bu ancha qiyin sharoitda mahsulot yetishtiruvchilarning qo'shimcha xarajatlarini qoplash imkoniyatini beradi.

6. Qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasida doimiy ravishda ayirboshlash amalga oshadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining ko'pgina qismini davlat buyurtmasi hisobiga davlatga sotadilar, davlat (sanoat) ham, o'z navbatida, qishloq xo'jaligiga mashinalar, uskunalar, jihozlar, yoqilg'i, elektr energiyasi, qurilish va ta'mirlash materiallari, mineral o'g'itlar sotadi. Bularning qiymati qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxiga qisman yoki to'liq qo'shiladi. Bu esa, ya'ni qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan sanoat tovarlarining qiymati qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qilinadigan xarajatlarni qisqartiradi yoki oshiradi degani.

Agar sanoat tovarlarining bahosi ularning qiymatidan yuqori bo'lib, qishloq xo'jaligida xarid baholari haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlaridan past bo'lsa yoki teng bo'lsa, unda noekivalent ayirboshlash sodir bo'ladi, ya'ni qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari yaratgan qiymatning bir qismini sanoatga berib yuboradilar.

Agar aksincha, xarid baholari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatlaridan ancha yuqori bo'lib, sanoat tovarlari bahosi ularning ishlab chiqarish xarajatlarini qoplamasa yoki teng bo'lsa, unda yana noekivalent ayirboshlash sodir bo'ladi.

Faqat qat'iy tartib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat tovarlariga ekvivalent ayirboshlashgina, ya'ni sanoatdagi mehnat miqdoriga qishloq xo'jaligi mahsulotlariga sarflanadigan mehnat miqdori teng bo'lgandagina, sanoat va qishloq xo'jaligini mutanosib rivojlantirishni ta'minlash imkoniyati bo'ladi.

7. Xarid baholarning barqarorligi va harakatchanligi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xarid baholari nisbatan barqaror, ya'ni ma'lum bir davr mobaynida o'zgarmaydigan bo'lishi kerak.

Barqaror baholar tovar ishlab chiqaruvchilarda sotilgan mahsulot uchun ma'lum bir miqdorda pul daromadini olishga ishonch paydo qiladi. Xarid baholarining uzoq muddatda barqaror bo'lib turishi ham ba'zi ob-havo noqulay kelgan yillarda ijobiy hisoblanmaydi, chunki mahsulot sotish hajmining kamayishi barqaror baholarda daromadning kamayishiga va tovar ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy holatining barqarorlikdan chiqishiga olib keladi.

Xarid baholarning harakatchanligi ularning mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ijtimoiy zaruriy xarajatlari o'zgarishini bildiradi.

15.3. Bozor sharoitida baholar shakllanishini takomillashtirish

Davlatning agrosanoat majmuyini rivojlantirishga qaratilgan baho va moliya-kredit siyosati, eng avvalo, quyidagi muhim masalalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlashni rag'batlantirish va oziq-ovqat xavfsizligiga erishish;
- sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasida ekvivalent munosabatlarga erishish;
- qishloq xo'jaligiga agrosanoat majmuyi birligi va uning sohalari monopoliyasining salbiy ta'sirini pasaytirish;
- qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan darajada daromadga ega bo'lishini qo'llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarish samaradorligini o'stirishda, mehnat unumdorligini oshirishda, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishga ko'maklashish;
- mamlakat ichida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish, yaqin va uzoq xorij bozorlariga chiqish.

Baho va moliya-kredit mexanizmlari o'rtasida mustahkam aloqadorlik zarur bo'lib, ularning qo'shilib ketishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini me'yordagi joriy faoliyat va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun zarur daromadlar bilan ta'minlashi mumkin.

Bozor iqtisodiyotida baho munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi mumkin:

- erkin baholarning davlat boshqaradigan baholar bilan qo'shilib ketishi;
- talab va taklif ta'siri ostida muvozanat bahosining vujudga kelishi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bahosi va qishloq xo'jaligiga yetkazib beriladigan sanoat mahsulotlari bahosi bilan ekvivalentligini ta'minlash;
- taklif bahosini hisoblashda me'yoriy usullardan foydalanish;
- tovar ishlab chiqaruvchilarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yetarli darajada daromad bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va uning samaradorligini oshirish;

- mahsulot sifatiga va uni sotish muddatlariga qarab baholarni tabaqalantirish;
- qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish;
- moliya-kredit munosabatlari va baholarning aloqadorligini optimallashtirish.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri muvozanat bahosining vujudga kelishidir. Uning darajasi har bir tovar uchun talab va taklif teng kelganda, mos kelganda aniqlanadi. Ana shu mos kelgan paytda baho bir vaqtning o'zida mahsulot ishlab chiqarishning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini aks ettiradi. Lekin amaliyotda har doim ham bunday bo'lavermaydi. Bu o'zaro aloqador bir qancha omillarga bog'liq: monopoliyaning mavjudligi va sof raqobatning yo'qligi, inflatsiyaning ta'siri va boshqalar.

Qishloq xo'jaligida, shuningdek, renta omillarining va asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan past elastik talabning harakat qilishi muvozanat baholarining harakat doirasini qisib qo'yadi. Qishloq xo'jaligida baholarning erkin vujudga kelishi boshqa tarmoqlarga qaraganda chegaralangan, shuning uchun ularga nisbatan bu yerda davlatning boshqaruvchi (tartibga soluvchi)lik roli ancha sezilarli bo'lishi kerak. Stixiyali bozor asosida tarmoqlar qo'shimcha mahsulotlarning baho orqali qayta taqsimlanishi ba'zi tarmoqlarda turg'unlik holatlarini va boshqalarni keltirib chiqarib, me'yoriy takror ishlab chiqarish asosini buzadi.

Baho munosabatlarini butun takror ishlab chiqarish jarayonida, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnikaviy resurslarni sotib olishdan boshlab, to uni pirovard sotishgacha bo'lgan jarayonida qarab chiqish kerak bo'ladi. Butun jarayon davomida daromadlarni qayta taqsimlash sodir bo'ladi. Pirovard mahsulotni yaratishda qatnashuvchilar o'rtasida baho tarkibidagi xarajatlar va foydaning salmog'i o'rtasida teskari bog'liqlik kuchayadi. Bu, asosan, qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lib, bu tarmoqda xarajatlar yuqori salmoqqa ega, jami foyda esa nisbatan oz salmoqni tashkil etadi.

Amaliyotda bozor sharoitida tovar va xizmatlarga baho shakllanishining bir qancha usullari mavjud.

1. O'rtacha xarajatlar darajasi qo'shilgan foyda bo'yicha baholarni o'rnatish. Bu usul mahsulot tannarxiga bir xil qo'shimcha hisoblashdan iborat.

2. Zararsizlikni ta'minlash va maqsadli foyda olish. Bu usul umumiy xarajatlarni va turli darajadagi sotish hajmidan kutilayotgan tushumni taqqoslashga asoslanadi.

3. Mahsulotning real qiymatidan kelib chiqib baholarni o'rnatish. Bu usul mahsulotga qo'yilgan bahoning aniq miqdoriga xaridorlarning ta'sirlanishiga tayanadi.

4. O'rtacha joriy baholar darajasi asosida baholarni o'rnatish. Tovar ishlab chiqaruvchi asos qilib raqobatchilar bahosini qabul qiladi va o'zining xarajatlariga va mahsulotga bo'lgan talabga e'tibor qilmaydi.

TAYANCH IBORALAR

Baho, bahoning vazifalari, o'lchov, rejalashtirish, tartibga solish, taqsimot, nazorat, rag'batlantirish, ijtimoiy, baholar tizimi, erkin, boshqariladigan, ulgurji, chakana, taqqoslama, xarid.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Baho deb nimaga aytiladi?
2. Bahoning vazifalari nimalardan iborat?
3. Bahoning turlarini ayting.
4. Baho nima asosida shakllanadi?
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bahoga ta'sir qiluvchi omillar.

16-bob.

O'SIMLIKCHILIK TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING UMUMIY MUAMMOLARI

16.1. Tarmoqlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyotidan tashkil topadi. Barcha qishloq xo'jaligi korxonalarida har ikki tarmoqni qo'shib olib borish obyektiv zaruriyatdir. Natijada mavjud mehnat, yer, suv, boshqa resurslar salohiyatidan, tarmoqlarning asosiy, qo'shimcha va qoldiq mahsulotlaridan samarali foydalanish uchun optimal sharoit yaratiladi, ularning turli darajada yo'qotishlari keskin kamayadi.

O'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni qo'shib olib borish ayrim mahsulotlarga iste'molchilar talablarining tashkil topishiga hamda ularning ishlab chiqarish uchun iqtisodiy va tabiiy sharoitlarning mavjudligiga bog'liq. Odatda, ayrim mamlakat va jahon xalqlarining turmush darajasi yuqori bo'lsa, chorvachilik mahsulotlariga talab oshadi, aksincha, o'simlikchilik mahsulotlariga pasayadi.

Har ikki tarmoqning mahsulotlariga bo'lgan talab ayrim xalqlarning urf-odatlariga ham bog'liq. Masalan, Hindistonda chorvachilik mollariga diniy aqidalarning saqlanishi natijasida jon boshiga go'sht mahsulotlarini iste'mol qilish me'yori jahon xalqlari o'rtacha iste'moliga nisbatan 5—6 marta kamdir.

Yana bir misol, Avstraliya mamlakatida chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjudligi tufayli jon boshiga go'sht mahsulotlarini iste'mol qilish me'yori jahon xalqlari o'rtacha iste'moliga nisbatan 5—6 marta ko'pdir.

Demak, o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarini qo'shib olib borish kompleks sharoitlarning mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liq.

2. Zararsizlikni ta'minlash va maqsadli foyda olish. Bu usul umumiy xarajatlarni va turli darajadagi sotish hajmidan kutilayotgan tushumni taqqoslashga asoslanadi.

3. Mahsulotning real qiymatidan kelib chiqib baholarni o'rnatish. Bu usul mahsulotga qo'yilgan bahoning aniq miqdoriga xaridorlarning ta'sirlanishiga tayanadi.

4. O'rtacha joriy baholar darajasi asosida baholarni o'rnatish. Tovar ishlab chiqaruvchi asos qilib raqobatchilar bahosini qabul qiladi va o'zining xarajatlariga va mahsulotga bo'lgan talabga e'tibor qilmaydi.

TAYANCH IBORALAR

Baho, bahoning vazifalari, o'lchov, rejalashtirish, tartibga solish, taqsimot, nazorat, rag'batlantirish, ijtimoiy, baholar tizimi, erkin, boshqariladigan, ulgurji, chakana, taqqoslama, xarid.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Baho deb nimaga aytiladi?
2. Bahoning vazifalari nimalardan iborat?
3. Bahoning turlarini ayting.
4. Baho nima asosida shakllanadi?
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bahoga ta'sir qiluvchi omillar.

16-bob.

O'SIMLIKCHILIK TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING UMUMIY MUAMMOLARI

16.1. Tarmoqlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyotidan tashkil topadi. Barcha qishloq xo'jaligi korxonalarida har ikki tarmoqni qo'shib olib borish obyektiv zaruriyatdir. Natijada mavjud mehnat, yer, suv, boshqa resurslar salohiyatidan, tarmoqlarning asosiy, qo'shimcha va qoldiq mahsulotlaridan samarali foydalanish uchun optimal sharoit yaratiladi, ularning turli darajada yo'qotishlari keskin kamayadi.

O'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni qo'shib olib borish ayrim mahsulotlarga iste'molchilar talablarining tashkil topishiga hamda ularning ishlab chiqarish uchun iqtisodiy va tabiiy sharoitlarning mavjudligiga bog'liq. Odatda, ayrim mamlakat va jahon xalqlarining turmush darajasi yuqori bo'lsa, chorvachilik mahsulotlariga talab oshadi, aksincha, o'simlikchilik mahsulotlariga pasayadi.

Har ikki tarmoqning mahsulotlariga bo'lgan talab ayrim xalqlarning urf-odatlariga ham bog'liq. Masalan, Hindistonda chorvachilik mollariga diniy aqidalarning saqlanishi natijasida jon boshiga go'sht mahsulotlarini iste'mol qilish me'yori jahon xalqlari o'rtacha iste'moliga nisbatan 5—6 marta kamdir.

Yana bir misol, Avstraliya mamlakatida chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjudligi tufayli jon boshiga go'sht mahsulotlarini iste'mol qilish me'yori jahon xalqlari o'rtacha iste'moliga nisbatan 5—6 marta ko'pdir.

Demak, o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarini qo'shib olib borish kompleks sharoitlarning mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liq.

16.2. O‘simlikchilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati

O‘simlikchilik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Uning mahsulotlari insonlar uchun oziq-ovqat, chorvachilik uchun yem-xashak, sanoat uchun — xomashyo sifatida foydalaniladi.

O‘simlikchilik mahsulotlari jahon xalqlarining eng yirik tabiiy va iqtisodiy boyligidir. XXI asr boshlarida jahon olimlari tomonidan yer yuzida 500 mingga yaqin o‘simliklarning mavjudligi aniqlangan. Ularning 23 ming yoki 4,6 % ining mahsulotlaridan jahon xalqlari turli xil maqsadlar uchun foydalanadilar. Ularning 6 ming yoki 26,1 % i madaniy ekinlar guruhiga kiradi, shu jumladan, 400 turi yoki 6,6 % i O‘zbekistonda uchraydi; ulardan 120 yoki 30 % i ochiq va yopiq maydonlarda rivojlantiriladi, ularning mahsulotlaridan aholi uchun oziq-ovqat, chorva uchun — yem-xashak, sanoat uchun tabiiy xomashyo sifatida foydalaniladi, xolos.

Ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, jahon, shu jumladan, O‘zbekiston xalqlari, yaqin kelajakda o‘simlikchilik mahsulotlaridan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish uchun real imkoniyatlarga ega. Asosiy vazifa bosqichma-bosqich ularni ishga solish, ko‘proq, sifatliroq va raqobatlilik darajasi yuqoriroq mahsulotlarni ishlab chiqarish, binobarin, iste‘mol qilishdir.

16.3. O‘simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini o‘rganish xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti qonunlari, mexanizmlari va toifalari talablarini hamda madaniy qishloq xo‘jaligi ekinlarining botanik, agrotexnik va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, ular quyidagi turkumlar bo‘yicha hisob-kitob qilinadi va rivojlanish natijalari baholanadi:

1. Boshqoqli va dukkakli don ekinlari mahsulotlari;
2. Texnika ekinlari mahsulotlari;
3. Kartoshka ekini mahsulotlari;
4. Sabzavot ekinlari mahsulotlari;
5. Poliz ekinlari mahsulotlari;
6. Chorva oziqalari va ekinlari mahsulotlari;
7. Mevali dov-daraxtlar mahsulotlari;
8. Tokzorlar mahsulotlari;
9. Pillachilik, tut daraxtlari mahsulotlari;

10. Gulzorlar mahsulotlari;
11. Ihota daraxtlar va o'rmonzorlar mahsulotlari;
12. Tabiiy pichanzorlar, yaylovlar mahsulotlari va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan madaniy ekinlar, o'z navbatida, kichik guruhlarga bo'linadi. Masalan, don ekinlari oziq-ovqatga, yem-xashakka va boshqa maqsadlarga foydalanilishi bo'yicha, texnika ekinlari — tola, shakar, yog' beruvchi va boshqa turlarga bo'linib hisob-kitob qilinadi, oxirgi natijalari baholanadi.

Madaniy o'simliklar mayda guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlar hisobga olib, ularning natura va qiymat shaklidagi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy ko'rsatkichlar tizimi yaratilgan. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Yerni ekishga tayyorlash, ekinlarni ekish va parvarish qilish, hosilni yig'ib olish usullari.

2. Elita va tovar urug'lar, ko'chatlar yetishtirish va ulardan foydalanish.

3. Ekinlarni almashlab ekish rejalaridan foydalanish.

4. Mineral va organik o'g'itlardan me'yoriy darajada foydalanish.

5. Mashinalar tizimini yaratish va foydalanish.

6. Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish.

7. Sug'orish usullarini takomillashtirish.

8. Ekinlar hosildorligini hisob-kitob qilish.

9. Ekinlar mahsulotlarini sifati bo'yicha navlarga bo'lish.

10. Mahsulotlardan sof va qayta ishlangan holda foydalanishni va saqlashni tashkil etish.

11. Ekinlar ekish, parvarish qilish, hosilni yig'ib olish va boshqa jarayonlarda mehnatni me'yorlash, razryadlarga bo'lish, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash.

12. Tarmoqlarda kapital quyilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish.

13. Mahsulotlar tannarxi, sotish baholari, rentabellik ko'rsatkichlarini to'g'ri hisoblash, tahlil etish va h.k.

Ayrim va guruh ekinlar bo'yicha texnologik jarayonlarni tashkiliy hamda iqtisodiy munosabatlari, tarixiy davrlar bo'yicha tahlil qilish va baholash o'ta murakkab ishdur. U maxsus ilmiy tadqiqot institutlarining izlanish natijalari asosida bajariladi. Ushbu darslikda O'zbekiston Respublikasining rivojlanish yillaridagi erishilgan yutuqlari va ayrim kamchiliklarni qisqa muddatlarda kamaytirish chora-tadbirlari bayon etilgan, xolos.

O'zbekistonda asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili (barcha toifadagi xo'jaliklarda, ming tonna)
(2005—2014-yillar)*

T/r	Ekinlar	Yillar										
		2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	
1.	G'alla (ishlovdan keyingi vaznda)	6401,8	6546,7	6643,1	6621,6	7293,1	7404,1	7054,0	7519,5	7807,8	8050,5	
Shu jumladan:												
2.	Bug'doy	5927,8	5996,3	6076,9	6039,7	6545,3	6657,3	6444,9	6612,2	6842,0	6956,0	
3.	Arpa	109,5	72,5	97,2	141,2	231,8	173,9	136,1	141,4	135,8	139,6	
4.	Sholi	165,8	220,3	186,3	112,7	192,1	244,8	118,4	325,7	340,2	356,1	
5.	Makkajo'xori	164,3	194,2	207,4	229,0	230,0	230,4	255,3	328,1	360,1	411,6	
6.	Dukkakli don ekinlari	21,7	30,6	33,3	34,8	25,5	38,7	38,5	46,7	62,4	70,7	
7.	Paxta	3728,4	3600,6	3683,4	3400,5	3401,9	3404,0	3500,0	3460,1	3361,2	3400,2	
8.	Sabzavot	924,2	1021,0	1189,0	1398,7	1530,9	1694,8	1862,6	2057,1	2250,4	2452,4	
9.	Kartoshka	3517,5	4294,1	4691,9	5221,3	5710,3	6346,5	6994,0	7767,4	8518,4	9286,7	
10.	Poliz ekinlari	615,3	744,1	840,9	981,3	1071,3	1182,4	1294,8	1418,4	1558,3	1696,1	

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

**O'zbekistonda asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi
(barcha toifadagi xo'jaliklarda, gektaridan sentner)
(2005—2014-yillar)***

T/r	Ekinlar	Yillar									
		2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
1.	Don (ish- lov beril- gandan keyingi vaznda)	39,8	41,3	42,5	42,0	44,1	43,6	45,3	44,6	45,0	45,3
2.	Bug'doy	41,5	42,7	44,1	44,4	48,2	45,9	47,2	47,3	47,4	47,9
3.	Arpa	15,7	15,6	19,8	14,4	14,2	20,2	17,0	17,0	15,0	13,5
4.	Sholi	31,8	33,0	33,6	33,5	36,0	31,2	35,4	32,4	41,1	38,1
5.	Makka- jo'xori	44,5	46,6	47,2	51,0	53,5	50,7	49,0	43,6	50,0	50,2
6.	Dukkakli don ekinlari	11,5	12,0	8,4	9,9	8,9	10,5	12,3	11,4	12,0	14,9
7.	Paxta	25,3	25,0	25,5	24,0	25,3	25,4	26,3	26,4	25,7	26,1
8.	Kartoshka	170,3	175,2	184,1	194,1	198,4	194,9	195,7	203,7	210,7	213,6
9.	Sabzavot	215,8	223,0	228,4	246,4	253,6	252,5	263,7	265,6	270,9	268,3
10.	Poliz ekinlari	169,1	178,2	184,6	190,9	191,0	192,6	187,3	200,3	200,0	201,3

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Keltirilgan jadvallarda keyingi 10 yillikda, ya'ni 2005—2014-yillarda qishloq xo'jaligi ekinlari yalpi hosili va hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda mamlakati-mizda g'alla mustaqilligiga erishish davri raqamlarda aks etgan. Tahlil etilayotgan davrda g'alla 1,2 martaga, jumladan, bug'doy ham 1,2 martaga, makkajo'xori 2,5 martaga, dukkakli don ekinlari 3,3 martaga oshgan. Paxta xomashyosi 8,8 martaga kamaygan. Bu, asosan, ekin maydonlari kamayishi hisobiga bo'lgan. Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari ham mos ravishda 2,6; 2,6 va 2,7 martaga ko'paygan. Shu davrda barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi (arpadan boshqa) oshib borgan.

TAYANCH IBORALAR

Tarmoq tarkibi, ekinlar tarkibi, mahsulotlar tarkibi, almashlab ekish, dehqonchilik tarmoqlar iqtisodiyoti.

? NAZORAT SAVOLLARI

1. O'simlikchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini bayon eting.
2. Tarmoq iqtisodiyotini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarga bog'liq?
3. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinayotgan mahsulot turlarini yillar bo'yicha iqtisodiy tahlil qiling.

17-bob.

G'ALLACHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

17.1. G'allachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

G'allachilik o'simlikchilikning yetakchi tarmog'i hisoblanib, alohida xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. O'zbekiston aholisi iste'mol qiladigan oziq-ovqatlarida katta kaloriya hamda oqsil hisobida olingan don mahsulotlarining hissasi 50—60 % ni tashkil etadi. Respublikada aholi jon boshiga non, vermishel, makaron, guruch, mosh, no'xat, loviya va boshqa g'alla mahsulotlaridan tibbiy me'yorlarga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi.

Oziqabop donlardan, chorvador olimlar tomonidan aniqlangan me'yorlarda, oziqlantirish zotli chorva mollari potensial mahsuldorligi imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga sharoit yaratadi. Don oziq-ovqat sanoati uchun xomashyo hisoblanadi va uning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

G'allachilikning qo'shimcha mahsulotlari (somon, poxol, poya va h.k.)dan chorva oziqasi, to'shama organik o'g'it, qog'oz va boshqa sanoat tarmoqlarida xomashyo sifatida foydalanish ham yuqori iqtisodiy samara beradi. Donchilikning asosiy va qo'shimcha mahsulotlarini ko'paytirish va sotishni tashkil etish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholini arzon oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash uchun qulay sharoit yaratadi.

O'zbekistonda 2012-yilda tashkil topgan chakana baholarda 1 kg yumshoq bug'doydan tayyorlangan 1,2 kg I navli non mahsulotini sotishdan 1600 so'm pul tushumi olinadi. Bundan tashqari, kepak va somon mahsulotlaridan 290—300 so'mga yaqin pul olinadi. Demak, 1 kg bug'doydan olingan asosiy va qo'shimcha mahsulotlarning qiymati 1890—1900 so'mga tengdir. O'zbekiston iqlim sharoitida kuzgi g'alla ekilgan maydonlarda ikkinchi ekin (chorva oziqasi, kartoshka va sabzavot)lardan mahsulotlar olish mumkin.

Demak, g'allachilikni intensiv rivojlantirish yer, suv va boshqa resurslar salohiyatidan samarali foydalanishga sharoit yaratadi. Ammo ayrim tarixiy davrlarda O'zbekistonda g'allachilikning rivojlanish darajasi bozor iqtisodiyoti hamda mustaqil rivojlanish talablariga to'laroq javob bermagan.

17.2. G'allachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqbollari

O'zbekistonda 15—20 turdagi madaniy g'alla ekinlari 2,5—3 ming yillardan buyon ekiladi. Ammo g'allachilikning samaradorligidan to'laroq foydalanish ayrim davrlarda keskin tafovut qiladi.

G'alla yalpi mahsulotini ko'paytirish omillaridan oqilona foydalanish natijasida sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanish hamda g'alla ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining rentabellik darajasi ko'tarildi. Masalan, 1990-yilda davlat buyurtmasi asosida sotilgan g'allaning rentabelligi davlat va jamoa xo'jaliklarida mos ravishda 48,7 va 55,1 % ni tashkil etdi.

Ammo respublikada yetishtirilgan g'alla unga bo'lgan minimum talabni ham qondira olmadi. Uning non va omuxta yemga bo'lgan talabining yarmidan ko'prog'i sobiq Ittifoq umumdavlat fondi hisobiga to'ldirilgan edi.

O'zbekistonda mustaqil rivojlanish yillarida g'allachilikni tezroq rivojlantirish kompleks chora-tadbirlari amalga oshirildi. Masalan, 2000-yilda 1990-yilga nisbatan g'alla ekin maydoni 603,8 ming gektarga yoki 60 % ga kengaytirildi, uning hosildorligi mos ravishda 55 s.ga yoki 29 % ga, yalpi mahsulot miqdori esa 2017 ming tonnaga yoki 2,1 marta ko'paydi. Aholi jon boshiga g'alla ishlab chiqarish 1960-yilda 93 kilogrammdan, 2000-yilda 161 kg yoki 1,7 marta ko'paydi.

2004-yilda respublika bo'yicha 5800 ming tonna yalpi g'alla hosili olindi. Uning ko'payishi gektaridan olinadigan hosildorlikni oshirish hisobiga erishildi. O'rtacha hosildorlik 38 s, 1990-yilga nisbatan 13,7 s.ga yoki 56,4 % ga yuqori. Aholi jon boshiga 220 kg.ga yaqin g'alla ishlab chiqarildi, unga bo'lgan minimum talabning taxminan 50—60 % ga tengdir. Qayd etish zarurki, 2004-yilda jahon mamlakatlari bo'yicha jon boshiga 400 kg don ishlab chiqarildi. Kanada va AQSHda uning hajmi mos ravishda 100 kg.dan ortiqroqdir.

Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan g'allaning 80—85 % ini bug'doy tashkil qiladi. Aholining mahsulotlarga bo'lgan talabi respublikada ishlab chiqarilgan. Chorva hayvonlarining to'yimli don oziqalariga bo'lgan talabining 10 % i respublikada ishlab chiqariladi, qolgan qismi esa paxta kunjarasi, sheluxasi va boshqa qo'shimcha hamda qoldiq sanoat mahsulotlari bilan to'ldiriladi.

Respublikada keyingi 10 yilliklarda g'alla ishlab chiqarishning holatini asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan ham ko'rish mumkin (28-jadval).

28-jadval

O'zbekistonda g'allachilikning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2005—2014-yillar)*

Yillar	Ekin maydoni, ming ga	Yalpi g'alla hosili, ming tonna	1 gektaridan hosildorlik, s	Aholi jon boshiga, kg
2005	1616,1	6401,8	39,8	243
2006	1618,1	6546,7	41,3	245
2007	1538,5	6643,1	42,5	245
2008	1559,0	6621,6	42,0	240
2009	1610,7	7293,1	44,1	260
2010	1679,4	7404,1	43,6	254
2011	1607,4	7054,0	45,3	239
2012	1628,1	7519,5	44,6	251
2013	1643,9	7807,8	45,0	256
2014	1655,6	8050,5	45,3	259

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

2008-yilga kelib respublikada g'alla mustaqilligiga erishildi. Ya'ni shu yili 6621,6 ming tonna g'alla ishlab chiqarildi. Shundan 91 % i bug'doyning hissasiga to'g'ri kelgan. 2014-yilda esa mos ravishda 8050,5 ming tonna yoki 86 % ni tashkil etgan. Bu davrga kelib makkajo'xori va sholining salmog'i oshib borgan. Bug'doy ishlab chiqarish bo'yicha tibbiy me'yorlar darajasiga erishildi.

Respublikada guruchga, sifatli unga, serhosil navlar urug'iga va omuxta yemga bo'lgan talab qisman jahon bozorlaridan sotib olinadi. Bunday tajriba normal jarayondir.

Istiqbolda mamlakat aholi jon boshiga o'rtacha 500 kg.dan ishlab chiqarish g'allachilik tarmog'ining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy samaradorligini oshiradi. Ammo bu vazifani boshqarish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun dunyo bozori-dan ayrim don mahsulotlari sotib olish davom etadi.

Keyingi yillarda Davlat reyestriga yumshoq kuzgi va duvarak bug'doyning 42 ta, qattiq kuzgi va duvarak bug'doylarning 9 ta, bahori yumshoq bug'doyning 2 ta, bahori qattiq bug'doyning 2 ta navi kiritilgan. Jumladan, yumshoq bug'doyning:

«*Chillaki*» navi. U O'zbekiston sug'oriladigan maydonlariga ekish uchun 2002-yildan davlat reyestriga kiritilgan. Biologik kuzgi.

Nav o'ta ertapishar, past bo'yli (85—95 sm), yotib qolishga chidamli, *Erythrospermum* tur xiliga mansub. Sovuqqa chidamliligi o'rtacha, qurg'oqchilikka chidamli, o'rtachadan past darajada sariq zang va boshoq fuzariozi bilan kasallanishi mumkin. Qora-kuya kasalliklariga chidamli. Nav o'ta ertapisharligi sababli bu kasalliklar nav hosildorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatolmaydi. O'rtacha hosildorligi normal agrotexnika sharoitida gektaridan 60—70 sentnerni tashkil etadi. Don sifati bo'yicha «qimmatbaho» don beradi. 1000 dona don vazni 40—42 g, dondagi oqsil miqdori 13—14 % ga teng, kleykovinasi 26—28 %, un chiqishi 67—74 % gacha

«*Kupava*». *Lutescens* tur xiliga mansub. Biologik kuzgi. Yirik boshli va hosildor nav. Doni o'rtacha yiriklikda qizil yoki och qizil rangli, yarim cho'zinchoq shaklda. 1000 dona donning vazni 40 g.dan 46 g.gacha.

O'zbekiston sharoitida 220 kunda pishadi. O'suv davri respublikaning shimolida (Qoraqalpog'iston) — 255 kun, janub sharoitida 186 kun.

Nav yotib qolish va to'kilishga bardoshli, qishga chidamliligi — 5 ball. Respublika non inspeksiyasi laboratoriyasining ma'lumotiga ko'ra, navning texnologik va non yopish sifati yomon emas: oqsil miqdori 11—12,5 %, kleykovinasi 26—28 %, un chiqishi 72—78 %, nonning ko'tarilishi hajmi 299—331 sm³. Umumiy non yopish bahosi yaxshi, 4 ball. Hosildorligi 70 s/ga.

«*Umanka*». *Lutescens* tur xiliga mansub. Biologik kuzgi. Doni ovalsimon, o'rtacha yiriklikda, to'q, shishasimon, to'q sarg'ish-qizil. 1000 dona donning vazni 37 g.dan 42 g.gacha. Don sifati kuchli bug'doy talablariga javob beradi. Hosildorligi 60—70 s/ga.

«Tanya». Yarim pakana nav, o'rtapishar, yotib qolishga chidamligi yuqori. Tur xili *Lutescens*. Doni to'kilmaydi. Navning potensial hosildorligi raqobatli nav sinovida gektaridan 122,1 sentnerni tashkil etgan.

1000 dona donning vazni 45,4—46,5 g, naturasi 795—810 g/l. Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha «qimmatbaho» bug'doylar guruhiga kiritilgan.

Sariq zang va poya zangi, un shudring, chang qorakuya kasalliklariga chidamli. Qo'ng'ir zang, septorioz va boshqoq fuzariozi kasalliklariga o'rtacha chidamli. Sovuqqa chidamligi o'rtachadan yuqori, qurg'oqchilikka chidamligi yuqori.

«Krasnodar-99». Past bo'yli, o'simlik balandligi 90 sm.ga yaqin, yotib qolishga chidamligi yuqori. O'rtapishar. Tur xili *Lutescens*. Nav mahsuldor, hosildorligi gektaridan 72,6 sentnerni tashkil etadi.

Don sifati bo'yicha «qimmatbaho», mineral oziqlantirish to'g'ri nisbatlarda o'tkazilganda «kuchli» don ham berishi mumkin.

Chang qorakuyaga chidamligi yuqori, sariq va poya zangiga chidamli, dala sharoitida un shudring va septorioz kasalliklariga chidamli, boshqoq fuzarioziga o'rtacha chidamli, qo'ng'ir zang kasalligiga beriluvchan. Qurg'oqchilikka chidamli, sovuqqa chidamliligi o'rtachadan yuqori.

«Moskvich». O'rta bo'yli, 95—100 sm, yotib qolishga chidamli. O'rtapishar, tur xili *Lutescens*. Navning don hosili potensial imkoniyati yuqori, gektaridan 73,2 sentner. Don sifati bo'yicha «kuchli» bug'doylar guruhiga kiradi.

Chang qorakuya, qo'ng'ir va sariq zang, boshqoq fuzariozi kasalliklariga chidamli, sovuqqa chidamliligi yuqori, qurg'oqchilikka chidamli.

«Kuma». Past bo'yli, bo'yi 90—100 sm, yotib qolishga chidamliligi yuqori. O'rta ertapishar. Tur xili *Lutescens*. Hosildorligi gektaridan 100 sentner.

Don sifati ko'rsatkichlari yuqori. Qo'ng'ir, sariq va poya zangi, septorioz, un shudring kasalliklariga chidamli, boshqoq fuzarioziga o'rtacha chidamli. Qishga chidamligi yuqori, qurg'oqchilikka chidamli.

«Nota». Past bo'yli, 85—90 sm, yotib qolishga chidamli. Tur xili *Lutescens*. Tezpushar. Navning don mahsuldorlik potensial imkoniyati o'ta yuqori. Shimoliy Kuban qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasida 3 yilda (2000—2002) o'rta hosildorlik 100,4 sentnerni tashkil etgan. Don sifati bo'yicha «kuchli» don beradi.

Chang qorakuya va qo'ng'ir zang kasalligiga chidamligi yuqori, sariq, poya zangi hamda septorioz kasalligiga dala sharoitida chidamli, un shudring va boshqoq fuzarioziga o'rtacha chidamli. Qattiq qorakuya kasalligi bilan oz miqdorda kasallanadi. Sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamligi o'rtacha.

«*Yesaul*». Nav yarim pakana, bo'yi 85—90 sm, yotib qolishga chidamli, o'ta ertapishar. Tur xili *Erythrospermum*. 1000 dona don vazni 42—44 g. Hosildorligi 100 s/ga. Dondagi oqsil 14,6, kleykovina miqdori 29,2, donining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha kuchli bug'doy guruhiga kiradi.

Chang qorakuya, sariq zangi va un shudring kasalliklariga chidamliligi yuqo i. Qo'ng'ir va poya zang kasalliklariga dala sharoitida chidamli. Septorioz kasalligiga nisbatan chidamli. Boshqoq fuzariozi bilan o'rtacha holda kasallanadi. Qattiq qorakuyaga beriluvchan. Sovuqqa chidamli.

«*Selyanka*». Biologik kuzgi. *Lutescens* tur xiliga mansub. 1000 dona donining vazni o'rtacha 41—44,5 g. Nav o'rtacha bo'yli navlar guruhiga kiradi. O'simlikning bo'yi o'rtacha 75—100 sm. Yotib qolishga, to'kilishga chidamligi 4,5—5 ballgacha. Qishga chidamligi 4,5—5 ballga teng. Vegetatsiya davri respublikamiz janubiy viloyatlarida 190 kun, boshqa viloyatlarda o'rtacha 203—210 kun.

Hosildorligi respublikaning sug'oriladigan yerlarida 58,3—65 s/ga. O'zbekiston sharoitida navning texnologik va non yopish sifati yaxshi.

Qattiq bug'doyning davlat reyestriga kiritilgan quyidagi navlarini mintaqa tuproq iqlimiga mos holda ekish mumkin:

«*Makuz-3*». Doni o'rtacha kattalikda, oval-silindsimon, sariq-limon rangli, sayoz ariqchali. 1000 dona donning vazni 38,4—39,1 g. O'rta ertapishar 180—200 kunda pishadi. Qishga chidamligi yaxshi, 5 ball. 2000—2004-sinov yillarida o'rtacha don hosildorligi 48,5—59,9 s/ga.

Navning texnologik va makaronboplik sifati yaxshi.

«*Karlik-85*». *Melanopus* tur xiliga mansub. Biologik bahorgi. Doni o'rtacha kattalikda, to'q sarg'ish, dumaloq, sayoz ariqchali. 1000 dona donning vazni 38,4—45,8 g.

Past bo'yli navlar guruhiga mansub. O'rta ertapishar, vegetatsiya davri 181—209 kun. Yotib qolish va to'kilishga bardoshli, 5 ball. Hosildorligi sug'oriladigan yerlarda 40,8—59,5; lalmikorlikda 26 s/ga. Navning texnologik va makaronboplik sifati yaxshi.

«*Istiqlol*». *Melanopus* tur xiliga mansub. Biologik bahorgi. Doni yirik, oq, ariqchasi o'rtacha oval-cho'zinchoq. 1000 dona donning vazni 44,5—47,5 g.

Bo'yi o'rtacha balandlikda. Yotib qolish va to'kilishga bardoshligi 5 ball. Qishga chidamli. O'rtacha hosildorligi 45,2—47,4 s/ga. Vegetatsiya davri 198—204 kun.

Yaxshi texnologik va makaronboplik ko'rsatkichiga ega.

«*Krupinka*». *Leucurum* tur xiliga mansub. Doni yirik, oq, shishasimon, cho'zinchoq, 1000 dona donning vazni 45—49 g, naturasi 780—820 g/l.

Nav yarimpakana (balandligi 80—85 sm), yotib qolish va to'kilishga bardoshli. Qishga va qurg'oqchilikka chidamliligi o'rtacha. O'rtapishar. Sariq va qo'ng'ir zang hamda un shudring kasalliklariga chidamliligi bilan xarakterlanadi.

Texnologik va makaronboplik sifati yaxshi.

«*Leukurum-21*». Biologik bahori, *Leucurum* tur xiliga mansub. 1000 dona donning vazni 39—45 g. Past bo'yli navlar guruhiga mansub. Yotib qolish va to'kilishga bardoshliligi 5 ball. Nav o'rta ertapishar, O'zbekiston sharoitida 210—220 kunda pishadi.

Hosildorligi sug'oriladigan yerlarda 38—48,3 s/ga, makaron va yorma sifati yaxshi.

Lalmikorlikda yumshoq bug'doy navlaridan quyidagilar ekiladi:

«*Zumrad*». *Grecum* tur xiliga mansub. Biologik kuzgi. 1000 dona donning vazni 38,5—44,9 g. O'rtapishar, vegetatsiya davri 246 kun. Nav qishga chidamli, yotib qolish va to'kilishga bardoshliligi 5 ballga teng. Qurg'oqchilikka chidamli.

Hosildorligi 16,6—22,7 s/ga. Non yopish sifati qoniqarli: kleykovina miqdori 25 %, oqsil 9,3 %, nonning ko'tarilishi hajmi 297 sm³. Umumiy non yopish bahosi 3 ball.

«*Krasnovodopad-210*». *Erythrospermum* tur xiliga mansub. Biologik kuzgi. 1000 dona donning vazni 35,8—40 g. Ertapishar, vegetatsiya davri o'rtacha 143—177 kun. Yotib qolish va to'kilishga bardoshliligi 5 ball. Qurg'oqchilikka chidamli. Hosildorligi 15,9—29,1 s/ga. Navning texnologik va non yopish sifati yaxshi. Kleykovina miqdori 26—27 %, oqsil 13,4 %, un chiqishi 70 %, umumiy non yopish bahosi yaxshi, 4,2 ball.

«*Ko'kbuloq*». *Erythrospermum* turiga mansub. Duvarak. Biologik kuzgi. 1000 dona donning vazni 38,9—45 g. O'rtapishar, o'suv davri o'rtacha 235 kun.

Qishga chidamli. Yotib qolish va to'kilishga bardoshligi 5 ball-ga teng. Qurg'oqchilikka chidamli. Hosildorligi 9,1—15,1 s/ga.

Respublika non inspeksiyasi laboratoriyasining ma'lumotiga ko'ra, navning non yopish sifati qoniqarli: oqsil 9,8 %, kleykovina miqdori 25 %, nonning ko'tarilish hajmi 229 sm³. Umumiy non yopish bahosi 3,8 ball.

«Oq bug'doy». *Grecum* tur xiliga mansub. Duvarak (biologik bahori). Boshog'i urchuqsimon, oq, o'rtacha uzunlikda va zichlikda. 1000 dona donning vazni 38,5 g.dan 45 g.gacha.

O'rtapishar, o'suv davri o'rtacha 190—200 kun. Qishga va qurg'oqchilikka chidamli. Yotib qolish va to'kilishga bardoshli. Doni yirik. Hosildorligi gektaridan 16,3—18,8 s/ga.

Respublika non inspeksiyasi laboratoriyasining ma'lumotiga ko'ra, navning texnologik va non yopish sifati yomon emas: oqsil 9,8 %, kleykovina miqdori 25 %, un chiqishi 62,5 %. Nonning ko'tarilish hajmi 329 sm³. Umumiy non yopish bahosi yaxshi — 4 ball.

«Sanzar-6». *Erythrospermum* tur xiliga mansub. Duvarak. Biologik kuzgi. Boshog'i prizmasimon, o'rtacha uzunlikda va zichlikda. 1000 dona donning vazni 37 g.dan 45 g.gacha. Ertapishar. Vegetatsiya davri 145 dan 177 kungacha. Yotib qolishga, to'kilishga, qurg'oqchilikka va qishga chidamli.

Hosildorligi 17,7—23,4 s/ga. Navning texnologik va non yopish sifati o'rtacha: oqsil miqdori 8,5 %, kleykovinasi 27 %. Un chiqishi 71 %, nonning ko'tarilish hajmi 294 sm³. Umumiy non yopish bahosi o'rtacha — 3 ball.

«Tezpishar». *Erythrospermum* tur xiliga mansub. Duvarak. 1000 dona donning vazni 36,3 g.dan 40,7 g.gacha. Nav tezpishar, vegetatsiya davri 143—177 kun. Yotib qolish va to'kilishga bardoshli. Qishga va qurg'oqchilikka chidamli — 5 ball.

Hosildorlik 15,6—21,8 s/ga. Respublika non inspeksiyasi laboratoriyasining ma'lumotiga ko'ra, navning texnologik va non yopish sifati o'rtacha: oqsil miqdori 9,1 %, kleykovinasi 27 %, un chiqishi 75 %. Nonning ko'tarilish hajmi 307 sm³. Umumiy non yopish bahosi o'rtacha — 3,5 ball.

«Surxok-5688». *Erythrospermum* tur xiliga mansub. Duvarak. Doni yirik, 1000 dona donning vazni 37,2—43,5 g. Vegetatsiya davri kuzda ekilganda 174—180 kun, bahorda ekilganda — 80 kun. O'rtacha hosildorlik gektaridan 18,6—19,6 sentner; bahorgi ekish muddatida — 10,4 sentner.

Navning to'kilishga bardoshligi 5 ballga teng, qurg'oqchilikka chidamligi o'rtacha 4,3 ball, yotib qolishga chidamligi 4 ball.

Navning texnologik va non yopish sifati o'rtacha: oqsil miqdori 8,5—11,3 %, kleykovinasi 22,5 %, un chiqishi 69,6 %, umumiy non yopish bahosi qoniqarli, 3—3,3 ballga teng.

Yuqoridagi nomlari va tavsiflari keltirilgan navlarda rejalashtirilgan hosilga, tuproqning agrokimyoviy ko'rsatkichlariga, o'simlikning nam bilan ta'minlanish darajasiga qarab, mineral va organik o'g'itlar miqdori aniqlanadi. O'zbekiston sharoitida sug'oriladigan yerlarda 1 tonna bug'doy va shunga muvofiq somon hosili olish uchun tumanlashtirilgan navlarga 34—37 kg azot, 11—12 kg fosfor, 23—25 kg kaliy solinadi. Odatda, ulardan foydalanish darajasi ob-havo, tuproq sharoiti, navning biologik xususiyati, ekish muddati, tup qalinligi va boshqa omillarga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Respublikada mustaqillik yillarida, o'zimizda yaratilgan (2010—2014-yillarda) g'allaning quyidagi navlari rayonlashtirilgan: ya'ni kuzgi yumshoq bug'doyning «Asr-434». UZ.2013-y., «Baxmal 97». UZ.2012-y., «Matonat-434». UZ.2010-y., «Omad-434». UZ.2012-y., «Saidaziz-316». UZ.2010-y., «Turkiston-319». UZ.2011-y., «Yaksart-319». UZ.2014-y. va kuzgi qattiq bug'doyning «Javohi-5». UZ.2011-y. va bahorgi yumshoq bug'doyning «Bahor-5». UZ.2013-y. navlari rayonlashtirilgan.

Mustaqillik yillarida g'allachilik urug'chiligi bilan shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot instituti xodimlarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 27-sentabrdagi «2012-yil hosili uchun kuzgi boshqoli don ekinlarini ekish, navlarni joylashtirish va xarid qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1621-sonli Qaroriga muvofiq, don va dukkakli don ekinlari ilmiy tadqiqot instituti va uning filiallariga, urug'chilik hamda boshqa xo'jaliklardan davlat resursiga xarid qilinadigan urug'lik don uchun nav ustamalaridan 3 % gacha ajratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining 2012-yil 30-mayda birgalikdagi «Don va dukkakli don ekinlari ilmiy tadqiqot instituti va uning filiallariga, urug'chilik hamda boshqa xo'jaliklardan davlat resursiga xarid qilinadigan urug'lik don uchun nav ustamalaridan 3 % gacha ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 3/1-qarori qabul qilindi. Unga binoan, ishlab chiqilgan Nizomda don va dukkakli don

ekinlari ilmiy tadqiqot institutining maxsus hisob varag'iga o'tkazilgan, davlat resurslari uchun xarid qilingan urug'liklarning avlodlari bo'yicha to'lanadigan ustamadan jamg'arilgan 3 % gacha mablag' 100 % deb hisoblanib, quyidagi tartibda taqsimlanish belgilab qo'yildi:

30 % — don va dukkakli don ekinlari ilmiy tadqiqot institutining seleksiya va urug'chilik sohasidagi ishlarini yaxshilash hamda uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun;

50 % — don va dukkakli don ekinlari ilmiy tadqiqot institutining hududiy filiallarining seleksiya va urug'chilik sohasidagi ishlarini yaxshilash hamda uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun;

10 % — boshqqli don ekinlarining mahalliy va xorijiy navlari urug'ini yetishtiruvchi ilmiy muassasalar — navlar originatorlarini, seleksiya va urug'chilik sohasi olimlarini hamda urug'lik sifatini ta'minlashda ishtirok etuvchi tashkilotlarni rag'batlantirish uchun;

10 % — boshqqli don urug'chiligiga ixtisoslashgan xo'jaliklarning rahbar va mutaxassislari malakasini oshirish, ularni zarur o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash, o'quv-amaliy seminarlar tashkil etish xarajatlari uchun.

Demak, urug'chilik bilan shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari va uning filiallari, shuningdek, seleksioner-olimlarning yangi navlar yaratish ustida faoliyat olib borishlari uchun ham moddiy-texnika bazasi, ham ularni moddiy rag'batlantirish borasida ijobiy ishlar amalga oshirildi.

17.3. G'allachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

O'zbekistonda sug'oriladigan g'alla maydonlarini kengaytirish uchun unumdorligi yuqori yer va suv resurslari chegaralangan. Lalmikor yerlarda g'allachilikni rivojlantirish barqaror samara bermaydi, ayniqsa, qurg'oqchilik yillari hosildorlik bozor iqtisodiyoti qonunlari va mexanizmlari talablariga mos kelmaydi.

Respublika sharoitida g'allachilikning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun dastavval barcha turdagi g'alla ekinlari hosildorligini oshirishning real imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish zarur. Bu borada ilg'or korxonalarda anchagina yutuqlar qo'lga kiritilgan. 2000—2002-yillarda Andijon viloyati bo'yicha sug'oriladigan maydonlarda o'rtacha hosildorlik 70—75 s.ni tashkil

etgan, ilg'or shirkat va fermer xo'jaliklarida gektaridan 90 s va undan ortiq bug'doy hosili olingan.

Barqaror yuqori hosil olish kompleks texnologik ishlarni sifatli va qisqa muddatlarda bajarishni talab etadi. Kuzgi boshqoli g'alla sifatli haydalgan yerlarga optimal muddatlarda ekiladi. Ko'pchilik bug'doy navlarini sentabrning oxiridan ik-kinchi o'n kunligida ekish tavsiya etiladi. Ular ertaroq ekilganda qish tushguncha naychalash fazasiga o'tishi mumkin. Qish mavsumi nisbatan iliq kelgan yillari ular o'sishni davom ettiradi va boshqolash fazasini tezlashtiradi.

Odatda, respublikaning shimoliy mintaqalarida optimal ekish muddatlari erta, janubiy viloyatlarda kechroq bo'ladi. Bunda har bir viloyat, tuman uchun ayrim navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olib, optimal ekish muddatlariga aniqlik ham kiritilishi mumkin. Ko'plab o'tkazilgan tajribalar bir xo'jalikda bir necha serhosil navlarni ekish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda. Oldin biologik kuzgi navlar, keyin duvarak, bahorgi navlar ekiladi. Arpa bug'doydan keyin ekiladi, chunki arpa bug'doyga nisbatan tezroq rivojlanadi. Ekish muddati optimal muddatlarda o'tkazilishi mavjud texnika vositalaridan samarali foydalanishga sharoit yaratadi.

Respublikamizda serhosil, kasalliklarga, zararkunandalarga, yotib qolishga, tabiatning boshqa noqulay omillariga chidamli, don sifati yuqori bug'doy va arpaning sug'oriladigan yerlarda ekishga mo'ljallangan intensiv tipdagi navlarini ekish tavsiya etiladi. Bunday navlar davlat reyestridan o'tkazilishidan oldin davlat nav sinash tajriba stansiyalarida yoki uchastkalarida yagona uslub bo'yicha sinaladi hamda oldindan ekib kelinayotgan navlardan hosildorlik va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ustunlik qilsa, nav sinalgan tuproq-iqlim mintaqasida ekish uchun davlat reyestridan o'tkaziladi.

Xo'jaliklarda faqat davlat reyestridan o'tgan yoki istiqbolli navlar ekilishi lozim. 2000—2005-yillarda davlat reyestridan quyidagi yumshoq bug'doy navlari o'tgan va tumanlashtirilgan. «Sangzor», «Sherdor», «Yonbosh», «Marjon», «Sangzor-4», «Unumli bug'doy», «Skifyanka», «Yuna», «Bezostaya-1», «Spartanka», «Intensiv», «Sete-serros-66», qattiq bug'doy navlaridan — «Aleksandrovka», «Baxt» va boshqalar, shuningdek, arpa navlaridan: «Temur», «Marokand», «Bobur» va boshqalar.

Bu navlardan nav sinash uchastkalarida 40—50 sentnerdan 80—90 sentnergacha hosil olingan. Xo'jaliklarda har qanday nav uzoq yillar davomida ekilsa, urug'larning qimmatli xususiyatlari pasayib boradi. Shuning uchun har 3—4 yilda navlarni yangilash zarur.

Bug'doydan yuqori hosil olishning real imkoniyatlaridan biri almashlab ekishdir. Kuzgi bug'doyni ikki yildan ortiq joylashtirish, dalada begona o'tlarning, kasalliklarning hamda zararkunandalarning ko'payishiga, tuproq unumdorligining, binobarin, hosildorlikning pasayishiga va don sifatining buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, kuzgi bug'doy urug'lik uchun ekilganda uni boshqoli don ekinlaridan keyin joylashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Kuzgi bug'doy uchun beda va boshqa chorva oziqa ekinlari, kartoshka, sabzavot va dukkakli don ekinlari samarali o'tmishdosh hisoblanadi. Ayni paytda shu ekinlar uchun kuzda ekilgan bug'doy ham, o'z navbatida, o'tmishdosh ekindir. Uzoq muddatlarda bug'doy-g'o'za almashlab ekishining joriy etilishi tuproq unumdorligining pasayishiga olib keldi. Natijada me'yordan ortiqcha mineral o'g'itlardan foydalanishga zaruriyat tug'ilib, yerning ekologik holatlari yomonlashadi va h.k.

Kuzgi bug'doy hosilini oshirish ilg'or sug'orish rejimidan foydalanishga bevosita bog'liq. Tuproqda nam to'plash maqsadida o'tkaziladigan sug'orishni yerni haydashdan oldin amalga oshirish yuqori samara beradi. Bunday dalalarda ekilgan urug'lar qisqa vaqtda bir tekis unib chiqib, o'simlikning yer ustki qismi hamda ildiz qismi mustahkam rivojlanadi va natijada hosildorlikning oshishiga olib keladi.

Amaliyotda tuproqda nam to'plash uchun sug'orishni urug' ekilgandan keyin o'tkaziladi. Bunday dalalarda, odatda, tuproq yoriladi, ildizlar uziladi, o'simlikning rivojlanishi susayadi, natijada hosildorlik pasayadi, o'simlikning suvga bo'lgan talabi, uning hayotining dastlabki kunlaridanoq paydo bo'ladi. Suvga bo'lgan eng ko'p talab naychalash, boshqolash fazalariga to'g'ri keladi.

O'simlikning suvga talabini barqaror ta'minlash uchun tuproqning namlik sig'imi 70—80 % dan kam bo'lmasligi kerak. Buning uchun, ya'ni tuproqda nam to'plash uchun sug'orish gektariga 1200 m³, o'sish davrida 700—750 m³ hajmida 3—4 marta sug'orishni o'tkazish tavsiya etiladi. Sut pishishining oxiri, mum pishish oldidan gektariga 250—300 m³ hajmida yugurtirib, yengil sug'orishni o'tkazish hosilni oshirishga qulay sharoit yaratadi.

Ekish oldidan nam to'plash va o'simlikni o'sish davrida sug'orishning jo'yaklar orqali amalga oshirilishi, o'q ariqlar oralig'i 100 m.dan oshmaganda ham yuqori hosil olish imkoniyatini beradi.

Kuzgi bug'doy 1 t don hosil qilishi uchun o'rtacha 700—1000 m³ suv sarflaydi. Suv bilan ta'minlanish optimallashtirib borishi bilan 1 t don hosil bo'lishi uchun sarflangan suv miqdori ham kamayib boradi, natijada sug'oriladigan g'allachilik samaradorligi ko'tariladi.

Yuqori hosil olish omillaridan yana biri uni qisqa muddatlarda yig'ib-terib olishdir. Masalan, kuzgi bug'doy pishib yetilgach, 8—12 kunda o'rib-yanchib olinishi zarur. Agar uning muddati kechiktirilsa, hosilning bir qismi nobud bo'ladi (dalalarda qolib ketadi). Ayrim xo'jaliklarda nobud bo'lgan hosil sifatli sug'orish va o'g'itlashdan olinadigan qo'shimcha hosildan ham ko'p bo'lib, tarmoqning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Hosilni yig'ishtirishda kombaynlardan guruh usulida foydalanish samarali hisoblanadi. Ang'iz ekinlari tuprog'ini tayyorlash eng qulay muddatlarda o'tkazilib, ularni ekish muddati qisqaradi va hosildorligi oshadi.

Demak, yuqori hosil yaratish uchun barcha texnologik jarayonlar o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi zarur. Chunki, odatda, samaradorlik hosilni yaratish, yig'ib olish bilan bevosita bog'liqdir. Ma'lumki, g'allachilik va uning mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligi 1 s mahsulotning to'liq tannarxi va uni sotish bahosi hamda rentabellik ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Oddiy shaklda tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha turdagi 1 sentner g'alla-ning tannarxi qishloq xo'jaligi korxonalarida, shu jumladan, shirkatlarda va fermer xo'jaliklarida oxirgi yillarda oshib bormoqda. Bunday holat g'allachilikda ishlatiladigan asosiy va aylanma vositalarga ko'tara hamda chakana baholarning oshishi, nominal brutto mehnat haqi fondi, undan hisoblanadigan ajratmalar, soliqlar va to'lovlar hajmining ko'payishi hisobiga sodir bo'lmoqda.

1 s g'alla tannarxi so'mning inflatsiya koeffitsiyentining oshishi hamda jahon bozorida bahoning tashkil topish darajasini hisobga olib, barcha turdagi tovar g'alla mahsulotlariga davlat xarid baholari oshirilmoqda.

1 s g'alla tannarxi va uning sotish bahosining o'sishi o'rtasida mutanosiblikning saqlanmasligi oqibatida tannarxga kiritilgan xarajatlarning rentabelligi ko'pchilik korxonalarda past darajada yoki ular zarar bilan ishlashmoqda.

Korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilash, shu jumladan, ularning aylanma fondlarini tashkil etish maqsadida, fyuchers kontraktatsiya shartnomasiga asosan davlat buyurtmasi bo'yicha sotiladigan mahsulot qiymatining 50 % hajmida bo'nak beriladi.

Ko'pchilik korxonalarda g'allachilikda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash oila pudrati asosida amalga oshiriladi, moddiy manfaatdorlik va javobgarlik tamoyillaridan foydalanish samaradorligi kuchaytiriladi.

Ammo g'allachilikda aniqlanadigan ko'pchilik samaradorlik ko'rsatkichlari bozor iqtisodiyoti qonunlari mexanizmlari va kategoriyalaridan oqilona foydalanish talablariga to'laroq javob bermaydi.

Shuning uchun mavjud real imkoniyatlardan oqilona foydalanishni tezlashtirish maqsadida bozor iqtisodiyoti sharoitidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish dolzarb vazifadir. Dastavval, tovar mahsulotlarining sotish baholarini erkin va shartnoma asosida tashkil topishiga, g'allakorlarni mehnat natijalariga qarab kafolatlangan haq to'lanishiga erishish zarur. Tarmoqda mehnatga pul va natural shaklida haq to'lashni joriy etish samarali hisoblanadi.

TAYANCH IBORALAR

G'allachilik, o'simlikchilik, samarali, tannarx, mutanosiblik, suv miqdori, talab, bug'doy, bir tekis, o'g'it.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qaysi navlar samarali hisoblanadi?
2. Hosildorlikni oshirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Suv qachon beriladi?
4. Iqtisodiy samaraga qanday erishish mumkin?

18.1. Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

G'oz texnik ekinlar guruhiga kiradi. U, o'z navbatida, yigiruv va oziq-ovqat mahsulotlari beruvchi va boshqa guruhlarga bo'linadi. Yigiruv mahsulotlari beruvchi ekinlarga g'oz, zig'ir, kanop, jut va boshqalar kiradi. Oziq-ovqat mahsulotlari beruvchi ekinlar guruhiga esa qandlavlagi, yog' beruvchi, dorivorlar, chekish uchun tamaki va maxorka, kauchuk beruvchi va boshqalar kiradi.

Yer yuzida 80 ga yaqin, O'zbekistonda esa 40 ga yaqin texnik ekinlar ekiladi. Ularning ichida g'oz asosiy ekin hisoblanadi. G'oz yetishtirishdan paxta xomashyosi va g'ozapoya olinadi. Paxta xomashyosini birlamchi qayta ishlash jarayonida paxta tolasi va chigit olinadi. Odatda, paxta tolasi chiqishi 30—35, urug'i esa 60—65 % ni tashkil etadi. Bir tonna paxta xomashyosini qayta ishlashda 3000 m³.ga yaqin gazlama, 100—110 kg yog', 200—250 kg kunjara, 50—60 kg sheluxa, 10 kg xo'jalik sovuni va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Paxtachilik universal tarmoqqa aylanib bormoqda. Uning asosiy mahsulotlari paxta xomashyosi va poyasini qayta ishlash jarayonida 1200 dan ortiq sanoat mahsulotlari olinadi. O'zbekiston to'qimachilik sanoati xomashyosi balansida paxta tolasi 70 % ni, o'simlik yog'-moy sanoatida chigit 90 % ni tashkil etadi.

Paxta xomashyosidan gazlama, ip, momiq, sun'iy ipak, to'qimachilik va boshqa ko'pgina buyumlar ishlab chiqariladi. Chigitdan eng arzon yog', margarin, sovun, glitserin va boshqa mahsulotlar, chigit qoldig'idan esa kunjara, sheluxa olinadi. Paxta tozalash va yog' zavodlari chiqindilaridan izolatsiya materiallari, selluloza, spirt, linoleum, lok, har xil bo'yoqlar, kino plyonkasi va boshqa ko'pgina tovarlar tayyorlanadi.

G'ozga bargidan organik kislotalar, jumladan, sirka, limon, olma kislotasi olinadi. G'ozzapoyadan dag'al qog'oz, karton, faner, oshlash va boshqa materiallar ishlab chiqariladi. Chigitdan olinadigan sheluxa chorva mollari uchun to'yimli oziqa hisoblanadi, undan gidroliz sanoatida xomashyo sifatida foydalaniladi, furfurol va texnik spirt olinadi. Furfurol qatron, plastmassa, kapron, sintetik tola, alif, har xil dorivorlar va boshqa mahsulotlar olinadi.

Har bir gektar g'ozga gullaridan mavsumda 60—70 kg asal mahsuloti olish mumkin. Asalarichilikni tashkil etish hisobiga g'ozning changlanish sifati tubdan yaxshilanadi va uning hosildorligi 2—3 sentnerga oshadi.

Bir tonna paxta xomashyosini qayta ishlashdan olingan asosiy tovar mahsulotlar (gazlama, yog', kunjara, sheluxa, momiq)ni sotishdan 2012-yil o'rta baholarida hisoblaganda 7650 ming so'mlik pul tushumi tushadi. Agar gazlamadan tayyor kiyimlar tayyorlanib sotilsa, pul tushumi 4—5 marta ko'payadi.

Paxta tolasini jahon bozorida sotish jarayonida O'zbekistonning xalqaro valuta fondi ko'payadi, natijada uning yangi texnologiya va texnikani sotib olish imkoniyati mustahkamlanadi hamda iqtisodiy taraqqiyoti tezlashadi va h.k.

18.2. Paxtachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

O'zbekistonda paxtachilik ikki yarim ming yildan buyon rivojlanadi. Ammo uning yuqori samaradorligidan foydalanish ayrim davrlarda keskin tafovut qiladi. Buni asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan ham ko'rish mumkin (29-jadval).

O'zbekistonning mustaqil mamlakat bo'lib rivojlanish yillarida yalpi paxta mahsuloti kamaydi. 2000-yilda respublikada 3030 ming tonna yoki 1990-yilga nisbatan 41 % ga kam paxta xomashyosi ishlab chiqarildi. Shu yillarda ekin maydoni 17,9 % ga qisqarib, gektaridan hosildorlik esa 24,2 % ga pasaydi. Paxtachilikda bunday holatga yo'l qo'yilishi obyektiv va subyektiv sabablar bilan bog'liq.

Mustaqil rivojlanish yillarida paxta maydonini qisqartirish hisobiga sug'oriladigan g'alla, ayniqsa, bug'doy ishlab chiqarish ko'paytirildi. Sug'oriladigan yerlar meliorativ holatining yomonlashishi, mineral o'g'itlar me'yorining kamayishi, suv tanqisligi

**O'zbekistonda va Samarqand viloyatida paxta yetishtirish dinamikasi
(2005—2014-yillar)***

Yillar	O'zbekiston bo'yicha			Samarqand viloyatida		
	Maydoni, ming ga	Hosildorlik, s/ga	Yalpi hosil, ming t	Maydoni, ming ga	Hosildorlik, s/ga	Yalpi hosil, ming t
2005	1431	26,2	3750,0	103,4	25,0	260,4
2006	1430	25,0	3630,0	103,4	25,7	265,3
2007	1431	25,2	3609,0	103,4	24,7	255,7
2008	1425	23,8	3451,0	103,4	24,1	248,9
2009	1339	25,4	3399,6	100,0	23,5	235,0
2010	1400	26,5	3710,0	99,2	24,5	243,2
2011	1316	26,5	3500,4	100,7	26,4	264,3
2012	1286	26,5	3400,0	93,0	24,6	240,0
2013	1309	25,7	3361,2	94,8	23,7	224,4
2014	1301	26,1	3400,2	94,7	23,6	223,2

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

va h.k. gektaridan olinadigan hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi. Lekin g'o'za ekiladigan maydonlarning kamayishiga qaramasdan, O'zbekiston uning yalpi hajmi bo'yicha jahonda 5, paxta tolasini jahon bozorida sotish bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Bu nisbatlar yildan yilga kamayib bormoqda. Chunki respublikamizda chetga paxta tolasini chiqarishdan ko'ra, tayyor mahsulot eksport qilish tendensiyasi jadallik bilan davom etmoqda. Buni 10 yillardan buyon har yili kuz oylarida bo'lib o'tadigan Toshkent Xalqaro paxta yarmarkasi natijalaridan ham bilsa bo'ladi.

Birgina 2013-yilda respublikamiz ana shunday yarmarkada 480 ming tonna tola va 500 mlrd AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilishga shartnoma tuzdi. Bu jarayon keyingi yillarda ham ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1 tonna tola sotishdan ko'ra, xuddi shu 1 tonnadan qayta ishlangan mahsulotlarni sotish 4—5 marta ko'proq foyda olish imkoniyatini beradi.

2004-yilning o'zida g'o'za maydoni 1340,6 ming ga gacha kamayib, yalpi hosil 3540 ming tonnani tashkil etib, hosildorlik 26,4 sentnergacha yetkazildi.

2009-yildan boshlab paxta ekin maydonlarining qisqarish tendensiyasi mavjud bo'ldi. 2014-yili paxta ekin maydonlari 1339 ming gektardan 1301 ming gektarga tushib qolgan. Lekin intensiv omillar ta'siri ostida hosildorlik mos ravishda 25,4 dan 26,1 sentner/gektarga oshdi. Samarqand viloyatida paxta ekin maydonlari 2009-yildagi 100 ming gektardan 2014-yilda 94,7 ming gektarga kamaygan. Shu davrda hosildorlik esa mos ravishda 23,5 dan 23,6 sentner/gektarga oshganligini ko'rish mumkin. O'zbekistonda keyingi yillarda ertapishar va o'rtapishar 20 dan ortiq navlar keng maydonlarda ekilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda paxtachilikni yanada rivojlantirish uchun joriy etilayotgan dehqonchilikning yangi zamonaviy tizimida ustuvor yo'nalish qilib quyidagilarni belgilash mumkin:

Tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshirishning asosiy yo'li almashlab ekishdir. Hozirgi kunda fermer xo'jaliklarida almashlab ekishning 1:1 sxemasi (g'alla 50 %, paxta 50 %) va 1:2 sxemasi (g'alla 33,3 %, paxta 66,7 %) keng qo'llanilmoqda. Bu sxemalarda tuproq unumdorligini saqlab qolish uchun takroriy ekinlardan, ayniqsa, don-dukkakli ekinlardan keng foydalanish talab qilinadi.

Kelajakda sho'rlangan va sho'rlanishga moyil bo'lgan yerlar uchun paxta-beda almashlab ekishning 2:3:1 sxemasini (2 dala beda, 3 dala paxta, 1 dala g'alla) o'rganishni tavsiya etish mumkin.

Raqobatbardoshli intensiv tipdagi navlarni to'g'ri tanlash va uning urug'chiligini tashkil qilishning ahamiyati kattadir. Ekishga faqat standart talabiga javob beradigan urug'larni yetkazib berishga erishish bilan ayni vaqtda urug'chilik ishlari ilmiy asosda olib borilgandagina maqsadga erishiladi.

O'g'itlash tizimida o'g'itlarning me'vori, qo'llash muddati o'simlikning talabi asosida o'tkazilishi shart. Dehqonchilikda «qaytarish» qonuniga qat'iy amal qilish va g'o'zani o'stirishda resurs tejovchi agrotexnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, suv sarfini tejaydigan, tuproqqa ishlov berish sonini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni joriy etishga erishish talab qilinadi.

Fermerchilikda ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, uni davr talabi darajasiga ko'tarish, fan-texnika, ilg'orlar tajribasini ishlab chiqarishga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rish hamda g'o'zani

hasharot va kasalliklardan saqlashda uyg'unlashgan usuldan keng foydalanish, bunga, ayniqsa, biologik usulga e'tiborni kuchaytirishning ahamiyati beqiyosdir.

Texnologik jarayonlarni o'tkazishda texnologik intizomning buzilishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak.

G'o'zaning respublikamizda keng tarqalgan turlari

G'o'zaning 37 turi mavjud bo'lib, shundan 4 tasi madaniy hisoblanadi. Bular *G.hirsutum*, *G.barbadense*, *G.herbaceum*, *G.arboreumlardir*. Madaniy tur g'o'zalardan, asosan, *G.hirsutum* (o'rta tolali g'o'za) va qisman *G.barbadense* (ingichka tolali g'o'za)lar ekilib kelinmoqda.

G.hirsutum L. — dastlabki tarqalish joyi Markaziy Amerika — Meksika hududidir. Shuning uchun ham Meksika g'o'zasi nomi bilan yuritiladi. Bu tur jahonda keng tarqalgan va asosiy maydonlarni egallaydi. Tur ko'pgina mamlakatlarning sug'oriladigan va lalmi dehqonchiligida ekiladi. Uning hisobiga dunyoda yetishtirilayotgan tolaning 70 % i to'g'ri keladi. O'suv davri 100—150 kungacha, ko'sak yirikligi 3—12 g.gacha, tola uzunligi 20—42 mm.gacha, tola chiqishi 25—42—45 %. Gommoz va vilt bilan kasallanadi.

G.barbadense L. — dastlabki tarqalish va kelib chiqish mintaqasi tropik mamlakatlar Peru, Braziliya, Boliviya va ularga yondosh mamlakatlar, xususan, Barbados orolidir va uning nomiga monand *barbadense* deb ataladi. *Barbedense* turi Peru g'o'zasi ham deyiladi. Bu g'o'za xirtuzumga nisbatan kam tarqalgan bo'lib, Misrda ko'proq ekiladi. Sudan, Turkiya, Eron, MDH davlatlarining ba'zilarida ham ekiladi. *Barbadense Si Ayland* nav tipiga mansub bo'lib, Misrning qimmatli navlari bazasida kelib chiqib tarqalgandir.

Bu tur g'o'za dunyo tolasining 9—10 % ini tashkil etadi. O'suv davri 135—140—170 kundan ko'proq. Ko'sak yirikligi 2,5—4 g, ko'proq 3—3,5 g, tola uzunligi 27—60 mm, tola chiqishi 20—39 %. Fuzarioz, vilt bilan kasallanadi, gommoz bilan ham kasallanishga moyil.

Ma'lumki, paxta tolasiga asosiy iste'molchi to'qimachilik sanoati bo'lib hisoblanadi va ular qayta ishlangan tolani ma'lum bir talablar asosida qabul qiladi (30-jadval).

To'qimachilik sanoatining tolaga qo'ygan talablari

Tola tipi	Shtapel vazn uzunligi, mm	Uzilish kuchi, gk	Chiziqli zichlik (metrik soni), m/teks	Nisbiy uzilish kuchi, GK/teks	Tola chiqishi, %	Sanoat talabi, %
I	40—41	4,7	127(7900)	57,0	32	3
II	38—39	4,7	137(78900)	34,0	33	4
III	37—38	4,7	147(6800)	32,0	34	5
IV	35—35	4,7	167(6000)	28,0	34,5	12
V	33—34	4,7	179(5600)	26,5	36	64—66
VI	32—33	5,0	200(5000)	25,0	37	10
VII	Ekilmaydi					

Mustaqillik yillarida «175-F», «S-6524», «S-4727», «Chimboy-3010», «An-O'zbekiston-3», «Samarqand-3», «Toshkent-6», «Yulduz», «An-Boyovut-2», «Oktabr-60», «Qirg'iziston-3», «Andijon-9», «Toshkent-1», «Andijon-60», «Buxoro-6», «S-9070», «Namangan-77», «Oqdaryo-5», «Oqdaryo-6», «Omad», «Buxoro-102», «S-6541», «Oqdaryo-8», «S-8584», «Sulton», «Buxoro-8», «Ibrat», «Barhayot», «Porloq» kabi g'o'za navlari ekilgan va ekilmoqda.

Paxta yetishtiriladigan hududlarda eng hosildor va sifati yuqori g'o'zaning ekiladigan barcha navlari ikki guruhga bo'linadi:

- uzun (ingichka) tolali navlar;
- o'rta tolali navlar.

Uzun tolali navlar I, II, III tip tolalar bersa, IV, V, VI tip tolalarni esa o'rta tolali navlar beradi.

O'rta tolali g'o'za navlarining davlat nav sinovidan o'tgan, tuproq-iqlim sharoitiga mos bo'lgan bir nechta ekilmoqda, jumladan:

«*Namangan-77*». G.S. Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot instituti va Qizil Rovot tajriba xo'jaligida yaratilgan. Nav o'rtapishar bo'lib, o'suv davri 110—125 kun. Vilt kasalligiga chidamli. Bir ko'sakdagi paxta massasi 5,2 g, tola chiqishi 33,3 %, shtapel uzunligi 33,7 mm, tolaning uzilish kuchi 4,7 gk, nisbiy uzilish kuchi 26,2 gk/teks. Tolasi V tip. Hosildorligi gektariga o'rtacha 44 s.

Unumdor bo'z o'tloq va o'tloq-botqoq tuproqlarda gektariga 80—90 ming tupdan, sho'rlangan yerlarda 120—140 ming tupni tashkil etgani ma'qul. Bo'z tuproqlarda o'g'itlarning me'yori N250P175K125 kg/ga.

«S-6524». G.S. Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida duragaylash yo'li bilan yaratilgan, o'rtapishar. Tola uzunligi 35,2 mm, tola pishiqligi 4,5—4,6 gk, nisbiy uzilish kuchi 28,5 gk/teks, tola chiqishi 33—34 %. Tolasi IV ipga mansub.

«S-6530». G.S. Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida duragaylash yo'li bilan yaratilgan. O'rtapishar navlar guruhiga kirib, vilt kasalligiga chidamli. O'suv davri 114—124 kunni tashkil etadi. Bir ko'sakdagi paxta massasi 5,4—6,2 g, tola chiqishi 36,8—37,2 %, shtapel uzunligi 35,2 mm, pishiqligi 4,5 gk, nisbiy uzilish kuchi 27,1 gk/teks. Hosildorligi gektariga 40—48 s.gacha yetadi.

«S-4727». G.S. Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida duragaylash yo'li bilan yaratilgan. O'suv davri 132—136 kun. Ko'sakdagi paxta massasi 6,3—6,8 g, tola chiqishi 36 %, shtapel uzunligi 33,2 mm, tolaning pishiqligi 4,6—4,8 gk, nisbiy uzilish kuchi 26,2 gk/teks. Tolasi V tip. Kasallikka chidamsiz.

«Buxoro-6». O'zPITI Buxoro filialida turlararo duragaylash yo'li bilan yaratilgan, o'rtapishar. Ko'sakdagi paxta massasi 7,2 g. Tola chiqishi 36,5 %, tola uzunligi 34 mm, tolaning pishiqligi 4,5—4,6 gk, nisbiy uzilish kuchi 28,3 gk/teks.

«Omad». G.S. Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutining olimi R. Kim tomonidan yaratilgan. O'suv davri 115—118 kun. G'o'zaning bo'yi 80—90 sm. ga boradi. Ko'saklar tanaga yopishgan holda joylashgan. Ko'sak massasi 5—5,5 g. Hosildorlik 40 sentnergacha. Tola chiqishi 35—36 %. Tola uzunligi esa 33—34 mm.ni tashkil qiladi. Tolasi V tipga mansub. Mikroneyr ko'rsatkichi 4,5—4,6.

Suvga talabi o'rtacha, vilt bilan zararlanishi 5—8 % ni tashkil qiladi. Mineral o'g'itlarga o'rtacha talabchan.

«Buxoro-102» g'o'za navi O'zPITIning Buxoro filialida S.I. Mahsudov, B.O. Mislimov, E. Mavlonov va boshqalar tomonidan yaratilgan. O'suv davri 115—124 kun, hosildorligi 45—50 s/ga, tola chiqishi 37—38 %, tola uzunligi 33—34 mm, tola pishiqligi 4,4—4,5 gk, tolaning nisbiy uzilish kuchi

26,5—27 gk/teks, bir dona ko'sakdagi paxta vazni 7—8 g, 1000 dona chigit vazni 123—130 g, tolaning metrik raqami 6000—6004, mikroneyr ko'rsatkichi 4,3—4,4, viltga chidamli, tola tipi — IV.

«*Sulton*» g'o'za navi O'zbekiston g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida Sh. Namazov, P.Sh. Ibragimov, U. Muratov tomonidan yaratilgan. F4 (*FIG.thurberi* x *G.raimondi*) x *G.hirsutum* L. turlararo duragayidan ko'p martalik tanlash yo'li bilan yaratilgan. O'suv davri 115—120 kun, poyasining balandligi 130—140 sm, hosildorligi 40—45 s/ga, ko'sagining vazni 6—6,5 g, tolasining uzunligi 33—34 mm, mikroneyr ko'rsatkichi 4,5—4,6, tolasining chiqimi 36 %, tolasining mayinligi 6250—6700, tolasining uzilish uzunligi 28—28,5 gk/teks, tolasining tipi — V.

«*An-chillaki-1*». O'zbekiston FA o'simliklar biologiyasi institutida yaratilgan. Nav juda tezpishar, o'suv davri 100—110 kun. Past bo'yli bo'lib, balandligi 60—70 sm.gacha. Hosildorligi gektaridan 25—35 sentnergacha. Nav tezpishar bo'lganligi uchun vilt kasalligiga chalinguncha rivojlanish davrlarini o'tishga ulgura oladi. Navni boshqali don ekinlari yoki ayrim yem-xashak ekinlaridan keyin ekish mumkin. Undan takroriy ekin sifatida yoki qalin tup son hosil qilish uchun foydalanish paxtachilikda yangi yo'nalishni vujudga keltirishi mumkin.

«*An-Boyovut-2*». O'zbekiston FA o'simliklar biologiyasi institutida S. Sodiqov va boshqalar tomonidan yaratilgan. Tezpishar nav. O'suv davri 129—130 kun. Ko'sagidagi paxta massasi 6,5—7 g. Tola chiqishi 35—36 %, tola uzunligi 34—35 mm, tolaning nisbiy uzilish kuchi 26,1—26,7 gk/teks. Tolasi V tip.

«*Armug'on*». Bu nav L-9263 x L-541 duragay kombinatsiyalarini o'zaro chatishtirib, ko'p marotaba yakka tanlash orqali P.G. Gubanova, O.D. Jo'rayev, J.A. Musayev, Z.Y. Sodiqovalar tomonidan yaratilgan.

Hosildorligi 48—55 sentner, bitta ko'sakdagi paxta massasi 6—6,5 g, o'suv davri 120—125 kun, tola chiqishi 38—39 %, tola uzunligi 33—34 mm, nisbiy uzilish kuchi 25,6 gk/teks, tolasini V tip. Vilt bilan zararlanishi 5,1—11 %. Nav 1999-yilda rayonlashtirilgan.

«*Buxoro-8*». Nav *Gossypium hirsutum* turiga mansub bo'lgan «*Buxoro-6*» naviga bir pallalik o'simliklarining fotosintez irsiyatini

sun'iy o'tkazish yo'li bilan yaratilgan. Muallifi A.M. Battalov va boshqalar. Navning bo'yi o'rtacha 90—120 sm.

Hosil shoxlari agrotexnik sharoitga mos ravishda 2 yoki 3 tipda shoxlaydi, hosil shoxi asosiy poyaning 5—7 bo'g'inlaridan chiqadi. O'suv shoxlari 3 tagacha. Ko'saklari yirik, tuxumsimon, ko'sakdagi paxta massasi 7—11 g. Hosili to'kilmaydi. Nav o'rtapishar, o'suv davri 118—120 kun. Ko'sagi, asosan, 5 chanoqli, ba'zan 4 chanoqlilari ham uchrab turadi. Chigiti yirik, 1000 dona chigit massasi 120—140 g atrofida, tukli, yashil-kulrangda.

Tolasi III va IV tipga mansub bo'lib, mayin va uzun. Tola chiqishi 35—37 %, tola uzunligi 33—36 mm.ni tashkil etadi.

«Xorazm-126». «Paxta» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Xorazm tajriba tayanch punktida «Xorazm-125» navidan yakka tanlash yo'li bilan D. Yo'ldoshev, K. Matnazarov, A. Iskandarov, A. Hasanova, Sh.I. Ibragimov, I. Bahromov, No Gi Xvalar tomonidan yaratilgan.

Nav 1997-yilda davlat reyestriga kiritilgan. Tupining bo'yi 90—120 sm, piramida-ustunsimon, poyasi yashil, kam tuklangan, ko'sagi tuxumsimon, 1000 dona chigit massasi 100 g. O'rtacha hosildorligi 40,8 s.

Vegetatsiya davri 119 kun. Bir ko'sakdagi paxta massasi 5,2 g, tola chiqishi 37 %, viltga chidamli. Tolasi V tipga mansub. Mikroneyr ko'rsatkichi 4,1.

«Xorazm-127». «163-F» navi «S-9062» navi bilan chatishtirilib, ko'p marotaba yakka tanlash hamda qayta tanlash yo'li bilan yaratilgan. 2002-yilda davlat reyestriga kiritilgan.

O'suv davri 120—130 kun. Poyasi tik, bo'yi 90—120 sm, tanasi yashil, o'rtacha tuklangan. Hosil shoxlari 5—6 bo'g'imdan chiqadi. 1—1,5 tipda shoxlaydi. Chigiti och yashil, kulrang. 1000 dona chigit massasi 122—132 g. Moydorligi 24,5 %. Tola chiqishi 36,5—38,4 %, tola uzunligi 34,5—36 mm, uzilish uzunligi 26,2 gk, nisbiy uzilish kuchi 26—27,3 gk/teks. Sifat markazi ma'lumotiga ko'ra, tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,2—4,4 ga teng.

Uzun (ingichka) tolali navlardan quyidagilar ekiladi:

«Termiz-16». O'zPITI Surxondaryo filialida A.G. Gavrilov, N. Xolmurodov va boshqalar tomonidan duragaylash usulida yaratilgan. Bir ko'sakdagi paxta massasi 3,2 g, tola chiqishi 33,7 %. Shtapel uzunligi 39,1 mm, tolaning pishiqligi 4,6—4,7 gk, nisbiy uzilish kuchi 36,6 gk/teks, o'suv davri 119 kun. III tip tola beradi. Fuzarioz, vilt kasalligiga chidamli.

«Termiz-24». O'zPITI Surxondaryo filialida tanlash yo'li bilan yaratilgan. Bir ko'sakning vazni 2,8 g, tola chiqishi 33 %. Tola shtapel uzunligi 39,7 mm. Tolaning pishiqligi 4,7 gk, nisbiy uzilish kuchi 36,2 gk/teks. II tip tola beradi.

«Termiz-31» navi O'zPITI Surxondaryo filialida A.E. Avliyoqulov, A.A. Tvorogova, Sh.I. Ibragimov va boshqalar tomonidan 6608.V x Termiz-11 navlarini chatishtirish va turlararo duragaylash hamda qayta tanlash yo'li bilan yaratilgan. 1997-yilda davlat reyestriga kiritilgan. Navning tupi cheklangan tipda, konussimon, bo'yi 100—120 sm, ayrim hollarda har bir tupida 1—2 ta uzun hosil unsurlari, 2—3 ta ko'sak bo'ladi. Birinchi hosili 3—4 bo'g'inlarida paydo bo'ladi. Ko'sagi o'rtacha kattalikda, tuxumsimon, yuraksimon, o'tkir burunli, yaxshi ochiladi, ochilgach paxtasi chanoqlardan to'kilmaydi. Tolasining pishiqligi 4,8 gk, nisbiy uzilish kuchi 33,3 gk/teks, uzunligi 38,9 mm, tola chiqishi 34,6 % gacha. O'suv davri 115 kun. Tolasining rangi oppoq, jahon standartiga to'g'ri keladi. Fuzarioz va ildiz chirish kasalliklariga chidamli.

«S-6037». G.S. Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida Y. Xutornoy va Sh.I. Ibragimovlar tomonidan chatishtirish yo'li bilan yaratilgan. Ko'sagining massasi 3,6—3,8 g, tola chiqishi 30—31 %. Tola uzunligi 40—41 mm, pishiqligi 4,3—4,6 gk, nisbiy uzilish kuchi 35,5 gk/teks. Kasallikka chidamli.

O'zbekiston paxtachiligida istiqbol vazifa — yalpi hajmni keskin kamaytirmaslik, sifatini yaxshilash, asosiy qismini mintaqada qayta ishlash hisoblanadi. Paxtachilik va u bilan bog'liq bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini intensiv rivojlantirish, mavjud mehnat, yer, suv va boshqa moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, respublika iqtisodiyotining barqaror o'sishiga real sharoit yaratadi.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) respublikada g'o'zaning quyidagi navlari: «Andijon-37», 21.UZ.2012-y., «An-16», 9.UZ.2011-y., «Besh qahramon», 9.UZ.2011-y., «Gulbahor-2», 9.UZ.2012-y., «Do'stlik-2», 2.15.UZ.2011-y., «Ko'paysin», 9.UZ.2012-y., «Navbahor-2», 9.UZ.2013-y., «Ibrat», 3. UZ.2011-y., «S-6775», 2.UZ.2013-y., «S-8284», 2.UZ. 2014-y., «Sulton», 2.UZ.2011-y. rayonlashtirilgan.

18.3. Paxtachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

O'zbekistonda serunum yer va ayniqsa, suv resurslari chegaralangan. Mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, har bir gektar paxtadan olinadigan hosildorlikni oshirish hisobiga erishiladi.

Hosildorlikni oshirish kompleks agrotexnologik jarayonlarni sifatli va qisqa muddatlarda bajarish bilan bog'liq. Tarmoqni tashkil etishning barcha davrlarida va istiqbolida ham yuqori hosil olish uchun quyidagi imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur.

Paxtachilikning xususiyatlarini hisobga olib, dastavval, almashlab ekishni ilmiy asosda amalga oshirish lozim. Uzoq yillar g'o'za va beda almashlab ekish tavsiya etilgan edi. Natijada tuproq unumdorligi saqlanib, ekin maydonlari begona o'tlardan va kasalliklardan tozalanadi, ularning sho'rlanish darajasi pasayadi va h.k. Mustaqil rivojlanish yillarida g'o'za-don, g'o'za-yemxashak va boshqa ekinlar bilan almashlab ekish ham amalga oshirilmoqda.

Hosildorlik seleksiya va urug'chilik ishlarining holatiga ham bog'liq. Respublika xo'jaliklarida davlat nav sinovidan o'tgan, tuproq-iqlim sharoitiga mos navlar ekiladi. Seleksioner olimlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan «Toshkent-6», «S-6530», «Buxoro-6», «Oqdaryo-6,7», «Navbahor», «Yulduz», «Mehr» va boshqa navlar ilmiy asoslangan va texnologik jihatidan joriy etilgan 35—50 s va undan yuqori hosil berish potensial imkoniyatiga ega. Urug'chilik xo'jaliklarida elita, tovar xo'jaliklarida I va II klass urug'larni ekish uchun sharoit yaratilgan.

Haydalma qatlami qalin bo'lgan tuproqli yerlarda shudgor chuqurligi 30—35 sm bo'lishi tavsiya etilgan. Bunday tuproqlarda 4—5 yil oralig'ida 45—50 sm chuqurlikda, yiliga 30 sm chuqurlikda shudgorlansa, hosildorlikka optimal sharoit yaratiladi. Chigitni pushtaga, plyonka ostiga va qo'shqatorlab ekish hosildorlikni oshiradi, uning erta pishib yetilishiga imkon beradi.

Mineral va mahalliy o'g'itlardan ilmiy asoslangan me'yor va muddatlarda foydalanilsa g'o'zaning rivojlanishi jadallashadi, ko'saklarning yetilishi tezlashadi. Tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, bir tonna paxta yetishtirish uchun o'rta hisobda 50—60 kg azot, 15—20 kg fosfor, 50—60 kg kaliy sarflanadi. Ularni organik

o'g'itlar bilan birga qo'llanilganda, mineral o'g'itlarning iqtisodiy samaradorligi ancha yuqori bo'ladi. Eskidan paxta ekiladigan maydonlarda har 3—4 yilda bir marta 20—30 tonna go'ng solish yaxshi samara beradi.

G'o'zani oziqlantirishda mineral o'g'itlarga chirigan va elangan go'ng aralashtiriladi. Bunda 1 kg ammiakli selitruga 2—2,5 kg, 1 kg superfosfatga 6—7 kg, 1 kg ammosofga 1,5—2 kg go'ng qo'shish yuqori samara beradi. Organik o'g'itlar paxtachilikning barcha mikrounsurlarga bo'lgan talabini qondirishni ham kuchaytiradi.

Sifatli hosil olish g'o'za kasalliklari (ildiz chirish, gommuz, vilt va boshq.)ga va zararkunandalari (g'o'za biti, o'rgimchakkana, karadrina va boshq.)ga qarshi kurash, g'o'zani defoliatsiya va desikatsiya qilish, hosilni qo'lda hamda mashinada terishni belgilangan qisqa muddatlarda bajarish bilan bevosita bog'liq.

Vaholanki, yuqorida ko'rsatilgan texnologik jarayonlar ayrim korxonalarda turli darajada bajariladi, binobarin, gektaridan olinadigan hosildorlik ham mos ravishda farq qiladi. Bu ko'rsatkichga tabiiy obyektiv omillar ham ta'sir etadi. Bunda asosiy vazifa tarmoqni intensiv rivojlantirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, ko'proq, sifatliroq va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot birligi tannarxini pasaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, mustaqil rivojlanish yillarida barcha turdagi korxonalarda 1 s paxta xomashyosi tannarxining ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bunday jarayon paxtachilikda ishlatiladigan traktorlar va boshqa asosiy vositalarga, energetik resurslarga, mineral o'g'itlarga va boshqa aylanma vositalarga ko'tara hamda chakana baholarning oshishi, nominal brutto mehnat haqi fondi, undan ajratmalar va soliqlar hisobiga sodir bo'lmoqda.

Paxtachilik sermehnat, binobarin, mehnat haqi ko'p sarflandigan tarmoq. Tarmoqda 60 dan ko'proq jarayon bajariladi. Jami kishi/soatida sarflangan mehnatning 90 % dan ko'prog'i qo'l vositalari bilan bajarilgan vaqtga to'g'ri keladi. Bu mashinalar yordamida bajarilgan vaqtga nisbatan 1,5—2 marta ko'p mehnat haqi to'lanadi. Ammo kam unumli qo'l mehnatining ko'payishi hisobiga uning unumdorligi pasayadi, natijada mahsulot birligi tannarxi ko'tariladi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, respublikada mustaqil rivojlanish yillarida 1 s paxtaga bevosita sarflangan kishi/soati

1,7 marta ko'paygan. Bunday jarayon paxtachilikda eng sermehnat jarayon, hosilni terim mashinalari yordamida yig'ib olishning keskin pasayib ketishi hisobiga sodir bo'ldi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 1990-yilda 52 % yalpi paxta hosili mashinalar bilan terilgan bo'lib, 2002-yilda bu ko'rsatkich 10 % dan oshmaydi. 2014-yillarda ham bu ko'rsatkich deyarli o'zgar-magan. 1 s paxta xomashyosi tannarxini mehnat haqi hisobiga pasaytirish, uning unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni talab etadi.

Bu dolzarb muammoni tezroq amalga oshirish barcha ishlarni, ayniqsa, sermehnat ishlar (g'o'zani yaganalash, sug'orish, chilpish, hosilni yig'ib olish)ni mexanizatsiyalash, gektaridan hosildorlikni oshirish, paxtakorlarni mehnat natijalariga qarab moddiy va ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga va h.k.ga bog'liq.

Paxta xomashyosining iqtisodiy samaradorligi uni sotish baho-larining tashkil topish darajasiga bevosita bog'liq. Bu mahsulotning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyatini hisobga olib, uni ko'tara xarid baholarida sotiladi. Uni belgilashda biologik navlarning tola tiplari va sanoat assortimenti asos qilib olinadi. Uning darajasiga jahon bozorida tashkil topadigan o'rta baholar ham ta'sir etadi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yillarida paxta xomashyo-sining o'rtacha bahosi oshib bormoqda. Ammo uning 1 s paxta to'liq tannarxiga nisbatan sekin oshgan yillarida ko'pchilik xo'ja-liklar paxta sotishdan zarar ko'radilar. Zararning obyektiv sabab-larga ko'ra tashkil topgan qismi paxta sotishdan sof foyda olgan korxonalar, sug'urta kompaniyalari, davlat budjeti va boshqalar hisobiga qoplanib, ayrim qarzlarning qaytarilish muddati uzayti-riladi va h.k.

Paxtakor xo'jaliklar va xo'jalik a'zolarining moddiy manfaat-dorligini oshirish maqsadida ularga chakana baholarga nisbatan arzonroq paxta yog'i, kunjara, sheluxa sotiladi. Paxta yetishtirishda paxtakorlarning moddiy manfaatdorligi va javobgarligini oshirish maqsadida ko'pchilik xo'jaliklarda ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash oila pudrati asosida amalga oshiriladi.

Paxtakor xo'jaliklarning yil davomida moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida ularga fyuchers kontraktatsiya shartnomasiga asosan davlatga sotiladigan mahsulot qiymatining 50 % i hajmida

bo'nak beriladi, paxta xirmonidan to paxta zavodigacha mahsulotni tashish, transport xarajatlari zavod hisobiga amalga oshiriladi.

Demak, paxtakor xo'jaliklar va xodimlarining moddiy manfaatdorligi hamda javobgarligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Ammo ularning asosiy moliyaviy natijalari bozor iqtisodiyoti qonunlari, mexanizmlari va kategoriyalari talablariga to'laroq javob bermaydi. Mavjud kamchiliklarni keskin kamaytirish maqsadida tarmoqda bozor iqtisodiyoti islohotini yanada chuqurlashtirish zarur. Dastavval, sotish baholarining erkin shartnoma asosida tashkil topishiga, paxtakorlarning mehnat natijalariga qarab kafolatlangan haq to'lanishiga erishish lozim.

TAYANCH IBORALAR

G'o'za, kategoriya, islohot, oziqlantirish, mineral o'g'it, intensiv, hosildorlik, paxtakor, xo'jalik, shartnoma, sotish bahosi, moliyaviy natija, mehnat natijalari, ish haqi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Paxtachilik xalq xo'jaligida qanday ahamiyatga ega?
2. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
3. Sohani rivojlantirish istiqbollari qanday?
4. Paxtachilikning hozirgi va kelajakdagi ahvoli qanday?

19-bob.

KARTOSHKACHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

19.1. Kartoshkachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Kartoshka ekinining asosiy mahsuloti — kartoshka foydalanish turlari jihatidan universal mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida 70—80 % suv, qolgan qismida kraxmal, oqsil, yog', *C* va *B* guruhi tarkibiga kiruvchi vitaminlar, shuningdek, har xil moddalar, kaliy, fosfor va boshqa o'nlab moddalar bor.

Kartoshkadan, asosan, xushxo'r to'yimli oziq-ovqat shaklida foydalaniladi, uni me'yor darajasida iste'mol etish inson tomonidan iste'mol etiladigan ko'pgina mahsulotlarning yaxshi hazm bo'lishiga ham yordam beradi. Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'simlikchilik oziq-ovqatlar balansi tarkibida kartoshka don mahsulotlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

O'zbekistonda ham aholining kartoshkaga bo'lgan talabi va uni qondirish darajasi kuzatilib borilmoqda. Kartoshkani qayta ishlash jarayonida kraxmal va spirt olinadi. Ular, asosan, shirinlik va alqogol ichimliklar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Kartoshka tuganaklaridan 25 % gacha kraxmal olinadi. Bir gektar kartoshka hosilidan g'alla ekinlariga nisbatan 3—4 marta ko'proq spirt olinadi. Bundan tashqari, 1 tonna kartoshkadan spirt olish uchun qayta ishlash jarayonida 1500 litr barda olinadi va chorvachilikda oziqa shaklida foydalaniladi.

Kartoshkadan cho'chqalarni oziqlantirish, o'ta sifatli go'sht ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi. Sug'oriladigan yerlarda er-tagi va kechki navlaridan 2 marta hosil olish, aholining kartoshkaga bo'lgan talabini taqvim yil davomida barqaror ta'min etishga sharoit yaratadi va h.k.

O'zbekistonda kartoshkachilikni intensiv rivojlantirish yer, suv, mehnat va boshqa resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi.

19.2. Kartoshkachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

O'zbekistonda kartoshkachilikni rivojlantirish tarixi taxminan 130 yilga teng, uning urug'i Lotin Amerikasi mamlakatlaridan Rossiyaga, Rossiyadan O'zbekistonga keltirilgan.

Kartoshka biologik xususiyatiga ko'ra, o'rtacha iqlim 20°C dan oshmagan issiqlikda samarali rivojlantiriladi. O'zbekiston iqlimi keskin kontinental va qurg'oqchil mintaqadir. Havо va tuproqning o'ta issiqligi kartoshka o'stirish uchun noqulaylik tug'diradi. Bunday sharoit fotosintezni sekinlashtiradi, oqibatda kartoshkaning tugish va ildiz sistemasining rivojlanishiga va nihoyat, uning hosildorligiga va sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Yoz oylarida me'yordan ortiqcha quyosh nuri hosil to'planishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublika olimlari sug'oriladigan maydonlarda kartoshkadan yuqori hosil olishning kompleks texnologik, seleksiya, urug'chilik va boshqa masalalarining nazariy va uslubiy asoslarini, binobarin, tarmoqning samaradorligini oshirish uchun sharoit yaratdilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kartoshkachilikning rivojlanish darajasi ayrim yillarda keskin tafovut qiladi (31-jadval).

31-jadval

O'zbekistonda kartoshkachilikni rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2005—2014-yillar)*

Yillar	Ekin maydoni, ming ga	Yalpi kartoshka hosili, ming tonna	Gektaridan hosildorlik, s/ga	Aholi jon boshiga, kg
2005	49,8	848,1	170,3	32
2006	52,6	921,5	175,2	35
2007	55,6	1023,6	184,1	38
2008	59,9	1162,7	194,1	42
2009	62,8	1245,9	198,4	44
2010	70,7	1377,9	194,9	47
2011	73,6	1440,3	195,7	49
2012	76,1	2057,1	203,7	68
2013	78,3	2250,4	210,7	74
2014	80,3	2452,4	213,6	79

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan kartoshka 1990-yilda aholining haqiqiy iste'mol qilgan hamda urug'lik uchun foydalanilgan kartoshkaning yarmidan ko'prog'i ittifoq umumdavlat fondi hisobiga ta'minlangan. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yillarida kartoshkachilikni tezroq rivojlantirish maqsadida uning ekin maydoni kengaytirilib, hosildorligi oshirildi. 2000-yilda 1990-yilga nisbatan kartoshka yalpi hosili qariyb 2,2 marta ko'paydi, mos ravishda uning maydoni 24,4 % ga kengaytirildi, hosildorlik esa 47,5 % ga oshdi. Aholi jon boshiga kartoshka ishlab chiqarish 2000-yilda 1990-yilga nisbatan qariyb 83 % ga ko'paydi. Ammo jon boshiga tovar hamda urug'lik kartoshka yetkazish minimum me'yoriy talabga nisbatan 2 marta kam bo'lgan.

Demak, o'sha yili respublikada jon boshiga 50 kg tovar hamda 10 kg urug'lik zarur bo'lgan. Jahon bozorlaridan aholi iste'moli uchun kartoshka sotib olish tarmoqning samaradorligini oshirmasdi. Chunki transport xarajatlari hamda mahsulotning nobud bo'lishi ko'paydi.

Issiq iqlim sharoitida kartoshka biologik xususiyatlarining qisqa muddatlarda keskin pasayishi va almashtirishning zarurligini hisobga olib jahon bozorlaridan superelita va elita navli urug'lar sotib olib kelinmoqda.

Kartoshkachilikning jadal rivojlanishi, asosan, urug'likka ko'p jihatdan bog'liq ekanligini inobatga olib, respublikaning tabiiy iqlim hamda tuproq holatini o'ziga hosildorlik xususiyatlarini inobatga olib yuqori sifatli urug' yetishtirib beradigan maxsus urug'chilik xo'jaliklarini tashkil etish va ularning to'laqonli rivojlanishi uchun davlat tomonidan imtiyozlar berilishini taqozo etadi.

Bu maqsadga erishish uchun qo'shimcha sarflangan mablag' hisobiga kartoshka hosildorligining oshishi hamda sifatining saqlanishi muhim hisoblanadi. Buni seleksioner olimlarning tajribasi ko'rsatmoqda. Shu bois 2014-yilda aholi jon boshiga kartoshka ishlab chiqarish 79 kg.ga yetdi. 2014-yilda kartoshka ishlab chiqarish 2005-yilga nisbatan 1604,3 ming tonnaga yoki 2,9 martaga oshdi.

Shu davr ichida ham ekstensiv, ham intensiv omillar ta'sirida shu natijaga erishildi. Bu yerda nisbatan ekin maydonlarining 61,2 % ga ko'payishi ijobiy ta'sir etgan. Hosildorlik esa 43,3 s/ga.ga yoki 25,4 % ga oshgan.

19.3. Kartoshkachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Keyingi yillarda kartoshka ishlab chiqarish va sotishni erkin amalga oshirish, hosildorlikni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish natijasida tarmoqning rentabellik darajasi ko'pchilik, ayniqsa, shahar atrofida joylashgan korxonalarda, bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga mos ravishda oshib bormoqda. Bu yutuqqa, odatda, erkin va shartnoma baholarining ko'tarilishi hisobiga erishilyapti.

Ammo ko'pchilik fermer xo'jaliklarida 1 s kartoshka o'rtacha to'liq tannarxining ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bunday hol, asosan, jahon bozoridan sotib olinadigan urug'lar baholarining keskin oshishi hisobiga sodir bo'layotir. Bundan tashqari, kartoshkani ekish, qator orasini yumshatish, hosilni yig'ib olish va boshqa jarayonlar qo'l bilan ishlatiladigan vositalar bilan bajarilyapti. Natijada tarmoqda mehnat unumdorligi past darajada qolmoqda. Kartoshkaning tannarxi kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashga sarflanadigan xarajatlar hisobiga ham oshayotir.

Oxirgi yillarda Kolorado qo'ng'izining kartoshka paykallarida keng tarqalishi natijasida hosildorlik pasayib, uning sifati yomonlashdi. Zararkunandaga qarshi qimmatbaho kimyoviy vositalardan foydalanish kutilgan natijalarni bermayotir.

Yuqori va sifatli hosil olish hamda arzon kartoshka ishlab chiqarish uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalanishga alohida e'tibor berish lozim:

- yengil qumoqli mexanik tarkibiga ega o'tloq, o'tloq-bo'z tuproqlarda, daryo yonbag'ri uchastkalarida, tog'li va tog'oldi mintaqalarda yaxshi o'sib, yuqori hosil beradigan navlarni ekish;
- suvga talabchanligini hisobga olib 400—500 m³ hajmida 7—8 marta sug'orish, uni, asosan, kechasi amalga oshirishga erishish;
- bunday yerlarga gektariga 30—40 tonna yarim chirigan go'ng, 250—300 kg ammofos va 160—200 kg kaliy sulfat yoki kaliy tuzi solinib, 30 sm chuqurlikda haydalishini ta'minlash;
- o'suv davri 69—70 kunda tezpishar va o'rtapishar navlar (Zarafshon, «SANTE», «Romano», «Marfona» va boshq.)ni ekish; mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) kartoshkaning O'zbekistonda yaratilgan quyidagi navlari rayonlashtirilgan: «Ko'k saroy-14», UZ.2011-y., «Pskom-14», UZ.2012-y., «Sarnav-14», UZ.2012-y., «Serhosil-14», «Umid 2-14», UZ.2013-y. va «Yaroqli 2010-12»;

• bahorda hamda kuzda ekiladigan urug'larni ekish oldidan 100 litr suvda 5—6 kg TMTD bilan birga 2 qahrabo kislotasi hamda 4 kg ammosfos qo'shib ivitib ekish hisobiga hosildorlikni 11—16 % gacha oshirish;

• har gektaga 3—3,5 tonna urug'lik tuganaklar ekilishiga, ekiladigan tuganaklarning vazni esa 30—80 bo'lishiga, ularni tuproqning 6—7 sm chuqurligiga ekish, qatqaloqni tez yorib qisqa muddatda to'la ko'chat olish imkoniyatiga ega bo'lish;

• eng progressiv usul hisoblangan urug'ni pushta ustiga ekishni joriy qilish;

• urug'likning asosiy qismini urug'likka ixtisoslashgan xo'jaliklarda tayyorlash va uni zamonaviy omborlarda saqlash;

• kartoshka ishlab chiqarishda oila pudrati asosida pul va natura shaklida kafolatlangan mehnat haqini joriy etish;

• tovar mahsulotlarni erkin va shartnoma, ya'ni bozor iqtisodiyotining qiymat, talab va taklif qonunlari talablari asosida tashkil topgan baholarda sotish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Kartoshka, xushxo'r, iste'mol, shirinlik, oziqa, nav, mehnat haqi, qatqaloq, shartnoma, jahon bozori, talab, taklif, pul, natura, pudrat.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kartoshka qanday ahamiyatga ega?
2. Sohani rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
3. Qanday istiqbolli navlar yaratilgan?
4. Hosildorlikni oshirish uchun nima qilish kerak?

**SABZAVOTCHILIKNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
IMKONIYATLARI****20.1. Sabzavotchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati**

Ko'p sabzavotlar, biokimyoviy jihatidan tarkibida suv ko'p bo'lgan mahsulotlar guruhiga kiradi. Masalan, sarimsoq tarkibida 64—65 %, sabzida 85—86 %, pomidorda 93—94 %, bodringda 95—96 % suv mavjud. Shuningdek, bu sabzavotlar tarkibida oqsil kam bo'ladi. Mos ravishda, sarimsoq tarkibida 6—7 %, sabzida 1,1—1,2 %, pomidorda 1—1,1 %, bodringda 1 % oqsil moddalari mavjud.

Bundan tashqari, ularda yuqori darajada kaloriya ham hosil bo'lmaydi. Masalan, 1 kg sarimsoqdan 1325—1330 kaloriya, sabzidan 502, pomidordan 215, bodringdan 14 kaloriya issiqlik ajraladi. Ko'pincha sabzavotlarda kletchatka ham kam hosil bo'ladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu mahsulotlar inson organizmi uchun o'ta zarur bo'lgan biologik faol moddalar, vitaminlar, fermentlar, mineral tuzlarga boydir.

Ba'zi sabzavotlar, ayniqsa, piyoz, sarimsoq, shivit, petrushka va turp tarkibida fitotsidlar tashkil topadi. Ularni iste'mol qilish odam organizmini turli xil infeksiyalardan tozalaydi, yuqumli kasalliklardan himoya qiladi.

Ko'pchilik sabzavotlar tarkibidagi har xil vitaminlar, kislotalar, efir moylar, xushbo'y moddalar ishtahani ochadi, yog' va oqsilli mahsulotlarning inson organizmida to'laroq hazm bo'lishiga yordam beradi. C vitamini ko'proq sabzavotlarni iste'mol qilish organizmni kamqonlikdan muhofaza qiladi, aterosklerozni susaytiradi.

Sabzavot mahsulotlari quruq moddasining asosiy qismini uglevodlar — kraxmal, saxaroza, glukoza, kletchatka hamda pektinli moddalar tashkil etadi.

Sabzavotlarning inson salomatligiga bevosita ta'sirini hisobga olib O'zbekistonda aholi jon boshiga yil mobaynida quyidagi

hajmda sabzavotlar iste'mol qilish tavsiya etilgan: jami 110—115 kg, shu jumladan, pomidor — 25, bosh piyoz — 18, sabzi — 18, karam — 20, lavlagi — 5, bodring — 5, sarimsoq — 5, boshqa sabzavotlar — 14, ko'kat sabzavotlar — 5 kg.

Sabzavotlarni ho'l iste'mol etish uning samaradorligini keskin oshiradi. Biroq, sabzavotlar tarkibida ko'p suv bo'lishi va eruvchan uglevodlarning borligi uchun ularni uzoq muddatlarga saqlansa, nobudgarchilik ko'payadi va sifat belgilari pastlashadi. Shuning uchun ularni uzoq joylarga tashishda qiyinchilik tug'ilib, konservalash zaruriyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston issiq iqlim sharoitida konservalashning eng oddiy va samarali usuli quritishdir. Quritilganda sabzavot tarkibidagi suvning ko'p qismi bug'lanadi, sabzavot vazni 7—10 baravar kamaygan holda, kam xarajat qilib uzoq saqlashga va tashishga sharoit yaratiladi.

Sabzavotlarni konservalashda yana bir keng amalga oshirilgan usul — achitish va tuzlashdir. Bu jarayonda sut kislotasi va etil spirti ham hosil bo'ladi, natijada achitilgan sabzavotlarning mazaliligi va xushbo'yligi ortadi.

Marinovka qilish (sirkalash) — 0,6—1,8 % li sirka kislotaning konservalovchi ta'siriga asoslangan usuldir. Bodring, pomidor, lavlagi, piyoz, sarimsoq, karam kabi sabzavot turlarini marinovka qilish, ularni yil davomida iste'mol qilish imkoniyatini tug'diradi.

Sabzavotlarni konserva zavodlarida turli xillarda qayta ishlash, ularni qopqog'i germetik yopiladigan idishlarga joylash, 100—120°C haroratda sterillab konservalash ham mahsulotlarni yil davomida iste'mol qilish, uzoq joylarga tashishga, binobarin, samarali foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

Sabzavotlarning poyalari hamda ularni qayta ishlashda tashkil topgan qo'shimcha mahsulotlari chorvachilikda oziqa sifatida foydalaniladi.

Ko'pchilik sabzavotlar nisbatan sermehnat resurslar salohiyatiga, ayniqsa, quyosh nuriga va suvga talabchan ekinlar tarkibiga kiradi. Bu tarmoqni intensiv rivojlantirish mavjud mehnat, sug'oriladigan yer va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ko'pchilik ekinlardan 2 marta hosil olish imkoniyati tarmoqning samaradorligini keskin oshiradi.

Sabzavotlarni ho'l hamda qayta ishlangan shaklda jahon bozorlarida sotish respublikaning valuta fondi ko'payishiga va uning xalqaro aloqalarini yanada kengaytirishga sharoit yaratadi.

20.2. Sabzavotchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Yer yuzida, shu jumladan, O'zbekistonda madaniy ekinlardan sabzi, sholg'om, lavlagi 2 ming, piyoz va bodring 4 ming yildan beri ekiladi. Sabzavotchilikning biologik xususiyatlarini hisobga olib, ochiq va yopiq maydonlarda o'stirish usullari qo'llaniladi.

Sabzavot ekinlari 14 ta botanik oilaga mansub 80 ga yaqin turni o'z ichiga oladi, shundan XX asrdan boshlab 40 ga yaqini O'zbekistonda ekiladi. Ular morfologik va biologik belgilari, hosildorligi, sotish baholari bo'yicha keskin farq qiladi. Shuning uchun sabzavotchilikning rivojlanish darajasi, ayniqsa, ularni tahlil qilish va baholash o'ta murakkab hisoblanadi.

1990-yilda yetishtirilgan yalpi sabzavotning qariyb 23 % i sobiq Ittifoq umumdavlat fondiga topshirilgan, davlat xarid baholarida sotilgan. Yalpi hosilning qolgan qismi respublika aholisi tomonidan iste'mol qilingan hamda kelasi yilda urug'lik hamda sotish va boshqa maqsadlar uchun saqlangan. Respublikaning mustaqil rivojlanish davri — 2000-yilda 1990-yilga nisbatan sabzavotlar maydoni 7 % ga qisqartirilgan, gektaridan hosildorlik 9,8 % ga pasaygan, yalpi hosil esa 7,2 % ga kamaygan. Bunday holat, *birinchidan*, sabzavot ekinlari maydonlarini qisqartirish hisobiga sug'oriladigan g'alla maydonlarining kengaytirilishidan, *ikkinchidan*, sabzavotchilik uchun mineral o'g'itlarning kam miqdorda sotilishidan va ko'pchilik ekinlar uchun sifatli urug'larning yetishmasligidan va *uchinchidan*, tovar mahsulotlarning bir qismini jahon, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bozorlarida sotish uchun qiyinchiliklarning kelib chiqishidan va boshqa subyektiv sabablardan yuzaga kelgan.

O'zbekistonda sabzavotchilikning rivojlanishi va iste'moli ayrim davrlarda turli darajada bo'lgan (32-jadval).

Mustaqil rivojlanish yillarida yalpi sabzavotning taxminan 85—90 % i respublika aholisi tomonidan iste'mol qilinadi, ichki bozorlarda sotiladi, urug'lik uchun foydalaniladi. Uning sifat belgilari past qismi esa chorvachilikda oziqa uchun foydalaniladi va h.k. Sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni sotishning yuqori samaradorligini hisobga olib, uni istiqbolda ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laroq va tezroq foydalanish dolzarb muam-molardan biridir.

2014-yilga kelib, sabzavotlar maydoni 2005-yilga nisbatan 39,4 % ga ko'payib, hosildorlik esa 24,3 % ga oshgan. Natijada ham ekstensiv, ham intensiv rivojlanish hisobiga yalpi hosil 3,1 martaga oshgan.

O'zbekistonda sabzavotchilikni rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2005—2014-yillar)*

Yillar	Ekin maydoni, ming ga	Yalpi sabzavot hosili, ming tonna	Gektaridan hosildorlik, s/ga	Aholi jon boshiga, kg
2005	137,7	2971,6	215,8	113
2006	154,4	3443,1	223,0	129
2007	159,8	3649,8	228,4	135
2008	162,8	4011,4	246,4	146
2009	165,4	4194,5	253,6	150
2010	173,0	4368,2	252,5	150
2011	175,4	4625,3	263,7	156
2012	183,8	7767,4	265,6	259
2013	189,4	8518,4	270,9	279
2014	192,0	9286,7	268,3	299

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

20.3. Sabzavotchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Keyingi yillarda sabzavotchilik tarmog'i asosiy mahsulotlarining rentabellik darajasi ko'pchilik, ayniqsa, shahar atrofida joylashgan xo'jaliklarda, bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga mos ravishda o'zgarmoqda. Bu yutuqqa, odatda, erkin va shartnoma baholarining ko'tarilishi hisobiga erishilmoqda.

Ammo ko'pchilik shirkat va fermer xo'jaliklarda 1 s sabzavotning o'rtacha to'liq tannarxi yildan yilga ko'tarilmoqda. Bunday holat, asosan, mehnat unumdorligining pastligi, zararkunanda va kasallikka qarshi kurash hamda urug' xarajatlarining ko'payishi hisobiga sodir bo'lmoqda. Ilg'or xo'jaliklar va ilmiy tekshirish institutlari tajriba natijalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, yuqori va sifatli hosil olish, uning tannarxini pasaytirish uchun quyidagi real imkoniyatlardan to'laroq foydalanishga e'tibor berish lozim:

- ko'pchilik sabzavotlarning suvga talabchanligi, uning ildiz tizimining tuproqda yuza joylashishi va kam rivojlanganini hisobga

olib, uni o'z vaqtida va belgilangan me'yorda sug'orishni tashkil etish, masalan, bosh piyozni 18—20 marta 500—600 m³ hajmida; sarimsoqni 7—10 marta 500—600 m³ hajmida; pomidorni 15—16 marta 600—700 m³ hajmida; bodringni 12—14 marta 550—600 m³ hajmida va h.k. Qisqa muddatlarda sug'orilsa, hosildorlik yuqori va sifatli bo'ladi;

- sabzavot ekinlarini tabiiy va sun'iy unumdorligi yuqori uchastkalarga joylashtirilishi lozim; kuchli sho'rlangan yerlarda hosildorlik keskin pasayib ketadi;

- sabzavot ekinlari tuproqdan hosil bilan birga ko'p miqdorda oziqa moddalarini olib chiqishini hisobga olib, o'simliklarning o'sish va rivojlanish davrida oziqa moddalariga bo'lgan talabning keskin tafovutini hisobga olib, ularni oziqlantirish ilmiy asoslangan miqdorlarda va muddatlarda amalga oshirilishi zarur;

- sabzavotchilikda mineral o'g'itlar bilan mahalliy o'g'itlar (chirigan go'ng, sideratlar) birga qo'llanilsa, ularning samaradorligi yuqori bo'ladi;

- sabzavot ekinlarining oziqlanishida molibden, marganes, bor, mis, rux, kobalt kabi mikrounsurlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Ulardan foydalanish ekinlar hosildorligini 15—20 % ga oshiradi, sifatini yaxshilaydi, kasalliklarga chidamliligini oshiradi;

- ayrim sabzavotlar ko'chat shaklida ekiladi. Ularni o'z vaqtida tayyorlash va sifatini ko'tarish maqsadida yopiq maydon sabzavotchiligini tashkil etish zarur.

Sabzavot ekinlarini boshqa ularga mos ekinlar bilan almashlab ekishni amalga oshirish lozim, ilg'or xo'jaliklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bedapoyadan bo'shagan yerlar, polizlar, shuningdek, dukkakli ekinlar karam, piyoz uchun eng samarali o'tmishdosh hisoblanadi. Sabzavot ekinlari ko'pi bilan 3—4 yilda oralatib ekilishi kerak.

Sabzavot ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish uchun eng muhim omil davlat standart (ГОСТ) reyestridan o'tkazilgan sifatli, toza, sog'lom unuvchanligi yuqori nav, elita, I-klass urug'larini ekish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) O'zbekistonda sabzavotning quyidagi navlari yaratildi va rayonlashtirildi:

- bodringning (ochiq usul) quyidagi navlari rayonlashtirilgan: «Maftun». 10. UZ. 2013-y.;

• pomidorning (ochiq usul) quyidagi navlari rayonlashtirilgan: «Nurafshon F₁».14. UZ.2011-y., «Marvarid» (cherri).14. UZ. 2013-y., «Turon F₁».14. UZ. 2010-y.;

• piyozning «Oq dur F₁». 14. UZ. 2013-y., «Farovon F₁».14. UZ. 2014-y.,

• osh lavlagining «Diyor». 14. UZ. 2010-y., «Yagona». 14. UZ. 2014-y.;

• tarvuzning «Fermer».12. UZ. 2010-y., «Sharq ne'mati».14. UZ. 2012-y.;

• qovunning «Dilxush».14. UZ. 2014-y., «Kichkintoy».14. UZ.2010-y. navlari.

Tovar mahsulotlarini erkin va shartnoma, bozor iqtisodiyoti-ning qiymat, talab va taklif qonunlari talablari asosida tashkil topgan baholarda sotish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Kaloriya, kletchatka, sabzavot, saxaroza, glukoza, piyoz, bodring, pomidor, sarimsoq, iste'mol, ekin, subyektiv, obyektiv.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sabzavotlar qanday guruhga mansub?
2. Ularning tarkibini bayon eting.
3. Sabzavotchilikning rivojlantirish istiqbollari bormi?
4. Yangi navlar ekish qanday iqtisodiy samara beradi?

olib, uni o'z vaqtida va belgilangan me'yorda sug'orishni tashkil etish, masalan, bosh piyozni 18—20 marta 500—600 m³ hajmida; sarimsoqni 7—10 marta 500—600 m³ hajmida; pomidorni 15—16 marta 600—700 m³ hajmida; bodringni 12—14 marta 550—600 m³ hajmida va h.k. Qisqa muddatlarda sug'orilsa, hosildorlik yuqori va sifatli bo'ladi;

- sabzavot ekinlarini tabiiy va sun'iy unumdorligi yuqori uchastkalarga joylashtirilishi lozim; kuchli sho'rlangan yerlarda hosildorlik keskin pasayib ketadi;

- sabzavot ekinlari tuproqdan hosil bilan birga ko'p miqdorda oziqa moddalarini olib chiqishini hisobga olib, o'simliklarning o'sish va rivojlanish davrida oziqa moddalariga bo'lgan talabning keskin tafovutini hisobga olib, ularni oziqlantirish ilmiy asoslangan miqdorlarda va muddatlarda amalga oshirilishi zarur;

- sabzavotchilikda mineral o'g'itlar bilan mahalliy o'g'itlar (chirigan go'ng, sideratlar) birga qo'llanilsa, ularning samaradorligi yuqori bo'ladi;

- sabzavot ekinlarining oziqlanishida molibden, marganes, bor, mis, rux, kobalt kabi mikrounsurlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Ulardan foydalanish ekinlar hosildorligini 15—20 % ga oshiradi, sifatini yaxshilaydi, kasalliklarga chidamliligini oshiradi;

- ayrim sabzavotlar ko'chat shaklida ekiladi. Ularni o'z vaqtida tayyorlash va sifatini ko'tarish maqsadida yopiq maydon sabzavotchiligini tashkil etish zarur.

Sabzavot ekinlarini boshqa ularga mos ekinlar bilan almashlab ekishni amalga oshirish lozim, ilg'or xo'jaliklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bedapoyadan bo'shagan yerlar, polizlar, shuningdek, dukkakli ekinlar karam, piyoz uchun eng samarali o'tmishdosh hisoblanadi. Sabzavot ekinlari ko'pi bilan 3—4 yilda oralatib ekilishi kerak.

Sabzavot ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish uchun eng muhim omil davlat standart (ГОСТ) reyestridan o'tkazilgan sifatli, toza, sog'lom unuvchanligi yuqori nav, elita, 1-klass urug'larini ekish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) O'zbekistonda sabzavotning quyidagi navlari yaratildi va rayonlashtirildi:

- bodringning (ochiq usul) quyidagi navlari rayonlashtirilgan: «Maftun». 10. UZ. 2013-y.;

• pomidorning (ochiq usul) quyidagi navlari rayonlashtirilgan: «Nurafshon F₁».14. UZ.2011-y., «Marvarid» (cherri).14. UZ. 2013-y., «Turon F₁».14. UZ. 2010-y.;

• piyozning «Oq dur F₁». 14. UZ. 2013-y., «Farovon F₁».14. UZ. 2014-y.,

• osh lavlagining «Diyor». 14. UZ. 2010-y., «Yagona». 14. UZ. 2014-y.;

• tarvuzning «Fermner».12. UZ. 2010-y., «Sharq ne'mati».14. UZ. 2012-y.;

• qovunning «Dilxush».14. UZ. 2014-y., «Kichkintoy».14. UZ.2010-y. navlari.

Tovar mahsulotlarini erkin va shartnoma, bozor iqtisodiyoti-ning qiymat, talab va taklif qonunlari talablari asosida tashkil topgan baholarda sotish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Kaloriya, kletchatka, sabzavot, saxaroza, glukoza, piyoz, bodring, pomidor, sarimsoq, iste'mol, ekin, subyektiv, obyektiv.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Sabzavotlar qanday guruhga mansub?
2. Ulaming tarkibini bayon eting.
3. Sabzavotchilikning rivojlantirish istiqbollari bormi?
4. Yangi navlar ekish qanday iqtisodiy samara beradi?

21-bob.

BOG'DORCHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

21.1. Bog'dorchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Bog'dorchilikning meva va rezavor kabi asosiy mahsulotlari tarkibida inson organizmi uchun o'ta foydali bo'lgan shakar (glukoza va saxaroza)lar, aminokislotalar, oqsillar, moylar, mineral tuzlar, vitaminlar, fermentlar, kolloidlar, oshlovchi moddalar, pepsin va boshqa xushbo'y moddalar mavjud. Ularni ilmiy asoslangan me'yorlarda (80—90 kg) yil davomida iste'mol qilish yuqori kaloriyali (go'sht, yog', non va boshq.) mahsulotlarni hazm qilish darajasini yaxshilaydi. Insonlarning salomatligini mustahkamlab, umrini uzaytiradi.

Bog'dorchilik 75—80 turdagi mahsulotlar berib, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Urug'li mevalar (olma, nok, behi, do'lana va boshq.);
2. Danakli mevalar (o'rik, shaftoli, olxo'ri, gilos va boshq.);
3. Rezavor mevalar (qulupnay, malina, qorag'at va boshq.);
4. Subtropik mevalar (anor, anjir, xurmo, chilonjiyda, tut, zaytun va boshq.);
5. Sitrus mevalar (limon, mandarin, apelsin va boshq.);
6. Yong'oq, bodom, pista va boshq.;
7. Har xil tropik mevalar (banan, ananas va boshq.).

Turli xil bog'dorchilik mahsulotlarining biokimyoviy tarkibi va inson organizmi uchun foydalilik darajasi keskin farq qiladi. Masalan, yong'oq, pistadan boshqa mevalarda oqsil va moy juda kam. Ko'pchilik to'liq pishgan mevalarda shakar va uglevodlar ham turli darajada tashkil topadi.

Turli xil mahsulotlarning inson organizmiga foydaliligida ham tafovutlar bor. Meva-rezavorlarni ho'l hoida iste'mol qilish eng yuqori samara beradi. Ammo ularni hosildan hosilgacha saqlash xarajatlarni ko'paytirib, asosiy qismi buzilib qoladi va sifat belgilari pasayadi.

Bog'dorchilik mahsulotlaridan yil davomida foydalanishni amalga oshirish maqsadida ularni qayta ishlash zaruriyati tug'iladi. Ularning muayyan qismi oziq-ovqat sanoatida qayta ishlanadi. Konserva, povidlo, jem, murabbo, marmelad, sharbat, meva suvlari va kompotlari, vino va boshqa alkogol ichimliklar hamda boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

Shakarlilik darajasi yuqori bo'lgan mevalarning salmoqli qismi quritiladi. Meva-rezavorlarni qayta ishlash ularni uzoq muddatlarda saqlash, iste'mol qilish hamda uzoq masofaga tashish xarajatlarini kamaytirishga sharoit yaratadi.

Daraxtlarning barglari chorva oziqasi va organik o'g'it, shoxlari hamda poyalari yoqilg'i, qurilish va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi. Urug'laridan moy, dorivorlar va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

Bog'dorchilik samaradorligi yana shundaki, ularning ko'pchiligida uzoq (15—20 dan 80—90) yillar davomida hosil beradi. Ildizlari baquvvat chuqur joylashgan, qurg'oqchilikka birmuncha chidamlilari tuproq unumdorligi nisbatan past, notekis yerlarda ham rivojlanadi.

Bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sermehnat va serdaromad hisoblanadi. Bog'dorchilikni intensiv rivojlantirish mehnat, yer, suv va boshqa resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshiradi va h.k.

21.2. Bog'dorchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Madaniy bog'dorchilik O'zbekistonda taxminan miloddan avvalgi V asrdan rivojlana boshlagan. Ammo obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligidan uzoq vaqtdan barqaror foydalanilmagan. Sug'oriladigan yerlarni kengaytirish davrida bog'dorchilikni rivojlantirish birmuncha tezlashtirildi.

Qayd etish lozimki, bog'zorlar hosildorligiga ko'pincha ob-havo ta'sir etadi. 2000-yilga ob-havo tarmoq uchun boshqa yillarga nisbatan qulay keldi. Natijada 1990-yilga nisbatan gektaridan hosildorlik 20,4 sentnerga yoki qariyb 56 % ga oshdi. 2000-yilda aholi jon boshiga qariyb 33 kg meva-rezavor mevalar ishlab chiqilgan. Bu 1960-yilga nisbatan 2 marta ko'pdir. 2000-yilda 8,4 % mahsulot umumittifoq fondiga sotilgan. Aholi jon boshiga 23 kg meva va rezavor meva iste'mol qilingan.

Istiqbolda bog'dorchilik mahsulotlarini ko'paytirishni, ya'ni gektaridan hosildorlikni 2—3 martaga oshirishni hamda respublika sharoitida serdaromad o'rik, nok, gilos, anjir, anor, xurmo, shotut

va boshqalarning ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunga 2014-yilga kelib erishildi desa bo'ladi. Ya'ni 2014-yilda bog'lar maydoni 2005-yilga nisbatan 40,8 % ga ko'payib, hosildorlik 1,9 martaga va yalpi hosil esa 2,6 martaga oshgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bog'dorchilik mahsulotlari 2,2 martaga ko'tarilgan (33-jadval).

33-jadval

O'zbekistonda bog'dorchilikni rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2005—2014-yillar)*

Yillar	Hosilga kirgan bog'lar maydoni, ming ga	Meva va rezavorlar yalpi hosili, ming tonna	1 gektaridan hosildorlik, s/ga	Aholi jon boshiga, kg
2005	152,4	949,3	62,3	36
2006	160,2	1182,2	73,8	44
2007	165,9	1270,0	76,6	47
2008	170,1	1402,7	82,5	51
2009	176,9	1544,5	87,2	55
2010	184,8	1710,3	92,6	59
2011	193,1	1878,8	97,3	64
2012	196,0	2052,8	104,7	68
2013	201,3	2261,1	112,3	74
2014	214,6	2490,6	116,0	80

*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) mevalarning quyi-dagi navlari rayonlashtirilgan:

- olmaning «Feruza» 7.UZ.2014-y.;
- behining «Mushk behi» 7.UZ. 2012-y.;
- olxo'rining «Kirgizskaya prevosxodnaya» 7.UZ. 2012-y.);
- shaftolining «Muyassar» 327.UZ.2013-y. va o'rikning «Bobo Rajabi» 7.UZ.2012-y., «Marokand» 7.UZ.2010-y. navlari kabi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1047-sonli Qaroriga binoan, respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-

ovqat mahsulotlari bilan bekam-ko'st to'ldirish, bog'-rog'larni jadal rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan manfaatdor xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki iste'mol bozorini ular bilan to'ldirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, unda 2009-yilda oziq-ovqat mahsulotlari eng muhim turlarini ishlab chiqarishning asosiy parametrlari, respublika viloyatlari bo'yicha 2009-yilda yangi meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, poliz ekinlari va uzum ekiladigan maydonlar hamda ularni yetishtirishning prognoz hajmlari, shuningdek, respublikada tomchilatib sug'orish tizimini tatbiq etishning prognoz parametrlari ishlab chiqilgan edi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan, meva-rezavorlarni ko'paytirish maqsadida bog' maydonlarini kengaytirish va ulardan olinadigan hosilni jadallashtirish ishlarida intensiv bog'lar barpo qilish dolzarb vazifa qilib qo'yildi va hozirgi kunda respublikaning ko'p hududlarida tekis dalalarda ham, adir hududlarda ham ana shunday bog'lar yaratildi.

Ma'lumki, bu bog'lar katta mablag'lar evaziga barpo qilinadi. Ana shu maqsadda yuqorida ta'kidlangan qarorda tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkasi bo'yicha belgilangan tartibda, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga — oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda zarur bo'lgan texnologiya uskunalari, xomashyo va materiallar sotib olish hamda tomchilatib sug'orish tizimlarini xarid qilish uchun hamda fermer xo'jaliklari, agrofimlar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga — issiqxonalar barpo qilish hamda tomchilatib sug'orish tizimini tatbiq etish uchun kreditlar berish va lizing xizmatlari ko'rsatish uchun bank kredit portfelining kamida 20 % miqdorida maxsus kredit liniyalari ochish tavsiya qilingan.

Keyingi yillarda, ushbu qarorga qo'shimchalar kiritildi va u bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda.

21.3. Bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Bog'dorchilik tovar mahsulotlarining rentabelligi keyingi yillarda bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida tashkil topdi. Bu ko'rsatkich, asosan, sotish baholarining nisbatan oshishi hisobiga

erishilgan. Ko'pchilik xo'jaliklarda yildan yilga 1 s mevaning tannarxining ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bu holat, asosan, hosildorlik va mehnat unumdorligi darajasining pastligi hamda zarar-kunanda va kasalliklarga qarshi kurash xarajatlarining ko'payishi bilan bog'liq.

Sifatli va serdaromad mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarish maqsadida quyidagi real imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

- hosildorligi hamda tovarlik xususiyatlari yuqori mevalar maydonini kengaytirish, yetarli miqdorda ko'chatlar tayyorlash, ularni, asosan, kuz oylarida ekish;

- hosildorlikni oshirish uchun agrotexnologik jarayonlarni o'z vaqtida sifatli qilib bajarish;

- har ikki-uch yilda gektariga 20—40 chirigan go'ng, har yili 120—180 kg azot, 60—90 kg fosfor, 30—45 kg kaliy mineral o'g'itlarini solish;

- hosilga kirgan bog'larni o'rtacha 4—5 marta 600—700 m³ hisobida sug'orish;

- yerosti suvi 1,5—2 m chuqur joylashgan joylarda yanvar oyida 2 marta yaxob suvini berish, qulayrog'i tomchilab sug'orishni joriy etish;

- kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashni qisqa muddatlarda o'tkazish;

- tovar mahsulotlarni bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari asosida tashkil topgan mavsumiy baholarda sotish, ularning nobud bo'lishini keskin kamaytirish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Meva va rezavorlar, o'ta foydali, xushbo'y moddalar, mineral tuzlar, urug'li, danakli, madaniy bog'dorchilik, hosildorlik, serdaromad, sermehnat, aholi jon boshiga.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalq xo'jaligida bog'dorchilik qanday ahamiyatga ega?
2. Sohani rivojlantirish bosqichlari va bu borada erishilgan yutuqlar.
3. Bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish intensiv usullari nimalardan iborat?
4. Tarmoqni rivojlantirishning huquqiy asoslari.

22-bob.

UZUMCHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

22.1. Uzumchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Uzumchilikning asosiy mahsuloti turli xil (xo'raki, kishmish va sharobbop) uzumlar tarkibida inson organizmi uchun o'ta foydali shakar (asosan, glukoza), organik kislotalar, teri oshlovchi bo'yoqlar, fermentlar, vitaminlar, mineral tuzlar va boshqa xushbo'y moddalarga boy.

Turli xil uzumlardan ilmiy asoslangan me'yorlarda (80—90 kg) yil davomida iste'mol qilish katta kaloriyali (go'sht, yog' va boshq.) mahsulotlarning hazm bo'lish darajasini yaxshilaydi, inson salomatligini mustahkamlaydi, umrini ham uzaytiradi.

Uzum mahsulotlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati xo'raki, mayizbop va sharobbop navlari bo'yicha alohida-alohida tahlil etiladi va baholanadi.

Turli xil uzum navlarining biokimyoviy tarkibi keskin farq qiladi. Masalan, shakarlilik darajasi xo'raki navlarda 20—25 % gacha, mayizboplarda 30—35 %, vinoboplarda 15—18 % gacha bo'ladi. Ular to'liq pishganda yig'ib olinsa, shakarlilik darajasi yanada oshadi.

Xo'raki uzumlarning asosiy qismini aholi yoz va kuz oylarida iste'mol qiladi, bir qismini maxsus omborxonalarda saqlab, kelasi yil hosili pishganga qadar ham foydalanadi.

Kishmishbop hamda qisman xo'raki nav uzum quritiladi, mayiz va kishmish tayyorlanadi, yil davomida aholi tomonidan iste'mol qilinadi.

Sharobbop, qisman xo'raki va kishmish navlarini oziq-ovqat sanoat tarmoqlari qayta ishlab sharoblar, shampan, vinolar, konyaklar, murabbo, shinni, sharbat, kompot, mayonez va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Qayta ishlangan uzum mahsuloti qoldiqlaridan moy ishlab chiqiladi, chorvachilik omuxta yemlariga qo'shiladi. Toklarning barglari va novdalari chorvachilikda oziqa, shoxlari va poyalari yoqilg'i sifatida ishlatiladi.

Uzumchilikning yuqori xalq xo'jaligi ahamiyatidan yana biri shundaki, ular 50—60 yilgacha hosil beradi. Ildizlari tuproqqa chuqur joylashib, qurg'oqchilikka birmuncha chidamli, tuproq unumdorligi nisbatan past, notekis yerlarda ham hosil beradi va h.k.

Demak, uzumchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sermehnat va serdaromad hisoblanadi. Tarmoqni intensiv rivojlantirish mehnat, yer, suv va boshqa resurslar salohiyatidan samarali foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

22.2. Uzumchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Madaniy uzumchilik O'zbekistonda taxminan 4—6 ming yildan beri rivojlantiriladi. Ammo, obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligidan uzoq yillar barqaror foydalanilmagan.

Sug'oriladigan yerlarni kengaytirish yillarida tokchilikni rivojlantirish darajasi tezlashtirilgan (34-jadval).

34-jadval

O'zbekistonda tokchilikning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari
(2005—2014-yillar)*

Yillar	Hosilga kirgan tokzorlar, ming ga	Yalpi uzum hosili, ming tonna	1 gektaridan hosildorlik, s/ga	Aholi jon boshiga, kg
2005	99,2	641,6	64,7	24
2006	101,2	803,6	79,4	30
2007	103,2	878,9	85,2	32
2008	102,4	792,5	77,4	29
2009	105,6	900,5	85,2	32
2010	108,7	987,3	90,8	34
2011	111,5	1090,2	97,8	37
2012	111,1	1206,0	108,6	40
2013	113,8	1322,1	116,1	43
2014	119,4	1441,2	120,7	46

*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

2000-yilda 1990-yilga nisbatan yalpi hosilning 16 % ga kamayishi gektaridan hosildorlikning 13,1 sentnerga yoki 17 % ga

pasayishi hisobiga bo'lgan. Ko'pchilik korxonalarda agrotexnik ishlarning bajarish muddatlari va sifati talab darajasida bajarilmagan. Suv resurslari tanqis xo'jaliklarda sug'orish miqdori keskin kamayib ketgan va hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2000-yilda aholi jon boshiga 26 kg uzum ishlab chiqarilgan yoki 1990-yilga nisbatan qariyb 30 % ga kamaygan. 2014-yilda bu ko'rsatkich 46 kg.ni tashkil etgan yoki 2000-yilga nisbatan 76,9 % ga oshgan. Istiqbolda uzum ishlab chiqarishni ko'paytirish hosildorlikni kamida 2 marta oshirish hamda tokzorlarni yanada kengaytirish hisobiga amalga oshirilishi kerak.

O'zbekistonda keyingi yillarda uzumchilikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3709-sonli Farmoniga ko'ra, meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari) O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni talablariga qat'iy muvofiq ravishda, mavjud ixtisoslashuvni saqlagan holda fermer xo'jaliklari etib qayta tashkil qilinishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil qilishda, o'z mehnati natijalari, yetishtirilgan mahsulot va daromadlarini tasarruf etishda fermerlarning huquqlari va mustaqilligining kengaytirilishi, shuningdek, shartnoma majburiyatlarini bajarish va yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun ularning huquqiy javobgarligi oshirilishi, fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning tez moslashuvchan zamonaviy kichik texnologiyalaridan foydalanadigan, shu jumladan, xorijiy investorlar ishtirokidagi agrosanoat firmalarini ixtiyoriylik asosida shakllantirish, mavjud qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish, meva-sabzavot mahsulotlari eksportini kengaytirish, shu hududda zarur ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi — muqobil mashina-traktor saroylari, suv iste'molchilari uyushmalari, yonilg'i-moylash materiallari va mineral o'g'itlar sotish shoxobchalari, mini-banklar, turli idishlar ishlab chiqarish va sotish shoxobchalari barpo etish, fermer xo'jaliklarining o'z faoliyatini xo'jalik hisobi va o'zini o'zi mablag' bilan to'la qoplash tamoyillari asosida amalga oshirishi, xodimlar, jumladan, xo'jalik egasining oila a'zolari, shuningdek, vaqtincha (mavsumiy) yollanadigan fuqarolar o'rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat shartnomalari (kontraktlari) tuzish yo'li bilan

tartibga solinishi, meva-sabzavotchilik va uzumchilik fermer xo'jaliklarining qayta ishlash korxonalari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar bilan o'zaro munosabatlari, mahalliy boshqaruv organlari aralashmagan holda tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar, shu jumladan fyuchers shartnomalari asosida amalga oshirilishi va boshqa bir qancha shart-sharoitlar belgilab berildi va o'tgan yillar davomida qaror talablari bosqichma-bosqich bajarildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-martdagi «Bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 51-qaroriga ko'ra, Nizom tasdiqlandi va unda shirkatlar faoliyatining maqsadi va predmeti, shirkatning huquq va majburiyatlari, shirkatga a'zolik, shirkat a'zolarining huquq va majburiyatlari, shirkatning mol-mulki va mablag'lari, shirkatning boshqaruv organlari va shirkatni qayta tashkil etish va tugatish masalalari atroflicha bayon qilingan.

22.3. Uzumchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ko'pchilik ixtisoslashgan xo'jaliklarda sotilgan uzumning rentabellik darajasi 2010-yilda bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida tashkil topgan. Bu ko'rsatkich, asosan, ko'tara va chakana baholarning nisbatan oshishi hisobiga erishilgan. Hosildorligi past korxonalarda 1 s uzumning tannarxi yildan yilga ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bunday holat, asosan, tarmoqda mehnat unumdorligining pastligi, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash xarajatlarining ko'payishi bilan bog'liq va h.k.

Sifatliroq va serdaromad xo'raki, kishmish va sharobbop uzum navlarini ko'proq ishlab chiqarish maqsadida quyidagi real imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

1. Yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli xo'raki navlardan: «Daroyi», «Oq halili», «Oq husayni», «Go'zal qora», «Nimrang», «Pushti toyifi»; mayizbop navlardan «Qora kishmish», «Zarafshon kishmish», «Oq kishmish»; vinobop navlardan «Rkasiteli», «Bayan Shirey», «Kuljinskiy», «Muskat» «VIR» va boshqalarni rivojlantirish.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) O'zbekistonda uzumning quyidagi navlari yaratildi va rayonlashtirilgan:

• «Nilufar» 328.UZ.2013-y., «Oltinday» 7.UZ.2013-y., «Ran-niy Shredera» 7 UZ. 2010-y., «Rangdor» 7 UZ. 2012-y., «Xuseyni muskatniy» 23. UZ. 2014-y.;

• qulupnayning «O‘zbekiston go‘zali» 7. UZ. 2014-y., «Oltin-simon qorag‘at iroda» 7. UZ. 2012-y., «Ruxshona» 7. UZ. 2014-y. kabi navlari.

2. Serhosil va kasallanmagan navlardan kuzda qalamchalar tayyorlash va intensiv rivojlantirishni tashkil etish.

3. Toklarni simbag‘azlarda va voish shakllarida o‘stirish.

4. Hosillilik darajasini hisobga olib 4—6 marta, shag‘alli yerlarda 8—10 marta, sizot suvlari yuza yerlarda 2—3 marta sug‘orishni belgilangan muddatlarda sug‘orish, samarali tomchilab sug‘orish usulidan foydalanish.

5. Tez o‘sovchi va ko‘p bargli toklarni xomtok qilish.

6. Hosil beruvchi novdalarni sovuqqa oldirmaslik uchun o‘z vaqtida ko‘mish va ochishni tashkil etish.

7. Gibberellindan foydalanish.

8. Tokzorlarda ko‘p uchraydigan oidium va antraknoz kasalliklariga qarshi, asosan, oltingugurtli preparatlardan keng foydalanish.

9. Chirigan go‘ng va belgilangan me‘yorlarda va muddatlarda mineral o‘g‘itlardan foydalanish.

10. Mahsulotlarni erkin va shartnomali mavsumiy baholarda o‘tish, ularning nobud bo‘lishini keskin kamaytirish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Xo‘raki, kishmish, o‘ta foydali, fermentlar, vitaminlar, bo‘yoqlar, to‘liq oshichan, tarkibi, barqaror, intensiv, resurs, tanqis, agrotexnik.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Uzumchilikning ahamiyatini so‘zlab bering.
2. Sohaning rivojlanish bosqichlari.
3. Qanday iqtisodiy samaradorlikka erishsa bo‘ladi?
4. Qanday istiqbolli navlar yaratildi?

23-bob.

OZIQABOP EKINLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

23.1. Chorvachilik oziqa resurslarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Barcha turdagi chorvachilik tarmoqlarini intensiv va ekstensiv yo'llar bilan rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, dastavval oziqa resurslarining miqdori, sifati va tarkibiga bevosita bog'liq.

Chorvador va boshqa biolog olimlar, mutaxassislar turli xil xonakilashtirilgan hayvonlarning fiziologik, genetik va boshqa xususiyatlarini hisobga olib ularni oziqlantirish me'yorlari, kunlik ratsionlari, oziqalarga bo'lgan talablarini ishlab chiqishgan. Ulardan foydalanish hayvonlarning mahsuldorlik salohiyatidan, ularga sarflanayotgan kapital qo'yilmalar va joriy xarajatlarning samaradorligini oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Chorva mollarining oziqa resurslariga talabi ularning mavjudligini hisobga olib quyidagi guruhlarga bo'lib rejalashtiriladi:

1. Oziqabop ekinlar mahsulotlari bo'yicha: ular, o'z navbatida, quyidagi turlarga bo'linadi:

a) ko'k o'tlar (yaylov, pichanzor, madaniy oziqabop ekinlar va boshq.);

b) dag'al oziqalar (pichan, somon, poxol, poya va boshq.);

d) shirali oziqalar (silos, senaj, lavlagi, qovoq va boshq.);

e) to'yimli oziqalar (don, kepak, kunjara, o't uni, omuxta yem va boshq.);

f) o'simliklarni qayta ishlovchi sanoat qoldiqlari (jom, barda va boshq.);

g) aholi iste'mol qiladigan mahsulotlar chiqindisi (sabzavot, poliz, kartoshka po'choqlari va boshq.).

2. Chorvachilik mahsulotlari oziqalari: ular, o'z navbatida, quyidagi turlarga bo'linadi:

a) sut va sutni qayta ishlash qoldiqlari (obrat, paxta, sivorotka va boshq.);

b) qon, go'sht va suyak uni;

d) baliq uni, yog'i va boshq.

3. Sanoat ishlab chiqaradigan mineral oziqalar. Ular, o'z navbatida, quyidagi turlarga bo'linadi:

a) makrounsurlar (kaliy, fosfor, kalsiy, oltingugurt, xlor va boshq.);

b) mikrounsurlar (temir, mis, yod, brom va boshqalar).

O'zbekiston chorvachiligida foydalaniladigan oziqa resurslarining taxminan 90 % maxsus ekinlardan, yaylov va pichanzorlardan, sanoat tarmoqlarida qayta ishlangan mahsulotlar va boshqalardan olinadi. Masalan, yem ishlab chiqarish uchun arpa, makkajo'xori, suli, soya, javdar va boshqalar ekiladi, shirali oziqalar uchun — lavlagi, qovoq, makkajo'xori va boshqalar, ko'k va dag'al oziqalar uchun bir yillik, ko'p yillik o'tlar va boshqalar ekiladi. Ular oziq-ovqatga mo'ljallangan donlardan, yaylovlardan, pichanzorlardan olinadi va h.k.

Barcha turdagi oziqalardan belgilangan me'yorda foydalanish ularning samaradorligini oshiradi. Shu maqsadda omuxta yem ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni qayd etish lozimki, oziqalar ratsionlaridagi 15—20 va undan ortiq organik va mineral moddalarning 40—70 %, masalan, qoramollar organizmida hazm bo'lmaydi. Oziqalarning o'rtacha 5 % mollarning o'zlarini saqlashga sarflanadi hamda qoldiqlari (go'ng, siydik)ga aylanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, oziqalarning hazm bo'lish, binobarin, mahsulotga aylanish darajasini ko'tarish uchun hayvonlarni ilmiy asoslangan me'yorda muntazam oziqlantirishni amalga oshirish zarur. Sarflanadigan oziqalarning tarkibida xom protein, lizin, shakar va boshqa moddalarning belgilangan miqdorda bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Masalan, ko'pchilik hayvonlar ratsionidagi oziqalarning tarkibida 105 gramm hazm bo'luvchi protein bo'lishi tavsiya etiladi. Masalan, agar u 90 gramm bo'lsa, mahsulot birligiga sarflanadigan oziqalar miqdori 25—28 % ga ko'payadi, natijada go'sht, sut, tuxum va boshqa mahsulotlar tannarxining ko'tarilishiga olib keladi.

Oziqalarni me'yordan ko'p sarflash ham chorvachilikka salbiy ta'sir qiladi. Ular organizmning bo'shashishiga, qarilik belgilarini tezlashtirishga olib keladi. Demak, chorvachilik tarmoqlarida barcha turdagi oziqa resurslaridan samarali foydalanish dolzarb muammolardan biridir.

23.2. Oziqa resurslarini ko'paytirish, uning hozirgi holati va istiqboli

Chorvachilik uchun o'simlikchilik oziqa resurslari miqdorini ko'paytirish, sifatini yaxshilash va tarkibini takomillashtirish, asosan, maxsus ekinlar maydonini kengaytirish va ularning hosildorligini oshirish, tabiiy yaylov va pichanzorlardan oqilona foydalanish hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekistonda uzoq yillar davomida o'simlikchilik oziqa resurslari tabiiy yaylov va pichanzorlardan, oziq-ovqatga mo'ljallangan g'alla ekinlari qo'shimcha mahsulotlaridan tashkil topgan. Maxsus oziqabop ekinlar juda kam maydonlarga ekilgan. Ularning hammasi ko'p yillik bedalar bo'lgan. Boshqa maxsus oziqa ekinlari mutlaqo ekilmagan. Barcha g'alla ekinlarining, shu jumladan, oziqabop arpa hamda makka doni ham, asosan, aholi tomonidan oziq-ovqat sifatida foydalanilgan.

2000-yili 1990-yilga nisbatan jami oziqabop ekinlar 610,7 ming ga yoki qariyb 58,7 % ga qisqartirildi. Bu kabi kamchiliklar 2004-yilga kelib nisbatan ijobiy siljishga olib keldi. 2000-yilda 1990-yilga nisbatan pichan uchun o'rilgan ko'p yillik bedaning hosildorligi 18,7 s/ga yoki 40,4 % ga, silos va ko'k oziqa uchun ekilgan makkajo'xori hosildorligi 61 s/ga yoki 32,3 % ga, ildizmeva va poliz ekinlari hosildorligi esa 90 s/ga yoki 29 % ga pasaygan.

Demak, maxsus oziqa ekinlari maydoni qisqartirilgan va ularning gektaridan olinadigan hosildorlikning pasayishi natijasida o'simlik, chorva oziqalari yalpi hosili keskin kamaygan. O'simlik oziqa resurslari qisman g'allachilikdan olingan somon, paxta chigitini qayta ishlashdan olingan kunjara, sheluxa va boshqa oziqalar bilan to'ldirilgan.

Ammo shartli mol boshiga saralangan oziqa birligi 2000-yilda 1990-yilga nisbatan 8,3 s yoki 30 % ga kamaygan. Bu o'rtacha ko'rsatkich me'yorga nisbatan ikki marta kamdir. Natijada ko'pchilik turdagi hayvonlarning mahsuldorligi ham pasaygan. Bu holat barcha turdagi, ayniqsa, shirkat va boshqa dehqon xo'jaliklariga taalluqlidir.

Demak, o'simlikchilik oziqa resurslari, asosan, yaylov va pichanzorlar hamda g'allachilik va boshqa madaniy ekinlarning qo'shimcha mahsulotlaridan tashkil topgan. Natijada ko'pchilik chorva hayvonlari yarim och oziqlantirilgan. Shartli mol boshiga 13 s oziqa birligi yoki uning talabiga nisbatan taxminan 50 % oziqa resurslari sarflangan, xolos.

Mustaqillik yillarida o'simlikchilik oziqalarining madaniy ekinlarini ekish maydonlarining kengayishi hisobiga tashkil topish holati 35-jadval ma'lumotlari asosida umumiy shaklda aniqlanishi mumkin.

35-jadval

O'zbekistonda maxsus oziqa ekinlari maydonining o'zgarish dinamikasi, ming gektar*

Yillar	Ekin turlari		
	Arpa va suli	Makkajo'xori	Maxsus oziqa ekinlari, jami
2005	72,3	33,6	290,3
2006	56,0	32,8	296,4
2007	49,2	34,2	290,0
2008	99,3	32,3	278,5
2009	162,9	30,1	302,5
2010	93,6	28,3	320,4
2011	107,5	26,5	313,1
2012	85,3	53,9	313,9
2013	90,8	34,1	315,7
2014	92,2	35,6	325,7

*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Tahlil etilayotgan (2005—2014-yillar) arpa va suli ekin maydonlari 19,9 ming gektarga yoki 27,5 % ga, makkajo'xori 2 ming gektarga yoki 5,9 % ga, maxsus oziqa ekin maydonlari esa 35,4 ming gektarga yoki 12,2 % ga kamaygan. Lekin ulardan yig'ib-terib olingan oziqa shu davr mobaynida oshib borayotgan hayvonlar uchun tuzilgan ratsion asosida, ularni oziqlantirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) O'zbekistonda oziqa ekinlarining «Topinambur-Mo'jiza» 6.UZ.2012-y. navi yaratilgan va rayonlashtirilgan.

23.3. Oziqa bazasi tushunchasi va oziqa ekinlarining iqtisodiy bahosi

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tezkorlik bilan o'stirishning muhim sharti mutahkam oziqa bazasining mavjudligidir. Oziqa bazasi deganda, chorvachilik u yoki bu tarmog'ini

rivojlantirish uchun zarur bo'lgan, yem-xashak hajmi va tarkibi tushuniladi. Oziqaning hajmi va tarkibi, shuningdek, uni ishlab chiqarish, saqlash va foydalanish yem-xashak ishlab chiqarish tizimini tashkil qiladi.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxida yem-xashak: 30—35 % gacha qo'ychilikda, 60—65 % cho'chqachilik va parrandachilikda tashkil etadi. Chorvachilik yem-xashak (oziqa) bazasini mustahkamlashning muhim sharti ekinzorlarda yem-xashak ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ishlab chiqarishni to'xtovsiz intensivlashtirish asosida yem-xashak ekinlari gektaridan maksimal hosil olish;

2. Barcha ishlatilgan yem-xashaklarni o'z vaqtida va sifatli tayyorlash hamda ularni to'g'ri saqlashni tashkil qilish;

3. Dehqonchilikning nostandart va qo'shimcha mahsulotlarini to'liq yig'ib-terib olish, ulardan maksimal darajada chorvachilik ehtiyojlari uchun foydalanish imkoniyati;

4. Tarmoqqa birlashtirilgan barcha ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish.

Turli oziqa ekinlari va yemlarning, ulardagi oziqa unsurlari mazmunining bir xil emasligi, shuningdek, ularni ishlab chiqarishdagi mehnat va material xarajatlar miqdorining turli-tumanligi, ularni solishtirma kompleks baholashda bir qator ko'rsatkichlardan foydalanishni taqozo qiladi:

1. Oziqa ekinlari hosildorligi;

2. 1 ga oziqa ekiniga to'g'ri kelgan oziqa birligi va o'zlashtiriladigan protein miqdori;

3. 1 s yemning naturada, yem-xashak va shartli oziqa protein birligi;

4. 1 kishi/soatiga va bir so'mlik ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ri kelgan yem-xashak va shartli yem protein birligi;

5. 1 ga oziqa ekinlari maydoniga to'g'ri kelgan yalpi mahsulot va sof daromad (foйда) miqdori.

Quyidagi formulada shartli oziqa birligi hisoblanadi:

$$SHOB = \frac{OBM + (PM \cdot 10)}{2},$$

bu yerda, $SHOB$ — 1 ga yerga to'g'ri kelgan shartli oziqa protein birligi yoki ularda bo'lgan 1 s oziqa; OBM — 1 ga yerdan olingan oziqa birligi miqdori yoki 1 s yem; PM — 1 ga yerdan olingan protein miqdori yoki 1 s yem; 10 va 2 — hisoblash koeffitsiyentlari.

Oziqa birligi va proteinning 1 kg suli hisobida nisbati.

$$1 \text{ ob} = 1 \text{ kg suli.}$$

Yem-xashak ekinlari va yemlarni baholashda etalon sifatida qabul qilingan. 1 sentner oziqa birligi tannarxini topish uchun yemlar tannarxini ulardagi shu oziqa birligi miqdoriga bo'lish kerak. Yem-xashak ekinlarining iqtisodiy samaradorligi bundan tashqari koeffitsiyentlar yig'indisi bilan aniqlanadi. Buning uchun yillik hisobotdan bir qator yillardagi yem-xashak ekinlarining o'rtacha hosildorligi olinadi. Keyin bu hosildorlik yem-xashak jadvali yordamida o'zlashtiriladigan proteinni hisobga olgan holda oziqa birligiga aylantiriladi va shu bo'yicha 1 ga.dan, 1 k/s.ga va 1 so'mlik ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ri keladigan shartli yem proteini birligi aniqlanadi.

Demak, koeffitsiyent qancha yuqori bo'lsa, yem-xashak ekinlarining samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Turli xil yem-xashaklardan foydalanish samaradorligi sarf qilingan yem-xashakning texnik va iqtisodiy to'lovlari ko'rsatkichlarida izohlanadi.

Oziqaning texnik qaytimi darajasi (*TQD*), sarf qilingan oziqa birligiga natura shaklida to'g'ri kelgan chorvachilik mahsulotini ifodalaydi:

$$TQD = \frac{YMQ}{OB}.$$

Oziqaning iqtisodiy qaytarish darajasi esa yem-xashak qiymati birligiga to'g'ri kelgan chorvachilik yalpi mahsulotining qiymatini ifodalaydi:

$$IQD = \frac{YMQ}{OB}.$$

Yem-xashak ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning o'rtasidagi aloqalarni omilli tahlil yordamida o'rnatish mumkin. Shu maqsadda bir qancha guruh omillar ajratiladi:

1. *Tabiiy-biologik*. Iqlim, tuproq, relyef, suv rejimi, yem-xashak ekinlarining turlari va navlari;
2. *Texnik*. Mashinalar, asbob-uskunalar, kimyoviy konservantlar va boshqa ishlab chiqarish vositalari, mashinalar sifati;
3. *Texnologik*. Dalachilik yem-xashak ishlab chiqarishda (ekish, parvarishlash, yig'ib-terib olish va boshq.) agrotexnik tadbirlar

tizimi almashlab ekish, urug'chilik, melioratsiya, o'g'itlash; o'tzor va yaylov xo'jaligida agrotexnik tadbirlar tizimi (pichanzorlarning yuza qismini tubdan yaxshilash, yaylov almashlab ekish, hududni tashkillashtirish va boshq.);

4. *Tashkiliy*. Mehnatni tashkil qilish, me'yorlash va unga haq to'lash, kadrlar malakasini oshirish, boshqarish, mehnat intizomi;

5. *Iqtisodiy*. Mulk shakllari, mehnatni rag'batlantirish, ixtisoslashtirish, mahsulot sifati, baholar, moliyalashtirish;

6. *Ijtimoiy*. Demografik holat, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish va boshqalar;

7. *Ekologik*. Atrof-muhitning holati; tuproq, suv, havoni ifloslantirishga qarshi kurash bo'yicha tadbirlar tizimi.

23.4. Oziqa resurslarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ko'pchilik chorvachilik tarmoqlarida oziqa resurslaridan foydalanish kompleksi ko'rsatkichlari ularning mahsuldorlik salohiyatiga hamda bozor qonunlari talablariga javob bermaydi. Chunki, odatda, chorva hayvonlarining oziqa birligiga bo'lgan o'rtacha talabi me'yorlar bo'yicha ta'minlanmaydi, zotdor hayvonlarning mahsuldorlik salohiyatidan foydalanish koeffitsiyentlari past, haqiqiy sarflangan oziqa birligiga 2—3 marta kam sut, go'sht va boshqa mahsulotlar olinadi va ularning tannarxi yemxashak va boshqa xarajatlari hisobiga ko'tariladi va h.k.

Chorvachilikda oziqa resurslaridan foydalanish iqtisodiy samaradorligini barqaror ta'minlash uchun quyidagi omillar va real imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

- barcha turdagi zotdor chorva hayvonlarini ilmiy asoslangan ratsion asosida muntazam oziqlantirishni amalga oshirish, binobarin, ularning mahsuldorlik salohiyatidan foydalanish koeffitsiyentini o'rtacha 2 marta ko'tarish;

- oziqa resurslari sifati hamda tarkibini takomillashtirish, ularning tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish;

- katta hajmli va qisqa muddatlarda sifat belgilarini pasaytiruvchi oziqalarni chorva mollariga yaqin joylarda ishlab chiqarish va saqlash, ularni tashish va taqsimlash xarajatlarini kamaytirish uchun sharoit yaratish;

- oziqa resurslarini ko'paytirish, ularning sifatini yaxshilash maqsadida soya, makkajo'xori, ko'p yillik va bir yillik o'tlar maydonlarini kengaytirish va ularning hosildorligini oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga erishish;

- sug'oriladigan oziqa ekinlari hosildorligini oshirish, avvalo, belgilangan miqdorda mineral va organik o'g'itlardan foydalanishni talab etadi;

- ferma oldi almashlab ekish tizimini qat'iy joriy qilish;

- xo'jalik tomonidan oxirgi yillarda foydalanilgan tabiiy yaylov hamda pichanzorlarning hosildorligini 40—50 % ga ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim. Bu maqsadga erishish uchun maydonlardan foydalanishda yaylov almashinuvini tashkil etish, qo'shimcha yaylov va pichanzorlar o'simliklari urug'larini ekish, tabiiy namni saqlash usullaridan foydalanish zarur. Tabiiy yaylov va pichanzorlar hosildorligini oshirish arzon oziqalardan foydalanishga sharoit yaratadi;

- xlorela va boshqa suv o'tlaridan, ularning suspenziyasidan foydalanishni tashkil etish;

- barcha turdagi oziqalar sifatini saqlash hamda nobud bo'lishini kamaytirish uchun ularni saqlash va qayta ishlashda ilg'or usullardan keng foydalanish;

- omuxta-yem ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligini yanada oshirish;

- oziqalarni ishlab chiqarish, saqlash va taqsimlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishni kuchaytirish, binobarin, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, ularga kafolatlangan haq to'lashni amalga oshirish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Oziqa resurslari, imkoniyat, miqdori, sifati, tarkibi, me'yorlar, ratsion, joriy xarajatlar, guruhlar, to'yimli, shirali, ko'k o'tlar, yaylov, pichanzor, oziqabop.

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Chorvachilikda oziqabop ekinlar samaradorligi nimaga bog'liq?
2. Chorva mollarning guruhiga bo'lgan talabi asosida resurslar qanday guruhlanadi?
3. Oziqa ekinlarining ahamiyati, rivojlanish darajasi va iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini bayon eting.

24-bob.

CHORVACHILIK TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING UMUMIY MASALALARI

24.1. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Chorva hayvorlari barcha turdagi mahsulotlarni insonlar iste'moli uchun qariyb tayyor va sanoat uchun natural xomashyo sifatida ishlab chiqaradi. Natijada, asosan, o'simlik va boshqa oziqa resurslari nobud bo'lmasligiga bevosita sharoit yaratadi, iqtisodiyot tarmoqlari, shu jumladan, qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Chorvachilikdan aholi iste'moli uchun go'sht, sut, yog', tuxum va boshqa mahsulotlar olinadi. Ilmiy asoslangan me'yor bo'yicha jon boshiga iste'mol qilinadigan barcha mahsulotlar oqsilning 60 %, ularning kaloriyaga aylantirilgani esa 30 % ni tashkil etishi zarur.

Oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari xomashyo bazasining salmoqli qismi ham chorvachilik mahsulotlari hisobiga tashkil topadi. Ularni qayta ishlashdan jun va ipakli gazlamalar, chirm, turli xil oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Aholi tomonidan iste'mol qilinadi.

Chorvachilikning qo'shimcha mahsulotlari (go'ng va boshq.) o'simlikchilik tarmoqlarida organik o'g'it shaklida va boshqa mahsulotlar uchun ishlatiladi, yerning unumdorligini, binobarin, ekinlar hosildorligini oshiradi. Demak, o'simlikchilik va chorvachilik tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularni qo'shib olib borish barcha ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ma'lum darajada barqarorlashtiradi.

Chorva mahsulotlarini qayta ishlashdan hosil bo'ladigan qo'shimcha va qoldiqlar ham oziqa sifatida ishlatiladi.

Ta'kidlash lozimki, chorva mahsulotlari oqsili o'simlik mahsulotlari oqsiliga nisbatan juda qimmat turadi. Chunki, 1 kg sut oqsiliga 3—5 kg oziqa birligi, mos ravishda tuxum oqsiliga 4—6, mol go'shti oqsiliga esa 15—20 kg oziqa birligi sarflanadi.

Chorva oqsillarining qimmatligi va uni ishlab chiqarish hajmining kamligi tufayli jahon xalqlarining taxminan 50 % i ilmiy moslangan me'yorga nisbatan kam chorva oqsili iste'mol qiladilar.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yashovchi taxminan 20 % jahon aholi 1 kunda 100 g.dan ko'proq, iqtisodiyoti kuchsiz mamlakatlarning xalqlari esa 10—25 g chorva oqsili iste'mol qilishadi.

Chorva mahsulotlari iste'mol qilish darajasi faqat aholining turmush darajasi bilan emas, balki urf-odatlar bilan ham bog'liq. Masalan, Hindiston aholisining ko'pchiligi go'sht mahsulotlarini umuman iste'mol qilmaydi.

O'zbekistonda yashovchi aholi turmush darajasining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab oshadi, ularni ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishga sharoit yaratadi.

Ayrim chorvachilik tarmoqlarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni hisoblash, tahlil etish va baholashda ham tafovutlar mavjud. Binobarin, har bir tarmoqning samaradorligi ishlab chiqarish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Chorva hayvonlari iqtisodiyoti quyidagi guruhlari va turlari bo'yicha o'rganiladi:

1. Qoramolchilik — go'sht va sut yo'nalishi bo'yicha;
2. Qo'ychilik — go'sht, jun, teri yo'nalishi bo'yicha;
3. Echkichilik — jun va tivit, sut yo'nalishi bo'yicha;
4. Cho'chqachilik — bekon, yarim yog', yog'lik go'sht yo'nalishi bo'yicha;
5. Parrandachilik — tuxum va go'sht broyler yo'nalishi bo'yicha;
6. Yilqichilik — go'sht va sut, ish hayvonlari hamda sport yo'nalishi bo'yicha;
7. Tuyachilik — go'sht, jun va sut yo'nalishi bo'yicha;
8. Pillachilik bo'yicha;
9. Asalarichilik bo'yicha;
10. Quyunchilik bo'yicha;
11. Hovuz baliqchiligi bo'yicha;
12. Mo'ynachilik bo'yicha va boshqalar.

Har bir chorva hayvonining jami bosh soni va tarkibi, mahsuldorligi, zotlari, oziqlantirilishi, saqlanishi, mahsulotlari tan-narxi, sotish baholari, rentabelligi va boshqa ko'rsatkichlari o'rganiladi, tahlil etiladi va baholanadi.

Bundan tashqari, ayrim hayvonlarni shartli molga (aniqrog'i sigirga) aylantirilib, ayrim ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham o'rganiladi va h.k.

24.2. Chorvachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

2000-yilda 1990-yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish qariyb 14 % ga, tuxum 51,5 % ga, jun 2 marta, qorako'l teri 2,3 marta, pilla 45 % ga kamaygan.

O'zbekistonda ko'p yo'nalishdagi chorvachilik tarmoqlari rivojlantiriladi. Ularning asosiy mahsulotlari ayrim davrlarda quyidagi miqdorda ishlab chiqarilgan (36-jadval):

36-jadval

O'zbekistonda asosiy chorva mahsulotlari ishlab chiqarish tahlili (2011–2014-yillar)*

T/r	Mahsulot turlari	Yillar				Aholi jon boshiga, kg			
		2011	2012	2013	2014	2011	2012	2013	2014
Barcha toifadagi xo'jaliklar									
1.	Barcha turdagi yalpi go'sht (tirik vaznda), ming tonna	1564,2	1672,9	1787,8	1906,3	52,9	55,8	58,6	61,4
2.	Sut, ming tonna	6766,2	7310,9	7885,5	8431,6	228,9	243,7	258,6	271,8
3.	Tuxum, mln dona	3441,7	3873,7	4388,1	4950,0	116,4	129,1	143,9	159,6
4.	Jun, ming tonna	28,7	31,1	32,4	34,4	1,0	1,0	1,1	1,1
5.	Pilla, ming tonna	24,7	25,0	25,4	26,1	0,8	0,8	0,8	0,8
6.	Qorako'l teri, ming dona	1022,3	1116,9	1062,1	1061,3	34,6	37,2	34,8	34,2

*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

2014-yilda 2011-yilga nisbatan aholi jon boshiga ishlab chiqarish — go'sht 16,1 % ga, sut 18,7 % ga, tuxum 37,1 % ga va jun 10 % ga oshgan.

Demak, asosiy chorva yalpi mahsulotlarining o'sishida barqarorlik ta'minlangan bo'lib, pilla va qorako'l da deyarli o'zgarish bo'lmagan. Bunday holatni chorva mollari soni va ularning mahsuldorligidagi o'zgarishlarni umumiy tahlil qilish yo'li bilan ham aniqlash mumkin.

2000-yilda 1990-yilga nisbatan qoramollar soni 27,6 % ga, qo'y va echkilar qariyb 1,7 % ga, otlar 50 % ga ko'paygan, cho'chqalar soni esa 8,8 marta, parrandalar 2,6 marta kamaygan. Asosiy mahsuldor hayvonlarni sharti qoramolga aylantirilgan soni qariyb 8 % ga ko'paygan.

Chorva mollari ayrim turlarining ma'lum darajada kamayishi yoki ularning o'sish sur'atining nisbatan pastligi, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'moldagi ayrim tarkibiy o'zgarishlar bo'lsa, bu kamchiliklar 2004-yilga kelib birmuncha muvofiqlashtirishga erishildi.

Ayrim turlar — cho'chqachilik, parrandachilikdagi bu no-mutanosiblikni barham berishda ma'lum darajadagi natijaga erishildi.

Keyingi davrda chorva mollari bosh sonining, jumladan, qoramollar bosh sonining oshib borishi, hukumatimiz tomonidan bu sohaga yuksak e'tibor qaratilayotganligining yorqin natijasidir.

Chorva mollarining mahsuldorlik ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar mavjud. Masalan, 1990-yilda oldingi 10 yillikka har bir bosh sigirdan sog'ilgan sut 3,9 marta, tovuqdan olingan tuxum 3 marta, qo'ydan qirqilgan jun qariyb 3 marta, so'yilgan hayvonlarning vazni ham sezilarli darajada oshgan.

2000-yilda 1990-yilga nisbatan ayrim hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari biroz pasaygan. Masalan, har bir bosh sigirdan sog'ilgan sut 14 % ga, har bir tovuqdan olingan tuxum 7 % ga, so'yilgan qoramollarning vazni qariyb 9 % ga kamaygan. Mahsuldorlik ko'rsatkichlarining pasayishi dastavval hayvonlarni oziqlantirish darajasining pastligi va boshqa real imkoniyatlardan foydalanish holati bilan bog'liq.

2012-yilda 2004-yilga nisbatan qoramollar soni qariyb 1,8 martaga, qo'y va echkilar 1,6, parrandalar 2,7 martaga va otlar soni 33,6 % ga oshgani holda cho'chqalar soni esa 26,3 % ga kamaygan.

2014-yilda esa 2005-yilga nisbatan qoramollar soni 67,3 % ga, shu jumladan, sigirlar soni 44,8 % ga, qo'y va echkilar 62,4 % ga, cho'chqalar deyarli o'z garmagani holda parrandalar 2,7 martaga va otlar soni 35 % ga oshgan. Shu davrda fermer xo'jaliklari, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, shuningdek, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ham xuddi shunday o'sish tendensiyasi mavjud. Hozirgacha chorvachilik hayvonlari bosh sonida ham, chorvachilik mahsulotlari

O'zbekistonda asosiy chorva mollarining davrlar bo'yicha dinamikasi (1-yanvar holatiga, ming bosh)*

T/r	Chorva turlari	Yillar									
		2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Barcha toifadagi xo'jaliklari											
1.	Yirik shoxli qoramollar	6571,4	7044,6	7457,9	8026,3	8510,7	9094,7	9642,7	10141,3	10607,3	10995,2
	shu jumladan, sigirlar	2821,3	2982,5	3124,9	3327,1	3535,7	3758,1	3878,4	3935,0	4020,6	4084,3
2.	Qo'y va echkilar	11351,9	12016,2	12635,6	13523,3	14432,6	15340,9	16189,0	17128,8	17717,6	18438,9
3.	Cho'chqalar	86,9	93,1	96,2	97,8	96,5	100,0	96,8	95,2	92,7	87,8
4.	Parranda	20540,4	24188,4	26118,9	29505,4	33053,0	37733,3	42818,4	47485,8	52363,2	56276,3
5.	Ot	158,1	162,4	168,3	175,8	180,6	187,3	195,2	202,2	208,8	213,4
Fermar xo'jaliklari											
1.	Yirik shoxli qoramollar	332,3	375,6	421,1	480,8	496,7	501,7	507,2	524,9	539,8	545,2
	shu jumladan, sigirlar	105,4	121,3	137,4	162,4	168,6	171,2	174,1	183,1	186,3	187,2
2.	Qo'y va echkilar	501,1	649,4	872,3	1007,3	1097,7	1149,9	1203,1	1267,3	1310,0	1336,6
3.	Cho'chqalar	13,0	15,0	15,9	13,5	10,0	10,2	8,2	8,2	7,6	8,2
4.	Parranda	756,4	875,8	1333,3	2565,9	3475,3	3958,3	4974,2	5739,6	6434,3	6670,8
5.	Ot	12,3	13,8	16,3	17,2	17,7	18,3	18,9	19,6	20,7	20,7

Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari											
1.	Yirik shoxli qoramollar	6061,3	6538,6	6944,6	7449,2	7919,8	8497,1	9033,8	9509,4	9957,4	10328,1
	shu jumladan, sigirlar	2656,2	2818,2	2959,5	3136,5	3338,3	3557,4	3672,1	3718,6	3799,6	3861,9
2.	Qo'y va echkilar	8417,7	9053,0	9603,9	10433,6	11268,9	12146,7	13035,7	14166,0	14771,6	15459,9
3.	Cho'chqalar	55,4	62,5	67,9	72,8	73,2	76,6	76,9	76,9	75,1	69,2
4.	Parranda	14578,8	16609,2	17886,2	19406,5	21236,6	22561,0	25771,3	30427,7	33204,9	35623,0
5.	Ot	125,8	132,3	138,3	144,8	149,4	156,3	163,9	170,5	176,0	180,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar											
1.	Yirik shoxli qoramollar	177,8	130,4	92,2	96,3	94,2	95,9	101,7	107,0	110,1	121,9
	shu jumladan, sigirlar	59,7	43,0	28,0	28,2	28,8	29,5	32,2	33,3	34,7	35,2
2.	Qo'y va echkilar	2433,1	2313,8	2159,4	2082,4	2066,0	2044,3	1950,2	1695,5	1636,0	1642,4
3.	Cho'chqalar	18,5	15,6	12,4	11,5	13,3	13,2	11,6	10,0	10,0	10,4
4.	Parranda	5205,2	6703,4	6899,4	7533,0	8341,1	11213,7	12072,9	11318,5	12724,0	13982,5
5.	Ot	20,0	16,3	13,7	13,8	13,5	12,7	12,4	12,1	12,1	12,3

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

ishlab chiqarishda ham dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari yetakchilik qilishmoqda.

2005—2014-yillarga kelib go'sht ishlab chiqarish dinamikasida barcha hayvonlar go'shtlarining ko'payganligini 38-jadvalda ko'rish mumkin.

38-jadval

GO'SHT ISHLAB CHIQRISH
(barcha toifadagi xo'jaliklarda, ming tonna)*

Yillar	Go'sht (tirik vaznda)	Shu jumladan				
		mol va buzoq go'shti	qo'y va echki go'shti	parranda go'shti	cho'chqa go'shti	boshqa turdagi hayvon go'shti
2003	936,7	745,7	147,6	20,1	15,1	8,2
2004	998,3	806,5	144,2	23,5	18,7	5,4
2005	1061,2	849,2	157,6	27,2	21,6	5,6
2006	1139,6	904,2	175,6	30,0	24,4	5,4
2007	1208,7	950,2	192,8	34,5	24,9	6,3
2008	1288,0	998,2	223,9	35,4	22,7	7,8
2009	1367,8	1049,0	245,8	38,3	26,4	8,3
2010	1461,4	115,6	270,4	42,9	23,6	8,9
2011	1564,2	1192,0	288,6	51,5	20,8	11,3
2012	1672,9	1264,6	314,0	60,5	21,6	12,2
2013	1787,8	1340,1	343,3	66,9	23,3	14,2
2014	1906,3	1427,4	363,6	79,4	21,6	14,3

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Keyingi 10 yil davomida jami go'sht ishlab chiqarish 1,8 martaga, jumladan, mol va buzoq go'shti 1,7, qo'y va echki go'shti 2,3, parranda go'shti 2,9 va boshqa turdagi hayvonlar go'shti esa 2,5 martaga ko'paygani holda cho'chqa go'shtida o'sish bo'lmagan.

Istiqbolda chorva mahsulotlarini ko'paytirish, asosan, mahsuldorlikni oshirish hisobiga erishilishi maqsadga muvofiqdir.

24.3. Chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Respublikada ko'p yillardan beri ayrim chorva mahsulotlarini, shu jumladan, mol va parranda go'shtlarini, jun, pilla ishlab chiqarish va sotishdan aksariyat korxonalar zarar ko'rishmoqda. Boshqa mahsulotlarning rentabellik darajasi ham bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga to'laroq javob bermaydi.

Barcha turdagi chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi omil va imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish zarur:

1. Chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirish. Bu o'ta dolzarb vazifani bajarish uchun ularni turli xil oziqalarga bo'lgan talablarini ilmiy asoslangan ratsionlar bo'yicha muntazam qondirish. Natijada zotdor hayvonlarning mahsuldorlik salohiyati hamda sarflangan oziqalar samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, ko'proq, sifatliroq hamda arzonroq mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish imkoniyati yaratiladi;

2. Chorva hayvonlarning zotdorlik belgilarini saqlash va yanada mustahkamlash maqsadida seleksiya, naslchilik ishlarini yuqori darajada tashkil etish, jumladan, sun'iy urchitish, geterozis ustunliklaridan to'laroq foydalanish;

3. Qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer, dehqon xo'jaliklarini yuqori mahsuldor zotli chorva mollari bilan muntazam ta'minlash maqsadida yuqori mas'uliyatli naslchilik zavod va naslchilik xo'jaliklarini barpo qilish ularni imtiyozli sharoitlardan foydalanishga imkon yaratish;

4. Chorvadorlarning mehnat unumdorligi va mehnat haqini barqaror oshirish uchun texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish usullaridan foydalanish; dastavval, oziqalarni taqsimlash, sigirlarni sog'ish, qo'y va echkilar junini qirqish, sug'orish, binolarni chorva qoldiqlaridan tozalash, ulardan foydalanish bilan bog'liq va boshqa ishlarni progressiv vositalar yordamida bajarish;

5. Hayvonlarni saqlashning progressiv usullaridan, shu jumladan, bog'lamasdan saqlash, maxsus qo'ralardan foydalanish;

6. Asosiy vositalardan, ayniqsa, chorva binolari va inshootlari quvvatidan oqilona foydalanish;

7. Ilg'or zooveterinariya xizmatlaridan foydalanish va h.k.

TAYANCH IBORALAR

Zotdorlik, barcha turdagi, natural, oziqa resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, xomashyo, organik o'g'it.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
2. Sohani rivojlantirishning ahamiyati.
3. Iqtisodiy samaradorlikka erishishning imkoniyatlarini bayon eting.

25-bob.

QORAMOLCHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

25.1. Qoramolchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Qoramolchilikni rivojlantirish to'yimli oziqalarga nisbatan anchagina arzon o'simlik oziqa (ko'k o't, dag'al, shirali va boshq.) resurslaridan foydalanib sut va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Bu tarmoqning samaradorligi, dastavval sigirlarning boshqa ona hayvonlarga nisbatan bir necha barobar ko'p sut berishi bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda hozir rivojlantirilayotgan qora-ola, qizil chul, shvis kabi asosan zotdor sigirlardan bir yilda 3500—5000 kg sut va og'irligi 30 kg bir bosh buzoq olish potensial imkoniyati mavjud. Laktatsiya davrida har bir sigirdan sog'ib olingan yalpi sutning 5—6 % buzog'iga sarflansa, qolgan qismi 12—15 kishini ilmiy asoslangan me'yorda sut va qayta ishlangan sut mahsulot (yog', pishloq, qaymoq, qatiq va boshq.)lari bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Olingan buzoqlarni intensiv oziqlantirilsa, uning tirik vazni bir yilda 180—200 kg.ga yetadi va 5—6 kishini ilmiy asoslangan me'yorda mol go'shti va undan qayta ishlangan mahsulot (kolbasa va boshq.)lar bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning sut balansi aktivida sigir suti 90 % dan ortiq, go'sht balansida esa 70 % dan ortiqrog'i mol go'shtidir. Bu mahsulotlarni barcha yoshdagi odamlar iste'mol qilgani bois ular jismoniy baquvvat bo'lib, umri uzayadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, 1 kg sut oqsiliga qoramol go'shti oqsiliga nisbatan 5—6 marta kam oziqa birligi sarflanadi. Qoramol podasida sigirlar hissasining ko'payishi tarmoqning samaradorligini bevosita oshiradi.

Qoramol terisidan sifatli chirm tayyorlanib, oyoq va boshqa kiyimlar ishlab chiqariladi. Qoramollar qoldig'i go'ngdan foydalanish tuproqning unumdorligini, binobarin, o'simliklar hosildorligini oshiradi.

Demak, qoramolchilikni intensiv rivojlantirish mavjud mehnat, yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishga imkoniyatlar yaratadi va h.k. Ulardan to'laroq va samaraliroq foydalanish asosiy vazifadir.

25.2. Qoramolchilikning intensiv rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

O'zbekistonda uzoq yillar mahsuldorligi past, issiq iqlim sharoitiga moslashgan, kasalliklarga chidamli qoramolchilik rivojlantirilgan. Tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy mamlakatlardan zotdor va metis qoramollar sotib olingan. Respublika olimlari va mutaxassislari ularni iqlim sharoitiga moslashtirish ishlarini amalga oshirdilar va hokazo.

O'zbekistonda qoramollarning soni va ularning mahsuldorligini oshirish, binobarin, sut va go'sht mahsulotlarini ko'paytirishga erishildi (39-jadval).

39-jadval

O'zbekistonda qoramollar va sigirlar bosh sonining davrlar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi (2005—2014-yillar)*

Yillar	Jami qoramollar, ming bosh	Shu jumladan, sigirlar	Jami qoramol boshiga nisbatan, sigirlar, %
2005	6571,4	2821,3	42,9
2006	7044,6	2982,5	42,3
2007	7457,9	3124,9	41,9
2008	8026,3	3327,1	41,4
2009	8510,7	3535,7	41,5
2010	9094,7	3758,1	41,3
2011	9642,7	3878,4	40,2
2012	10141,3	3935,0	38,8
2013	10607,3	4020,6	37,9
2014	10995,2	4084,3	37,1

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 2005—2014-yillarda qoramollarning bosh soni keskin oshgan. 2014-yili 2005-yilga nisbatan ularning bosh soni 4423,8 ming boshga yoki 67,3 % ga

ko'paygan. Shu jumladan, sigirlar soni ham oshib, 2005-yildagi 2821,3 boshdan 2014-yilda 4084,3 ming boshga yetgan hamda 1263 boshga yoki 44,8 % ga oshgan.

Lekin bu davrda sigirlarning salmog'i 42,9 % dan 37,1 % ga kamaygan. Shu yillarda qoramollar tarkibida boshqa yirik shoxlilarning soni va salmog'i oshib borgan. Bu ko'rsatkich 2014-yilda 2005-yilga nisbatan 51,7 % dan 62,9 % ga ko'tarilgan. Tahlil etilayotgan davrda, ekstensiv rivojlanish hisobiga bo'lsa ham, chorvachilik mahsulotlari, ya'ni go'sht va sut ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari turli toifalar bo'yicha ijobiy tomonga quyidagicha o'zgarib borgan (40-jadval).

40-jadval

O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari, ming tonna (2005—2014-yillar)*

Yil-lar	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Go'sht (tirik vaznda)	Sut
2005	1061,2	4554,9	22,7	94,7	1002,4	4409,2	36,1	51,0
2006	1139,6	4855,8	24,3	111,2	1078,3	4709,1	37,0	35,5
2007	1208,7	5097,5	29,8	125,4	1147,4	4949,7	31,5	22,4
2008	1288,0	5426,3	32,4	151,6	1223,2	5250,2	32,4	24,5
2009	1367,8	5802,5	35,4	190,9	1300,1	5582,2	32,3	29,4
2010	1461,4	6169,0	37,8	205,0	1389,2	5927,8	34,4	36,2
2011	1564,2	6766,2	41,0	230,1	1481,6	6494,6	41,6	41,5
2012	1672,9	7310,9	45,1	256,8	1583,9	7008,5	43,9	45,6
2013	1787,8	7885,5	49,0	285,6	1690,3	7547,2	48,5	52,7
2014	1906,3	8431,6	55,3	608,6	1800,2	8064,6	50,8	58,4

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, sigirlardan sut sog'ib olish, so'yilgan mollarning vazni va boshqa mahsuldorlik ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar bo'lgan. 2014-yili 2005-yilga nisbatan bir bosh sigirdan sog'ib olingan sut qariyb 28 % ga oshgan. So'yilgan qoramolning tirik vazni ham 2014-yilda 2005-yilga nisbatan

1,8 martaga oshgan. Mahsuldorlikning oshishi yalpi sut va go'sht mahsulotlarining hajmiga ijobiy ta'sir qilgan. Shuningdek, bu yerda chetdan keltirilgan zotdor qoramollar salmog'ining yildan yilga ortib borishi ham muhim rol o'ynamoqda.

Qishloq xo'jaligining barcha sohalari kabi chorvachilikda ham iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda davlat tomonidan qishloq joylaridagi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi hamda chorvachilik fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirish, naslchilik ishlarini kuchaytirish, zooveterinariya servis xizmatlarini ko'rsatishni kengaytirish uchun sharoitlarni yaxshilash choralari maqsad qilib qo'yildi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 21-apreldagi «2006—2010-yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 67-qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-apreldagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 842-sonli Qarorini ko'rsatish mumkin.

Chorvachilik sohasidagi islohotlar natijasida, shuningdek, xorijdan keltirilgan zotdor mollar hisobiga ham 2013-yil boshiga kelib 2004-yilga nisbatan qoramollar bosh soni 5,9 mln.dan 10,1 mln boshga yoki 171,2 % ga, shundan sigirlar soni mos ravishda 2,5 mln.dan 3,9 mln.ga yoki 156 % ga, qo'y va echkilar soni 9,9 mln boshdan 17,1 mln boshga yoki 172,7 % ga, parrandalar soni esa 17,7 mln donadan 47,5 mln donaga yoki 2,6 martaga o'sdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1047-sonli Qaroriga binoan respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan bekam-ko'st to'ldirish, asosan, qishloq joylarda zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni jadal barpo etish, shu asosda yangi ish joylarini shakllantirish, ko'proq odam-

¹Сельское хозяйство Узбекистана. Статистический сборник. Т., 2013.

larni ish bilan ta'minlash, ularning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan manfaatdor xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki iste'mol bozorini ular bilan to'ldirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, unda 2009-yilda oziq-ovqat mahsulotlari eng muhim turlarini ishlab chiqarishning asosiy parametrlari, respublika viloyatlari bo'yicha go'sht va sut yetishtirishning prognoz hajmlari keltirilgan, shuningdek, respublika viloyatlarida 2009—2011-yillarda go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha mini-texnologiyalar va ixcham uskunalardan foydalanadigan yangi korxonalar, shuningdek, xom sut tayyorlash bo'yicha servis punktlarini barpo etish dasturi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu Qarorda 2009-yilning 1-iyulidan boshlab go'sht-sut mahsulotini sanoat ko'lamida qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish borasidagi faoliyat faqat yuridik shaxs shaklida tashkil qilingan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, go'sht va sutni qayta ishlaydigan korxonalarga o'z mahsulotini avtofurgonlarda aholiga naqd pulga sotish huquqi berilgan. Keyingi yillarda, ya'ni 2011 va 2013-yillarda, ushbu Qarorga qo'shimchalar kiritildi va u hayotga tatbiq etilmoqda.

25.3. Qoramolchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Uzoq yillar davomida ko'pchilik xo'jaliklar mol go'shti ishlab chiqarish va sotishdan zarar ko'rdilar, sut tannarxiga kiritilgan xarajatlarning rentabellik darajasi ham tarmoqda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tezlashtirishga sharoit yaratolmadi.

Ko'proq, sifatliroq va arzonroq qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sotish uchun quyidagi omillar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarur:

1. Sigirlardan olinadigan sut va buzoq miqdorini ko'paytirish lozim. Ko'p xo'jaliklarda mahsuldorlikning bu ko'rsatkichlari ularda rivojlanayotgan zotdor sigirlarning potensial imkoniyatiga nisbatan 2—3 marta past bo'lmoqda. Natijada ularni oziqlantirish xarajatlari samaradorligi 3—4 marta pasaymoqda;

2. Go'sht yo'nalishidagi qoramollarni so'qimga boqishga kunlik o'sishi, o'rtacha tirik va so'yilgan vazni, boshqa mahsuldorlik ko'rsatkichlari ham rivojlantirilayotgan zotlarning potentsial imkoniyatidan 30—35 % ga past bo'lmoqda. Natijada ularni oziqlantirish va saqlash muddatlari cho'zilib ketadi, barcha xarajatlar samaradorligi ham pasayadi;

3. Rivojlanayotgan iqlim sharoitiga moslashgan qoramollarning zotdorlik belgilarini mustahkamlash maqsadida seleksiya va naslchilik ishlari sifatini ko'tarish, shu jumladan, sun'iy urug'lantirishni amalga oshirish;

4. Chorvadorlarning mehnat unumdorligi va qilingan mehnat manfaatdorligini oshirish omillaridan va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;

5. Asosiy vositalardan, shu jumladan, maxsus chorva binolari va inshootlari quvvatidan yil davomida to'laroq foydalanish;

6. Ilg'or zooveterinariya xizmatlaridan foydalanish.

TAYANCH IBORALAR

To'yimli, arzon, oziqa, zotdor, buzoq, qayta ishlangan, tirik vazni, go'sht balansi, tahlil, ijobiy tomonga, so'yilgan, naslchilik.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qoramolchilik xalq xo'jaligida qanday ahamiyatga ega?
2. Sohani rivojlantirishning iqtisodiy omillari.
3. Chorvachilikda iqtisodiy samaraga erishishning qanday imkoniyatlari mavjud?

26.1. Qo'ychilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Qo'ylar, qoramol va boshqa hayvonlarga nisbatan serharakat, tuyoqlari va oyoqlari baquvvat, o'tkir tishlari past va siyrak o'sgan o'tlarni, hatto yerga to'kilgan mayda barglarni terib olib, iste'mol qilish qobiliyatiga egadir. Ular achchiq, sassiq hidli, tikanli o'tlarni ham iste'mol qiladi. Qo'ylar O'zbekistonda o'sadigan 880 tur o'simliklarning 520 turi yoki 59 % ini, qoramollar esa 20 % ga yaqinini iste'mol qiladi.

Demak, qo'ychilikni rivojlantirish O'zbekistonda mavjud 24—25 mln.ga cho'l, yarim cho'l, tog' bag'ri yaylovlari va pichanzorlarida o'sadigan oziqa resurslaridan to'liqroq foydalanishga sharoit yaratadi.

Qo'ylar jazirama issiqqa, qattiqqina sovuqqa, suvsizlikka ham chidamli. Tarmoqni rivojlantirish qo'shimcha kapital qo'yilma, mehnat resurslarini ham talab qilmaydi.

Qo'ychilik aholi uchun oziq-ovqat (go'sht, yog', sut), sanoat uchun xomashyo (jun, qorako'l teri, teri) yetkazib beradi. Junni qayta ishlash jarayonida junli kiyim, trikotaj, sukna, adyol, gilam, oyoq kiyim va boshqalar tayyorlanadi. Qorako'l teridan telpak, yoqa, po'stin va boshqalar tayyorlanadi; uning terisidan po'stin, yarim po'stin va boshqalar tayyorlanadi; charmidan oyoq va boshqa kiyimlar tayyorlanadi.

Qo'ychilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati uning ixtisoslashishiga qarab anchagina tafovut qiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda rivojlantirilayotgan qo'y zotlarini quyidagi guruhlarga bo'lib, tahlil qilish va iqtisodiy baholash maqsadga muvofiqdir:

- *1-guruh* — mayin junli qo'ychilik;
- *2-guruh* — yarim mayin junli qo'ychilik;
- *3-guruh* — qorako'l teri uchun qo'ychilik;

- 4-guruh — po'stinbop teri beradigan qo'ychilik;
- 5-guruh — go'sht-yog' beradigan qo'ychilik.

O'zbekistonda 1 va 2-guruhlarga kirgan qo'ychilik zotlari juda kam miqdorda rivojlantiriladi. Jun balansini mayin va yarim mayin jun tashkil qiladi; qolgan guruh qo'ylaridan dag'al jun olinadi. Barcha turdagi qo'y hamda echkilarning go'shtlari respublika go'sht balansida 10—15 % ni tashkil qiladi.

Qo'ylarning iste'mol qiladigan tabiiy yaylov oziqalari iqtisodiy baholanmaydi, natijada, qo'ychilikdan nisbatan arzon oziq-ovqatlar hamda xomashyolar ishlab chiqariladi. Respublikada ularni qayta ishlash va sotish qo'ychilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Qorako'l teri mahsulotlarini jahon bozorida sotish respublika valuta fondini ko'paytiradi.

26.2. Qo'ychilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

O'zbekistonda qo'ychilik noqulay yer va iqlim sharoitlari hamda aholining ko'p yillik tajribasini hisobga olib rivojlantiriladi. Qo'ychilik mahsulotlari, ularning bosh soni va mahsuldorligini oshirish evaziga ko'payadi.

2000-yilda 1940-yilga nisbatan jami qo'ylar soni 1,8 marta, shu jumladan, qorako'l zotdor qo'ylar 3,2 marta ko'paygan. Qorako'l teri va undan tayyorlanadigan tovarlarni ichki va tashqi bozorlarda sotishda vujudga keladigan qiyinchiliklar tufayli, qorako'l terining keskin kamayib ketishi kuzatilmoqda.

Masalan, 1990-yilda 1401,6 ming dona ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000-yilda 747 ming dona yoki 47 % kam ishlab chiqarilgan. 2000-yilda qo'zilarni teri uchun so'yish kamaytirilib, o'sishga, binobarin, bosh sonini ko'paytirish uchun qoldirilgan. Oxirgi yillarda har bir qirqilgan qo'ydan olingan jun miqdori ham kamaygan. Natijada 2000-yilda 1990-yilga nisbatan yalpi jun olish qariyb 40 % ga kamaygan.

Bu kamchiliklar 2004-yilga kelib birmuncha to'g'rilana boshlandi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda qo'ychilikning asosiy salmog'ini qorako'lchilik, ya'ni qorako'l zotli qo'ylar tashkil qiladi. Qorako'l zotli qorako'l qo'ylar 2005-yilning boshiga kelib, barcha toifadagi xo'jaliklarda 7300 mingga yaqin boshni tashkil qilgan.

O'zbekiston 1900-yilgacha qorako'l qo'ylarning asosiy qismi bo'lgan yagona mamlakat bo'lib, shu davrda respublikada 3 mln boshga yaqin qorako'l qo'y bo'lgan.

XX asr boshlarida Buxorodan kam sonli qorako'l qo'y zotlarini Janubi-G'arbiy Afrika (hozirda Namibiya) davlatiga olib kirilgan edi. Mana shu qism qo'ylar Janubi-G'arbiy Afrika Respublikasida qorako'lchilikning rivojlanishiga asos bo'lgan.

1850-yilda Parijda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmada fransuzlar birinchi marta manto va jaketlarni taklif qilishganda jahon bozori-ning asosiy e'tiborini tortdi. Jahonda qorako'l ishlab chiqarishda sobiq Ittifoq uzoq vaqt monopolist bo'lib kelgan, Ittifoqda qorako'l yetishtirish bo'yicha O'zbekiston birinchilardan bo'lib kelgan.

Jahon bozoriga yetkazib turilgan qorako'l terilar o'tgan asrning 80-yillarida 7 mln dona bo'lgan bo'lsa, shundan O'zbekistonning hissasi 2,4 mln dona (34,2 %)ni tashkil etgan.

SJK preparatining qo'llanishi 1984-yil to'xtatilgan bo'lishiga qaramasdan, 1985—1995-yillar davomida SJK stimulatorini nazoratsiz qo'llash natijasida qorako'l teri yetishtirish ikki barobarga kamayib ketdi. Stimulatorning qo'llanishi tug'ilajak qo'zilar sonini ko'paytiradi, bunda bitta ona qo'y 3 yoki 4 ta qo'zi tuqqan. Bu esa sovliq qo'ylarning fiziologik holatiga salbiy ta'sir qilgan. Tabiiyki, bu, o'z navbatida, qorako'l teri sifatiga ham ta'sir ko'rsatgan.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida jahon qorako'l bozorida ishlab chiqarishning pasayganligi kuzatildi. Mahsulotga bo'lgan talab o'smadi. Qorako'l yetishtirish hajmi o'tgan asrning 70-yillarida 10 mln bo'lgan bo'lsa, 80-yillarda 7 mln, 90-yillarda 4—5 mln.ga yaqin, hozirgi vaqtda 3 mln.ga yaqin deb baholanmoqda.

BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkiloti-ning ma'lumotiga ko'ra, 1980—1984-yillarda jahonda qorako'l qo'ylar bosh soni 30 mln deb ko'rsatildi. Hozirgi vaqtda qorako'l qo'ylar bosh soni 15 mln deb baholanmoqda.

Jahonda qorako'l ishlab chiqarishda birinchilardan Afg'oniston, keyin O'zbekiston, undan keyin Turkmaniston, Qozog'iston, Eron, Namibiya va boshqa davlatlar hisoblanadi.

Qorako'l O'zbekistonning iftixori va boyligi hisoblanadi. Qorako'l terilari o'ramalarining o'ziga xosligi, tabiiyligi, naqshlarining boyligi, ipakdek yumshoqligi, yaltiroqligining yuqoriligi bilan jahonda shuhrat qozondi. O'zbekiston jahonda qorako'l qo'ylarining vatani hisoblanmay, balki qorako'l qo'ylarini yetishtiruvchi asosiy baza hisoblanadi.

Qorako'l yetishtirish bo'yicha respublikaning yetti viloyati: Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi shug'ullanadi.

Jahon qorako'lichiligida ayrim davlatlar salmog'i

Mamlakatlar	Salmog'i (% da)	
	Bosh soni	Qorako'l terini sotish bo'yicha
Afg'oniston	31,0	29,0
O'zbekiston	24,8	24,7
Turkmaniston	21,7	20,5
Qozog'iston	9,9	4,4
Eron	6,2	6,8
Namibiya	1,2	4,4
Tojikiston	0,9	1,7
Rossiya	0,9	1,7
Boshqalar	3,4	6,6

1920-yillargacha qorako'lichilar ko'chmanchilik yoki yarim ko'chmanchilik holatida bo'lib, qo'ylarning mahsuldorligi past edi. Qish og'ir kelgan vaqtlarda foydalanish uchun zaxira oziqa mahsulotlari yo'q edi va qo'ylarning sezilarli qismi nobud bo'lar edi. Shunday holatni 1892, 1917 va keyinchalik 1969-yillar misolida ko'rish mumkin, bu vaqtda qishlov og'ir kelishi natijasida nobud bo'lgan qo'ylarning 90—95 % ga yaqini qorako'l qo'ylari bo'lganligi ko'rsatilgan. Shuning 80 % i Buxoro amiri va uning yaqinlariga, katta boylarga tegishli bo'lgan.

1928-yili O'zbekistonda birinchi marta «Muborak» qorako'lchilik davlat xo'jaligi tashkil etilgandi. Hozirgi kunda ham xo'jalik qora rangli qorako'l terilarini yetishtiruvchi naslchilik xo'jaliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Keyingi vaqtda xo'jaliklarda qorako'lchilik suruvlaridan qora rangli qorako'l teri ishlab chiqaruvchi naslchilik zavodlari va fermalari tashkil etildi. Bular: «Nishon», «Konimex» va «Qorako'l».

Kulrang va sur rangli terilarni yetishtiruvchi «Oq qapchig'ay» (hozirda «Sayxun» va «Oq qapchig'ay»), «Nurota», «Qoraqum», «Karnob», «G'uzor» naslchilik fermalari, Buxoro va Navoiy shirkatlari.

1935-yilda tashkil etilgan O'zbekiston zonal qorako'lchilik tajriba stansiyasi keyinchalik O'zbekiston mustaqillikka erishgandan

so'ng qayta tashkil etilib, «Cho'l ekologiyasi va qorako'lichilik ilmiy tekshirish instituti»ga aylantirildi. Hozirgi vaqtda respublikada 18 ta naslchilik zavodi va 13 ta naslchilik xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

Qorako'lichilikdan olinadigan mahsulot qorako'l qo'zi terilari bo'lib, u tabiat mo'jizasi sifatida butun dunyoda mashhurdir. 2004-yili respublikaning barcha turdagi xo'jaliklarida 375 ming donaga yaqin yuqori sifatli qorako'l teri ishlab chiqarilib, mamlakat ichidagi va chet el iste'molchilariga yetkazib berildi.

Mahsulotning asosiy qismi xorijga sotilib, mamlakat valuta tushumining ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qorako'l zotli qo'ylar O'zbekistonda mavjud bo'lgan cho'l, yarim cho'l mintaqasi bo'lgan 25 mln.ga yaqin noqulay sharoitida arzimagan efemer o'simliklar va buta, butasimon o'simliklardan tashkil topgan dag'al oziqalardan o'ta samarali foydalanishi bilan alohida e'tiborga sazovordir. Eng og'ir chidamliligini ko'rsata olgan chorva moli sifatida qadrlanadi. 2014-yilga kelib, qorako'l qo'ylar soni 6 mln.ga yaqinni tashkil etmoqda.

Qorako'l qo'ylari teridan tashqari, iste'mol uchun juda sifatli bo'lgan go'sht mahsuloti bilan ham ahamiyatlidir. Qorako'l qo'y go'shti boshqa zotli qo'ylar go'sht mahsulotlari bilan o'zlarining shifobaxshlik sifati, ya'ni mushak va yog' to'qimalarining qavatmaqavat joylashishi bilan keskin ajralib turadi. Qorako'lichilikda teri va go'shtdan tashqari, yosh qo'zi oshqozoni, jun, shifobaxsh, yuqori darajali yog'li sut mahsulotlari va boshqa turdagi yordamchi hamda qo'shimcha mahsulotlar olinib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jabhasida muhim o'rinni egallaydi.

42- va 43-jadvalda O'zbekistonda qo'ylar bosh sonining o'zgarishi va qo'ychilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili barcha toifadagi xo'jaliklar, jumladan, fermer xo'jaliklari, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, shuningdek, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar kesimida keltirilgan.

2005—2014-yillarda jami qo'ylar soni 7087 ming boshga yoki 1,6 martaga oshgan. Shu jumladan, qorako'l qo'ylar esa 1848,1 ming boshga yoki 1,4 martaga oshgan. Qorako'l qo'ylarning jami qo'ylardagi salmog'i esa mos ravishda 41,3 dan 35,4 % gacha o'zgargan. Shu davrda fermer, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida mos ravishda 2,7 va 1,8 martaga o'sish sur'ati kuzatilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 32,5 % ga kamayish tendensiyasi mavjud.

O'zbekistonda qo'ychilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'zgarishi dinamikasi (2005—2014-yillar)*

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
Barcha toifadagi xo'jaliklari										
Qo'y va echki go'shti, ming tonna	157,6	175,6	192,8	223,9	245,8	270,4	288,6	314,0	343,3	363,6
Jun (fiz. vaznda), ming tonna	20,1	21,4	22,5	23,8	25,0	26,5	28,7	31,1	32,4	34,4
Qorako'l terisi, ming dona	688,8	726,8	781,0	897,0	897,4	934,9	1022,3	1116,9	1062,1	1061,3
Ferma xo'jaliklari										
Qo'y va echki go'shti, ming tonna	3,8	4,4	6,9	7,7	8,4	9,0	9,6	10,2	11,3	11,4
Jun (fiz. vaznda), ming tonna	0,6	0,9	1,1	1,3	1,4	1,7	2,0	2,1	2,2	2,8
Qorako'l terisi, ming dona	25	31,6	36,5	38,3	42,2	44,1	43,4	46,1	51,1	52,6

Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari										
Qo'y va echki go'shti, ming tonna	134,7	152,8	169,6	200,2	222,3	246,3	263,9	287,9	316	336,9
Jun (fiz. vaznda), ming tonna	16,0	17,3	18,5	19,7	20,7	22,0	24,2	26,8	28,1	29,5
Qorako'l terisi, ming dona	390,2	476,6	499,5	549,6	585,0	632,1	643,6	745,8	801,7	831,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar										
Qo'y va echki go'shti, ming tonna	17,9	18,4	16,3	16	15,1	15,1	15,1	15,9	16	15,3
Jun (fiz. vaznda), ming tonna	3,5	3,2	2,9	2,8	2,9	2,8	2,5	2,2	2,1	2,1
Qorako'l terisi, ming dona	273,6	218,4	245	309,1	270,2	258,7	335,3	324,9	209,3	179,0

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

O'zbekistonda qo'y va echkilar bosh sonining o'zgarishi dinamikasi, ming bosh (2005—2014-yillar)*

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
	Barcha toifadagi xo'jaliklari									
Jami qo'ylar va echkilar	11351,9	12016,2	12635,6	13523,3	14432,6	15340,9	16189,0	17128,8	17717,6	18438,9
shu jumladan, qorako'l qo'yalar	4684,2	4896,3	5097,7	5284,3	5622,1	5897,0	6225,5	6386,3	6390,4	6532,3
	Fermier xo'jaliklari									
Jami qo'ylar va echkilar	501,1	649,4	872,3	1007,3	1097,7	1149,9	1203,1	1267,3	1310,0	1336,6
shu jumladan, qorako'l qo'yalar	211,5	255	295,3	348,3	383,2	413,0	434,6	447,7	432,7	442,9
	Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari									
Jami qo'ylar va echkilar	8417,7	9053,0	9603,9	10433,6	11268,9	12146,7	13035,7	14166,0	14771,6	15459,9
shu jumladan, qorako'l qo'yalar	2499,9	2704,7	2912	3155,1	3464,1	3638,5	4041,5	4441,6	4550,4	4694,8
	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar									
Jami qo'ylar va echkilar	2433,1	2313,8	2159,4	2082,4	2066,0	2044,3	1950,2	1695,5	1636,0	1642,4
shu jumladan, qorako'l qo'yalar	1972,8	1936,6	1890,4	1780,9	1774,8	1845,5	1749,4	1497	1407,3	1394,6

*O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Qo'ychilik mahsulotlari bo'lmish qo'y va echki go'shti, jun va qorako'l terisi yetishtirishda keskin o'zgarishlar bo'lgan. Shu davrda qo'y va echki go'shti ishlab chiqarish 2,3 martaga, jun tayyorlash 1,7 martaga va qorako'l terisi yetkazib berish 1,5 martaga oshgan. Ushbu mahsulotlarni yetishtirishda fermer, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida o'sish sur'ati kuzatilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa kamayish kuzatilgan.

Demak, qo'ychilik, shu jumladan qorako'lchilikni ko'paytirish imkoniyatlaridan foydalanish bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga to'laroq javob bermayotir va h.k.

Istiqbolda qo'ychilik mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini takomillashtirish tarmoqni intensiv yuritish darajasini keskin ko'tarish hisobiga amalga oshirilishi lozim.

26.3. Qo'ychilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ko'pchilik korxonalarda go'sht, qorako'l teri va jun mahsulotlarining tannarxi va sotish baholarining oshishi kuzatilmoqda. Tannarxga kiritilgan xarajatlarning rentabellik darajasi bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga to'liq javob bermagan.

Tarmoq mahsulotlari iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillardan va imkoniyatlardan foydalanish zarur:

1. Qo'ychilikda tabiiy yaylov oziqa zaxiralarining ahamiyatini hisobga olish, yaylovlarning hosildorligini oshirish chora-tadbirlarini muntazam amalga oshirish lozim. Bu maqsadda yaylov aylanuvini tashkil etish, qo'shimcha serhosil yaylov o'simliklarining urug'larini ekish va boshqalar.

Qish oylarida tabiiy oziqalar proteinining 2—3 marta kamayib ketishi hisobiga qo'ylarga qo'shimcha kuchli oziqa berish zaruriyati kelib chiqadi. Bunday jarayon amalga oshirilmasa ona qo'ylardan olinadigan qo'zilarning sifat belgilari pasayadi, ulardan olingan teri ham mayda bo'ladi va h.k.;

2. Cho'ponlarning mehnat unumdorligi va ularning mehnatiga haq to'lashni oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish kerak. Bu vazifani boshqarish uchun sermehnat jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish, har bir cho'ponga biriktirilayotgan qo'ylar sonini ilmiy asoslangan me'yorlar darajasiga yetkazish, cho'ponlar oilasiga maishiy va boshqa xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish zarur va h.k.;

3. Zooveterinariya xizmatlarini tashkil etishda ilg'or usullardan foydalanish, optimal muddatlarda qo'zi olish, qochirish, junini qirqish, sug'orish va boshqa texnologik ishlarni talab darajasida bajarish;

4. Jun va qorako'l teri mahsulotlarini qayta ishlash va ularni ichki va tashqi bozorlarda erkin, kelishilgan shartnoma baholarda sotishni amalga oshirishga amaliy yordam ko'rsatish.

TAYANCH IBORALAR

Texnologik, qorako'l, teri, jun, zooveterinariya, xizmati, cho'pon, mehnat unumdorligi, bozor iqtisodiyoti, tannarx, rentabellik, tabiiy.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qo'ychilik xalq xo'jaligida qanday ahamiyatga ega?
2. Iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun nima qilish kerak?
3. Sohani rivojlantirish omillarini sanab o'ting.

**PARRANDACHILIKNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
IMKONIYATLARI****27.1. Parrandachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati**

Parrandachilikning asosiy mahsuloti — tuxum va parhez parranda go'sht aholi uchun o'ta foydali oziq-ovqat hisoblanadi. Tuxum tarkibida inson organizmida 100 % hazm bo'ladigan oqsil hamda vitamin, moy va boshqa moddalar bor, u eng yuqori kaloriyali parhez taom hisoblanadi.

Parranda, ayniqsa, jo'ja go'shti tarkibi ham inson organizmi uchun tez va to'laroq hazm bo'luvchi moy, oqsil, vitamin va boshqa moddalarga boy. G'oz va o'rdak go'shtlarida inson organizmi uchun foydali moy, oqsil va boshqa moddalar ham mavjud. Ular kaloriya bo'yicha cho'chqa va qoramol go'shtlaridan yuqori.

Parrandalar tez ko'payuvchi va yetiluvchi hayvondir. Tovuq, o'rdak, kurka, g'oz 5—7 oylik bo'lishi bilanoq tuxum bera boshlaydi. Bir tovuqdan yiliga 300 dona tuxum va undan jo'ja ochirib go'sht uchun boqilsa, tirik vaznda 4 s gacha go'sht olish mumkin.

Jo'jalar jadal oziqlantirilsa 50—55 kunda 1,5—2 kg, o'rdaklar esa 3—3,5 kg og'irlikka ega bo'ladi. Parrandachilikning boshqa hayvonlarga nisbatan samaradorligi shundaki, ularga sarflanadigan oziqalar birligiga anchagina ko'proq foydali mahsulot ishlab chiqariladi.

Masalan, 1 kg jo'ja go'shti ishlab chiqarish uchun 3,5—4 kg, g'oz va o'rdak go'shti uchun 4,5—5 kg oziqa birligi sarflanadi; 1 kg cho'chqa go'shti va mol go'shtlariga esa mos ravishda o'rtacha 6,5—8,5 kg sarflanadi; 1 kg tuxum oqsiliga mol go'shti oqsiliga nisbatan 4—5 marta kam oziqa birligi sarflanadi.

Parrandachilikning qoldiq mahsuloti — go'ngdan o'simlikchilik tarmoqlarida, ayniqsa, yopiq maydon sabzavotchiligida foydalanish ularning hosildorligini sezilarli darajada oshiradi. Parrandalarni so'yishdan olingan pardan yostiq, ko'rpa va boshqalar tayyorlanadi.

Parrandachilikni sanoat asosida rivojlantirish mahsuldorlik va mehnat unumdorligini oshirish hamda yil davomida barqaror

miqdorda tuxum va go'sht ishlab chiqarish hamda sotish uchun qulay sharoit yaratiladi, kapital qo'yilmalarning qaytish muddatini tezlashtiradi va h.k.

27.2. Parrandachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Parrandachilik, uning asosiy turi, tovuqchilik uzoq davrlardan beri rivojlantiriladi. Donishmandlar parrandachilikni yetti xazinaning biri deb ham baholashadi. Ammo parrandachilikning tashkil etilishi uzoq yillar uning xalq xo'jaligi ahamiyatiga mos kelmagan. Parrandalarning bosh sonini ko'paytirishda, ularning mahsuldorligini oshirishda, odatda, oddiy ekstensiv usullardan foydalanilgan.

Parrandachilikni tezroq rivojlantirish, asosan, tarmoqda sanoatga xos texnologiyani keng joriy etish yillaridan boshlangan. Parrandalarning bosh soni va mahsuldorligini oshirishda keskin o'zgarish bo'lgan.

Masalan, parrandalarning bosh soni 1990-yilda 1960-yilga nisbatan 4,7 marta, har bir tovuqdan olingan tuxum esa qishloq xo'jaligi korxonalarida qariyb 2 marta, aholi jon boshiga tuxum ishlab chiqarish esa 1,7 marta ko'paygan.

Ammo 1990-yilda aholi jon boshiga 120 dona tuxum va 3,3 kg parranda go'shti ishlab chiqarilgan, xolos. Bu ko'rsatkich belgilangan tibbiy me'yorlarga nisbatan 3—4 marta kam edi. 2000-yilda 1990-yilga nisbatan parrandalar soni qariyb 3 marta, har bir tovuqdan olingan tuxum 13 % ga, ishlab chiqarilgan tuxum miqdori qariyb 2 marta, parrandalar go'shti esa 5 marta kamaygan.

Mustaqillik yillarida respublikada parrandachilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi, buni 44-jadval tahlilidan bilish mumkin.

Tahlil etilayotgan davrda parrandalar soni 20540,4 ming boshdan 56276,3 ming boshgacha yoki 2,7 martaga oshgan. Barcha toifadagi xo'jaliklarda tuxum va parranda go'shti yetkazib berish shu davrda mos ravishda 2,5 va 2,9 martaga oshgan bo'lsa, fermer xo'jaliklarida 7,6 va 11,4 marta, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida 2,3 va 2,6 martaga va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,3 va 3,2 martaga ko'paygan. Bu yerda asosiy o'sish sur'ati fermer xo'jaliklarida bo'lib, keyingi yillarda parrandachilikka ixtisoslashgan hamda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari shakllanayotganligining amaldagi isbotidir.

O'zbekistonda parrandachilikni rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2005—2014-yillar)*

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar										
		2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	
1.	Barcha turdagi parrandalar, ming bosh	20540,4	24188,4	26118,9	29505,4	33053,0	37733,3	42818,4	47485,8	52363,2	56276,3	
Barcha toifadagi xo'jaliklari												
2.	Tuxum, mln dona	1966,7	2128,1	2220,4	2431,5	2760,8	3061,2	3441,7	3873,7	4388,1	4950,0	
3.	Parranda go'shti, ming tonna	27,2	30,0	34,5	35,4	38,3	42,9	51,5	60,5	66,9	79,4	
Fermar xo'jaliklari												
2.	Tuxum, mln dona	71,6	76,7	88,8	157,3	228,1	288,1	374,5	464,6	501,3	543,0	
3.	Parranda go'shti, ming tonna	0,5	0,5	0,6	0,7	1,1	1,3	1,5	1,8	2,4	5,7	
Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari												
2.	Tuxum, mln dona	1165,8	1278,1	1383,3	1500,8	1657,0	1775,5	1875,5	2113,7	2399,9	2726,9	
3.	Parranda go'shti, ming tonna	19,2	23,4	26,4	26,9	29,1	31,7	35	42,6	44,8	50	
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar												
2.	Tuxum, mln dona	729,3	773,4	748,3	773,4	875,7	997,6	1191,7	1295,4	1486,9	1680,1	
3.	Parranda go'shti, ming tonna	7,5	6,1	7,5	7,8	8,1	9,9	15	16,1	19,7	23,7	

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Demak, parrandachilikning oxirgi yillardagi rivojlanish darajasi uning xalq xo'jaligi ahamiyatiga, boshqa chorva tarmoqlariga nisbatan ustunliklariga mos kelib bormoqda.

Istiqbolda parrandachilikni tiklash, tezroq rivojlantirish ob'ektiv zaruriyatdir. Uni faqat dehqon va fermer xo'jaliklarida emas, balki yirik parrandachilik fabrikalarida, shuningdek, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday tajriba iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda barqaror amalga oshirilib, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samara bermoqda.

27.3. Parrandachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ko'pchilik xo'jaliklarda, ayniqsa, parrandachilik fabrikalarida tuxum ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining rentabelligi bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga javob beradi. Ammo parranda go'shtlarini yetishtirishda va sotishda bu ko'rsatkichni optimal tashkil topish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga erishilgan emas.

Ko'proq, sifatliroq va arzonroq parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish uchun quyidagi omillardan va imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

1. Tarkibida 15—20 ta modda mavjud bo'lgan omuxta yemlardan foydalanish;

2. Xo'jaliklarning ixtisoslashishini hisobga olib elita hamda gibrid parranda zotlarini ko'paytirish zarur. Keyingi yillarda O'zbekistondagi parrandachilik fabrikalarida va boshqa xo'jaliklarda «Leggorn», «Kornish», krosslardan «Qo'ng'ir xayseks», «Loman-Braun» kabi tovuq zotlaridan foydalanish yuqori samara bermoqda;

3. Inkubatsiya jarayonida sog'lom jo'ja va boshqalarni olish uchun ilg'or usullardan keng foydalanish kerak. Inkubatsiyalanadigan tuxumlar maxsus karton qog'ozlarda va fleygalarda joylashtiriladi, 8—12°C issiqlikda, nisbiy namligi 75—80 % omborxonalarda, uzog'i bilan 5—6 kungacha saqlanadi. Inkubatsiyalashdan oldin tuxumlarni formaldegid yod, azon, margansovka va boshqalar kabi maxsus moddalar bilan zararsizlantirilishi ulardan foydalanish koeffitsiyentini oshiradi;

4. Yosh jo'ja va boshqalarni maxsus kataklarda hamda to'shamalarda saqlashning ham ilg'or usullaridan foydalanish lozim. Ayniqsa, ularni oziqlantirish belgilangan me'yorlarda va muddatlarda amalga oshirilishi, mikroiqlimni saqlash alohida ahamiyatga ega;

5. Zooveterinariya xizmatining progressiv usullaridan foydalanishni tashkil etish lozim;

6. Tuxum, go'sht, jo'ja va parrandachilik mahsulotlarini erkin, shartnoma baholarida sotish, parrandachilikda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarga kafolatlangan mehnat haqi to'lashning amalga oshirilishi ham muhim tadbir bo'lib hisoblanadi.

TAYANCH IBORALAR

Parrandachilik, tuxum, parhez, go'sht, vitamin, jo'ja go'shti, tez ko'payuvchi, bosh soni, tahlil, keskin.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Parranda go'shti inson hayotida qanday ahamiyatga ega?
2. Sohani iqtisodiy samara beruvchi tarmoqqa aylantirish omillarini bilasizmi?
3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishning qanday imkoniyatlarini bilasiz?

28-bob.

PILLACHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

28.1. Pillachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Tarmoqning asosiy mahsuloti xom, so'ngra kerakli darajada quritilgan pilladir. Pillani qayta ishlash jarayonida ip, undan esa ipaklik gazlamalar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlardan insonlar uchun o'ta yumshoq, silliq va chidamli kiyim-kechaklar tayyorlanadi. Uzoq yillar davomida ulardan samolyot, kosmik kemalarga parashut, elektr simlarida izolator, tibbiyotda, jarrohlikda tikish ipi sifatida va boshqa tarmoqlarda turli maqsadlarda foydalanib kelingan.

Keyinchalik bu buyumlar kimyoviy (sun'iy) tolalardan tayyorlanishi tufayli, ipak ipi va gazlamasi, asosan, insonlar iste'moli uchun foydalanilmoqda.

Pilla ipidan eng chiroyli va nafis atlas, adras, shoyi, duxoba, gilam va boshqa xil matolar to'qiladi. Bir sentner xom pilladan 100—150 metrgacha ipak gazlama to'qiladi. Tayyorlangan kiyimlarning chakana baholarda qiymati 500—650 ming so'mga teng.

Pillaning yetilishi juda murakkab jarayon. Uning urug'i sanoat texnologiyasi asosida olinadi va rivojlantiriladi. 20—30 kun ichida qurtning og'irligi 10—14 marta ko'payadi. Buning uchun qurt yashil tut bargi bilan intensiv oziqlantiriladi. Qurtlar 1—2 yoshida har 2—3 soatda, 3—4 yoshda har 3—4 soatda, 5 yoshida esa har 4—5 soatda takror oziqlantiriladi. Bir gramm pilla urug'i 20—30 kun o'sish davrida 50—60 kg yashil barg iste'mol qiladi va 3—4 kg xom pillaga aylanadi. 1 kg pilla ishlab chiqarish uchun 15—17 kg barg sarflanadi.

Qurt go'ngi o'simlikchilikda organik o'g'it, sanoatda kislota olish uchun ishlatiladi.

Pillani qayta ishlash jarayonida tashkil topgan g'umbaklar mo'yna chorvachiligida qo'shimcha oziqa shaklida ishlatiladi. G'umbakning to'rtidan bir qismi yog', qolgan qismi esa turli xil mineral moddalardan iborat.

Xom pilla ishlab chiqarishda mehnat resurslari, band bo'lgan binolar va boshqa resurslar mavsumiy foydalaniladi. Agar ular bir marta tashkil etilsa 20—30 kun, ikki marta 40—60 kun foydalaniladi, xolos. Ammo ko'pchilik xo'jaliklarda qo'shimcha tarqoq sifatida rivojlantiriladi.

28.2. Pillachilik rivojlanishining hozirgi holati va istiqboli

Pillachilik Xitoyda miloddan avvalgi III mingyillikda, O'zbekistonda esa milodning V—VI asrlaridan boshlab rivojlandi. Uning urug'ini tayyorlash va boshqa jarayonlarning oddiy usullarda bajari-lishiga qaramasdan, pilla ishlab chiqarish hajmi bo'yicha respublika-miz jahon mamlakatlari ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ip hamda ipakli gazlamalarga talabning oshishini hisobga olib, pillachilikni rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Grenzavodlar qurilgan, serbargli, serhosil tut navlari ekilgan va h.k.

2000-yilda 1990-yilga nisbatan yalpi pilla 36 % ga kamaydi. Bunday holat, asosan, pillani qayta ishlash hamda uni eksport qilish bilan bog'liq.

45-jadval

O'zbekistonda pilla yetishtirishning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2011—2014-yillar)*

Mahsulot	2011	2012	2013	2014
Barcha toifadagi xo'jaliklar				
Pilla, ming tonna	24,7	25,0	25,4	26,1
%	100,0	100,0	100,0	100,0
Fermer xo'jaliklari				
Pilla, ming tonna	24,2	24,3	24,2	24,4
%	98,0	97,2	95,3	93,5
Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari				
Pilla, ming tonna	—	—	—	—
%	—	—	—	—
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar				
Pilla, ming tonna	0,5	0,7	1,2	1,7
%	2,0	2,8	4,7	6,5

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2011—2014-yillarda respublikada asosiy pilla yetishtiruvchilar fermer xo'jaliklari bo'lib, ular jami yetishtirilgan pillaning 93—98 % ini tayyorlashgan. Shuningdek, dehqon va aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida pilla yetishtirilmaganligi sababli qolgan hissa, ya'ni 2—6,5 % gacha, qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga to'g'ri kelgan. Lekin, yildan yilga ularning hissasi oshib bormoqda. Bunga sabab, respublikaning ayrim tumanlarida tashkilotlar uchun barcha sharoitlarga ega bo'lgan pilla yetishtiruvchi alohida markazlar tashkil etish tariqasida sinab ko'rilmogda.

Kelajakda barcha talablarga javob beruvchi ana shunday pilla yetishtiruvchi markazlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Istiqbolda pillachilikni tiklash va uni yanada ko'paytirish omillaridan va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish eng muhim vazifadir.

Mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) ipak qurtining quyidagi turlari rayonlashtirilgan:

AS*VD. 372.UZ.2011-y., DV*SA. 372.UZ.2011-y., «Zarbdor»-1.8.UZ.2011-y., «Zarbdor»-2.8.UZ.2011-y., «Iqbol», «Iqbol»-2.325.UZ.2012-y., «Iqbol», «Iqbol»-1.325.UZ.2012-y., «Navro'z» 1.8.UZ.2013-y., 8. «Navro'z» 2. 8.UZ.2013-y., ToshDAU 112 * O'zITI 9. 8.UZ.2014-y., 10. O'zITI 9 * ToshDAU 112.8.UZ.2014-y. kabilar.

Ta'kidlanganidek, pilla yetishtirishda uning eng asosiy oziqasi bo'lgan tutchilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida bu borada ham seleksioner olimlar ancha ishlarni amalga oshirishdi. Jumladan, shu davrda, ya'ni mustaqillik yillarida (2010—2014-yillarda) tut daraxtining quyidagi navlari rayonlashtirilgan:

SANIISH — 34.8.UZ.2013-y., «Jarariq»-7.8.UZ.2012-y., «Jarariq»-8. 8.UZ.2012-y., «Jarariq»-2. 8. UZ.2013-y., «Jarariq»-4. 8.UZ.2013-y., «Jarariq»-5. 8.UZ.2013-y., «Jarariq»-9. 8. UZ. 2014-y., «Jarariq»-10. 8.UZ.2014-y. kabilar.

28.3. Pillachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Ko'pchilik xo'jaliklar ham pilla ishlab chiqarish va sotishdan zarar ko'rishadi, ular har bir kg pilla yetishtirish uchun me'yorga nisbatan 1,5—2 marta va undan ortiq tut bargini sarflashmoqda. Pillakorlarning mehnat unumdorligi va unga haq to'lash ham bozor iqtisodiyoti qonunlar talablariga mos kelmaydi.

Ko'proq, sifatliroq va arzon pilla ishlab chiqarish uchun quyidagi omillar hamda imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

1. Tut barglarida mavjud kompleks modda va boshqalarni saqlash hamda yanada ko'paytirish uchun ishlab chiqarish, tayyorlashning ilg'or usullaridan foydalanish zarur. Bu maqsadda tut daraxtlari ekiladigan maydonlarning o'stirilishi, ularni ekologik toza suv bilan yomg'irilatib sug'orish, intensiv texnologiya asosida hosildorligini oshirish lozim.

Natijada, har kg pillaga ilg'or mamlakatlar, masalan, Yaponiyada sarflangan oziqa darajasiga erishish mumkin. Oxirgi yillarda Yaponiyada 1 kg pillaga O'zbekistonga nisbatan 2 marta barg kam sarflanadi. Bu o'ta dolzarb muammoni amalga oshirish mavjud tut daraxti maydonlarini kengaytirmasdan yalpi pilla miqdorini kamida 2 marta ko'paytirishga imkoniyat yaratadi;

2. Oziqa resurslari sifatini may-sentabr oylarigacha ta'minlash 2—3 marta pilla yetishtirishga, tarmoq bilan band mehnat resurslaridan, binolardan va boshqa vositalardan foydalanish koefitsiyentlarini oshiradi;

3. Qurtlarni asta-sekin maxsus binolarda boqishni tashkil qilish ham ilg'or jarayon hisoblanadi. Natijada, pillachilikda band oilalarning turmush madaniyati yaxshilanadi;

4. Serhosil va sifatli pilla navlaridan foydalanish, ularni qayta ishlashni qishloq xo'jaligi korxonalarida yoki qishloq tumanlarida tashkil etish ham alohida ahamiyat kasb etadi;

5. Pilla va uni qayta ishlash jarayonida mahsulotlarni erkin, kelishilgan shartnoma baholarida sotish, ishchi va xizmatchilarga kafolatli mehnat haqi to'lashni amalga oshirishga erishish.

TAYANCH IBORALAR

Tarmoq, xomashyo, quritilgan, ipak, gazlama, nafis, jarayon, toifa, markazlar, arzon, pilla, turmush madaniyati.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalq xo'jaligida pillachilik qanday ahamiyatga ega?
2. Sohani kelajakda rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor bermoq kerak?
3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishning qanday imkoniyatlari bor?

29.1. Baliqchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Baliq va baliq mahsulotlari inson organizmi uchun juda kerakli va uning taomnomasida muhim o'rinni egallaydigan parhez ovqat turlaridan biridir. Ma'lumki, baliq go'shti inson organizmida tez hazm bo'lishi bilan boshqa hayvonlar go'shtlaridan farq qiladi. Holbuki, uning tarkibidagi barcha to'yimli moddalar boshqa go'shtlardagidan kam emas.

Baliq go'shti *D* vitaminiga boy va u inson organizmida *Sa* va *R* almashinuvini me'yorda saqlab turishga yordam beradi. Shuningdek, yosh bolalarga va hatto kech kuz hamda qish oylarida bir joyda turib boqiladigan hayvonlarning raxit kasalga chalinishining oldini oladi. Shu kasalga chalinganlarni davolashda katta ahamiyatga ega.

Bundan inson ovqatlanishi uchun yaroqsiz bo'lgan baliqlar va baliqlarni qayta ishlash korxonalarida chiqitlaridan tayyorlangan baliq uni qishloq xo'jaligi hayvonlari hamda parrandalarining oziqa ratsionini turli oqsil va vitaminlarga boyituvchi qimmatli qo'shimcha hisoblanadi.

Respublikamiz hududida zog'orabaliq, oq amur, do'ngpeshana, tovonbaliq va ilonbosh kabi iliq haroratga moyil baliq zotlari urchitiladi. Ularning asosiy qismini zog'orabaliq zotli baliqlar tashkil qiladi. Bu zotli baliq juda ham serurug' bo'lib, 4—5 yoshli tirik vazni 5—8 kg. Keladigan urg'ochilari suvning harorati 17—18°C ga yetganda birdaniga o'rtacha 700—800 ming, eng sifatli lili esa 1,5 mln.gacha ikra qo'ya oladi.

Bu zotli baliqlarning o'sish imkoniyatlari juda yuqori bo'lib, 18—20 oyligida tirik vazni 1—1,5 kg, 28—32 oyligida esa 2,5—4 kg. gacha yetishi mumkin. Shu zotga mansub baliqlar urchiydigan hovuzlarning tabiiy baliq mahsuldorligi 1,2—2 sentnerga teng bo'lib, baliq mahsulotlari yetishtirishni jadal usulda amalga oshirilganda har gektar suv havzasidan 25—30 sentnergacha baliq yetishtirish mumkin.

29.2. Baliqchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi iqtisodiy islohotlar, jumladan, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar baliqchilik sohasini rivojlantirishni ham zaruriyat qilib qo'ydi. Islohotlarning asosiylaridan biri bu qishloq xo'jaligida mulk islohoti bo'lib, baliqchilik sohasida xususiylashtirish va xususiy mulkni rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, baliq ovlash va baliqchilik korxonalari faoliyatini tashkil etishda bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, tarmoqni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, baliq ovlash, baliq va baliq mahsulotlarini sotishni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-avgustdagi 350-qarori qabul qilingan.

Keyinroq esa aholining baliq mahsulotlariga talabini to'la qondirish va baliq mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish maqsadida «2009—2011-yillarda respublikada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi» qabul qilingan edi.

Respublikada ana shu davr ichida, ya'ni 2009—2011-yillarda baliq yetishtirish 9235,7 dan 16882,1 tonnaga yetkazilgan. 2011-yilda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga va tabiiy ko'llarni ijaraga olgan korxonalarni zamonaviy texnologik vositalar bilan jihozlash, granulalangan omuxta yem, mineral o'g'itlar va mavsumiy aylanma mablag'lari uchun tijorat banklari tomonidan 8 mlrd 525 mln so'm (213,1 %) kredit ajratib berilgan.

«O'zdonmahsulot» kompaniyasi korxonalari va Chinoz omuxta yem ishlab chiqarish zavodi tomonidan 11 ming 973 tonna (169,1 %) omuxta yem, baliqchilik xo'jaliklariga shartnoma asosida yetkazib berilgan. Yangidan tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan kichik baliqchilik fermer xo'jaliklariga tizimli ravishda baliq chovoqlari yetishtirib berish tashkil etilgan. Respublikada mayda baliq urug'lari yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar tomonidan 221 mln dona uvuldiriq olinib, ulardan 29,2 mln dona bir yozlik baliq urug'lik materiali yetishtirilgan.

46-jadvalda respublikada 2011—2014-yillarda barcha toifadagi xo'jaliklarda, fermer xo'jaliklarida, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda baliq ovlash dinamikasining tahlili keltirilgan.

29-bob.

BALIQCILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

29.1. Baliqchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Baliq va baliq mahsulotlari inson organizmi uchun juda kerakli va uning taomnomasida muhim o'rinni egallaydigan parhez ovqat turlaridan biridir. Ma'lumki, baliq go'shti inson organizmida tez hazm bo'lishi bilan boshqa hayvonlar go'shtlaridan farq qiladi. Holbuki, uning tarkibidagi barcha to'yimli moddalar boshqa go'shtlardagidan kam emas.

Baliq go'shti *D* vitaminiga boy va u inson organizmida *Sa* va *R* almashinuvini me'yorda saqlab turishga yordam beradi. Shuningdek, yosh bolalarga va hatto kech kuz hamda qish oylarida bir joyda turib boqiladigan hayvonlarning raxit kasalga chalinishining oldini oladi. Shu kasalga chalinganlarni davolashda katta ahamiyatga ega.

Bundan inson ovqatlanishi uchun yaroqsiz bo'lgan baliqlar va baliqlarni qayta ishlash korxonalari chiqitlaridan tayyorlangan baliq uni qishloq xo'jaligi hayvonlari hamda parrandalarining oziqa ratsionini turli oqsil va vitaminlarga boyituvchi qimmatli qo'shimcha hisoblanadi.

Respublikamiz hududida zog'orabaliq, oq amur, do'ngpeshana, tovonbaliq va ilonbosh kabi iliq haroratga moyil baliq zotlari urchiriladi. Ularning asosiy qismini zog'orabaliq zotli baliqlar tashkil qiladi. Bu zotli baliq juda ham serurug' bo'lib, 4—5 yoshli tirik vazni 5—8 kg. Keladigan urg'ochilari suvning harorati 17—18°C ga yetganda birdaniga o'rtacha 700—800 ming, eng sifatililari esa 1,5 mln.gacha ikra qo'ya oladi.

Bu zotli baliqlarning o'sish imkoniyatlari juda yuqori bo'lib, 18—20 oyligida tirik vazni 1—1,5 kg, 28—32 oyligida esa 2,5—4 kg. gacha yetishi mumkin. Shu zotga mansub baliqlar urchiydigan hovuzlarning tabiiy baliq mahsuldorligi 1,2—2 sentnerga teng bo'lib, baliq mahsulotlari yetishtirishni jadal usulda amalga oshirilganda har gektar suv havzasidan 25—30 sentnergacha baliq yetishtirish mumkin.

29.2. Baliqchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi iqtisodiy islohotlar, jumladan, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar baliqchilik sohasini rivojlantirishni ham zaruriyat qilib qo'ydi. Islohotlarning asosiylaridan biri bu qishloq xo'jaligida mulk islohoti bo'lib, baliqchilik sohasida xususiylashtirish va xususiy mulkni rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, baliq ovlash va baliqchilik korxonalari faoliyatini tashkil etishda bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, tarmoqni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, baliq ovlash, baliq va baliq mahsulotlarini sotishni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-avgustdagi 350-qarori qabul qilingan.

Keyinroq esa aholining baliq mahsulotlariga talabini to'la qondirish va baliq mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish maqsadida «2009—2011-yillarda respublikada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi» qabul qilingan edi.

Respublikada ana shu davr ichida, ya'ni 2009—2011-yillarda baliq yetishtirish 9235,7 dan 16882,1 tonnaga yetkazilgan. 2011-yilda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga va tabiiy ko'llarni ijaraga olgan korxonalarni zamonaviy texnologik vositalar bilan jihozlash, granulalangan omuxta yem, mineral o'g'itlar va mavsumiy aylanma mablag'lari uchun tijorat banklari tomonidan 8 mlrd 525 mln so'm (213,1 %) kredit ajratib berilgan.

«O'zdonmahsulot» kompaniyasi korxonalari va Chinoz omuxta yem ishlab chiqarish zavodi tomonidan 11 ming 973 tonna (169,1 %) omuxta yem, baliqchilik xo'jaliklariga shartnoma asosida yetkazib berilgan. Yangidan tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan kichik baliqchilik fermer xo'jaliklariga tizimli ravishda baliq chovoqlari yetishtirib berish tashkil etilgan. Respublikada mayda baliq urug'lari yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar tomonidan 221 mln dona uvuldin olinib, ulardan 29,2 mln dona bir yozlik baliq urug'lik materiali yetishtirilgan.

46-jadvalda respublikada 2011—2014-yillarda barcha toifadagi xo'jaliklarda, fermer xo'jaliklarida, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda baliq ovlash dinamikasining tahlili keltirilgan.

**O'zbekistonda baliq ovlashning barcha xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili
(2011—2014-yillar) (tonna)***

Xo'jalik turlari	Yillar				2014-yil 2011-yilga nisbatan	
	2011	2012	2013	2014	+, -	%
Barcha toifadagi xo'jaliklar	16882,1	25885,1	38156,0	46534,6	+29652,5	2,8 m
Salmog'i	100,0	100,0	100,0	100,0	—	x
Fermer xo'jaliklari	4778,6	7506,7	11389,3	13636,4	+8857,8	2,8 m
Salmog'i	28,3	29,0	29,8	29,3	+1,0	x
Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari	1886,3	2873,2	4233,7	8877,9	+6991,6	4,7 m
Salmog'i	11,2	11,1	11,1	19,1	+7,9	x
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10217,2	15505,2	22533,0	24020,3	+13803,1	2,3 m
Salmog'i	60,5	59,9	59,1	51,6	-8,9	x

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2011—2014-yillarda respublika bo'yicha baliqchilikda keskin o'zgarishlar bo'lgan, barcha toifadagi xo'jaliklarda ham, fermer xo'jaliklarida ham baliq ovlash 2,8 martaga oshgan. Bu o'sish dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida juda yuqori bo'lib, 4,7 martani tashkil etgan. 2011-yilda asosiy salmoq qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelib, 60,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, fermer xo'jaliklari hamda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari mos ravishda 28,3 va 11,2 % salmoqqa ega bo'lgan.

Lekin bu 2014-yilga kelib, fermer xo'jaliklari hamda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida mos ravishda 29,3 va 19,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasi kamayib borgan, ya'ni 60,5 % dan 51,6 punktga tushib qolgan. Bu esa baliq yetishtirishda fermer xo'jaliklari va alohida tadbirkorlarning hissasi ortib borayotganligidan dalolat beradi.

29.3. Baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Bozor iqtisodiyotigacha bo'lgan davrlarda baliq yetishtirish, uni sotish masalalari ancha takomillashmagan va oddiy uslublarda tashkil topgan edi. Muhimi, bu tarmoqni tarmoq sifatida tan olish va aholining unga bo'lgan iste'molini tibbiy me'yorlar darajasida ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmas edi. Hozirda alohida baliqchilik xo'jaliklarining tashkil etilishi, ularning yetarli darajada yer-suv, moddiy, mehnat va boshqa resurslar bilan ta'minlanishi, o'z navbatida, ularga pirovard natijaga erishishda samarali faoliyat ko'rsatishlarini taqozo qiladi.

Kelajakda ko'proq, sifatliroq va arzonroq baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish hamda sotish uchun quyidagi omillar, tavsiyalar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarur:

I. Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirish bo'yicha:

1. Qishloq xo'jaligi ekinlari maqsadlarida ishlatilmaydigan sho'r-xok yerlarda kichik baliqchilik fermer xo'jaliklari tashkil etish;

2. Har bir tumanda fermer xo'jaliklarini tizimli ravishda mayda baliq chovoqlari bilan ta'minlaydigan inkubatsion-reproduktor xo'jaliklarini tashkil etish;

3. Baliqchilik fermer xo'jaliklarini «O'zdonmahsulot» korxonalarini va Chinoz maxsus baliq omuxta yem ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarilgan omuxta yem bilan uzluksiz ta'minlash;

4. Tumanlardagi shiyponlarda mavjud hovuzlarda kanal va kollektorlar relyefini inobatga olgan holda suv kirib chiqishini ta'minlab beruvchi basseynlarda intensiv baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish;

5. Tuman hokimliklari va hududiy havza boshqarmalari sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi korxonalarini 2012-yilda zarur hajmdagi suv bilan kafolatli ta'minlash bo'yicha ishlarini aniq belgilab olishlari.

II. Tabiiy suv havzalarida baliq ovlash va ularni baliqlantirish masalalari bo'yicha:

1. Baliqchilik sohasida foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy suv havzalarini qayta inventarizatsiya qilish va ko'llardagi baliq zaximalaridan oqilona foydalanishni tashkil etish;

2. Viloyat va tuman miqyosida tabiiy suv havzalarida ishlatilmay turgan bo'sh maydonlarni ijaraga berishni tashkillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olinishi;

3. Tabiiy suv havzalaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovlarini o'z vaqtida to'lashni ta'minlash;

4. Tabiiy suv havzalarini baliqlantirishni suv havzalari yaqinida markazlashtirilgan tarzda tashkil etishni yo'lga qo'yish;

5. Tuman hududlarida noqonuniy brakonyerlik bilan shug'ullanayotgan shaxslarga qonunda belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini qo'llash;

6. Aholi bandligini ta'minlash uchun tabiiy ko'llarda sun'iy qafaslarda baliq yetishtirish texnologiyasi joriy etish bo'yicha xorijiy va mahalliy investorlar mablag'larini jalb etish;

7. Baliq mahsulotlarini qayta ishlash va baliq mahsulotlarini tuman bozorlarida uzluksiz sotishni tashkil etish va mavsumiy bank kreditlari ajratish;

8. Tuman markaziy bozorlarida maxsus baliq sotish shoxobchalarini va tirik baliq sotishga mo'ljallangan baliq akvariumlarini qurish hamda ularda muntazam ravishda baliq sotishni tashkil etish;

9. Tirik baliqlarni yarim tayyor mahsulot holida qayta ishlaydigan kichik korxonalarini qurish va ularni maxsus uskunalar, muzlatgich, sovutgichlar bilan jihozlashni tashkil etish;

10. Tuman hududidagi ovqatlanish korxonalarida baliq taomlari doimiy bo'lishini va ularning xilma-xilligini ta'minlash;

11. Baliqchilik sohasini rivojlantirish maqsadida, moddiy-texnika bazasini yangilash, yangi texnologiyalar olib kirish, qayta ishlashni tashkil etish uchun baliqchilik xo'jaliklariga bank kreditlari berilishi ustidan nazoratni o'rnatish.

Baliqchilik sohasiga oid qonun hujjatlarni takomillashtirish lozim. Hozirgi kunda baliqchilik bo'yicha yagona qonun qabul qilish zarurati yuzaga kelgan. Qabul qilinadigan qonun:

a) sun'iy baliqchilik xo'jaliklarida baliq yetishtirish, hovuz va yer fondidan maqsadli foydalanish;

b) tabiiy suv havzalaridagi baliq zaxiralaridan samarali va oqilona ovlashni tashkil qilish hamda baliq zaxiralarini ko'paytirish choralarini kuchaytirish va ovlovchi korxonalarining qonuniy javobgarligini oshirish;

d) baliq mahsulotlarini sotishni tartibga olish va iste'molchilar huquqini himoya qilish;

e) baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni tashkil qilish jarayoni soliq va bojxona imtiyozlarini yaratish masalalarini o'z ichiga olishi zarur.

TAYANCH IBORALAR

Baliqchilik, parhez, ovqat, hazm, tarkibi, vitaminlarga boy, suvning harorati, havza, urg'ochi, tabiiy, ovlash, kanal va kollektorlar.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Baliqchilikning o'ziga xos jihatlari nimada?
2. Sohaning bugungi holati talabga javob beradimi?
3. Iqtisodiy samaraga erishish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

30-bob.

ASALARICHILIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

30.1. Asalarichilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

O'zbekistonda chorvachilikning yaqindan taraqqiy etib ke-
layotgan tarmoqlaridan biri bo'lgan asalarichilik — qishloq
xo'jaligining ham muhim tarmog'i hisoblanadi. Asalarichilik
mamlakatimizning barcha xo'jaliklarida muvaffaqiyatli rivoj-
lantirilmoqda.

Asalarining asosiy mahsuloti — asal shifobaxshlik va parhezlik
xususiyatidan tashqari, juda shirin mazaga ham ega. Asalarichi-
likning boshqa yana muhim mahsulotlaridan biri — ona ari suti,
propolis, asalari zahari, gulchangi, mum keng miqyosda xalq
xo'jaligining barcha tarmoqlarida, ya'ni tibbiyotda, kimyoda, oziq-
ovqat sanoatida keng foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligining bir tarmog'i sifatida asalarichilikning
asosiy maqsadi tovar asal ishlab chiqarish hisoblanadi. Asalari
mahsulotida ko'p miqdorda to'yimli moddalar bo'lib, uning
shifobaxshlik xususiyatlari mavjud. U ko'pgina teri kasalliklarini
davolashda, iste'mol qilinganda organizmning himoya kuchini
oshirishda, endokrin bezlarining ishini mo'tadillashtirishda,
yurak-qon sistemasining faoliyatida katta yordam beradi.

Asalni doimiy ravishda iste'mol qilib turilsa, uyquni yaxshilab,
ishtahani ochadi, qon bosimini o'nglaydi. Sifatsiz asal foyda o'rniga
organizmga zarar keltirishi mumkin, inson organizmini zaharlab,
ovqat hazm qilishni buzadi va h.k. Asalning shifobaxshlik xusu-
siyati uning kelib chiqishiga, olish texnologiyasiga, qayta ishlash,
saqlash sharoitiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatib, xalq xo'jaligiga bebaho
foyda keltiradi. Asalarilar qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatish
natijasida olingan hosildan keluvchi foyda, uning barcha boshqa
mahsulotlaridan olinadigan foydadan 10—17 marta ortiq ekanligi

dunyo olimlari tomonidan isbotlab berilgan. Yaylov va butazorlardagi dukkakli o'simliklarni changlatib, uning hosildorligini oshirib, chorvachilikning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oliy malakali, chuqur va mustahkam bilimli mutaxassislariga asalarichilik sohasini yaxshi olib borishlari mumkin.

Asalarilarning changlatishdagi ahamiyati azaldan ma'lum. O'simliklarning changlanish masalasi bilan ko'pgina olimlar shug'ullanishgan. Ular asalarilar poliz ekinlari va mevali daraxtlarni changlatishda qatnashib, ularning hosildorligini 4—5 marta oshirganligini isbotlashgan.

Asalarilar yordamida va boshqa kompleks tadbirlarni qo'llab, hosilni oshirish masalasiga mamlakatning barcha viloyatlarida ham ahamiyat berilmoqda. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, o'simliklarni asalarilar yordamida changlatish beda hosilini 180—250 % gacha, kungaboqarni 40—50 % gacha, qora bug'doyni 1,5 marta, karam, sholg'om, piyozni 30—40 % gacha, zig'irni 27 % gacha va paxta hosildorligini 2—2,5 s.ga oshiradi.

30.2. Asalarichilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi tarmog'i oldida turgan asosiy muammolardan biri aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'zimizda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobiga qondirishdan iborat bo'lib, bu shu paytgacha uncha rivojlanmagan tarmoq hisoblangan asalarichilikni jadal rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz istiqbolga erishgan kunlaridanoq agrar sohaning muhim tarmog'i hisoblangan asalarichilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan.

Eng asosiysi, sohada bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib, chorvachilikni, shu jumladan, asalarichilikni barqaror rivojlantirishning huquqiy asoslari barpo etildi. Bunga misol qilib, Davlat qonunlari, Prezident Farmoni va Qarorlarini hamda hukumat Dasturlarini, Vazirlar Mahkamasining qator qarorlarini keltirish mumkin. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martda qabul qilingan «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni

rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 308-sonli hamda 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 842-sonli Qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu qarorlarning joylarda ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2009—2011-yillar davomida mamlakatda chorvachilik, qoramolchilik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan qator qarorlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Asalarichilik — qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i. Asalarilar barcha xo'jaliklarda muvaffaqiyatli rivojlanib kelmoqda.

Xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish zarur. Hozirgi vaqtda ko'chma asalarichilik keng qo'llaniladigan bo'lib, tog' oldi (adir)larda joylashgan pasekalarning 90 % ini, mamlakatimizning tog'li tumanlarida doimiy ravishda (bir joyda) turuvchi pasekalarning 10 % ini tashkil qiladi.

Asalarichilikni rivojlantirish hozirgi zamon yer tizimi, har bir hududning tabiiy iqlim va tuproq sharoitini hisobga olgan holda uning oziqa bazasini yaxshilash, xo'jaliklarning iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Respublikada yuqoridagi amalga oshirilgan islohotlarning natijasi sifatida keyingi yillarda baliqchilik rivojlanib bormoqda. 47-jadvalda respublikada 2011—2014-yillarda barcha toifadagi xo'jaliklarda, fermer xo'jaliklarida, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda asal yetishtirish dinamikasining tahlili keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, barcha toifa xo'jaliklarida asal yetishtirish hajmi 2,2 dan 2,9 martagacha oshib borgan, fermer xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda, dinamikada bu raqamlar 1,3 va 1,8 punkt o'sib borish tendensiyasiga ega. Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida esa 3,1 punktga pasayish kuzatilgan. Demak, borgan sari ixtisoslashgan asalarichilik xo'jaliklarini shakllantirish jarayoni jadallashtirilmoqda.

**O'zbekistonda asal yetishtirishning barcha xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili
(2011–2014-yillar) (tonna)***

Xo'jalik turlari	Yillar				2014-yil 2011-yilga nisbatan	
	2011	2012	2013	2014	+, –	%
Barcha toifadagi xo'jaliklar	3786,1	5481,6	7177,0	8708,7	+4922,6	2,3 m
Salmog'i	100,0	100,0	100,0	100,0	–	x
Fermer xo'jaliklari	575,8	893,5	1239,5	1480,3	+904,5	2,6 m
Salmog'i	15,2	16,3	17,3	17,0	+1,8	x
Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari	3036,7	4286,6	5479,7	6714,6	+3677,9	2,2 m
Salmog'i	80,2	78,2	76,3	77,1	–3,1	x
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	173,6	301,5	457,8	513,8	+340,2	2,9 m
Salmog'i	4,6	5,5	6,4	5,9	+1,3	x

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. T., 2013; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T., 2015.

30.3. Asalarichilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Mustaqillikning dastlabki yillarida asal yetishtirish, uni sotish masalalari ancha takomillashmagan va oddiy uslublarda tashkil topgan edi. Shuning uchun ham bu tarmoqni tarmoq sifatida tan olish va aholining unga bo'lgan iste'molini tibbiy me'yorlar darajasida ta'minlash masalasi faqat xususiy asal yetishtiruvchilar e'tiborida edi.

Mustaqillikning keyingi o'n yilliklarida asalarichilik xo'jaliklarining tashkil etilishi sari tashlangan qadam, ularga yetarli darajada yer-suv, moddiy, mehnat va boshqa resurslar bilan ta'minlanishni, o'z navbatida, ularga pirovard natijaga erishishda samarali faoliyat ko'rsatishlari kerakligini taqozo qiladi.

Kelajakda ko'proq, sifatliroq va arzonroq asal mahsulotlarini yetishtirish hamda sotish uchun quyidagi omillar, tavsiyalar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarur hisoblanadi.

Naslchilik ishlarini olib borishdagi asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

1. Asalarilarni zotiga qarab rayonlashtirish;
2. Asalarilarning yaxshi asal yig'ishini ta'minlash uchun arixonalarni muntazam ko'chirib turish;
3. Asalari oilalarini asrash va parvarish qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish;
4. Asalari oilalarining rivojlanishidagi individuallikni saqlab qolish, boshqa asalari oilalari hisobiga asal to'plashi yoki begona asalarilarning uchib kelish hamda o'z oilasini tashlab uchib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
5. Asalarichilik xo'jaligida naslchilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, maxsus jurnal yurguzib, unda asalari oilasining kelib chiqishi, ularning holati va xo'jalikka foydali muhim belgilarini baholaydigan hamma ma'lumotlarni yozib borish;
6. Ko'p miqdorda asalarilar oilasi ichida tanlash va saralash ishlarini olib borish. Asalarichilikda asalari oilasini tanlashning asosiy mazmuni asal mahsuldorligidir. Uni ko'paytirish esa naslchilik ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

TAYANCH IBORALAR

Taraqqiy etib kelayotgan, asalarichilik, tarmoq, shifobaxsh, keng miqyosda, jadal, bozor munosabatlari, huquqiy asos, barcha toifadagi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalq xo'jaligida asalarichilik qanday ahamiyatga ega?
2. Asalarichilikning rivojlanish darajasi va iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari qaysilar?

AYRIM ATAMALARNING TA'RIFI VA LUG'AVIY MA'NOSI

Absolut renta — yerga xususiy mulkning qonun yo'li bilan mustahkamlanishi, shuningdek, yerning ijaraga berilishi absolut rentaning paydo bo'lishiga olib keladi. Differensial rentadan farq qilib, absolut renta alohida yer uchastkalarining unumdorligidagi farqlarga va qo'shimcha sarf qilingan xarajatlarning unumdorligiga bog'liq bo'lmaydi. Yer egalari ijara haqi shaklidagi absolut rentani faqat qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun foydalaniladigan yer uchun emas, balki bino va inshootlarni qurish uchun mo'ljallangan yer uchastkalari uchun, shuningdek, foydali qazilmalarni qazib olish maqsadida ijaraga berilgan yer uchun ham oladilar.

Agrosanoat majmuyi — aholini oziq-ovqatga va yengil sanoatning xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish muammolarini hal qilish bo'yicha iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bir maqsad uchun birlashgan tarmoqlar to'plamini bildiradi.

Agrosanoat majmuyi pirovard mahsulotning qiymati (ASMPMQ) — qishloq xo'jaligida yaratilgan sof mahsulot qiymatidan (SMQ_{OX}), oziq-ovqat, yengil sanoat tarmoqlari sof mahsuloti qiymatining (SMQ_{OYOY}) bir qismidan, shuningdek, transport, aloqa va muomala sohalari sof mahsuloti qiymatining (SMQ_{TAM}) bir qismidan tashkil topadi.

Almashuv qiymat — bir tovarning ikkinchi tovarga ayirboshlanishi xususiyatiga uning almashuv qiymati deyiladi. Ikki tovar mahsulotining o'zaro ayirboshlanishi ularning bir-biri bilan tenglashishini bildiradi.

Asosiy vositalar — asosiy vositalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida uzoq vaqt ishtirok etib (bir qancha yillar, bir qancha ishlab chiqarish jarayoni davomida), o'zining natura buyum shaklini saqlab qoladi. Uning qiymati amortizatsiya shaklida yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga asta-sekin o'tib, shu mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlariga, ya'ni tannarxiga qo'shiladi. Misol uchun traktorlar, kombaynlar, qishloq xo'jaligi mashinalarining eskirish qismi shular jumlasiga kiradi.

Asosiy vositalarning eskirishi — asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida eskirib boradi, ya'ni dastlabki sifatini yo'qotib boradi, ma'lum muddat o'tgandan keyin ular ishga yaroqsiz bo'lib qoladi va ularni yangisi bilan almashtirish zaruriyati tug'iladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari jismoniy va ma'naviy eskiradi. Asosiy fondlarning foydalanish jarayonida eskirishi uning jismoniy eskirishidir. Jismoniy eskirish ikki xil bo'ladi:

1. Asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonida, foydalanish natijasida asta-sekin o'z holati (parametri)ni o'zgartirishi;

2. Asosiy vositalarning bekor turishi va ochiq maydonlarda qarovsiz qoldirilishi natijasida detallarining ishdan chiqishi va korroziyaga uchrashi.

Bu xildagi eskirishlar ularning foydalanish darajasiga bog'liq. Bundan tashqari, fondlar ma'naviy ham eskiradi.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ham ikki xil bo'ladi:

1. Yangi, ancha unumli va tejimli mashinalar ixtiro etilishi va ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida eskirgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati tugamasdan, qadrsizlanib ma'naviy eskirib qoladi.

2. Texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining oshishi ham, o'z navbatida, ishlab turgan mashinalar qiymatining kamayishiga olib keladi va ma'naviy eskiradi.

Asosiy fondlar qiymatini qayta baholash — Asosiy fondlar qiymati ma'lum bir davrlarda qayta baholanib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomning (MISV, MV va DSQning AV tomonidan 2002-yilda 1192-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) 7-bandini ijro etish maqsadida 2015-yil 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlar qiymatini qayta baholash indeksleri ishlab chiqilgan.

Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari — ma'muriy mintaqada kichik maydonlarni egallagan qishloq xo'jaligi ekinlari (paxta, bug'doy, sholi, savzavotlar, poliz mahsulotlari, kartoshka, ko'p yillik mevali daraxtlar, yem-xashakbop ildizmevali o'simliklar, bir yillik o'tlar, beda, makkajo'xori, tamaki).

Aylanma vositalar — aylanma vositalar, ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etib, o'zlarining shakllarini o'zgartiradi va bir vaqtning o'zida o'z qiymatlarini yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga to'liq o'tkazadi. Misol uchun, urug'lik, yem, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bandlik — bandlik iqtisodiy toifa sifatida mehnatga yaroqli aholining ijtimoiy mahsulotni yaratish bo'yicha qiladigan faoliyatini ifodalaydi. Bandlikning to'liqligi aholining iqtisodiy faolligiga munosabati bo'yicha hisobga olinadi. Bunga mahsulot, tovar ishlab chiqarishda va xizmatlarni amalga oshirishda qatnashuvchi shaxslar tegishlidir. Iqtisodiy faol kishining mehnat maqomi miqdor jihatdan ma'lum bir vaqt davomida ishlangan kunlar soni bo'yicha hisoblanadi.

Baho — tovar qiymatining puldagi ifodasi bo'lib, uning dinamikasi, nisbati va o'zgarishlari asosida qiymat qonuni yotadi. Qiymat qonuni bahoning tovar qiymati atrofidagi harakati qonuniyatini aniqlaydi. Raqobat sharoitida, talab va taklif asosida baho va qiymat o'zgarib turadi. Goho baho qiymatdan yuqori bo'ladi va aksincha. Ikkovining teng kelishi esa muvozanat bahosini yuzaga keltiradi.

Bevosita xarajatlar — ma'lum bir ekin yoki chorva turlariga xizmat qiluvchi, dehqonchilik va chorvachilik xodimlarining mehnat xarajatlari. Mahsulot ishlab chiqarishda qatnashish darajasi nuqtayi nazaridan bevosita

mehnat xarajatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida harakat qiladigan ijtimoiy mehnatning tarkibidagi faol va katta hajmi tashkil qiladigan mehnat massasini ifodalaydi.

Bilvosita xarajatlar — bevosita ishlab chiqarishda qatnashmaydigan, balki ishlab chiqarishni tashkil qilishda, boshqarishda va alohida tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat xarajatlari.

Boshlang'ich qiymat — asosiy fondlarni tashkil etishdagi haqiqiy sarflangan xarajatlar.

Bosh (yetakchi) tarmoq — bosh tarmoq deb, qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotida yuqori salmoqni egallagan tarmoqqa aytiladi. Asosiy tarmoq korxonaning ixtisoslashishini aniqlaydi.

Buyumlashgan mehnat xarajatlari — u o'z ichiga mashina, mineral o'g'itlar va boshqalarda buyumlashgan sanoat xodimlarining mehnatini hamda ishlab chiqarishning oldingi bosqichlarida urug', yem-xashakda va qishloq xo'jaligidan chiqadigan mehnat predmetlarida buyumlashgan mehnat xarajatlarini oladi.

Bo'z yerlar — bo'z yerlarga oldin ekinzor bo'lgan, lekin turli sabablarga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekinlari (bir yildan ko'p) ekilmayotgan yer uchastkalari kiradi.

Dehqon xo'jaligi — dehqon xo'jaligi deganda, o'z mulki yoki ijaraga olingan yer, suv, boshqa vosita va mol mulklardan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, saqlashni va sotishni amalga oshiruvchi, oilaviy, oilaviy-mehnat yoki bir qancha shaxslarning birgalashgan mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik subyekti tushuniladi.

Differensial renta I — differensial renta I ning tashkil topishi yer resurslarining chegaralanganligi, ularning sifati jihatidan turli-tumanligi, shuningdek, qishloq xo'jaligi aylanmasiga nafaqat yaxshi yerlarni, shuningdek, o'rtacha va yomon yer uchastkalarini ham jalb qilish zaruriyati bilan bog'langan, yer uchastkalarining joylashgan o'rinlaridagi farqlarga ham bog'liq. Yer egalari sifat jihatidan turlicha bo'lgan yer uchastkalariga bir xil miqdorda mehnat va mablag' sarflab, ulardan har xil natija oladilar.

Yaxshi yerlardan foydalanuvchi yer egalari, yomon yerda ishlaydiganlarga nisbatan, har bir gektaridan qo'shimcha mahsulot oladilar. Ular mahsulot birligi hisobiga oz miqdorda jonli va buyumlashgan mehnat sarflaydilar. Ularga mahsulot birligini ishlab chiqarish ancha arzonga tushadi, ularda mahsulotning individual qiymati past bo'ladi, natijada mahsuldorlik bo'yicha differensial renta I ga aylanadigan qo'shimcha daromad vujudga keladi.

Differensial renta I, shuningdek, yer uchastkalarining bozorga yaqin yoki uzoq joylashishiga qarab transport yo'llari va boshqalar oqibatida ham hosil bo'ladi. Bu farqlar mahsulot birligiga to'g'ri keladigan transport va boshqa xarajatlarning notekisligini keltirib chiqaradi, bu esa joylashgan joyiga qarab differensial renta I tashkil topishi uchun sharoit yaratadi.

Differensial renta II — differensial renta II ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonida yer uchastkalariga qo‘shimcha mablag‘ sarflash hisobiga olinadi. Yer uchastkasiga sarflangan bir xil miqdordagi xarajatlar turli xil qaytimga (samaradorlikka) ega bo‘lishi mumkin. Ma‘lumki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning ijtimoiy bahosi, ancha kam unumli xarajatlardan olinadigan mahsulot ishlab chiqarish bahosi bilan aniqlanadi, ancha unumli xarajatlar odatdagi o‘rtacha foyda normasini va yana ortiqcha foyda — differensial renta II ni keltiradi.

Differensial renta II, qo‘shimcha mablag‘ hisobiga tashkil topadigan, ishlab chiqarishning individual va ijtimoiy bahosi o‘rtasidagi farqqa teng.

Differensial sof daromad (DSD) — nisbatan yaxshi yerlardan olingan ortiqcha qo‘shimcha mahsulotning qiymatini aks ettiradigan; sof daromadning bir qis mi. Differensial renta I va II larni o‘z ichiga oluvchi DSD, bir vaqtning o‘zida yerning sifati va dehqonchilikni intensivlashtirish daromadni hisobga olgan holda yerdan foydalanish iqtisodiy samarasining umumiy miqdorini aks ettiradi.

Ekinzorlar — bu qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekishda foydalaniladi va tizimli ravishda ishlov berib boriladi. Tabiiy-tarixiy va boshqa xossalari bo‘yicha ekinzorlar bir qancha xillarga bo‘linadi: sug‘oriladigan, lalmi, zaxkash, toshloq va boshqalar.

Ekstensiv rivojlantirish — ekstensiv shaklidagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish deganda, mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikning o‘shishini miqdoriy omillar evaziga yangi yerlarni o‘zlashtirish, ekin maydonlarini ko‘paytirish, chorva mollarining bosh sonini ko‘paytirish va qo‘shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali erishilishi tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish resurslari ko‘lamlarining ortishi yuz bergani holda texnika-texnologiya sifat darajasi, yer unumdorligi va chorva mollar mahsuldorligi tubdan o‘zgaraydi.

Fermer xo‘jaligi — ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Fermer xo‘jaligining yer maydonini maqbullashtirish — yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish va fermer xo‘jaligining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash maqsadida uning yer maydoni hajmini o‘zgartirish demakdir.

Foyda — bu realizatsiya qilish natijasida olingan sof daromadning bir qismi bo‘lib, u mahsulot sotishdan keladigan mablag‘dan — sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni yoki to‘la tan-narx qiymatini chiqarib tashlangan qismiga teng bo‘ladi.

Gorizantal integratsiya — yuqori darajadagi konsentratsiyalashish va ixtisoslashish sharoitida bir xil faoliyat yuritadigan (bir tarmoq ichidagi) xo‘jaliklar hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarining tashkiliy hamda texnologik birlashish shakli.

Ijara — ijara shartnoma asosida yerga, boshqa tabiiy resurslarga, shuningdek, xo'jalik faoliyatini va o'zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga zarur bo'lgan mol-mulkka haq evaziga muddatli egalik qilish va undan foydalanishdan iboratdir.

Ijara haqi — ijara haqi renta bilan birga, boshqa unsurlarni yerdan qurilgan bino va inshootlarning amortizatsiyasini va boshqalarni o'z ichiga oladi. Agar yer ijaraga berilganda mayda yer egasiga beriladigan ijara haqiga faqat qo'shimcha mahsulotning hammasi emas, balki dehqon ijarachining zaruriy mahsulotining bir qismi ham kiradi.

Infratuzilma — infratuzilma deganda, iqtisodiy va ijtimoiy takror ishlab chiqarishning me'yoriy sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan kompleks tarmoq va ishlab chiqarishlar tushuniladi. U ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladigan texnologik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni amalga oshirish yo'li bilan agrosanoat majmuyining samarali harakat qilishiga imkon beradi.

Intensivlik — bu qishloq xo'jaligi va uning ayrim tarmog'ining ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligini aks ettiradi.

Intensivlashtirish darajasi — intensivlashtirish darajasi esa qishloq xo'jaligi va uning ayrim tarmog'ining xolisona o'sish sur'ati darajasini o'zida aks ettiradi.

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi — intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi esa mahsulotning ekin maydoni birligi hamda chorva mollari boshi soni hisobiga o'sishni o'zida aks ettiradi. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish darajasi natura va qiymat ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Natural ko'rsatkich yordamida xo'jalikdagi tarmoqlar va ularning bir-birlari bilan qanchalik bog'langanligi hamda ayrim tarmoqchalar va ekin turlari bo'yicha qancha mahsulot yetishtirilganligini aniqlash mumkin. Qiymat ko'rsatkichi sarflangan mehnat va mablag' evaziga qancha so'mlik qo'shimcha mahsulot yetishtirilganligini ko'rsatadi.

Intensiv rivojlantirish — qishloq xo'jaligini rivojlantirishni intensiv shaklda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi sifat omillar evaziga, ya'ni nisbatan takomillashgan zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tatbiq etish (ulardan to'la va samarali foydalanish), dehqonchilik va chorvachilikning mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etuvchi ilg'or texnologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi — ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi va ularning uzoq vaqt davomida ishga yaroqliligini saqlashga yordam beruvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy infratuzilma — ijtimoiy infratuzilma deganda, ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning samarali harakat qilish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining bir

qismiga aytiladi. Ijtimoiy infratuzilmaning bosh vazifasi qishloq aholisining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yanada yaxshilashdir.

Investitsiya — investitsiya deganda, xo'jalik faoliyati jarayonida asosiy fondlarni va aylanma vositalarni sotib olishga ajratilgan uzoq muddatli mablag'lar tushuniladi. Demak, investitsiya bu nafaqat asosiy fondlarni kengaytirishga mablag'lar, balki korxonaning aylanma vositalarini shakllantirishga va ularni to'ldirishga ajratilgan xarajatlar hamdir.

Iste'mol qiymati — tovarning insonlarning biron-bir ehtiyojini qondira olishi xususiyatiga uning iste'mol qiymati deyiladi.

Ixtisoslashgan bozorlar tizimi — qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, ish kuchi bozori, yer bozori, ishlab chiqarish vositalari (moddiy resurslar) bozori, moliya (kapital) bozori — bozor infratuzilmalari, shuningdek, xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlaridan iborat bo'ladi. Yuqoridagilar birortasining mavjud bo'lmashligi yoki yetarli rivojlanmasligi bozor munosabatlari samaradorligini pasaytirishga olib keladi.

Ish kuchi bozori — bozor iqtisodiyotida ish kuchi ikki sharoit ta'sirida tovarga aylanadi. Birinchidan, kishi ozod bo'lishi va o'z ish kuchiga mustaqil egalik qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lishi, aks holda unda ish kuchini sotish zaruriyati bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida bundaylar yollanma xodimlar hisoblanadi. Bozorda u o'z ish kuchining egasi, sotuvchi sifatida xaridor bilan qarama-qarshi turadi. Ish kuchi, boshqa tovarlar singari, iste'mol qiymat va qiymatga ega.

Ish kuchining iste'mol qiymati — uning o'z mehnat qobiliyati bilan iste'mol qiymat va qiymatga ega bo'lgan yangi tovar yaratishidir. Boshqa tovarlardan farq qilib ish kuchi iste'mol jarayonida o'z qiymatidan ko'p bo'lgan daromad yaratadi. Bu ortiqcha daromad qo'shilgan qiymatning tarkibidir. Ish kuchining qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyati pirovard natijada tovar bo'lgan ish kuchining iste'mol qiymatidir.

Ish kuchining qiymati — tovar sifatida ish kuchining qiymati, uni takror ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy zaruriy mehnatning miqdori bilan o'lchanadi. Shuning uchun ish kuchining qiymati tirikchilik vositalari fondini tashkil qiladi. Tirikchilik vositalari fondi xodimlar shaxsiy iste'molining moddiy asosi sifatida namoyon bo'ladi va shaxsiy iste'molga kiradigan moddiy ne'mat va xizmatlarning yig'indisini ifodalaydi. Tirikchilik vositalari fondining manbayi va asosiy iqtisodiy shakli mehnat haqi hisoblanadi.

Ishsizlar — bu ish va ish haqiga ega bo'lmagan, o'ziga to'g'ri keladigan ishni izlash maqsadida bandlik xizmatida ro'yxatdan o'tgan, ish izlovchi va topsa darrov joylashadigan mehnatga yaroqli fuqarolardir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 60—«Ishsiz deb e'tirof etish» moddasida shunday yozilgan:

«Ishsizlar — o'n olti yoshdan to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltira-

digan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar mustasno)».

Iqtisodiy xavfsizlik — iqtisodiy xavfsizlik deganda, mamlakatdagi ishlab chiqarishning shunday holatini tushunish kerakki, qaysiki, unda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va iqtisodiyotning mustahkam rivojlanishi tashqi omillarning mavjudligi va harakatiga bog'liq bo'lmagan holda ta'minlanadi.

Joylashtirish va ixtisoslashtirish — joylashtirish alohida turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika mintaqalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo'yicha miqdoriy taqsimlashni bildiradi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish uni ixtisoslashtirish bilan chambarchas bog'langan.

Ixtisoslashtirishni amalga oshirishda mintaq va korxonalarining tabiiy hamda iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish muhimdir. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligi hududlarini yoki alohida korxonalarni ixtisoslashtirish bosh (asosiy) tarmoqni ajratib olish va uning rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Ixtisoslashtirish ishlab chiqarish yo'nalishini xarakterlaydi va hudud yoki xo'jalikning tarmoq strukturasi aniqlaydi.

Jonli mehnat xarajatlari — bevosita qishloq xo'jaligida ishtirok etayotgan xodimlarning ish vaqti.

Kapitallashuv foizi — yerlardan iqtisodiy-xo'jalik maqsadlarida foydalanish orqali olingan foydani normativ qiymatga aylantirish uchun foydalaniladigan ko'rsatkich.

Kapital qo'yilmalar — qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalar deb harakatdagi asosiy vositalarni tiklashga va kengaytirishga yo'naltirilgan pul vositalariga aytiladi. Kapital qo'yilmalar — bu potensial asosiy vositalar bo'lib, ular ma'lum obyektlarni foydalanishga topshirilgandan keyin asosiy vositalarga aylanadi.

Ko'p yillik daraxtzorlar — o'z ichiga bog'larni, mevalarni, uzumzorlarni, sitrus, xurmo va boshqalarni oladi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi — fermer xo'jaligi tashkil etilishi paytida yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasida belgilangan asosiy ixtisoslashuv yo'nalishidan boshqa sohalarda ishlab chiqarishni tashkil etib mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ygan fermer xo'jaliklari hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari — iste'mol qilingan va mahsulotga o'tkazilgan ishlab chiqarish resurslarining jami yig'indisi mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari ikki xil bo'ladi: ijtimoiy xarajatlar va korxonalar xarajatlari. Ijtimoiy xarajatlar — bu jamiyatning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarining jamidir. Ular mahsulot qiymatidan tashkil topadi.

Mahsulot sifati — mahsulot sifati deganda, uni ma'lum bir ehtiyojini qondirish kerakligini zarur qilib qo'ygan, mahsulotdagi xususiyatlar to'plami tushuniladi. Mahsulot sifati muhim iqtisodiy toifalardan biri bo'lib, u ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot iste'molida kishilar o'rtasidagi o'zaro mustahkam munosabatlarni ifodalaydi.

Mehnat — bu insonning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgani holda inson mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi.

Mehnat resurslari — qishloq xo'jaligida mehnat resurslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar to'plamini ifodalaydi. Mehnat resurslariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda band bo'lgan kishilardan tashqari, ma'lum bir sharoitda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qatnashish imkoniyatiga ega bo'lgan kishilar, ya'ni mehnat zaxiralari ham kiradi. Mehnat resurslarining eng harakatchan va bir vaqtning o'zida ijtimoiy faol qismi ish kuchidir. U kishining jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarining yig'indisidir. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar — 16 dan 60 yoshgacha, ayollar — 16 dan 55 yoshgacha, shuningdek, qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Mehnat unumdorligi — qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi, xodimlarning bir birlik vaqtda ma'lum bir miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilgan aniq mehnat qobiliyatini aks ettiruvchi iqtisodiy toifadir. Alohida turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini hisoblash uchun, natural birlikda, ya'ni sentnerda hisoblaniladi. Alohida (dehqonchilik, chorvachilik) tarmoqlarida yoki butun qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini hisoblash uchun, ular turli mahsulot bo'lganligi uchun, qiymat shaklida pulda hisoblaniladi. Bu maqsad uchun joriy yoki xarid, shuningdek, taqqoslama baholardan foydalaniladi.

Moliyaviy investitsiya — qimmat qog'ozlarni sotib olishni, shuningdek, ishlab chiqarishga maqsadli pul qo'yishni ko'zda tutadi.

Mulk — bu ishlab chiqarish vositalarining odamlar tomonidan o'zlashtirib olinishidir. Ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat mulk munosabatlari kompleksining asosini tashkil etadi. Mulk kim tomonida bo'lsa, mahsulotlarni taqsimlash, almashtirish huquqi ham shu tomondan amalga oshiriladi.

Normativ qiymatni aniqlash davri — O'zbekiston Respublikasining butun hududi qamrab olingan holda yagona ko'rsatkichlar bo'yicha yerlarni baholash ishlari o'tkaziladigan davr.

Oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlash — bu davlatning ichki ehtiyojini oziq-ovqatning barcha turlari hamda alohida mahsulot turlari bilan ham ta'minlash, qoplash qobiliyatidir.

Oziq-ovqat mustaqilligi — bu aholini oʻrnatilgan ovqatlanish meʼyorlari boʻyicha oziq-ovqatlar bilan taʼminlash uchun energiya, yer resurslari, qishloq xoʻjaligi mashinalari, moddiy resurslarning strategik zaxiralari mavjudligini taqozo qiladi. Uni amalga oshirish uchun agrosanoat majmuyi aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari turlariga boʻlgan talabini zaruriy miqdorda va assortimentda mustaqil ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va taʼminlashga qodir boʻlishi kerak.

Oziq-ovqat xavfsizligi — mamlakatni mavjud salohiyatlar, resurslar bilan taʼminlash va aholini ichki va tashqi sharoitlarga bogʻliq boʻlmagan holda ilmiy jihatdan asoslangan tibbiy meʼyorlar darajasida oziq-ovqat mahsulotlariga kafolatlash demakdir. Oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash potensial xavfning aniq va istiqboldagi holati, shuningdek, aholini oziq-ovqat tovarlari bilan taʼminlashning samarali tizimini yaratish toʻgʻrisidagi bilimlarni yuzaga keltiradi.

Oziq-ovqat qaramliligi — mamlakatda oziq-ovqat qaramliligi shunday holatda vujudga keladiki, unda jamiyat oʻz oziq-ovqat xavfsizligini oʻzi mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega boʻlmaydi. U qishloq xoʻjaligi, sanoat va transport kabi tarmoqlar majmuyining buzilishiga, shuningdek, zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari importiga mamlakat iqtisodiyotining toʻlovga qobiliyatli emasligiga asosiy sabab boʻladi. Oziq-ovqat qaramliligining paydo boʻlishi uchun asosiy sharoit davlatning xususiy ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlamasligi va oziq-ovqat mahsulotlari importining haddan tashqari koʻpayib ketishi boʻlib hisoblanadi.

Oziqa birligi — yem-xashak ekin maydonlari yoki oziqa ekinlarining oʻz toʻyimliligi jihatidan 1 kg suli doniga teng keladigan unumdorligining oʻlchov birligi.

Pichanzorlar — bu tizimli ravishda pichan oʻrish uchun foydalaniladigan qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlardir. Ularning bir qancha turlari boʻlib, ular tabiiy, sugʻoriladigan, suvsiz vodiydagi oʻtloq, botqoqli, qamish va butalar orasidagi, tosh va doʻngliklardagi, sof, tubdan yaxshilangan.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining asosiy turlari — qishloq xoʻjaligi ekinlarini yetishtirish natijasida olinadigan mahsulot (paxta, bugʻdoy, sholi, sabzavotlar, poliz mahsulotlari, kartoshka, mevalar, uzum, tamaki).

Qishloq xoʻjaligiga taalluqli yerlar — ularga qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga taqdim etilgan va qishloq xoʻjaligini yuritish uchun moʻljallangan barcha maydonlar kiradi; ularning asosini qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar tashkil qiladi.

Qishloq xoʻjaligining tarmoqlar strukturasi — qishloq xoʻjaligi jami yalpi mahsuloti tarkibida alohida tarmoqlar yalpi va tovar mahsulotining salmogʻi bilan xarakterlanadi.

Qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchisi — qishloq xoʻjaligini yuritish uchun belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi yuridik shaxs.

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati — normativ ko'rsatkichlardan foydalangan holda aniqlangan qishloq xo'jaligi ekin maydonlari qiymati.

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari — muntazam ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida yoki chorva uchun tabiiy yem-xashak manbai sifatida foydalaniladigan yerlar, ularning tarkibiga sug'oriladigan va sug'orilmaydigan haydov yerlar, ko'p yillik daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevazorlar, rezavorzorlar va boshqa mevali daraxtlar), bo'z yerlar, pichanzorlar va yaylovlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining sifati — tuprog'ining unumdorligi (bonitet bali), tabiiy yem-xashak ekin maydonlarining (yaylov turlari) sifati holati bo'yicha qishloq xo'jaligi ekin maydonlari xususiyatining integral ifodasi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar — bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun tizimli ravishda foydalaniladigan yerlardir; ular o'z ichiga ekinzorlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlarni oladi.

Qoldiq qiymat — asosiy fondlar qiymatidan eskirgan fondlar qismini chiqarib tashlashdan qolgan qismidir.

Qo'shimcha tarmoq — qo'shimcha tarmoq bosh tarmoqqa nisbatan, yalpi va tovar mahsulot ishlab chiqarishda kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Ularni qo'shib olib borish mehnat, yer va moddiy resurslardan to'liqroq foydalanishni ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan tashqari, o'simlikchilik va chorvachilikka xizmat qiluvchi tarmoqlar — ta'mirlash xizmati, elektr xo'jaligi, avto-transport va boshqalar faoliyat ko'rsatadi.

Real investitsiya — bu kapitalni asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishga, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini qo'shimcha o'stirish maqsadida qo'yishdir. Real investitsiya kapital qo'yilmalar deyiladi.

Rentabellik — rentabellik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini o'zida aks ettiruvchi umumlashgan ko'rsatkich hisoblanadi. U foydalanilgan va iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslari — mehnat, yer, suv, moddiy hamda ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish xarajatlari orqali yetishtirilgan mahsulotdan olingan samaraning miqdor va sifatini, ishlab chiqarishni kengaytirilgan tarzda rivojlantirish imkoniyatini, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy manfaatdorligini aks ettiradi.

Resurslar salohiyati — inson mehnati, yer, suv, mehnat vositasi va mehnat predmeti qishloq xo'jaligida mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi zaruriy sharoit va omillardir, binobarin, uning resurslaridir. Demak, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslari mehnat, yer, suv va moddiy resurslar — qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish jarayonida foydalaniladi va uning salohiyati (potensialini)ni tashkil etadi.

Ro'yxatga olish — ro'yxatga olish, ya'ni yerlarni naturada chegaralari aniqlangandan keyin mulk qilib, egalik qilish uchun, foydalanishga va ijaraga berishni rasmiylashtirish va hujjatlarni berish maxsus organlar qarorlari asosida o'tkaziladi. Yer uchastkalarining huquqiy holatlari haqidagi ma'lumotlar yerning davlat kadastr kitobida aks ettiriladi va yer mulki, yerdan foydalanish va yerni ijaraga berish, yer maydonidan maqsadli foydalanishning obyektlari va subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlardan tashkil topadi.

Samaradorlik — ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samara (natija)ning resurslar (xarajatlar)ga nisbati yoki aksincha usul bilan aniqlanadi. Mehnat unumdorligi yoki mehnat qaytimi ma'lum vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga sarflangan jami mehnat xarajatlarining samaradorligini xarakterlaydi. Yer qaytimi qishloq xo'jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Fond qaytimi qishloq xo'jaligiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalarida mujassamlashgan, buyumlashgan mehnat xarajatlardan qay darajada samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi. Material qaytimi barcha turdagi moddiy resurslardan, shu jumladan buyumlashgan mehnat xarajatlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

*Sug'oriladigan mintaq*a — zarur irrigatsiya-melioratsiya infratuzilmasi bilan ta'minlangan, yerlarning barcha toifalarini qamrab oluvchi hudud.

Tannarx — mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasi.

Tiklanish qiymati — asosiy fondlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar.

Tovar mahsulot — qishloq xo'jaligining tovar mahsuloti deganda, yalpi mahsulotning barcha sotish kanallari orqali, ya'ni davlat, matlubot kooperatsiyasi, qishloq aholisiga, dehqon bozorida, oshxona orqali, bolalar muassasalariga va chet davlatlarga sotadigan qismiga aytiladi. Tovar mahsulotning sotilgan va bu uchun pul olingan qismi sotilgan mahsulot deyiladi. Shuning uchun «Tovar mahsulot» tushunchasi «Sotilgan mahsulot» tushunchasidan kengdir. Agar tovar mahsulotning hammasi sotilsa, u holda ikkalasi teng bo'ladi.

Tuproq bonitirovkasi — bu qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha taqqoslama agrotexnika darajasi va dehqonchilik intensivligida o'tkaziladigan tuproqning unumdorligi bo'yicha, ya'ni tuproqning sifatini va tabiiy ishlab chiqarish unumdorligini 100 ballik shkala bo'yicha qiyosiy baholash. Bonitirovkalashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimiga qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi, shuningdek, tuproqning unga o'zaro bog'langan ancha barqaror xususiyatlari: tuproqning, gumusning fizik tarkibi, pastga singish miqdori, tuproqning kislota bilan ta'minlanishi, yuvilganligi va boshqalar kiradi. Bu ko'rsatkichlar bilan tuproq baholash guruhlarini bo'yicha jami tuproq bali hisoblaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T., «O'zbekiston», 1992.
2. *I.A. Karimov*. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 1993.
3. *I.A. Karimov*. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., «O'zbekiston», 1993.
4. *I.A. Karimov*. Dehqonchilik taraqqiyoti — farovonlik manbayi. T., «O'zbekiston», 1994.
5. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1994.
6. *I.A. Karimov*. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995.
7. *I.A. Karimov*. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., «O'zbekiston», 2005.
8. *A.A. Abdug'aniyev*. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T., O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2004.
9. *Y. Abdullayev*. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T., «Mehnat», 1996.
10. *Y. Abdullayev*. Makroiqtisodiy statistika. T., «Mehnat», 1998.
11. Amaliy iqtisodiyot. T., «Sharq», 1996.
12. Вехи экономической мысли. Под редакцией В.М. Гальперина.
- Т.3. Высшая школа экономики. Санкт-Петербург, 2000.
13. *О.И. Волков*. Экономика предприятий. Учебник. 2-е изд. М., 2001.
14. *David Colman, Trevor Young*. Principles of Agricultural Economics. Markets and prices in less developed countries. Cambridge, United Kingdom: Cambridge University Press, 2002.
15. *Долан, Д. Линдсей*. Рынок: микроэкономическая модель. Санкт-Петербург, 1992.
16. *В.А. Добрынин*. Актуальные проблемы экономики АПК. М., 2001.
17. *Ф. Джуроев*. Развитие каракулеводства в новых условиях хозяйствования. T., «Mehnat», 1991.
18. *О. Zokirov va boshq.* Agroiqtisodiyot. Andijon, 1996.
19. *А.К. Исмоилов*. Проблемы самообеспечения Узбекистана на животноводческой продукции. T., «Mehnat», 1991.

20. *Ф.К. Каюмов.* Эффективность АПК в условиях перехода к рынку. М., ИПО Полиграмм, 1991.
21. *Н.Я. Коваленко.* Экономика сельского хозяйства. Курс лекций. М., 1999.
22. *R. McConnell, Stanley L. Brue.* Microeconomics: Principles, Problems and Policies. — 15th ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill/Irwin, 2002.
23. *И.Я. Петренко, П.И. Чужинов.* Экономика сельскохозяйственного производства. Алма-Ата, «Кайнар», 1992.
24. *Н.А. Попов.* Экономика сельского хозяйства. М., «Дело и Сервис», 2001.
25. *R. Pindyuk, D. Rubinfeld.* Mikroiqtisod. Т., «Sharq», 2002.
26. *В.Ф. Максимова.* Микроэкономика. М., «Соминтэк», 1996.
27. *Roger A. Arnold.* Microeconomics, 6e. Thomson, South-Western, USA, 2004.
28. *О. Sultonov va boshq.* Sug'oriladigan yerlar suv xo'jaligi ekonomikasi. Т., «Mehnat», 1989.
29. *Alixonto'ra Sog'uniy.* Turkiston qayg'usi. Т., «Sharq», 2003.
30. *А. О'лмасов, М. Шарифхо'jayев.* Iqtisodiyot nazariyasi. Т., «Mehnat», 1995.
31. *А. О'лмасов.* Iqtisodiyot asoslari. Т., «Mehnat», 1996.
32. *А. О'лмасов, N. To'xliyev.* Bozor iqtisodiyoti. Т., Qomuslar bosh tahririyati, 1991.
33. *С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи.* Экономика (перевод с английского). М., «Дело», 2001.
34. *С. Фишер.* Экономика. Руководство по изучению учебника. М., «Экономика», 2001.
35. *Д. Н. Хайман.* Современная макроэкономика: анализ и применение. В 2-х томах. М., «Финансы и статистика», 1992.
36. *Ю. Цеддиес, Е. Райш, А.А. Узаров.* Экономика сельскохозяйственных предприятий. М., из-во МСХА, 2000.
37. *К.А. Чориев.* Проблемы аграрного ресурсного потенциала в условиях перехода к рынку. Т., «Фан», 1992.
38. *А. Erkayev, G. Karimova.* Bozor iqtisodiyoti (izohli lug'at). Т., 1997.
39. *А.О. Ismoilov, O. Murtazayev.* Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Т., «Moliya» 2005.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining predmeti, o'rganish ushlari, maqsad va vazifalari	
1.1. Fanning predmeti va vazifalari. O'rganish ushlari	5
1.2. Qishloq xo'jaligi — aholining oziq-ovqat mahsulotlari va iste'mol buyumlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish asosi. Uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	7
2-bob. Qishloq xo'jaligida tovar-pul munosabatlari va bozor	
2.1. Tovar-pul munosabatlari va ularning qishloq xo'jaligida namoyon bo'lishi	17
2.2. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi, uning ishlab chiqarish faoliyatidagi iqtisodiy mustaqilligi	19
2.3. Bozor tushunchasi va uning vazifasi. Bozor infratuzilmasi	21
2.4. Bozorlar tizimi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorlari	24
3-bob. Agrosanoat majmuyi va uning rivojlanishi	
3.1. Agrosanoat majmuyi tushunchasi, uning maqsadi va tarkibi	28
3.2. Agrosanoat majmuyi tarmoqlari o'rtasida ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar	31
3.3. Agrosanoat majmuyining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi	35
3.4. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi	38
4-bob. Qishloq xo'jaligida mulk va xo'jalik yuritish shakllarining samaradorligi	
4.1. Mulk tushunchasi va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli. Mulk shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni	40
4.2. Xo'jalik yuritish shakllari tizimi. Qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi	48
4.3. Xususiy mulkchilikka asoslangan fermer xo'jaliklarini shakllantirishning nazariy asoslari	49
4.4. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda erishilgan yutuqlar. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda fermer xo'jaliklari tajribasi	56
4.5. Dehqon xo'jaliklari — xo'jalik yuritishning oqilona shaklidir	67
4.6. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari va sharoitlari, uning mulki, ishlab chiqarish faoliyati hamda samaradorligi	67

**5-bob. Qishloq xo'jaligida resurslar potensialining shakllanishi.
Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish**

5.1. Resurslar potensialining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibi	76
5.2. Resurslar potensialini hisoblash uslublari, vazifalari, ko'rsatkichlari va ulardan samarali foydalanish omillari	80
5.3. Mehnat tushunchasi va uning roli. Yollanma xodim va mulk egasi mehnati	84
5.4. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari shakllanishi va foydalanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda tarkibi. Ish kuchi bilan ta'minlanish, ish kuchining mavjudligi va harakati ko'rsatkichlari	85
5.5. Ish kuchidan foydalanishning mavsumiyligi, uning ko'rsatkichlari va omillari	91
5.6. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori	93
5.7. Qishloq xo'jaligida bandlik va ishsizlik	96
5.8. Mehnat resurslarini iqtisodiy baholash uslubiyati	100
5.9. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari	104
5.10. Mehnat unumdorligi tushunchasi, ko'rsatkichlari, ularni hisoblash uslublari va oshirish imkoniyatlari	105

6-bob. Qishloq xo'jaligining yer-suv resurslari va ulardan samarali foydalanish

6.1. Yer resurslari qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi. Mamlakat yer resurslarining tarkibi	118
6.2. Mulk munosabatlari tizimida yer resurslari. Yer mulkini ro'yobga chiqarishning iqtisodiy mexanizmi	124
6.3. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligi	149
6.4. Yer resurslaridan samarali foydalanishning omillari va ko'rsatkichlari. Yer monitoringi	155

**7-bob. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari va ulardan
samarali foydalanish**

7.1. Asosiy vositalar: mulk shakllari, klassifikatsiyasi, bahosi va takror ishlab chiqarish	160
7.2. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari, ularning harakati, sifat holati va foydalanish samaradorligining omillari	170
7.3. Aylanma vositalar: doiraviy aylanishi, klassifikatsiyasi va me'yorlashtirish	173
7.4. Moddiy aylanma vositalaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni oshirish omillari	176

8-bob. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi

8.1. Qishloq xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati	179
8.2. Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyati	182
8.3. Ijtimoiy infratuzilma va uning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi roli	184

9-bob. Qishloq xo'jaligida investitsiya va kapital qo'yilmalar, ularning samaradorligini oshirish

9.1. Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning zarurligi, ahamiyati va samaradorligi	188
9.2. Kapital qo'yilmalar tushunchasi, foydalanishning asosiy yo'nalishlari, tarkibi va moliyalashtirish manbalari	194
9.3. Kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari	198
9.4. Yangi mashinalarni iqtisodiy baholash usuli va ko'rsatkichlari	201
9.5. Kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari	202

10-bob. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning umumiy masalalari. Rentabellik va uni oshirish imkoniyatlari

10.1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi, uning ko'rsatkichlari va mezoni	204
10.2. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari	211
10.3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari	214
10.4. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari	218
10.5. Rentabellikni oshirish omillari va imkoniyatlardan oqilona foydalanish	229

11-bob. Qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish

11.1. Yalpi mahsulot tushunchasi, uning tarkibi, hisoblash va baholash. Yalpi mahsulotni takror ishlab chiqarish turlari va omillari	231
11.2. Yalpi mahsulotning taqsimlanishi	238
11.3. Tovar mahsulot tushunchasi, tovarlilik darajasi va uni oshirish imkoniyatlari	241
11.4. Tovar mahsulotning sifati, uni yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari	243

12-bob. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning samaradorligini oshirish

12.1. Ishlab chiqarishni ekstensiv va intensiv rivojlantirishning mohiyati	249
12.2. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy omillari	251
12.3. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning ko'rsatkichlari	253
12.4. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi	255
12.5. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning samaradorligini oshirish	257

13-bob. Qishloq xo'jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish, yiriklashtirish va integratsiyalashning samaradorligini oshirish

13.1. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari tarkibi. Tarmoqlarni oqilona qo'shib olib borish tamoyillari	260
13.2. Joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchasi, ularning ilmiy asoslari	262
13.3. Ixtisoslashtirishning shakllari, ko'rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari	263

14-bob. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ish, xizmatlar) tannarxi va uni pasaytirish imkoniyatlari

14.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va mahsulot tannarxi. Tannarxning turlari	266
14.2. Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tashkil topishi hamda guruhlanishi	269
14.3. Mahsulot tannarxini hisoblashning uslubiy asoslari va xususiyatlari	273
14.4. Mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari	276

15-bob. Qishloq xo'jaligida baholarning shakllanishi va baholar tizimini takomillashtirish

15.1. Bahoning iqtisodiy mohiyati va vazifalari	278
15.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining baholar tizimi	279
15.3. Bozor sharoitida baholar shakllanishini takomillashtirish	286

16-bob. O'simlikchilik tarmoqlari samaradorligini oshirishning umumiy muammolari

16.1. Tarmoqlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari	289
16.2. O'simlikchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	290
16.3. O'simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini o'rganish xususiyatlari	290

17-bob. G'allachilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

17.1. G'allachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	295
17.2. G'allachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqbollari	296
17.3. G'allachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	304

18-bob. Paxtachilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

18.1. Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	309
18.2. Paxtachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	310
18.3. Paxtachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	319

19-bob. Kartoshkachilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

19.1. Kartoshkachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	323
19.2. Kartoshkachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	324
19.3. Kartoshkachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	326

20-bob. Sabzavotchilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

20.1. Sabzavotchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	328
20.2. Sabzavotchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	330
20.3. Sabzavotchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	331

21-bob. Bog'dorchilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

21.1. Bog'dorchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	334
21.2. Bog'dorchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	335
21.3. Bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	337

22-bob. Uzumchilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

22.1. Uzumchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	339
22.2. Uzumchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	340
22.3. Uzumchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	342

23-bob. Oziqabop ekinlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari

23.1. Chorvachilik oziqa resurslarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati	344
23.2. Oziqa resurslarini ko'paytirish, uning hozirgi holati va istiqboli	346
23.3. Oziqa bazasi tushunchasi va oziqa ekinlarining iqtisodiy bahosi	347
23.4. Oziqa resurslarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	350

24-bob. Chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirishning umumiy masalalari

24.1. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	352
24.2. Chorvachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	354
24.3. Chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	359

25-bob. Qoramolchilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

25.1. Qoramolchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	361
25.2. Qoramolchilikning intensiv rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	362
25.3. Qoramolchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	365

26-bob. Qo'ychilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

26.1. Qo'ychilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	367
26.2. Qo'ychilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	368
26.3. Qo'ychilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	375

27-bob. Parrandachilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

27.1. Parrandachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	377
27.2. Parrandachilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	378
27.3. Parrandachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	380

28-bob. Pillachilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

28.1. Pillachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	382
28.2. Pillachilik rivojlanishining hozirgi holati va istiqboli	383
28.3. Pillachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	384

29-bob. Baliqchilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

29.1. Baliqchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	386
29.2. Baliqchilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	387
29.3. Baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	389

30-bob. Asalarichilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari

30.1. Asalarichilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	392
30.2. Asalarichilikning rivojlanishi, hozirgi holati va istiqboli	393
30.3. Asalarichilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	395
Ayrim atamalarning ta'rifi va lug'aviy ma'nosi	397
Foydalaniladigan adabiyotlar	408

Q-51 **JAMOA. QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI**
(Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan
qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan). T., «ILM ZIYO»,
2017. — 416 bet.

UO'K: 63 : 338 (075.8)
KBK 65.32 (5 O')

ISBN 978-9943-16-402-4

OLIM MURTAZAYEV, FARHOD BAHRIDDINOVICH AHROROV

QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI

*Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qishloq xo'jaligi
oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2017

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *D. Hamidullayev*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhh *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-y.

2017-yil 2-fevralda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90^{1/16},
«Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 26,0.
Nashr tabog'i 24,5. 400 nusxa. Buyurtma № 1

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma 11 — 2016.

«PAPER MAX» xususiy korxonasi chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

50000



Olim MURTAZAYEV — iqtisod fanlari doktori, professor, Samarqand qishloq xo'jaligi instituti «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruv» kafedrasini mudiri, Xalqaro Antik dunyo ilmiy akademiyasi akademigi va sovrindori. Uning 270 ilmiy va uslubiy ishlari e'lon qilingan bo'lib, shulardan 2 darslik, 4 monografiya, 8 o'quv qo'llanma, 8 uslubiy qo'llanma va 87 ilmiy maqola, shundan 8 tasi xorij nashrlarda. Turli loyihalar doirasida

Rossiya, AQSH, Germaniya, Gollandiya, Isroil va Qozog'istonda malaka oshirgan.

O. Murtazayev bakalavr va magistrlik uchun o'quv rejalarini takomillashtirish borasida Yevropa Ittifoqining «TEMPUS» va «ERASMUS PLYUS» dasturlari doirasida SAMUZ (O'zbekistonda barqaror fermer xo'jaligini boshqarishni o'qitish) va IQAT (Sifat tipologiya bilan ta'minlash institutsional tizimni amalga oshirish maqsadida salohiyatni Bolonya jarayoni asoslaridan foydalangan holda takomillashtirish) loyihalari, Germaniyaning Folksvagen fondining «AGRICCHANGE — Markaziy Osiyoning sug'oriladigan yerlarida yer va mehnat unumdorligini yaxshilashni rag'batlantirish» ilmiy-tadqiqot loyihalari ishtirokchisi hisoblanadi.



Farhod Bahridinovich AHROROV — Samarqand qishloq xo'jaligi institutining «Qishloq xo'jaligi menejmenti» fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

F.B. Ahrorov 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 o'quv qo'llanma, 2 monografiya muallifi, 12 xorijiy to'plam va ilmiy jurnallarda maqolalari chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi

vazirligi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazining bir qancha loyihalarida ishtirok etib, «Samarqand viloyati qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda tabiiy resurslar potensialini iqtisodiy-ekologik baholash» mavzusidagi amaliy loyihaning rahbari sifatida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Gollandiya, Rossiya, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Polshadagi oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirgan. Belgiyaning Brussel universitetida 2008—2009-yillarda doktorlikdan keyingi ta'lim kursini o'tagan.

«ILM ZIYO»

